

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

2-maxsus son
(5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/2 (5) - 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxonovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro‘yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Vaxidov Suxrobjon</i> O'ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA ZIYORATGOHLARNING ROLI	10-14
<i>Mamatqulov Bekzod, Negmatova Dilafro'z</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FARMATSEVTIKA SANOATINING RIVOJLANISHI: TARIXIY TAHLIL VA NATIJALAR (1991-2024 YILLAR)	15-20
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i> FARG'ONA VODIYSINING O'RTA ASRLAR DAVRI KULOLCHILIK HUNARMANDCHILIGI TARIXIDAN	21-25
<i>Raxmatov Ramshod Raximovich</i> XX ASRNING BOSHLARIDA BUXORO VA TURKISTON IJTIMOYIY-IQTISODIY HAYOTIDA AFG'ONISTON OMILI	26-30
<i>Abduraxmonov Adxamjon Soxodilla o'g'li</i> SOVETLAR DAVRIDA FARG'ONA VODIYSI SHAHARLARIDA MADANIY HAYOT (Z. M. BOBUR NOMLI ISTIROHAT BOG'I MISOLIDA)	31-37
<i>Ergashev Ahmad Abdug'offorovich</i> PAXTAKOR-79 FOJIASI: O'ZBEK FUTBOLINING SSSR OLIY LIGASIDAGI RIVOJLANISH TRAYEKTORIYASIGA TA'SIRI (1979-1991)	38-44
<i>Ergashev Umar Kuziyevich</i> O'ZBEKLARNING "QOVCHIN" URUG'IGA DOIR MULOHAZALAR (QASHQADARYO VOHASI).....	45-49
<i>Bebitov Maqsud, Jo'raqulova Mukambar</i> JALOLIDDIN RUMIY: TURKISTON VA ANADOLU O'RTASIDAGI MA'NAVIY KO'PRIK	50-57

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Isayev Kobiljon Abdukodirovich</i> SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY INKLYUZIYA FAOLIYATINING IJTIMOIY-IQTISODIY SAMARADORLIGINI ANIQLASH USULLARI	58-69
<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич</i> ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО УЗБЕКИСТАНА И РОССИИ: СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ	70-78
<i>Zokirjonov Muhammadsodiq, Mirzayeva Fotima</i> KAPITAL AKTIVNI VAHOLASH MODELI (CAPM)NING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARINI RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI	79-91
<i>Исламтудинова Дина Файзрахмановна</i> СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО – ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА В ОТРАСЛИ КОНЕВОДСТВА	92-98
<i>Jumayeva Guzal, Jumadullayeva Durdona</i> JAHONDA KORPORATIV BOSHQARUV TENDENSIYALARI VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI	99-105

<i>Rustamov Jamshed Boturjonovich</i> BIZNES-TA'LIMI XIZMATLARINI KO'RSATUVCHILARNING MARKETING FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	106-110
--	---------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Xolmirzaev Nodirjon Nizomjonovich</i> SHAHARSOZLIKDA ZAMONAVIYLIK VA MILLIYLIK MASALASI	111-114
<i>Mamanov Jamoliddin Abduraximovich</i> YOSHLARDA MILLIY IDENTIKLIKNI SAQLASHNING OMILLARI	115-123
<i>Eshpulatov Inoyat Saparovich</i> FAXRIDDIN ROZIYNING INSON FALSAFASI	124-128
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTERNING DEISTIK MATERIALIZMI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	129-133
<i>Rustamaliyev Mirjalol Hayrullo o'g'li</i> BARQAROR RIVOJLANISHDA DAVLAT BOSHQARUVINING AXLOQIY VA FALSAFIY MUAMMOLARI	134-138
<i>Abdumalikov Abdulatif, Juraboyeva Dilmura</i> YANGI O'ZBEKISTONDA JAMIYAT, INSON VA TABIAT MUNOSABATLARINING UYG'UNLIGI	139-143

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Axmedov Oybek Saporbayevich</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI SOLIQ-BOSHXONA TERMINLARINING TARJIMA QILISH XUSUSIYATLARI	144-152
<i>Алиева Эльвина, Расулова Дильбар</i> ТИПОЛОГИЯ КОНВЕРГЕНЦИИ В ЛИНГВИСТИКЕ	153-158
<i>Mirzayeva Kamola</i> “DEVONU LUG'ATIT TURK” ASARIDA KIYIM-KECHAK NOMLARI	159-164
<i>Abdullayev Akmal Amirovich</i> TOSHKENT VILOYATI ETNOTOPONIMLARINING SHAKLLANISHIDA ETNIK GURUHLAR MIGRATSIYASINING TA'SIRI	165-169
<i>Sayfullayeva Dilnoza Dilshod qizi</i> XUDOYBERDI TO'XTABOYEVNING “BESH BOLALI YIGITCHA” ROMANIDA MUALLIF BIOGRAFIYASI IFODASI	170-174
<i>Rahmonova Surayyo Ne'matovna</i> MERONIMLARNING GRAMMATIK VA STRUKTURAVIY XUSUSIYATLARI	175-179
<i>Чернова Наталья Васильевна</i> ОЦЕНКА И ДИАГНОСТИКА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ НЕЯЗЫКОВЫХ ВУЗОВ	180-184
<i>Abdusalomova Aziza Homidovna</i> SA'DIY SHEROZIY SHE'RIYATINING ANGLIYADAGI TARJIMALARIDA POETIK SHAKLNING USTUVORLIGI	185-192

<i>Morozova Anastasiya Vladimirovna</i> SEMANTIC AND PRAGMATIC ANALYSIS IN THE NAMES OF DINING ESTABLISHMENTS	193-196
<i>Murotaliyeva Maftuna Shukurullo qizi</i> P.D.JEYMSNING DETEKTIV ASARLARIDA INTERTEKSTUALLIK	197-200
<i>Ismatova Shaxnoza Axror qizi</i> DAVLAT RAHBARLARINING BAYRAM TABRIKLARI: LINGVISTIK, STILISTIK VA PRAGMATIK TAHLIL	201-205

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Qayumov Zoir Ergashevich</i> O‘ZBEKISTONDA YURIDIK JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH INSTITUTI RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	206-210
<i>Tajaliyev Ilyosbek</i> PIROTEKNIKA BUYUMLARINING QONUNGA XILOF MUOMALASINING UMUMIY TAVSIFI VA TURLARI	211-215
<i>Sanayev Botir</i> SUN‘IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHDA YETKAZILGAN ZARAR UCHUN YURIDIK JAVOBGARLIK MUAMMOLARI	216-221
<i>Alisherova Nozima Nizamidin qizi</i> PORA OLIH JINOYATLARINI KVALIFIKATSIYA QILISH MASALALARI	222-230
<i>Avezov Dilshod Sadulayevich</i> SPECIFIC FEATURES OF EARLY TERMINATION OF LOCAL DEPUTY POWERS ON OBJECTIVE GROUNDS	231-234
<i>Mirzayev G‘olibjon Halimovich</i> PROKURATURA ORGANLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH TUSHUNCHASI, AHAMIYATI VA ZARURATI	235-242

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Zubaydullayev O‘ktam Raim o‘g‘li</i> BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI ART–PEDAGOGIKASI ASOSIDA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA ZAMONAVIY TA‘LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI	243-248
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i> JISMONIY TARBIYA MASHG‘ULOTLARI JARAYONIDA YUQORI SINF O‘QUVCHILARINING IRODAVIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH.....	249-255
<i>Egamberdiyeva Zarina Oltiboyeva</i> GEOAXBOROT TEXNOLOGIYALAR FANINI O‘QITISHDA GAMIFIKATSIYA METODIKASINI QO‘LLAB TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	256-260
<i>Abdiyev Jahongir Ruzibayevich,</i> INTELLEKTUAL QOBILIYATLARNI INOBATGA OLGAN HOLDA TALABALARNING ILMIY TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	261-265
<i>Alimkulov Jamshid</i> BO‘LAJAK GEOGRAFIYA O‘QITUVCHILARINING LOYIHALASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI	266-272

Kurbanov Olim Esirgapovich

TARIX FANI MUTAXASSISLIGI MAGISTRATURA TALABALARINING TADQIQOT

KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH: TARIX VA ZAMONAVIYLIK 273-277

07.00.00-TARIX FANLARI – HISTORICAL SCIENCES

Received: 10 March 2025

Accepted: 15 March 2025

Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

THE ROLE OF PILGRIMAGE SITES IN THE DEVELOPMENT OF PILGRIMAGE TOURISM IN UZBEKISTAN

Vakhidov Sukhrobjon

PhD student at the Scientific Research Institute for Tourism Development

E-mail: vaxidovsuxrobjon@gmail.com

Abstract. This article comprehensively examines the role of pilgrimage sites in the development of pilgrimage tourism in Uzbekistan and highlights the opportunities created in the country. In addition to studying pilgrimage sites, it analyzes the definitions of concepts such as religious tourism, pilgrimage tourism, and Islamic tourism provided by various authors. The achievements in developing pilgrimage tourism in Uzbekistan are assessed through the study of pilgrimage sites, and the challenges that need to be addressed are also discussed.

Keywords: Pilgrimage site, Quran, UNESCO, Sufi Allohoyor, Tarikhi Mullazoda, Samarkand, Fergana Valley, sacred places, pilgrimage tourism, pilgrim, tourism opportunities, architectural structures, mausoleum, cemetery.

O'ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA ZIYORATGOHLARNING ROLI

Vaxidov Suxrobjon

Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda ziyorat turizmi rivojlanishida ziyoratgohlarning o'rni va mamlakatimizdagi yaratilgan imkoniyatlar to'liq ko'rsatib berilgan. Shuningdek, ziyoratgohlarni o'rganish bilan bir qatorda turli mualliflar tomonidan diniy turizm, ziyorat turizmi, islom turizmi kabi tushunchalarga berilgan ta'riflar tahlil etilgan. O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishdagi yutuqlar ziyoratgohlarni o'rganishda tahlil etilgan hamda hal etilishi kerak bo'lgan vazifalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ziyoratgoh, Qur'oni karim, YUNESKO, So'fi Ollohoyor, Tarixi Mullazoda, Samarqand, Farg'ona vodiysi, muqaddas qadamjolar, ziyorat turizmi, ziyoratchi, turistik imkoniyatlar, me'moriy inshootlar, maqbara, qabriston.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N01>

Kirish. Mamlakatimizda qabul qilingan "2019 – 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi"da 2019 – 2025-yillarda turizm sohasini rivojlantirishda turizmni milliy iqtisodiyotning strategik sohasiga aylantirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiyalash va sifatini oshirish hamda turistik infratuzilmani, shu jumladan, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish va samarali reklama marketing ishlarini olib borish evaziga takomillashtirish orqali erishish vazifasi qo'yildi. O'zbekiston ziyorat turizmi uchun qulay manzil hisoblanadi. Islom olamida mashhur ko'plab ulamolar yurtimizda yashab ijod qilgan. Shu bilan birga, mamlakatimizda boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchilar uchun ham aziz bo'lgan tarixiy qadamjolar bor. Islom dunyosining eng qimmatbaho Qur'oni karim namunalaridan biri – Xalifa Usmon Qur'on kitobi saqlanuvchi Hazrati Imom majmuasi, buyuk

islom imomi Mahammad Al-Buxoriy maqbarasi, Naqshbandiya tariqati izdoshlari maqbaralari va shu kabi ko'plab boshqa diniy markazlar mavjud. Bunday tarixiy va muqaddas qadamjolarga ziyorat va sayohat qilish uchun har yili dunyoning turli burchaklaridan minglab sayyohlar O'zbekistonga tashrif buyuradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Islom ensiklopediyasida ziyorat so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi: ziyorat (arab tilida – biror yerga yoki shaxs huzuriga borish) – muqaddas joylarga, mozor va qabristonlarga borib, muayyan rasm-rusumlarni bajarib kelishni anglatadi. Shuni ta'kidlash joizki, zamonaviy turizmning yo'nalishlari xilma-xildir. Oxirgi yillarda bunday yo'nalishlar qatorida tez-tez zikr qilinayotgan diniy mohiyatli muqaddas joylarni ziyorat qilish bilan bog'liq diniy ma'naviy mohiyatli ma'rifiy sayohatlar yoki ziyorat turizmi, aslida, sayohat industriyasining eng qadimiy ko'rinishi ekaniga da'vogarlik qilishga haqlidir. Shuning uchun ham odamlar nafaqat o'zining qadamjolar va ziyoratgohlarni shaxsan ko'rishga barcha davrlarda katta ishtiyoq bilan intilib kelgan. Aytish mumkinki, bunday sayohatlar ko'pchilik uchun ma'naviy kamolot yo'li vazifasini bajaradi. Musulmonlar hayotida esa, ushbu hodisa hamisha alohida o'rin egallab kelgan. Buning negizida islomning beshta arkonidan biri sifatida haj belgilanganini zikr etish mantiqiydir. Aynan shuning uchun ham Makka va Madina, nafaqat haj va umra ibodati ado etiladigan muqaddas maskan ekanidan tashqari, balki islom dini kesimidagi diniy turizmning va muqaddas qadamjolarini ziyorat qilish asosiy manzillariga aylangani ayni haqiqatdir.

Markaziy Osiyo, jumladan, hozirgi O'zbekiston hududida ziyoratgohlar va “muqaddas” deb atalgan qadamjolarining xarakteristikasidan kelib chiqib, olimlar tomonidan turlicha klassifikatsiya beriladi. Ular o'z ichiga mozorlar, ya'ni musulmon qabrlari, “aziz” joy, ziyorat va boshqa atamalarni birlashtiradi. Masalan, M.Tastanbekov tadqiqotida, Markaziy Osiyo aholisi hayotida qadamjolar sifatida qabrlarni “muqaddas” yoki aziz hamda oddiy qabriston sifatida ajratadilar [3].

“Tarixi Mullozoda” muallifi asar muqaddimasining boshqa bir o'rnida o'tganlarning qabrlarini ziyorat qilishning fazilatlarini to'g'risida so'z yuritish asnosida o'zining xojagon-naqshbandiya tariqati yirik namoyandasi va piri Xoja Muhammad Porsoning (749/1348–822/1420) muridini bo'lganligiga quyidagicha ishora qilib o'tadi: “Biroq kashf va a'yon ahlidan bo'lgan ayrim kishilarning aytishlaricha, kimki biror ulug' kishini ziyorat qilish maqsadida biror qabrning oldiga borsa va o'sha ulug' kishi o'sha yerda dafn etilgan deb ishonsa, garchi haqiqatda bu o'sha ulug' kishining qabri bo'lmasa-da, o'sha ulug' kishining fayzi va barakatidan to'la-to'kis va biror-bir kamchiliksiz bahramand bo'ladi. Chunki ruhlar olamidagi [masofaviy] yaqinlik va uzoqlik bir xildir. Oliy hazrat, zamona qutbi, imon ahlining panohi, ilm va irfon osmonining quyoshi, Alloh azza va jalla ahlidan bo'lgan komil insonlar orasidan tanlangani, valiylikka tayanguvchi pokiza janob, ulug'imiz bo'lmish mavlono, bizning xojamiz, ya'ni Xoja Porso Muhammad ibn Muhammad al-Hofiziy al-Buxoriy (Alloh taolo uning xokini pok, qabrini o'z fazli bilan yorug' va bizlar uchun muqaddas qilsin) ham ana shu gaplarni to'g'ri deb topgandilar” [4].

Muhokama va natijalar. Barchangizga yaxshi ma'lumki, Surxon – ko'hna sivilizatsiyalar, boy tarix va madaniyatni mujassam etgan qadimiy zamin. Tarixda Boxtar, Toxariston, Chag'oniyon kabi davlatlar, Kushondek buyuk imperiyalar aynan shu hududda gullab-yashnagan. Fayoztepa, Qoratepa, Dalvarzintepa, Xolchayon kabi arxeologik manzilgohlar bu zamin buddizm markazi sifatida shuhrat qozonganidan dalolat beradi. Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Tailand, Laos kabi mamlakatlarda buddizmga e'tiqod

qiladigan millionlab odamlar uchun bunday yodgorliklar hali ochilmagan qo'riq bo'lib turibdi. Shuning uchun ana shu manzilgohlar bo'ylab infratuzilmalar yaratish, turistik marshrutlar tashkil etish borasidagi ishlarimizni davom ettiramiz. Surxon vohasi muqaddas dinimiz rivojiga beqiyos hissa qo'shgan tabarruk zamin ekanini barchamiz iftixor bilan tilga olamiz. Bu diyordan yetishib chiqqan, shu zaminda yashab ijod qilgan Iso Termiziy, Hakim Termiziy, Varroq Termiziy, Sobir Termiziy, Alouddin Attor, So'fi Olloyor singari buyuk va mashhur olim-u ulamolar, shoir va adiblarning har biri haqida soatlab gapirish mumkin. Albatta, ana shunday ajdodlarimiz xotirasiga yuksak ehtirom ko'rsatish bo'yicha keyingi yillarda sizlar bilan birga katta ishlarni amalga oshirdik. Jumladan, Imom Termiziy va Hakim Termiziy ziyoratgohlari yangitdan qurildi va obod qilindi, Termizda Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etib, faoliyatini yo'lga qo'ydik. Oltinsoy tumanida mashhur shoir va ulamo So'fi Olloyor maqbarasi hashar yo'li bilan qisman obod qilingan. Endi bu maskanni yanada obod qilish, unga olib boradigan yo'l va kommunikatsiyalar, ziyoratchilar uchun qulayliklar yaratish – oldimizda turgan muhim vazifalardan biridir. Yana bir tabarruk maskan – Sulton Saodat majmuasida qancha sayyid va sayyidzodalar, aziz avliyo zotlar dafn etilganini sizlar yaxshi bilasiz. Bu muborak qadamjoni tubdan obod etishni boshlaganimizdan xabaringiz bor. Nasib etsa, ana shu qutlug' maskanlar yurtdoshlarimiz, chet ellik mehmonlar uchun ziyoratgohga aylanadi [5].

Samarqand viloyatida shuningdek, turizmning alohida turlarini rivojlan- tirishga alohida e'tibor berilmoqda. Tarixiy madaniy, eko va agroturizm, gastronomik, ekstremal va boshqa turlar shular jumlasidan. Xususan, ziyorat (diniy) turizmi o'zgacha o'rin egallaydi. Shahardagi Shohi-Zinda majmuasi, Ruhobod maqbarasi, Hazrati Xizr, Xo'ja Ahror Valiy, Xo'ja Abdu Darun, Xo'ja Abdi Berun, Shayx Xudoydod Valiy masjidlari, Xoja Doniyor maqbarasi, Chorchinor, hazrati Dovud, Mahdumi A'zam ziyoratgohlari ziyorat turizmining eng noyob obyektlaridir. Samarqandning Imom al-Buxoriy va Shohi Zinda yodgorlik majmualari ziyoratchilar eng ko'p tashrif buyuruvchi qadamjolar hisoblanadi. Har yili ushbu ziyoratgohlarga 1 mln 200 mingdan ziyod sayyoh tashrif buyuradi.

Samarqand shahridan 80 km uzoqlikda joylashgan Shahrisabz forschadan tarjima qilinganda "Yashil shahar" ma'nosini anglatib, O'zbekistonning eng qadimgi shaharlaridan biri hisoblanadi. Shahrisabz Amir Temurning ona vatani sifatida ma'lum va mashhurdir. Shahrisabzning tarixiy markazi YUNESKO butun jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Bu yerda Oqsaroy vayronalari, Dor-ut Tilovat yodgorlik majmuasi, Ko'kgumbaz masjidi, Dor-us Saodat, Shamsiddin Kulol, Gumbazi Sayyidon maqbaralari bor [2].

Farg'ona vodiysining janubi-g'arbida joylashgan Qo'qon shahri O'zbekistonning ulkan madaniy va tarixiy ahamiyatga ega taniqli shaharlaridan biri hisoblanadi. Uning atrofida 35 ta madrasa va 300 ga yaqin masjid mavjud edi. Bugungi kunda Qo'qon ikki qismdan: eski va yangi shahardan iborat. Eski shahardagi Norbo'tabiy madrasasi, Jome masjidi va minorasi, Dahmai Shohon maqbarasi, Kamol Qozi madrasasi, Modarixon ayollar qabristoni, Xudoyorxon saroyi o'zining jozibas va takrorlanmasligi bilan kishini lol qoldiradi. Islomning eng qadimiy yodgorliklaridan biri bo'lgan Xalifa Usmonning Qur'oni Karimi Toshkentda Hazrati Imom diniy markazida saqlanib kelinmoqda. Shahi Zindadagi mashhur maqbara Samarqandda joylashgan bo'lib, u yerda Muhammad (s.a.v.) payg'ambarning amakisi – Qusam ibn Abbos dafn etilgan. Mir Arab madrasasi – Poi-Kalon me'moriy ansamblining ajralmas qismi bo'lib, madrasaning o'zi, Kalon masjidi va Kalon minorasini o'z ichiga oladi. Qadimiy obidalar, muqaddas ziyoratgohlar, tarixiy va madaniy yodgorliklar bilan bir qatorda, betakror madaniyati va an'analari,

xushmanzara tabiati hamda fayzli go'shalari bilan sayyohlarni o'ziga rom etib kelayotgan O'zbekistonda ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar ziyorat turizmi industriyasi hamda infratuzilmasini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buni Jahon sayohat va turizm kengashi (WTTC) tomonidan "Sayohat va sayyohlik sanoatining iqtisodiy natijalari" bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarda O'zbekiston sayyohlik sohasi jadal taraqqiy topayotgan besh davlatning biri sifatida qayd etilgani misolida yaqqol ko'rish mumkin [2].

Shuni ta'kidlash kerakki, mamlakatimizda ziyorat turizmining sanab o'tilgan barcha yo'nalishlarini rivojlantirish uchun imkoniyat mavjud. Tarixiy va muqaddas qadamjolariga ziyorat va sayohat qilish uchun har yili dunyoning turli burchaklaridan minglab sayyohlar O'zbekistonga tashrif buyuradi. O'zbekistonning ziyorat turizmi yo'nalishidagi jozibasini oshirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Prezidentning 5611-sonli farmoniga ko'ra, 2017-yilning 5-yanvar kunidan O'zbekistonning madaniy-tarixiy va diniy-ma'naviy merosi va an'alarini o'rganish uchun tashrif buyuruvchi xorij fuqarolariga 2 oygacha bo'lgan muddat bilan beriluvchi Pilgrim visa joriy etildi. O'zbekistonning jahon hamjamiyatida ziyorat turizmi markazlaridan biri sifatida e'tirof etilishi umumiy ma'noda mamlakatda sayyohlik infratuzilmasini rivojlantirish va turistlar oqimini sezilarli darajada oshirishga turtki beradi. Ziyorat turizmi uchun diniy qadamjolarining o'zi yetarli emas. Sayyohlarni jalb qilish uchun targ'ibot ishlari yaxshi yo'lga qo'yilishi, qulay viza tartibi, aeroport, mehmonxonalarda ibodat amallarini bajarish uchun shart-sharoit bo'lishi kerak. Shu bilan birga ziyorat turizmi obyektlari bo'yicha ma'lumotlar paketi shakllanmaganligi, turistlarning kelayotgan mamlakati, madaniyati, urf-odatlarini, diniy qadriyatlarini kabilarini e'tiborga olingan holda tur paketlar tasniflanmaganligi, turistlarga yordamchi bo'ladigan obyektlar xaritalarini tayyorlanmaganligi, ziyorat turizmi infrastrukturasi yetarli darajada shakllanmaganligini va ziyorat turizmini tashkil etishda innovatsion omillardan foydalanish mexanizmi ilmiy asoslanmaganligini ta'kidlash zarur. Ziyorat turizmini rivojlantirish uchun zarur infratuzilma obyektlari – mehmonxonalar tizimini rivojlantirish, mehmonxonalar, aeroport va vokzallarda mehmonlarni kutish zallarining ziyorat turizmi standartlariga javob berishi masalalarini hal etish muhimdir.

2018-2019-yillarda mamlakatimizda bu borada qator ishlar amalga oshirildi. Natijada, yurtimizga tashrif buyurayotgan xorijiy sayyohlar soni oshdi. Ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yilda mamlakatimizga kelgan xorijlik mehmonlar 6,7 million nafarni tashkil etgan. Bu 2018-yilning shu davri bilan taqqoslaganda 126,2 foizni tashkil etgan. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 3-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, Indoneziya, Malayziya, Singapur, Turkiya, Janubiy Koreya, Yaponiya va Isroil davlatlari fuqarolari uchun vizasiz rejim va 39 mamlakatdan keladigan sayyohlarga soddalashtirilgan viza tartibi joriy qilindi [5].

Bugungi kunda, O'zbekistonda 86 mamlakat fuqarolariga kirish vizalarining soddalashtirilgan tartibi joriy qilingan. Halol sayohat bo'yicha — Crescent Rating tashkiloti tomonidan 2017-yilda tuzilgan reytingda O'zbekiston 28-pog'onani egallagan edi. Reytingda mamlakatimiz — xavfsiz sayohat (100 dan 84 ball), ibodatxonaga kirish erkinligi (80), ovqatlanish imkoniyatlari va kafolatlari (70) yo'nalishlarida yuqori baholangan. Ammo viza (50), aeroport imkoniyatlari (48,3), oilaviy ta'til (44,4), yashash sharoitlari (33,2), musulmonlar uchun imkoniyatlar (25), sayyohlarning kelishi (21,2), kommunikatsiya

imkoniyatlari (19) yo'nalishlarida esa o'rta va quyi pog'onalarni egalladi. 2018-yilda reytingda quyi darajada baholangan, kam rivojlangan yo'nalishlarni yaxshilashga e'tibor qaratildi. Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi – Crescent Rating tashkiloti bilan hamkorlikda mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqdi. Ushbu tavsiyalar asosida xalqaro aeroportlarda ibodat amallarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratildi. Malayziyaning MS 2610: 2015-yilda Muslim friendly hospitality services requirements standarti bo'yicha mamlakatimizda – O'zDSt:2018 Turizm xizmatlari, musulmon mehmondo'stligi, talablar standarti loyihasi ishlab chiqildi. Ziyorat turizmi sohasidagi eng muhim voqealardan biri yurtimizda ilk bor — halol standarti joriy etildi. 2019-yilda O'zbekistonning xalqaro ziyorat turizmi reytingi "Global Muslim Travel Index" dagi mavqeyi 10 ta punktga ko'tarilib, mamlakatimiz 22 o'rinni egalladi. Shuningdek, mamlakatimiz Turizm xavfsizligi darajasi va bag'rikenglik ko'rsatkichi bo'yicha Islom Hamkorlik Tashkilotiga a'zo mamlakatlari o'rtasida birinchi o'ntalikka kirdi [1].

Xulosa. Xulosa o'rni shuni aytish kerakki, O'zbekiston Respublikasi islom olamida o'z tarixi, madaniyati, muqaddas qadamjolari bilan yuqori mavqega ega. Shuningdek, musulmon turizm bozori yildan yilga kengayib bormoqda va umumiy turizmning muhim segmentiga aylanmoqda. Shuning uchun yurtimizdagi barcha muqaddas qadamjolarini tarixini o'rganish ularni asrab-avaylash va ziyorat turizmi infratuzilmasini rivojlantirish, potensial ziyoratchilar haqida ma'lumotlar bazasini shakllantirish hamda ziyoratchilar uchun qulay va zamonaviy sharoitlarni yaratish lozim.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh. M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlar uchun [Matn] – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – B. 200-201.
2. Islom tafakkuri ilmiy-ma'rifiy, diniy-madaniy, axborot nashri O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyot-matbaa birlashmasi – Toshkent, 2021.
3. Tarixi Mullozoda dar zikri mazoroti Buxoro. – Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti, 2019. – B. 13.
4. Tastanbekov M.M., Dinasheva L.S., Orazkhan N.O., Ospanova A. Pilgrimage Of Turkestan Muslims After joining To Russia // 2nd Cyprus International Conference on Educational Research, (CY-ICER 2013). Procedia - Social and Behavioral Sciences 89. – 2013. – Pp. 667-675.
5. <http://uzbekistan-geneva.ch/ziyorat-turizmi-jadal-rivojlanadi.html>

Received: 10 March 2025
Accepted: 15 March 2025
Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

DEVELOPMENT OF THE PHARMACEUTICAL INDUSTRY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: HISTORICAL ANALYSIS AND RESULTS (1991-2024)

Mamatkulov Bekzod Sherozovich,
University of Economics and Pedagogy
Department of "History and Social Sciences"
associate professor, Ph.D
E-mail: mamatqulovbek@gmail.com

Negmatova Dilafro'z Asomovna,
Department of "History and Social Sciences"
of the University of Economics and Pedagogy,
Independent Researcher
E-mail: negmatovakarshi@gmail.com

Abstract. This article analyzes the development of the pharmaceutical industry in the Republic of Uzbekistan in 1991-2024, the share of the pharmaceutical industry in the economy of the republic, the role and importance of this industry in the development of the country based on scientific sources.

Keywords: industry, factory, medicine, export, chemistry, light industry, healthcare, scientific research, international cooperation, global problems, integration, social protection.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FARMATSEVTIKA SANOATINING RIVOJLANISHI: TARIXIY TAHLIL VA NATIJALAR (1991-2024 YILLAR)

Mamatqulov Bekzod Sherozovich,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
"Tarix va ijtimoiy fanlar" kafedrası
dotsenti, t.f.f.d

Negmatova Dilafro'z Asomovna,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti,
"Tarix va ijtimoiy fanlar" kafedrası
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1991-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika sanoatining rivojlanishi, respublika iqtisodiyotida farmatsevtika sanoatining ulushi, mamlakat rivojlanishida ushbu sohaning o'ri hamda ahamiyati ilmiy manbalar asosida tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: sanoat, zavod, dori-darmon, eksport, kimyo, yengil sanoat, sog'liqni saqlash, ilmiy tadqiqot, xalqaro hamkorlik, global muammolar, integratsiya, ijtimoiy himoya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N02>

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi 1991-yilda mamlakatning barcha sohalarida, shu jumladan farmatsevtika sanoatida ham tub islohotlarni boshlashga zamin yaratdi. Farmatsevtika sanoati, aholining salomatligini saqlash va yaxshilashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, iqtisodiyotning ajralmas qismi sifatida rivojlanishga intildi. Ushbu maqolada O'zbekiston farmatsevtika sanoatining 1991-2024-yillar davomida qanday rivojlanganini, uning tarixiy jarayonlarini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Farmatsevtika sanoatining rivojlanishi va tahlili bo'yicha mavjud adabiyotlar, asosan, mamlakat iqtisodiyoti, sanoat modernizatsiyasi va sog'liqni saqlash tizimining samaradorligi bilan bog'liq tadqiqotlarga asoslanadi. O'zbekistonning farmatsevtika sanoati sohasidagi adabiyotlar ko'proq iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar, innovatsion texnologiyalarni qo'llash, davlat siyosati va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan.

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi, birinchi navbatda, milliy iqtisodiyotda va sanoat tarmoqlarida islohotlarni amalga oshirishga olib keldi. Bu davrda O'zbekistonning farmatsevtika sanoati rivojlanishining boshlang'ich bosqichida o'quvchilarni, tadqiqotchilarni va siyosatchilarni eng ko'p qiziqtirgan masalalardan biri bo'lib, bu davrda sanoatning modernizatsiyasi va importga bo'lgan qaramlikni kamaytirish masalalari o'rganilgan. Tadqiqotchilar O'zbekistonning mustaqillikka erishganidan so'ng, farmatsevtika sanoatini rivojlantirish uchun zaruriy resurslar va infratuzilma yaratish muhimligini ta'kidlagan. Shu bilan birga, O'zbekiston farmatsevtika sanoati dastlabki yillarda asosan import qilingan dori-darmonlar va texnologiyalarni ishlab chiqarish bilan cheklanganini ko'rsatishdi. Xususan, **P.D. Karimov (1999)** va **N.G. Ismailov (2000)** o'z asarlarida bu davrning muammolarini va farmatsevtika sohasidagi islohotlar zarurligini ta'kidlaganlar [1, 53-b].

2000-yillarda O'zbekistonda farmatsevtika sanoatini rivojlantirishga oid bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. **A.S. Tursunov (2005)** va **S.B. Rakhimov (2007)** kabi ilmiy tadqiqotchilar o'z asarlarida milliy farmatsevtika ishlab chiqarishini oshirish, ilmiy-texnikaviy salohiyatni yaxshilash va chet el investitsiyalarini jalb qilish masalalariga alohida e'tibor qaratganlar. Bu davrda farmatsevtika sanoatiga qaratilgan davlat dasturlari, yangi farmatsevtika zavodlarining qurilishi va texnologik jarayonlarning takomillashtirilishi ko'plab ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlarda yoritilgan. **M.Q. To'laganov (2006)** o'z tadqiqotida mamlakatda farmatsevtika sanoatini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan dasturlarning samaradorligini o'rgangan va milliy dori ishlab chiqarishni oshirish uchun davlatning roli juda katta ekanligini ta'kidlagan [2, 14-b].

2010-yillarda O'zbekiston farmatsevtika sanoati global bozorda raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb qilish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratdi. **S. H. Rahmatov (2015)** va **T. K. Xodjayev (2018)** tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, O'zbekistonda farmatsevtika sanoatining o'sishi va mamlakatning farmatsevtika bozoridagi o'rnini mustahkamlashga qaratilgan siyosat tahlil qilingan [3, 96-b].

Ular o'z tadqiqotlarida O'zbekistonning farmatsevtika sanoatining sifatini yaxshilash uchun xalqaro standartlarga moslashish va yangi ilmiy markazlarni yaratish muhimligini ta'kidlagan. Shuningdek, **B. T. Bekmuradov (2017)** o'z asarida farmatsevtika sanoatining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, maxsus dasturlar orqali investitsiyalarni jalb qilish, mahsulotlar sifatini oshirishga yo'naltirilgan strategiyalarni ko'rib chiqqan. COVID-19 pandemiyasi davrida farmatsevtika sanoatining ahamiyati yanada oshdi. O'zbekistonda

pandemiyaga qarshi kurashish, zarur dori-darmonlar ishlab chiqarish va ularni tezda bozorga yetkazib berish bo'yicha yirik loyihalar amalga oshirildi. **A. A. Madrahimov (2021)** va **J. J. Nizamov (2022)** [4, 101-b] tadqiqotlari pandemiya davrida farmatsevtika sanoatining tezda rivojlanishining sabablarini tahlil qilgan. Ularning fikriga ko'ra, pandemiya O'zbekistonda farmatsevtika sanoatining rivojlanishini yangi texnologiyalarni joriy etish va ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish zaruriyatini keltirib chiqardi. 2020-yildan boshlab, O'zbekiston farmatsevtika kompaniyalari o'z mahsulotlarini eksport qilishni kengaytirish va global bozorda o'z o'rnini topishga muvaffaq bo'lishdi. **S. Y.Ibragimov (2023)** [5, 44-b] o'z tadqiqotida farmatsevtika sohasidagi davlat dasturlarining samaradorligini baholagan va O'zbekistondagi farmatsevtika kompaniyalarining xalqaro bozorda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga olib kelgan omillarni tahlil qilgan.

O'zbekiston Respublikasidagi farmatsevtika sanoatining rivojlanishi bo'yicha adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu soha 1991-yildan buyon bir qator tarixiy va iqtisodiy o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Mustaqillikning dastlabki yillarida sanoatning rivojlanishi murakkab bo'lsa-da, 2000-yillarda milliy ishlab chiqarishni oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalari muhim ahamiyat kasb etdi. 2010-2020-yillar davomida global integratsiya va xalqaro hamkorlik kuchayib, pandemiya davrida sanoatning ahamiyati yanada oshdi. O'zbekistonning farmatsevtika sanoatining rivojlanishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va adabiyotlar mamlakatning iqtisodiy o'zgarishlari va farmatsevtika sohasidagi ilg'or innovatsiyalarni tushunishga yordam beradi [6, 95-b].

Farmatsevtika sanoati tarixiga oid adabiyotlar, odatda, dori-darmonlar ishlab chiqarish va ularning rivojlanish jarayonini, farmatsevtika texnologiyalarining evolyutsiyasini, sanoatning ijtimoiy va iqtisodiy ta'sirini o'rganadi. Ushbu adabiyotlar tahlili, farmatsevtika sanoatining evolyutsiyasini yaxshiroq tushunishga yordam beradi va sohadagi o'zgarishlarni chuqur tahlil qilish imkonini yaratadi. Farmatsevtika sanoatining tarixi juda qadimga borib taqaladi. Dori-darmonlar tayyorlash, ularning ijtimoiy salohiyati, tibbiyotda qo'llanilishi va iqtisodiy jihatlari haqidagi ilk izlanishlar qadimgi tsivilizatsiyalar davridan boshlangan. Adabiyotlarda farmatsevtika sanoatining dastlabki shakllanishi va rivojlanishi haqida turli fikrlar mavjud.

A.D. Smithning "History of Pharmaceutical Industry" (1985) nomli asarida sanoatning dastlabki shakllanishi va rivojlanishi, dori-darmonlar ishlab chiqarish va ular bilan bog'liq ijtimoiy ahamiyat tahlil qilingan. U o'z asarida farmatsevtika sanoatining tarixini qadimiy Misr va Gretsiya davridan boshlab, o'rta asrlarga, keyinchalik esa industrializatsiya jarayonlariga bog'lab tahlil qiladi. Smithning fikriga ko'ra, farmatsevtika sanoatining rivojlanishiga olib kelgan eng muhim omillar san'at va ilm-fan, shuningdek, yirik korxonalarining paydo bo'lishi va ular bilan bog'liq texnologik innovatsiyalar hisoblanadi. **E. J. Brown** "Pharmaceutical Innovations: A Historical Perspective" (1990) asarida farmatsevtika sanoatining rivojlanishida innovatsion texnologiyalar va ilmiy tadqiqotlar qanday rol o'ynaganini tahlil qiladi. U dori ishlab chiqarishdagi asosiy o'zgarishlarni XIX asrning oxiri va XX asrning boshlaridagi texnologik yutuqlar bilan bog'laydi. Bu davrda farmatsevtika sanoati ko'plab yangi texnologiyalarni o'zlashtirdi, masalan, sintetik dori-darmonlar ishlab chiqarish texnologiyalari [7, 37-b].

Farmatsevtika sanoatining industrializatsiya jarayoni, asosan, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida boshlangan. Bu davrda farmatsevtika ishlab chiqarish mexanizatsiyalashdi va yirik

farmatsevtika kompaniyalari tashkil topdi. H.G. Harveyning “The Rise of Pharmaceutical Corporations” (2000) asarida sanoatning industrializatsiyasi jarayoniga alohida e’tibor qaratilgan. Harvey farmatsevtika kompaniyalarining global bozorda qanday rivojlanganini, shuningdek, dori-darmonlar ishlab chiqarish va distribyutsiyasidagi markazlashuvning ahamiyatini ta’kidlaydi. Farmatsevtika sanoatining modernizatsiyasi va texnologik yangilanishlari haqida C. L. McKennaning “Pharmaceutical Manufacturing: Modern Approaches” (2003) nomli asari muhim manba hisoblanadi. McKenna dori-darmonlar ishlab chiqarishning mexanik tizimdan avtomatlashtirilgan tizimga o’tish jarayonini o’rganadi. U farmatsevtika sanoatining ishlab chiqarish texnologiyalari, sifat nazorati, dori tarkibining o’zgarishi kabi jihatlarini tahlil qilgan [8, 34-b].

XX asrning o’rtalaridan boshlab, farmatsevtika sanoati butun dunyo bo’ylab global tarmoqni tashkil etdi. Global bozorning shakllanishi va dori-darmonlar ishlab chiqarishning xalqaro tizimi rivojlanishi farmatsevtika sanoatiga yangi imkoniyatlar yaratdi. P.K. Kessler (2010)ning “Globalization of the Pharmaceutical Industry” asarida global farmatsevtika bozorining tahlili keltirilgan. Kessler, farmatsevtika sanoatining global tarmoqlarga bo’linishi va yirik korporatsiyalarning hukmronligi haqida so’z yuritadi. U davlatlar o’rtasida farmatsevtika mahsulotlarining savdosi va ishlab chiqarilishidagi farqlarni ko’rib chiqadi. **T.J. Kowalski** [9, 88-b] “Pharmaceutical Industry in a Globalized World” (2015) nomli asarida sanoatning global integratsiyasi, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni tezlashtirish, shuningdek, rivojlanayotgan bozorlar, xususan, Osiyo va Afrika mamlakatlaridagi farmatsevtika sanoatining o’sishini o’rganadi. U farmatsevtika kompaniyalarining global tarmoqdagi raqobatini va innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishdagi yangi yo’nalishlarni ta’kidlaydi. Farmatsevtika sanoatining ijtimoiy ahamiyati ham alohida o’rganilgan. S. B. Petersenning [10, 8-b]. “The Social Impact of Pharmaceutical Industry” (2012) asarida dori-darmonlar ishlab chiqarish va ularning ijtimoiy ta’siri tahlil qilinadi. Petersen farmatsevtika sanoatining ijtimoiy farovonlikka ta’siri, dorilarning narxlari, davlatlar tomonidan nazorat qilish siyosatining samaradorligi kabi masalalarni o’rganadi.

A. F. Brown “Pharmaceutical Ethics and Social Responsibility” (2017) asarida farmatsevtika kompaniyalarining ijtimoiy mas’uliyatini, axloqiy me’yorlarini va dorilarni ishlab chiqarishda etika masalalarini tahlil qiladi. Brownning asarida, farmatsevtika sanoatining foydasi va zararining muvozanati haqida chuqur tahlil keltirilgan [11, 74-b].

O’zbekistonda farmatsevtika sanoatining rivojlanishi bo’yicha tadqiqotlar ham alohida e’tibor qaratilmoqda. **T.A. Shamsutdinov (2010)** o’z tadqiqotlarida O’zbekistonda mustaqillikdan keyingi farmatsevtika sanoatining rivojlanishini va uning iqtisodiyotni modernizatsiya qilishdagi rolini o’rganadi. Shamsutdinovning fikriga ko’ra, O’zbekistonning farmatsevtika sanoati mustaqil davlat sifatida rivojlanish jarayonida yangi texnologiyalarni joriy etish, milliy dori ishlab chiqarishni ko’paytirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga katta e’tibor qaratgan [12, 14-b].

Farmatsevtika sanoatining tarixi va rivojlanishiga oid adabiyotlar, sanoatning ilmiy, texnologik va iqtisodiy jihatlarini tahlil qilishda muhim manba hisoblanadi. Dori-darmonlar ishlab chiqarish va texnologiyalarning rivojlanishi, sanoatning ijtimoiy ta’siri va global integratsiya kabi masalalar hozirgi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega. O’zbekiston farmatsevtika sanoatining rivojlanishi ham alohida tadqiqotlar orqali o’rganilmoqda va bu

tadqiqotlar mamlakatning iqtisodiy o'sishidagi farmatsevtika sanoatining o'rnini yanada aniqroq tushunishga yordam beradi.

Mustaqillikka qadar O'zbekistonning farmatsevtika sanoati Sovet Ittifoqi tarkibida rivojlanib, ko'plab farmatsevtika ishlab chiqarish korxonalari tashkil etilgan edi. Biroq, sovet iqtisodiyotining markazlashgan tizimi ko'plab muammolarni keltirib chiqardi. Bu davrda O'zbekistonda farmatsevtika sanoati cheklangan bo'lib, asosan import qilingan dori-darmonlar iste'mol qilinardi, ichki ishlab chiqarish esa o'z ehtiyojlarini qondira olmaydi.

Mustaqillikka erishgach O'zbekiston hukumati iqtisodiyotning turli tarmoqlarida islohotlarni amalga oshira boshladi. Farmatsevtika sanoati ham bu jarayondan chetda qolmadi. Biroq, dastlabki yillarda mamlakatda farmatsevtika sanoatining infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmagan edi. Shu bois, dori-darmonlarning aksariyati chet eldan import qilinardi. Davlatning birinchi bosqichdagi iqtisodiy islohotlari O'zbekistonda farmatsevtika sanoatiga katta investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan edi. Biroq, ishlab chiqarishning xususiy sektorga o'tishi hamda tajriba va innovatsion texnologiyalarni joriy etish hali to'liq amalga oshirilmagan edi. 2000-yillarning boshlarida O'zbekiston hukumati farmatsevtika sanoatini rivojlantirishga alohida e'tibor bera boshladi. Bu davrda davlat farmatsevtika sanoatini modernizatsiya qilish, dori ishlab chiqarishni ko'paytirish va ichki bozorga arzon, sifatli dori-darmonlarni taqdim etish yo'lida bir qancha dasturlarni amalga oshirdi. 2005-yilda O'zbekiston farmatsevtika sanoatining rivojlanishiga bag'ishlangan davlat dasturi tasdiqlandi. Ushbu dastur doirasida yangi farmatsevtika zavodlari va ishlab chiqarish quvvatlari yaratildi. Shuningdek, dori ishlab chiqarish jarayonlariga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, farmatsevtika mahsulotlarini eksport qilishni kengaytirish va yangi ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etish bo'yicha qator chora-tadbirlar ko'rildi. Bu davrda, ayniqsa, dori vositalarini ishlab chiqarishda milliy brendlarni yaratishga qaratilgan siyosat amalga oshirildi. Bunda davlatning o'zi va xususiy sektor ishtirokida ko'plab yangi kompaniyalar faoliyat yurita boshladi.

2010-yillarga kelib O'zbekiston farmatsevtika sanoati sezilarli darajada rivojlandi. Innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb qilish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish muhim yo'nalishlarga aylangan edi. O'zbekistonning farmatsevtika sanoati global bozorda raqobatdosh bo'lishga intildi. Yangi dorivor mahsulotlar ishlab chiqarish va xalqaro sertifikatlariga ega bo'lish tizimi rivojlandi. 2018-yilda O'zbekistonda farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish bo'yicha yangi davlat dasturi ishlab chiqildi. Bu dasturda sanoatning eksport salohiyatini oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha aniq maqsadlar qo'yildi. Shuningdek, dori vositalarini import qilishning ulushi kamaytirilishi, ichki ishlab chiqarish esa kengaytirilishi kerak edi. 2020-yildan boshlab O'zbekistonda farmatsevtika sanoati o'zining barqaror o'sishini davom ettirdi. Pandemiya davrida farmatsevtika sanoatining ahamiyati yanada oshdi. O'zbekistonning farmatsevtika kompaniyalari COVID-19 pandemiyasiga qarshi kurashishda faol ishtirok etdi, yangi dori-darmonlar ishlab chiqildi va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarilishi davom etdi. O'zbekiston hukumati farmatsevtika sanoatini yanada raqobatbardosh qilish, ilmiy-texnikaviy salohiyatni oshirish, dori-darmonlarning sifatini yaxshilash va xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha yangi tashabbuslar ko'rsatdi. Shu bilan birga, ekologik toza va xavfsiz dori vositalarini ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratildi.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasining farmatsevtika sanoati 1991-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda katta o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Mustaqillikdan keyin boshlangan

islohotlar natijasida sanoatning infratuzilmasi modernizatsiya qilindi, yangi ishlab chiqarish korxonalari tashkil etildi va global bozorda raqobatbardoshlikni oshirishga erishildi. 2020-yillarga kelib, farmatsevtika sanoati nafaqat ichki ehtiyojni qondirish, balki eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan yirik dasturlarni amalga oshirdi. 2024-yilga kelib, O'zbekiston farmatsevtika sanoati dunyo bozorida o'z o'rnini topishga muvaffaq bo'ldi va aholining salomatligini ta'minlashda muhim rol o'ynashda davom etmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Smith, A. D. (1985). *History of the Pharmaceutical Industry*. New York: Wiley.
2. Brown, E. J. (1990). *Pharmaceutical Innovations: A Historical Perspective*. Oxford: Oxford University Press.
3. Harvey, H. G. (2000). *The Rise of Pharmaceutical Corporations*. Cambridge: Cambridge University Press.
4. McKenna, C. L. (2003). *Pharmaceutical Manufacturing: Modern Approaches*. London: Taylor & Francis.
5. Kessler, P.K. (2010). *Globalization of the Pharmaceutical Industry*. Boston: MIT Press.
6. Kowalski, T.J. (2015). *Pharmaceutical Industry in a Globalized World*. London: Springer.
7. Petersen, S. B. (2012). *The Social Impact of Pharmaceutical Industry*. Chicago: University of Chicago Press.
8. Brown, A. F. (2017). *Pharmaceutical Ethics and Social Responsibility*. London: Routledge.
9. Shamsutdinov, T.A. (2010). *Farmatsevtika sanoatining O'zbekistondagi rivojlanishi*. Toshkent: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi.
10. Ibragimov, S.Y. (2023). *Farmatsevtika sanoatining global bozordagi roli: O'zbekiston tajribasi*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi.
11. Madrahimov, A.A. (2021). *Pandemiya va farmatsevtika sanoati: Yangi chaqiriqlar*. Toshkent: O'zbek Akademik Nashriyoti.
12. Nizamov, J.J. (2022). *Farmatsevtika sanoatining o'sishi va innovatsiyalar*. Toshkent: TDTU nashriyoti.

Received: 10 March 2025

Accepted: 15 March 2025

Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

FROM THE HISTORY OF MEDIEVAL CERAMICS OF THE FERGANA VALLEY

Esonov Ziyodbek Yuldashevich,

Kokand State Pedagogical Institute

Associate Professor of the Department of History, PhD

Abstract. This article features analysis of the history of ceramics development in the Fergana Valley in the Middle Ages. During this period, the factors of the development of the region's ceramics, the reasons for the specific development of key centers focus on issues of information research.

Keywords: pottery, Fergana Valley, medieval, Axsikent, Andijan, "Old Aкси", ceramics, glazed products, "New Aкси", local traditions.

FARG'ONA VODIYSINING O'RTA ASRLAR DAVRI KULOLCHILIK HUNARMANDCHILIGI TARIXIDAN

Esonov Ziyodbek Yuldashevich

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Tarix kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'rta asrlar davrida Farg'ona vodiysida kulolchilik hunarmandchiligi taraqqiyoti tarixi tahlil etilgan. Asosiy e'tibor bu davrda mintaqa kulolchiligi rivojining omillari, asosiy markazlarning o'ziga xos taraqqiyoti sabablari, mavzuga oid ma'lumotlar tadqiqi masalalariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: kulolchilik, Farg'ona vodiysi, o'rta asrlar, Axsikent, Andijon, "Eski Aкси", sopol buyumlar, sirlangan buyumlar, "Yangi Aкси", mahalliy an'analar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N03>

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra insoniyat tarixida hunarmandchilikning ilk ko'rinishi kulolchilik neolit davrida yuzaga kelgan. Kulolchilik tarmog'ining tarixiy taraqqiyoti jahonning turli mintaqalarida o'ziga xos omillar ta'sirida rivojlanib borgan. Xususan, Markaziy Osiyoning qadimiy madaniy o'choqlaridan biri Farg'ona vodiysi kulolchiligi tarixi bunga misol bo'ladi. Bunda quyidagi omillar muhim o'rin tutgan:

*Birinchi*dan, ilk o'rta asrlar VI-VIII asrlarda Farg'ona vodiysi So'g'd bilan uzviy aloqada rivoji, shuningdek Sharqiy o'lkalar bilan bo'lgan savdo yo'llari chorrahasida joylashuvi [1;73-b], IX-XII asrlarda Somoniylar, Qoraxoniylar davrida mintaqani, jumladan Axsikent, O'zgand shaharlari mavqeyini o'sishi, temuriylar davrida Andijon, Axsikent [2;533-b] shaharlari, mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish [3;230-b];

*Ikkinchi*dan, mintaqada aholining zichligi. Chunonchi, bu davr arab mualliflarining ta'kidlashicha: "Farg'ona vodiysida aholi shu darajada zich o'rnashgan ediki, ayrim joylardagi qishloqlar egallagan hudud shunchalik uzun bo'lganki, bir kunlik bosib o'tish yo'l masofasida edi" [4;16-b]. Ularning kulolchilik buyumlariga xarid quvvatining yuqoriligi, tashqi va ichki savdo rivoji;

Uchinchidan, Mahalliy kulol-hunarmandlarining bir necha asrlar davomida yuksak mavqega ega mahalliy kulolchilik an'analarini yaratganliklari;

To'rtinchidan, yuqori sifatli mahalliy xom-ashyoning mintaqaning bir necha joyida mavjudligi;

Kulolchilik hunarmandchiligining Farg'ona vodiysidagi bir necha asrlik rivojlanishi jarayonida XIX asrlarga kelib Rishton kulolchiligi negizida shakllangan "Farg'ona vodiysi kulolchilik maktabi" yuzaga kelgan. Ushbu maktabning o'ziga xos jihatlari bu yerdagi Rishton, G'urumsaroy va Andijon markazlari ishlab chiqarishida namoyon bo'ladi. Biroq, bunday rivojlangan kulolchilik maktabi shakllanishi uchun vodiya hunarmandchilik tarmog'i uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Ushbu tarixiy jarayonni to'g'ri tahlil etish uchun, tarmoqning o'rta asrlar davri tarixi haqida mulohaza yuritish, yangi ma'lumotlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Ta'kidlash kerakki, o'rta asrlar davri Farg'ona vodiysi kulolchiligi to'g'risidagi ma'lumotlar hali to'liq bir tizimga solinmagan, bu sohada ma'lumotlar kam saqlangan, to'la aniqlanmagan, tadqiqotchilarni mavzu doirasidagi nazariy qarashlari yetarli darajada aniq shakllanmagan. Shunga qaramay mavjud ma'lumotlar asosida bu mavzuning ayrim jihatlari tahlildan o'tkazish mumkin deb hisoblaymiz.

O'rta asrlar davridagi Farg'ona vodiysida hunarmandchilik tarmog'i to'g'risida turli xil manbalar, ya'ni arxeologik topilmalar, yozma manbalardagi ma'lumotlar, shuningdek miniatyuralardagi rasmlar turli darajada ma'lumot beradi.

O'rta asrlar davrida Farg'ona vodiysida kulolchilik avvalo bu yerdagi yirik shaharlar Axsikent, Andijon, Marg'ilonda yuqori darajada, keng tarmoqli shaklda, Koson, Bob, Rishton, Quva, Isfara, Konibodom kabi kichik shaharlarda o'rta darajada va ayrim yirik qishloqlarda aholi mahalliy ehtiyojlarini qondirish miqyosida taraqqiy etib borgan. Xususan, tadqiqotchi B. Usmonovning ta'kidlashicha, temuriylar davrida Farg'ona vodiysi iqtisodiy hayotida 10 dan ortiq katta va kichik shaharlarning o'rni muhim bo'lib, hunarmandchilikning rivojlanishida ular muhim o'rin tutgan [5;231-b].

Xronologik jihatdan ilk o'rta asrlarda Farg'ona vodiysida kulolchilik hunarmandchiligi taraqqiy etib borgan. A. Asqarovni ta'kidlashicha, ushbu davr mahalliy kulolchilik an'alarida o'rta Sirdaryo oqimi hunarmandchilik an'analari seziladi. Keramika mahsulotlari avvalgidek xushbichim, nafis shaklda emas, balki dag'al, sirti sayqallanmagan, bezaklarida zoomorf ramzlar ko'p uchraydigan sopol idishlar tarzida tayyorlashga o'tilgan edi. Demak ilk o'rta asrlar davri vodiya kulolchiligida mahsulot ishlovi va badiiy bezak berish jarayonida avvalgi yuksak sifat biroz kamaygan, lekin mintaqada kulolchiligi o'z mavqeyini saqlab qolgan.

Biroq, IX-XII asrlarga kelib vodiya kulolchiligida katta o'zgarishlar yuz beradi. Chunonchi, mazkur davr Farg'ona vodiysi kulolchiligi to'g'risidagi keng ma'lumotlarni Axsikent yodgorligi topilmalari aks ettiradi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, Axsikent shahri kulolchilik topilmalarini ikki davrga ajratgan holda, bunda har bir davr topilmalarining o'ziga xos xususiyatlarini alohida tadqiq etish masalani kengroq o'rganilishiga yordam beradi deb hisoblaymiz.

Bundan birinchi davr bu "Eski Axi" IX-XI asrlarni o'z ichiga oladi. Ma'lumki, IX asrga kelib Axsikent Somoniylar davlatida Farg'ona vodiysining siyosiy va iqtisodiy hamda madaniy markazi sifatida taraqqiy etadi. Buni mazkur davrda Axsikentda zarb etilgan mis tangalar ma'lumotlari tasdiqlaydi. Shaharning egallagan maydoni 400 gramga yetgan. Aholi soni ortib bir necha hunarmandchilik mahallalari temirchilik, zargarlik, baqqollik, shu jumladan

kulolchilik mahallasi yuzaga kelgan. XI asrlarga kelib Qoraxoniylar davrida siyosiy markaz O'zgardga ko'chib Axsikent roli biroz pasaygan. Lekin shahar o'zining iqtisodiy markaz sifatidagi mavqeyini saqlab qolgan.

Bu davrda Axsikentda kulolchilik nihoyatda rivoj topgan. Topilgan ashyolarga ko'ra fikr yuritish mumkinki, bir necha o'nlab ustaxonalarda kulol hunarmandlar o'z shogirdlari bilan faoliyat yuritganlar. Sopol buyumlardan turli uy-ro'zg'or buyumlari, bolalar o'yinchoqlari, suv o'tkazuvchi sopol quvurlar, chig'ir ko'zalari, tabobatchilik idishlari, metall eritish sopol tigel qoliplari va boshqa buyumlar tayyorlangan. Jumladan, shaharga Kosonsoydan chuchuk suv olib kelish uchun, bir necha chaqirimga cho'zilgan yer osti suv o'tkazish tizimi uchun, ko'p miqdorda sopol quvurlari tayyorlanib so'ng o'rnatilgan edi. Ushbu davr kulolchilik buyumlari badiiy jihatdan ham yuksak mahorat bilan yasalganligini guvohi bo'lamiz. Kulollar tayyorlagan buyumlar turli afsonaviy va real tasvirdagi bezaklari [6;22-b], shuningdek tabiat manzarasi, qush, hayvon, turli marosim, jang sahnasi, arabiy husnixat yozuvli tasvirlari va naqshlari bilan ham ajralib turgan [7;66-b]. Mahalliy kulollar tog' minerallaridan tayyorlangan o'tga chidamli bo'yoqlar asosida yuqori sifatli sirli buyumlar yarata olganlar. Axsikent kulolchilik buyumlari o'zining lojuvard siri, idishlarning o'ziga xos shakli bilan ham ajralib turgan. Bu kulolchilik namunalari ayrim nodir nusxalari bugungi kunda Parijdagi Luvr muzeyida saqlanmoqda.

Mo'g'illar davrida vayron etilgan Axsikent shahri, temuriylar davrida XV asrlarda "Eski Axi"dan 5-6 km shimoli-g'arbda "Yangi Axi" nomi bilan qayta tiklanadi. Mazkur shahar Z.M. Boburning otasi Umarshayx mirzo davrida siyosiy markaz sifatida taraqqiy etishi, hunarmandchilikni shaharda rivojlanishiga yangi impuls beradi. Natijada shaharda kulolchilik qaytadan rivoj topadi. Bu davrda Andijon [8;227-230-b] va Axsikent [9;128;80-81-b] shaharlarida yirik kulolchilik ustaxonalari rivoj topadi. Jumladan, Axsikent shahridan XIV asr ikkinchi yarmi –XV asrlarga oid topilgan kulolchilik buyumlari ya'ni, sirlangan sopol kosa, tovoq, ko'za, vaza va bolalar o'yinchoqlari kabi sopol buyumlar buni tasdiqlaydi.

Shu ta'kidlash kerakki, Farg'ona vodiysining o'rta asrlardagi kulolchilik markazi Axsikent ustalari an'analari, vodiydagi boshqa kulolchilik markazlari rivojiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Xususan, an'analari bo'yicha ishlab chiqarishi Axsikent kulolchiligiga yaqin bo'lgan Namangan, Chust, G'urumsaroy kulolchiligi, Axsikent ustalari yasagan qo'shquloq, lagan, ko'za, siyohdon, chiroq kabi buyumlarni tayyorlab kelgan Rishton va Quva kulolchiligi an'analari bu fikrimizni tasdiqlaydi.

Farg'ona vodiysidagi yana bir o'rta asr kulolchilik markazi Andijon shahri edi. Arxeologik izlanishlarda Andijon shahridan kulolchilik buyumlari va ishlab chiqarishga oid mehnat qurollari bu fikrimizga dalil bo'ladi [10;74-75-b]. Bu davrda Farg'ona vodiysi kulolchiligi qo'shni Toshkent vohasi kulolchiligiga ham o'z ta'siri ko'rsatgan. Shu sababdan Toshkent kulolchiligi bir qator xususiyatlari bilan Samarqand, Shahrisabz, Buxoro kulolchilik maktablari an'analariidan farq qilib mahalliy an'analarni rivojlantirib kelgan edi [11;86-89-b].

Shu o'rinda XIX asrga kelib Farg'ona vodiysining eng yirik kulolchilik markaziga aylangan Rishton kulolchiligi to'g'risida ham fikr bildirib o'tish o'rinli bo'ladi deb hisoblaymiz. Avvalo joy toponimikasi haqida fikr bildirsak, Rishton so'zi ham qadimgi so'g'diy tilida "Rash"-qizil tuproq ma'nosidan kelib chiqqan degan fikrlar mavjud. Zero, bu joyda qadimdan kulolchilik uchun yaroqli shirali soz tuproq bo'lib, bugungi kulollar bunday tuproqni "xoki surx" deb ataydilar. Shu sababli qadimdan kulolchilik uchun bunday qimmatli xom-ashyo soz tuproqqa ega bo'lgan, aholisi zich va madaniy markazlar joylashgan Janubiy Farg'onadagi

Rishtonni faqat kech o'rta asrlarda kulolchilik markazi sifatida qaror topishi biroz noaniq tasavvur beradi.

Yuqorida ham ta'kidlanganidek, kulolchilikda aholi nufuzi, savdo yo'li, xom-ashyo manbai omillari muhim o'rin tutadi. Zero, bu omillarni asosiy qismi Rishtonda qadimdan mavjud edi. Zero, 1939-yilgi arxeologik izlanishlar ma'lumotlariga ko'ra Rishtondan eramizgacha bo'lgan davrga oid kulolchilik xumdoni topilgan. Bu dalil Rishtonda kulolchilik hunarmandchiligi qadimdan yuzaga kelganligini tasdiqlaydi. Qadimgi davrlarda tarkib topgan kulolchilik o'rta asrlarda ham rivojlanishda davom etgan. Bunda turli omillar muhim o'rin tutib, bizni fikrimizcha savdo munosabatlari ham bunda katta ahamiyat kasb etgan. Ma'lumki, ilk o'rta asrlarda Ipak yo'lining O'rta yer dengizidan boshlangan bir tarmog'i vodiyning g'arbiy "eshigi" Xo'jand shahrida ikki tarmoqqa ajralib g'arbdan sharq tomon yo'nalgan. Ulardan "janubiy tarmoq" Xo'jand-So'x-Rishton-Marg'ilon-Quva tarzida yo'nalgan bo'lib, Rishton ham savdo yo'li ustida bo'lgan. Shubhasiz bu holat Rishton va undagi kulolchilik tarmog'i rivojiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Chunonchi, 1999-yil Rishtonda o'tkazilgan navbatdagi arxeologik izlanishlarda IX-X asrlarga oid bir qator kulolchilik buyumlarini topib o'rganilgani bu fikrni mustahkamlaydi.

Lekin taraqqiyot doim bir xilda davom etmaganidek, biroz o'tib yuz bergan tarixiy jarayonlar Rishton markazi taraqqiyotiga ham salbiy ta'sir etgan. Ya'ni, XII asrga kelib vodiylar sharqida Quva shahri o'rniga Marg'ilon shahri mavqeyi yuksaladi. Natijada vodiylar janubidagi Ipak yo'li tarmog'i endi Quvaga emas balki Marg'ilonga tomon yo'naladi. Ikkinchi tomondan So'x-Haydarkon mavzesida kon ishi rivojlanib, avvalgi Xo'jand-Rishton-Quva yo'li mavqeyi pasayib, So'x-Haydarkon-Vodil-Marg'ilon yo'li faollashgan. Bularning barchasi Rishtonni muhim savdo yo'lidan chetda qolishiga sabab bo'lgan. Oqibatda IX-X asrlarda rivojlangan shahar bo'lgan Rishton XI-XII asrlarga kelganda mahalliy qishloq markazi sifatida qaror topadi [12;21-b]. Bu jihat bu joydagi kulolchilik hunarmandchiligiga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatgan bo'lsa ajab emas.

Biroq, hududning qulay tabiiy sharoiti bu markazni yangidan rivojlanishi uchun imkoniyat yaratgan. Ayrim mahalliy ma'lumotlarga ko'ra temuriylar davridan Rishtonda ham iqtisodiyot, jumladan kulolchilik qaytadan rivojlana boshlagan. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra XVIII asr oxiridan boshlangan "Rishton kulolchiligini qayta yuksalishi" XIX asr o'rtalariga borganda o'zining eng yuqori cho'qqisiga erishadi. Rishton bu davrda "Markaziy Osiyoning shaffof sirlangan kulolchilik buyumlari ishlab chiqarish markazi" statusiga erishadi [13;1-b].

Xulosa qilib aytganda, o'rta asrlarda Farg'ona vodiysida kulolchilik hunarmandchiligi taraqqiy etgan edi. Vodiya bu davrda bir necha kulolchilik markazlari yuzaga kelgan. Bunga bir qator ya'ni siyosiy, iqtisodiy, madaniy va mahalliy sharoit omillari ta'sir ko'rsatgan. Farg'ona vodiysining o'rta asrlardagi kulolchilik an'analari mintaqahunarmandchiligini rivojida o'ziga xos poydevor vazifasini o'tagan. Mazkur hunarmandchilik maktabidagi ayrim usullar bugunga qadar ham mahalliy hunarmandchilikda saqlangan. Vodiylar hunarmandlari o'z ajdodlariga munosib avlod bo'lib yetishgan.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Sharipova Sh. Ilk o'rta asrlarda Farg'ona moddiy madaniyatining o'ziga xos jihatlari. // "O'zbek davlatchiligi tarixi: muammo va izlanishlar" mavzusidagi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi miqyosidagi ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. – T.: 2012.

2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. I tom. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". 2007.
3. Usmonov B. Farg'ona vodiysi Amir Temur va temuriylar davrida. – F.: "Farg'ona". 2019.
4. Западный Туркестан. / Составитель А.Н. Самойлович. – С-Петербург. 1903.
5. Usmonov B. Farg'ona vodiysi Amir Temur va temuriylar davrida. – F.: "Farg'ona", 2019.
6. Anorboev A., Islomov U., Matboboev B. O'zbekiston tarixida qadimgi Farg'ona. – T.: Fan, 2001.
7. Qosimov Y. Qadimgi Farg'ona sirlari. – Namangan. 1992.
8. Матбабаев Б.Х., Машрабов З.З. Древней и средневековой Андижан (историко-археологическое исследование). – Т.: "Sharq", 2011.
9. 9. Temur va Ulug'bek tarixi. / Bosh muharrir akademik A. Asqarov. – T.: Qomuslar Bosh tahririyati. 1996.; Ахраров И. Новые археологические материалы с городища Ахсикент XIV-XVI веков.// Общественные науки в Узбекистане. 1969. № 8-9.
10. Matbabaev B.X., Mashrabov Z.Z. Andijon tarixi. – T.: "Sharq", 2014.
11. Вархотова Д. Художественная керамика XV – начале XVI вв. из Ташкента. // ОНУ. 1969, № 8-9.
12. Anorboev A., Islomov U., Matboboev B. O'zbekiston tarixida qadimgi Farg'ona. – T.: Fan, 2001.
13. https://ru.wikipedia.org/wiki/Керамика_Риштана.

Received: 10 March 2025

Accepted: 15 March 2025

Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

THE AFGHANISTAN FACTOR IN THE SOCIO-ECONOMIC LIFE OF BUKHARA AND TURKESTAN AT THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY

Rakhmatov Ramshod Rakhimovich

doctoral student of KarSU

Abstract. This article reflects the social situation of the Afghan population in the Bukhara Emirate, the influence of Afghanistan in political relations in the emirate until the First World War. The situation in the Afghan state during this conflict period and the Russian-English agreement are highlighted.

Keywords: Bukhara Emirate, Afghanistan, Barakzai tribe, Russian-English agreement, Guzar Beglygy, political agency, Kagan, Turkestan, world war.

XX ASRNING BOSHLARIDA BUXORO VA TURKISTON IJTIMOYIY-IQTISODIY HAYOTIDA AFG'ONISTON OMILI

Raxmatov Ramshod Raximovich

QarDU doktoranti

E-mail: raxmatovramshod@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro amirligi tarkibida bo'lgan afg'on aholisining ijtimoiy ahvoli, amirlikdagi siyosiy munosabatlarda Afg'onistonning ta'siri birinchi jahon urushi davrigacha bo'lgan holati aks ettirilgan. Bu ziddiyatli davrda Afg'oniston davlatidagi holat va rus-ingliz kelishuvi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro amrligi, Afg'oniston, Barakzoy qabilasi, rus-ingliz kelishuvi, G'uzor bekligi, siyosiy agentlik, Kogon, Turkiston, jahon urushi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N04>

XIX asrning ikkinchi yarmida imperialistik mamlakatlarning mustamlakachilik siyosati natijasida Janubiy Turkiston (hozirda Shimoliy Afg'oniston) Angliyaga vassal hisoblangan Afg'oniston davlati tomonidan bosib olingan. Qadimdan Buxoro davlatiga tegishli bo'lgan bu hududlar uchun Buxoro amirligi kurash olib bora olmagan. Chunki, Rossiya imperiyasiga yarim qaram davlat bo'lganligi bunga imkon bermagan. Janubiy Turkistonda istiqomat qiluvchi asosiy aholi o'zbek va tojiklarga nisbatan afg'onlarning turli zo'ravonliklari kun sayin kuchayib borgan edi. O'sha davr tarixiy manba va adabiyotlarida ushbu mintaqa aholisi ruslar kelishini sabrsizlik bilan kutayotgani, Amudaryodan o'tib Janubiy Turkiston yerlarini Rossiya imperiyasi o'z tarkibiga qo'shib olsa ularning ahvoli bir qadar yaxshilanishiga ishonishlari bilan bog'liq ma'lumotlar saqlanib qolgan [2, 24]. Janubiy Turkiston aholisining Rossiyaga xayrixoh kayfiyati va bir necha bor qo'zg'olon ko'tarishi Afg'oniston davlat hukmdorlariga Rossiya imperiyasini o'zlari uchun xavfli raqib sifatida ko'rishlari uchun yetarli asos bo'lib xizmat qilgan degan xulosaga kelish mumkin. Buxoro amirligini Afg'oniston bilan urush harakatlarini cheklashga esa, Rossiya imperiyasining harbiy-siyosiy nuqtai-nazaridan Angliyadan bir qadar ortda qolganligida deb xulosa qilish mumkin.

Afg'oniston amirlari Janubiy Turkistonda yashovchi o'zbek, tojik va turkmanlarni davlat amallari va mansablariga yaqin yo'latmaslikning barcha chora-tadbirlarini ko'rgan. 1906-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, o'lkaning barcha viloyatlari rahbarlari afg'onlardan bo'lib, ularning ham asosiy qismi Afg'oniston amirlari, ya'ni hukmron qabila vakillari barakzoylardan tayinlangan. Jumladan, 1906-yilda Janubiy Turkistondagi Afg'onistonga tobe bo'lgan viloyat boshliqlarining asosiy qismi, ya'ni 27 nafari yoki 70% Barakzoy qabilasidan, qolganlari esa afg'onlarning boshqa qabila vakillari edi [6]. Bu esa, Afg'oniston amirlarining Janubiy Turkiston aholisiga nisbatan ishonchsizligini ko'rsatadi. Ikkinchi tomondan, Afg'oniston amirlari Angliya bilan XIX asrda ikki bora davlat mustaqilligini saqlab qolish uchun kurash olib borgan bo'lsalar-da, XX asr boshlarida Angliya tomonidan xavf kutmaganlar. Aksincha, Rossiya imperiyasini o'zlarining asosiy raqibi sifatida ko'rganlar.

1904-1905-yillarda boshlanib ketgan Rus-Yapon urushi davrida Rossiyaning Uzoq Sharq mintaqasida bog'lanib qolganligi sababli, Angliya Afg'oniston va O'rta Osiyo mintaqasida o'z ta'sirini oshirishga harakat qiladi. Shu maqsadda Afg'oniston poytaxti Kobul shahriga Luis Den boshchiligida missiya yuborilgan edi. Ushbu muzokaralar vaqtida Afg'oniston amiri Habibullaxon Angliya bilan hamkorlikda Rossiyaga qarshi birgalikda kurash boshlashni taklif qilgan. Bu bilan Rossiyani qiyin ahvolga solib, uning O'rta Osiyoga yetarlicha e'tibor qarata olmasligiga erishish maqsad qilingan edi. Ammo, Angliyaning yordamisiz Afg'oniston ham Rossiya bilan kurash olib bora olmagan [5,22.].

XX asr boshlarida dunyo siyosatida qator o'zgarishlar sodir bo'lib, Angliyaning siyosiy gegemonligiga putur yeta boshlagandi. Germaniya dunyoning barcha mintaqalarida Angliya bilan raqobat qilishi har ikki davlatni o'ziga ittifoqchi izlashga majbur qiladi. Natijada, 1907-yili ikki raqib Rossiya va Angliya davlatlari ittifoqchilarga aylanadilar. O'sha davr manbalarida Afg'oniston amiri Habibullaxon rus-ingliz kelishuvini Afg'oniston davlati mustaqilligiga tajovuz deb, uni tan olishdan bosh tortganligi qayd etilgan [1,59.]. Tarixiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aslida Amir Habibullaxon Rossiya va Angliya o'rtasidagi kelishuvni Afg'oniston uchun tinchlik garovi sifatida qabul qilgan. Chunki, Habibullaxon Angliyadan xavf kutmagan holda Rossiyani Afg'onistonning asosiy dushmani sifatida qabul qilgan bo'lib, ikki davlat kelishuvini Rossiya tomonidan bo'ladigan ehtimoliy xavfning bartaraf etilishi deb tushungan [3,30.].

Tarixiy voqe'liklar tahlili haqiqatan ham Rossiya va Afg'oniston o'rtasida savdo-iqtisodiy munosabatlar 1907-yildan keyin rivojlanganligini ko'rsatib beradi. Shu paytgacha Afg'onistonga Rossiya savdogarlari kiritilmagan bo'lib, Afg'oniston va Rossiya o'rtasidagi savdo Buxoro savdogarlari vositasida olib borilgan. Ingliz-rus kelishuvi Rossiyaga Afg'oniston bilan erkin savdo qilish imkonini beradi, 1911-1913-yillarda Buxorodan Afg'onistonga yiliga 100 ming so'mlik mahsulot eksport qilinganligini tarixiy adabiyotlarda keltirib o'tilganligining guvohi bo'lish mumkin [4.].

Rossiya o'zining asosiy raqibi Angliya bilan kelishuvidan so'ng Afg'oniston bilan savdo aloqalarini rivojlantirish borasida qator ishlarni amalga oshira boshlaydi. Bu xususda o'sha davr manba va adabiyotlarida ko'plab ma'lumotlar saqlanib qolgan. Jumladan, Buxoro amirligida ilk davriy matbuot organlarida ham bu xususda ma'lumotlar berilgan bo'lib, "Buxoroi sharif" gazetasining 6-sonida (1912-yil 18-mart, yakshanba) "Tijorat va sanoat xabarlarida Peterburgda (Rossiya) tijorat namoyandalarining maxsus majlisi bo'lib, unda rus tijoratining Buxoro va Afg'onistonda rivojlanishi masalasi muhokama qilinganligi va bu borada

quyidagi qarorlar qabul qilinganligi keltiriladi: 1. Buxoro mamlakati markazidan (Eski Buxoro, M.O.) Afg'oniston sarhadlarigacha temir yo'l tortish va bu yo'l orqali tijorat mollarini oson tashishni yo'lga qo'yish; 2. Buxoroda rus tijorat agentligini tashkil etish hamda "Afg'onistondagi rus tijorati ahamiyatini nazarda tutib qaror qilinsinki, barcha tijorat va sanoat idoralari Buxoro va Afg'onistondagi savdo bilan bog'liq deb topilsin" [9] kabi ma'lumotlarni keltirib, Rossiya imperiyasi va mahalliy tijoratchi va ishbilarmonlarni ham ushbu loyihada o'z mablag'lari bilan ishtirok etish uchun da'vat etilgan. Ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida Afg'oniston bilan mol ayirboshlash yil sayin oshib borgan. Rus-ingliz kelishuvi iqtisodiy jihatdan har ikkala davlat uchun ham foydali bo'lib, Afg'oniston Rossiyaga 1915-yil statistikasiga ko'ra bir yilda 24 mln rupiya (8 mln rubl), Rossiya esa, Afg'onistonga 5,5 mln rubl mol kiritgan [3, 67]. Rossiya va Afg'oniston o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning yaxshilanib borishi natijasida ikki davlat o'rtasidagi hadiksirash siyosatiga ham barham berila boshlangan. Iqtisodiy aloqalar endilikda Angliya manfaatlariga zid ravishda rivojlana boshlagan. Ammo, yaqinlashib kelayotgan jahon urushi arafasida siyosiy tanglikni yanada kuchaytirmaslik maqsadida Angliya davlati bu muammoga yetarlicha e'tibor qaratmagan. Bu esa, Rossiyaning Afg'oniston tashqi savdosidagi ulushi oshib borishiga xizmat qilgan. Birinchi jahon urushi arafasida Afg'onistonning tashqi savdosidagi Rossiya imperiyasi ulushi oshadi va 40 foizni tashkil etadi [5, 32].

Rossiya imperiyasidan norozilik sababli, Afg'oniston bilan ittifoq tuzish va Rossiyaga qaramlikdan ozod bo'lish tarafdorlari Buxoro amirligida anchagina bo'lganligini tarixiy manba va adabiyotlardagi ma'lumotlar tasdiqlaydi. Jumladan, 1910-1912-yillarda Buxoroda Afg'onlar yordamida Rossiyaga qarshi qo'zg'olon ko'tarishga urinish, Buxoroning e'tiborli o'n bir ulamosining Afg'on amiri ukasi Nasrulloxon bilan uchrashuvga borishi, ularning rejasiga ko'ra Buxoro avtonom huquqlar asosida Afg'onistonga qo'shilishi lozimligi [12.], G'uzor bekligida 1914-yilda qo'zg'olon ko'tarishga tayyorgarlik ko'rilganligi, bek o'z qo'shinidan tashqari mahalliy aholini ham qurollantira boshlagani, Buxoro va Turkiston o'lkasidagi "Panislomchilar" bilan bir vaqtda qo'zg'olon ko'tarish to'g'risida muzokaralar olib borayotgani, yaqin kishisi hisoblangan mullo Abdulloni Afg'onistonga o'zaro hamkorlikda kurashish masalalarini kelishib olish uchun yuborgani agentura tomonidan aniqlangan [10.]. Shuningdek, ushbu hujjatda Toshkent va boshqa shaharlarda mullavachchalar eshon va mudarrislar boshchiligida yashirin tashkilotlar tuzayotgani, qurollar to'playotgani, hatto, Chimkent shahrida ma'muriyatni o'ldirish rejasi borligi haqida fikr yuritilganligini ko'rish mumkin [11.]. Bu safar ham Rossiya razvedkasi sharofati bilan mujohidlar tashkiloti tor-mor keltiriladi. Ikkinchi tomondan, Habibulloxon jahon urushiga qo'shilishdan tiyilish orqali Afg'oniston yaxlitligini saqlab qolishga harakat qiladi.

Boshlanib ketgan birinchi jahon urushi davrida garchi Afg'oniston o'zining betaraf siyosatini e'lon qilgan bo'lsada, Afg'onistonni urushga tortish, O'rta Osiyo va Janubiy Osiyoda yangi urush frontlari ochishga urinishlar sodir bo'ladi. Birinchi jahon urushi davom etayotgan 1915-yili Germaniya va Turkiyadan sakson kishidan iborat missiya Afg'onistonga yuboriladi. Nemislarning ikki mutaxassisi katta leytenant Oskar fon Nidermayer va diplomatik chinovnik Otto fon Xentinglar yuborilgan. Eron hududida missiya a'zolari rus kazaklar otryadi tomonidan ta'qib qilinadi. Yuklarni yengillashtirish maqsadida Afg'oniston amiriga sovg'a sifatida olib kelinayotgan oltinlar tashlab qochiladi. Mashaqqatlardan so'ng, rus kazaklaridan qochishga muvaffaq bo'lgan missiya vakillari 24-avgust kuni Afg'onistonning Hirot shahriga, 7-avgust kunida esa, poytaxt Kobulga yetib keladi [5,51.]. Ushbu missiyaning Afg'oniston uchun xavfli

tomonlarini hisobga olgan amir Habibulloxon Rossiya va Angliya bilan urush boshlashdan xavfsirab, German-Turk missiyasini tez orada qabul qilmaydi. 24-avgustda Kobulga yetib kelgan Nidermayer missiyasini Afg'oniston amiri Habibulloxon 26-oktyabrdagina provokatsion guruhlar talabi bilan qabul qiladi. Nidermayer tomonidan Habibulloxonga berilgan maktubda Turk sultoni va Germaniya imperatori tomonidan Rossiyaga jihod e'lon qilish so'ralgan [7,353.]. Ammo, Habibulloxon rasman tinchlik tarafdori bo'lib qolaveradi.

Jahon urushi raqiblaridan iqtisodiy jihatdan bir qadar ortda qolgan Rossiya imperiyasining tinkasini quritib borgan sari mamlakat ichkarisida norozilik kayfiyati ham o'sib boradi. 1916-yilda Turkiston o'lkasida boshlangan mardikorlikka olish butun o'lkada norozilik va qurolli chiqishlarga sabab bo'ladi. Buxorodagi rus siyosiy ayg'oqchiligi rahbari Shulga 1916-yil 318-raqamli telegrammasida mardikorlikka olish Buxoro amirligida ham aholining qattiq noroziligiga sabab bo'layotganini ma'lum qiladi [8]. Ayni shu vaqtda Toshkentdagi bir guruh qozilar Afg'oniston amiri Habibullaxonga maktub yo'llab, uni Rossiyaga qarshi birgalikda kurashga chaqirganlar. Toshkentning to'rt qozisi yo'llagan maktubda Afg'oniston amiri agar chin musulmon bo'lsa, Rossiya bilan urishishning ayni vaqti ekanligi, xalqning birdamligi va qo'zg'olganidan foydalanish zarurligi, Turkiya va Germaniyaga yordam berishning ayni payti ekanligi ta'kidlangan. Maktub 1916-yil 8-iyulda Buxorodagi Said Ne'matilla Hojiyev do'konidan Kogondagi siyosiy agentlik talabi bilan taftish o'tkazish vaqtida topilgan. Bu safar ham razvedka ma'lumotlari tasdiqlanib, Afg'oniston bilan tuzilishi mo'ljallangan ittifoq barbod bo'ladi. Bundan keyingi voqealiklar Rossiya imperiyasidagi inqilob davri bilan bog'liq bo'lib, uning o'zi alohida bir mavzu sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, Rossiya va Afg'oniston davlatlari o'rtasidagi XX asr boshlaridagi o'zaro munosabatlar murakkab va chigal bosqichni o'z boshidan o'tkazgan bo'lib, ushbu munosabatlarni yaxlit va kompleks holatda o'rganish bugungi kundagi vazifalarimizdan biri bo'lib hisoblanadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Англо-русское соглашение относительно Тибета, Персии и Афганистана // Туркестанский сборник. Том 444 - С. 52-97.
2. Гродеков Н. Через Афганистан. // Туркестанский сборник. Том 241. 1-85 с.
3. Губар М.Г. Афганистан на пути истории. // ответственные редакторы Ю. В. Ганковский, В.Г. Коргун. Перевод с дари, введенная статья и комментарии Муллошо Давлятова. М. Наука 1987-206 с.
4. Еров А Ш Бухарский эмират на мировом рынке (вторая половина XIX - начало XX столетия) Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук -Душанбе 2005 https://Cheloveknauka.com.buharskiy_emirat-na-mirovom-ynke#ixzz5SwkeHeem
5. Коргун В.Г. История Арзамастана XX век//В. Г. Коргун М ИЗ РАН крафт Акад. Наук Ин-т Востоковедения, 2004-529 с
6. Лалетин Ю.П. Межэтническое взаимодействие в Афганистане. <https://mgmo.ru/upload/iblock/89/891ca817afs1960c95fada903aa5e910.pdf>
7. Массон В.М., Ромодин В.А. История Афганистана: Афганистан в новое время//Ответственные редакторы. Р.Т. Ахрамович. О.В. Ганкоевский, В.А. Лившиц. Том II. - М.: Наука, 1965-550 с.
8. Пурумшоев Х. Участие трудящихся Бухарского эмирата в восстании 1916 года в Средней Азии и Казахстане. https://kghistory.ikipress.org/uz_news/un_post
9. "Tiptrat va sanoat xabarları" // "Buxoroi sharif" 6-son, 1912-yil 18-mart.

10. 10 O'zRMDA I-3-fond, 2-ro'yxat, 166-hujjat, 86-varaq, 87-varaqning orqa tomoni
11. O'zRMDA 11-126-fond 2-ro'yxat 240-xujjat, 17-varaq 17-varaqning orqa tomoni, 18-varak 18-varaqning orqa tomoni, 23-varaq 23-varakning orqa tomoni
12. O'zRMDA 11-461-fond, 1-ro'yxat, 1023-hujjat 71-varaqning orqa tomoni

Received: 10 March 2025

Accepted: 15 March 2025

Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

CULTURAL LIFE IN THE CITIES OF THE FERGANA VALLEY IN THE SOVIET PERIOD (ON THE EXAMPLE OF THE Z.M. BABUR PARK)

Abdurakhmonov Adkhamjon

Basic doctoral candidate of Namangan State University

Abstract. This article analyzes in detail the activities of cultural and educational institutions in the context of spiritual reforms, the establishment, structure and activities of the Zahiriddin Muhammad Babur Park of Culture and Recreation in Namangan.

Keywords: cultural and educational institutions, parks of culture and recreation, theater and amateur groups, prosperous city, uyezd, local government, World War II, school, madrasa, landscaping work, city executive committee.

SOVETLAR DAVRIDA FARG'ONA VODIYSI SHAHARLARIDA MADANIY HAYOT (Z. M. BOBUR NOMLI ISTIROHAT BOG'I MISOLIDA)

Abduraxmonov Adxamjon Soxodilla o'g'li,

Namangan Davlat Universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ma'naviy islohotlar zamirida madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati, Namangandagi Zahiriddin Muhammad Bobur nomli madaniyat va istirohat bog'ining tashkil topishi, tuzilishi va faoliyati haqida atroflicha ma'lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: madaniy-ma'rifiy muassasalar, madaniyat va istirohat bog'lari, teatr va havaskorlik jamoalari, obod shahar, uyezd, mahalliy boshqaruv, ikkinchi jahon urushi, maktab, madrasa, obodonlashtirish ishlari, shahar ijroiya qo'mitasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N05>

Mustaqillik sharoitida ma'naviy islohotlar zamirida madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati tubdan o'zgardi, yangi mazmun kashf etdi, shaklan kamol topdi. Bu o'zgarishlar istiqloq bergan imkoniyatlar asosida sodir bo'ldi. Zero, bu sohani yangilanishi tarixiy zarurat edi. Sovetlar davrida madaniy-ma'rifiy muassasalar xalq manfaatlariga xizmat qilish o'rniga, zo'raki ravishda kommunistik g'oyalarni targ'ib qilish maskanlariga aylantirilgan edi.

Madaniyat va istirohat bog' tuzish san'atining o'ziga xos uslublari asosida barpo etiladi. O'zbekistonda Madaniyat va istirohat bog'lari shahar hududining hajmi, me'moriy qiyofasi va tabiiy sharoitiga qarab tashkil qilinadi. Kichik shaharlarda bitta, katta shaharlarda bir necha, aholisi 500 mingdan ortiq shaharlarda esa umumshahar ahamiyatiga ega bo'lgan bog'lardan tashqari, shahar hududidagi har bir tumanning madaniyat va istirohat bog'i bo'lishi mumkin. Unda aholiga madaniy xizmat ko'rsatish katta o'rin tutadi. Maydonlardagi ochiq estrada sahnalarida professional teatr va eng yaxshi havaskorlik jamoalarining spektakl va konsertlari, dorboz, polvon va masxarabozlarning tomoshalari, askiya kechalari uyushtiriladi, kinofilmlar

namoyish qilinadi. Ommaviy sayil, karnaval, turli sport musobaqalari va boshqalar tashkil etiladi. Bolalar uchun maxsus joy ajratilib, qiziqarli attraksionlar bilan jihozlanadi.

Inson deyarli har kuni bir daqiqalarni dam olishga, nafas rostlashga, istirohat qilishga ajratadi. Ayniqsa sershovqin joylarda ishlash yoki shahar ko'chalaridagi shovqinlarni eshitish, shuningdek kishilar o'rtasidagi mehr-oqibatning susayib qolgani hamda hayot tashvishlari-yu, iqtisodiy qiyinchiliklar kuchaygani sababli inson organizmi, xususan uning asabini tez charchab qolishi tabiiydir.

Kishida shunday holatda so'lim va salqin joylarga borib dam olish, kayfiyatini ko'tarish ishtiyoqi tug'iladi. Bu jihatdan Namangandagi Zahiriddin Muhammad Bobur nomli madaniyat va istirohat bog'i kishilarni hamisha o'ziga chorlab turishi bilan qo'l keladi.

Namangan – go'zal, so'lim va obod shahar hamda gullar shahri hisoblanadi. Bu qisqacha ta'rifning o'ziga xos, qariyb ming yillik tarixi borki, keyinroq bunga batafsil to'xtab o'tish joiz. Lekin Namangan shahrining ana shunday ta'rifga va tavsifga ega bo'lishida istirohat maskanining munosib hissasi bor. Chunki nafaqat namanganliklar, balki serquyosh respublikamizning boshqa shaharlari va qo'shni respublikalardan kelgan ko'plab mehmonlar mazkur bog'da istirohat qilishgan va zavq olishgan.

Bog'ning tabiiy va iqlim sharoiti, geografik o'rni o'ziga xos xususiyatga egadir. Namangan shahri Farg'ona vodiysining shimoliy qismida, dengiz sathidan 450 metr balandlikda, qiradirlarning boshlanish hududida joylashgan. Iqlim kontinental bo'lib, yozi issiq va quruqdir [1. 9-b.].

Namangan shahrining qoq o'rtasida esa istirohat maskani barpo bo'lgan. Yozning jaziramada issiq kunlari bog'da yursangiz, havoning salqini va musaffoligini seziladi. Chunki bog' va bog'ga yaqin ko'chalardagi salobatli, azim chinorlar, boshqa manzarali daraxtlar quyosh nurlarini to'sib, atrofi salqin qilib tursa, ariqlarda shildirab oqayotgan suvlar havoga mo'tadillik baxsh etadi. Bog'da favvora va anvoyi gullar kishi bahri dilini yanada ochadi, unga xush kayfiyat bag'ishlaydi. Atrof doimo odamlar bilan gavjum. Dam olish yoki sayr kunlari esa yanada ko'proq kishi hordiq chiqarayotgan bo'ladi. Ayniqsa bolalar miriqib o'ynab yurishadi.

Qadim zamonlardan boshlab inson soya-salqin, suvi bor, bahavo, obod joylarda hordiq chiqarishga intilib kelgan. Bunday maskanlarning ayrimlari hatto muqaddas qadamjoylarga aylangan.

Namangan shahriga 1875-yilning oktyabr oyida Rossiya qo'shinlari kirib kelgan. Ularga qarshilik ko'rsatuvchi qurolli kuch to'plash o'sha paytda Namanganda bo'lmagan. Po'latxon esa yangi kuch to'plash maqsadida Chotqol tog'lariga ketadi. Namangan xalqi 1875-yilning 24-oktyabr kuni rus bosqinchilariga qarshi norozilik qo'zg'olonini boshlaydilar. Rus qo'shinlari esa bu qo'zg'olonni 27-oktyabrda shafqatsizlik bilan bostirishgan.

Namangan shahri shu kundan boshlab tamoman ruslar qo'liga o'tadi. 1876-yilda Farg'ona viloyati tashkil topgach Namangan uyezd-shaharga aylanadi [2. 1-b.]. Xudoyorxon farmoni bilan qurilgan madrasa rus qo'shinlari uchun tayyor mustahkam harbiy qalaga aylanadi. Rus harbiy ma'murlari bo'lajak bog' o'rnida bu qalani kengaytirish, yoniga yangi binolar qurish va atrofni o'rash uchun uch yilga qurilish ishlarini olib bordilar.

Qurilishga ishlatish uchun xom g'isht tayyorlab, so'ng uni xumdonda pishirish yo'lga qo'yilgan. Tuproqni esa shu atrofga yaqin bo'lgan hovuz bo'yidan olina boshlandi. Olingan tuproqni o'rni asta-sekin keng va chuqur hovuzga o'xshab qoldi. Harbiy ma'murlar bu joydan ko'l sifatida foydalanish uchun suv kuydirib to'ldiriladi. Natijada kattagina ko'l paydo bo'ldi.

Ishchi kuchi sifatida mahalliy xalq mehnatidan keng foydalanib, ularni qattiq ezishadi. Ko'l o'rtasida qolgan kichikroq joyga uyezd boshlig'i uchun oshxona qurilgan. Bu hozirgi "Shabada" oshxonasining o'rnini bo'lgan. Hozir ham boloxonali ayvon saqlanib qolgan. Ko'l va uyezd boshlig'ining hovlisi atrofida (uy hovliga hozirgi viloyat tarixi va madaniyati muzeyi o'rnida bo'lgan) 1878-1880-yillarda ko'plab daraxtlar o'tkazilgan. Dub, chinor, kashtan kabi daraxtlarning ko'plari hozirgi kungacha saqlanib qolgan. 1884-yili ko'l va daraxtzorlar atrofi yog'och panjara bilan o'ralgan. Shu tariqa bog' – istirohat maskani tashkil topgan.

Bog' va bog'dagi ko'lning barpo bo'lish tarixi haqida og'izdan-og'izga ko'chib yurgan turlicha ma'lumotlar ayrim tomonlari bilan haqiqatga yaqindir. Chunonchi Namangan shahar uyezdiga boshliq etib tayinlangan rus ofitseri bizning iqlimga va joylarimizga ko'nika olmay, ob-havo noqulayligi, xususan bu yerning yozi g'oyat issiq bo'lishidan shikoyat qilib Rossiya podshosiga Namangandan ketish uchun ruxsat so'rab xat yozadi. Rossiyadan esa ketishga ruxsat berilmasligi haqida xabar keladi. Lekin uning iltimosini hisobga olib, yashab turgan joyida soya-salqin bog' va ko'llar barpo qilishi mumkinligi, buning uchun hukumat tomonidan qisman yordam berilishi to'g'risida ko'rsatma oladi. Shuning uchun uyezd rahbarlari Namangan shahrida bog' barpo qilish ishiga tez va qattiq kirishib ketishdi. Nisbatan qisqa muddatda bog'da asosiy ishlar amalda bajarib tugallanadi. Kerakli tuproqni ham boshqa joydan keltirmay, shu yaqin joyidan olib ishlatishadi va sun'iy ko'l hosil qilishadi.

O'sha paytdan boshlab birinchi bog'bonlik qilgan kishi bu – Zarifbog'bon Latipovdir [3. 7-b]. Ko'l atrofida azim chinorlarni shu kishi tomonidan o'tkazilgan. Bog'da faqat uyezd boshlig'i, uning qarindoshlari va unga tanish bo'lgan boylar, amaldorlar foydalanishgan xolos. Mahalliy aholining ayniqsa oddiy fuqarolarning va hatto harbiy askarlarning ham bog'ga kirishi, dam olishi qat'iy ta'qiqlangan. Umumiy maydoni 3 gektardan iborat bo'lgan bu bog' 1920-yilgacha uyezd boshlig'iga qarashli bo'lgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur nomli istirohat bog'i 1920-yilda tashkil topgan mahalliy hokimiyat ixtiyoriga o'tadi. Lekin uni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish borasida 1934-yilgacha sezilarli o'zgarish bo'lmagan. 1924-yildan e'tiboran bog'ni mehnatkashlarning ommaviy ravishda dam olish maskaniga aylantirish yuzasidan katta hajmda ish boshlab yuborildi. Shu yili ko'l yonida yangi choyxona tashkil qilingan. Solixon Majidov va Oxundeda Hojiyevlar yordamida mahalliy fuqarolardan kerakli idishlar to'plandi, paloslar olib kelingan. Akbarqo'zi Asqarov birinchi choyxonachi, Sodiqov degan kishi oshpaz bo'lib ish boshlagan.

1926-yili mahalliy boshqaruv tashkilotlarining qarori bilan kommunal xo'jaligining texnigi Devyatovga daraxtlar va mevalar o'sayotgan joyda ishlayotgan hunarmandlarni ko'chirish va bog'ni obodonlashtirish vazifasi yuklatilgan. Shundan boshlab bu joy mehnatkashlarning dam olish bog'i degan nom oldi va u rasman ochilgan.

1929-1933-yillarda Andijon okrug boshlig'i bog'ni kengaytirish va obodonlashtirish ishlari yuzasidan tadbirlar belgilab, qaror qabul qildi. Jumladan, obodonlashtirishga 30 ming so'm, ko'chat o'tkazishga 15 ming so'm pul ajratgan. 1934-yili esa Namangan shahar ijroiya qo'mitasi bog'ni yanada obod va fayzli bo'lishi uchun 80 ming so'm mablag' sarflashga qaror qildi. O'sha yili bu mablag'dan to'la foydalanildi. Kino qo'yiladigan joy, kurash tushish maydoni, orkestr va konsert uchun maxsus tomoshagohlar qurilgan. Namangan shahar ijroqo'mi va bog' ma'muriyati 1935-yil may oyida bog' atrofida kerosin chiroqlardan foydalanishni to'xtatish va elektr chiroqlari o'rnatish haqida qaror qabul qilingan. Shundan so'ng elektrlashtirish ishlari boshlab yuborilgan.

1936-yili istirohat bog‘i hududida joylashgan xristian ibodatxonasi buzildi va uning g‘ishtlari shahardagi 5-maktab qurilishiga ishlatilgan. Butxona qo‘ng‘iroqlari esa yog‘ zavodiga va o‘t o‘chirish komandasiga berildi. Ibadatxona o‘rniga yosh tomoshabinlarning yozgi teatri qurilgan. Bu hozirgi ko‘l bo‘yidagi yozgi teatr binosi bo‘lgan. Shu yili beshta katta chinor tagida choyxona va oshxona qurib ishga tushirilgan. Keyinchalik bu choyxonaga “Beshchinor” nomi beriladi.

Istirohat bog‘i muntazam faollik bilan ishlashni davom ettiradi. Bog‘ ma‘muriyati, shaxsan direktor Tojimirza Xalilov shahar ijroqo‘mi oldiga xiyobonlar va maydonlar qurish uchun Moskvadan mutaxassislar chaqirish yoki borib ish o‘rganib kelish masalasini qo‘yadi. Shunga ko‘ra, Direktor Tojimirza Xalilov va bog‘ agronomi Abduqahhor Jalilovlar 1936-yili Moskvaga yuboriladi. Ularning Moskvadagi A.M.Gorkiy nomli madaniyat va istirohat bog‘ida bo‘lib, tajriba o‘rganib kelishgani tezda o‘z samarasini beradi. 1936 va 1937-yillarda istirohat bog‘i o‘zining ko‘rinishi, obodonligi, karnaval va ommaviy ko‘ngilochar xalq sayillarini maroqli o‘tkazishi bilan el hurmatini qozondi. O‘sha paytdagi manbalar, boshqaruv va madaniyat tashkilotlari ham buni rasman e‘tirof etganlar. 1937-yili chiqarilgan Sovet ensiklopediyasida Namangan istirohat bog‘i haqida ma‘lumot berilib shunday yozilgan: “Namangan shahar madaniyat va istirohat bog‘i Sovet hokimiyati yillarida qurilgan bo‘lib, o‘zining ishlari bilan O‘zbekistondagi eng ilg‘or istirohat bog‘laridan biri sifatida mashhur bo‘lmoqda”[4. 416-b].

1937-yilda istirohat bog‘i direktori Tojimirza Jalilov nohaq ayblanib qamaladi. Uning o‘rniga bo‘lgan Musin degan kishi ham 1938-yili ishdan bo‘shatiladi. Shundan so‘ng istirohat bog‘iga Mirboboyev ismli kishi rahbarlik qila boshlaydi. 1938-yil 28-aprelda istirohat bog‘iga Aleksandr Sergeevich Pushkin nomi beriladi. Shu yildan boshlab istirohat bog‘iga kirish pullikka aylantirilib, chipta narxi 50 tiyin qilib belgilangan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida istirohat bog‘idagi ishlar keskin susayadi. Ish o‘rinlarining soni kamayadi va asosan istirohat bog‘ida ayollar faoliyat ko‘rsatishgan. Lekin qiyinchiliklarga qaramasdan istirohat bog‘ining faoliyati to‘xtab qolmagan. O‘z kuchlari hisobiga issiqxona ishlatishgan, gul ko‘chatlarini va urug‘larini saqlab qolishga muvaffaq bo‘lishadi. Istirohat bog‘ida ishlayotganlar frontga sovg‘a va turli yordamlar uyushtirib turishadi. Urushdan keyingi yillarda shahar ijroqo‘mi istirohat bog‘i ishini yanada jonlantirish uchun katta e‘tibor bergan. Masalan 1946-yili istirohat bog‘i uchun 186 ming so‘m pul ajratiladi. 1948-yilda esa istirohat bog‘ida sport va bolalar maydonlari ham barpo etiladi. Madaniyat uyi, viloyat kutubxonasi yordami bilan istirohat bog‘i hududida ko‘chma kutubxona, shaxmat-shashka bazasi ham tashkil etiladi. Shu bilan birgalikda istirohat bog‘ida ko‘plab konferensiya va musobaqalar ham tashkil etilgan.

1947-1951-yillarda istirohat bog‘iga Xudoyberdi Rahmonov direktorlik qilgan [5. 9-b.]. Keyingi yillarda esa bog‘ni Muborakov degan kishi boshqargan. 1961-yili istirohat bog‘ida karusel, o‘q otish xonasi ishga tushirilgan. Shuningdek yangi billiard stollari ham sotib olinib, aholini dam olishi uchun imkoniyatlar yaratiladi. Shu yildan boshlab istirohat bog‘ida turli ommaviy ko‘ngilochar tadbirlarni o‘tkazish yanada avj oladi.

1953-yilda istirohat bog‘i hududida ikki marta karnaval o‘tkaziladi. O‘zbekistonlik mashhur artistlar bilan birga Qirg‘iziston, Ozarbayjon va Tatariston san‘atkorlari ham ko‘plab konsertlar uyushtirib, bog‘da mehmon bo‘lishgan. Shu yili G‘afur G‘ulom ijodiga bag‘ishlab o‘tkazilgan she‘riyat kechasi ham katta bayramga aylanib ketadi.

1954-yilgi mavsumga istirohat bog'ini tayyorlab jihozlash va bezatish ishlariga xuddi hozirgiga o'xshab shahrimizdagi bir qancha yirik zavod-fabrikalar va sanoat korxonalari yaqindan yordam berishadi. O'sha zamon talabi asosida ko'plab suratlar ham bog' fayziga fayz qo'shgan. 1954-yilda istirohat bog'idagi birinchi favvora qurib ishga tushiriladi. Mazkur favvora yozgi teatr yonida bo'lgan, keyinchalik buzilib, o'rnida charxpalak qurilgan.

1955-yili beshta qayiq sotib olinib, ko'lda "Suv stansiyasi" tashkil etiladi. Istirohat bog'idagi estrada maydoni va mavjud karusellar qayta ta'mirlanib, badiiy jihatdan bezatiladi. Elektr simyog'ochlar temir ustunlarga almashtiriladi. Bu ishlarning tashkilotchisi istirohat bog'i rahbari Bosit Akramov nomi bilan bog'liq bo'lgan. 1956-yildan boshlab esa istirohat bog'iga Hoshimjon Nurmatov rahbarlik qila boshlaydi.

Namangan shahar ijroqo'mi 1957-yili istirohat bog'ini obodonlashtirish ishlariga 262 ming so'm mablag' ajratadi. Istirohat bog'ining asosiy kirish darvozasi qayta qurilib, yonadigan harflar bilan bezatiladi. Ikkinchi va uchinchi kirish darvozalari ham ta'mirlanadi. Istirohat bog'ida "Rus" arg'imchoqlari o'rnatiladi. 1955-yili istirohat bog'i hududida ochilgan viloyat muzeyining shoxobchasida ham katta hajmda ishlar olib borilgan. Namangan yoshlari va institut talabalarining VI jahon festivaliga bag'ishlab ko'plab tadbirlar tashkil qilinadi, ko'plab konsertlar o'tkaziladi.

1958-yili istirohat bog'i hududidagi ko'lni tozalab, suv sporti vishkasi o'rnatiladi. Musiqa chalinishiga moslab rangli tasvirlar beruvchi ajoyib sahna quriladi. Istirohat bog'idagi yog'och panjaralar o'rniga temir panjaralar o'rnatiladi. Buning natijasida istirohat bog'ining atrofi o'raladi.

Istirohat bog'i ma'muriyati nafaqat kattalar, balki bolalar hordig'ini haqida ham ko'p o'ylaganlar. 1962-yili istirohat bog'ida 150 ta bolaga mo'ljallangan sog'lomlashtirish lageri ham tashkil etiladi. Mazkur lagerda ikki smenada jami 300 nafar bola dam olib hordiq chiqarishga muayassar bo'lishgan. 1961-yilning 24, 25, 26, 27-avgust kunlari ilk bor shahardagi tashkilot, korxonalar, o'quv yurtlari, maktab va havaskor gulchilarning gul ko'rgazmasi namoyish qilinadi [6. 11-b.]. Shundan keyin bu – an'anaviy gul bayramiga aylanib ketadi.

1964-yilda istirohat bog'ida antiqa tadbir – 01, 02, 03, 04 telefon raqamlari kuni tashkil etildi. Bu tadbirning o'tkazishdan maqsad kundalik hayotimizdagi kichik ehtiyotsizlik qanday oqibatlariga olib kelishi haqida tushunchalar berish hamda tarmoq xodimlarining mahorat ko'riklari va tayyorgarligi sinovdan o'tkazildi. Shu yilgi mavsumda bolalar bog'cha-yaslisi ham ishlab turdi. Bu hol dam oluvchilarning o'z farzandlarini bog'chaga vaqtincha topshirib, bimalol hordiq chiqarishlariga katta imkoniyat yaratdi.

1966-yil 31-avgustda qadimiy xalq sayillaridan – "Qovun sayli" ham istirohat bog'ida o'tkazildi. Bunday sayllar keyingi yillarda "Hosil bayrami" ga aylanib ketdi.

1977-yil fevral-aprel oylarida bog'da katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Namangan shahar ijroiya qo'mitasining, shahar va viloyatdagi ko'plab tashkilotlar va korxonalarining harakati natijasida bog' yonidagi harbiy qism boshqa joyga ko'chirilib, istirohat bog'i maydoni kengaytirildi. Aslida bu ish 1933-yilda boshlanib, oxiriga etmay qolgan edi. Ancha qiyinchiliklar oqibatida bu masala oradan 40 yil o'tib, ijobiy hal etildi. Bu ishda o'sha paytdagi shahar ijroqo'mining raisi Qodir Mamarasulovning xizmati katta bo'lgan. Iqtisodiy jihatdan katta mablag' – salkam 3 million sarflangan edi. Bir nechta yirik binolarni buzib, bog' holatiga moslashtirish va obodonlashtirishga to'g'ri kelgan edi. Shahrimizdagi barcha davlat va jamoat tashkilotlarining vakillari bu xayrli ishga o'z hissalarini qo'shishdi. Shu tariqa istirohat

bog'ining umumiy sathi 16,5 gektarga yetkazildi. Yangi o'zlashtirilgan keng maydonga katta va kuchli favvora o'rnatildi.

1983-1986-yillarda istirohat bog'i hududida o'ymakor-rassom L.P.Lopatinskaya tomonidan yog'och o'ymakorligiga oid bir nechta san'at asarlari ishlangan. 1990-yil avgust oyida istirohat bog'iga hamyurtimiz, mashhur davlat arbobi, olim va sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur nomi berilgan [7. 12-b].

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Namangan shahriga tashriflari va undan so'ng 2009-yil qabul qilingan 1170-sonli qarori asosida bog'i hukumat dasturiga kiritilib, 2009-yilda qayta loyihalashtirilib o'sha yilning oktyabr oyida to'la rekonstruksiya ishlari boshlab yuborildi. Istirohat bog'idagi 26 ta har xil talabga javob bermaydigan xizmat ko'rsatish obyektlari buzib tashlandi. Istirohat bog'ining ta'mirlash ishlariga davlat byudjeti mablag'i asosida 3 mlrd 300 mln so'mlik qurilish va obodonchilik ishlari amalga oshirildi.

Bugun istirohat bog'ida 8 ta choyxona va oshxona, 10 ta muzqaymoq pavilyonlari, shaxmat klubi, 48 ta zamonaviy attraksionlar va boshqa ko'ngilochar obyektlar mehmonlarga xizmat qilmoqda. Bog' hududida 1 gektarlik ko'l, 1,5 km.li irrigatsiya tarmoqlari, 1 ta zamonaviy favvora ishlab turibdi.

Istirohat bog'ining 16,7 galik hududida 2 mingdan ziyod 27 xil daraxtlar, 80 mingta 23 xil mavsumiy va ko'p yillik gul ko'chatlari, 7,500 metr kv. maysazor bog' husniga chiroy bag'ishlab turibdi.

Bog'da ochiq estrada maydoni, 800 tomoshabinga mo'ljallangan amfiteatr bunyod etildi. Hududda aholini dam olishi uchun 75 ta skameykalar, 165 ta tungi yoritish chiroqlari o'rnatilgan. Nasihat maydoni, gulli so'ritok, sokin hudud tashkil etilgan. 2010-yil avgust oyidan bog' o'z faoliyatini yangidan boshladi. Shahrimiz aholisi va ko'plab tashrif buyurgan mehmonlarning sevimli dam olish maskaniga aylandi. Bog'da 24,5 shtat bo'yicha xodimlar faoliyat ko'rsatishmoqda. Shundan 4 nafar rahbar, 2 nafar texnik xodimlar, 3 nafar gulchi, 1 nafar elektr-mexanik, 4 nafar qorovul, 1 nafar irrigatsiya ishchisi, qolganlari har xil xizmatlarni bajaruvchi xodimlar hisoblanishadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi istirohat bog'i o'zining ko'rkamligi bilan dillarga zavq-shavq bag'ishlab kelmoqda. O'zbekistonlik va chet ellik mashhur adiblar, olimlar, davlat arboblari istirohat bog'da dam olishib, o'z fikrlarini dahshatlari orqali zo'r iftixor bilan bayon etishgan.

Istirohat maskanida 1967-yili "O'zbekfilm" kinostudiyasi tomonidan "Dilbarim" nomli badiiy film suratga olingan. 1973-yilda esa O'zbekiston hujjatli va ilmiy-ommabop filmlar studiyasining ijodkorlari mazkur go'zallik maskani haqida hikoya qiluvchi "Gul sayli" nomli qisqa metrajli film yaratishgan. Istirohat bog'ining har tomonlama yuksalishiga o'z mehnatlari bilan hissa qo'shgan bir qator kishilarning nomlarini hurmat bilan tilga olish joizdir. Bular – Haydarjon Karimov, Solixon Nosirov, Nuriddin Hamdamov, Hoshimjon Nurmatov, Olimjon Abdullayev, Hamidxon Dadaboyev va boshqalardir [8. 3-b].

Mashhur adiblar G'afur G'ulom, Maqsud Shayxzoda. Akademik M.Keldish va boshqa kishilar tomonidan yozib qoldirilgan dastxatlar, she'rlar istirohat bog'iga berilgan katta baho desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, madaniyat va istirohat bog'lari tarixiy taraqqiyotining qaysi davri bo'lmasin, u madaniy dam olish orqali insoniyatning ong-tafakkurini rivojlantirishga xizmat

qilib kelgan. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik davri esa bu vazifani yangi davr talablari darajasida ado etilishi bilan madaniyat va istirohat bog'larining o'zgacha mazmun va qiyofa kasb etishiga olib keldi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Қосимов Ў. Наманган тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 9.
2. Turkiston viloyatining gazetasi // – 1876. – № 11-12; Положение об управлении Туркестанского края. – Санкт-Петербург, 1886. – С. 1.
3. Исмоилов Ю. Наманган фаҳри (Шаҳардаги Заҳириддин Муҳаммад Бобур номли маданият ва истироҳат боғининг 110 йиллигига). – Наманган., 1994. – Б. 7.
4. Ўзбек Совет Энциклопедияси. 2-том. – Тошкент., 1972. – Б. 416.
5. Исмоилов Ю. Наманган фаҳри (Шаҳардаги Заҳириддин Муҳаммад Бобур номли маданият ва истироҳат боғининг 110 йиллигига). – Наманган., 1994. – Б. 9.
6. Исмоилов Ю. Наманган фаҳри (Шаҳардаги Заҳириддин Муҳаммад Бобур номли маданият ва истироҳат боғининг 110 йиллигига). – Наманган., 1994. – Б. 11.
7. Исмоилов Ю. Наманган фаҳри (Шаҳардаги Заҳириддин Муҳаммад Бобур номли маданият ва истироҳат боғининг 110 йиллигига). – Наманган., 1994. – Б. 12.
8. “Наманган ҳақиқати” газетаси. – № 11. 1994 йил, 5 феврал. – Б. 3.

Received: 10 March 2025

Accepted: 15 March 2025

Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

THE PAKHTAKOR-79 TRAGEDY: ITS IMPACT ON THE DEVELOPMENT TRAJECTORY OF UZBEK FOOTBALL IN THE USSR TOP LEAGUE (1979-1991)

Ergashev Ahmad Abdug'offorovich

History Teacher,

Surkhandarya Campus of Navoi Innovations University,

Shurchi, Uzbekistan

Abstract. On August 11, 1979, the collision of two TU-134 aircraft over Dneprodzerzhinsk resulted in the deaths of 17 members of the "Pakhtakor" football team, profoundly impacting the development trajectory of Uzbek football in the USSR Top League. This article analyzes the short- and long-term consequences of the tragedy from 1979 to 1991. The study focuses on "Pakhtakor"'s pre-disaster achievements (a 4-game winning streak in 1979, 9:2 aggregate score), the rapid reformation of the team (the USSR Football Federation's 3-year exemption policy, 1979-1982 results), and long-term effects (slowed development of local talent and weakened Uzbek representation in the league). Through statistical analysis, historical documents, and comparisons with other USSR teams, the impact on Uzbek football's competitiveness, infrastructure, and national reputation is assessed. The findings indicate that "Pakhtakor"'s potential successes (participation in European competitions, contention for the USSR championship) were not only lost, but the tragedy also reduced Uzbek players' presence in the USSR national team and hindered the growth of young local talents (e.g., Sirojiddin Bazarov, Ravil Agishev). Although the reformed team's 6th-place finish in 1982 and Andrey Yakubik's top scorer title signal partial recovery, the overall trajectory shifted significantly. The article identifies lost opportunities for Uzbek football and suggests directions for future research.

Keywords: air disaster, local talent, fan psychology, psychological trauma, emotional consequences.

PAXTAKOR-79 FOJIASI: O'ZBEK FUTBOLINING SSSR OLIY LIGASIDAGI RIVOJLANISH TRAYEKTORIYASIGA TA'SIRI (1979-1991)

Ergashev Ahmad Abdug'offorovich

Tarix fani o'qituvchisi,

Navoiy innovatsiyalar universiteti Surxondaryo kampusi,

Sho'rchi, O'zbekiston

E-mail: ahmadergashev97@gmail.com

Annotatsiya. 1979-yil 11-avgustda Dneprodzerzhinsk osmonida ikki TU-134 samolyotining to'qnashuvi natijasida "Paxtakor" futbol jamoasining 17 a'zosi halok bo'lib, o'zbek futbolining SSSR oliy ligasidagi rivojlanish trayektoriyasiga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Ushbu maqola fojining 1979-1991-yillar oralig'idagi qisqa va uzoq muddatli oqibatlarini tahlil qiladi. Tadqiqot "Paxtakor"ning fojia oldidagi muvaffaqiyatlariga (1979-yilda 4 g'alaba seriyasi, 9:2 hisobida), jamoaning tezkor qayta tashkil etilishiga (SSSR Futbol Federatsiyasining 3 yillik imtiyoz siyosati, 1979-1982 natijalari), shuningdek, uzoq muddatli ta'sirlarga (mahalliy iste'dodlarning sekin rivojlanishi, oliy ligadagi o'zbek vakilligining zaiflashuvi) e'tibor qaratadi. Statistika tahlili, tarixiy hujjatlar va boshqa SSSR jamoalari bilan qiyosiy usullar yordamida fojining o'zbek futbolining raqobatbardoshligi, infratuzilmasi va milliy miqyosdagi obro'siga ta'siri baholanadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, "Paxtakor"ning potensial yutuqlari (Yevrokuboklarda ishtirok, SSSR chempionligiga da'vogarlik) nafaqat yo'qqa chiqdi, balki fojia o'zbek futbolchilarining SSSR terma jamoasidagi ishtirokini kamaytirdi va mahalliy yosh iste'dodlar (masalan, Sirojiddin Bazarov, Ravil Agishev) rivojlanishini sekinlashtirdi. Shu bilan birga, yangi jamoaning 1982-yilda 6-o'ringa erishishi va Andrey Yakubikning eng yaxshi to'purar bo'lishi qisman qayta tiklanishni ko'rsatadi, ammo umumiy

trayektoriya sezilarli darajada o'zgardi. Maqola o'zbek futbolining yo'qotilgan imkoniyatlarini aniqlab, kelajak tadqiqotlari uchun yo'nalishlar taklif qiladi.

Kalit so'zlar: aviahalokat, mahalliy iste'dodlar, muxlislar psixologiyasi, psixologik travma.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N06>

Kirish. 1979-yilning yozida Dneprodzerjinsk osmonida ro'y bergan fojiali aviahalokat O'zbekiston sport tarixida chuqur iz qoldirdi. "Paxtakor" jamoasi o'sha paytda SSSR oliy ligasida o'z o'rnini mustahkamlagan, mahalliy futbolchilarning iste'dodi va jamoaviy ruhiyati bilan ajralib turuvchi kuchli jamoa edi. Ushbu halokat jamoaning eng muvaffaqiyatli davrida, o'zbek futbolining xalqaro maydonda tan olinishi imkoniyati paydo bo'layotgan bir paytda sodir bo'ldi. Fojia o'zbek futbolining nafaqat o'sha yildagi rejalarini, balki keyingi o'n yilliklardagi rivojlanish yo'nalishini ham keskin o'zgartirdi. Bu voqea o'zbek sporti uchun faqat jamoaning yo'qolishi bilan cheklanib qolmadi, balki milliy sportning o'sish imkoniyatlari, muxlislarning ishtiyoqi va infratuzilma rivojiga ham ta'sir qildi.

"Paxtakor-79" fojiasining dolzarbligi bugungi kunda ham davom etmoqda, chunki u o'zbek futbolining o'tganini tushunish va kelajagini shakllantirishda muhim darslar beradi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng futbolni rivojlantirish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Hozirgi kunda O'zbekiston Futbol Assotsiatsiyasi (O'FA) va Hukumat tomonidan yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash, zamonaviy stadionlar qurish va xalqaro turnirlarda ishtirok etish uchun katta resurslar ajratilmoqda. Biroq, 1979-yildagi fojia o'zbek futbolining SSSR davridagi o'sish imkoniyatlarini cheklab, mahalliy sportning uzoq muddatli rivojlanishiga soya solgan edi. Shu sababli, ushbu tadqiqot o'tgan fojining ta'sirini o'rganish orqali bugungi siyosatning muvaffaqiyatini baholash va kelajak uchun strategik yondashuvlarni taklif qilishda ahamiyatlidir. Masalan, bugungi O'zbekiston futbolidagi yoshlar akademiyalariga qilingan sarmoya 1979-yilda yo'qotilgan iste'dodlarning o'rnini qoplashga qaratilgan sa'y-harakatlarning davomi sifatida ko'rilishi mumkin [2, 28-b.].

Fojining ilmiy jihatdan dolzarbligi uning o'zbek futbolining SSSR oliy ligasidagi o'rni va rivojlanishiga ta'sirini chuqur tahlil qilish imkoniyatidadir. O'sha davrda "Paxtakor" nafaqat mahalliy muxlislar uchun faxr manbai, balki SSSR miqyosida ham e'tibor qozongan jamoa edi. Uning fojiali yo'qolishi o'zbek futbolining xalqaro maydondagi obro'sini ko'tarish imkoniyatini chekladi va mahalliy o'yinchilarning milliy darajada tan olinishini qiyinlashtirdi. Shu bilan birga, fojia SSSR sport tizimining markazlashgan siyosati doirasida jamoalarni qayta tiklash jarayonini o'rganish uchun noyob misol bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot dunyo futbolidagi shunga o'xshash hodisalar bilan solishtirish imkonini ham beradi, bu esa o'zbek futbolining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Bugungi O'zbekistonda futbol siyosati fojining oqibatlaridan saboq olishga qaratilgan ko'rinadi. Masalan, "Paxtakor"ning zamonaviy muvaffaqiyatlari, xususan, Osiyo Chempionlar Ligasidagi ishtiroki, o'tgan yo'qotishlarni qoplashga qaratilgan uzoq muddatli strategiyaning bir qismi sifatida talqin qilinishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot o'zbek futbolining SSSR davridagi trayektoriyasini o'rganish orqali bugungi siyosatning ildizlarini tushunishga xizmat qiladi. Tadqiqotning maqsadi 1979-1991-yillar davomida fojining o'zbek futbolining oliy ligadagi rivojlanishiga ta'sirini baholash, uning sportdagi, ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarini aniqlashdir. Statistika, arxiv ma'lumotlari va qiyosiy tahlil usullari yordamida o'zbek futbolining o'tgan imkoniyatlari va bugungi holati o'rtasidagi bog'liqlik ochib beriladi.

Natijada, o'zbek futbolining kelajakdagi rivojlanishi uchun fojining ta'siridan kelib chiqadigan saboqlar taklif qilinadi [1, 17-b.].

Mavzuni o'rganilganlik darajasi. "Paxtakor-79" fojiasi O'zbekiston va sobiq Sovet Ittifoqi sport tarixida muhim voqea sifatida keng e'tirof etilgan bo'lsa-da, uning o'zbek futbolining SSSR oliy ligasidagi rivojlanish trayektoriyasiga ta'siri bo'yicha chuqur ilmiy tadqiqotlar cheklangan. Mavzu asosan jurnalistik maqolalar, xotira kitoblari va hujjatli loyihalar doirasida yoritilgan, ammo akademik tahlil darajasi yetarli emas. Ushbu bo'limda mavzuning o'rganilganlik darajasi aniq tadqiqotchilar va ularning ishlari asosida ko'rib chiqiladi.

Fojining texnik sabablari bo'yicha dastlabki tadqiqotlar SSSR Aviatsiya Vazirligi tomonidan o'tkazilgan bo'lib, dispatcherlar xatosi asosiy sabab sifatida aniqlangan. Bu ishlar Xarkov havo harakati boshqaruvchilarining 15 yillik qamoq jazosiga olib kelgan, ammo futbolga ta'siri masalasi e'tibordan chetda qolgan. Sport tarixi nuqtai nazaridan, "Paxtakor"ning fojia oldidagi faoliyatini o'rganishda sovet jurnalisti Yuriy Semyonovning "Sovet Sport" gazetasidagi maqolalari muhim hisoblanadi. Semyonov 1979-1982-yillardagi jamoaning qayta tiklanish jarayonini tasvirlab, Andrey Yakubikning 1982-yilda liganing eng yaxshi to'purari bo'lganini ta'kidlagan. Biroq, uning ishi statistik tahlil yoki uzoq muddatli oqibatlarga chuqur kirmaydi [10.].

Mustaqillikdan keyin O'zbekistonda fojia xotira janrida ko'proq yoritildi. Tulyagan Isakovning shaxsiy xotiralari va intervyulari (masalan, 2018-yilda Eurasianet nashriga bergan suhbat) jamoaning ijtimoiy ahamiyatini ochib bergan. Isakov o'zbek futbolchilarining mahalliy ruhini va fojining muxlislarga ta'sirini tasvirlaydi, lekin ilmiy metodologiyadan uzoq. Shu bilan birga, Dmitriy An (Mixail Anning ukasi) Brian Songning "Misha" (2021) hujjatli filmida ishtirok etib, fojining shaxsiy va etnik jihatlarini (Koreys jamoasi sifatida) yoritgan. Film Mixail Anning merosiga urg'u bergan bo'lsa-da, umumiy trayektoriyaga ta'sir tahlili cheklangan.

Xalqaro miqyosda fojiani o'rganishda James Appell (FOX Sports, 2011) va Chris Rickleton (Eurasianet, 2018) muhim hissa qo'shgan. Appell Lokomotiv Yaroslavl fojiasi bilan solishtirib, "Paxtakor"ning qayta tiklanishini (1982-yilda 6-o'rin) ta'kidlasa, Rickleton muxlislarning uzoq muddatli xotirasi va SSSRning axborotni yashirish siyosatini o'rgangan. Biroq, bu ishlar ham jurnalistik doirada qolib, statistik yoki iqtisodiy tahlilga kirmagan. Hujjatli loyihalarda Brian Songning "Misha" filmi (2021) fojining o'zbek-koreys jamoasiga ta'sirini ko'tarsa-da, u SSSR oliy ligasidagi kengroq oqibatlarni chuqur o'rganmaydi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasidagi asosiy bo'shliqlar quyidagicha: birinchidan, fojining mahalliy iste'dodlar rivojiga, infratuzilmaga va muxlislar psixologiyasiga ta'siri bo'yicha tizimli tadqiqotlar yo'q; ikkinchidan, "Paxtakor"ning potensial yutuqlari (masalan, Yevrokuboklar) va SSSR sport siyosatidagi o'zgarishlar ilmiy jihatdan baholanmagan; uchinchidan, dunyo futbolidagi boshqa fojialar bilan qiyosiy tahlil deyarli amalga oshirilmagan. Bugungi O'zbekiston futbol siyosati bilan bog'liqlik masalasi ham e'tibordan chetda qolgan.

Ushbu maqola ushbu bo'shliqlarni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, 1979-1991-yillarda fojining o'zbek futbolining trayektoriyasiga ta'sirini chuqur tahlil qiladi. Mavjud tadqiqotchilar ishlaridan farqli o'laroq, statistik ma'lumotlar, arxiv hujjatlari va qiyosiy usullar yordamida yangi jihatlar – iqtisodiy oqibatlar, psixologik ta'sir va zamonaviy siyosat bilan aloqa – o'rganiladi. Bu yondashuv mavzuni kengroq kontekstda ko'rib chiqishga imkon beradi.

Material va tadqiqot usullari. Ushbu tadqiqot “Paxtakor-79” fojiasining o‘zbek futbolining SSSR oliy ligasidagi rivojlanish trayektoriyasiga 1979-1991-yillardagi ta‘sirini o‘rganish uchun turli materiallar va usullardan foydalanadi. Materiallar sifatida “Paxtakor”ning 1979-yilgi mavsum statistikasi (SSSR Futbol Federatsiyasi arxivlari), SSSR Sport va Aviatsiya Vazirliklarining fojia hisobotlari, Tulyagan Isakov (Eurasianet, 2018) va Dmitriy Anning (“Misha”, 2021) shaxsiy hikoyalari, “Sovet Sport” gazetasining 1979-1982-yillardagi maqolalari (Yuriy Semyonov), shuningdek, James Appell (FOX Sports, 2011) va Chris Rickletonning (Eurasianet, 2018) [3.] xalqaro nashrlari ishlatildi. Tadqiqot usullaridan statistik tahlil “Paxtakor”ning o‘yin natijalarini (1979 va 1982-yillar) solishtirish uchun qo‘llanildi. Tarixiy tahlil usuli asosida arxiv va matbuot materiallari asosida fojining tezkor va uzoq muddatli oqibatlarini xronologik tartibda o‘rgandi. Qiyosiy usul “Manchester United” (1958) va “Torino” (1949) fojialari bilan taqqoslash uchun ishlatildi. Sifatli tahlil muxlislar psixologiyasi va psixologik ta‘sirni shaxsiy hikoyalardan aniqladi. Iqtisodiy tahlil esa stadion daromadlari va infratuzilma rivojidagi o‘zgarishlarni 1970-1980-yillardagi tendensiyalar asosida taxmin qildi. Ushbu materiallar va usullar fojining sport (raqobatbardoshlik), ijtimoiy (muxlislar) va iqtisodiy (infratuzilma) jihatdan ta‘sirini tizimli ravishda baholashga imkon berdi, o‘zbek futbolining yo‘qotilgan imkoniyatlari va bugungi siyosat bilan bog‘liqligini ochib berdi.

Natijalar va ularning muhokamasi. 1979-yil 11-avgustda Dneprodzerjinsk (hozirgi Dnipro, Ukraina) osmonida ikki TU-134 samolyotining to‘qnashuvi natijasida “Paxtakor” futbol jamoasining 17 nafar a‘zosi, shu jumladan yetakchi o‘yinchilar Mixail An, Vladimir Fyodorov va boshqa futbolchilar hayotdan ko‘z yumdi. Ushbu aviahalokat umumiy 178 yo‘lovchi va ekipaj a‘zolarining o‘limiga sabab bo‘lib, O‘zbekiston sport tarixidagi eng og‘ir fojialardan biri sifatida qayd etildi. “Paxtakor” o‘sha paytda SSSR oliy ligasida muvaffaqiyatli ishtirok etib, 1979-yilgi mavsumda ketma-ket to‘rt g‘alaba (umumiy hisob 9:2) qo‘lga kiritgan edi. Fojia Minskda “Dinamo”ga qarshi navbatdagi o‘yin uchun yo‘lga chiqayotgan vaqtida ro‘y berdi, bu esa jamoaning eng yuqori cho‘qqisidagi faoliyatini to‘xtatdi. Halokatning asosiy sababi havo harakati boshqaruvi xodimlarining xatosi bo‘lib, SSSR rahbari Leonid Brejnevning Qrimga parvozi uchun havo yo‘laklarining toraytirilishi bu xatoni yanada murakkablashtirdi (SSSR Aviatsiya Vazirligi hisobotlari, 1979). Ushbu tadqiqot fojining 1979-1991-yillar oralig‘ida o‘zbek futbolining SSSR oliy ligasidagi rivojlanish trayektoriyasiga ta‘sirini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, uning sportdagi, ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarini o‘rganadi [3.].

“Paxtakor” fojia oldida SSSR oliy ligasida muhim o‘rin tutgan jamoa edi. 1979-yilgi mavsumda “Rostov SKA”, “Neftchi”, “Dinamo Minsk” va “Zarya Voroshilovgrad” ustidan qozonilgan g‘alabalar jamoaning Yevrokuboklarda ishtirok etish imkoniyatini ko‘rsatardi. Mixail An va Vladimir Fyodorov kabi o‘yinchilar SSSR terma jamoasida ham e‘tirof etilgan bo‘lib, Fyodorov 1976-yilgi Monreal Olimpiadasida bronza medalini qo‘lga kiritgan edi. Fojia bu imkoniyatlarni yo‘qqa chiqardi va jamoaning raqobatbardoshligiga jiddiy zarba berdi. SSSR Futbol Federatsiyasi fojidan keyin tezkor choralar ko‘rib, “Paxtakor”ga uch yil davomida oliy ligadan tushmaslik kafolatini berdi va har bir klubdan o‘yinchilar ajratishni majburiy qildi. Bu siyosat qisqa muddatda jamoani qayta tashkil etishga imkon bergan bo‘lsa-da, mahalliy iste‘dodlarning yo‘qolishi uzoq muddatli salbiy oqibatlarga olib keldi.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, (SSSR Futbol Federatsiyasi arxivlari), yangi tuzilgan “Paxtakor” 1979-1982-yillar oralig‘ida o‘rtacha natijalar ko‘rsatdi, ammo 1982-yilda 6-o‘rinni egallab, Andrey Yakubik eng yaxshi to‘purar unvonini qo‘lga kiritdi. Bu natija qisman

muvaffaqiyat sifatida baholansa-da (Semyonov, “Sovet Sport”, 1982), fojia oldidagi potensial – masalan, SSSR chempionligi yoki xalqaro turnirlardagi ishtirok – amalga oshmadi. Mahalliy futbolchilarning yo‘qolishi o‘zbek futbolining SSSR miqyosidagi vakilligini zaiflashtirdi va yosh iste‘dodlarning rivojlanishini sekinlashtirdi. Masalan, fojia oldida jamoada o‘tib kelayotgan Sirojiddin Bazarov va Ravil Agishev kabi o‘yinchilarning potentsiali yo‘qqa chiqdi, bu esa keyingi yillarda mahalliy iste‘dodlar yetishmasligiga olib keldi [1, 21-b.].

Fojianing o‘zbek jamiyatiga ta‘siri chuqur bo‘ldi. Toshkentdagi Botkin qabristonida o‘rnatilgan yodgorlik – markazida to‘pga intilayotgan darvozabon tasviri va atrofidagi halqada 17 futbolchining ismlari bilan “Paxtakor-79: Pomnim, Chtim, Gordimsya” yozuvi – bu fojianing xalq xotirasidagi o‘rnini ko‘rsatadi. Qabristonda faqat besh futbolchi dafn etilgan bo‘lib, qolgan 12 nafari O‘zbekistonning turli hududlarida (Samarqand, Navoiy, Buxoro) ko‘milgan. Har yili 11-avgustda bu yodgorlikda xotirlash marosimlari o‘tkaziladi, unda qurbonlarning qarindoshlari, muxlislar va oddiy fuqarolar ishtirok etadi. 1979-yil 18-avgustdagi dafn marosimida 200 mingga yaqin odam ishtirok etgani (O‘zbekiston matbuoti, 1979) voqeaning ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlaydi [4.].

Fojianing psixologik ta‘siri ham e‘tiborga molik. Tulyagan Isakovning xotiralariga ko‘ra (Eurasianet, 2018), u jarohati tufayli halokatli reysdan chetda qolgan bo‘lsa-da, ruhiy tushkunlik tufayli faoliyatini yakunlagan. Isakov fojidan keyin o‘zini aybdor his qilganini va futbolga qaytishga qodir bo‘lmaganini ta‘kidlaydi. Shu bilan birga, Dmitriy An (Song, “Misha”, 2021) otasi Mixail Anning jamoani qo‘llab-quvvatlash uchun jarohatga qaramay reysga chiqqanini eslaydi. Bu holatlar fojianing nafaqat jamoaga, balki omon qolganlar va muxlislar psixologiyasiga ham chuqur ta‘sir ko‘rsatganini ko‘rsatadi. Muxlislar orasida futboldan uzoqlashish tendensiyasi kuzatilgan bo‘lib, bu stadion daromadlari va infratuzilma rivojiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi [5].

“Paxtakor-79” fojiasi dunyo futbolidagi boshqa aviahalokatlar – “Torino” (1949), “Manchester United” (1958), “Chapecoense” (2016) va “Lokomotiv Yaroslavl” (2011) bilan umumiy xususiyatlarga ega. Bu fojianing o‘ziga xosligi SSSRning markazlashgan sport tizimida yuz berganligidadir. Masalan, “Manchester United” fojiasidan keyin klub o‘z resurslari asosida qayta tiklangan bo‘lsa, “Paxtakor” SSSR Federatsiyasining qo‘llab-quvvatlash siyosatiga tayandi. James Appell (FOX Sports, 2011) “Paxtakor”ning qayta tiklanishini “Lokomotiv Yaroslavl” bilan solishtirib, SSSRning majburiy o‘yinchilar ajratish strategiyasini ta‘kidlaydi. Biroq, bu siyosat mahalliy iste‘dodlarning rivojlanishiga to‘sqinlik qildi, bu esa “Paxtakor”ning uzoq muddatli trayektoriyasini boshqa fojiadan omon qolgan klublardan farqlantirdi.

Ukraina hududidagi Kurilovka qishlog‘ida o‘rnatilgan yodgorlik fojianing xalqaro miqyosdagi aks-sadosini ko‘rsatadi. O‘zbekistonlik muxlisning halokat joyidan velosipedda tuproq olib kelishi va uni qabrlarga tarqatishi (Rickleton, Eurasianet, 2018) voqeaning chuqur ijtimoiy va emotsional ta‘sirini tasdiqlaydi. Bu harakatlar “Paxtakor-79” xotirasining nafaqat O‘zbekistonda, balki fojia joyida ham saqlanayotganini ko‘rsatadi [6.].

Fojianing oqibatlarini bugungi O‘zbekiston futbol siyosatida ham aks etadi. Mustaqillikdan keyin “Paxtakor” 8 marta mamlakat chempioni bo‘lib, Osiyo Chempionlar Ligasida muvaffaqiyatli ishtirok etdi. O‘zbekiston Futbol Assotsiatsiyasi (O‘FA) tomonidan yoshlar akademiyalariga qilingan sarmoyalar 1979-yilda yo‘qotilgan iste‘dodlarning o‘rnini qoplashga qaratilgan uzoq muddatli strategiya sifatida talqin qilinadi. Botkin qabristonidagi yodgorlik har yili o‘tkaziladigan xotirlash marosimlari bilan birgalikda “Paxtakor-79” merosining davom

etishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, fojining iqtisodiy ta'siri – stadion daromadlari va infratuzilma investitsiyalarining kamayishi – mustaqillikdan oldingi davrda o'zbek futbolining rivojlanishini sekinlashtirgan omil sifatida qayd etiladi [2, 23-bet.].

Ushbu tadqiqot fojining 1979-1991-yillar oralig'ida o'zbek futbolining SSSR oliy ligasidagi trayektoriyasiga ta'sirini tahlil qilishga qaratildi. Statistika (SSSR Futbol Federatsiyasi arxivlari), arxiv hujjatlari (Sport va Aviatsiya Vazirliklari hisobotlari), shaxsiy xotiralar (Isakov, An) va matbuot materiallari (Semyonov, "Sovet Sport") asosida fojining sportdagi (raqobatbardoshlik), ijtimoiy (muxlislar psixologiyasi) va iqtisodiy (infratuzilma) oqibatlari baholandi. Tadqiqot "Paxtakor"ning yo'qotilgan imkoniyatlarini aniqlab, bugungi siyosat bilan bog'liqligini ko'rsatdi. Fojining o'zbek futboliga ta'siri nafaqat SSSR davrida, balki mustaqil O'zbekiston sportining shakllanishida ham muhim rol o'ynaganligi xulosa qilinadi [8.].

Xulosalar. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, "Paxtakor-79" fojiasi O'zbekiston sport tarixidagi eng og'ir sinovlardan biri bo'lib, uning o'zbek futbolining SSSR oliy ligasidagi rivojlanish trayektoriyasiga ta'siri 1979-1991-yillar davomida sezilarli darajada namoyon bo'ldi. Ushbu tadqiqot fojining sportdagi, ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarini tahlil qilib, uning o'zbek futbolining potensial yutuqlariga qanday to'sqinlik qilganini aniqladi. 1979-yil 11-avgustda Dneprodzerjinsk osmonida ro'y bergan aviahalokat "Paxtakor"ning eng muvaffaqiyatli davrini to'xtatdi. Jamoaning fojia oldidagi natijalari – ketma-ket to'rt g'alaba va 9:2 hisobidagi ustunlik – Yevrokuboklarda ishtirok etish va SSSR chempionligiga da'vogarlik imkoniyatini ko'rsatardi. Biroq, Mixail An, Vladimir Fyodorov kabi yetakchi o'yinchilarning yo'qolishi va mahalliy iste'dodlarning rivojlanishidagi sekinlashuv bu imkoniyatlarni yo'qqa chiqardi.

SSSR Futbol Federatsiyasining uch yillik imtiyoz siyosati jamoani qisqa muddatda qayta tashkil etishga imkon berdi, natijada 1982-yilda 6-o'rin va Andrey Yakubikning eng yaxshi to'purar unvoni qo'lga kiritildi. Ammo bu natijalar fojia oldidagi trayektoriyani tiklay olmadi. Statistika va arxiv ma'lumotlari (SSSR Futbol Federatsiyasi, 1979-1982) yangi jamoaning raqobatbardoshlik darajasi pasayganini tasdiqlaydi. Mahalliy futbolchilarning o'rnini boshqa klublardan kelgan o'yinchilar egallashi o'zbek futbolining o'ziga xosligini va milliy miqyosdagi vakilligini zaiflashtirdi. Shu bilan birga, fojia infratuzilma rivoji va stadion daromadlariga salbiy ta'sir ko'rsatib, 1980-yillar oxirigacha iqtisodiy qiyinchiliklarni keltirib chiqardi.

Ijtimoiy jihatdan fojia o'zbek jamiyatida chuqur iz qoldirdi. Botkin qabristonidagi yodgorlik va har yili 11-avgustda o'tkaziladigan xotirlash marosimlari "Paxtakor-79" xotirasining davom etayotganini ko'rsatadi. Tulyagan Isakov va Dmitriy Anning shaxsiy hikoyalari (Eurasianet, 2018; Song, 2021) fojining psixologik ta'sirini ochib beradi, muxlislar orasida futboldan uzoqlashish va emotsional travmalarni ta'kidlaydi. Xalqaro miqyosda "Paxtakor-79" "Torino" (1949) va "Manchester United" (1958) kabi fojialar bilan qiyoslanadi, ammo SSSRning markazlashgan sport siyosati uning oqibatlarini o'ziga xos qildi. Kurilovkadagi yodgorlik va muxlislarning sadoqati (masalan, velosipedda tuproq olib kelish) voqeaning global va mahalliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Bugungi O'zbekiston futbolida "Paxtakor"ning mustaqillikdan keyingi muvaffaqiyatlari (8 chempionlik) fojining oqibatlaridan qayta tiklanish sifatida talqin qilinadi. O'zbekiston Futbol Assotsiatsiyasining yoshlar akademiyalariga sarmoyasi 1979-yilda yo'qotilgan iste'dodlarni qoplashga qaratilgan strategiyani aks ettiradi. Shu bilan birga, fojia o'zbek

futbolining SSSR davridagi yo‘qotilgan imkoniyatlari – xalqaro obro‘ va mahalliy rivojlanish – hali to‘liq qoplanmaganligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, “Paxtakor-79” fojiasi o‘zbek futbolining SSSR oliy ligasidagi trayektoriyasini keskin o‘zgartirdi. Uning sportdagi raqobatbardoshlikka, ijtimoiy birlashuvga va iqtisodiy barqarorlikka ta’siri 1991-yilgacha davom etdi. Kelajak tadqiqotlari fojining iqtisodiy oqibatlarini (stadion daromadlari, investitsiyalar) chuqurroq o‘rganishga, shuningdek, boshqa SSSR respublikalari futboliga ta’sirini qiyosiy tahlil qilishga qaratilishi tavsiya etiladi. Ushbu fojia o‘zbek futbolining o‘tmishini tushunish va kelajagini shakllantirishda muhim saboq sifatida qolmoqda.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Uzbekistan Still Mourns a Football Generation Lost to Air Crash. Monday, June 25, 2018. <http://www.uzbekjourneys.com/2018/06/uzbekistan-mourns-football-generation-lost-to-air-crash-part-1.html>
2. Nazirov B.S. O‘zbekistonda ommaviy sport o‘yinlari tarixi (sportning futbol turi misolida). – T.: “Bekshox print servis”, 2025. – 151 b.
3. Kris Riklton. Uzbekistan still mourns a soccer generation lost to air crash. Jun 12, 2018. <https://eurasianet.org/uzbekistan-still-mourns-a-soccer-generation-lost-to-air-crash>
4. Imomxo'jaev A. Moziyga qaytib... Erkaklar yig'laganda. 2024-yil 11-avgust. <https://championat.asia/oz/news/moziyga-qaytib-erkaklar-yiglaganda-2>.
5. Nurmatov Sh. "Paxtakor-79" aviahalokatining yangi tafsilotlari. 2024-yil 11-avgust. <https://championat.asia/oz/news/paxtakor-79-aviahalokatining-yangi-tafsilotlari-2>
6. Bektemirov A. Mixail Anning o'g'li Dmitriy An bilan suhbat materiallari. 2024-yil 11-avgust. <https://championat.asia/oz/news/otam-sssr-milliy-terma-jamoasi-safida-aqsh-safaridan-qaytganida-otamni-oilamiz-bilan-aeroportda-kutib-olgan-edik-osha-voqeani-yaxshi-eslayman-afsonaviy-mixail-anning-ogli-dmitriy-an-bilan-intervyu>
7. Imomxo'jaev A. 44 yillik ayriliq: "Paxtakor-79"ni xotirlab. 2023-yil 11-avgust. <https://championat.asia/oz/news/44-yillik-ayriliq-paxtakor-79ni-xotirlab>
8. Yoshlik jurnali. 1989 yil sentyabr soni.
9. Sovetskiy sport. 1979 yil, 18 avgust soni.
10. Pereturin V. «Sovetskiy sport», 1978 yil 20 avgust soni.

Received: 10 March 2025

Accepted: 15 March 2025

Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

REFLECTIONS ON THE "KAVCHIN" SEED OF THE UZBEKS (KASHKADARYA OASIS)

Ergashev Umar Kuziyevich

Independent researcher

University of Ekonomies and Pedagogy

nongovernmental edicational establishment

Abstract. The name of several localities in Kashkadarya, Surkhandarya, Bukhara, Samarkand regions occurs in the form of Kavchin, Upper Kavchin, Lower Kavchin, Kavchinon. when you ask how many dark pages of history that we know and don't know begin to shine through in front of you. The article discusses, analyzes and provides reasoning on these issues, as well as discusses some promising information on these issues.

Keywords: Kavchin, Upper Kavchin, Lower Kavchin, Kavchinon, Potron-kavchin, Hammock-kavchin, Shirkent-kavchin, Lagandi-kavchin, "beguzuv", "balkhi", "kurpachuvish", "buzchi", "Kashmiri", "Sulaiman", "imam", "buyin", "tugal", "tuyabuyin".

O'ZBEKLARNING "QOVCHIN" URUG'IGA DOIR MULOHAZALAR (QASHQADARYO VOHASI)

Ergashev Umar Kuziyevich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

nodavlat ta'lim muassasasi

mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro, Samarqand viloyatlaridagi aholi maskanlaridan bir qanchasining nomi Qovchin, Yuqori Qovchin, Past Qovchin, Qovchinon ko'rinishida uchrashi ushbu atamaning bejiz paydo bo'lmagani, bir-biriga uzoq-yaqin bo'lgan bir necha viloyatda bunday nomda qishloqlarning borligi shunchaki tasodif yoki o'z-o'zidan bo'lmaganini, bir qarashda qandaydir notanish so'zga o'xshaydigan ushbu atamaning negizi surishtirsangiz qarshingizda tarixning biz bilgan va bilmagan qancha-qancha qorong'u sahifalari oydinlasha boshlaydi. Maqolada ushbu masalalar bo'yicha ko'rib chiqilib, tahlil qilinib, ular to'g'risida mulohazalar keltirilgan, shuningdek, ushbu masalalar bo'yicha ayrim istiqbolli ma'lumotlar muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: Qovchin, Yuqori Qovchin, Past Qovchin, Qovchinon, Potron-qovchin, Gamak-qovchin, Shirkent-qovchin, Lagandi-qovchin, "beguzuv", "balxi", "ko'rpachuvish", "bo'zchi", "kashmiri", "sulaymon", "imom", "bo'yin", "to'gal", "tuyabo'yin".

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N07>

O'zbekistonda "Qovchin" nomli aholi maskanlari – qishloq, mahalla, go'zar va ovullar uchraydi. Yurtimizda, ayniqsa, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro, Samarqand viloyatlaridagi aholi maskanlaridan bir qanchasining nomi Qovchin, Yuqori Qovchin, Past Qovchin, Qovchinon ko'rinishida uchrashi ushbu atamaning bejiz paydo bo'lmagani, bir-biriga uzoq-yaqin bo'lgan bir necha viloyatda bunday nomda qishloqlarning borligi shunchaki tasodif yoki o'z-o'zidan bo'lmaganini ko'rsatadi. Bir qarashda qandaydir notanish so'zga o'xshaydigan ushbu

atamaning negizi surishtirsangiz qarshingizda tarixning biz bilgan va bilmagan qancha-qancha qorong'u sahifalari oydinlasha boshlaydi.

Qashqadaryo viloyatining o'zaro tutash ikki-uch tumanida Qovchin degan qishloqlar uchrab, ular aholisi bir-birlarining qarindosh-urug' deb biladilar. Qarshi tumanining janubiy, G'uzor tumanining shimoliy va Qamashi tumanining har ikkala tumanga tutash hududlarida Qovchin nomli alohida-alohida qishloqlarning borligi esa aytib o'tilgan tumanlar aholisining bir qismi tarixan o'zaro qarindosh-urug' bo'lganidan darak beradi. Qashqadaryo vohasida yana shu nomdagi bir qator qishloqlar uchrashi esa vohada bunday toponimning paydo bo'lishining negizida qanday tarixiy jarayonlar yotishi masalasini tadqiq qilishga undaydi. Vohadagi Yakkabog' va Kitob tumanlarida ham shu nomdagi qishloq nomining uchrashi buning yorqin misolidir. Shuningdek, shu nomdagi qishloqlar Samarqand viloyatining Samarqand va Tayloq tumanlarida, Buxoro viloyatining Kogon va G'ijduvon tumanlarida aholi maskanlari nomi sifatida uchraydi [1;172-173.]. Bundan tashqari, Boysun shahrida Qovchingo'zar mahallasi qayd etilgan [2;173.].

G'uzor tumanidagi Qovchin qishlog'i vakillari kelib chiqish jihatidan qo'shni Qarshi tumanidagi Potron-qovchin, Gamak-qovchin, Shirkent-qovchin, Lagandi-qovchin nomli qishloqlar bo'lib[3:377], G'uzor va Qarshi tumanlari, shuningdek, vohadagi Qovchin nomli qishloqlar aholisi deyarli bir vaqtda vohaga kelib joylashgan bo'lsa kerak.

XX asr boshlariga tegishli aholi ro'yxatlarida Qashqadaryo vohasida 4640 nafar, xususan, Qarshi atrofidagi qovchinlarning soni 3815, Shahrisabz atrofida 825 kishi deb keltirilgan [4;40.]. 1920-yillarga tegishli statistik ma'lumotlarda esa O'zbekistonda yashovchi o'zbek qovchinlarning soni 25 mingga yaqin bo'lib, "beguzuv", "balxi", "ko'rpachuvish", "bo'zchi", "kashmiri", "sulaymon", "imom", "bo'yin", "to'gal", "tuyabo'yin" kabi tarmoq urug'lari bo'lgan [5; 75.].

Qovchin degan aholi maskanlari nomlarining aynan qachon uchrashi bilan qiziqqanimizda quyidagicha tarixiy manzaraga duch keldik:

1) O'rta asrlarda, ya'ni Chig'atoy ulusi (XIV – XV asrlar) va Temuriylar (1370-1507) davrida "qavchin" yoki "qovchin" nomi yirik turk-mo'g'ul urug'laridan birining nomi sifatida fors, turkiy va mo'g'ul tilli yozma manbalarda uchraydi [6; 171-172.];

2) Temuriylar davri tarixiy va adabiy asarlarida "qovchin" barlos, jaloyir, orlot, sulduz, qo'ng'iro't kabi ko'chmanchi urug'lari qatorida tilga olinib, ushbu urug' vakillari siyosiy va harbiy jarayonlarda faol ishtirok etgan shaxslar sifatida tilga olinadi [7;36,43,46,73];

3) XVI – XX asrlar oralig'ida yaratilgan "92 bovli o'zbek urug'i"ga aloqador forsiy va turkiy tilli shajara va nasabnomalarda "qovchin" o'zbek urug'laridan biri sifatida qayd etiladi [8;167.];

4) Buxoro amirligi (1753-1920) bilan aloqali forsiy tilli Qushbegi hujjatlarida amirlikka qarashli o'nlab aholi maskanlari – qishloqlar Qovchin, Qovchinon nomlari ostida tilga olinadi [9;77.];

5) XIX – XX asrlarga tegishli xorijiy tilli asarlarda, ayniqsa, O'rta Osiyoga tashrif buyurgan elchi va sayyohlarning qaydlarida Buxoro amirligi o'zbeklarining yirik urug'laridan biri o'laroq "qovchin"lar eslatib o'tiladi [10;15.].

O'zbek urug'lari ro'yxati ("Nasabnoma"lar)da, shu jumladan, Sayfuddin Axsikandiyning "Majmu' at-tavorix" (Tarixlar jamlamasi) asarida (XVI asr) "qovchin" o'zbek urug'laridan biri sifatida keltiriladi. Qizig'i, shundaki, ushbu ro'yxatlarning bir nechasida ular "batosh" etnonimi

bilan yonma-yon qayd etiladi [11;167.]. Qashqadaryo vohasida ham ushbu ikkala urug' nomi bilan ataluvchi qishloqlarning ko'pincha qo'shni yoki yaqin hududlarda joy olganligi ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, Qarshi va G'uzor tumanlarida Qovchin va Batosh qishloqlari joylashuv o'rniga ko'ra o'zaro bir-biriga yaqinligi diqqatni tortadi.

Buxoro amirligiga qarashli viloyat (beklik) va tumanlarda "Qovchin", "Qovchinon" nomli o'nlab qishloqlar mavjud bo'lgan. XX asrning boshlariga tegishli Qushbegi arxivi hujjatlarida Buxoro viloyatiga qarashli Xayrobod tumanida Qovjin, Shimoli-i rud tumanida esa Qovchin nomli qishloq nomlari tilga olinadi. Shuningdek, ushbu hujjatlarda Qarshi bekligiga qarashli Chim amlokligida Qovchin, Patiron amlokligida Qovchin-Patiron, Fazli amlokligida esa Qovchin-Shirkent qishloqlarining nomi qayd etiladi. Bundan tashqari, Qushbegi hujjatlarida Yakkabog' begligining Qorabog' amlokligiga qarashli bir qishloq Qovchin nomi bilan uchraydi [12;77.].

Qovchin muayyan bir turkiy urug' yoki turk-mo'g'ul elat sifatida o'rta asr yozma manbalarida ko'p bora eslatib o'tilgan bo'lsa-da, boshqa ko'plab turk-mo'g'ul urug'laridan farqli holda asosan o'zbeklar tarkibida tilga olinadi. Qozoq, qirg'iz, turkman, boshqird, no'g'oy yoki qoraqalpoqlarda shu yoki shunga o'xshash biror etnonim uchramasligi[13], aksincha qovchinlar ko'proq Amudaryo – Sirdaryo oralig'idagi hududlarda yashaydigan urug' sifatida qayd etilishi ushbu urug' vakillarining asosan bugungi O'zbekiston hududida o'troqlashib qolganini ko'rsatadi. Shunga o'xshash holat barlos, arlot, sulduz, qarluq kabi qaysi biri turkiy, qaysi biri turk-mo'g'ul urug'lari bo'lgan urug'larga ham tegishlidir. Ma'lumki, ushbu urug'larning sezilarli bir qismi, ayniqsa, barlos, arlot va sulduzlar XIII asrning ikkinchi choragi – XIV asrning boshlarida O'rta Osiyoga Mo'g'uliston va Oltoy hududlaridan ko'chib kelgan edilar. Qovchinlar ham aynan o'sha kezlarda Chingizxon boshchiligidagi turk-mo'g'ul urug'larining g'arbga, asosan O'rta Osiyoning ichki hududlariga ko'chishlari davrida qo'shin tarkibida joy olgan urug' sifatida bilinadi [14; 165-176.].

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining "Boburnoma" ("Vaqoye") asarida otasi Umarshayx mirzoning amirlarini sanaganda Ali Mazidbek qavchin, Qosimbek qavchin haqida yozib, ikkinchisining Andijonning qadimiy qo'shin beklaridan biri ekaniga urg'u beradi[15; 36.]. Shuningdek, Bobur o'z asarida o'z davrida taniqli bek va harbiy amaldorlar orasida Bug'do qavchin, Pirmuhammad elchi Bug'a qavchin, Muhammadquli qavchin, Mirzoshoh qavchin, Mirshoh qavchin va boshqalar haqida eslatib o'tadi [16;42, 46, 53, 72.]. Bu esa Temuriylar qo'shinida va davlat boshqaruvida qovchin urug'i vakillarining o'ziga xos o'rni bo'lgani, qo'shining sezilarli bir qismini ushbu urug' vakillari tashkil etganidan darak beradi.

V.V. Barotoldning yozishicha, tarixiy manbalar, shu jumladan, Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asaridan ma'lum bo'ladiki, "qovchin" so'zi boshlang'ichda muayyan bir urug' nomi emas, balki imtiyozli toifa nomi, «qo'shin qo'mondoni» yoki «qo'shin» ma'nosini anglatib, keyinchalik u etnonimga aylangan[17; 171-172.]. Elshunos olim T. Nafsovning bir qator tadqiqotchilarning qarashlariga tayanib yozishicha, qovchin etnonimining so'nggi qismi -chin "odamlar", "xalq" ma'nosini anglatgan bo'lib, ushbu etnonimning bosh qismi o'tmishda "qov / qav / quv" ko'rinishida bo'lgan. Bu so'zlar qu / quv "oqqush" ma'nosida bo'lib, ushbu etnonim totemdan kelib chiqqan. Tadqiqotchining yozishicha, ayrim izlanuvchilar qovchin etnonimini mo'g'ulcha "xav" (epchil, chaqqon) va "chin" (qattiq, yengilmas, og'ishmaydigan, sodiq, kuchli) so'zlari bilan ochiqleydilar: xavchin – qavchin – qovchin "epchilik, chaqqonlik xususiyatlariga ega" [18; 377.].

Qovchin etnonimi asli Oltin O'rda (asosan, Dashti Qipchoq) hududida shakllangan ko'chmanchi o'zbek, qozoq, no'g'oy va qoraqalpoq urug'laridan farqli holda aytib o'tilgan hududda uchramaydi. Ko'rinishidan, qovchinlar "92 o'zbek urug'i" ro'yxatiga XVI asrdan boshlab yoki birmuncha keyinroq kiritilgan urug'lardan biri bo'lgan. Buni Shayboniylar qo'shinida o'rin olgan mang'it, do'rman, qipchoq, xitoy, ming, yuz, qirq va hokazolar orasida qovchin etnonimi uchramasligi[19;16.] ham tasdiqlaydi. Bundan tashqari, ushbu qarashimizni yuqorida aytib o'tilganidek, qozoq, no'g'oy, boshqird, qoraqalpoqlar tarkibida bunday etnonim mavjud emasligi ham qo'llab-quvvatlaydi.

Qisqasi, dastlab Mo'g'uliston va atroflarida yashagan qo'ng'tirot, mang'it, barlos, arlot, sulduz, qatag'on, qovchin va hokazo kabi asosiy qismi turkiy, sezilarli bir qismi esa turk-mo'g'ul urug'larining Chingiziylar davrida g'arbga va janubi-g'arbga ko'chishlari natijasida O'rta Osiyoda jadal etnomadaniy jarayonlar yuz beradi. Ular orasida yetakchi urug'lardan biri bo'lgan qovchinlar boshlang'ichda Amudaryo – Sirdaryo oralig'ining bir qator hududlarida tarqalgan (masalan, Andijon atroflarida) bo'lsalar-da, so'nggi o'rta asrlarga kelganda ularning jips (kompakt) bo'lib yashaydigan hududi Qashqadaryo vohasi, ayniqsa, Qarshi tumani bo'lib qoladi. Bu holat ushbu urug' vakillarining vohada o'troqlashib, o'zlarining ko'plab qishloqlariga asos solishida o'z ifodasiga ega.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosi. Toshkent: O'qituvchi, 1978. B.172-173.
2. Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosi. – B. 173.
3. Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. – T.: Muharrir, 2009. – B. 377.
4. Tuychiyev U. Rodo-plemennaya struktura uzbekov v konse XIX – nachale XX vv. Referat. – Moskva, 1982. – S. 40.
5. Oxunov N. Joy nomlari ta'biri. – T.: "O'zbekiston", 1994. – B. 75.
6. Bartold V.V. Sochineniye. Tom V. Raboti po istorii i filologii tyurkskix i mongolskix narodov. – M., 1968.– C. 171-172.
7. Bobur, Zahiriddin Muhammad. "Boburnoma". Porso Shamsiyev, Sodiq Mirzayev, Eyji Mano va Saidbek Hasanov nashrga tayyorlagan „Boburnoma“ asarini hozirgi uzbek tiliga Vahob Rahmonov va Karomat Mullaxo'jayeva tarjima qilgan.– Toshkent: O'qituvchi NMIU, 2008. – B. 36, 43, 46, 73.
8. Sultanov T.I. Opit analiza traditsionnix spiskov 92 «plemen ilatiya» // Srednyaya Aziya v drevnosti i srednevekovye. – M.: Nauka, 1977. – S. 167.
9. Naselenniye punkti Buxarskogo emirata (konets XIX – nachalo XX v.) / Materiali k istoricheskoy geografii Sredney Azii. Pod. Red. A.R. Muxammedjanova. – T.: Universitet, 2001. – S. 77.
10. Xanikov N. Opisaniye Buxarskogo xanstva. – SPb., 1843. – S. 15.
11. Sultanov T.I. Opit analiza traditsionnix spiskov 92 «plemen ilatiya» Srednyaya Aziya v drevnosti i srednevekovye. – S. 167.
12. Naselenniye punkti Buxarskogo emirata (konets XIX – nachalo XX v.). – S. 77.
13. Ataniyazov S. Etnonimi v turkmenskom yazike. – Ashgabat: Ilim, 1994; Karatayev O. Kirgiz etnonimder sezdygy. – Bishkek, 2003; reyrov R.X. Nogaytsi. Osobennosti etnicheskoy istorii i bitovoy kulturi. – Stavropol: «Servisshkola», 2009; Kuzeyev R. G. K Proisxojdenniye bashkirskogo naroda. Etnicheskiy sostav, istoriya rasseleniya / R. G. Kuzeyev. – 2-ye izd., dop. – Ufa: Dizayn Poligraf Servis, 2010; Alpshes M. Shejire kazaxov: istochnike i trditsii. – Astana, 2013.
14. Sultanov T.I. Opit analiza traditsionnix spiskov 92 «plemen ilatiya». – S. 165-176.
15. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – B. 36.

16. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – B. 42, 46, 53, 72.
17. Bartold V.V. Sochineniye. Tom V. Raboti po istorii i filologii tyurkskix i mongolskix narodov. – C. 171-172.
18. Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. – B. 377.
19. Axmedov B. Gosudrastvo kochevix uzbekov. – M.: Nauka, 1965. – S. 16.

Received: 10 March 2025

Accepted: 15 March 2025

Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

JALALIDDIN RUMIY: SPIRITUAL BRIDGE BETWEEN TURKESTAN AND ANADOLU

Bebitov Maqsud Abdirasulovich

Teacher of the Denov Institute of entrepreneurship and pedagogy

Jo'raqulova Mukambar Tursinmurod qizi

Student of the Denov Institute of entrepreneurship and pedagogy

Abstract. Jalaluddin Rumi's rich philosophical and spiritual heritage is incomparable in its contribution to world philosophy and culture. For more than seven centuries, his personality and scientific and spiritual heritage have generated widespread interest in the East and West. The legacy of Jalaluddin Rumi, a great thinker, scholar, and representative of Sufi philosophy of the medieval Muslim East, continues to illuminate hearts yearning for spirituality today. For a deep study of his philosophical observations, Sufi thought, and spiritual heritage, it is necessary, first of all, to analyze the historical, social, and cultural factors that influenced the formation of his life path, personality, and Sufi views. In this study, based on historical-biographical analysis and comparative methods, the life, philosophical and Sufi views of Jalaluddin Rumi were studied.

Keywords: Jalaluddin Rumi, Philosophical-spiritual heritage, Sufi philosophy, Spirituality, East and West, Historical-biographical analysis, Comparative methods, Medieval Muslim East, Wisdom and contemplation.

JALOLIDDIN RUMIY: TURKISTON VA ANADOLU O'RTASIDAGI MA'NAVIY KO'PRIK

Bebitov Maqsud Abdirasulovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

E-mail: m.bebitov@dtpi.uz

Jo'raqulova Mukambar Tursinmurod qizi

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

E-mail: mukambarjurakulova@dtpi.uz

Annotatsiya. Jaloliddin Rumiyning boy falsafiy-ma'naviy merosi jahon falsafasi va madaniyatiga qo'shgan hissasi bilan beqiyosdir. Yetti asrdan ortiq vaqt davomida uning shaxsiyati va ilmiy-ma'naviy merosi Sharq hamda G'arb olamida keng qiziqish uyg'otib kelmoqda. O'rta asrlar musulmon Sharqining ulug' mutafakkiri, alloma va tasavvufiy falsafa vakili bo'lgan Jaloliddin Rumiyning merosi bugungi kunda ham ma'naviyatga tashna bo'lgan qalblarni o'z ziyosi bilan yoritib kelmoqda. Uning falsafiy mushohadalari, tasavvufiy tafakkuri va ma'naviy merosini chuqur o'rganish uchun avvalo uning hayot yo'li, shaxsiyati va tasavvufiy qarashlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan tarixiy, ijtimoiy va madaniy omillarni tahlil qilish zarur. Ushbu tadqiqotda Jaloliddin Rumiyning hayoti, falsafiy va tasavvufiy qarashlari tarixiy-biografik tahlil va qiyosiy metodlar asosida o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Jaloliddin Rumi, falsafiy-ma'naviy meros, tasavvufiy falsafa, ma'naviyat, sharq va g'arb, tarixiy-biografik tahlil, qiyosiy metodlar, o'rta asrlar musulmon sharqi, ma'rifat va tafakkur.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N08>

Kirish. Insoniyat paydo bo'lganidan buyon ma'naviy barkamollik masalalari har bir davrda dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Bugungi kunda shiddatli texnologik taraqqiyot va

ma'naviy evrilishlar davrida yashayotgan insoniyat uchun ma'naviyat masalalari, ayniqsa yosh avlodning ma'naviy jihatdan tarbiyalanishi, tobora muhimroq bo'lib bormoqda. Axborot tufayli yuzaga kelgan global bo'hronlar va qadriyatlarining o'zgarishi sharoitida ma'naviyat masalalari dolzarb muammoga aylangan. Mustaqillik yillarida O'zbekiston jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shgan buyuk allomalarimizning ma'naviy merosini o'rganish va targ'ib qilishga katta e'tibor berila boshlandi. O'rta asr musulmon Sharqining ulug' siymosi Jaloliddin Rumiyning merosi ham ana shunday boy va asrlarga tatigulik ahamiyatga ega bo'lgan manbalardan hisoblanadi. Uning falsafiy-ma'rifiy qarashlari milliy istiqlol g'oyasining asosini tashkil etuvchi komil insonni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega. Shu sababli, Rumiyning merosini tizimli va chuqur tadqiq qilish zamonaviy davrning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Tadqiqot usullari. Jaloliddin Rumiyning merosini o'rganish va targ'ib qilish 1980-yillarda boshlangan. Bu jarayon taniqli sharqshunos Radiy Fishning *"Jaloliddin Rumiyning"* tarixiy-biografik romani tarjima qilinishi bilan kuchaydi [1, B. 267.]. Keyinchalik fors-tojik adabiyoti bilimdoni Shoislom Shomammedov Rumiyning g'azal, ruboiy va hikmatlarini o'zbek tiliga o'girishda muhim hissa qo'shdi. Jamol Kamol kabi olimlar ham bu borada katta xizmat ko'rsatdilar.

Mustaqillik yillarida Jaloliddin Rumiyning hayoti va ijodini o'rganish, uning asarlarini tarjima qilish va nashr etish bo'yicha yangi davr boshlandi. Najmiddin Komilov, Orif Usmon, Homidjon Homidiy, Ibrohim Haqqul, Hamidulla Boltaboyev, Tohir Qahhor, Rashid Jumayev kabi olimlar Rumiyning merosiga bag'ishlangan qator ilmiy tadqiqotlarni e'lon qildilar. Yozuvchi va tarjimon Ulug'bek Abdurahob *"Fihi mo fihi"* asarini turk tilidan o'zbek tiliga tarjima qildi. Mutarjim Asqar Mahkam esa Turkiyalik rumiyshunos Obiddin Podsho va eronlik mavlaviyshunos Karim Zamoniylarning sharhlaridan foydalanib, *"Masnaviyi"* ning birinchi kitobini o'zbek tiliga o'girdi.

Jaloliddin Rumiyning hayoti va ilmiy merosini o'rganishda Kichik Osiyo, Xuroson, Movarounnahr, Eron, Hindiston va Pokistonda *"Masnaviy"* asariga yozilgan sharhlar muhim ahamiyatga ega. Bu sharhlar Rumiyning falsafiy va tasavvufiy qarashlarini tushunishda asosiy manba vazifasini o'taydi. Bundan tashqari, olmoniyalik sharqshunos Anna Mariya Shimmelning [2, b. 373] Rumiyning hayoti va ijodiga, xususan *"Masnaviy"* asariga bag'ishlangan tadqiqotlari orqali uning merosi haqida chuqurroq ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

Adabiyotlar tahlili. G'arbiy Yevropada Jaloliddin Rumiyning shaxsi va merosi XVIII asr oxiridan boshlab siyosiy va ilmiy namoyondalar orqali tanila boshlandi. J. de Vallenburg, J. Fon Xammer, Fredrich Rukert, Jeyms Redxouz, Reynold Nikolson va A.J. Orberi kabi olimlar Rumiyning merosini o'rganish va targ'ib qilishga katta hissa qo'shdilar. Biroq, G'arbda olib borilgan tadqiqotlarda ko'pincha sharqshunoslik yoki tarjimonlik jihatlari ustunlik qilganligini ko'rish mumkin.

Rumiyning ilmiy merosini diniy va falsafiy g'oyalar bilan uyg'un holda tadqiq etgan olimlar qatoriga B. Furuzonfara, Ch. Xumoi, M. Cha'fari, R. Fish, R. Xadizade, N. Odilova [3] va boshqalarni kiritish mumkin. Ushbu olimlarning tadqiqotlarida Rumiyning ijodi *"vahdadi vujud"* konsepsiyasi asosida tahlil qilingan. Bundan tashqari, bu tadqiqotlarda Rumiyning islomgacha bo'lgan davrdagi turli diniy-falsafiy g'oyalar bilan qiyosiy tahlili ham amalga oshirilgan.

Turkistonda tasavvuf va Jaloliddin Rumiyning falsafiy merosini o'rganish XX asr boshlarida rus sharqshunoslari tomonidan boshlangan. Ye. E. Bertels, V. V. Bartold, Ye. A. Krimskiy va I. E. Goldtsier [4] kabi olimlar bu borada muhim tadqiqotlar olib borishgan. Ular

Rumiyning tasavvufiy qarashlari va uning Sharq madaniyatidagi oʻrni haqida chuqur tahlillar yaratdilar.

Natijalar va ularning muhokamasi. Jaloliddin Rumi 1207-yil 30-sentabrda Balxda tugʻilgan. Biroq, *Devon-i Kabirdagi* sheʼrlariga asosan, uning tugʻilgan yili 1184-yil deb ham taxmin qilinadi [5]. Uning ismi Muhammad ibn Muhammad ibn Husayn Balxiy, laqabi “Jaloliddin”, “Mavlono” esa uni ulugʻlash uchun ishlatilgan. “Xudovandigar” unvoni otasi tomonidan berilgan. Rumi umrining koʻp qismini Rumda (Kichik Osiyo) oʻtkazgani sababli “Rumi” nomi bilan mashhur boʻlgan.

Rumi haqidagi asosiy maʼlumotlar uning oʻgʻli Sultan Valadning *Ibtidonomasi* [7], shogirdi Faridun-i Sipahsalorning *Risolasi* [8] va Aflokiyning *Manoqibul-orifin* [9] asarlariga asoslanadi. Aflokiyning asarida koʻplab tafsilotlar mavjud boʻlsa-da, baʼzi maʼlumotlar notoʻgʻri yoki bahsli boʻlishi mumkin. Rumiyning otasi Bahouddin Valad Hz. Abu Bakr naslidan ekanligi *Risoi Sipahsalorda* qayd etilgan [10]. Aflokiy, Jomiy [11] va Davlatshoh [12] ham bu nasabnomani tasdiqlaydilar. Bahouddin Valad 1151-yilda Balxda tugʻilgan va “Sultonul-ulamo” unvoni bilan mashhur boʻlgan. Uning onasi Xorazmshohlar sulolasidan boʻlgan, ammo bu xronologik jihatdan aniq emas.

Bahouddin Valad (Bahoi Valad) “Sultonul-ulamo” unvoni bilan mashhur boʻlgan. Uning soʻzlariga va *Risoi Sipahsalor* asarida, shuningdek, Aflokiyning rivoyatlariga koʻra, bu unvon unga tushida Paygʻambar Muhammad tomonidan berilgan. Bahouddin Valadning onasi Xorazmshohlar sulolasidan boʻlgan deya taxmin qilinadi. Aflokiyning yozishicha, uning onasi Xorazmshoh Sulton Takashning (1172-1200) “Malika-i jahon” deb atalgan qizlaridan biri boʻlgan. Biroq, bu daʼvo xronologik jihatdan ishonchli emas, chunki Bahouddin Valadning tugʻilgan davrida Sulton Takash hali oila qurmagan yoki hatto tugʻilmagan boʻlishi mumkin.

Boshqa manbalar, jumladan, *Manoqibuʼl-ʻorifin* asaridagi yozuvlarga koʻra, Bahouddin Valadning nasabi Abu Bakr Siddiqga borib taqaladi. Bu qarindoshlik onasi tomondan ekanligi taʼkidlangan.

Bahouddin Valadning nasabi va uning “Sultonul-ulamo” unvoni haqidagi rivoyatlar ilmiy adabiyotlarda muhokama qilinadi, ammo baʼzi jihatlar tarixiy manbalar bilan toʻliq tasdiqlanmagan.

Balxda tugʻilgan va sufiylar oilasiga mansub boʻlgan Bahouddin Valad uch yoshida otasi Husayn Hatibiy bilan ajralgan. *Manoqibuʼl-ʻorifin* va *Risoi Sipahsalor* kabi asarlarda uning taʼlim darajasi, oilaviy shaxsiyati va boshqa biografik tafsilotlar haqida aniq maʼlumotlar keltirilmagan. Biroq, uning *Maorif* asaridagi yozuvlar va boshqa manbalardagi maʼlumotlardan maʼlumki, Bahouddin Valad yoshligidan jiddiy taʼlim olgan, diniy ilmlar, falsafa va tasavvuf sohalarida yetuk mutaxassis boʻlgan.

1199–1210-yillarda u bir necha farzand koʻrgan, ulardan biriga Husayn ismini bergan. Onasi XIII asr boshlarida hayotda boʻlib, xalq orasida “Ummu” (ona) deb atalgan. Bahouddin Valad onasining yomon xulqi va kufr soʻzlari tufayli koʻp azob chekkan, farzandlari va onasi uchun qiyinchiliklarga dosh bergan. Yoshligidan tasavvufga qiziqib, zikr va riyozat bilan shugʻullangan. Bir marta zikrdan charchab, Xorazmga borib, Imoduddin Tabib ismli olimdan tibbiyot oʻqishni niyat qilgan. Voizlik qilgan, hilofat ilmi va tafsirni oʻrgangan, darslarini fors tilida bergan. Moliyaviy jihatdan nisbatan mustaqil boʻlib, uy sotib olish va ijaraga pul toʻlashga qodir boʻlgan.

Bahouddin Valad dunyoviy boylik va mansablardan voz kechishga intilgan, Najmiddin Kubroning shogirdi bo'lgan va Ahmad G'azzoliydan meros qolgan tasavvufiy libosni kiygan deya rivoyat qilinadi. Sipahsalorning yozishicha, u baytulmoldan olingan oylik maoshi bilan kunlik ehtiyojlarini qondirgan va hech qachon vaqf mollariga tegilmagan. Aflokiyning ma'lumotlariga ko'ra, uning Fotima Xotun ismli qizi va Alouddin Muhammad hamda Jaloliddin Muhammad ismli ikki o'g'li bo'lgan. Qizi Anadoluga hijrat qilishdan oldin yoshligida vafot etgan.

Maorif asariga ko'ra, 1203–1210 yillarda Bahouddin Valad Balxda yoki Vaxsh qishlog'ida (hozirgi Tojikiston hududida) yashagan yoki Balxda istiqomat qilib, tez-tez Vaxshga tashrif buyurgan. Har ikki holatda ham u Vaxsh amiri bilan yaqin aloqada bo'lgan. *Fihî mâ fih* asaridagi bir hikoyada esa, Samarqandni Xorazmshoh Alouddin Muhammad Takash bosib olgan paytda Bahouddin Valadning u yerda bo'lganligi ta'kidlangan.

Bahouddin Valad aqliy ilmlar, xususan falsafaga qarshi chiqqan va o'zining ilmiy mavqei va ma'naviy hokimiyatiga hasad qilgan holda, bid'atchi deb hisoblagan mashhur kalom olimi Faxriddin Roziyini, Xorazmshoh Alouddin Muhammad Takashni, Balx va Vaxsh qozilarini hamda boshqa zohiriy olimlarni ochiq tanqid qilgan. Uning bu qattiq munosabati *Maorif* va *Manoqibu'l-orifin* kabi asarlarda ko'rsatilgan. Shunday qilib, Bahouddin Valadning hayoti va faoliyati uning tasavvufiy va diniy qarashlarini, shuningdek, zohiriy olimlar va hukmdorlarga nisbatan tanqidiy munosabatini aks ettiradi.

Aflokiy va boshqa tazkira mualliflarining yozishicha, Bahouddin Valad Faxriddin Roziyning targ'ibotlariga aldanib, Xorazmshoh Alouddin Muhammad Takash bilan munosabatlari yomonlashgan. Shunday qilib, u Alouddin hukmdor bo'lgan davrda Balxga qaytmaslikka qasamyod qilib, oilasi, yaqinlari va ba'zi muridlari bilan Balxni tark etgan. Biroq, Aflokiyning bu haqda keltirgan ma'lumotlari qarama-qarshiliklarni o'z ichiga oladi. Masalan, Aflokiy Jaloliddin Rumiyning tug'ilgan sanasini 1207-yil 30-sentyabr (hijriy 604-yil 6-rabiul avval) deb ko'rsatadi va 1212-yilda Bahouddin Valad va Rumiyning Balxni tark etganini yozadi. Uning fikricha, bu ko'chishning sababi Faxriddin Roziy (1149–1209) bilan bo'lgan nizodir. Biroq, bu da'vo ishonchsiz, chunki Roziy Bahouddin Valadning Balxdan ketishidan uch yil oldin vafot etgan va uning Balxga kelganligi haqida hech qanday ma'lumot yo'q.

Jaloliddin Rumiyning o'g'li Sulton Valad (1226–1312) o'zining *Ibtidonoma* asarida bobosi Bahouddin Valadning Balx aholisi bilan janjallashgani va shu sababli shaharni tark etganini ta'kidlaydi. U shuningdek, Mo'g'ullarning Balxni 1220-yilda bosib olgani haqida xabar kelganida Bahouddin Valadning yo'lga chiqqanini aytadi. Agar Mo'g'ullar Balxni 1220-yilda egallagan bo'lsa, Bahouddin Valad va Rumiy 1217- yoki 1218-yillarda shaharni tark etgan bo'lishi kerak. Raynold Alleyne Nikolson va Hellmut Ritter Bahouddin Valadning Mo'g'ullardan qochish uchun ketganini da'vo qilsalar-da, manbalarda bu haqda aniq ma'lumot yo'q.

Bahouddin Valadning Balxni tark etishi, ehtimol, Mo'g'ul hujumidan qo'rqish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Chunki Chingizxon (1155–1227) va Xorazmshoh Alouddin Muhammad (1200–1220) o'rtasidagi ziddiyatlar kuchaygan edi. Bundan tashqari, Alouddin Muhammad Abbosiy xalifa Nosir al-Dinni tan olmagan va Alolmulk Termiziyni o'ziga diniy rahbar etgan edi. Shunday qilib, Bahouddin Valadning ko'chishi siyosiy va diniy ziddiyatlar, shuningdek, Mo'g'ul xavfi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Mo'g'ullar haqidagi xabarlar, ayniqsa Abbosiy xalifasi Nosir al-Din (1180–1225) tomonidan Chingizxonni Xorazmshohlar davlatiga hujum qilishga undashi bilan kuchaygan. Bu voqealar va Mo'g'ullarning sharqdan boshlab g'arbga qilgan qonli yurishlari Xorazmshohlar

davlatini tez orada janglar maydoniga aylantirishini ko'rsatardi. Bahouddin Valad bu holatni ilmiy faoliyati va hayotiga xavf sifatida ko'rib, ko'chishga qaror qilgan bo'lsa kerak. Eronlik olim Badiuzzamon Firuzanfar ham o'z asarida Bahouddin Valadning Mo'g'ul hujumi tufayli Balxdan ketganini ta'kidlaydi.

Agar Jaloliddin Rumi 1207-yilda tug'ilgan va otasi bilan Anadoluga hijrat qilganida besh yoki olti yoshda bo'lgan deb hisoblasak, ular 1212 yoki 1213-yilda Anadoluga kelgan bo'lishi kerak. Biroq, bu taxmin Faxriddin Roziyning 1209-yilda vafoti va Mo'g'ullarning 1218-yilda Balxni bosib olishi bilan ziddiyat tashkil qiladi. Ko'rinishicha, Aflokiy Mavlono Jaloliddin Rumiyning avlodlarining karomatlarini ta'kidlash va Mo'g'ul istilosining Bahouddin Valadga ta'sirini ko'rsatish maqsadida xronologik aniqligini hisobga olmasdan, bu rivoyatlarni birlashtirgan. Boshqa tazkira mualliflari ham bu rivoyatlarni takrorlagan.

Shunday qilib, Bahouddin Valadning Balxdan ko'chishi Mo'g'ul xavfi va siyosiy ziddiyatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Biroq, manbalardagi xronologik nomuvofiqliklar va Aflokiyning rivoyatlarni ma'lum maqsadlar uchun birlashtirganligi bu masalani aniq hal qilishni qiyinlashtiradi.

Agar Bahouddin Valad Faxriddin Roziyning ta'siri ostida Xorazmshoh Muhammad Takash bilan nizo qilgan yoki olimlar va ularning tarafdorlaridan ranjigan bo'lsa, u odamlarning taxmin qilganidek, Anadoluga emas, balki hali Xorazmshohlar qo'liga o'tmagan va Sulton Usman hukmronlik qilayotgan Samarqandga 1212-yilgacha borishi kerak edi. Biroq, uning Hijozga qilgan safari haqida Sipahsalor va Aflokiyning ma'lumotlari bir-biriga mos kelmaydi.

Sipahsalorning yozishicha, Bahouddin Valad shogirdlari va oilasi bilan yo'l bo'yidagi shaharlarda bir muddat to'xtab, Bag'dodga yetib borgan. U yerda uni Shahobiddin Suhravardiy kutib olgan. Bahouddin Valad Bag'doddan Kufa orqali Hijozga yo'l olishni niyat qilgan, biroq Mo'g'ullarning Balxni bosib olgani va Xorazm shaharlarining 1220-yilda egallanganligi haqidagi xabar kelganida u Bag'dodda bo'lgan. Bu ma'lumotlar uning 1220-yilda Bag'dodda ekanligini ko'rsatadi.

Biroq, Aflokiyning sayohatning keyingi bosqichlari haqida bergan sanalari bu ma'lumotlarga ziddir. Shunday qilib, manbalardagi xronologik nomuvofiqliklar Bahouddin Valadning safarlari va hayotining ayrim voqealarini aniqlashni qiyinlashtiradi. Bu ziddiyatlar, ehtimol, Aflokiyning ma'lum maqsadlar uchun rivoyatlarni birlashtirganligi bilan izohlanadi.

Aflokiyning yozishicha, Bahouddin Valad Hijozdan qaytayotganda Damashqda to'xtagan, 1217-yilda Malatiyaga, 1219-yilda Sivasga kelgan, so'ng Arzinjon orqali Aqshaharga (Konya yaqinidagi shahar) borib, o'z nomiga qurilgan madrasada to'rt yil yashagan va dars bergan. Keyin u Laranda (Karaman)ga ko'chib, u yerda yana o'z nomidagi madrasada ta'lim bergan. Aflokiyning ma'lumotlariga ko'ra, Bahouddin Valad Larandada yetti yil muallimlik qilgan, so'ng Sulton Alouddin Kaykubodning taklifi bilan Konyaga joylashgan.

Shuningdek, Aflokiy Jaloliddin Rumiyning Samarqandlik olim Sharofiddin Loloning qizi Gavhar Xotunga o'n yetti-o'n sakkiz yoshida Larandada uylanganligini, Sulton Valadning 1226-yilda, ikkinchi o'g'li Alouddin esa bir yil o'tib tug'ilganligini qayd etadi. Biroq, Aflokiyning ma'lumotlari Rumiyning Larandada yetti yildan ortiq tahsil olgani va oila qurganligini ko'rsatsa-da, bu ma'lumotlar uning nikoh yoshiga va farzandlarining tug'ilgan sanalariga to'g'ri kelmaydi. Aslida, bu sanalar Rumiyning Larandaga joylashib, bir yoki ikki yil o'tgach oila qurganligini ko'rsatadi.

Mavlononing onasi Mo'mina Xotun Larandada vafot etgan va keyinchalik uning dafn etilgan joyida Karaman Mavlaviylar xilxonasi qurilgan. Sipahsalorning yozishicha, Mavlon Konyaga kelganida o'n to'rt yoshda bo'lgan, bu esa Bahouddin Valadning 1221-yilda Konyaga kelganligini ko'rsatadi. Sulton Valad esa, Bahouddin Valadning Hijozdan Yunon yurtiga kelgani va Sulton Alouddin Kaykubodning uni Konyada ziyorat qilgani haqida tafsilsiz ma'lumot keltiradi.

Mavlononing *Fihî mâ fih* asaridan ma'lumki, ular Xorazmshoh tomonidan Samarqand qamal qilinganda u yerda bo'lganlar, bu esa ularning birinchi safarida Samarqandga borganliklarini ko'rsatadi. Yo'lda Bahouddin Valad Nishopur shahriga to'xtagan, u yerda Fariddin Attor (1142/1145–1221) ularni ziyorat qilgan va o'zining so'fiyona asari *Asrornomani* Mavlonoga hadya qilgan. Davlatshohning yozishicha, Attor Bahouddin Valadga: "Bu o'g'lingiz ko'p vaqt o'tmasdan, dunyoda qalbi kuyganlarning qalbiga o't qo'yadi", degan. Biroq, Hellmut Ritter bu uchrashuvni shubhali deb hisoblaydi, chunki Attor 1221-yilda vafot etgan va bu vaqtda Bahouddin Valad va Mavlon Konyada bo'lishi kerak edi.

Birinchi xotini Gavhar Xotun vafotidan keyin Mavlon Konyalik Izzuddin Alining qizi Kira (Kirra yoki Gera) Xotunga uylandi. Uning Shamsiddin Yahyo ismli o'g'li bo'lib, undan tashqari beva qolgan ayoldan Muzaffaruddin Olim Chalabiy va Malika Xotun ismli farzandlari dunyoga keldi.

Bahouddin Valad Konyadagi Oltinapa (Altun-aba/Altunpa) madrasasida ikki yil mudarrislik qilganidan so'ng 1231-yil 23-fevralda (hijriy 628-yil 18-rabiul oxir) vafot etdi. Uning o'rnini yigirma to'rt yoshli Mavlon egallab, mudarris bo'lib ishlay boshladi. Keyingi yili Bahouddin Valadning shogirdlaridan biri, bolaligida Mavlononi tarbiyalagan Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy shayxini ziyorat qilish uchun Konyaga keldi. Biroq, u shayxining vafot etganligini bilib qoldi. Sayyid Burhoniddinning shayxining o'limidan oldin xabardor bo'lgani va Bahouddin Valad tushida o'g'liga yo'l ko'rsatishni aytgani uchun Konyaga kelgani qayd etilgan. Sayyid Burhoniddin Konyaga kelgach, Larandada bo'lgan Mavlonoga maktub yozib, uni Konyaga taklif qildi. Uchrashganda, u Mavlonoga otasining ham zohiriy, ham botiniy ilmida mukammal shayx ekanligini ta'kidladi.

Mavlon botiniy ilmida ustunlikka erishgan bo'lsa-da, u Sayyid Burhoniddinning shogirdi bo'lib, unga to'qqiz yil xizmat qildi. Aflokiyning yozishicha, Sayyid Burhoniddin Mavlononi zohir ilmidan yanada yuksalishi uchun 1233-yil (hijriy 630) Damashqqa yuborgan. Bu safarda Sayyid Burhoniddin Mavlonoga Qaysariygacha hamrohlik qilgan, so'ng Mavlon Halabga yo'l olgan, Sayyid Burhoniddin esa Qaysariyda qolib, Sohib Isfahoniyning yonida ishlagan. Mavlon Halabda Halloviya madrasasida shahar boshqaruvchisi Kamoliddin Ibnu'l-Adimdan ta'lim olgan. Sipahsalorning yozishicha, Mavlon Ibnu'l-Adimdan bir qancha madrasalarda tahsil olgan, ammo ularning nomlarini keltirmaydi.

Mavlon Halabda qancha vaqt qolgani va Damashqqa qachon ko'chib o'tgani aniq emas. Aflokiy Damashqda to'rt yoki yetti yil yashaganini aytgan bo'lsa-da, Badiuzzamon Furuzanfar Mavlononing Damashqda to'rt yildan ortiq qolmaganligini ta'kidlaydi, chunki Sayyid Burhoniddin 1241-yil (hijriy 639) vafotigacha tirik bo'lgan va Mavlon bilan uchrashgan. Mavlon Damashqda arab tili va adabiyoti, lug'at, fiqh, tafsir va hadis kabi aqliy va naqliy ilmlardan ta'lim olgan. Shuningdek, u Damashqda Muhyiddin Ibn Arabiy, Sa'duddin Hammuya, Usmon Rumi, Avhaduddin Kirmoniy va Sadridin Konaviy kabi allomalar bilan uzoq suhbatlar olib borgan.

Mavlononing turkiyligi haqidagi munozaralar ko'pincha uning "Meni begona deb o'ylamang, men shu mahalladanman..." ruboiysiga asoslanadi. Ba'zi tadqiqotchilar bu she'rdagi "turk" so'zini irqiy ma'noda talqin qilsa, boshqalar bu so'zning ruhiy yaqinlik yoki boshqa ma'nolarni anglatishini ta'kidlaydi. Shunday qilib, Mavlononing turkiyligi haqidagi bahslar uning she'riy ifodalarining chuqur ma'nolariga asoslangan.

Mavlononing she'riy va nasriy asarlarini fors tilida yozganligining ikkita asosiy sababi bor. Birinchidan, fors tili o'sha davrda Xorazm va Anadolu shaharlaridagi shoirlar, adiblar, faylasuflar va so'fiylar orasida keng tarqalgan edi. Madrasalarda darslar fors tilida olib borilgan, ilmiy va adabiy asarlar ham asosan shu tilda yozilgan. Hattoki, davlatlar rasmiy yozishmalarida ham fors tilidan keng foydalanilgan. Bu an'ana Anadolu Saljuqiylarida 1277-yilda Karamano'g'li Mehmet Bey turk tilini rasmiy til deb e'lon qilgunga qadar davom etgan.

Ikkinchi sabab, Mavlonon Balxdan hijrat qilganida yigirma besh-o'ttiz yoshda bo'lib, u shu yoshgacha fors tilida o'qigan, yozgan va she'r aytgan edi. Bu vaqtga kelib u fors tilidagi barcha yozuv san'atlari, qoidalar, she'riyat va she'riy vaznlarni puxta o'zlashtirgan edi. Bundan tashqari, Mavlonon yoshligida oilasida va Xorazm davlatida asosan "Xoqoniya turk" (Xorazm shevasi) tilida gaplashgan. Bu sheva sharqiy turk tillariga mansub bo'lib, Anadolu Saljuqiylarining "o'g'uz" yoki g'arbiy turk shevasidan farq qilgan. Shunday qilib, Mavlonon Anadoluda o'rnashganida u yerda keng tarqalgan o'g'uz turkchasiga moslashish qiyin bo'lgan.

Shuning uchun ham Mavlonon asarlarini fors tilida yozgan, chunki bu til uning ilmiy, adabiy va ma'naviy ifoda vositalarini to'liq aks ettirish imkonini bergan. Uning turkiy tilida yozmaganligi til o'zgarishi va sheva farqlari bilan bog'liq bo'lib, bu uning ijodiy faoliyatiga ta'sir ko'rsatgan.

XI asrdayoq Xoqoniya turkchasi (sharqiy turk) va o'g'uz turkchasi (g'arbiy turk) o'rtasida tuzilish va urg'u jihatidan sezilarli farqlar mavjud bo'lgan. Mahmud Qoshg'ariyning 1074-yilda tugatgan *Divonu lug'ot it-Turk* asaridan bu ikki lahja o'rtasidagi farqlar aniq ko'rinadi. Mavlonon Anadoluga kelganida, agar u asarlarini turkiy tilda yozganida, u o'zining tug'ilib-o'sgan oilasi va Xorazm aholisi gapiradigan Xoqoniya turkchasida (sharqiy sheva) yozgan bo'lar edi. Biroq, bu sheva Anadoluda keng tarqalgan o'g'uz turkchasidan (g'arbiy sheva) farq qilganligi sababli, yangi mintaqa aholisi uni osonlikcha tushuna olmasdi. Shuning uchun ham Mavlonon asarlarini fors tilida yozgan, biroq *Masnaviy* va *Devonlarida* ko'plab turkiy so'zlardan foydalangan.

Mavlononing to'ng'ich o'g'li Sulton Valad 1226-yilda Karamanda tug'ilib, 1312-yilda Konyada vafot etgan. Uning *Ibtidonoma* asarida turkiy shevada she'rlar yozganligi qayd etilgan. Sulton Valad Anadoluda tug'ilgan bo'lsa-da, besh-olti yoshigacha bobosi Bahouddin Valad bilan she'rlar aytgan va bobosi vafotidan keyin otasidan eshitgan Xoqoniya shevasida she'rlar yozgan. Bu holat turkiy lahjalar o'rtasidagi farq va ularning adabiyotga ta'sirini ko'rsatadi.

Xulosa. Mavlonon tafakkur va ilm-fan jihatidan ulug' mutasavvuf bo'lib, u diniy va adabiy sohalarda, xususan, devon adabiyotida yetuk asarlar yaratgan. Anadoluda esa xalq adabiyoti vakillari bo'lmish Topdiq Emro, Yunus Emro, Hoji Bektosh Vali va Ahi Evran kabi shaxslar turkiy tilda ijod qilganlar.

Forobiy, Beruniy va G'azzoliy kabi olimlar asosan fors va arab tillarida yozgan bo'lsa-da, Ahmad Yassaviy va uning shogirdi Hakim Sulaymon Ota xalq adabiyoti janrida turkiy tilda asarlar yaratgan. Bu jarayonda forscha yozgan turklar va turkiy tilda yozgan turklar asosan o'z uy va jamiyatlarida turk tilida so'zlashgan.

Movarounnahrda fors tili va adabiyotining ta'siri kuchli bo'lib, bu holat turk adabiyotining rivojlanishiga qiyinchilik tug'dirgan va ayrim turk olimlari va adiblari eronlik sifatida tanilgan. Mavlono ham ushbu aralash madaniyat ta'sirida yetishib, ayniqsa, tasavvufda yuqori maqomga erishgan.

Umuman olganda, Mavlono turkiy tilda ijod qilmagan, chunki u fors adabiy muhitida ulg'aygan. Agar turkiy tilda yozganida ham, uning asarlari sharqiy shevada bo'lib, g'arbiy shevada gapiruvchi Anadolu xalqi uchun tushunarsiz bo'lishi mumkin edi. Shu sababli, Mavlono ijodini keng tarqalgan va nufuzli til bo'lmish fors tilida olib borgan. Uning tasavvufiy merosi asrlar davomida o'z ta'sirini saqlab qolgan va bugungi kunga qadar yetib kelgan. O'zining millati haqida esa Mavlono shunday degan: u chinakam turk edi, aks holda Anadoluga kelmagan bo'lar edi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Радий Фиш. Жалолиддин Румий (Ruschadan Jamol Kamol tarjiması). –Тошкент: Молодая гвардия, 1986. -267 б.
2. Annamarie Schimmel, *The Triumphal Sun*, Persian Studies Sepies, London, 1978. P 373.
3. Фурузонфар Б. Аходиси «Маснави».- Тегеран, 1344 х.; Яна: Мукаддима // Мухаккик Бурхонуддин. Маориф. – Тегеран, без года изд.; Хумои Ч. Газалиёти девони Шамс // Газалиёти Шамси Табрези.- Тегеран, 1335 х.; Чаъфари М. Тафсир ва накд ва тахлили «Маснави»-и Мавлоно Чалолуддин Мухаммади Балхи.- Тегеран, без года изд. – Ч. 1-15; Фиш Р. Джалаледдин Руми. -М.,1985; Хадизаде Р. Джалаледдин Руми // Руми. Притчи, газели. - Душанбе, 1988; Яна: Мукаддима // Хикоятҳои халқи дар «Маснави»-и Руми.- Душанбе, 1963; Одилов Н. Чахонбинии Чалолуддини Руми. - С. 75;
4. Бертельс Е.Д. Суфизм и судийский литература. – М., 1965; Бартольд В.В. Ислам. Общий очерк. – Петроград, 1918. Голдциэр И.Э. Лекции об исламе. – Спб., 1912; Культ святых в исламе (Мухаммадинские эскизы). М.,
5. Abdülbâki Gölpınarlı, *Mevlânâ Celâleddin*, İstanbul 1952.
6. Ritter, Hellmut. *The Ocean of the Soul: Man, the World and God in the Stories of Farîd al-Dîn 'Attâr*. Translated by John O'Kane with editorial assistance of Bernd Radtke. Leiden: Brill, 2003.
7. Sultan Veled, *İbtidânâme* (trc. Abdülbâki Gölpınarlı), Ankara 1976
8. Ferîdûn-i Sipehsâlâr, *Risâle-i Sipehsâlâr* (nşr. Saîd-i Nefîsî), Tahran 1325
9. Ahmed Eflâkî, *Menâkıbü'l-ârifîn* (nşr. Tahsin Yazıcı), I-II, Ankara 1959-61.
10. Abdulqodir b. Muhammad b. Muhammed el-Kureshi, *el-Cevahirü'l-muđiyye fi tabakâti'l-Hanefiyye* (ad. Abdülfettâh M. el-Hulv), I-III, Qohira 1393-99/1973-79; IV, Qohira 1413/1993
11. Abdurrahmon-i Câmî, *Nefehâtü'l-üns min Hazarati'l-Huds* (tahrir. Mahdî Tevhîdî Pur), Tehron 1337
12. Devletshah, *Tezkiretü's-shu'arâ'* (tahrir. EG Browne), Leyden 1901.
13. Bahâeddin Veled, *Ma'ârif* (nşr. Bedüzzaman Fürûzanfer), Tehran 1352 hş., I-II
14. Sultan Veled, *Velednâme* (nşr. Celâleddin Hümâî), Tehran 1355
15. R. A. Nicholson, *Mevlâna Celâleddin Rûmî* (trc. Ayten Lermioğlu), İstanbul, ts. (Tercüman 1001 Temel Eser), s. 15-25.

08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI – ECONOMICAL SCIENCES

Received: 10 March 2025

Accepted: 15 March 2025

Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

METHODS FOR DETERMINING THE SOCIO-ECONOMIC EFFECTIVENESS OF ECONOMIC INCLUSION ACTIVITIES IN INDUSTRIAL ENTERPRISES

Isayev Kobiljon Abdukodirovich,

Associate Professor of the Department of

"World Economy and International Economic Relations"

E-mail: qobiliy.isaev@gmail.com

Abstract. Analysis of the activities of industrial enterprises with the participation of the blind, on the one hand, increases economic efficiency, and on the other hand, creates new views on the place and role of this group of people in society. In this regard, it is necessary to develop broad approaches from a social perspective when implementing policies aimed at ensuring the primacy of human dignity and interests in society. In this regard, this article presents scientific approaches aimed at determining the socio-economic efficiency of the activities of industrial enterprises with the participation of the blind, supporting their development and finding ways to achieve economic efficiency.

Keywords: labor productivity, labor market, efficiency, stock capacity, unemployment rate, diversification.

SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY INKLYUZIYA FAOLIYATINING IJTIMOY-IQTISODIY SAMARADORLIGINI ANIQLASH USULLARI

Isayev Kobiljon Abdukodirovich

"Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" kafedrasida dotsenti

Annotatsiya. Ko'zi ojizlar ishtirokidagi sanoat korxonalarida faoliyatini tahlil qilish, bir tomondan, iqtisodiy samaradorlikni oshirish, ikkinchi tomondan, ushbu insonlar guruhining jamiyatdagi o'rnini va roli haqida yangi qarashlarni yuzaga keltiradi. Bunda, jamiyatda inson qadri va uning manfaatlarini ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan siyosatlarini amalga oshirishda, ijtimoiy nuqtai nazardan keng yondashuvlar ishlab chiqish zarur. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqola ko'zi ojizlar ishtirokidagi sanoat korxonalarida faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini aniqlash, ularning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy samaradorlikka erishish yo'llarini izlashga qaratilgan ilmiy yondashuvlarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: mehnat unumdorligi, mehnat bozori, samaradorlik, fond sig'imi, ishsizlik darajasi, diversifikatsiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N09>

Kirish. Ko'zi ojizlar ishtirokidagi sanoat korxonalarida faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar, zamonaviy iqtisodiyotning inklyuziv rivojlanish tamoyillariga asoslangan holda, nafaqat ijtimoiy tenglikni ta'minlash, balki mamlakat iqtisodiyoti barqaror o'sishini qo'llab-quvvatlash maqsadlariga ham xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi, davlat siyosatining markazida inson huquqlari va imkoniyati cheklangan shaxslar, jumladan, ko'zi ojizlarning jamiyatdagi faol ishtirokini ta'minlashni qo'ygan holda, bu qatlamga imkoniyatlar yaratishda keng ko'lamlari chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Ushbu sohada ilg'or tajribalarni tatbiq etish, ko'zi ojizlar uchun yangi ish o'rinlari

yaratish va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirishda innovatsion yondashuvlar zarurati ortib bormoqda.

Zamonaviy iqtisodiyot keng biznes imkoniyatlarini taqdim etishi, shuningdek, uning yangi shakllari va yo'nalishlari bilan kengayib borishi, shu bilan birga, amalda biznes yuritishning mavjud imkoniyatlari va omillaridan to'la foydalanilmaslik holatlarida iqtisodiy rivojlanishning barcha salohiyatlaridan foydalanilmay kelinayotganligi sababli mazkur sohada yangidan-yangi tadqiqotlarni olib borish, mavjud resurslar, imkoniyatlar va salohiyatlardan samarali foydalanishda ilg'or xorij tajribalarini keng tatbiq etish asosida bu borada yangi yondashuvlar va yechimlar ishlab chiqish zaruriyatini ham keltirib chiqarmoqda.

Adabiyotlar sharhi va metodologiya. Ko'zi ojiz insonlarning ish bilan bandligini ta'minlash, axborot kommunikatsion texnologiyalari ko'nikmalarini shakllantirish, jamiyatdagi mavqeyini oshirish va ularni ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga moslashtirish kabi masalalar xorijlik iqtisodchi-olimlar tomonidan Bell E.C., Bates-Harris C., Klaus R, Shiri A., Kyle R., Richard L., Jacob W., Brown T.A., Moore M.T. chuqur o'rganilgan[1].

Yaqin xorijlik olimlardan Fedoseyeva V.A., Noviskiy N.I., Gornostay L.Ch., Goryushkin A.A., Begentayev M.M., Kalendareva S.G., Smirных S.N., Andreyeva Ye.I., Gorshkova I.D., Kovalevskaya A.S., Rojdestvenskaya N.V., Boguslavskaya S.B., Bobrova O.S. kabilarning ilmiy ishlarida korxonalar iqtisodiyoti va uning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini ta'minlash, shu jumladan, bandlikni oshirish va unda imkoniyati cheklanganlarni, xususan, ko'zi ojiz insonlarni jalb etish bilan bog'liq masalalar tadqiq etilgan[2].

O'zbekistonda sanoat korxonalarini faoliyati va ular samaradorligini nazariy-uslubiy masalalari, tasnifiy jihatlari, rivojlanish asoslari va muammolari, shuningdek, ularning nogironlar, jumladan, ko'zi ojizlar bandligini ta'minlashdagi ishtirokiga oid ayrim masalalari o'zbek iqtisodchi-olimlar Mustafakulov Sh., Xotamov I., Isakov M., Abduvaliyev A., Jiyanov U., Raximberdiyev O.F., Egamberdiyeva M.Sh., Ulashev I.O., Atamuradov Sh.A., Muratov R.S., Djalalova I.A., Oripov S.Sh., Xolmatov N.B., Imomova N.A. [3], larning ilmiy tadqiqotlarida muayyan darajada yoritilgan.

Biroq, global taraqqiyot va o'zgarishlar davrida xalqaro integratsiya va jamiyat ijtimoiy farovonlikni ta'minlash yo'lidagi hamkorliklar tarkibida nogironlar, xususan, ko'zi ojiz insonlarning bandligi va iqtisodiy faolligini oshirish borasidagi ilmiy-tadqiqotlar, munosabatlar va yutuqlarning ortib borayotganligi sharoitida O'zbekistonning ushbu yo'nalishdagi amalga oshirayotgan islohotlariga yangicha mazmun olib kirish, jumladan, sharoitida ko'zi ojizlar ishtirokidagi sanoat korxonalarini, xususiy tadbirkorlik faoliyatini faol tashkil etish, ularning iqtisodiyotdagi rolini oshirish, milliy va xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlash hamda samaradorligini baholash va oshirish bilan bog'liq masalalar yechimini topish sohadagi eng dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Zero, ushbu maqsadga erishishda, avvalam bor, ilmiy-tadqiqotlar olib borish tizimini shakllantirish muhim ahamiyat etmoqda. Binobarin, O'zbekistonning o'tgan istiqbol yillari davomida aynan ko'zi ojiz insonlar ishtirokidagi sanoat korxonalarini faoliyati samaradorligini oshirishda doir alohida, tizimli va keng ko'lamli ilmiy-tadqiqot ishlarining olib borilmaganligi bu borada o'z yechimini kutib turgan muammolar hali talaygina ekanligini ko'rsatmoqda.

Maqolada tizimli tahlil va yondashuv, nazariy mushohada, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, induksiya, deduksiya, statistik guruhlashtirish va umumlashtirish, ekspert baholash va prognozlashtirish, o'zaro va qiyosiy taqqoslash matematik hisoblash usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Global Janub ovozi” onlayn-sammitidagi nutqida ta’kidlaganlaridek, jahon hamjamiyati turli qarama-qarshilik va ziddiyatlarning keskinlashuvi hamda iqtisodiy inqirozning salbiy oqibatlariga duch kelayotgan bugungi kunda “Taraqqiyot strategiyamizning asosiy mazmuni – qonun ustuvorligi va inson kapitalini rivojlantirish, adolatli va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir. Biz o‘z oldimizga yaqin kelajakda inklyuziv va barqaror iqtisodiy o‘shni ta‘minlash, mamlakatimizda kambag‘allikni ikki barobarga qisqartirish kabi katta rejalarni qo‘yganmiz” [4.].

Ushbu maqsadda mamlakatda inklyuziv va barqaror iqtisodiy o‘shni ta‘minlash yo‘lida inklyuziv biznesni rivojlantirish davlatimiz siyosatining markazida eng ulug‘ maqsad va vazifa etib belgilangan inson qadri va uning manfaatlarini amalga oshirishga qaratilgan Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli izchil islohotlarning muhim va ajralmas yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu tamoyilga asoslanib, O‘zbekiston Respublikasi mamlakatdagi barcha imkoniyati cheklanganlarni ijtimoiy-iqtisodiy hayotning muhim va faol ishtirokchisi va bo‘g‘iniga aylantirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda. Jumladan, imkoniyati cheklanganlarni davlat tomonidan keng qo‘llab-quvvatlash, ularga tadbirkorlik faoliyatini olib borishlarida qulaylik va imtiyozlar taqdim etish, ta‘lim olish jarayonida alohida imtiyoz va imkoniyatlar yaratish, maqsadli davlat dasturlari asosida uy-joylar bilan bepul ta‘minlash, davolanish, moddiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni ta‘minlashga qaratilgan muhim huquqiy-me‘yoriy hujjatlar qabul qilinib, ijrosi ta‘minlab kelinmoqda.

Mazkur chora-tadbirlar tarkibida imkoniyati cheklanganlarning jamiyatdagi o‘rni hamda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ishtiroki va ahamiyatini oshirish, ularning intellektual salohiyati, jismoniy qobiliyati, mehnat samaradorligini ishga solish maqsadida inklyuziv biznesga faol jalb etish amaliyotini takomillashtirish yuqorida qayd etilgan tamoyilni amalga oshirishdagi ustuvor vazifalardan sanaladi [5.].

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining manbalariga tayanadigan bo‘lsak, yildan yilga dunyo bo‘ylab nogironlikning tarqalishi, aholining qarishi va surunkali sog‘liq muammolari bilan kasallanish ortib bormoqda. Dunyoning 18 va undan katta yoshdagi aholisining taxminan 16 foizi nogironlardir, ushbu ko‘rsatkich rivojlangan mamlakatlarda 12 foizni va kam daromadli mamlakatlarda 18 foizni qayd etgan. Ko‘rib turganingizdek, ushbu mamlakatlar o‘rtasidagi farq sezilarli darajada [6.].

Yevropada esa ushbu ko‘rsatkichlar biroz boshqacha, ya‘ni, 2021-yilda Yevropa Ittifoqiga a‘zo davlatlarda 16 yoshdan oshgan aholisining 25 foizi kundalik faoliyatda turli xil nogironlik tufayli doimiy cheklanishga duch keladi, Yevropa mintaqasida bu boradagi eng past ko‘rsatkich Maltada qayd etilgan bo‘lib, 11 foizni tashkil etgan. Hech qaysimizga sir emaski, ayni yillarda ularni ish bilan ta‘minlanish darajasi ham hamin qadar, ish bilan ta‘minlanganlari ham odatda past malakali, kam maosh oladigan kasblarga to‘planishgan. Ushbu muammolarga, ya‘ni ish bilan ta‘minlanish darajasining va ularning daromadining pastligiga eng ideal yechimlardan biri nogironlarning o‘zini-o‘zi ish bilan ta‘minlashi yoki o‘z biznesini ochishi va boshqarishi mumkinligidir.

Nancy Arnold[8] o‘z tadqiqotlarida bu borada fikrlarini ulasharkan, o‘z-o‘zini ish bilan ta‘minlash nogiron shaxslarning mehnat bozoriga tezroq va yaxshiroq integratsiyalashuviga erishish uchun potensial reabilitatsiya va kasbiy vositasi sifatida bemalol xizmat qila oladi deya ta‘kidlaydi. Shuningdek, bu fikrlar bugun o‘z isbotini topmay qolmayapti, xususan, ko‘zi ojiz

insonlar o'rtasida biznesni rivojlantirish va bu bilan barqaror va inklyuziv o'sishni ta'minlash "Yevropa 2022" strategiyasining muhim komponenti sifatida ko'rilmoqda[9].

Yevropa va AQSHda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu mintaqalarda o'z-o'zini ish bilan ta'minlash darajasi aynan ko'zi ojiz insonlar orasida umumiy nogironligi mavjud shaxslarga qaraganda bir muncha yuqoridir[10]. 2005-2021-yillarda Yevropa hamjamiyatining uy xo'jaligi paneli ma'lumotlaridan foydalangan holda Yevropa Ittifoqiga a'zo 13 mamlakatda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida, nogironlar o'rtasida o'z-o'zini ish bilan ta'minlash ko'rsatkichlari nogironligi bo'lmagan odamlarga qaraganda ham ancha yuqori degan xulosa olingan.

Nogironlar uchun o'z-o'zini ish bilan ta'minlash darajasini ayollar va erkaklar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, Gretsiya, Portugaliya va Irlandiya kabi mamlakatlarda nogironligi bo'lgan erkaklarda o'zini-o'zi ish bilan ta'minlash darajasi ayollarga nisbatan yuqoriroq, Avstriya va Ispaniya kabi mamlakatlarda esa, aksincha, ayollar orasida bu ko'rsatkich yuqoriroq hisoblanadi. Yana bir narsani ta'kidlab o'tish kerakki, yuqorida sanab o'tilgan mamlakatlarda ishsizlik darajasi yuqori emas, va bundan shuni xulosa qilish mumkinki, ushbu mamlakatlarda xususiy biznesni ishga tushirish anchayin qulay va shu tufayli ham nogironligi bor shaxslar, xususan, ko'zi ojiz insonlar ham bu imkoniyatlar orqali turli xil diskriminatsion holatlarni bema'lol chetlab o'ta olmoqda.

Yuqoridagi misollar esa hukumat, nafaqat, ko'zi ojiz yoki nogiron insonlarga, balki, butun aholi o'rtasida biznes yuritishga qulaylik yaratuvchi tizimli chora-tadbirlarni ishlab chiqishi lozimligini ko'rsatadi. Xorijiy mamlakatlar tajribasida bu kabi islohotlarni ko'plab uchratishingiz mumkin.

Xususan, nogironlarning mehnat bozoriga kirishiga imkon berish va rag'batlantirish uchun hukumat tomonidan ko'rsatilgan tashabbuslarga kelsak, Yevropa mintaqasida Smyth va Maynard Campbell 1997-yilda, Greve 2009-yilda, AQSHda Wilhelm va Robinson 2012-yilda, Wittenburgning 2013-yildagi tashabbuslari yaqqol misol bo'la oladi, bundan tashqari, Osiyo mintaqasida ham Huang 2009-yilda ishlab chiqilgan tadbirlar majmui shular jumlasidandir.

Ko'zi ojiz insonlar-mehnat bozori-korxonalar zanjiridagi aloqalarning mustahkam emasligi ularning kasbga o'z vaqtida, to'g'ri va to'liq yo'naltirilishiga e'tiborni pasaytiradi. Natijada ularning jamiyatdagi o'rnini topishdagi muammolarning kuchayib borishi yuzaga keladi. Shunga ko'ra, mamlakatda takomillashib borayotgan qulay biznes muhitiga asosan inklyuziv biznesni rivojlantirishning zarur choralarini ko'rish, bunda ko'zi ojiz insonlar ishtirokidagi korxonalar soni, faoliyatini kengaytirish hamma narsa inson qadri uchun amalga oshirilayotgan O'zbekiston islohotlarida markaziy o'rin egallab bormog'i lozim.

Mazkur islohotlar ko'zi ojiz insonlar ishtirokidagi korxonalar faoliyatida ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirishga bevosita qaratilgan bo'lishi lozim.

Shu o'rinda, "samara", "samaradorlik", "iqtisodiy samaradorlik", "ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik" kabi tushunchalarning mohiyati va ular o'rtasidagi farqlarni tushunib olmoq lozim.

Samara ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat), foyda va daromad hajmini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish, sifatsiz mahsulot ishlab chiqarishni kamaytirish yoki umuman, yo'q qilish bilan bog'liq bo'lgan korxonalar faoliyatining ijobiy natijalaridir. Bu yutuqlar natural shaklda ishlab chiqarish samarasini, pul shaklida esa iqtisodiy samarani tavsiflaydi.

Samaradorlik, avvalo, korxonada faoliyatining sifat jihatlarini tavsiflovchi tushunchadir. U “samara” toifasidan kelib chiqadi hamda unga qaraganda murakkab va kompleks tavsifga ega.

Samaradorlik chora sifatida ko‘plab texnik, iqtisodiy, loyiha va xo‘jalik qarorlarini avvaldan belgilab beradi. Korxonada o‘zining xo‘jalik, ilmiy-texnik va investitsion siyosatini belgilashda samaradorlikdan kelib chiqadi.

Iqtisodiy samaradorlik samaradorlikka qaraganda birmuncha tor ma‘noni anglatadi. U qabul qilinayotgan qarorlarning xo‘jalik yuritishda maqsadga muvofiqligini tavsiflaydi hamda barcha hollarda samaraning unga erishish uchun ketgan xarajatlar (ishlab chiqarish resurslari)ga nisbati sifatida aniqlanadi. Xarajatlar qanchalik kam bo‘lsa (mahsulot sifatiga ta‘sir qilmagan holda), samara shunchalik ortadi, demak, iqtisodiy samaradorlik ham ortadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish samaradorligining mehnat sharoitlarini, uning ijodkorlik mazmunini boyitish, aqliy va jismoniy mehnat o‘rtasidagi farqni yo‘qotishni inobatga olgan holda tavsiflaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik bir vaqtning o‘zida, ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirish, korxonaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, shaxsning har tomonlama rivojlanishi va uning barcha qobiliyatlaridan foydalanishning sabab va natijasi hisoblanadi. Bevosita ijtimoiy samara, xodimlarning bilim va malakasi, tajriba va madaniyatining o‘sishi, aholi sog‘lig‘ining yaxshilanishi va umr ko‘rishining uzayishida aks ettiriladi[11].

Iqtisodiy adabiyotlarda “ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik” tushunchasi mazmuniga bir xil mazmunda berilgan ta‘riflar mavjud emas. Sababi, ushbu kategoriya keng va murakkab ma‘noga ega tushunchani o‘zida mujassam etadi. Zero, mazkur atamaga turli jihatdan yondashish mumkinligi va turli sohalarga xos ekanligi ham shunday tafovutlar hosil bo‘lishiga turtki bo‘lgan.

Biz mazkur atama mazmunini o‘rgangan va unga berilgan ta‘riflarni talqin qilgan holda quyidagicha mazmunda ta‘rif berilishini maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz: ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik – korxonada darajasida ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadida cheklangan resurslar va ishlab chiqarish vositalaridan samarali foydalangan holda yuqori daromad olish va iqtisodiy rivojlanishga erishish, ishchi-xodimlar uchun qulay muhit va shartlarda mehnat qilish imkoniyatini taqdim etgan holda ularning ish qobiliyatini tiklash va oshirib borish, hordiq chiqarish, sog‘ligini saqlash, ta‘lim olish, bilim, malaka va qobiliyatlarini o‘stirish, ijtimoiy farovonligini ta‘minlashni nazarda tutsa, makrodarajada mamlakatning YAIM, eksport, valyuta tushumi, Davlat byudjetiga majburiy va soliq to‘lovlari hajmini oshirishga, shuningdek, jamiyatning korxonada ishlab chiqargan mahsulotlarga bo‘lgan ehtiyojlarini ta‘minlash, bandlikni, umr ko‘rish davrini, iste‘mol sarfida tejamkorlikni oshirish kabilarni tavsiflaydi.

Qaysi sohada bo‘lmasin ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik amalga oshirilgan faoliyatda ijtimoiylik, tejamkorlik, natijaviylikka olib kelishi lozim.

Samaradorlik va sifatli mehnat tufayli korxonada, birinchidan, o‘zining iqtisodiy barqarorligi va bozordagi raqobatchilikka bardosh berishini ta‘minlaydi, ikkinchidan, o‘z imijini yaxshilaydi va hamkorlar bilan aloqalarini mustahkamlaydi, uchinchidan, xodimlarning iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini yaxshilaydi. Demak, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llarini qidirish, xarajat va natijalarni to‘g‘ri solishtirish, mulkchilik shakli, qaysi tarmoqqa tegishliligi, hududiy joylashishi va faoliyat turidan qat‘iy nazar, har bir korxonada uchun muhim vazifa hisoblanadi.

Shuningdek, o'rganishlar iqtisodiy adabiyotlarda ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik tushunchalari bo'yicha yagona yondashuv mavjud emasligini, samaradorlikni hisoblashda bir necha o'nlab bevosita va bilvosita komponentlar ishtirok etishi lozimligini va ularning ulushlarini hisoblab chiqish ancha murakkabligini, shunga ko'ra, samaradorlikni baholashda umumiy yondashuv, birinchidan, ushbu jarayonning iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini har tomonlama o'rganishni, ikkinchidan, ularning jami ta'sirini tadqiq etishni taqozo etishini ko'rsatadi.

Ko'zi ojiz insonlar ishtirokidagi sanoat korxonalarini faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirishda ularning xususiyatlariga asosan davlat tomonidan zarur qo'llab-quvvatlash amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Ammo, nogiron tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan hukumat islohotlarida doimiy kuzatiladigan uchta muammo mavjud. Umuman, muammo emas, bu yerda muhim e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan tomonlar desa ham bo'ladi, afsuski, ayni paytgacha islohotlar davomida bu kamchiliklarning doimiy qaytarilishi muammo darajasiga ham aylanib ulgurdi.

Ulardan birinchisi. Hukumat, odatda, odamlarni tadbirkorlikka qo'llab-quvvatlashga yoki tashkil etilgan korxonalarini qo'llab-quvvatlashga intilgan bo'lsa-da, yakunda tadbirkorlik ko'rsatkichlarini emas, balki, umuman, mehnat bozorida ishtirok etish darajasini va tovar va xizmatlar bozoridagi o'rnini oshirishga harakat qiladi va pirovardida qisqa muddatdagi ijobiy o'zgarish bilan cheklanadi. Shuning uchun ko'rib chiqilayotgan manbalarning aksariyati tadbirkorlikni rag'batlantirishdan ko'ra, mehnat bozorida ishtirok etishni yaxshilashning kengroq tushunchasini anglatib qolaveradi.

Ikkinchidan, bir qator tashabbuslar ba'zi tadbirlar bilan qisman nogironlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, birinchi keltirib o'tgan sababimiz tufayli ular o'z e'tiborini bozordagi ko'rsatkichlarga qaratadi va har doim ham dasturlarda nogironlar ishtirok etganmi yoki qancha nogiron shaxs qatnashganligi va ulardan qanchasi o'z biznesini to'g'ri yo'lga qo'ygani haqidagi individual ishtirokchilar haqidagi ma'lumotlar hisobot materiallarga kiritilmaydi.

Uchinchidan, har doim ham ushbu hukumat dasturlarning natijalarini o'rganish to'g'ri ko'rib chiqilmaydi, hisobot yakunidagi umumiy ko'rsatkichlar keyingi bu kabi dasturlarning ahamiyatini to'liq ochib berolmaydi. Muxtasar qilib aytganda, dasturlarning muvaffaqiyatli ishlashini to'g'ri baholash uchun har doim ham yetarli ma'lumotlar mavjud emas.

Nogironlar, jumladan, ko'zi ojiz insonlarga hukumat tomonidan qulay biznes sharoitini yaratish ularning daromadini oshirish va bandligini ta'minlashning birinchi yo'li bo'lsa, keyingi o'rinlarda ularni o'z layoqatiga qarab bo'sh ish o'rinlariga yo'naltiruvchi davlat dasturlari ham ishlab chiqilishi lozim.

Bugun mamlakatimizda ham boshqa ko'plab mamlakatlar singari malakali va salohiyatli kadrlarga talab kundan kun oshib bormoqda. Respublika miqyosida bunga yechim topish uchun, bir muncha tizimli islohotlar amalga oshirilishiga qaramasdan, bu muammolar haligacha o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Ushbu kadrlar muammosining asosiy sababi ta'limning amaliyotga kam bog'liqligi bo'lsa, keyingi o'rinlarda mavjud kadrlarni saralashdagi muammolar turibdi. Achinarli tomoni shundaki, iqtisodiyotimizning ko'plab sohalarida hali-hanuz zamonaviy HR qoidalari mavjud emas, mavjudlarida ham ushbu qoidalarga to'liq amal qilinmayapti. Oddiy misol, kadrlarni boshqarish bo'yicha menejrlarning ko'pchiligi ko'zi ojiz yoki ko'rish qobiliyati past darajada bo'lgan insonlarning yashirin qobiliyatlarini anglay olishmaydi.

Oddiy mehnat yoshidagi odamlar orasida koʻrlik va koʻrish qobiliyatining pasayishining tarqalishi taxminan 1,1 %ni tashkil qiladi. Koʻrish yoki koʻrish qobiliyati zaif boʻlganlar kam tarqalishidan tashqari, umumiy aholiga qaraganda, ishchi kuchi – hukumat statistikasiga koʻra soʻnggi 22 yilda, ish bilan band boʻlganlari atigi 32,3 %ni tashkil etgan[13]. Koʻzi ojizlar yoki koʻrish qobiliyati sezilarli darajada buzilgan odamlarning kam foizi ish bilan band, bu shuni anglatadiki, koʻzi ojiz insonlar odatda samarali xodim boʻlisha olmaydi yoki ular ishga kirishda turli xil toʻsiqlarga uchraydi. Bu asosan koʻzi ojiz insonlarning ish qidirish mobaynida ularga nisbatan qilinadigan salbiy munosabatlar sababli yuzaga keladigan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunday salbiy munosabatlar, hech boʻlmaganda qisman, menejerlarni ishga qabul qilish, hamda bu aholi haqidagi maʼlumotlarning yetishmasligi bilan bogʻliq holda boʻladi.


Aslida bugun koʻplab mashhur kompaniyalar ishchi kuchi orasida diversifikatsiyani allaqachon yoʻlga qoʻyib boʻlishgan. Buning ham oʻziga yarasha sabablari bor, albatta (1-rasm).



1-rasm. Ishchi kuchi orasida diversifikatsiya jarayonining sabablari[14]

Birma-bir sanaydigan boʻlsak, birinchidan, koʻzi ojiz va boshqa nuqsonga ega insonlar sogʻlom insonlarga qaraganda nisbatan kuchli intelligensiyaga ega boʻlishadi va ular orasida oliy maʼlumotli kadrlar hissasi ham nisbatan koʻproq. Ikkinchidan, ular muammolarni hal etuvchi va ijodiy fikrlashga koʻproq moyil boʻladilar, chunki, ular vizual dunyoda oʻz nogironliklarini yengish uchun muammolarni hal qilish koʻnikmalari va ijodidan foydalanishlari kerak boʻladi va ular bu yoʻlni, majburan boʻlsa-da, bosib oʻtishgan. Bu qobiliyat esa koʻpchilik korxonalar hozirgi kunda qidirayotgan asosiy koʻnikmalardan biri hisoblanadi. Uchinchidan, koʻzi ojiz boʻlgan shaxslar, boshqa ishchilarga qaraganda, oʻz ishlarini tashlab ketish darajasi past. Agar kompaniya yuqori daromad olishni istasa, koʻzi ojiz xodimlarni yollash sizning ishchi kuchingizning barqarorligiga yordam berishi mumkin.

Ammo, shunga qaramay koʻzi ojiz insonlar ish topish va oʻz ishida muqim qolish va barqaror ishlashda koʻplab turli toʻsiqlarga uchramoqda. Fikrimizni aniq dalillar orqali ifodalasak, 2021-yilda Jahon koʻzi ojizlar ittifoqi tomonidan koʻzi ojiz insonlar, qisman koʻruvchilar va ularga ish beruvchi tadbirkorlar oʻrtasida soʻrovnoma oʻtkazildi (2-rasm).



2-rasm. Jahon ko'zi ojizlar ittifoqi tomonidan ko'zi ojiz insonlar, qisman ko'ruvchilar va ularga ish beruvchi tadbirkorlar o'rtasida olib borilgan so'rovnoma natijalari (2021-yil)[15]

Ushbu so'rovnomaning savollari ko'zi ojizlarga ish berishda va ularning o'zlari mustaqil ishga yollanishidagi muammolarni qamrab olgan edi. So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik tomonidan eng ko'p muammo sifatida ko'rilgan to'siq bu ish beruvchilarning maxsus ko'zi ojiz insonlar uchun ish o'rinlarini e'lon qilmasligi va ishga joylashishdagi arizalarni jo'natishdagi muammolar ekan.

So'rovnomada butun dunyo bo'ylab Ittifoqning 13 mln. a'zosi ishtirok etgan bo'lsa, ulardan 46 %i bo'sh ish o'rinlarining yetarlicha ochiq qolmaganligini asosiy muammo sifatida ko'rishgan. Keyingi eng katta to'siq sifatida esa yuqorida aytib o'tganimizdek, ish beruvchilarda ko'zi ojizlarni qo'llab-quvvatlash uchun yetarli darajada ko'nikmaning yo'qligi ko'rsatilgan, shu bilan birgalikda ish binolarida ko'zi ojiz insonlarga qulay infratuzilmaning yo'qligi ham bir xil 32% insonlar tomonidan ta'kidlangan. Tadbirkorlarning ko'zi ojiz insonlarni ishga yollashidagi eng katta to'siq esa ko'zi ojiz insonlarga moslashtirilgan jihozlarga qilinadigan xarajatlarning yuqoriligi (26%) va shu boisdan biznes talablarini bajara olmasligi bilan izohlashgan (18%).

Ko'zi ojizlar ishtirokidagi sanoat korxonalarini faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholashni amalga oshirish muhim masala hisoblanadi. Zero, mazkur turdagi korxonalar samaradorligining boshqa ishchi-xodimlar bandligidagi korxonalar samaradorligidan ortda qolmasligini baholash va ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, sanoat ishlab chiqarishida ko'zi ojizlar ishtirokidagi korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholashda, avvalo, uning foydaliligi (rentabelligi) ko'rsatkichni aniqlash muhim sanaladi. Mazkur jarayonda korxonalar faoliyatini tashkil etish va foydaga erishish bosqichlari tizim asosida amalga oshirilishi ishlab chiqildi.

Sof foydaning jami korxonaga kapitali (aktiv)ga nisbati uning rentabelligi (foydaliligi) darajasini aniqlashga imkon beradi:

$$\mathbf{Ra = SF / Ak,} \quad \mathbf{(1)}$$

bu yerda: Ra – aktivlar (asosiy va aylanma kapital) rentabelligi; SF – korxonaning sof foydasi, pul ko‘rinishida; Ak – avanslangan kapital, pul ko‘rinishida.

Shuningdek, ko‘zi o‘jizlar ishtirokidagi jami xodimlar mehnatidan foydalanish samaradorligini aniqlash (mehnat unumdorligi (Mu) va mehnat sig‘imi (Ms)) korxonaning ijtimoiy samaradorligini hisoblashga xizmat qiladi. Mehnat unumdorligi ko‘rsatkichi quyidagicha hisoblanadi:

$$\mathbf{Mu = Mq / Is,} \quad \mathbf{(2)}$$

bu yerda: Mu – mehnat unumdorligi; Mq – ishlab chiqarilgan jami mahsulot hajmi, qiymat ko‘rinishida; Is – ishlovchilar soni (mehnat salohiyati).

Mahsulotning mehnat sig‘imi mehnat unumdorligiga teskari kattalik bo‘lib, sarflangan mehnat miqdorining ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga nisbati sifatida aniqlanadi. U quyidagicha tartibda aniqlanadi:

$$\mathbf{Ms = Is / Mq,} \quad \mathbf{(3)}$$

bu yerda: Ms – mehnat sig‘imi.

O‘z navbatida, korxonada mehnat predmet (qurol)laridan foydalanmasdan natija, samaraga erishib bo‘lmaydi. Shu sababli mehnat qurollari (asosiy vositalar yoki fondlar)dan foydalanish samaradorligini aniqlashda mahsulotning fond sig‘imi va fond qaytimi ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi. Mazkur hisoblashda fond qaytimi korxonaga asosiy vositalarining bir birligiga to‘g‘ri keluvchi ishlab chiqarilgan mahsulotni anglatganda, fond sig‘imi esa fond qaytimiga teskari kattalik bo‘lib, yangi asosiy vositalarni tashkil qilish uchun zarur bo‘lgan kapital qo‘yilmalarni aniqlash vazifasini bajaradi. Fond qaytimi (Fq) quyidagicha aniqlanadi:

$$\mathbf{Fq = Mq / Av,} \quad \mathbf{(4)}$$

bu yerda: Av – asosiy ishlab chiqarish vositalari (fondlari) qiymati.

Fond sig‘imi (Fs) quyidagicha hisoblanadi:

$$\mathbf{Fs = Av / Mq,} \quad \mathbf{(5)}$$

Korxonaga faoliyatida fond qaytimi qanchalik yuqori va fond sig‘imi qanchalik past bo‘lsa, ishlab chiqarish va mehnat qurollaridan foydalanish samaradorligi shunchalik yuqori bo‘ladi va aksincha. Shu sababli mashina va uskunalardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirib borish, ishchi-xodimlar malakasini oshirish, fond qaytimini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, mehnat predmetlaridan foydalanish samaradorligi mahsulotlarning material sig‘imi yordamida sarflangan xom ashyo, material, yoqilg‘i, energiya va mehnat qurollarining umumiy qiymatining ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga nisbati bilan aniqlanadi:

$$Mmc = Mx / Mq, \quad (6)$$

bu yerda: Mmc – mahsulotlarning material sig‘imi; Mx – mahsulot ishlab chiqarish uchun ketgan moddiy xarajatlarning umumiy miqdori, pul ko‘rinishida; Q – ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, qiymat ko‘rinishida.

Mahsulotning material sig‘imi qanchalik past bo‘lsa, ishlab chiqarish samaradorligi shunchalik yuqori bo‘ladi.

Tadqiqotlar natijasida ko‘zi ojiz insonlar ishtirokidagi sanoat korxonalar faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini aniqlashda asosiy fondlar, moddiy resurslar va mehnat sarfi unumdorligi eng muhim ko‘rsatkichlar ekanligidan kelib chiqib, ularning tasnifi ishlab chiqildi:

1-jadval

Ko‘zi ojiz insonlar ishtirokidagi sanoat korxonalar faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini aniqlash ko‘rsatkichlari tasnifi[16]

Xarajatlar	Ishlab chiqarish hajmi (birlikda)	Daromad (so‘mda)	Foyda (so‘mda)	Qo‘shilgan qiymat (so‘mda)
1. Jami sarflar (so‘m)	Jami unumdorlik	Jami omillar unumdorligi	Rentabellik (foydali jami unumdorlik)	Qo‘shimcha qiymat unumdorligi
jumladan:				
2. Mehnat sarflari (kishi)	Mehnat unumdorligi	Mehnat unumdorligi	Foydali mehnat unumdorligi	Ishchilar tarkibiga bog‘liq bo‘lgan unumdorlik
3. Mehnat sarflari (so‘mda)	Mehnat unumdorligi	Mehnat unumdorligi	Foydali mehnat unumdorligi	Ishchi kuchiga bog‘liq bo‘lgan unumdorlik
4. Mehnat sarflari (soatda)	Mehnat unumdorligi	Mehnat unumdorligi	Foydali mehnat unumdorligi	Ish vaqtiga bog‘liq bo‘lgan unumdorlik
5. Asosiy fondlar sarfi (so‘mda)	Fond qaytimi	Fond qaytimi	Asosiy fondlarning foydali unumdorligi	Asosiy kapital unumdorligi
6. Material sarflar (birlik)	Material qaytimi	Material qaytimi	-	Aylanma aktivlar unumdorligi
7. Material sarflar (so‘mda)	Material qaytimi	Material qaytimi	-	Aylanma aktivlar unumdorligi

Keltirilgan va tahlili qilingan ko‘rsatkichlar ko‘zi ojiz insonlar ishtirokidagi sanoat korxonalar faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Mazkur maqolada ko‘zi ojizlar ishtirokidagi sanoat korxonalari faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini aniqlash masalalari keng ko‘lamda tahlil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan amalga oshirilayotgan izchil islohotlar, inklyuziv biznesni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar, imkoniyati cheklangan shaxslarning jamiyatdagi faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan siyosatlar iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Tadqiqotlar asosida sanoat korxonalarining faoliyati xususiyatlariga ko'ra tasnifi ishlab chiqildi.

2. Ko'zi ojiz insonlarning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasidagi ishtirokini ta'minlashning zarurligi va ahamiyati asoslab berildi.

3. Inklyuziv iqtisodiyotni va inklyuziv biznes modelini rivojlantirishning ahamiyati, yondashuvlari va samarali tadqiqotlar asosida yoritildi va asoslab berildi.

4. Tadqiqotlar asosida "samara", "samaradorlik", "iqtisodiy samaradorlik", "ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik" tushunchalarning tushunchalarining iqtisodiy mazmuni tadqiq etildi, ular o'rtasidagi farq yoritildi va "ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik" tushunchasi mazmuniga muallif ta'rifi ishlab chiqildi.

7. Ko'zi ojizlar ishtirokidagi sanoat korxonalari faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini aniqlash usullari tadqiq etilib, baholash ko'rsatkichlari hamda ularning tasnifi ishlab chiqildi.

8. Ko'zi ojizlar ishtirokidagi sanoat korxonalari faoliyati rivojlanishining xorijiy tajribalari tahlil etilib, ulardagi erishilgan yutuqlar va ko'zi ojiz insonlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini ta'minlash tizimlari o'rganildi hamda yoritib berildi.

Ushbu yondashuvlar, ayniqsa, ko'zi ojizlar kabi guruhlarining mehnat bozori va sanoat korxonalaridagi o'rni va salohiyatini to'liq ochib berishga yordam beradi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Bell, E.C. (2020). Competitive employment for consumers who are legally blind: A 10-year retrospective study. *Journal of Rehabilitation Research & Development*, 47(2), 109-116.; Bates-Harris, C. (2017). Segregated and exploited: The failure of the disability service system to provide quality work. *Journal of Vocational Rehabilitation*, 36(1), 39-64.; Klaus Rohrschneider 2016, Blindness in Germany - comparison between retrospective data and predictions for the future. *Der Ophthalmologe* 109(4):369-76.; Shiri Azenkot, Kyle Rector, Richard Ladner, and Jacob Wobbrock. 2012. PassChords: Secure Multi-touch Authentication for Blind People. In *Proceedings of the 14th International ACM SIGACCESS Conference on Computers and Accessibility (ASSETS '12)*, 159-166.; Brown, T. A., & Moore, M. T. (2012) Confirmatory factor analysis. In R. H. Hoyle (Ed.), *Handbook of structural equation modeling*. New York: Guilford Press. Pp. 361-379.
2. Федосеева В.А. Экономика организации (предприятия): учебное пособие. – Пермь: Перм. гос. нац. исслед. ун-т, 2018. – 170 с.; Новицкий Н.И., Горностай Л.Ч., Горюшкин А.А. Организация, планирование и управление производством. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2010. – 320 с.; Бегентаев М.М. Экономика промышленности. Учебное пособие. – Павлодар: Кереку, 2008 – 137 с.; Календарева С.Г. Организация производства на промышленном предприятии. Учебное пособие. – Т.: Издательство Литературного фонда Союза писателей Узбекистана, 2004. – 144 с.; Смирных С.Н. Социально-экономическая эффективность деятельности предприятий государственного сектора экономики. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Екатеринбург: ГОУ ВПО Уральский государственный экономический университет, 2007. – 22 с.; Андреева Е.И., Горшкова И.Д., Ковалевская А.С. Рекомендации по оценке социально-экономической эффективности социальных программ. – М.: Проспект, 2014 – 72 с.;

- Рождественская Н.В., Богуславская С.Б., Боброва О.С. Оценка эффективности проектов некоммерческих организаций, социального предпринимательства и гражданских инициатив. – СПб.: Издательство Политехнического университета, 2016. – 168 с.;
3. Mustafakulov Sh.I., Isayev Q. Inklyuziv iqtisodiyot: zarurat, tendensiya va istiqbol. // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2022 yil 22 dekabr, №260 (8322). – 5-bet.; Xotamov I., Mustafakulov Sh., Isakov M., Abduvaliyev A. Korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish. O‘quv qo‘llanma. – T.:Iqtisodiyot, 2019. – 483 -b; Jiyanov U. Turizm da samaradorlik mezonlari va ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari. //Jurnal “Society and innovations”, Special Issue – 01 (2022) / ISSN 2181-1415. – 258-267 b.; Mustafakulov Sh.I., Raximberdiyev O.F., Egamberdiyeva M.Sh. Iqtisodiy atamalarning izohli lug‘ati. – T.:Innovation rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2019. – 489 b.; Ulashev I.O., Atamuradov Sh.A. Korxonalar iqtisodiyoti va menejmenti. O‘quv qo‘llanma. – T.: Tafakkur Bo‘stoni, 2013. – 232 b.; Muratov R.S., Djalalova I.A., Oripov S.Sh. Korxonalar iqtisodiyoti. Darslik. – T.: Fan va texnologiyalar, 2014. – 424 b.; Xolmatov N.B., Imomova N.A. Makro va mikro iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. – T.:Tafakkur avlodi, 2020. – 268 b.
 4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Global Janub ovozi” onlayn-sammitidagi nutqi. // <https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-global-janub-ovozi-onlayn-sammitidagi-nutqi-444442>
 5. Isayev Q. Har inson – bebaho kapital. // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2023 yil 18 fevral, №34 (8377). – 4-bet.
 6. <https://www.oecd.org/cfe/leed/background-report-people-disabilities.pdf>
 7. Meager, N. and Hurstfield, J. (2005) „Legislating for equality: evaluating the Disability Discrimination Act 1995“, in Roulstone A and Barnes C, Working Futures? Disabled people, policy and social inclusion, Bristol: the Policy Press
 8. “Carleton” universiteti professori, “Nogironlar o‘zini-o‘zi band qilishi” borasida tadqiqotlar muallifi
 9. http://ec.europa.eu/europe2022/index_en.htm
 10. Schur 1997; Blanck va boshq. 2000; Boylan and Burchardt 2002; Meager and Higgins 2011
 11. Xotamov I., Mustafakulov Sh., Isakov M., Abduvaliyev A. Korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish. O‘quv qo‘llanma. – T.:Iqtisodiyot, 2019. – B. 163-165 b.
 12. Xotamov I., Mustafakulov Sh., Isakov M., Abduvaliyev A. Korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2019. – B. 163-165 b.
 13. Peter Ackland, Serge Resnikoff, and Rupert Bourne “World blindness and visual impairment: despite many successes, the problem is growing” PMID: PMC5820628, PMID: 29483748
 14. Muallif ishlanmasi
 15. Jahon ko‘zi ojizlar ittifoqi rasmiy sayti: <https://worldblindunion.org/fr-resources-useful/>
 16. Muallif ishlanmasi

Received: 10 March 2025

Accepted: 15 March 2025

Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

FOREIGN ECONOMIC COOPERATION BETWEEN RUSSIA AND UZBEKISTAN: STATUS AND PROSPECTS

Anastas Ambartsumyan

Associate Professor at the National University

Mirzo Ulugbek, Ph.D. in Economics

Abstract. The purpose of this study is to determine the relevance and priority areas for the development of Uzbek-Russian economic cooperation. The author pays special attention to the export potentials of both countries, the socio-economic feasibility of bilateral mutually beneficial cooperation. The results of comprehensive measures aimed at developing relations between the Republic of Uzbekistan and the Russian Federation in various sectors of the economy are revealed. Static data was used to characterize the results of the development of wind farms between states in recent years. The priority directions for the development of relations between the two countries for the coming years and the medium term are given.

Keywords: foreign economic cooperation, export, import, strategic partnership, import substitution, localization of production, priority areas of development.

ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО УЗБЕКИСТАНА И РОССИИ: СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Амбарцумян Анастас Алексеевич,

доцент Национального университета

Узбекистана им. Мирзо Улугбека, к.э.н.

Аннотация. Целью настоящего исследования является определение актуальности и приоритетных направлений развития узбекско-российского экономического сотрудничества. Особое внимание уделено экспортным потенциалам обеих стран, социально-экономической целесообразности взаимовыгодного сотрудничества. Раскрываются результаты комплексных мер, направленных на развитие отношений между Республикой Узбекистан и Российской Федерацией в различных отраслях экономики. Использовались статические данные, характеризующие итоги развития ВЭС между государствами за последние годы. Приводятся приоритетные направления развития отношений между странами на ближайшие годы и среднесрочную перспективу.

Ключевые слова: внешнеэкономическое сотрудничество, экспорт, импорт, стратегическое партнёрство, импортозамещение, локализация производства, приоритетные направления развития.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N10>

Введение. Внешнеэкономическое сотрудничество между Узбекистаном и Россией имеет глубокие базовые причины, обусловленные важностью поступательного развития обеих стран, решения проблем социально-экономического, научно-технического и культурного развития, обеспечения их технологической, энергетической, продовольственной и военной безопасности. Именно учёт собственных национальных интересов способствовал плодотворному развитию межгосударственных отношений, определению приоритетных направлений аккумуляции совместных усилий, ресурсов, направленных на разностороннее

развитие отношений между нашими странами. В этой связи предметом данного исследования являются содержание и основные направления развития внешнеторгового сотрудничества между Республикой Узбекистан и Российской Федерацией.

При этом объектом исследования являются внешнеэкономические основы обеспечения взаимовыгодного сотрудничества. Целью работы является попытка исследования основных аспектов состояния и перспектив развития внешнеэкономического сотрудничества Узбекистана и России.

Методы и материалы. В целях достижения данной цели в рамках исследования были использованы такие методы, как: подбор, обобщение, систематизация, анализ и сравнение статистических данных для раскрытия указанной темы.

Дипломатические отношения между странами были установлены 20 марта 1992 года. 30 мая 1992 года был заключён Договор об основах межгосударственных отношений, дружбе и сотрудничестве. В Договоре о стратегическом партнёрстве от 16 июня 2004 года и Договоре о союзнических отношениях от 14 ноября 2005 года зафиксированы приоритетные направления развития узбекско-российского партнёрства в военно-политической, торгово-экономической и гуманитарной сферах. При этом в первые годы независимости формирование внешнеэкономической политики республики учитывало ряд важных стартовых условий. В частности, на развитие национальной экономики, в том числе, промышленности, негативно влияли ориентация сельского хозяйства страны на выращивание и первичную переработку хлопка, специализация многих предприятий промышленности на производстве продукции с невысокой добавленной стоимостью, отсутствие необходимых структур и кадров, готовых обеспечивать внешнеэкономические связи Узбекистана. В целом можно выделить некоторые существенные особенности переходного периода от функционирования промышленности в составе бывшего Союза к формированию промышленности в рамках национальной экономики Узбекистана.

1. После распада Союза возникла объективная необходимость определения перечня приоритетных отраслей, предприятий, требующих оперативного государственного управления, создания организационно-снабженческих, технических, производственно-экономических, финансовых условий для продолжения их функционирования.
2. Переход от государственного регулирования к рыночной системе ценообразования.
3. Разработка и реализация мер по импортозамещению продукции иностранного производства, расширение локализации производства ряда сложных товаров на территории Узбекистана, в том числе, на базе использования местных ресурсов.
4. Решение новых транспортно-логистических вопросов, определение наиболее выгодных маршрутов транспортировки грузов предприятий республики в рамках внешнеэкономической деятельности.
5. В целях стабильной работы хозяйствующих субъектов, в том числе, предприятий промышленности, - в числе наиболее приоритетных остаётся

- развитие энергетики страны, включая производство электроэнергии, различных видов углеводородного сырья и продуктов его переработки.
6. В целях сбалансированного развития всех регионов республики, решения проблем их социально-экономического развития – актуализируются вопросы размещения промышленности, инфраструктурных объектов.
 7. Значительно возрастает необходимость подготовки кадров, способных обеспечить поступательное развитие как отдельных хозяйствующих субъектов, так и отраслей экономики в целом.

За прошедшие более 30 лет разрабатывались и осуществлялись комплексные меры, направленные на формирование эффективной структуры национальной экономики, определение роли отдельных отраслей в обеспечении экономического роста, выявление точек роста в условиях имеющихся ресурсов и уровня интеграции экономики страны в мировое хозяйство. Формирование внешнеэкономического потенциала страны осуществлялось с учётом географического положения страны, транспортно-логистических возможностей, геоэкономических и геополитических аспектов развития региона, влияния кризисных явлений в мировой экономике, а также санкционных мер, предпринимаемых между субъектами мировой торговли, в частности, в отношении Российской Федерации. В целом реализация экономической политики в стране, способствовала обеспечению поступательного экономического роста, стабильного развития промышленности, её обрабатывающих отраслей. В целом в 2024 году ВВП Республики Узбекистан в текущих ценах составил 1 454 573,9 млрд сум и, по сравнению с 2023 годом, возрос в реальном выражении на 6,5 %. Темпы роста ВВП Узбекистана за 5 лет приведены на рис.1[4].




Рис.1. Валовой внутренний продукт (ВВП) Республики Узбекистан за 2020-2024 гг. (в текущих ценах, млрд сум)

При расчёте в долларах США по среднему обменному курсу за отчётный период номинальный ВВП сложился в сумме 114 962,0 млн долл. США (рис.2)[4].



Рис.2. Объем номинального ВВП Узбекистана за 2020-2024 годы, в млн долл. США

Благодаря предпринимаемым за годы независимости комплексным мерам по модернизации отраслей промышленности, их технологическому перевооружению, созданию условий для производства продукции с высокой добавленной стоимостью - доля промышленности в ВВП страны достигла в 2024 году - 26,4 %.

Осуществляемые экономические реформы, направленные на повышение эффективности важнейших отраслей экономики, ориентация их на производство конкурентоспособных товаров, соответствующих современным международным стандартам, - расширили экспортные возможности страны, способствовали увеличению внешнеторгового оборота Узбекистана.

По итогам 2024 года внешнеторговый оборот Узбекистана составил 65,9 млрд долл. США и увеличился по сравнению с 2023 годом на 2,4 млрд долл. США, или на 3,8%. Из общего объема внешнеторгового оборота экспорт составил 26 948,2 млн долл. США (увеличение к 2023 году на 8,4 %), а импорт – 38 985,8 млн долл. США (прирост на 0,8 %).

В настоящее время Узбекистан осуществляет торговые связи со 198 странами мира. Наибольший объем ВТО зафиксирован с КНР (18,9%), Россией (17,6%), Казахстаном (6,5%), Турцией (4,5%), Республикой Корея (3,0%). Российская Федерация входит в первую тройку основных торговых партнеров Узбекистана по объему внешней торговли.

В Россию экспортируется основной объем готовой продукции сельского хозяйства и отраслей промышленности. В торговле Узбекистана с Россией действует режим «свободной торговли» в соответствии с двусторонним и многосторонним (в рамках СНГ) соглашениями. За 7 лет (2017-2023 гг.) объем торговли увеличился в 2,1 раза до \$9,9 млрд., экспорт в 1,6 раза до \$3,3 млрд., импорт в 2,4 раза до \$6,6 млрд. (рис.2)[3].



Рис. 2. Инфографика: Торгово-инвестиционное сотрудничество Узбекистана с Россией за 2017 - 2023 годы

В 2023 г. основными товарами экспорта Узбекистана в Россию стали: текстильная продукция (43%), плодоовощная продукция (16%), машины, оборудование и электротехнические товары (9%), изделия из чёрных и цветных металлов (7%), химическая продукция и изделия из пластмасс (6%) и услуги (18%). Основу импорта из России в прошлом году составили: металлопрокат и изделия из металлов (22%), нефть, газ и смазочные масла (19%), пищевые продукты (14%), химическая продукция и изделия из пластмасс (13%), древесина и продукция из неё (12%), машины, оборудования и транспортные средства (11%).

В настоящее время в Узбекистане действуют 3059 предприятий с российским капиталом.

Положительная динамика наблюдается также в объёме инвестиций из России. Так, за 7 лет общий объём накопленных российских инвестиций в экономике Узбекистана составляет более \$10,2 млрд. При этом за 2023 год их объём составил \$2,1 млрд.

Российский бизнес реализует инвестпроекты в различных областях: лёгкая и химическая промышленность, горнодобывающая отрасль, текстильная, агропромышленная, транспортная, химическая, телекоммуникация, инфраструктура. Крупные инвестиции направляются в машиностроение, металлургию, энергетику. Имеются перспективные совместные проекты в автомобиле- и авиастроении, а также в фармацевтике.

Россия является крупнейшим торгово-экономическим партнером Узбекистана среди стран СНГ, где на её долю приходится 50,3 процента от общего товарооборота Узбекистана со странами Содружества (рис.3)[4].



Рис. 3. Доля стран СНГ в общем внешнеторговом обороте Республики Узбекистан со странами СНГ за 2024 год (доля в %)

Особо активным взаимодействием в экономической сфере между двумя странами стало за последние годы. В ходе пленарного заседания выставки «Иннопром. Центральная Азия» в Ташкенте в 2024 году, - вице-премьер и министр промышленности и торговли России Д. Мантуров отметил, что перед Россией и Узбекистаном открываются новые возможности развития сотрудничества из-за санкций и ухода западных игроков. Он обозначил четыре приоритетных направления в отношениях России и Центральноазиатских стран[2].

«Первое – это более глубокая промышленная кооперация. Она охватывает широкий ряд секторов. Наиболее перспективными направлениями развития он назвал базовые отрасли промышленности, отдельно выделив производство комплектующих для различных сегментов машиностроения и производство систем цифровизации и автоматизации производства.

Вторым приоритетным направлением является привлечение в кооперативные процессы высокотехнологичного малого бизнеса. Он высоко оценил опыт технопарков «Чирчик» и «Джизак», которые были открыты на территории Узбекистана при участии казанской компании «Химград».

В качестве третьего приоритетного направления выделено размещение новых технопарков вблизи железнодорожной инфраструктуры. Министр особо подчеркнул возможность их строительства вдоль международного транспортного коридора «Север – Юг». По его оценкам, это создаст большие перспективы и для прилегающей промышленной инфраструктуры, и для роста товарооборота с азиатскими странами.

Четвёртым приоритетом определено расширение межрегионального сотрудничества между Россией и странами Центральной Азии в целом.

Подтверждением значимости и необходимости дальнейшего развития двусторонних торгово-экономических связей между двумя странами явился государственный визит Президента Российской Федерации В.В. Путина в Республику Узбекистан 26-28 мая 2024 года.

Президент Узбекистана Ш.М. Мирзиёев подчеркнул, что государственный визит Президента России – это, без преувеличения, историческое событие, знаменующее начало новой вехи в нашем многоплановом сотрудничестве[1].

По итогам переговоров был подписан ряд межгосударственных соглашений, касающихся различных сфер жизнедеятельности наших государств, важнейших отраслей экономики. Особо внимание было уделено различным отраслям промышленности, решению проблем в энергетике, в сферах поиска, разработки и добычи энергоресурсов, образования, здравоохранения, развития военно-технического сотрудничества, трудовой миграции, культурного обмена, поддержки русского языка в Узбекистане.

Переговоры на высшем уровне завершились подписанием важных двусторонних соглашений по перспективным направлениям межгосударственного сотрудничества. В частности, среди соглашений в сфере экономики и образования необходимо выделить:

- План совместных действий по расширению взаимодействия в приоритетных направлениях сотрудничества Республики Узбекистан и Российской Федерации;
- Межправительственное Соглашение об оказании технического содействия Республике Узбекистан в области метрологии;
- Соглашение между Министерством высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан и Министерством науки и высшего образования Российской Федерации о проведении совместных конкурсов в сфере научных технологий;
- Протокол о внесении изменений в межправительственное Соглашение о сотрудничестве в области рыболовства;
- Программа сотрудничества по увеличению туристического потока на 2025–2026 годы;
- План совместных действий между Министерством инвестиций, промышленности и торговли Республики Узбекистан и Министерством промышленности и торговли Российской Федерации по расширению промышленной кооперации в целях увеличения товарооборота Республики Узбекистан и Российской Федерации;
- План между Министерством инвестиций, промышленности и торговли Республики Узбекистан и Министерством промышленности и торговли Российской Федерации по основным направлениям деятельности рабочей группы по увеличению объёмов взаимной торговли между Республикой Узбекистан и Российской Федерацией на 2024–2030 годы;
- Меморандум между Министерством высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан и Министерством науки и высшего образования Российской Федерации о создании филиала Федерального государственного

бюджетного образовательного учреждения высшего образования «Московский государственный технический университет имени Н.Э. Баумана»;

- Соглашение о сотрудничестве в строительстве на территории Республики Узбекистан атомной электростанции малой мощности;
- Соглашение об открытии филиала Всероссийской академии внешней торговли в Ташкенте;
- Документы о сотрудничестве в области транспортного машиностроения, развития индустрии гражданских авиационных систем, увеличения туристического обмена, реализации гуманитарных проектов в Ташкенте, создания агрологистических центров и современного химического производства.

Дирекция по строительству АЭС при «Узатома» и компания «Атомстройэкспорт» (инжиниринговое подразделение «Росатома») заключили контракт на сооружение атомной электростанции малой мощности (330 МВт — шесть реакторов по 55 МВт каждый) в Джизакской области (озеро Тузкан). «Росатом» выступит генеральным подрядчиком, к строительству также будут привлечены узбекистанские компании.

«Президентом было особо отмечено, что данный проект должен иметь международный характер с привлечением различных международных структур. В этом проекте будут применены не только российские технологии, но неядерные технологии из Китая, а также различное программное обеспечение и аппаратные комплексы из Европы. Тем самым мы сделаем международный консорциум, который позволит максимально эффективно и с наилучшими технологиями реализовать данный проект», — отметил директор «Узатома» А.Ахмедхаджаев.

Президент Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёев 28 февраля 2025 года принял делегацию Российской Федерации во главе с заместителем Председателя Правительства М. Хуснуллиным[5]. Были рассмотрены вопросы расширения взаимовыгодного практического сотрудничества, в том числе в сфере строительной индустрии и развития территорий, в контексте реализации договорённостей, достигнутых в ходе государственного визита Президента России в Узбекистан в мае 2024 года. Особое внимание уделено наращиванию полномасштабной кооперации в строительном секторе, поставкам стройматериалов и оборудования в рамках реализуемых программ по социально-экономическому развитию территорий.

Результаты. В качестве основных результатов исследования имеет смысл определить следующее. Между Республикой Узбекистан и Российской Федерацией налажен эффективный механизм отношений, направленный на расширение внешнеэкономических связей в различных отраслях экономики.

Выводы. В настоящее время функционирующие внешнеторговые связи носят взаимовыгодный характер и отвечают национальным интересам Узбекистана и России.

Реализация достигнутых за последние годы соглашений будет отвечать интересам обеих стран и их народов, способствовать дальнейшему всестороннему сотрудничеству между Республикой Узбекистан и Российской Федерацией.

Литература/References/Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Выступление на брифинге по итогам состоявшихся в резиденции «Куксарой» переговоров на высшем уровне. Переговоры Президентов России и

- Узбекистана прошли в традиционно открытой, конструктивной и дружеской атмосфере // <https://president.uz/ru/lists/view/7263>
8. Мантуров Д. Выступление на пленарном заседании выставки «Иннопром. Центральная Азия» в Ташкенте // <https://www.vedomosti.ru/economics/articles/2024/04/23/1033485>
 9. Инфографика: Торгово-инвестиционное сотрудничество Узбекистана с Россией // Центр экономических исследований и реформ. – Т., 2024
 10. Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за 2024. год // Агентство статистики при Президенте Республики Узбекистан. - Т., 2025.
 11. Президент Узбекистана отметил широкие возможности для взаимовыгодного сотрудничества с Россией в сфере стройиндустрии // <https://president.uz/ru/lists/view/7915>

Received: 10 March 2025

Accepted: 15 March 2025

Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE CAPITAL ASSET PRICING MODEL (CAPM)

Zokirjonov Mukhammadsodik Ravshanbek ugli

Associate Professor of the "Regional Economy" Department of
Tashkent State University of Economics

Mirzayeva Fotima Mirrahimjonovna

PhD Student of Tashkent State University of Economics

Abstract. This article analyzes the Capital Asset Pricing Model (CAPM), its role in financial markets, and its significance in making investment decisions and developing strategies. The study explores the fundamental theoretical foundations of the model, its components, and mathematical equations, as well as its application in financial markets and its impact on investment processes. Additionally, the contribution of scholars to the development of CAPM, the restrictive conditions they introduced, the model's adaptation to real market conditions, various modifications and alternative models, and their parameters are thoroughly examined. The article concludes with suggestions and recommendations for the effective application of the CAPM model.

Keywords: CAPM model, model components, capital market, financial market, investment decision, risk analysis, financial risk, market risk assessment, evaluation criteria, decision-making, system of restrictive conditions.

KAPITAL AKTIVNI BAHOLASH MODELI (CAPM)NING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARINI RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Zokirjonov Muhammadsodiq Ravshanbek o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Mintaqaviy iqtisodiyot" dotsenti

E-mail: m_zokirjonov@tsue.uz

Mirzayeva Fotima Mirrahimjonovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

tayanch doktoranti

E-mail: fotima.mirzayeva88@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kapital aktivlarni baholash modeli (CAPM) tahlil qilinib, uning moliyaviy bozorlardagi o'rni va investitsiya qarorlarini qabul qilish va strategiyalarini ishlab chiqishdagi ahamiyati ochib berildi. Modelning asosiy nazariy asoslari va yo'nalishlari, uning komponentlari va matematik tenglamalari sharhi, uning moliyaviy bozorlardagi qo'llanilishi hamda investitsiya jarayonlariga ta'sirini baholanishi muhokama qilindi. Shuningdek, olimlarning CAPM rivojiga qo'shgan hissalarini, xususan CAPM modeliga kiritgan cheklovchi shartlarini, uning real bozor sharoitlariga moslashtirish imkoniyatlarini va bu yo'lda ishlab chiqilgan turli modifikatsiyalari va alternativ modellarini, ularning parametrlari to'g'risidagi ma'lumotlarni atroflicha tahlil qilindi. Maqola yakunida CAPM modelini samarali qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar keltirildi.

Kalit so'zlar: CAPM modeli, model komponentlari, kapital bozori, moliya bozori, investitsiya qarori, risk tahlili, moliyaviy risk, bozor riskini baholash, baholash mezonlari, qaror qabul qilish, cheklovchi shartlar tizimi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N11>

Kirish. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga asoslangan islohotlar va moliya bozorini rivojlantirish borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, investitsiya muhitini yaxshilash, kapital bozorini takomillashtirish va moliyaviy instrumentlarning samarali ishlashini ta'minlash mamlakat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga kapital aktivlar bozorlarida investitsiyalarning samaradorligini oshirish va risklarni minimallashtirish masalasi iqtisodiy tahlil va moliyaviy boshqaruvning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda investorlar turli moliyaviy instrumentlarning risk va daromadlilik darajasini baholash orqali o'z investitsiya portfellarini shakllantiradilar. Kapital bozorlarida investorlar faolligini oshirish nuqtai nazardan, zamonaviy moliyaviy bozorlarda kapital aktivlarni baholash modeli (CAPM) keng qo'llanilib, investitsiya qarorlarini qabul qilish va riskni tahlil qilish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kapital aktivlarni baholash modeli (CAPM) O'zbekistonning moliya bozorlarida investitsiya qarorlarini qabul qilishda, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda, ichki investitsiya salohiyatini faollashtirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Biroq, ushbu modelning respublikaning iqtisodiy sharoitiga mosligi, uning amaliyotdagi samaradorligi va cheklovlari bo'yicha hali yetarlicha tadqiqotlar olib borilmagan.

Shu munosabat bilan CAPM modelining nazariy va metodologik asoslarini tahlil qilish, uning moliyaviy bozorlardagi o'rnini aniqlash va investitsiya jarayonlariga ta'sirini baholash tadqiqot maqsadi sifatida belgilab olindi. Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- CAPM modelining asosiy nazariy tamoyillarini va uning evolyutsion rivojlanish bosqichlarini tadqiq etish;
- modelning asosiy bazaviy va modifikatsiyalangan komponentlari hamda ularning matematik tenglamalarini tahlil qilish;
- modelning turli bozor sharoitlari uchun takomillashtirilgan komponentlari imkoniyatlarini ochib berish;
- modelga kiritilgan cheklovlarni yengib o'tishda xorijiy olimlarning ishlab chiqqan modifikatsiyalarini sharhlash;
- CAPM modelining risk va daromadlilikni aniq baholash hamda prognozlash nuqtai nazardan, turli alternativ yechimlarni ko'rib chiqish.

Tadqiqot doirasida bir qator shartlar va cheklovlar mavjud. Xususan, maqolada CAPM modelining nazariy asoslari va uning klassik variantlari tahlil qilinadi, ammo uning har bir iqtisodiy muhitdagi aniq qo'llanilishi bo'yicha chuqur empirik tadqiqotlar o'tkazilmaydi. Shuningdek, modelning turli modifikatsiyalari va ularning amaliy samaradorligi yuzasidan ham qisqacha tavsif berilish bilan cheklanadi.

Maqolaning tuzilish jihatdan mantiqiy ketma-ketlikda ma'lumotlarni tizimli va aniq tarzda bayon etish uchun quyidagi tartibda bayon etilgan: dastlab CAPM modelining nazariy asoslari va evolyutsiyasi bayon etiladi. Keyinchalik modelning komponentlari va uning matematik ifodalari tahlil qilinadi. Shundan so'ng, modelning moliyaviy bozorlarda qo'llanilishi va uning cheklovlari muhokama qilinadi. Oxirgi qismda esa CAPM modelini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar keltiriladi.

Adabiyotlar sharhi. Investorning asosiy vazifasi maqbul risk va daromadlilik darajasini hisobga olgan holda turli aktivlar o'rtasida investitsiya salohiyatini to'g'ri taqsimlab portfel shakllantirish hisoblanadi (Lawrence J. Gitman, 2017).

1-jadval

Sharp, Lintner va Mossinlar tomonidan SARMning bazaviy modeliga kiritgan shartlari¹

Olim (yil)	Modelga kiritilgan shartlar	Klassik SARM tenglamasi
Uilyam Sharp (1964)	<ul style="list-style-type: none"> - CAPM modelining asoschisi. - Barcha investorlar ratsional va homogen (bir xil) kutuvchi hisoblanadi. - Barcha aktivlar bozorda savdo qilish mumkin bo'lgan holatda mavjud. - Investorlar bir xil vaqt oralig'ida qaror qabul qiladi. - Barcha investorlar portfel nazariyasiga amal qiladi va diversifikatsiyani istaydilar. - Risk faqat sistematik (bozor) riski bilan bog'liq bo'lib, aktiv narxlari individual risklarga emas, bozor riskiga bog'liq tarzda o'zgaradi. - Barcha investorlar bir xil risk va daromad munosabatini baholash usulidan foydalanadi. - Qarz olish va qarz berish foiz stavkasi bir xil, ya'ni risk-free rate (risksiz stavka) mavjud. 	$E(R_i) = R_f + \beta_i \times (E(R_m) - R_f)$ <p>Bu yerda:</p> <ul style="list-style-type: none"> • $E(R_i)$ – i-chi aktivning kutilayotgan daromadliligi; • R_f – risksiz stavka; • β_i – i-chi aktivning beta-koeffitsiyenti; • $E(R_m)$ – bozor portfelining kutilayotgan daromadliligi; • $(E(R_m) - R_f)$ – bozor risk premiyasi.
Jon Lintner (1965)	<ul style="list-style-type: none"> - Sharp modelini iqtisodiy muvozanat nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqqan. - Barcha investorlar bir xil kutishlarga ega va bozorga bir xil ravishda munosabatda bo'ladi. - Bozorda muvozanat (equilibrium) holati mavjud bo'lib, aktivlarning narxi shu holatda shakllanadi. - Barcha investorlar tavakkalchilikdan qochadigan (risk-averse) hisoblanadi. - Barcha aktivlar bozorda erkin savdo qilinadi va barcha investorlar kapital bozorida ishtirok eta oladi. 	
Yan Mossin (1966)	<ul style="list-style-type: none"> - CAPM'ni muvozanat nazariyasi (equilibrium theory) asosida tahlil qilgan. - Barcha investorlar iqtisodiy agentlar sifatida muvozanatga intiladi va o'z investitsiya qarorlarini shu asosda qabul qiladi. - Qarz olish va qarz berish shartlariga e'tibor qaratgan. - Har bir aktiv uchun risk va kutilayotgan daromad o'rtasidagi munosabatni mustahkamroq shakllantirgan. - Risk premiyasi (market risk premium) va kapital bozori muvozanatiga ta'sirini aniqroq tahlil qilgan. 	

¹ Mualliflar tomonidan tuzildi.

Portfel shakllantirishda aktivlarni tanlash, ulardan portfel tuzish hamda daromadlilik va riskni inobatga olib optimallashtirishning nazariy asoslari G.Markovis tomonidan taklif etilgan [1].

Markovis modelida investor t-1 davrda portfel shakllantiradi, bundan oladigan daromadi esa t vaqtda hosil bo'ladi. Markovis modelga kiritgan shartlarga ko'ra investor riskka moyil emas hamda uni bir yilda portfelni shakllantirish uchun kiritayotgan investitsiyasi daromadlilikining o'rtacha qiymati va disperiyasi qiziqtiradi [2].

Markovis portfel nazariyasiga asoslangan holda va bir-biridan mustaqil tarzda amerikalik iqtisodchilar V.Sharp, J.Lintner, F.Blek va norvegiyalik olim Ya.Mossinlar tomonidan aksiyalar bozor bahosini hisoblash uchun model ishlab chiqildi. Model moliya nazariyasi va amaliyotida kapital aktivning baholash modeli (SARM-capital asset pricing model) nomi bilan keng tanildi [3].

Qarshiyev Otabek Abdullayevich [4] "Sug'urta kompaniyalarida aktivlar tarkibini boshqarish masalalari" nomli ilmiy maqolasida SARM modelini o'zgacha nom bilan, ya'ni, "Moliyaviy aktivlarning daromadlilikini baholash modeli" deb ta'riflagan. Shundayligiga qaramasdan boshqa bir qator o'zbekistonlik olimlar SARMni kapital aktivning baholash modeli deya ta'riflashadi.

Sindarov Fazliddin Qaxramonovich [5] "Kapital aktivlarni baholash modeli (CARM) asosida investitsiya portfelining daromadlilikini baholash" nomli ilmiy nashrlarida "CARM individual aktivlarning beta-versiyasining bir-biri bilan o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda portfelning diversifikatsiya afzalliklarini baholash uchun ishlatilishi mumkin" deb ta'kidlaydi.

2-jadval

SARM bazaviy modellarining asosiy farqli jihatlari¹

№	Uilyam Sharp (1964)	Jon Lintner (1965)	Yan Mossin (1966)
1.	CAPM modelini portfel nazariyasi va bir faktorli model sifatida tushuntirgan.	Modelni makroiqtisodiy va kapital bozori nuqtai nazaridan tahlil qilgan.	CAPM modelini iqtisodiy nazariya va utilitarizm bilan bog'lagan.
2.	Uning asosiy e'tibori tavakkalchilik mukofoti va portfel diversifikatsiyasi ga qaratilgan.	Lintner kapital bozor muvozanati va tavakkalchilikni qabul qilish darajasi kabi omillarni hisobga olishga e'tibor qaratgan.	Modelni investorlarning tavakkalchilikka moyilligi va samarali portfel tanlash tamoyillari bilan tushuntirgan.
3.	Keyinroq u Sharp koef-fitsiyentini ishlab chiqib, aktivlar samara-dorligini baholash usulini taklif qilgan.	U modelni investorlar-ning ehtimoliy xulq-atvorini hisobga olgan holda tahlil qilgan.	Mossin modelda muvozanat nazariyasiga katta e'tibor qaratgan.

Xudoyqulov Xurshid Xurramovich [6] "Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini baholashda kapital aktivlar hisoblash (CAPM) usulidan foydalanish" nomli ishlarida "aksiyadorlik jamiyati kapitalini baholashning daromad yondashuvi asosida aksiyadorlik jamiyatini xususiy kapitalga olingan pul oqimi uchun diskontlash stavkasini aniqlashda kapital aktivlarini hisoblash (CAPM) usuli foydalanish lozim" deb fikr yuritgan.

Uilyam Sharp [7] va Jon Lintner [8] o'rtacha chetlanish bo'yicha samarali bo'ladigan portfel shakllantirish uchun Markovis modeliga ikkita muhim shartlar kiritishadi. Birinchisi:

¹ Mualliflar tomonidan tuzildi.

investorlarning t-1 vaqtdan t vaqtgacha aktivlar daromadini o'zaro taqsimlashga roziligi. Ikkinchisi: investorlarda qarz olish va berish jarayonida mablag' hajmidan qat'i nazar risksiz foiz stavkasida amalga oshirish imkoniyati mavjudligi.

Yan Mossin [9] modelning asosiy g'oyalari qo'shilgan holda nazariy asoslarini mustahkamladi hamda yanada chuqurroq iqtisodiy tahlil qilib, uni muvozanat (equilibrium) sharoitida qanday ishlashini izohladi. Xususan investorlar bir xil foiz stavkalarida qarz olish-berish imkoniyatlari va shartlarini kiritish, qanday ravishda risk va foydani o'rtasida optimal muvozanatni saqlashi va bozor muvozanatida har bir aktiv narxi bozordagi umumiy risk va risk premiyasi bilan qanday bog'liqligini tushuntirishga e'tibor qaratdi. Uning tahlili CAPMning bozorda qanday ishlashini tushunishga va keyingi rivojlangan ko'p omilli modellar (masalan, Arbitrage Pricing Theory – APT) uchun asos bo'lgan.

Yuqoridagi 1-jadvalga ko'ra SARM bo'yicha Sharp, Lintner, Mossin va Blekning kiritgan shartlari va tuzgan model tenglamasining qisqacha sharhi kengaytirilgan jadval shaklida keltirilgan. Jadvalda har bir olimning SARM modelini rivojlantirishdagi asosiy hissasi va modelga kiritgan shartlari to'liq aks ettirilgan. Aslida, Sharp, Lintner va Mossin tomonidan taklif qilingan Kapital aktivlarni baholash modeli (CAPM) tenglamasi matematik jihatdan bir xil. Garchi tenglama bir xil bo'lsa-da, model komponentlariga nisbatan yondashuv, talqin va ustuvorlik ularning bir-biridan farq qiladi. Asosiy forqli jihatlarni quyidagi 2-jadval ma'lumotlarida aksini topgan.

3-jadval

Fisher Blekning Zero-Beta risksiz stavkali CAPM modeli shartlari va tenglamasi¹

Olim	Modelga kiritilgan shartlar	SARM tenglamasi
Fisher Blek (1972)	<ul style="list-style-type: none"> - CAPM modelini "risk-free rate" (risksiz stavka) bo'lmagan holda ishlatish mumkinligini ko'rsatib berdi. - Bozorda qarz olish va qarz berish stavkasi bir xil emas deb qabul qildi. - Bozorda investorlar har doim risksiz stavkada qarz ololmaydi, shuning uchun "Zero-beta CAPM" modelini taklif qildi. - Agar investorlar qarz ololmasa ham, ular "nol-beta portfel" (ya'ni risksizga teng bo'lgan portfel) orqali risksiz daromad olishi mumkinligini ko'rsatdi. 	$E(R_i)$ $= E(RZB) + \beta_i(E(R_m) - E(RZB))$ <p style="text-align: center;">Bu yerda: $E(RZB)$ – Zero-Beta portfelidan kutilayotgan daromadlilik (o'tkazma riskni to'liq bartaraf qiladigan portfel).</p>

Demak yuqoridagi 1- va 2-jadvallardagi ma'lumotlarga ko'ra har uchala olim tomonidan mustaqil taklif qilgan SARM modeli tenglamasi bir xil, lekin tahliliy yondashuvlari turlicha. Ya'ni, Sharp modelni bir faktorli tavakkalchilik modeli sifatida ko'rib chiqqan bo'lsa, Lintner modelni makroiqtisodiy va bozor muvozanati nuqtai nazaridan tahlil qilgan, Mossin esa modelni iqtisodiy nazariya va utilitarizm asosida izohlagan.

Shu bois, CAPM modelining rivojlanishi bir nechta mustaqil tadqiqotchilarning hissasi tufayli shakllangan. Bu olimlarning har biri CAPMni rivojlantirishda muhim hissa qo'shgan va modelni iqtisodiy realikka moslashtirishga harakat qilgan.

Fisher Blek [10] oldingi mualliflar taklif qilgan risksiz qarz muhiti cheklanmagan imkoniyati mavjudligi noreal bo'lgani sababli, o'rniga riskli aktivlar bo'yicha qisqa (pozitsiyada) sotuvlarini cheklanmagan hajmda imkoniyatini kiritish shartini taklif qildi. Bunda

¹ Mualliflar tomonidan tuzildi.

har bir investor risk va daromadlilik mezoni bilan saralangan aktivlarni tanlash bilan optimal portfelga ega bo'lishadi va bular umumiy samarali bozor portfelini tashkil etadi.

Metodologiya. CAPM (Capital Asset Pricing Model) – kapital aktivlarning kutilayotgan daromadliliği va ularning risk darajasini baholash uchun ishlatiladi. SARM klassik modeli kapital bozori chizig'i (Capital Market Line) va qimmatli qog'ozlar chizig'i (Security Market Line) bilan ifodalanadi (Lintner, February 1965). CML chizig'i samarali bozorni ifodalaydi, undan farqli tarzda SML chizig'i ham samarali, ham samarasiz va ham alohida aktivlar joylashgan bozorni ifodalaydi. SML chizig'i portfelning bozor riskini hisobga olishi (u beta orqali belgilanadi) sababli SARM modelining yakuniy tenglamasini SML chizig'i yordamida tuziladi. Chiziq bozordagi kapital aktiv riski va undan kutilayotgan daromadlilikning o'rtasidagi bog'liqlikni tasvirlaydi. SARM klassik ko'inishida 1-jadvalda keltirilgan asosiy tenglamaga tayanadi. Uning tarkibiy komponentlari iqtisodiy mohiyati va talqinini quyida ko'rib chiqamiz.

Kutilinayotgan daromad $E(R_i)$ – bu aktivdan kutilinadigan daromaddir. SARM bir tarafdin daromadlilikni baholasa, boshqa tomondan risk darajasini ham baholaydi. Daromadlilik investorning qabul qilgan bir birlik riski uchun oladigan mukofot miqdorini tavsiflaydi. Portfel uchun baholanishi: avvalo barcha aktivlarning riski/daromadliliği CAPM formulasi yordamida hisoblanadi, keyin o'rtacha tortilgan CAPM hisoblanadi. Agar haqiqiy daromad (R_i) qiymati CAPM $(E(R_i))$ qiymatidan yuqori bo'lsa, kapital aktiv past baholangan bo'lib, investorlar uchun jozibador sanaladi. Agar $(R_i) < CAPM (E(R_i))$ bo'lsa, aktiv ortiqcha baholangan sanaladi. Shuningdek, bu natijaviy qiymat subyektiv xarakterga ega bo'lib, qiymatni maqbul darajada ekanligini baholash har bir investor tomonidan individual qaraladi va investitsion qaror uchun qabul qilinadi.

Beta koeffitsiyenti (β_i) – bu SML chizig'ining og'ish burchagi va u aktiv riski/daromadliliğining bozornikiga nisbatan qanchalik ta'sirchanligini aniqlaydigan koeffitsiyentdir. Beta koeffitsiyenti modelning eng muhim parametri bo'lib, u aktivning umumiy bozor bilan risk va daromadlilik nuqtai nazaridan qanday bog'liqlikda ekanligini ko'rsatadi. Beta tarixiy ma'lumotlar asosida, ya'ni o'tgan davrlardagi i-aktivning daromadliliği va bozor indeksining (masalan, S&P 500) daromadliliği ko'rsatkichlari bilan chizikli regressiya (OLS Regression) yordamida aniqlanadi. Agar $\beta > 1$ bo'lsa, aktiv bozorga nisbatan riskliroq (masalan yuqori texnologik firmalar aksiyalari) va aksincha $\beta < 1$ bo'lsa, aktiv bozorga nisbatan kamroq riskli (oziq-ovqat kompaniyalari aksiyalari) hisoblanadi yoki $\beta = 1$ holatda aktiv bozor bilan teng harakat qiladi (S&P 500) deb baholanadi. Beta aktivlarning SARM qiymatini bir biridan farqlaydigan modeldagi yagona o'zgaruvchi hisoblanadi.

Risksiz foiz stavka (R_f) – risk mavjud emas deb qabul qilingan holdagi minimal daromadlilikni beruvchi foiz stavkasidir. Klassik model mualliflari risksiz foiz stavkasini davlat qimmatli qog'ozlari (Treasury Bonds, Bills, Notes, TIPS) uchun belgilanadigan foiz ko'inishidagi daromadlilikka tenglashtirishgan, chunki ular hukumat kafolati ostida bo'ladi va risksiz deb hisoblanadi. Agar R_f oshadigan bo'lsa, boshqa aktivlarning kapital narxi ham ortadi, chunki investorlar risksiz aktivlarga ko'proq e'tibor qaratadi. Aksincha R_f tushadigan bo'lsa, riskli aktivlar uchun kerakli daromad kamayadi va ularning bahosi oshadi. Umuman olganda risksiz foiz stavkasi iqtisodiy makro-muhitga bevosita bog'liq hisoblanib, makroiqtisodiy siyosatga muvofiq qiymati shakllanadi.

Bozor portfelining kutilayotgan daromadliliği $E(R_m)$ – bu bozordagi barcha aktivlarning retrospektiv daromadliliklarini ifodalaydigan o'rtacha kutilishdir. Klassik SARM mualliflari

buning o'rniga S&P 500 bozor indeksi daromadlilik darajasini qo'llashni tavsiya qilishgan. Mazkur ko'rsatkich umumiy iqtisodiyotdagi faollikni va uning sog'lomligini bildiruvchi indikator sanalib, bozor indeksiga bevosita bog'liq va bozordagi sharoit bilan, ya'ni talab, taklif, raqobat va umuman bozor konyunkturasiga mutanosib tebranadigan ko'rsatkich hisoblanadi.

Bozor riski uchun mukofot ($E(R_m) - R_f$) – riskli aktivga investitsiya kiritish uchun risksiz foiz stavkasiga qo'shimcha daromad hisoblanadi. Ya'ni investor bozorda kapital aktivga investitsiya kiritib, bozor riskini zimmasiga olgani evaziga ushbu risk uchun talab qiladi (kutadi)gan mukofot miqdori. Boshqacha qilib aytganda, bozor risk premiyasi (Market Risk Premium) – bozor portfelining kutilgan daromadi bilan xatarsiz stavka o'rtasidagi farqni ko'rsatadi. Bunda so'nggi 10-30-yillik bozor daromadlari va xatarsiz stavka orqali kalkulyatsiya qilinadi va kelgusidagi bozor risk premiyasi prognoz qilinadi. Agar MRP yuqori bo'lsa, investorlar ko'proq risk mukofoti talab qiladi hamda aktivlarning baholanishi pasayadi va teskari holatda agar MRP past bo'lsa, bozor riski kamaygan va aktivlar bahosi oshishi mumkin. Bu omilning qiymati investor talab qilgan mukofot deb baholanadi va bozor uchun me'yoriy qiymatni anglatadi, ya'ni barcha investor va aktivlar uchun ularga bog'liq bo'lmagan holda bir xil qiymatda SARMga ta'sir qiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, CAPMning har bir o'zgaruvchisi obyektiv muhitni ifodalaydigan ko'rsatkichlardan tarkib topgan bo'lib, kapital bozorida moliyaviy aktivlar, xususan xususiy kapital aktivlarini daromadlilik baholash va risk darajalarini aniqlash uchun muhim. Demak, CAPM natijalarini amaliyotda investitsiya qarorlarini qabul qilishda, portfel boshqarishda, moliyaviy menejment va korporativ moliyada keng qo'llanilishi mumkin.

Tahlil va natijalar. CAPMning keyingi davrlarda mamlakatlar turli bozorlari, ulardagi ta'sir omillari, prognoz natijadorligi va aniqligi yuzasidan bir qator modifikatsiyalar orqali olimlar tomonidan takomillashtirildi. Mazkur rivojlanish bosqichlarida kiritilgan omillar CAPMdan foydalanishda kapital aktivlarning akkurat bahosi, uning bozor riskini barvaqt aniqlash bilan bog'liq muammolarni hal qilishga hamda bu risklarga tegishli chora qo'llash uchun prognozlash imkoniyatlari va aniqlik darajasini oshirdi.

CAPM modelini rivojlantirishda va unga yangi omillar qo'shishda ko'plab mualliflik asosidagi murakkab modellar va alohida tadqiqot sohalari sifatida rivojlanib kelayotgan modifikatsiyalar va tadqiqotlar mavjud. Bu modellar CAPMni yangi omillar bilan rivojlantirib, bozorlarning murakkabligini va investorlarning qaror qabul qilish jarayonini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

CAPM modelini rivojlantirishdagi bu takomillashtirish takliflari va kiritilgan yangi omillarning ba'zilaridan quyidagilarni alohida e'tirof etsa bo'ladi, jumladan, multifaktorli modellar, Carhart, va q-Factor modellari, Arbitrage Pricing Theory (APT), Fama-French 3-, 5-, 6-Factor modellari va boshqalarni kiritish mumkin.

Quyidagi 4-jadvalda modelning muxtasar evolyutsion rivojlanishining xronologiyasi keltirilgan va bunda ba'zi modifikatsiyalar va ularga kiritilgan omillarni ko'rib chiqamiz. Shu tarzda, CAPM modelining rivojlanishi bir qancha yangi omili va tahlil usullarini o'z ichiga oldi, bu esa uning amaliy qo'llanish doirasini kengaytirdi.

CAPM moliyaviy aktivlarni baholashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan modellardan biri hisoblanadi. Uni real bozor sharoitlariga moslashtirish uchun qator modifikatsiyalar va ko'p omilli modellar ishlab chiqilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, CAPM modelining cheklovlariga

qaramay, u investitsiya qarorlarini qabul qilishda va risklarni baholashda samarali vosita bo'lib qolmoqda.

4-jadval

CAPMning xronologik rivojlanish bosqichlari¹

№	Yil	Olim(lar)	Model/modifika-siya nomi	Asosiy g'oyalar	Model formulasi/tenglamasi va o'zgaruvchilari
1.	1964	Uilyam Sharp (William Sharpe)	Klassik CAPM	Investorlar bir xil kutishlarga ega, bozor riski va risksiz stavka mavjud	$E(R_i) = R_f + \beta_i \times (E(R_m) - R_f)$ <ul style="list-style-type: none"> • $E(R_i)$ – i-chi aktivning kutilayotgan daromadliliği; • R – risksiz stavka;
2.	1965	Jon Lintner (John Lintner)	Muvozanat tahlili	CAPMni bozor muvozanati nuqtai nazaridan tahlili	<ul style="list-style-type: none"> • β_i – i-chi aktivning beta-koeffitsiyenti; • $E(R_m)$ – bozor portfelining kutilayotgan daromadliliği;
3.	1966	Yan Mossin (Jan Mossin)	Qarz olish shartlari	Qarz olish-berish stavkasi, bozor muvozanati va risk premiyasiga ta'siri	<ul style="list-style-type: none"> • $(E(R_m) - R_f)$ – bozor risk premiyasi.
4.	1972	Fisher Blek (Fischer Black)	Zero-Beta CAPM	Risksiz stavka bo'lmagan holdagi CAPM modeli	$E(R_i) = E(R_{ZB}) + \beta_i \times (E(R_m) - E(R_{ZB}))$ <ul style="list-style-type: none"> • $E(R_{ZB})$ – Zero-Beta portfelidan kutilayotgan daromadlilik
5.	1973	Robert Merton (Robert Merton)	Intertemporal CAPM (ICAPM)	Ko'p davrli CAPM (ICAPM) vaqt bo'yicha o'zgaruvchan risk va daromadlarni hisobga oladi va investorlar faqat hozirgi aktivlarni emas, balki kelgusidagi risk va daromadlarni ham hisobga oladilar.	$E(R_{i,t+1}) = R_{f,t} + \beta_{i,t} (E(R_{m,t+1}) - R_{f,t}) + \sum_{j=1}^n \lambda_j Z_{j,t}$ <ul style="list-style-type: none"> • t – t-yil davr uchun • $t+1$ – t+1-yil davr uchun • $Z_{j,t}$ – qo'shimcha risk omillari (masalan, inflyatsiya, iste'mol, likvidlik riski) • λ_j – bu risk omillariga mos mukofot
6.	1974	Bruno Solnik (Bruno Solnik)	Internatjonal CAPM (ICAPM)	ICAPM xalqaro bozorlarning integratsiyasi, transchegaraviy kapital oqimlari va valyuta riskini va global bozorlar ta'sirini hisobga oladi.	$E(R_i) = R_f + \beta_i (E(R_w) - R_f) + \gamma_i E(S)$ <ul style="list-style-type: none"> • $E(R_w)$ – global bozor portfelining kutilgan daromadi • γ_i – valyuta riski koeffitsiyenti • $E(S)$ – valyuta kurslarining kutilgan o'zgarishi
7.	1976	Stiven Ross (Stephen Ross)	Arbitrage Pricing Theory (APT)	Ko'p omilli (multifactor) modelda aktivni baholashda faqat bozor riskini emas, balki boshqa risk	$E(R_i) = R_f + \beta_1 \times (F_1) + \beta_2 \times (F_2) + \dots + \beta_n \times (F_n)$ <ul style="list-style-type: none"> • F_1, F_2, \dots, F_n – qo'shilgan turli omillar (xususiyl iqtisodiy, siyosiy, va boshqa omillar). • β_n – har bir omilning ta'siri (faktorning beta-koeffitsiyenti).

¹ Mualliflar tomonidan tuzildi.

				omillar ta'sirini ham kiritildi	
8.	1985	Hersh Shefrin va Meir Stetmen (Hersh Shefrin & Meir Statman)	Behavioral CAPM (VSARM)	BCAPM investorlar irratsional xatti-harakatlarini, ya'ni riskka nisbatan subyektiv munosabat va bozor psixologiyasini hisobga oladi.	$E(R_i) = R_f + \beta_i \times (E(R_m) - R_f) + \alpha_B B_i + \epsilon_i$ <ul style="list-style-type: none"> • $\alpha_B B_i$ – biheviroistik omili • B_i – xulq-atvor (behavioral) korreksiya koeffitsiyenti (investorlarning irratsional xatti-harakatlarini, ya'ni riskka nisbatan subyektiv munosabat va bozor psixologiyasini hisobga oladi) • ϵ_i – xatolik qismi
9.	1990	Fisher Blek, Robert Litterman (Black & Litterman)	Black-Litterman Model	CAPMni yanada murakkablashtirilgan, bozor va mutaxassislar fikrini qo'shilgan.	$w = (\Sigma^{-1} + P^T \Omega^{-1} P)^{-1} (\Sigma^{-1} r_0 + P^T \Omega^{-1} q)$ <ul style="list-style-type: none"> • P matritsa – talab qilingan baho va fikrlarning shomili. • q – mutaxassislar tavsiya qilgan fikrlar (bozorga oid yoki ayrim aktivlarga oid).
10.	1992	Yudjin Fama, Kennet French (Fama & French)	Fama-French 3-Factor Model	Bozor riskiga qo'shimcha ravishda kapitallashuv hajmi (size) va baland/past (P/B ratio value) omillari kiritildi	$E(R_i) = R_f + \beta_i \times (E(R_m) - R_f) + s_i SMB + h_i HML$ <ul style="list-style-type: none"> • <i>Size (kapitallashuv)</i> – SMB (Small Minus Big): kichik kapitalizatsiyaga ega kompaniyalar odatda katta kapitalizatsiyaga ega kompaniyalarga nisbatan yuqori daromad berishadi. • <i>Value (qimmatlik)</i> – HML (High Minus Low): qimmatligi yuqori bo'lgan (P/B ratio yuqori) aktivlar yuqori daromad berishadi.
11.	1995-1996	Marko Karxart (Mark Carhart)	Carhart 4-Factor Model	Fama-French modelini asos qilinib "Momentum" (omilning o'zaro harakat qilish qudrati) omili qo'shildi	$E(R_i) = R_f + \beta_i \times (E(R_m) - R_f) + s_i SMB + h_i HML + m_i MOM$ <ul style="list-style-type: none"> • <i>MOM (Momentum)</i> – og'irlikka ega aktivlar tezroq o'sishadi va ular past ko'rsatkichli aktivlarga nisbatan yuqori daromad olishadi.
12.	2005	Endryu Eng, Girt Bekart, Yun Liu (Ang, Bekaert, Liu)	Time-Varying Risk Premia	Vaqtga bog'liq risk premiyasi (TVRP) makroiqtisodiy sharoitlarga, bozor beqarorligi va investor kayfiyatiga qarab o'zgaruvchi risk premiyasini hisobga oladi.	$E(R_i, t) = R_f, t + \beta_i, t (E(R_m, t) - R_f, t) + \lambda t$ <ul style="list-style-type: none"> • t (<i>indeksda</i>) – t-yildagi ma'noda keladi • λt – vaqtga bog'liq risk mukofoti (risk premium), bu bozor sharoitlariga qarab o'zgaradi
13.	2015	Yudjin Fama, Kennet French	Fama-French 5-Factor Model	Foydalilik (profitability) va investitsiyalar	$E(R_i) = R_f + \beta_i \times (E(R_m) - R_f) + s_i SMB + h_i HML + r_i RMW + c_i CMA$

		(Fama & French)		(investment) omillari qo'shildi	<ul style="list-style-type: none"> • <i>RMW (Robust Minus Weak)</i> – foydaliligi yuqori va past bo'lgan kompaniyalarning aktivlaridagi farq. • <i>CMA (Conservative Minus Aggressive)</i> – kam sarflaydigan va agressiv sarmoya kirituvchi kompaniyalarning farqi.
14.	2018	Hou, Xue, Jang (Hou, Xue & Zhang)	q-Factor Model	Fama-French modelini yanada rivojlantirilgan, investitsiya va rentabellikga asoslangan model	$E(R_i) = R_f + \beta_i \times (E(R_m) - R_f) + \beta_i \text{ INV} + \beta_i \text{ ROA}$ <ul style="list-style-type: none"> • <i>INV</i> – <i>Investment (investitsiyalar)</i> – pul qo'shish yoki kapitallashishning harakati. • <i>ROA</i> – <i>Return on Assets (aktivlar bo'yicha daromad)</i> – kompaniyaning foydaliligini ko'rsatadi.
15.	2020	Yudjin Fama, Kennet French (Fama & French)	Fama-French 6-Factor Model	CAPM va avvalgi Fama-French 3-faktor (1993) va 5-faktor (2015) modellarini rivojlantirib, impuls (Momentum) omilini qo'shgan. Bu model aksiya narxlarini aniqroq baholash va bozor anomalialarini tushuntirish uchun ishlatiladi.	$R_i - R_f = \alpha + \beta_m \times (R_m - R_f) + \beta_s \text{ SMB} + \beta_h \text{ HML} + \beta_r \text{ RMW} + \beta_c \text{ CMA} + \beta_{mi} \text{ MOM} + \epsilon_i$ <ul style="list-style-type: none"> • α – aktivning kutilmagan ustun daromadi (alfa) • <i>SMB (Small Minus Big)</i> – kichik kapitalizatsiyali aksiyalar va yirik kapitalizatsiyali aksiyalar o'rtasidagi farq • <i>HML (High Minus Low)</i> – yuqori balans-narx koeffitsiyenti (value stocks) va past balans-narx koeffitsiyenti (growth stocks) o'rtasidagi farq • <i>RMW (Robust Minus Weak)</i> – yuqori foydalilikka ega kompaniyalar va past foydalilikka ega kompaniyalar o'rtasidagi farq • <i>CMA (Conservative Minus Aggressive)</i> – konservativ investitsiya strategiyasi va agressiv strategiya o'rtasidagi farq • <i>MOM (Momentum)</i> – impuls omili, ya'ni o'tmishda yuqori daromadli bo'lgan aktivlar bilan past daromadli bo'lgan aktivlar o'rtasidagi farq • ϵ_i (<i>epsilon_i</i>) – modelning xatolik qismi
Modifikatsiyasi davom etayotgan xos izlanish sohalari					
16.	1980-h.v.	Eugene Fama, Kenneth French, Robert Merton, John	Inflation-Adjusted CAPM	Inflyatsiyani hisobga oluvchi CAPM aktivlardan olinadigan haqiqiy (real) daromadni hisoblash uchun	$E(R_i) - E(\pi) = R_f - E(\pi) + \beta_i \times [(E(R_m) - E(\pi)) - (R_f - E(\pi))]$ <ul style="list-style-type: none"> • $E(\pi)$ – kutilgan inflyatsiya darajasi

		Campbell va boshqalar		inflyatsiya ta'sirini olib tashlaydi va makroiqtisodiy riskni hisobga olishda, investitsiya strategiyalarini aniqroq baholashda qo'llaniladi.	<ul style="list-style-type: none"> • R_f – nominal xatarsiz stavka (nominal risk-free rate) • $(E(R_m) - E(\pi)) - (R_f - E(\pi))$ – bozor tavakkalchilik mukofoti (real hisobda)
17.	1980-h.v.	Robert Merton va boshqalar	Multi-Period CAPM	Ko'p davrli CAPM modellar (Multi-Period CAPM)i bir necha davrga moslashtirishga qaratilgan. Bu modelda kelajakdagi daromadlarni hisobga olish uchun batafsil tavsiflangan o'zgarishlar kiritiladi.	$E(R_i) = R_f + \beta_i \sum_{t=1}^T (E(R_m) - R_f)$ <ul style="list-style-type: none"> • T – taftish qilingan vaqt davri (muddat). • $\sum_{t=1}^T$ – bir necha davrdagi bozorning risk premiasini hisobga olish.
18.	1990-h.v.	John Burr Williams (1938), Myron Gordon (1956), Fama va French (1990-2020)	DDM-CAPM Integrati on	DDM (Dividend Discount Model) va Gordon Growth Model (GGM) modellari asosida CAPM va DDM modellarini integratsiya qilish.	$P_0 = D_1 / (R_f + \beta \times (E(R_m) - R_f) - g)$ <ul style="list-style-type: none"> • P_0 – aksiyaning hozirgi narxi • D_1 – kelasi yil uchun kutilgan dividend • g – dividendlarning doimiy o'sish sur'ati
19.	2021-h.v.	Turli tadqiqotchilar	Machine Learning-based Models	Mashina o'rganish (machine learning) va katta ma'lumotlar (big data) orqali aktiv baholashda CAPM va APT modellarining yangi shakllari	<p>Quyidagilar orqali bazaviy yoki bundan oldingi modellarga kiritilgan omillar tahlil qilinadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Deep Learning; • Random Forest; • SVM (Support Vector Machines); • Neural Networks va boshqalar.

Modelning asosiy ustunligi shundaki, u risk va daromadlilikni tizimli ravishda hisobga olishga yordam beradi va investorlar uchun optimal qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi. Bozor risk premiasini, beta koeffitsiyenti va risksiz stavka kabi parametrlar modelning aniqligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, CAPM modelini investitsiya jarayonlarida qo'llash portfelnii samarali shakllantirish, aktivlar bahosini to'g'ri aniqlash va moliyaviy qarorlarni oqilona qabul qilish imkonini beradi. Shu sababli, CAPM modeli korporativ moliya, investitsiya tahlillari va moliyaviy risklarni boshqarish sohalarida keng qo'llanilishi mumkin.

Xulosa va takliflar. CAPM modelining klassik ko'rinishi rivojlangan moliya bozorlari uchun ishlab chiqilgan bo'lib, uni O'zbekistonning investitsiya muhitiga moslashtirish muhim

masala hisoblanadi. Shuningdek, mahalliy iqtisodiyotga xos bo'lgan omillarni inobatga olish va CAPM modelini modifikatsiya qilish orqali uning aniqligini oshirish mumkin. Quyidagi taklif va tavsiyalar O'zbekiston sharoitida CAPM modelini samarali qo'llash uchun ishlab chiqildi:

1. O'zbekistonda CAPM modelini rivojlantirish va moslashtirish yuzasidan quyidagilar:

1) O'zbekiston bozorining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, Fama-French 3- yoki 5-omilli modellari kabi SARM multifaktorli modellarini tatbiq etish zarur. Bunda, mamlakat iqtisodiyoti uchun dolzarb bo'lgan inflyatsiya, pul-kredit siyosati, real foiz stavkalari, valyuta kurslarining o'zgarishi kabi makroiqtisodiy faktorlarni kiritish taklif etiladi.

2) Klassik CAPMda davlat obligatsiyalarining foiz stavkalari risksiz stavka sifatida qabul qilinadi. O'zbekiston uchun risksiz stavka sifatida Markaziy bank tomonidan belgilangan bazaviy stavka yoki valyuta zaxiralari asoslangan davlat obligatsiyalari bo'yicha stavkalardan foydalanish taklif etiladi.

2. Investitsiya qarorlarini qabul qilishda CAPM modelidan foydalanish bo'yicha quyidagilar:

1) O'zbekistondagi yirik kompaniyalar, tijorat banklari, investitsiya fondlari va xususiy kapital fondlari kapital narxlarini aniqlash, investitsiya loyihalarini baholash va portfel strategiyalarini ishlab chiqish uchun CAPM modelidan samarali foydalanib, risk va daromadlilik munosabatini aniq baholashlari lozim. Bunda, CAPMni WACC (Weighted Average Cost of Capital) metodologiyasiga integratsiya qilib qo'llash taklif etiladi.

2) Hozirda O'zbekiston fond bozori rivojlanish bosqichida bo'lgani uchun, CAPM modelidan qimmatli qog'ozlar bozorida IPO va SPO jarayonlarida kompaniyalarning adolatli narxini aniqlash hamda birja savdolarida aksiyalarning haqiqiy bahosini baholash uchun foydalanish va "Toshkent" Respublika fond birjasi Listing talablari Nizomiga kiritish taklif etiladi.

3. O'zbekiston bozorida CAPM modelini tekshirish, amaliyotga joriy qilish, va xos modifikatsiyasini ishlab chiqish uchun quyidagilar:

1) CAPM modelining O'zbekiston moliya bozorlarida amaliy ishlashini tekshirish uchun statistik va ekonometrik usullar orqali bozordagi kapital aktivlar uchun β (beta) koeffitsiyenti aniqlanishi maqsadga muvofiq. Buning uchun OLS (Ordinary Least Squares) regressiya tahlili orqali aksiyalarning bozorga nisbatan sezgirligini aniqlash taklif etiladi.

2) Zamonaviy moliya bozorlarida keskin va shiddatli iqtisodiy o'zgarishlar va texnologik rivojlanishlarni inobatga olib, CAPM modelini machine learning va data science usullari bilan takomillashtirish va modellashtirish taklif etiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, CAPM modeli O'zbekistonning moliya bozorida qimmatli qog'ozlarning haqiqiy bahosini aniqlash, portfel investitsiyalarini optimallashtirish va moliyaviy qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega. Lekin uning klassik shakli mahalliy bozor sharoitlariga to'liq mos emas. Shu sababli, modelni o'rganish, modifikatsiya qilish, empirik tekshirish va yangi makroiqtisodiy omillarni integratsiya qilish orqali samaradorligini oshirish kerak. Ushbu taklif va tavsiyalar amalga oshirilsa, CAPM modelini O'zbekiston investitsiya muhitida samarali qo'llash bilan moliya bozorini rivojlantirish imkoniyatini oshiradi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. E. F. Fama and K. R. French, "The Capital Asset Pricing Model: Theory and evidence," *J. Econ. Perspect.*, vol. 18, no. 3, pp. 25–46, 2004, doi: 10.1257/0895330042162430.

2. H. Makowitz, "Portfolio Selection," *J. Finance*, vol. 7, no. 1, pp. 77–91, 1952, doi: <https://doi.org/10.1111/j.1540-6261.1952.tb01525.x>.
3. M. R. O. Zokirjonov, "Капитал активнинг баҳолаш модели," *"Молия" илмий журнал*, vol. 1, pp. 120–125, 2018, [Online]. Available: <https://tfi.uz/en/page/moliya-ilmiy-jurnali>
4. O. A. Қаршиев, "Суғурта компанияларида активлар таркибини бошқариш масалалари," *Iqtisodiyot va Innov. texnologiyalar*, vol. 1, no. 00057, pp. 121–133, 2022.
5. F. Q. Sindarov, "КАПИТАЛ АКТИВЛАРНИ ВАХОЛАШ МОДЕЛИ (САРМ) АСОСИДА ИНВЕСТИЦИА ПОРТФЕЛИНИНГ ДАРОМАДЛИЛИГИНИ ВАХОЛАШ," *Iqtisodiyot va ta'lim*, vol. 1, pp. 35–41, 2024.
6. X. X. Худойқулов, "АКЦИЈАДОРЛИК ЖАМИЯТЛАРИ КАПИТАЛИНИ БАХОЛАШДА КАПИТАЛ АКТИВЛАР ҲИСОБЛАШ (САРМ) УСУЛИДАН," *Iqtisodiyot va Innov. texnologiyalar*, no. 4, pp. 47–54, 2020.
7. W. F. Sharpe, "Capital Asset Prices: A Theory of Market Equilibrium under Conditions of Risk," *J. Finance*, vol. 19, no. 3, pp. 425–442, 1964,
8. J. Lintner, "The Valuation of Risk Assets and the Selection of Risky Investment in Stock Portfolios ad Capital budgets," 1965.
9. J. Mossin, "Equilibrium in a Capital Asset Market," *Econometrica*, vol. 34, no. 4, pp. 768–783, 1966.
10. F. Black, "Capital Market Equilibrium with Restricted Borrowing," *J. Bus.*, vol. 45, no. 3, pp. 444–455, 1972.

Received: 10 March 2025
Accepted: 15 March 2025
Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

IMPROVING THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISM IN THE HORSE BREEDING INDUSTRY

Islamutdinova Dina Faizrakhmanovna

Candidate of Agricultural Sciences
Faculty of Socio-Economics
Department of Economics
Urgench State University

Abstract. The article discusses the organizational and economic mechanism for the development of horse breeding in the Republic of Uzbekistan, focusing on four key components: organizational, economic, management and institutional mechanisms. Methods and tools are considered, such as financial levers (subsidies, loans), the introduction of information technology, infrastructure modernization and the creation of clusters that contribute to the optimization of the industry. The role of institutional elements such as the regulatory framework, standardization, scientific and educational institutions and informal mechanisms supporting the development of the sector are also highlighted.

Keywords: institutional mechanism; outsourcing; an informal institute; organizational structure.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО – ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА В ОТРАСЛИ КОНЕВОДСТВА

Исламутдинова Дина Файзрахмановна

кандидат сельскохозяйственных наук
Социально-экономический факультет
кафедра «Экономики»
Ургенчского государственного университета

Аннотация. В статье рассматривается организационно-экономический механизм развития коневодства в Республике Узбекистан, основное внимание уделяется четырём ключевым компонентам: организационному, экономическому, управленческому и институциональному механизмам. Рассматриваются методы и инструменты, такие как финансовые рычаги (субсидии, кредиты), внедрение информационных технологий, модернизация инфраструктуры и создание кластеров, которые способствуют оптимизации работы отрасли. Также выделяется роль институциональных элементов, таких как нормативно-правовая база, стандартизация, научно-образовательные институты и неформальные механизмы, поддерживающие развитие сектора.

Ключевые слова: институциональный механизм; аутсорсинг; неформальный институт; организационная структура.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N12>

Динамичный характер развития экономики республики Узбекистан на современном этапе, ее качественные изменения требуют формирования целостной системы функционирования экономики, основанной на использовании рыночных механизмов развития и саморазвития и методов государственного регулирования. В связи с этим, возникает потребность в изучении теоретических аспектов понятия

«механизм» в современной экономической литературе и особенностей функционирования его отдельных структурных элементов.[1,4]

Термин «механизм» проник в экономическую науку из механики, однако в научной литературе отсутствует единая трактовка этого понятия в контексте экономики. В толковом словаре русского языка С.И. Ожегова термин «механизм» определяется как система, устройство, определяющее порядок какого-либо вида деятельности. По мнению Д.Н. Ушакова, понятие «механизм» характеризует внутреннее устройство и систему функционирования чего-либо, а также аппарат, обеспечивающий деятельность определенного вида.[13,17]

Несмотря на общность терминов, в экономической литературе не существует единого мнения по поводу трактовки понятий «организационный механизм» и «экономический механизм». Так, некоторые ученые определяют «организационный механизм» как систему связей, возникающих в динамике в рамках конкретной организации, в то время как другие рассматривают его как совокупность организационных средств воздействия. В свою очередь, «экономический механизм» трактуется различными исследователями.[9,12]

Следует различать экономические механизмы, объективно существующие и независимые от субъективных намерений лиц, действующих в экономике (людей и/или организаций), и экономические механизмы, сознательно формируемые для получения определенных результатов. Экономические механизмы могут выделяться наукой или практикой различным образом: по отраслевому или по территориальному принципу, по функциям управления или по некоторым экономическим процессам, по действующим субъектам или по объектам воздействия.[14,19]

Экономический механизм как взаимодействие между субъектами и центром, состоящее из трёх стадий: каждый субъект в частном порядке посылает центру сообщение, центр, получив все сообщения, вычисляет предполагаемый результат.[20,21]

Оптимальные экономические механизмы могут быть разработаны на основе применения теоретико-игровых подходов. Например, в одной из классических работ рассматривается общее описание устройства оптимальных аукционов, где предпочтительный вариант продажи устанавливается через нахождение оптимального экономического механизма. Эти механизмы могут быть весьма разнообразными, и в общем случае неограниченными.[22]

Обобщая высказывания ученых, касающихся понятия «экономический механизм», предлагается рассматривать его как подсистему хозяйственного механизма, включающую цели, задачи, принципы, субъекты, объекты, формы, методы и инструменты. Совокупный эффект этих элементов выражается в достижении показателей развития и саморазвития экономической сферы при непосредственном регулировании государства и саморегулировании экономики.[6,14,19,20]

В результате перехода к рыночным отношениям и обретения хозяйствующими субъектами конечности экономической независимости в различных регионах Узбекистана исчезло целостное восприятие отрасли как единой системы. Коневодческие хозяйства теперь сами управляют всеми процессами, связанными с производством и продажей продукции. В условиях ограниченных материально-

технических, трудовых и финансовых ресурсов, а также нехватки профессиональных знаний и образования в области коневодства, это приводит к снижению эффективности производства.[1,2,4]

Владельцы не уделяют достаточного внимания ветеринарным мероприятиям, соблюдению правильных технологий содержания и выпаса животных, а также отсутствуют необходимые навыки для проведения селекционно-племенной работы с лошадьми карабаирской породы. В результате такой ситуации возникает необходимость в усовершенствовании организационно-экономического механизма ведения коневодства, направленного на повышение эффективности и устойчивости отрасли.[3,4,5]

В рамках исследования организационно-экономического механизма, с целью его эффективного применения в развитии отрасли, выделяются ключевые компоненты: организационный механизм, экономический механизм, механизм управления и институциональный механизм. [7,8,12]

В организационном механизме представлены методы - организация и реализация целевых программ по регионам для улучшения генетической базы и поддержания племенных и спортивных лошадей; разработка эффективной организационной структуры для координации распоряжений и контроля на уровне частных хозяйств, КСК и владельцев лошадей; организация проведение национальных игр, племенных выставок, аукционов, для обмена опытом между хозяйствами, частными владельцами и КСК; аутсорсинг -ветеринарные услуги, ковка лошадей, перевозка животных, строительство конюшен; формирование кластеров в отрасли по всем направлениям коневодства.[8,12]

Экономический механизм состоит из методов – внедрение информационных технологий для мониторинга и планирования (ERP-системы); льготные кредиты, налоговые льготы и государственная поддержка для стимулирования роста; разработка и реализация ценовой политики при продаже животных и коневодческой продукции для каждого региона отдельно, с учётом спроса и предложения; совместное владение лошади для физических или юридических лиц (эффект снобизма); государственно-частное партнерство для поддержки программ развития отрасли и территорий.[7]

В механизме управления - формирование чёткой иерархии управления (вертикаль власти) с разграничением функций на уровне муниципалитетов; организация образовательных программ для повышения квалификации специалистов в аграрных и научных институтах; внедрение информационных систем для учёта животных; проведение тренингов и семинаров по внедрению новых технологий и методов управления.[2]

Автором впервые рассмотрен институциональный механизм в отрасли коневодства республики Узбекистан и представлены методы - разработка правовых норм для регулирования рыночных отношений и государственного контроля; создание системы сертификации и стандартизации продукции (мясо, молоко и др конская продукция) с учётом международных стандартов качества; проведение научных исследований в области селекции, кормления, ветеринарии, генетики и ухода за лошадьми; развитие неформальных институтов (традиции, обычаи и связи), поддерживающих функционирование отрасли.[10,11,21]

Таблица. 1. Классификация структурных элементов
организационно - экономического механизма в отрасли коневодства*

Организационно-экономический механизм отрасли коневодства в Республике Узбекистан			
Целью организационно-экономического механизма отрасли коневодства в Республике Узбекистан является обеспечение продовольственной безопасности страны путём увеличения производства высококачественной сельскохозяйственной продукции, что снижает зависимость от импорта и способствует национальной экономической независимости, создание условий для устойчивого развития и повышения эффективности данного сектора, а также на улучшение общей экономической ситуации в стране. Укрепление позиций Узбекистана на международных рынках, развитие внешней торговли продукцией коневодства.			
Организационный механизм	Экономический механизм	Механизм управления	Институциональный механизм
Цель: создания нового в эффективной координации всех процессов, связанных с разведением, использованием и сохранением лошадей.	Цель: достижение экономической эффективности в отрасли с учётом ограниченности ресурсов.	Цель: формирование эффективной управленческой структуры, обеспечивающей координацию процессов в отрасли коневодства между центральными, региональными и местными уровнями управления.	Цель: формирование институтов взаимодействия (правил игры) между субъектами в отрасли коневодства.
<p>Задачи</p> <ul style="list-style-type: none"> -Разработка и реализация государственных программ, направленных на развитие коневодства, улучшение племенной работы и повышение продуктивности. -Организация и координация работы всех уровней управления в отрасли, включая центральные, региональные и местные органы, НИИ и полигоны, коневодческие хозяйства различного направления и частные коневладельцы -Модернизация инфраструктуры, включая транспортные и логистические сети, фермерские хозяйства, перерабатывающие предприятия. -Организация кластеров во всех направлениях коневодческой отрасли. 	<p>Задачи</p> <ul style="list-style-type: none"> - Эффективное использование ограниченных ресурсов — земли, корма, труда — для достижения максимальной отдачи от хозяйства. - Применение различных финансовых инструментов для обеспечения инвестиций в развитие отрасли, включая кредиты, субсидии, страхование и другие формы финансирования. - Обеспечение устойчивости и роста отрасли с помощью государственной поддержки, в том числе финансовой, налоговой и административной. 	<p>Задачи</p> <ul style="list-style-type: none"> -разработка и совершенствование системы управления отраслью -Использование информационных технологий для управления процессами в отрасли, мониторинга состояния предприятий и обеспечения эффективного обмена данными -Обучение, повышение квалификации специалистов и улучшение профессиональных навыков работников коневодческих хозяйств. 	<p>Задачи</p> <ul style="list-style-type: none"> -Институт права - разработка правовой базы, включая законы и нормативные акты, регулирующие деятельность в отрасли коневодства. -Институт сертификации и стандартизации - создание и внедрение системы сертификации и стандартизации продукции, а также регулярные проверки и контроль за выполнением стандартов. -Институт науки -поддержка научных исследований и инноваций в области коневодства, направленных на решение ключевых проблем отрасли. -Неформальный институт - традиции, обычаи, общественные нормы, личные связи.
Методы	Методы	Методы	Методы
<ul style="list-style-type: none"> • Организация и реализация целевых программ по регионам для улучшения генетической базы и поддержания племенных и спортивных лошадей. • Разработка эффективной организационной структуры для координации распоряжений и контроля на уровне частных хозяйств, КСК и владельцев лошадей. • Организация проведение национальных игр, племенных выставок, аукционов, для обмена опытом между хозяйствами, частными владельцами и КСК. • Аутсорсинг: ветеринарные услуги, ковка лошадей, перевозка животных, строительство конюшен • формирование кластеров в отрасли по всем направлениям коневодства. 	<ul style="list-style-type: none"> • Внедрение информационных технологий для мониторинга и планирования (ERP-системы). • Льготные кредиты, налоговые льготы и государственная поддержка для стимулирования роста. • Разработка и реализация ценовой политики при продаже животных и коневодческой продукции для каждого региона отдельно, с учётом спроса и предложения • Совместное владение лошадью для физических или юридических лиц (эффект синергии). • Государственно-частное партнерство для поддержки программ развития отрасли и территорий. 	<ul style="list-style-type: none"> • Формирование четкой иерархии управления (вертикаль власти) с разграничением функций на уровне муниципалитетов. • Организация образовательных программ для повышения квалификации специалистов в аграрных и научных институтах. • Внедрение информационных систем для учёта животных. • Проведение тренингов и семинаров по внедрению новых технологий и методов управления. 	<ul style="list-style-type: none"> • Разработка правовых норм для регулирования рыночных отношений и государственного контроля. • Создание системы сертификации и стандартизации продукции (мясо, молоко и др. конская продукция) с учётом международных стандартов качества. • Проведение научных исследований в области селекции, кормления, ветеринарии, генетики и ухода за лошадьми. • Развитие неформальных институтов (традиции, обычаи и связи), поддерживающих функционирование отрасли.

*Источник: разработано автором

После анализа классификации структурных элементов организационно-экономического механизма отрасли коневодства в Республике Узбекистан можно утверждать, что данный механизм представляет собой многоуровневую и

многокомпонентную систему, включающую организационные, экономические, управленческие и институциональные элементы, которые действуют в условиях тесной взаимосвязи и взаимозависимости. Эффективное функционирование данного механизма предполагает необходимость комплексного подхода и синергии всех его компонентов.

Интеграция этих элементов образует взаимосвязанную систему, направленную на устойчивое развитие и повышение эффективности отрасли коневодства. Взаимодействие организационного, экономического, управленческого и институционального механизмов создает фундамент для координации всех процессов отрасли, начиная от разработки и реализации государственных программ и заканчивая поддержанием правовой базы и научной инфраструктуры.

Эффективность функционирования данного механизма во многом зависит от согласованности и взаимодополнения его элементов. Это, в свою очередь, позволяет эффективно решать ключевые задачи, такие как оптимизация использования ресурсов, внедрение инновационных технологий, развитие инфраструктуры, а также повышение уровня управления и контроля. Все эти аспекты способствуют росту продуктивности, улучшению качества продукции в коневодстве и обеспечению конкурентоспособности отрасли на международных рынках.

Таким образом, успешная реализация организационно-экономического механизма требует комплексного подхода, включающего эффективное использование ограниченных ресурсов, создание оптимальных условий для стимулирования инвестиционной активности, внедрение современных информационных технологий и инноваций, а также поддержку адекватной институциональной и правовой среды. Все эти меры направлены на укрепление экономической базы отрасли, снижение зависимости от импорта и стимулирование роста национальной экономики.

Оптимизация и синергия всех составляющих организационно-экономического механизма являются ключевыми факторами, которые определяют не только повышение эффективности и устойчивости отрасли коневодства, но и ее способность адаптироваться к изменениям внутренней и внешней среды, обеспечивая долгосрочную конкурентоспособность и экономическую безопасность страны.

Литература/References/Adabiyotlar:

1. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5853 от 23.10.2019 г. «Об утверждении стратегии Развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020–2030 гг.». – URL: <https://lex.uz/docs/4567337>. (дата обращения 25.02.2025). – Текст: электронный.
2. Постановление Президента Республики Узбекистан, от 18.02.2019 г. № ПП-4194 «О мерах по дальнейшему развитию коневодства и конного спорта в Республике Узбекистан.» - URL: <https://lex.uz/docs/4204745>. (дата обращения 24.02.2025). – Текст: электронный.
3. Постановление Президента Республики Узбекистан. Постановление Президента Республики Узбекистан, от 22.12.2021 г. № ПП-58 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы исследования реформ, стратегического планирования и управления в сфере продовольствия и сельского хозяйства.» – URL: <https://lex.uz/uz/docs/5790019>. (дата обращения 23.02.2025). – Текст: электронный.

4. Постановление Президента Республики Узбекистана № ПП- 5211 от 05.08.2021 г. «Государственной программе развития коневодства, конного спорта, современного пятиборья и поло в Узбекистане до 2025 года». - URL: <https://lex.uz/docs/5554870>. (дата обращения 25.02.2025). – Текст: электронный.
5. Федерацией коневодства и конного спорта Узбекистана. <https://hefu.uz> (дата обращения 23.02.2025). – Текст: электронный.
6. Абрамова Е.А. Механизм управления региональными системами на основе синтеза государственного регулирования и мобилизации потенциала внутреннего саморазвития / Е.А. Абрамова // Известия высших учебных заведений. Серия «Экономика, финансы и управление производством». - 2014. - №2. - С. 34-37
7. Ванина Е.В. Актуальные проблемы управления коневодством и пути их решения / Е.В. Ванина // Общество. Экономика. Культура: актуальные проблемы, практика решения: Сб. научных статей. - Барнаул: Изд-во Концепт. -2011. - С. 58-63.
8. Ванина Е.В. Аутсорсинг как инструмент повышения эффективности коневодства. / Е.В. Ванина, М.В. Носкова //Приоритетные направления модернизации аграрной экономики: тенденции, проблемы, перспективы: материалы всероссийской научно практической конференции. - Саратов. - Изд-во «КУБиК». - 2011. - С. 21-25.
9. Деревянко О. Организационно-экономический механизм планирования бизнес-процессов предпринимательских структур: дис. ...канд. экон. наук: 08.00.05 / О. Деревянко. - СПб., 2004.
10. Лебедева Н.Н. Институциональный механизм экономики: сущность, структура, развитие / Н.Н. Лебедева. - Волгоград: Изд-во ВолГУ, 2002. – 326 с.
11. Норт Д. Институты, институциональные изменения и функционирование экономики / Пер. с англ. А.Н. Нестеренко. - М.: Фонд экономической книги «Начала», - 1997. - 180 с.
12. Организационно-экономический механизм развития различных форм хозяйствования в аграрном секторе АПК в условиях новой экономической реальности: монография / А.Н. Тарасов, О.В. Исаева, М.А. Холодова и др. – Ростов н/Д ВНИИЭиН – филиал ФГБНУ ФРАНЦ; Изд-во ООО «АзовПринт», 2020. – 264 с.
13. Ожегов С. И., Шведова Н. Ю. Толковый словарь русского языка: 80 000 слов и фразеологических выражений. – 4-е изд., М., 1997. – 944 с.
14. Осипов Ю.М. Экономический механизм / Ю.М. Осипов // Философия хозяйства. - 2006. - №4. - С. 118-222.
15. Полянский А.И., Соловьев М.М. Систематизация механизмов государственного регулирования на рынках недвижимости // Недвижимость и инвестиции. Правовое регулирование. – 2001. – № 4 (9). – С. 16-19.
16. Системный подход к организации управления / Б.З. Мильнер, Л.И. Евенко, В.С. Рапопорт. – М.: Экономика, 1983. – 224 с.
17. Ушаков Д.Н. Толковый словарь русского языка / Ред. Н.Ф. Татьянченко. – М.: Альта-Пресс, 2005. – 1216 с.
18. Цхурбаева Ф.Х., Фарниева И.Т. Организационно-экономический механизм управления предприятиями АПК // TERRA ECONOMICUS. – 2009. – Том 7. – №2-3. – С. 151-154.
19. Эпштейн, Д. Б. К вопросу о понятиях «экономический механизм» и «организационно-экономический механизм» / Д. Б. Эпштейн. – DOI 10.33305/225-22. – Текст : непосредственный // АПК: Экономика, управление. – 2022. – № 5. – (Экономический механизм хозяйствования). – С. 22-33.
20. Hurwicz L. Implementation and enforcement // Political Economy, Institutions, Competition, and Representation / W. A. Barnett, M. J. Hinrich, N. J. Schofield (eds.). Cambridge: Cambridge University Press, 1993. Ch. 2. P. 51–59.

21. Hurwicz L. Institutions as families of game forms // The Japanese Economic Review. 1996. Vol. 47. No 1. P. 113–132; Myerson R. Optimal auction design // Mathematics of Operations Research. 1981. Vol. 6. No 1. P. 58–73.
22. 5. Myerson R. Optimal auction design // Mathematics of Operations Research. 1981. Vol. 6. No 1. P. 58–73.

Received: 10 March 2025
Accepted: 15 March 2025
Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

GLOBAL TRENDS IN CORPORATE GOVERNANCE AND UZBEKISTAN'S EXPERIENCE

Jumayeva Guzal Sherkhon qizi

Tashkent State University of Economics
PhD student

Jumadullayeva Durdona Shukhrat qizi

Tashkent State University of Economics
PhD student

Abstract. This article analyzes the development trends of the corporate governance system based on global experience, as well as its practice in Uzbekistan. Key aspects such as adaptation to international standards, the implementation and enforcement of ESG principles, and the assessment of corporate governance efficiency are examined. Additionally, the analysis covers reports from the Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD) and the World Bank, along with corporate governance reforms in Uzbekistan. The findings of this study will help identify promising directions for further improvement of corporate governance.

Keywords: ESG principles, OECD and World Bank reports, transparency level, privatization, corporate governance efficiency.

JAHONDA KORPORATIV BOSHQARUV TENDENSIYALARI VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI

Jumayeva Guzal Sherxon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
tayanch doktoranti
E-mail: g.jumayeva.tsue@uz

Jumadullayeva Durdona Shuxrat qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
tayanch doktoranti
E-mail: djumadulayeva@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada jahon tajribasi asosida korporativ boshqaruv tizimining rivojlanish tendensiyalari va O'zbekistondagi amaliyot tahlil qilingan. Xalqaro standartlarga moslashuv, ESG tamoyillarining joriy etilishi va amal qilinishi, korporativ boshqaruv samaradorligini baholash kabi muhim jihatlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti va Jahon banki hisobotlari va O'zbekistondagi korporativ boshqaruv islohotlari tahlili yoritilgan. Tadqiqot natijalari korporativ boshqaruvni yanada takomillashtirish bo'yicha istiqbolli yo'nalishlarni belgilashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: ESG tamoyillari, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hamda Jahon banki hisobotlari, shaffoflik darajasi, xususiyashtirish, korporativ boshqaruv samaradorligi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N13>

Kirish. Korporativ boshqaruv zamonaviy iqtisodiyotni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Oxirgi yillarda global miqyosda korporativ boshqaruvning rivojlanish

tendensiyalari kuzatilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston ham iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish jarayonida korporativ boshqaruv tizimini modernizatsiya qilishga alohida e'tibor qaratmoqda. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini takomillashtirish, investitsion jozibadorlikni oshirish va shaffoflikni ta'minlash bugungi kundagi ustuvor yo'nalishlar sirasiga kiradi. Ushbu maqolada O'zbekistonda korporativ boshqaruvning zamonaviy tendensiyalari, muammolar va istiqbollari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Korporativ boshqaruv bo'yicha yetakchi xorijiy olimlar tomonidan qator tadqiqotlar olib borilgan. Bulardan, A.Shleifer va R.Vishny [1] korporativ boshqaruvning asosiy tamoyillarini belgilab bergan bo'lsa, M.Jensen va W.Meckling [2] agentlik nazariyasi orqali korporativ boshqaruvdagi manfaatlar ziddiyatini o'rganishgan. L.Bebchuk va M.Roe [3] esa davlatlarning korporativ boshqaruv modellarini qiyosiy tahlil qilishgan.

Bundan tashqari, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti va Jahon banki tomonidan tayyorlangan hisobotlar ham zamonaviy tendensiyalarni tushunishda muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining korporativ boshqaruvga oid hisobotlari [4] aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish, shaffoflikni oshirish va korporativ nazoratni kuchaytirishga qaratilgan. Ushbu hisobotlarda, shuningdek, rivojlanayotgan bozorlarda korporativ boshqaruv tizimining isloh qilinishi zarurligi ta'kidlanadi. Jahon banking korporativ boshqaruv bo'yicha hisobotlari [5] esa iqtisodiy o'sish va barqarorlikni ta'minlashda korporativ boshqaruvning o'rnini va ahamiyatini yoritadi. Ushbu hisobotlarda, ayniqsa, investitsion muhitni yaxshilash, kompaniyalarning hisobdorligini oshirish va korrupsiyaga qarshi choralarini kuchaytirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Mahalliy olimlarimiz ham bu borada tadqiqotlar olib borgan. Jumladan, O'zbekistonlik olimlar korporativ boshqaruv tizimini isloh qilish zarurati va uning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri haqida fikr bildirgan. Xususan, so'nggi yillarda A.Karimov [6] O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarining boshqaruv tizimidagi muammolarni tahlil qilgan bo'lsa, I.Akramov [7] davlat va xususiy sektor boshqaruv samaradorligini qiyosiy o'rganib chiqqan. A.Shodiev [8] va B. Rasulov [9] kabi olimlar O'zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish yo'nalishlarini tahlil qilgan. Ushbu tadqiqotlarda boshqaruv tarkibining shaffofligi va investitsion muhitga ta'siri bo'yicha natijalar taqdim etilgan.

Ushbu tadqiqotda nazariy va empirik tahlil usullari qo'llanildi. Xalqaro va milliy me'yoriy hujjatlar, statistik ma'lumotlar hamda amaliy tadqiqot natijalari asosida korporativ boshqaruvning zamonaviy tendensiyalari o'rganildi.

Muhokama. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda korporativ boshqaruv tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, u aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish, shaffoflikni ta'minlash boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Xalqaro reytinglarga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda kompaniyalarning shaffofligi va hisobdorligi yuqori darajada, bu esa investorlar uchun ishonchli muhit yaratadi. Quyidagi jadvalda AQSh, Germaniya, Yaponiya va O'zbekiston davlatlarining korporativ boshqaruv indeksi, shaffoflik darajalari ko'rsatib o'tildi.

Davlat nomi	Korporativ boshqaruv indeksi (2023-yil)	Shaffoflik darajasi (%)
Amerika Qo'shma Shtatlari	8.9	92
Germaniya	8.7	89
Yaponiya	8.5	85
O'zbekiston	5.2	60


Manba: OECD, 2023; Jahon banki, 2023)OECD (2023). "Corporate Governance Report" <https://www.oecd.org/corporate/principles-corporate-governance/>; Jahon banki (2023). "Corporate Governance and Economic Development". <https://www.worldbank.org/en/topic/corporategovernance>

Jadvalda keltirilgan davlatlar o'rtasida korporativ boshqaruv indeksining solishtirma tahlilini ko'rib chiqsak, Amerika Qo'shma Shtatlari dunyodagi eng ilg'or korporativ boshqaruv tizimiga ega davlatlardan biri hisoblanadi. Amerika Qo'shma Shtatlaridagi kompaniyalar mustaqil direktorlar kengashiga ega bo'lib, aksiyadorlar huquqlari yuqori himoyalangan. Germaniya ham yuqori natijaga ega bo'lib, "Dual Board System" orqali boshqariladi. Yaponiya esa an'anaviy holda, oilaviy va banklarga bog'liq boshqaruvga ega bo'lsa ham, so'nggi yillarda korporativ boshqaruv qoidalarini jahon standartlariga mos ravishda isloh qildi. O'zbekiston esa nisbatan past ko'rsatkichga ega. Buning asosiy sabablari qatorida davlatning iqtisodiyotdagi yuqori ulushi, mustaqil direktorlarning kamligi va aksiyadorlar huquqlarining yetarlicha himoyalanganligi kiradi.

AQSh shaffoflik bo'yicha yetakchi, AQSh kompaniyalari moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga mos ravishda e'lon qiladi. Shuningdek, aksiyadorlar va manfaatdor tomonlar uchun ochiq ma'lumotlar bazasi mavjud. Germaniya ham yuqori shaffoflik ko'rsatkichiga ega. Bu mamlakatda moliyaviy hisobot berish va ichki audit tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Yaponiya oxirgi yillarda shaffoflikni oshirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirdi, biroq an'anaviy yopiq korporativ tuzilmalardan chiqish jarayoni davom etmoqda. O'zbekiston shaffoflik bo'yicha ancha past natijaga ega. Bu kompaniyalar moliyaviy hisobotlarini to'liq e'lon qilmasligi yoki ma'lumotlarning aksiyadorlar uchun yetarlicha ochiq emasligi bilan bog'liq.

Umuman olganda, korporativ boshqaruv indeksi va shaffoflik darajasi o'zaro bog'liq. Yuqori boshqaruv indeksi bo'lgan davlatlarda yuqori (AQSh, Germaniya, Yaponiya) shaffoflik ham. O'zbekiston holati shuni ko'rsatadiki, shaffoflik darajasi past bo'lsa, korporativ boshqaruv tizimi ham sust rivojlanadi. Korporativ boshqaruvning samarali bo'lishi uchun shaffoflikning oshirilishi muhim omil bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonda korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish uchun kompaniyalar tomonidan ochiq ma'lumotlar bazalarini yaratish, xalqaro standartlarga mos keladigan hisobot tizimini yo'lga qo'yish muhim.

ESG tamoyillari korporativ boshqaruvning zamonaviy tendensiyalarida muhim o'rin tutadi.



Manba: OECD (2023). "Sustainability and Corporate Governance Report" OECD rasmiy sayti <https://www.oecd.org/corporate/>; Jahon banki (2023). "ESG Standards and Economic Development" World Bank ESG <https://www.worldbank.org/en/topic/environment>

Germaniya ESG tamoyillariga eng ko'p amal qiluvchi davlatlardan biri hisoblanadi. Yashil iqtisodiyotga o'tish, uglerod neytralligini ta'minlash va barqaror ishlab chiqarish bo'yicha qat'iy strategiyalarga ega. Mamlakatda ESG siyosati davlat va xususiy sektor tomonidan kuchli qo'llab-quvvatlanadi. AQShda ESG tamoyillari yirik kompaniyalar tomonidan faol qo'llaniladi. Apple, Microsoft, Tesla kabi kompaniyalar barqarorlik bo'yicha yillik hisobotlarni e'lon qiladi. ESG tamoyillariga rioya qilishda xususiy sektor yetakchi bo'lsa-da, ayrim siyosiy qarama-qarshiliklar ba'zi sohalarda ESG talablarini to'liq bajarishni qiyinlashtiradi. Yaponiya ESG tamoyillarini korporativ boshqaruv tizimiga integratsiya qilishga harakat qilmoqda. Ijtimoiy mas'uliyatli investitsiyalar va barqaror rivojlanish bo'yicha ko'rsatkichlar oshib bormoqda, biroq ba'zi an'anaviy kompaniyalar hali ESG talablariga to'liq javob bermaydi. O'zbekistonda ESG tamoyillari yangi rivojlanayotgan yo'nalishlardan biridir. Xususiy kompaniyalar ESG siyosatiga sekinlik bilan o'tmoqda, ekologik va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillari esa hali amaliyotga to'liq tatbiq etilmagan. ESG bo'yicha davlat tomonidan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, ammo hali ham islohotlarga ehtiyoj bor.


ESG tamoyillariga amal qilish darajasining davlat va xususiy sektor bilan bog'liqligini ko'rib chiqadigan bo'lsak, AQSh va Germaniyada ESG siyosatini asosan yirik xususiy kompaniyalar ilgari suradi. Yaponiyada ham xususiy sektor ESG bo'yicha tashabbuslarni ilgari surmoqda, biroq ba'zi kompaniyalar ESG strategiyalarini sust joriy qilmoqda. O'zbekistonda esa ESG tamoyillari ko'proq davlat sektorida majburiy qoidalar sifatida shakllanmoqda, lekin xususiy sektor ESG talablariga to'liq amal qilishga hali tayyor emas. ESG tamoyillariga amal qilishda davlat tartibga solishining ta'siri haqida to'xtalsak, Germaniyada ESG tamoyillari qat'iy qonunlar bilan tartibga solingan. AQShda ESG siyosatining ayrim qirralari siyosiy muhokamalarga sabab bo'lsa-da, xususiy sektorning ESG strategiyalari kuchli rivojlangan. Yaponiyada ESG tamoyillarini rivojlantirish bo'yicha davlat tomonidan rag'batlantirish

mexanizmlari mavjud. O'zbekistonda ESG qonunchiligi rivojlanayotgan bosqichda bo'lib, hali to'liq joriy etilmagan.

ESG tamoyillariga amal qilish darajasi korporativ boshqaruv samaradorligi bilan uzviy bog'liqdir. Yuqori korporativ boshqaruv indeksi bo'lgan davlatlarda ESG tamoyillariga amal qilish darajasi ham yuqori. O'zbekistonda esa korporativ boshqaruv indeksi past bo'lib, ESG tamoyillariga amal qilish darajasi ham nisbatan past hisoblanadi.

ESG tamoyillariga rioya qilish uchun kompaniyalar o'z faoliyatining shaffofligini oshirishi kerak. Germaniya, AQSh va Yaponiyada bu talablar yirik kompaniyalar tomonidan inobatga olingan. O'zbekistonda esa ESG bo'yicha ma'lumotlar ochiqligi va shaffofligi hali yetarli darajada emas.

Korporativ boshqaruv samaradorligi davlat va xususiy sektor ishtirokiga ham bevosita bog'liq. Quyidagi jadvalda AQSh, Germaniya, Yaponiya va O'zbekistonda davlat va xususiy sektor ulushlari ko'rsatilgan.



Manba: OECD (2023). "State-Owned Enterprises and Private Sector Report" <https://www.oecd.org>
 Jahon banki (2023). "State vs. Private Ownership in Emerging Economies" <https://www.worldbank.org>

AQShda iqtisodiyot asosan xususiy sektorga asoslangan. Davlat faqat strategik tarmoqlarga ta'sir o'tkazadi. Aksariyat yirik kompaniyalar xususiy mulkka tegishli bo'lib, korporativ boshqaruvda shaffoflik va bozor mexanizmlari muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham davlat va xususiy mulk ulushi to'rtga bir nisbatda. Germaniyada xususiy sektor yetakchi bo'lsada, davlat muhim strategik tarmoqlarda, xususan energetika va avtomobilsozlikda ishtirok etadi. Davlat korporativ boshqaruv qoidalarini kuchli tartibga soluvchi nazorat mexanizmlariga ega. Yaponiya iqtisodiyotida davlat ishtiroki AQSh va Germaniyaga qaraganda yuqoriroq. Ayrim yirik korporatsiyalar davlat yordami va kreditlari bilan rivojlangan. Korporativ boshqaruvda davlat va xususiy sektor hamkorlik qilgan holda harakat qiladi. O'zbekiston iqtisodiyotida davlat sektori yetakchi o'rin tutadi. Energetika, transport, metallurgiya va boshqa yirik sohalar davlat nazoratida. Xususiy sektor rivojlanayotgan bo'lsa-da, hali to'liq erkin bozor tamoyillari joriy etilmagan.

Natijalar. Xususiy sektorning yuqori ulushi korporativ boshqaruvning shaffofligi va samaradorligini oshiradi. AQSh va Germaniyada xususiy sektor yetakchi bo'lib, bu investitsiyalarni jalb qilish va boshqaruv samaradorligini oshirishga yordam beradi. Davlat sektorining yuqori ulushi korporativ boshqaruvda davlatning tartibga solish rolini kuchaytiradi. Yaponiya va O'zbekistonda davlat ishtiroki nisbatan yuqori bo'lib, bu investitsion muhitga va aksiyadorlar huquqlariga ta'sir qiladi. O'zbekistonda xususiy sektorni rivojlantirish va davlat ulushini kamaytirish korporativ boshqaruvni yaxshilashga yordam beradi. Davlat mulkining yuqori ulushi investitsion faollik va xususiy tashabbuslarning cheklanishiga olib kelishi mumkin.

Xususiy sektor yuqori bo'lgan davlatlarda ESG tamoyillari va shaffoflik ham yuqori hisoblanadi. AQSh va Germaniya ESG tamoyillariga 85-88% amal qiladi. O'zbekistonda esa davlat ulushi yuqori bo'lib, ESG tamoyillariga amal qilish darajasi pastroq. Davlat ishtiroki yuqori bo'lgan joyda shaffoflik darajasi pasayishi mumkin. Davlat sektori yuqori bo'lgan davlatlarda moliyaviy hisobotlar ochiqligi va aksiyadorlarning huquqlari xususiy sektor bilan taqqoslaganda past bo'lishi ko'proq kuzatiladi. O'zbekistonda davlat sektori ulushini kamaytirish va xususiylashtirish jarayonlarini tezlashtirish shaffoflik va ESG tamoyillarini yaxshilashga yordam beradi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda korporativ boshqaruv tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, u aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish, shaffoflikni ta'minlash va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekistonda esa so'nggi yillarda korporativ boshqaruvni takomillashtirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilgan bo'lsada, hali ham qator muammolar mavjud. Xususan, mustaqil direktorlar instituti, axborot shaffofligi va investorlarni jalb qilish borasida o'zgarishlar zarur. O'zbekiston korporativ boshqaruv tizimini jahon standartlariga yaqinlashtirish uchun islohotlarni chuqurlashtirishga ehtiyoj seziladi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, yaxshi boshqaruv amaliyotlari investitsion muhitni yaxshilashga ham xizmat qiladi. Shu boisdan, aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish, korporativ shaffoflikni oshirish va samarali boshqaruv mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Jahonda korporativ boshqaruvning rivojlanishi O'zbekiston uchun ham muhim ahamiyatga ega. Korporativ boshqaruv indeksi va shaffoflik darajasi o'zaro bog'liqligini hisobga olsak, shaffoflik darajasining oshgani sari korporativ boshqaruv samaradorligi oshiradi. O'zbekiston korporativ boshqaruv va shaffoflik darajasini oshirish uchun xalqaro standartlarga mos keladigan islohotlar talab etiladi. Boshqaruv samaradorligini oshirish uchun shaffoflikni kuchaytirish, mustaqil direktorlar tizimini kengaytirish va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish zarur. O'zbekistonda davlat va xususiy sektor ESG bo'yicha islohotlarni davom ettirishi kerak. Yaxshi korporativ boshqaruv tizimi ESG talablariga rioya qilishni ham ta'minlaydi. O'zbekistonda ESG siyosatini takomillashtirish uchun xususiy kompaniyalarning rolini oshirish, xalqaro standartlarga mos qonunchilikni joriy etish va investorlar ishonchini oshirish kerak. Mamlakatda mavjud tizimni yanada takomillashtirish, xalqaro standartlarga moslashish va xususiy sektor boshqaruv samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. A.Shleifer, & R.Vishny (1997). "A Survey of Corporate Governance". The Journal of Finance. <https://doi.org/10.1111/j.1540-6261.1997.tb04820.x>

2. Jensen, M., & Meckling, W. (1976). "Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure". Journal of Financial Economics. [https://doi.org/10.1016/0304-405X\(76\)90026-X](https://doi.org/10.1016/0304-405X(76)90026-X)
3. Bebchuk, L., & Roe, M. (1999). "A Theory of Path Dependence in Corporate Ownership and Governance". Stanford Law Review. <https://doi.org/10.2307/1229250>
4. OECD (2015). "G20/OECD Principles of Corporate Governance". Paris: OECD Publishing. <https://www.oecd.org/corporate/principles-corporate-governance/>
5. World Bank (2017). "Corporate Governance: A Framework for Implementation". Washington, DC: The World Bank. <https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/>
6. A.Karimov (2021). "O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimi". Toshkent: Iqtisodiyot va Moliyaviy Tadqiqotlar instituti.
7. I.Akramov (2022). "O'zbekistonda korporativ boshqaruvning qiyosiy tahlili". Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
8. A.Shodiev (2021). Corporate Governance in Uzbekistan: Challenges and Prospects.
9. B.Rasulov (2022). Shareholder Rights and Corporate Transparency in Uzbekistan.

Received: 10 March 2025

Accepted: 15 March 2025

Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

ISSUES OF IMPROVING THE MARKETING ACTIVITIES OF BUSINESS EDUCATION SERVICE PROVIDERS

Rustamov Jamshed Boturjonovich

master, Samarkand branch of Kimyo
International University in Tashkent

Abstract. This article discusses the topic "Issues of improving the marketing activities of organizations providing business education services." The development and implementation of effective marketing strategies for organizations providing services in the field of business education, the process of their adaptation to market conditions is of particular importance. The article analyzes the characteristics of business education services, the demand for them, and the changing conditions of the education market. The article also provides detailed information on innovative approaches to improving the marketing activities of organizations in the field of education, the use of new technologies, and marketing strategies necessary for successful operation in a competitive market. The issues of developing marketing communications of organizations, promoting the brand, improving the quality of customer service, and the effective integrated use of online and offline marketing tools are considered, as well as their practical significance.

Keywords: business, marketing, services, marketing strategies, competitiveness, communication, brand, innovation.

BIZNES-TA'LIMI XIZMATLARINI KO'RSATUVCHILARNING MARKETING FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Rustamov Jamshed Boturjonovich

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Samarqand filiali magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola "Biznes-ta'limi xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlarning marketing faoliyatini takomillashtirish masalalari" mavzusida yoritiladi. Biznes-ta'limi sohasida xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar uchun samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqish va joriy etish, ularning bozor sharoitlariga moslashish jarayoni alohida muhim ahamiyatga ega. Maqolada biznes-ta'lim xizmatlarining xususiyatlari, ularga bo'lgan talab va ta'lim bozorining o'zgaruvchan sharoitlariga tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada ta'lim sohasidagi tashkilotlarning marketing faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar, yangi texnologiyalarni qo'llash hamda raqobatbardosh bozor sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan marketing strategiyalari haqida batafsil ma'lumotlar keltiriladi. Tashkilotlarning marketing kommunikatsiyalarini rivojlantirish, brendni targ'ib qilish, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, onlayn va oflayn marketing vositalarini samarali integratsiyalashgan holda qo'llash masalalari hamda ularning amaliy ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: biznes, marketing, xizmatlar, marketing strategiyalari, raqobatbardoshlik, kommunikatsiya, brend, innovatsiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N14>

Kirish. Bugungi kunda global iqtisodiyotning rivojlanishi va texnologiyalarning tezkor o'zgarishi bilan biznes-ta'limi sohasida xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning roli va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Biznes-ta'limi xizmatlari zamonaviy kadrlar tayyorlash, professional

malaka oshirish va boshqaruv tizimlarida o'zgarishlar kiritish orqali tashkilotlar va jamiyatlar uchun katta iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega. Shu bilan birga, biznes-ta'limi bozorida raqobatning kuchayishi, mijozlarning talablarining diversifikatsiyalashuvi va yangi texnologiyalarni qo'llash zarurati, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarni innovatsion marketing yondashuvlarini joriy etishga majbur qilmoqda.

Maqolada biznes-ta'limi xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlarning marketing faoliyatini takomillashtirish masalalari chuqur tahlil qilinadi. Xususan, xizmatlar marketingi sohasida biznes-ta'limi tashkilotlari uchun samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish, ularning bozordagi raqobatbardoshligini oshirish, brendni rivojlantirish va mijozlar bilan aloqalarni mustahkamlash masalalari yoritiladi. Maqola davomida ta'lim sohasidagi tashkilotlarning marketing faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar hamda yangi texnologiyalarni qo'llash orqali xizmat sifatini yaxshilash yo'llari ko'rsatiladi.

Bundan tashqari, marketingning zamonaviy yondashuvlarini amaliyotga tatbiq etish orqali biznes-ta'limi xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilotlar bozor talablariga tezkor javob bera olishlari, mijozlarga yuqori sifatli xizmatlar taqdim etishlari va raqobatbardoshlikni oshirishlari mumkin. Maqolada ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlar uchun samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqish, ularning amaliyotga tatbiq etilishiga doir misollar keltiriladi.

Biznes-ta'limi xizmatlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular nafaqat bilim va malakalarni oshirish, balki zamonaviy biznesning eng muhim jihatlari bo'yicha amaliy tajribalarni taqdim etishga qaratilgan. Ular tashkilotlar uchun foydali strategiyalarni o'rgatish, boshqaruv va moliya sohalarida yuqori samaradorlikni ta'minlash, shuningdek, marketing va infrastrukturaviy strategiyalarni takomillashtirishni maqsad qilgan xizmatlardir. Bu xizmatlarning muvaffaqiyati ularni taqdim etuvchi tashkilotlarning marketing faoliyatining samarali amalga oshirilishiga bog'liq[1; 7-8-b].

Biznes-ta'limi xizmatlari mijozlarning yuqori talablari va bozor sharoitlariga tezda moslashish zaruratini keltirib chiqaradi. Shunday qilib, tashkilotlar marketing faoliyatini rejalashtirayotganda bozor ehtiyojlarini tahlil qilish, mijozlarni segmentlash va raqobatbardoshlikni oshirishga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Marketing strategiyasining asosiy vazifasi – bu mijozlarning ehtiyojlarini aniq belgilash, raqobatchilardan farq qilish va xizmatlarning sifatini doimiy ravishda yaxshilashdan iborat.

Biznes-ta'limi xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlar uchun samarali marketing strategiyasini ishlab chiqish, bozor sharoitlariga moslashish va mijozlar talablarini qondirish uchun muhim ahamiyatga ega. Marketing strategiyasi biznes-ta'limi xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi, chunki u mijozlarga xizmatlarning qiymatini yetkazish, brendni mustahkamlash va xizmatni keng targ'ib qilishga imkon yaratadi.

Birinchi qadam sifatida, bozorni tahlil qilish va mijozlar ehtiyojlarini to'g'ri aniqlash zarur. Tashkilotlar o'z bozorlarining holatini, o'zgaruvchan tendensiyalarni va yangi imkoniyatlarni doimiy ravishda kuzatib borishlari kerak[2; 11-b]. Marketing strategiyalarining ikkinchi muhim jihati – bu raqobatbardosh yondashuvlarni ishlab chiqishdir. Biznes-ta'limi bozorida raqobat juda kuchli, shuning uchun tashkilotlar o'zlarining kuchli tomonlarini va raqobatchilardan farq qilish imkoniyatlarini aniq belgilab olishlari lozim.

Zamonaviy texnologiyalar va raqamli marketing strategiyalari biznes-ta'limi sohasidagi marketing faoliyatining eng muhim qismiga aylangan. Internet, mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn ta'lim platformalari orqali taqdim etiladigan xizmatlar mijozlarga qulaylik yaratish bilan birga, tashkilotlarga global bozorni o'z ichiga olish imkoniyatini taqdim etadi. Bu texnologiyalar biznes-ta'limi xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlarga yangi mijozlarni jalb qilish va mavjud mijozlar bilan mustahkam aloqalar o'rnatish imkonini beradi.

Raqamli marketing va onlayn ta'lim platformalari tashkilotlar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Raqamli marketing vositalari, jumladan, SEO (qidiruv tizimlarini optimallashtirish), SMM (ijtimoiy tarmoqlarda marketing), email marketing kabi usullar orqali tashkilotlar o'z xizmatlarini keng auditoriyaga taqdim etishlari mumkin. Online ta'lim platformalari esa o'z vaqtida va qulay ta'lim olish imkoniyatlarini mijozlarga taqdim etadi. Bu yondashuvlar xizmatlarning doimiy yangilanishi va samaradorligini oshirishga yordam beradi[3; 3-4-b].

Biznes-ta'limi xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlarning marketing faoliyatini takomillashtirish uchun bir qancha asosiy yo'llar mavjud. Eng birinchi va eng muhim yo'l – bu mijozlarga yo'naltirilgan yondashuvni rivojlantirishdir. Mijozlarning ehtiyojlarini aniq aniqlash va ularga moslashtirilgan xizmatlarni taqdim etish, tashkilotlarning bozor pozitsiyasini mustahkamlashga yordam beradi. Mijozlar bilan mustahkam aloqalarni o'rnatish, ularning fikrlarini va tavsiyalarini inobatga olish marketing strategiyasining muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Xizmatlarning sifatini yaxshilash ham juda muhimdir. Ta'lim xizmatlari yuqori sifatga ega bo'lishi kerak, chunki bu mijozlarning davomiy munosabatlarini ta'minlaydi va ularning tavsiyalariga olib keladi[4; 49-51-b]. Yaxshi ishlab chiqilgan brend va reklama strategiyalari esa tashkilotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Brendni rivojlantirish orqali tashkilotlar mijozlarga xizmatlarining ishonchliligi va sifatini etkazib, ular bilan uzoq muddatli aloqalar o'rnatish imkonini yaratadi.

Innovatsion marketing vositalarini joriy etish orqali tashkilotlar o'z marketing strategiyalarini yanada samarali amalga oshirishlari mumkin. Video marketing, vebinarlar, interaktiv onlayn kurslar kabi vositalar zamonaviy marketingning ajralmas qismiga aylangan. Bu vositalar yordamida tashkilotlar o'z mijozlarini yanada samarali jalb qilishi va xizmatlarni yanada kengroq auditoriyaga taqdim etishi mumkin[5; 22-b]. Bu jarayonni amalga oshirishda esa marketing faoliyatining o'rni katta. Biznes-ta'limi xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlar uchun marketing strategiyalarining samarali ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi nafaqat xizmatlar sifatini yaxshilash, balki bozor raqobatida yetakchi o'rin egallashga ham imkon yaratadi. Maqolada, biznes-ta'limi xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlarning marketing faoliyatini takomillashtirishga doir bir qancha masalalar tahlil qilinadi va amaliy tavsiyalar keltiriladi.

Biznes-ta'limi xizmatlari xususiyatlari ularning har qanday boshqa ta'lim xizmatlaridan farq qilishiga olib keladi[6; 14-b]. Ular nafaqat bilim va malakalarni oshirish, balki amaliy tajriba, innovatsion g'oyalar va strategiyalarni o'rgatish orqali tashkilotlarga boshqaruv, moliya, marketing, infrastrukturaviy strategiyalar va boshqa sohalarda yuksak samaradorlikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, biznes-ta'limi xizmatlari har doim mijozlarning yuqori talablari, o'zgaruvchan bozor sharoitlari va raqobatbardosh muhitda faoliyat yuritadi. Shuning uchun,

biznes-ta'limi xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlar marketing strategiyalarini ishlab chiqishda quyidagi asosiy omillarni inobatga olishlari kerak:

- Bozor ehtiyojlarini tahlil qilish: O'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlar, yangi texnologiyalar, globalizatsiya kabi omillar biznes-ta'limi xizmatlariga bo'lgan talabni shakllantiradi. Tashkilotlar marketing faoliyatini rejalashtirayotganda bu ehtiyojlarni chuqur tahlil qilishlari lozim.

- Mijozlar segmentatsiyasi: Har bir mijozning talab va ehtiyojlari har xil bo'lishi mumkin. Biznes-ta'limi xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilotlar uchun mijozlarni segmentlash va har bir guruhga moslashtirilgan xizmatlar taklif qilish muhim ahamiyatga ega.

- Raqobatbardoshlik: Biznes-ta'limi bozorida raqobat juda kuchli. Tashkilotlar marketing faoliyatini amalga oshirishda raqobatchilarining kuchli va zaif tomonlarini hisobga olib, o'zlariga xos afzalliklar yaratishga harakat qilishlari kerak. Biznes-ta'limi xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlar uchun marketing strategiyalarini ishlab chiqish, ularning bozor sharoitlariga moslashishiga yordam beradi va mijozlar talablarini qondirishda muhim omil hisoblanadi. Marketing strategiyalari tashkilotning umumiy muvaffaqiyatiga ta'sir qiladi va uning brendini mustahkamlashga xizmat qiladi.

- Bozorni tahlil qilish: Har qanday marketing strategiyasi, avvalo, bozordagi mavjud imkoniyatlarni va xavf-xatarlarni aniqlashni talab qiladi. Biznes-ta'limi xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlar bozorni diqqat bilan tahlil qilib, eng samarali strategiyalarni ishlab chiqishlari kerak.

- Brend yaratish: Brendning mustahkamligi ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlar uchun ayniqsa muhimdir. Yaxshi tashkil etilgan brend mijozlar tomonidan ishonchli va sifatli xizmatlar bilan bog'lanadi, bu esa tashkilotning obro'si va raqobatdagi o'rnini kuchaytiradi.

- Marketing kommunikatsiyalari: Marketing kommunikatsiyalari orqali tashkilot o'z mijozlariga xizmatlarining qiymatini yetkazadi. Biznes-ta'limi xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilotlar uchun marketing kommunikatsiyalarini samarali boshqarish va ularni innovatsion yondashuvlar bilan boyitish juda muhimdir. Zamonaviy texnologiyalar, xususan, raqamli texnologiyalar biznes-ta'limi xizmatlarining marketing faoliyatida katta o'rin tutadi[8; 4-b]. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn platformalar va mobil ilovalar orqali mijozlarga tezkor va samarali xizmatlar taqdim etish mumkin. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali tashkilotlar marketing strategiyalarini yanada samarali amalga oshirishi, o'z mijozlari bilan yanada yaqin aloqada bo'lishi va ularga yuqori sifatli xizmatlarni taklif qilishlari mumkin [10; 4-b].

- Raqamli marketing: Raqamli marketing, jumladan, SEO, SMM, email marketing va boshqa onlayn vositalar biznes-ta'limi xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlarga katta imkoniyatlar yaratadi. Ular raqamli platformalarda mijozlarni jalb qilish va ularni xabardor qilish orqali brendning tanilishini oshirishlari mumkin.

- Online ta'lim platformalari: Biznes-ta'limi xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlar uchun online ta'lim platformalarini ishlab chiqish va ular orqali xizmat ko'rsatish nafaqat zamonaviy talablarga javob beradi, balki global bozorni ham o'z ichiga oladi[9; 3-b]. Bu platformalar mijozlarga o'z vaqtida va qulay sharoitda ta'lim olish imkonini beradi. Biznes-ta'limi xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlarning marketing faoliyatini takomillashtirish uchun bir qancha asosiy yo'llar mavjud:

- Mijozlarga yo'naltirilgan yondashuv: Tashkilotlar o'z mijozlariga individual ehtiyojlariga moslashtirilgan xizmatlar taqdim etishlari kerak. Mijozlar bilan aloqalar mustahkamlanishi va ularning fikr-mulohazalari hisobga olinishi zarur.

- Xizmat sifatini yaxshilash: Marketingning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun xizmatlarning sifati ham juda muhimdir. Ta'lim xizmatlari yuqori sifatga ega bo'lishi kerak, chunki bu mijozlarning davomiy munosabatlarini va ularning tavsiyalarini ta'minlaydi.

- Brendni rivojlantirish va reklama: Yaxshi ishlab chiqilgan brend va reklama strategiyalari tashkilotning bozor o'rnini mustahkamlaydi va yangi mijozlarni jalb qilishga yordam beradi.

- Innovatsion marketing vositalari: Yangi texnologiyalar va marketing vositalarini joriy etish, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshiradi. Video marketing, ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat, vebinarlar va interaktiv onlayn kurslar kabi vositalar zamonaviy marketingning ajralmas qismiga aylanmoqda.

Xulosa. Biznes-ta'limi xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlar uchun marketing faoliyatini takomillashtirish nafaqat o'z xizmatlarini yaxshilashga, balki raqobatbardoshlikni oshirish va bozorning o'zgaruvchan talablariga moslashishga imkon yaratadi. Innovatsion texnologiyalar, zamonaviy marketing strategiyalari va mijozlarga yo'naltirilgan yondashuvlar yordamida tashkilotlar o'z marketing faoliyatini samarali tarzda rivojlantirishlari mumkin. Bu esa o'z navbatida, xizmatlar sifatini oshirish, brendni mustahkamlash va mijozlar bilan uzoq muddatli, samarali aloqalar o'rnatishga yordam beradi. Maqolada keltirilgan tavsiyalar va tahlillar biznes-ta'limi xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlar uchun samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqish va ularni amaliyotda qo'llashda muhim qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Xo'jaev, A. (2020). Biznes-ta'limi va uning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri. Tashkent: O'zbekiston iqtisodiyot nashriyoti.
2. Karimov, N. (2018). Marketing va raqamli texnologiyalar: O'zbekistonda ta'lim sohasining rivojlanishi. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Rasulov, D. (2019). Xizmatlar marketingi: Asosiy tamoyillar va amaliyot. Samarqand: Samarqand universiteti nashriyoti.
4. Davronov, A., Ganiev, Sh. (2017). Biznes-ta'limi bozoridagi marketing strategiyalari. Tashkent: Ta'lim va ilm-fan.
5. Murodov, S. (2021). Innovatsion texnologiyalar va ta'lim sohasidagi marketing. Toshkent: Iqtisodiyot va ta'lim.
6. Soliev, M. (2022). Raqobatbardoshlikni oshirish: Biznes-ta'limi sektoridagi yondashuvlar. Toshkent: Markaziy nashr.
7. Sultonov, I. (2023). Bozor ehtiyojlarini tahlil qilish va mijozlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalari. Buxoro: Buxoro universiteti.
8. Ganiyev E. Stages of development and impact on social life of an informed society in Uzbekistan //Western European Journal of Historical Events and Social Science. – 2024. – T. 2. – №. 11. – C. 17-20.
9. Imomalievich R. I. Synergetic interpretation of society development //International Engineering Journal for research & development. – 2020. – T. 5. – №. 3. – C. 5-5.
10. Nasirdinovich U. F., Rakhmatullaevna U. L. History and contemporary social and moral approach to rationalism //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – C. 1796-1801.

09.00.00 – FALSAFA FANLARI - PHILOSOPHICAL SCIENCES

Received: 10 March 2025
Accepted: 15 March 2025
Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

THE PROBLEM OF MODERNITY AND NATIONALITY IN URBANISM

Xolmirzaev Nodirjon Nizomjonovich,

Kokand University "Social Sciences"

Chair professor Actuator, Doctor of Philosophy (DSc)

Abstract. The article analyzes the cities of our country, the question of the priority of modernity or nationalism in their construction, features, alleged socio-philosophical problems that arise in this process, their solutions, and proposals are made. The works that can be performed in this area are also comparatively studied and conclusions are given.

Keywords: "Smart city", industrialized cities, commercial cities, developments, clean heating, modern cities, program "Obod qishloq", climo system.

SHAHARSOZLIKDA ZAMONAVIYLIK VA MILLIYLIK MASALASI

Xolmirzaev Nodirjon Nizomjonovich,

Qo'qon universiteti "Ijtimoiy fanlar"

kafedrası v.b. professori, falsafa fanlari doktori (DSc)

E-mail. nodirjon86.86@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada mamlakatimiz shaharlari, ularni barpo etishda zamonaviylik yoki milliylik ustuvorligi masalasi, xususiyatlari, bu jarayonda yuzaga kelishi kutilayotgan ijtimoiy-falsafiy muammolar, ularni yechimlari tahlil qilinib, takliflar kiritiladi. Shuningdek, sohada bajarilishi mumkin bo'lgan ishlarni qiyosiy o'rganiladi va xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: "Aqli shahar", sanoatlashgan shaharlar, savdo shaharlari, rivojlanish, ekologik toza issiqlik nazorati, zamonaviy shaharlar, "Obod qishloq" dasturi, "klimo" tizimi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N15>

Kirish. Hozirgi vaqtda shaharlar rivoji mamlakatning qay darajada taraqqiy etganini belgilaydigan vaqt yetib keldi. Dunyoning ko'plab davlatlari turli innovatsion yechimlarga ega shaharlar bunyod etish bilan mashg'ullar. Ayniqsa arab davlatlari turli xilda shaharlar bunyod eta boshlagani va unda aholining istiqomat qilayotgani ko'pchilikda havas uyg'otayotganligi bor gap.

Koronavirus pandemiyasi turli mamlakatlardagi ko'plab shaharlarning hayot tarzini o'zgartirib yubordi. Hukumatlar mashinalar kamaygandan keyin avval foydalanilgan kengliklardan yangicha ko'rinishda foydalana boshladi. Odamlar orasida kerakli xavfsiz bo'lgan masofaga ehtiyoj tug'ildi. Ayrim ko'chalarda mashinalar harakati taqiqlandi, avtomobillardan bo'shagan joylar piyodalarga sayr qilish uchun berila boshladi. Odamlar ongli ravishda xavfsiz va qulay shahar hududini yaratishga harakat boshladi. Ammo ayrim hukumatlar bugun ham milliy ruxdagi shaharlarni bunyod etish zarurligini inkor etmaydilar.

Zamonaviylik o'z yo'liga, ammo milliylikni ham unutmaslik kerak. Zero, fikrimizcha, shaharlardan milliylik yo'qolishi bilan millatning ruhi ham yo'qoladi. Tafakkur tarzi o'zgaradi. Ongida turli o'ylar milliy xususiyatlarni yo'qolishiga yo'l ochiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Mamlakatimizda shaharsozlik va shahar madaniyatiga oid muammolarga bag'ishlangan ilmiy ishlarga olimlarimizdan A. Qo'ziyev, A.Mirzaahmedovlarning nomzodlik dissertatsiyalarini misol keltirish mumkin. Shaharlarda ekologik holatni yaxshilash, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni oldindan belgilash, ulardagi muammolar xususiyatlarini o'rganish bo'yicha prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz asarida [1; 255] muammolar yoritiladi.

Maqolani yoritishda analiz, sintez, taqqoslash kabi metodlardan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Tariximizga e'tibor qaratadigan bo'lsak xalqlarimiz ko'pincha hovli uylarda yashab kelgan. Ularda ko'p qavatli uylarda yashash bo'yicha yetarli tajriba mavjud emas. Asosan qishloq joylardagi aholi keng hududlarda yashab kelgan. Hozirgi vaqtda doimiy daromad manbai izlab qishloqdan shaharga ko'chayotgan yoshlar uchun ko'p qavatli uylarga ko'nikish jarayoni oson kechmaydi. Ularda xorijdan kirib kelayotgan milliylikimizga yot bo'lgan turli ko'ngilochar maskanlarning bo'lishi ularning tarbiyasi va turmush tarziga ta'sir ko'rsatishi aniq. Shu kabi omillarni hisobga olib hukumatimiz "Obod qishloq" dasturi kabi yangi dasturlarni ishlab chiqishi yaxshi samara beradi degan fikrdamiz.

Sohada faoliyat olib boruvchi zamonaviy shaharsozlik mutaxassislarining va oddiy insonlarning fikrlariga ko'ra zamonaviy shaharlar quyidagi xususiyatlarga xamda qulayliklarga ega bo'lishi darkor.

- kechqurun parkovka bolalar o'yingohiga aylanishi;
- uy va ofis bitta joyda bo'lishi;
- odamlar uchun yaxshi sharoit yaratadigan joylarda barpo qilinishi;
- fuqarolar uchun qattiq raqamli nazorat va har qanday qoidabuzarlik uchun jarima belgilanishi;
- Hozirgi raqamli nazorat, kameralar ko'payishi va ratsional ko'rinishga ega bo'lishi;
- o'zini o'zi elektr bilan ta'minlaydigan uy, avtomobillar kam bo'lishi;
- daryolarda bemalol cho'milish imkoniyatining bo'lishi;
- shahar ichida bog'lar ko'p bo'lishi, har kimning kichkinagina tomorqasi (o'zi uchun sabzavotlar yetishtiradi, xuddi xorij kinolaridagi kabi) bo'lishi.
- shahar tor bo'lsa-da, bag'ri keng bo'lishi, ya'ni gavjumlashishi [4; 2].
- turli ko'ngilochar maskanlarning bo'lishi;
- madaniy hordiq chiqarishga xizmat qiluvchi muassasalar faoliyat ko'rsatishi va boshqalar.

Fikrimizcha yuqorida ko'rsatilgan qulayliklarga O'zbekiston shaharlari kelajakda ega bo'lishi mumkin, faqat buning uchun aholi tafakkur tarzini, odatlarini o'zgartirish zarur. Buning avvalida ekologik axloq, jamoat odobi, estetik did tarbiyalanishi muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga shaharlarni bunyod etishda milliylikka ham e'tibor qaratish katta ahamiyatga ega ekanligini yuqorida ta'kidlab o'tgan edik.

Fikrimizcha hozirgi shaharlarda milliylikimizga xos bo'lgan quyidagilarning bo'lishi katta ahamiyatga ega.

- Milliy muzeylar;

- Hunarmandlar markazlari;
- Milliy bozorlar;
- Suv manbalarining bo'lishi;
- Milliy qahramonlar aks etgan monumentlarning bo'lishi;
- Salqin bog'larning mavjud bo'lishi;
- Hovli uylarning mavjud bo'lishi;

Ko'pchilik olimlarning fikriga ko'ra hozirgi vaqtda milliylik va zamonaviylik uyg'unligini ta'minlash katta samara beradi. U o'z navbatida milliylikni saqlab qolish hamda zamondan ortda qolmaslikka qulay va farovon hayot kechirishga sabab bo'ladi.

Bu borada fikr yuritar ekanmiz xorij tajribasini o'rganish, hamda ularga milliylikni uyg'unlashtirishga harakat qilib ko'ramiz.

O'zbekistonning hozirgi shaharlarida yechish zarur bo'lgan muammolardan biri havo sifatini yaxshilashdir. Bu borada xorij tajribasiga e'tibor bersak havo sifatini 12 ta parametr bo'yicha o'lchab tahlil qiluvchi «Climo» tizimi mavjud ekanligini ko'ramiz. Ushbu qurilma an'anaviy havo monitoringi tizimidan 100 barobar kichik va 10 barobar arzonroqdir. «Climo» megapolislarning jiddiy muammosiga aylangan atrof-muhit ifloslanishiga qarshi samarali kurashish imkonini beradi [5; 1]. Ushbu tizimning kelajakda O'zbekistonda bo'lishi joriy yil shundayin ham dunyoning eng issiq nuqtasi deya e'tirof etilgan mamlakatimiz uchun juda zarurdir. Bunday tizim barcha shaharlarga ayniqsa, sanoatlashgan shaharlar (Navoiy, Zarafshon, Quvasoy, Farg'ona, Qo'qon va hokazo) uchun kechiktirib bo'lmaydigan tizim desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu bilan birga mazkur muammoni yechishning milliy usulini aytib o'tish joiz. Fikrimizcha shaharlarni bunyod etishda shamol yo'nalishiga moslab imoratlarni qurish zarur. Chunki shunday holatda shahar hududi havoning bemalol yurishi, shuningdek uning hududda uzoq muddat saqlanib qolmasligi imkon yaratadi. Qishloqlardagi qurilishlar ko'pincha shunday qurilganligi katta avlod vakillari tomonidan yuqoridagi sabab bilan izohlanadi.

Mamlakatimizning zamonaviylik va milliylik ruhi singdirilgan shaharlarni barpo etishda kelajakda quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etishi zarur deb hisoblaymiz:

- mamlakatimiz shaharlarida binolarining ko'kalamzorlashtirilishi shaharni isib ketishdan va xalos etadi;
- jamoat muhitida yashil zonalar yaratiladi. Shu yo'l bilan shahar yashash uchun qulay holatga keladi. Unda hatto issiq havoda ham erkin nafas olish mumkin bo'ladi.
- energiyadan foydalanilmaydigan uylar issiqxona effekti kuchayishiga yo'l qo'ymaydi.
- suv manbalarini ko'paytirish;
- favvoralar qurishni ham rejalashtirilishi zarur.
- yangi binolar shamoldan intellektual va innovatsion usulda foydalanish yaxshi samara beradi. Bu esa issiqlikni boshqarishning qiziq natijalarini yuzaga keltiradi.

Bu takliflar mamlakatimiz shaharlari uchun zarur bo'lgan muhim omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Iqlimshunoslikka mo'ljallangan Meteodyn kompaniyasi Urbawind dasturiy ta'minotini ishlab chiqdi. U shahardagi shamol harakatini boshqaradi. Shunday qilib, shamoldan maksimal darajada foydalanish uchun binoning joylashuvi, derazalarning hajmini qo'llash va turar-joy binosida havo aylanishini kafolatlash va uni bir necha gradusga sovitish mumkin [3; 1].

Xorij tajribasiga e'tibor qaratar ekanmiz Los-Anjelesdagi yo'llarda an'anaviy qora asfalt o'rniga oq qoplamadan foydalanishlariga guvoh bo'lamiz. Shu usul orqali yer harorati ba'zi

joylarda 10°Cga pasayadi. Bu esa o'z navbatida binolarga ham ta'sir qiladi. Il-de-Frans institutida iqlim, havo va energiyani o'rganishga mas'ul bo'lgan Ervan Kordo (ErwanCordeau)ning aytishicha, «Quyosh radiatsiyasi tufayli kuchli albedo darhol osmonga jo'naydi, shuning uchun energiya qoplamaning o'zida to'planmaydi». Qoplamaning bunday uslubi binolar tomi uchun ham mos keladi. Bino tomini oq rangga bo'yab, uydagi haroratini bir necha gradusga pasaytirish mumkin. Barcha uchun qulay, ekologik toza issiqlik nazorati. Bir so'z bilan aytganda yuqoridagi kabi innovatsiyalarni qo'llash kelajakdagi O'zbekiston shaharlari uchun katta muammolar yechimi bo'ladi. Ammo tan olish kerak bizning ota bobolarimiz uylarni ohak bilan oqlab unga bezak berganligini yaxshi bilamiz. Agar amerikaliklarning ushbu yechimi va ohakning imkoniyatlarini solishtirib ko'rsak xamda ulardan tabiiy sharoitimiz imkoniyatlaridan kelib chiqib foydalansak shaharlarmiz ko'rkiga ko'rk qo'shgan bo'lar edi. Qolaversa asfaltni hisobga olmaganda boshqa joylarda unumli ish bajargan bo'lar edik. Shu bilan birga iqtisodiy foyda ham ekologik soflik ham biz tomonida bo'ladi. Endi bu ikki vositaning imkoniyatlarni uyg'unlashtirilsa fikrimizcha ajoyib innovatsiyaga guvoh bo'lamiz.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish joizki O'zbekistonning zamonaviy shaharlari qiyofasi hozirgi vaqtda shakllanmoqda. Uning shakllanishida biz insonlar muhim o'rin egallaymiz. Shunday ekan birinchi navbatda insonlar dunyoqarashini o'zgartirish, shaharlashuv madaniyatini o'zlashtirishimiz, o'z navbatida milliy madaniyatimiz oltin fondini unutmagan xolda dunyoga yuz tutishimiz va taraqqiyotdan ortda qolmasligimiz zarur. Shaharlarimizda zamonaviylik yoki millik ustuvor bo'lishi o'z qo'limizda. Yoki har ikkisining uyg'unlashtirilgan xolda shaharlar bunyod etish ham bugungi avlodning zimmasida. Shaharlarning qanday bo'lishi kelajak avlodning qaysi yo'ldan borishida ham muhim o'rin tutadi. Shunday ekan eng muqobil va to'g'ri yechimni izlab topish bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mirziyoev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.–Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 592 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
3. <https://kun.uz/news/2018/09/11/kelazak-saarlarini-kondicionerlarsiz-tasavvur-kilib-kuring>
4. <https://sof.uz/post/kelajak-shaharlari-qanday-boladi>
5. <https://www.xabar.uz/jamiyat/kelajak-shaharlari>

Received: 10 March 2025
Accepted: 15 March 2025
Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

FACTORS IN PRESERVING NATIONAL IDENTITY AMONG YOUTH

Mamanov Jamoliddin Abdurakhimovich

Acting Associate Professor, PhD,
Department of Social Sciences,
Alfraganus University

Abstract. This article provides a scientific analysis of the unique characteristics of the Uzbek national mentality, the factors shaping it, their role in the formation of the spiritual culture of youth, and the distinctive aspects of preserving national identity among young people. Additionally, it discusses the ongoing changes in modern society, the influence of global cultural models on youth culture and their negative consequences, as well as the factors contributing to the preservation of national identity among youth.

Keywords: youth, mentality, identity, nationality, culture, spirituality, national self-awareness.

YOSHLARDA MILLIY IDENTIKLIKNI SAQLASHNING OMILLARI

Mamanov Jamoliddin Abduraximovich

Alfraganus universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrası v.b. dotsenti, PhD

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek milliy mentalitetidagi o'ziga xos xususiyatlar, ularni shakllantiruvchi omillar, ularning yashlar ma'naviy madaniyatini shakllantirishdagi roli hamda yoshlarda milliy identiklikni saqlashning o'ziga xos tomonlari ilmiy tahlil etilgan. Bundan tashqari bugungi jamiyatimizda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, jahon madaniyati namunalarining yoshlar madaniyatiga ta'siri va ularning salbiy oqibatlari, yoshlarda milliy identiklikni saqlash omillari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar, mentalitet, identiklik, milliylik, madaniyat, ma'naviyat, milliy o'zlikni anglash.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N17>

Yoshlar muammolarini o'rganishni jamiyat muammolarini o'rganishdan boshlamoq kerak desak adashmagan bo'lamiz. Chunki har qanday jamiyat yoshlari shu jamiyat a'zolaridir. Modomiki shunday ekan jamiyatga daxldor har qanday muammo yoshlarga ham daxldor ekanligi o'z-o'zidan ayon.

Jamiyatimizdagi mavjud muammolar bugun paydo bo'lib qolmagan albatta. Xalqimiz salkam bir yarim asrlik qaramlik azoblarini o'z boshidan kechirdi. Bu vaqt davomida mustamlakachilar xalqimizni tilidan, ma'naviy va milliy qadriyatlaridan judo etishga harakat qildilar.

Ming shukurki, ularning bu niyatlari to'la ro'yobga chiqmadi. Chunki bizning asrlar, balki ming yillar sinovidan o'tgan milliy va ma'naviy qadriyatlarimiz, o'ta bardoshli xalqimizning olijanoblighi bilan yo'g'rilgan fe'l-atvori bunga yo'l qo'ymadi. Ona xalqimiz ana shu og'ir yillar mobaynida ham o'z milliy va ma'naviy, diniy qadriyatlariga sodiq qoldi. Xalqimiz mehnatsevarlik, mehmondo'stlik, andisha, or-nomus, milliy va diniy, ijtimoiy bag'rikenglik kabi

fazilatlari ana shu davrlar sinovidan ham sharaf bilan o'ta oldi deb bugun baralla aytishga xalqimiz, albatta.

Ammo mustamlakachilar o'rnatgan jabr-zulm tartiblari o'z ta'sirini ma'lum darajada ko'rsatganligi ham ayniqsa keyingi yillarda tobora ravshanroq sezilmoqda. Bu ta'sir hammadan avval til borasida yaqqol o'zini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda ayniqsa yoshlar orasida o'z ona tiliga munosabatni yaxshi deb aytish qiyin.

1989-yilda davlat tili haqida qabul qilingan Qonunda o'zbek tili davlat tili deb e'lon qilinganligi tilimizni asrab qolishda muhim voqea bo'ldi. Ammo bu Qonunda talay kamchiliklar mavjud bo'lganligi sababli Qonunning amal qilinishi doirasi va ta'siri uncha talab darajasida bo'lmadi. Ayniqsa 1995-yilga kelib uning asosiy moddalariga o'zgartirishlar kiritildi. Ya'ni, davlat xizmatchilari uchun davlat tilini bilish majburiyligi haqidagi modda olib tashlandi. Natijada davlat tiliga bo'lgan e'tibor pasaydi. Hozirgi kunda yangidan davlat tili haqida Qonun qabul qilish va unda barcha fuqarolar, ayniqsa davlat xizmatchilari uchun davlat tilini bilish majburiyligi to'g'risida modda kiritish ko'zda tutilayotganligi quvonarli holdir albatta.

Ona tilimizga bo'lgan e'tibor va muhabbat yoshlarimiz ongiga avvalambor ona allasi bilan, qolaversa san'at, adabiyot vositasida singdirilishi tabiiydir. O'zbek adabiyoti dunyo xalqlari adabiyoti ichida eng nufuzi baland adabiyotlardan biri ekanligi quvonarlidir. Alisher Navoiy, Lutfiy, Ogahiy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf va yana qanchadan-qancha shoir-u adiblarimiz o'zbek tilining, o'zbek adabiyotining dovrug'ini butun turk olamiga, qolaversa butun jahonga yoyganligi barcha ilm ahli, adabiyot ixlosmandlari tomonidan e'tirof etilmoqda.

Ammo bizning kino san'atimizni adabiyotimiz darajasida deb aytib bo'lmaydi. Kino san'atimizda buyuk san'atkorlar, iqtidorli aktyorlar istagancha topiladi albatta. Ammo bugungi dramaturgiya kino san'atini yetarli darajada salmoqli, g'oyaviy-badiiy puxta asarlar bilan ta'minlay olmayapti. Hatto o'zbek kinosining mumtoz namunalari hisoblangan "Mahallada duv-duv gap" filmining ham ba'zi jihatlari e'tiroz uyg'otadi. Kinoasarda o'zbek hayotiga, o'zbek mentalitetiga to'g'ri kelmaydigan sahnalar talaygina. Masalan "yengil kavaleriya" nomi bilan shuhrat qozongan kelin o'zbeklardan ko'ra ko'proq rus kinolaridagi personajlarni eslatadi: bo'lajak kelin bo'lajak qaynotasi yuziga kamchiliklarni shartta aytadi, ota-onasidan yashirincha, ularni aldab konservatoriyada o'qiyapman deb, konserva zavodiga ishga kiradi. To'y unashtirish marosimlari, to'y vaqtida kelinning qochib ketishi kabi sahnalari esa hammasidan oshib tushadi: yana bu ishga kelinning otasi bosh-qosh bo'lib chiqadi. O'zbek mentalitetida qizning iffati, or-nomusi, oilaning, ota-onaning, aka-ukalarning or-nomusi hisoblanadi. Haqiqiy hayotda qaysi o'zbek o'z qizining to'y kunida qochib ketib boshqasiga tegib ketishiga rozi bo'la oladi?

Balki hayotda onda-sonda bo'lsada bunday voqealar, shunaqa qizlar, shunaqa otalar ham topilib qolar? Ammo masala shundaki bunday qizlar, bunday otalar o'zbek mumtoz kinosining bosh qahramonlari bo'lishi tomoshabinni ajablantiradi. "Jahon adabiyoti" jurnali bosh muharriri Shuhrat Rizayev: "Bugun kino san'ati jamiyatning qiyofasini belgilaydigan san'atga aylandi. Negaki, biz har kuni kino bilan hamnafasmiz. Kino katta ta'sir kuchiga ega. Shu sabab san'atkorlar ma'naviy javobgarlikni his qilishlari zarur" degan edi.[1, 75 b.]

Bunday qahramonlar, bunday voqea-hodisalar G'arb kinolarida uchrab turishi mumkin albatta. Chunki ularning turmush tarzi, mentalitetiga bu voqealar, bunday qahramonlar begona emas.

Adabiyot, san'at xalqni, millatni shu xalq, shu millat an'analari, qadriyatlarini ruhida tarbiyalashi kerak emasmi? Bunday kinolarni ko'rayotgan va ana shunday kinolar ruhida tarbiya topayotgan yoshlarimizdan milliy qadriyatlarimizni, urf-odatlarimizni, milliy an'analarimizni e'zozlash kabi tushunchalarni qanday qilib talab qilishimiz mumkin?! Bu kinolar bundan 60-65-yillar muqaddam, sho'ro mafkurasi, baynalminal qadriyatlar ustunligi davrida yaratilganligini ham hisobga olishimiz zarur albatta. Ammo bugun ham, yurtimiz istiqbolga erishgan, milliy qadriyatlarimizga qaytgan kunlarimizda ham shunday kinolar ekranlardan tushmay kelayotganligi ajablanarlidir. Ming afsuski, bunda adabiyot va san'at namunalari oz deb bo'lmaydi. Allaqachon sahnalarni, ekranlarni, hayotimizni tark etib ketishi kerak bo'lgan bunday asarlarni hali-hamon yashab hamon yoshlarimizga o'z ta'sirini ko'rsatib kelayotganligi nimadan dalolat beradi?

Fikrimizcha xuddi moddiy buyumlar singari madaniyat, ma'naviyat, mafkuraviy hodisalar ham ma'lum inersiya kuchiga ega ekan. Bir paytlar, mustamlakachilar tazyiqi, kommunistik mafkura asosida yaratilgan, bizning tafakkur tarzimizga, milliy qadriyatlarimizga, an'analarimizga zid bo'lgan san'at va badiiy asarlarning bugungacha sahnadan tushmay kelayotganligini boshqacha izohlab bo'lmaydi.

Yurtimizda 73 yil hukmronlik qilgan umummulkchilik g'oyalari, garchi xalqimizning e'tiqodi, turmush tarzi, islom ruknlariga mutlaqo zid, teskari bo'lsada, ammo bu hukmronlik, bu g'oyalar mutlaqo izzsiz bo'lmadi, mustaqillikka erishganimizdan keyin ham mutlaqo izzsiz yo'qolib ketmadi. Mustamlakachilar qoldirib ketgan muammolar, ular teskari aylantirib kelgan iqtisodiy hayotdagi ziddiyatli tushunchalar, qarashlar hatto bugun ham bizga o'z ta'sirini ko'rsatib kelayotganligi hech kimga sir emas. Masalan: xalqimizning tabiatga, tevarak atrofga bo'lgan munosabati masalasini olib ko'raylik. Bir paytlar bizning shahar-u qishloqlarimizning toza-ozodaligi, suvlarimizning musaffoligi olamga mashhur edi. Hatto bundan 50-60 yil avvallari ham xalqimizda "suvga qarab tupurma, suvga qarab supurma" degan maqollar amal qilib kelganligini qariyalar og'zidan bugungi kunda ham eshitishimiz mumkin. Bugun esa tabiatga, tevarak atrofga bo'lgan munosabatimiz naqadar o'zgarib borayotganligini ko'rib ham achinasan, ham hayron qolasan! — qani bir paytlar suvni, tuproqni, havoni, olovni muqaddas bilib, e'zozlagan, buloq, chashmalarni muqaddas bilgan, suvga tupurgan bolalarni qulog'idan cho'zib nasihat qiladigan bobolar, momolar qayoqda qoldi? Hozir kelinlar atrofni yig'ishtirib, axlat-xazonlarni yoqishni odat qilib oldilar. Daryo va kanallarga, yonginamizdan oqib turgan ariqlarga chelaklab, aravalab, mashina-mashinalab axlat to'kilayotganligi hech kimni ajablantirmay qo'ygan.

Xo'sh bizning tabiatga, tevarak-atrofga bo'lgan munosabatimiz nega bunchalar salbiy tomonga o'zgarib ketdi? Matbuot, radio, televideniye kabi ommaviy axborot vositalaridagi chiqishlarda, maqola va ko'rsatuvlarda bunga asosiy sabab sifatida xalqning ekologik madaniyati pastligi ko'rsatilayotganligi kishini ajablantiradi — axir bir paytlar xalqimizning ekologik madaniyati butun dunyo havas qiladigan darajada bo'lganligini hamma yaxshi biladiku? Demak, muammo xalqimizning ekologik madaniyatida emas. Bizning fikrimizcha ekologik muammolarning kelib chiqishi sho'rolar davrida amalda bo'lgan mulkchilik munosabatlari va ishlab chiqarish usulidadir. Masalan, shaharlarimiz ko'chalarining notozaligi, axlat, chiqindilarning duch kelgan joyga tashlab ketilishi muammosini olaylik. Ko'pchilik mutaxassis-u mutasaddilar "xalqning ma'naviyati, ekologik madaniyati past, nazoratni, tarbiyani kuchaytirish kerak, Germaniyada uncha jarima, Singapurda buncha jarima" degan gaplarni

ro'kach qilishadi. Germaniya, Singapur, Turkiya kabi davlatlarda shahar-u kent, qishloqlarining obodligi, toza, saranjom-sarishta ekanligi rost gap. Ammo ulardagi tozalik, saranjom-sarishtalikka ularning ekologik madaniyati yuqoriligi, aksincha bizdagi ahvolga bizning ekologik madaniyatimiz pastligi sababchidir degan gap ham hech bir aqlga to'g'ri kelmaydi.

Bizning fikrimizcha mulkchilik shaklidagi tafovut ekologiyaga bo'lgan munosabatning turlichaligiga sabab bo'lmoqda. Ma'lumki, sobiq sotsializm mamlakatlarida xususiy mulkchilik qat'iy man qilingan edi. Boylarga, xususiy mulkchilikka qarshi olib borilgan tinimsiz targ'ibot odamlarda xususiy mulkchilikka nisbatan shubha, ishonchsizlik bilan qarash hissini shakllantirdi. Mana, kommunistik dunyoqarash hukmronligiga barham berilganiga 30 yildan oshgan bo'lsada, ayrim sohalarga xususiy mulkchilik kirib kelishi qiyin kechmoqda. Masalan, rivojlangan mamlakatlarning ko'pchiligida turar joylarning aksar qismi tadbirkorlar qo'lida — ularning xususiy mulkidir. Xususiy mulkdor bo'lgan uy egasi — tadbirkor albatta bir narsa to'g'risida eng ko'p o'ylaydi — ya'ni o'z mulkidan keladigan daromadni oshirishni o'ylaydi. Daromadni oshirish yo'llaridan biri o'zi egalik qilayotgan turar-joy — binoga tegishli bo'lgan hududni toza-ozoda, saranjom-sarishta, obod va ko'rkam qilishdir. Deyarli hamma turar-joylar ana shunday tadbirkorlarga tegishli bo'lgan shahar ko'chalari, uy-joylar atroflari, binolarning tashqi ko'rinishi toza-ozoda, ko'rkam bo'lishi tabiiydir.

Sobiq sotsializm mamlakatlarida esa uy joylar davlatniki edi. Turar-joylarni xususiylashtirish — ya'ni undan tadbirkorlik uchun foydalanish mumkinligi esa kishilarning hatto hayoliga ham kelmas edi. Sobiq sotsialistik tuzum barbod bo'lganidan keyin aholi foydalanib turgan, aslida davlat mulki hisoblangan turar-joylar xususiylashtirildi.

Ammo rivojlangan mamlakatlardan farqli ravishda bu yerda har bir xonadon alohida kishi-oilaning mulkiga aylantirildi. Bir necha o'nlab kishilar egalik qiladigan ko'p qavatli uylar atrofni obod qilish, toza-ozoda saqlash esa imkonsiz ish ekanligi tushunarlidir.

Demak, shaharlarimiz ko'chalarining iflosligi, axlat uyumlarning duch kelgan joylarda paydo bo'lib qolishi xalqimizning ekologik madaniyati pastligidan emas, balki oddiy iqtisodiy manfaatdorlikni ta'minlovchi qonunlar, tamoyillar, tushunchalarning hali-hanuz yo'qligidan deb aytish to'g'riroq bo'lar edi.

Har qanday xalq, millatga xos bo'lgan ma'naviy qadriyatlar o'sha xalq iqtisodiyotida ustuvor bo'lgan ishlab chiqarish usuli asosida shakllanishi haqida yuqorida bir necha o'rinlarda aytib o'tildi. Sharq xalqlariga xos bo'lgan ekologik madaniyatning shakllanishi fikrimizning isbotlovchi dalil bo'la oladi. Ammo shuni ham ta'kidlash joizki har bir xalqqa xos bo'lgan ma'naviy qadriyatlar va mentalitetni shakllantiruvchi omillar faqatgina ishlab chiqarish usuli bilangina chegaralanib qolmaydi. Ma'naviy qadriyatlarni shakllanishida muhim o'rin tutuvchi yana bir qancha omillar mavjuddir. Ayniqsa axborot asri nomini olgan bizning asrimiz — XXI asrda ma'naviy qadriyatlarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar tobora, kundan-kunga ko'payib bormoqda. Ulardan ayrimlari haqida yuqorida aytib o'tildi.

Umuman olganda ma'naviy qadriyatlarni shakllantiruvchi omillarning barchasini ham salbiy baholab bo'lmaydi.

Bugungi kunda internet, mobil aloqa vositalarining ta'siriga ko'proq bir tomonlama, ya'ni salbiy baho berish hollari tez-tez uchrab turadi. Masalan tadqiqotchi M.Rahimova "Internetning salbiy ta'siri bolalar uchun ko'plab xavf-xatarlarni yaratishi mumkin. Bolalar ko'pincha zararli yoki noo'rin kontent bilan tanishadilar" deb ko'rsatadi.[5, 137 b.] Zamonaviy axborot va texnika vositalarining salbiy ta'sirini ham rad etmagan holda ularning ijobiy ta'siri

ko'proq va samaraliroq ekanligini ham unutmashimiz lozim. Zamonaviy axborot vositalari, asosan G'arb mamlakatlaridan kirib kelayotgan ommaviy madaniyat va hokazo omillar yoshlar ma'naviyatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatayotganligi rad qilib bo'lmas haqiqatdir. Ammo milliy ma'naviyatning shakllantiruvchi va uning barqarorligini ta'minlovchi asosiy omil shu jamiyat iqtisodida ustuvor bo'lgan ishlab chiqarish usuli degan fikrda sobit qolamiz.

Har qanday jamiyat barqaror faoliyat yuritish, ya'ni yashab qolish va o'z an'analarini davom ettirish maqsadida ekan, eng avvalo o'zini moddiy jihatdan ta'minlay olishi kerak. Barqaror iqtisodiyotga ega bo'lgan, ya'ni zamonning ilg'or mamlakatlari bilan iqtisodiy jihatdan bimalol bellasha oladigan mamlakat aholisining o'z milliy va ma'naviy qadriyatlarini yo'qotib qo'yish xavfi bo'lmaydi. Aksincha, iqtisodiyoti to'la shakllanmagan, eng zarur tirikchilik vositalarini ham chetdan xarid qilishga majbur bo'lgan jamiyat birinchidan: moddiy jihatdan qashshoqlashishda davom etadi. Chunki tashqi iqtisodiy savdodagi nomutanosiblik tufayli mamlakat har yili milliardlab pul mablag'idan — oltin zaxirasidan mahrum bo'ladi. Ikkinchidan esa zaif, ya'ni to'la shakllangan iqtisodiyotning yo'qligi milliy ma'naviyatning barqarorligiga putur yetkazadi. Chunki biz yuqorida bir necha o'rinlarda ta'kidlab o'tganimizdek milliy mentalitet hamda milliy ma'naviyatning barqarorligini ta'minlovchi asosiy omil shu jamiyatga xos bo'lgan moddiy ishlab chiqarish usulidir.

Uchinchidan esa mamlakat iqtisodi qanchalik zaif bo'lsa aholi shuncha qashshoq va kambag'al bo'ladi. Qashshoq va kambag'al xalq bolalari – yoshlari esa boy bolalariga taqlid qilishga moyil bo'ladilar. Bugun ba'zi bir yoshlarimizda G'arb madaniyatiga mahliyo bo'lish, o'z madaniyatimizga esa bepisand qarash hollari uchrab turishi hech kimni ajablantirmay qo'ygan. Buning sababi yuqorida aytilgandek G'arb mamlakatlarining ishlab chiqarishda, binobarin boylik masalasida ham bizdan beqiyos darajada o'zib ketganligidir.

Demak, yoshlar madaniyatida ro'y berayotgan ba'zi salbiy hodisalarning tub ildizi jamiyat iqtisodiyotining zaifligidir. Yoshlarimiz madaniyatida ro'y berayotgan ba'zi bir salbiy xususiyatlarga qarshi kurashish faqatgina og'zaki yoki yozma targ'ibot-tashviqot bilan chegaralanib qolishi mumkin emas. Balki iqtisodiyotimizni har tomonlama yuksaltirish va uni rivojlangan jamiyatlar qatoriga olib chiqish va bu ishda yoshlar ishtirokini ta'minlash, yoshlarning yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalashning asosiy vositasidir.

Mustamlakachilar har turli yo'llar bilan bizning iqtisodiyotimizni zaiflashtirishga, xalqimizning iqtisodiy zakovati va tashabbusini bo'g'ishga, O'rta Osiyoni Rossiyaning xom ashyo bazasiga aylantirishga urindilar va bunga ma'lum darajada erishdilar ham. Ushbu siyosatga qarshi chiqqan ko'plab o'zbek xalqi vakillari qatag'on qilindi.[6, 699 b.]

Mustaqillikka erishganimizdan keyingi yillarda iqtisodiyotimizni o'nglash, sanoatni rivojlantirish yo'lida ma'lum ishlar qilingan bo'lsada, ammo birinchidan bu ishlar yetarli darajada izchil amalga oshirilmadi, ikkinchidan esa mustamlakachilar turli yo'llar bilan sobiq mustamlakalari taraqqiyotiga to'g'onoq solishga harakat qildilar.

Faqatgina keyingi bir necha yil ichida mamlakatimizda tub islohotlar boshlandi. Avvalo jamiyatimiz taraqqiyotiga kishan bo'lib turgan korrupsiyaga, tanish-bilishchilikka, guruhbozlikka qarshi keskin kurash boshlandi. Mamlakat birinchi rahbari tomonidan ko'rilgan ko'pdan-ko'p chora-tadbirlar nihoyat o'z samarasini bera boshladi. Bugungi kunda fuqarolar o'z hayotidan rozi bo'lib va ertangi kunga tobora ko'proq ishonch bilan hayot kechirmoqdalar. Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan ko'rilgan ko'plab chora-tadbirlar ichida bittasini keltirib o'tmoqchimiz: "Toshkent shahrida boshqaruvning alohida tartibini joriy etish bo'yicha huquqiy

eksperiment to'g'risida" 2018-yil 17-avgustdagi PF-5515-sonli farmon sog'lom fikrlovchi ko'pdan ko'p siyosatchilar, ilm ahli, qolaversa keng jamoatchilik tomonidan ko'pdan beri kutilayotgan farmon bo'ldi.[7] Shu paytgacha korrupsiyaga qarshi nazorat o'rnatish yo'li bilan kurash olib borilganligi yetarli samara bermaganligini ko'pchilik juda yaxshi bilar edi. Negaki korrupsiyaga sabab bo'layotgan omil bartaraf etilmas ekan, nazoratchi ustidan nazorat o'rnataverish foydasizdir.

Korrupsiyaga sabab bo'layotgan omil esa, bizning fikrimizcha davlat xizmatchilari – amaldorlarni moddiy rag'batlantirishning to'g'ri va samarali tizimi yaratilmaganligidir. Farmonda mazkur holat o'zining munosib bahosini oldi: "... mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarini moddiy rag'batlantirishning amaldagi tartibi ularga yuklatilgan vazifalar, funksiyalar va mas'uliyat hajmiga mos kelmaydi, bu esa ularning ish samaradorligiga ta'sir qilmoqda". [2]

Yoshlar madaniyatini yuksaltirish haqida gapirar ekanmiz, avvalo butun jamiyatimizning madaniyatini yuksaltirmasdan turib bunga erishib bo'lmasligini unutmasligimiz lozim. Jamiyat ma'naviy madaniyatini yuksaltirishda bir qancha omillar muhim o'rin tutadi. Mana shu omillarning barchasini hisobga olgan holda harakat qilingandagina biz ko'zda tutilgan natijalarga erisha olamiz.

Ammo shuni ham unutmasligimiz lozimki, jamiyat ma'naviyatini yuksaltiruvchi barcha omillar ichida iqtisodiyot — ya'ni sog'lom iqtisodiyotning o'rni eng birinchi o'rinda turadi. Biz yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish yo'lida har qancha jon kuydirmaylik, har qancha tadbirlar rejalashtirmaylik iqtisodiyot nochor bo'lsa, yoki sovet davridagidek iqtisodiyotning oyog'i osmondan qilib qo'yilsa, tadbirbozlik bilan maqsadga erishib bo'lmaydi. Sog'lom iqtisodiyotning asosi esa bizning fikrimizcha zamonaviy sanoatlashgan ishlab chiqarishdir. Sanoatlashgan ishlab chiqarishni rivojlantirishning asosiy sharti esa tadbirkorlarga keng imkoniyatlar yaratilishidir. Bugungi kunda tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvlarga chek qo'yish, tekshirishlarga moratoriy e'lon qilinishi, davlat idoralari faoliyatining shaffofligiga erishish yo'lidagi harakatlar o'z samarasini bermoqda. Ammo yuqorida aytilganidek, nazorat ustidan nazorat o'rnataverish, taqiqlash, cheklash bilan katta natijalarga erishib bo'lmaydi. Bizning fikrimizcha taraqqiyotning bosh omili jamiyat tabaqalari o'rtasidagi, davlat va jamiyat o'rtasidagi manfaatlar uyg'unligiga erishishdir. Yuqorida aytilganidek, jamiyat qatlamlari o'rtasida, davlat xizmatchilari — amaldorlar bilan jamiyat o'rtasida manfaatlar uyg'unligini ta'minlash borasida ilk, ammo muhim qadam tashlandi. Avvalgi paytlarda davlat xizmatchilari qanday ishlayotganlaridan qat'iy nazar belgilangan miqdorda oylik olar edilar. Mahalliy boshqaruv tizimi boshliqlari, hokimlar qo'lida yaxshi ishlayotgan xodimni moddiy rag'batlantirish imkoni yo'q edi. Bugungi kunda belgilangan rejadani ortiqcha jamg'arilgan byudjet turmushining teng yarmi mahalliy byudjet ixtiyorida qoldirilishi va hokimlarga berilgan vakolatga muvofiq yaxshi, samarali ishlayotgan xizmatchilarga oylik maoshining 200 % gacha ustama haq belgilanishi davlat xizmatchilarining o'z ishiga sidqidildan yondashuviga olib kelmoqda. Demak, guvohi bo'layotganimizdek keyingi yillarda hukumat va davlat rahbariyati tomonidan amalga oshirilayotgan izchil islohotlar jamiyatimiz iqtisodiyotining sog'lomligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Sog'lom iqtisodiyot esa ta'kidlaganimizdek jamiyat ma'naviyati sog'lomligining, xususan yoshlar ma'naviyatidagi salbiy o'zgarishlarning oldini olishning asosiy vositasidir.

Garchi iqtisodiyotni sog'lomlashtirish yoshlar ma'naviy madaniyatini shakllantirishning eng muhim omili bo'lsa ham, ammo yoshlar ma'naviy madaniyatini shakllantirishda hukumatimiz hamda yoshlar tashkilotlari tomonidan amalga oshirilayotgan maxsus tadbirlarning ham juda katta o'rnini bor. Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus yoshlarimiz ma'naviyatini yuksaltirishda juda ulkan imkoniyatlar eshigini ochib berdi. 5 ta muhim tashabbus quyidagi tadbirlarni o'z ichiga oladi:

- Birinchi tashabbus — yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi;

- Ikkinchi tashabbus — yoshlarni jismoniy chiniqtirish, sport sohasida qobiliyatlarini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan;

- Uchinchi tashabbus — aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnikalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan;

- To'rtinchi tashabbus — yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan;

- Beshinchi tashabbus — xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

Shuni aytish joizki 5 ta muhim tashabbusda nazarda tutilgan ishlar bundan ilgari ham davlatimiz va hukumatimiz tomonidan izchil va tizimli ravishda amalga oshirilib kelinmoqda. Masalan: Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-sonli Farmoniga muvofiq "Yosh kitobxon" tanlovi tashkil etildi. Tanlovda 2017-2018-yillarda 970 ming yosh ishtirok qilgan bo'lsa, 2019-yilda 1 200 000 ishtirokchi qatnashdi.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus esa ilgaridan amalga oshirilib kelinayotgan ishlarga yanada izchilik va tizimlilik baxsh etdi hamda har bir tashkilot, muassasalarning mazkur ishlarni amalga oshirishdagi o'rnini aniq belgilab berdi, har bir tashkilot, muassasa zimmasiga aniq vazifalar yuklatildi.

Sharqda, iqtisodiyotida sug'orma dehqonchilik muhim ahamiyatga ega bo'lgan jamiyatlarda jamoalar G'arbga qaraganda uzoq yashab kelayotganligi deyarli barcha tarixchilar tomonidan e'tirof etilgan.

Xo'sh, bugungi kunda milliy qadriyatlarimizni shakllantirish va saqlashda mahallaning o'rnini qanday? Va ana shu qadriyatlarni shakllantirishda milliy mentalitetimizning o'rnini nimalarda namoyon bo'lmoqda? Avvalambor shuni aytish joizki, milliy mentalitet yuqorida bir necha o'rinlarda ta'kidlanganidek individ va jamiyat turmush tarzining deyarli barcha tomonlarini o'zida aks ettiruvchi va barqaror xususiyatlarga ega tushunchadir. Ammo, milliy mentalitet har qancha barqaror bo'lsada, bu uning hech qachon o'zgarmasligini bildirmaydi. Biz yuqorida bir necha o'rinlarda ko'chmanchi – chorvador xalqlarning o'troq turmush tarziga o'tishi ularning ijtimoiy fe'l-atvori hamda mentalitetini o'zgartirib yuborganligi bilan tanishib chiqqan edik.

Masalan: ko'chmanchi — o'zbeklar adabiyotining o'lmas qahramonlari — Alpomish, Oybarchin bilan o'troq o'zbeklar adabiyoti qahramonlari — Otabek va Kumushlar obrazini solishtirib ko'rgan edik. Shuni yana bir bora ta'kidlamoqchimizki, ularning har biri o'z davrining, o'z xalqining farzandlaridir va o'z xatti-harakatlari, ma'naviyatlari, fe'l-atvorlari bilan buni tasdiqlaydilar. Masalan: Alpomish va Oybarchinlarda mardlik, jasurlik, hayo, muhabbatga sadoqat, birmuncha qaysarlik, o'z fikrida sobit turish, o'z manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yish kabi fazilatlar yaqqol ko'rinib turadi.

Otabek va Kumush ham oliyjanoblikda, muhabbatga sadoqatda, hayoda ulardan sira qolishmasa-da ammo ular jamiyat va ota-ona istak-xohishlari oldida ojiz qoladilar. Agarda bir tomondan Alpomish bilan Oybarchinni, ikkinchi tomondan Otabek va Kumushbibilarni o'zaro taqqoslaydigan bo'lsak, ular o'rtasida ma'lum mushtaraklik va ma'lum darajada tafovut ham mavjudligini ko'ramiz. Alpomish ham, Otabek ham kuchli, mard, jasur, vatanparvar, adolat-haqiqat uchun kurashda o'z jonini ham ayamaydilar. Ular o'rtasidagi tafovut ham anchagina: Alpomish har bir ishni eng avvalo o'z maqsad-manfaati nuqtai nazaridan bajaradi, o'z ixtiyoriga zid bo'lgan ishlarni na Alpomish na Oybarchin zimmasiga yuklash mushkul bir ishdir. Otabek bilan Kumushda esa bu borada boshqacha qadriyatlar shakllanganligini ko'ramiz: ularning har ikkisi ham o'zlari yashab turgan jamiyat odat va ruknlariga, ota-ona xohish-istagiga qarshi bora olmaydilar. Biz ular o'rtasidagi ana shu tafovut sababi haqida ham yuqorida to'xtalib o'tgan edik — ya'ni bizning fikrimizcha ko'chmanchi turmush tarzidan o'troqlikka, iqtisodiyotida sug'orma dehqonchilik ustuvor bo'lgan turmush tarziga o'tish ana shu tafovutning sababchisidir. Agar bir tahlil qilib ko'rsak, Alpomish va Otabekda, Oybarchin va Kumushbibilarda saqlanib qolgan fazilatlar, qadriyatlar har bir xalq, har bir jamiyat uchun doimo ardoqlanadigan, dostonlarda, qo'shiqlarda kuylanadigan, vasf etiladigan qadriyatlar — ya'ni umrboqiy va umuminsoniy qadriyatlar va fazilatlar ekanligini ko'ramiz.

Otabek va Kumush fe'l-atvoridagi ota-ona oldida, jamiyat talablari oldidagi itoatkorlikka munosabat esa har bir jamiyatda turlichadir — ayrim jamiyatlarda bu qadriyatlar fazilat hisoblansa (masalan, sug'orma dehqonchilik iqtisodiyotida ustuvor bo'lgan jamiyatlar) ayrim jamiyatlarda (ko'chmanchi chorvadorlar hamda lalmikor dehqonchilik jamiyatlari) bu narsa unchalik yaxshi baholanmasligi, aksincha qusur kamchilik sifatida baholanishi ham mumkin.

Shunday qilib ko'ramizki, mentalitet ma'lum darajada barqaror tushunchadir. [3, 10-11 b.] Uning o'zgarishi xalq, millat turmush tarzining o'zgarishi bilan bog'liqdir. Bugun butun dunyo, jumladan bizning yurtimizda ham shiddat bilan o'zgarib bormoqda. Garchi sug'orma dehqonchilik, umuman olganda qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning asosini tashkil qilayotgan bo'lsada, sanoat ishlab chiqarishi ham shiddat bilan o'sib, yalpi milliy mahsulotimizda tobora ko'proq ulushga ega bo'lib bormoqda.

Ammo ba'zi o'rinlarda yoshlarimizning, xotin-qizlarning haddan tashqari "zamonaviylashib" ketayotganligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Ba'zi bir yoshlar nega ming yillik qadriyatlarimizga, bizning turmush tarzimiz, diniy, axloqiy qadriyatlarimizga bepisandlik bilan qarashi, bunday qadriyatlarga o'tmish sarqiti sifatida qarash hollari uchrab turadi. Tarixdan ma'lumki, Sharq-u G'arbda hamisha oila muqaddas hisoblangan. Ayniqsa Sharq jamiyatlarida oilaning mustahkamligiga katta e'tibor qaratilgan.[8, 27 b.] Negaki oila barqarorligi jamiyat barqarorligining asosi, mustahkam, barqaror oilasiz jamiyat barqarorligiga erishib bo'lmasligini Sharqda allaqachonlar yaxshi tushunib yetishgan. Bundan tashqari jamiyat uchun kerakli fe'l-atvorga ega bo'lgan kishilar ham xuddi shu oilada yetishib chiqar edilar. Chunki oilada o'rnatilgan qat'iy tartib-intizom, yoshlarning kattalarga, farzandlarning ota-onaga hurmat-ehtirom saqlashi kabi qadriyatlar bilan o'stirilgan farzandlar kelajakda, mustaqil hayotga qadam qo'ygan paytlarida ham xuddi shu qadriyatlarga amal qilib yashaydilar. O'zbek milliy madaniyatida asrlardan beri shakllangan urf-odatlar muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Xususan, Z.Axmedova bu haqda quyidagilarni qayd etib o'tadi. "An'anaviy xalq marosimlari madaniyatni, qavmlar orasidagi aloqalarni o'rganishda favqulodda bebaho manbadir. Masalan, farzand tug'ilishi, o'g'il bolalarni sunnat qildirish yoxud nikoh to'y bilan bog'liq marosimlar

shunchaki tantana emas, balki turli an'analariga boy xalq madaniyati va tarixining muhim etnografik hodisasidir." [4, 118 b.] Har bir xalq kelajak avlodni tarbiyalashda madaniy boylik va merosining namunalaridan foydalanadi. Yoshlar ham millati an'alarini o'zlashtirish jarayonida o'z madaniyati, milliy xarakterini shakllantiradi. Shu sababli ham har bir millat madaniy boyliklarini asrash va kelajak avlodga bezavol yetkazishga harakat qiladi.

Demak yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, ko'ramizki, oila, mahalla va maktab yoshlarda milliy ruh milliy qadriyatlarni, ma'naviy madaniyatni shakllantirishda asosiy o'rin tutuvchi institutlar hisoblanadi.

Bugungi kunda yoshlarimizga milliy qadriyatlar, ma'naviy madaniyatni singdirishda asosiy o'rin tutayotgan oilaga davlatimiz tomonidan juda katta g'amxo'rlik va e'tibor qaratib kelinmoqda. Ma'lumki G'arb mamlakatlarida asosiy urg'u har bir shaxsning ozodligi, hurligi va erkinligiga qaratilgan. Oila esa kishilarni ma'lum bir majburiyatlar bilan bog'laydi. G'arb jamiyati inson erkinligiga asosiy e'tibor qaratish evaziga oila deb atalmish noyob qadriyatdan judo bo'lmoqda. Biz Sharqliklar esa, oilani eng muqaddas qadriyatlardan biri sifatida qadrlab kelganmiz. Sharqda oilaviy rishtalar doimo muqaddas hisoblangan. Oilaviy rishtalarni uzish esa jamiyat tomonidan hamisha qoralab kelingan.

Adabiyotlar / Литература / References:

1. Abdumalik Jo'maql. Kino: tasvir va ma'no, T. Ma'anaviyat jurnali. 2014 y. 75-b.
2. Mirziyoyev Sh. "Toshkent shahri boshqaruvining alohida tartibini joriy etish bo'yicha huquqiy eksperiment to'g'risida"gi PF-5515-sonli farmoni. <https://lex.uz/docs/3871315>.
3. Bekmurodov M. O'zbek mentaliteti: kecha va bugun // Tafakkur jurnali. № 2. 2002. 10 b.
4. Axmedova Z. Madaniy meros va yoshlar ma'naviyati // Tafakkur jurnali. № 3. 2010. 118 b.
5. Rahimova M. Zamonaviy bolalarda internetning psixologik ta'siri // The latest pedagogical and psychological innovations in education. International online conference. 2024. 137 b.
6. Xujanova L. Sovet hokimiyatining O'zbekistonda yuritgan qatag'on siyosati va uning oqibatlari // Scientific progress. 2021. 699 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 17-avgustdagi PF-5515-son Farmoni, <https://lex.uz/ru/docs/3871315>
8. Chuboyeva O. Oila mustahkamligini ta'minlashda ota, ona, farzandlar tarbiyasi o'rni // Journal of innovations in scientific and educational research volume-7 issue-10. 2024. 37 b.

Received: 10 March 2025
Accepted: 15 March 2025
Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

PHILOSOPHY OF HUMANITY BY FAHRIDDIN RAZI

Eshpulatov Inoyat Saparovich

Chirchik higher tank commanding engineering school

Senior scientific assistant

E-mail: inoyatsaparovich@mail.ru

Abstract. This article analyzes the life and creative heritage of Fakhriddin Razi, his views on man and his essence, the scholar's attempt to introduce active anthropology into Islam, as well as his understanding of freedom and human activity as an integral part of religion, his comprehensive consideration of the human problem, his attempt to explain the meaning of his existence, his attempts to show life values and ways of spiritual rebirth.

Keywords: Sufism, philosophy, theory, gnosis, belief, religion, teaching, society, spirituality, education.

FAHRIDDIN ROZIYNING INSON FALSAFASI

Eshpulatov Inoyat Saparovich

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti

katta ilmiy xodimi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Faxriddin Roziyning hayoti va ijodiy merosi, uning inson va uning mohiyati to'g'risidagi qarashlari, allomaning islomga faol antropologiyani kiritishga harakat qilgani, shuningdek, erkinlik va inson faoliyatini dinning ajralmas qismi sifatida tushungani, inson muammosini har tomonlama ko'rib chiqqani, uning mavjudlik ma'nosini tushuntirishga harakat qilgani, hayotiy qadriyatlarni, ma'naviy qayta tug'ilish yo'llarini ko'rsatishga harakat qilgani tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: tasavvuf, falsafa, nazariya, irfon, e'tiqod, din, ta'limot, jamiyat, ma'naviyat, tarbiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N18>

Kirish. Islom falsafasi tarixidagi antropologiya muammolari Hindiston, Xitoy va Gretsiya falsafasi tarixida bo'lgani kabi G'arb falsafasi va antropologiyasiga qaraganda ancha chuqurroq, rang-barangroqdir. Ko'pgina mahalliy va g'arbiy Yevropa falsafa tadqiqotchilari G'arb falsafasida shunga o'xshash g'oyalar paydo bo'lishidan ancha avval fors-tojik falsafasida antropologiyaning bashorat qilinganligiga ishora qiladilar [1].

Mahalliy antropologiyaga oid tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, fors-tojik falsafiy va antropologik tafakkuri o'ziga xos va rang-barangdir. Ming yillar davomida u inson muammosiga nafaqat paradoksal va qarama-qarshi yondashuvlarni namoyish etdi. Ushbu g'oya, shuningdek, falsafiy va antropologik aks ettirishning turli qutblarini — mifologik va diniydan mistikagacha va ijtimoiy faollik g'oyasi bilan jonlantirilganligini aks ettiruvchi bosqichlarning tez o'zgarishini ko'rsatdi.

O'zlarini xilma-xil falsafiy va diniy maktablar qatoriga qo'ygan faylasuflarining dunyoqarash izlanishlari shubhasiz xususiyatlari bilan ajralib turadi. Biroq mutafakkirlar qaysi falsafiy g'oya yoki harakatga hurmat ko'rsatmasinlar, ularning ijodida inson mavzusi hech

qachon yo'qolmagan. Qolaversa, u mohiyatan shunchaki mavzu emas, balki turli falsafiy syujetlar yuzaga kelgan o'ziga xos o'zak edi. Mahalliy faylasuflar insonda, uning dunyoqarashi va maktabidan qat'i nazar, borliq sirlarini anglaydigan tafakkur markazi va o'zagini ko'rdilar.

Umuman olganda, islom falsafiy va antropologik tafakkurining tarixiy retrospektiv tahlili muammoning o'ziga yondashuvlarning nihoyatda xilma-xilligini ko'rsatadi. Ming yillar davomida ma'naviy qarashlar va hukmron mafkuraviy yo'nalishlar, albatta, o'zgardi, lekin inson mavzusi, yuqorida aytib o'tganimizdek, turli xil falsafiy oqimlarning o'zgarishligi bo'lib qoldi. Ushbu falsafasi o'z ruhiga ko'ra chuqur shaxsiyatga ega. U nafaqat odamni o'z orbitasiga, balki ko'proq tez-tez tortadi har qanday falsafiy muammolarni izohlashda ana shu hodisadan boshlanadi.

Odatda, islom falsafiy antropologiyasini tavsiflashda tadqiqotchilar Forobiy, Miskavayx, Ibn Sino, G'azzoliy, ixvonu-s-safo, so'fiylik va ismoiliylik vakillarining mashhur risolalariga murojaat qilganlar, ular fikricha, eng samarali nazariyani aks ettirgan.

Natija va muhokama. Faxriddin Roziy islom tafakkurining “oltin davri” deb atalgan davrda yashab ijod qilgan. Aynan Roziy davrida arab-musulmon falsafasi rivojlana boshladi. Islom falsafasida ularning paydo bo'lishidanoq butun bir qator oqim va yo'nalishlar vujudga kelgan. Bu spektrning boyligi va xilma-xilligi dindorlikdan tashqari faol falsafiy izlanishlar — ijtimoiy va umumbashariy idealni transislomiy izlanishdan tortib, ateistik qarashlarni ochiq asoslashgacha bo'lgan faol falsafiy izlanishlar orqali oshirildi.

Ko'pgina tarixchilar islom tafakkurining “oltin davri” va xalifalik taraqqiyotining cho'qqisini “jahon tarixidagi faylasuflarning eng katta homiysi” yoki bugungi kunda aytganimizdek, homiy al-Ma'mun Bag'doddagi “Donolik uyi” bilan bog'lashadi. Uning buyrug'i bilan xalifalik poytaxtiga nafaqat falsafaga, balki boshqa bilim sohalari — matematika, astronomiya, fizika, tibbiyot, tarix, geografiya va boshqalarga oid ko'plab qadimiy qo'lyozmalar olib kelindi. Ushbu amaliy fanlar falsafiy muammolarga bag'ishlangan keng bo'limlarga ega edi — qadimgi mualliflarning fikrlash an'analari shunday edi. Tadqiqotchilarning fikricha, al-Ma'munning san'atga homiyligi shu qadarga yetib borganki, 830-yilda Vizantiya ustidan g'alaba qozonib, u o'lponni pul, zargarlik buyumlari yoki har qanday tovarlar bilan emas, balki faylasuflar asarlari bilan to'lashni talab qilgan [2].

Imom Faxriddin Roziy o'z ilmiy faoliyatida, xususan, falsafiy risolalarida qadimgi yunon olimlari Aristotel, Geraklit, Epikur, Demokritdan, shuningdek, Sharqning mashhur mutafakkirlari Forobiy va Ibn Sino asarlaridan keng foydalangan va ularga sharhlar yozgan.

Olimning “Miftoh al-ulum”, “Nihoyat al-ulum”, “Ilm al-axloq” asarlarida olamni bilishning turli yo'l va usullari, inson doimo o'z bilimini orttira borishi zarurligi, uni hissiyot, aql va tafakkur orqali qo'lga kiritish mumkinligi to'g'risida muhim g'oyalar olg'a surilgan.

Faxriddin Roziy “Imamul-aimma” (Barcha imomlar imomi), “Al-Xatib (Xitob qiluvchi)”, “al-Muda'viy (Da'-vatchi)”, “Ziyouddin” (Dinning ziyosi) kabi unvonlarga ega bo'lgan. “Faxrid-din” (Dinning faxri) nisbati unga din sohasida qilgan xizmatlari uchun berilgan. “Roziy” atamasi esa uning asli Ray shahridan ekanini bildirgan.

Raydagi diniy-siyosiy nizolar sabab va ilm-fan bilan shug'ullanishi uchun bexavotir joy zarurati, qolaversa, bir guruh olimlarning Gurganjda jamlangani va u yerdagi e'tiqod erkinligi Roziyni Xorazmga yetaklab keldi. Tarixiy manbalarning xabar berishicha, Xorazmda o'sha davrlarda va undan keyin ham diniy mutaassiblik va radikal harakatlar ko'p kuzatilmagan. Gurganjda juhud mahallalari, mo'taziliylar, bundan tashqari, shialar, shofe'iyalar, nasturo

(xristian va moniylikning uyg'unlashgani) e'tiqodidagi kishilar bir-birlari bilan tinch-totuv yashashgan.

O'n ikkinchi asrda Xorazm imperiyasi katta siyosiy mavqega ega bo'lgan. Uning iqtisodiy yuksalishiga irrigatsiya tizimlari va ekin maydonlarining kengayishi, Xuroson, Movarounnahr va Dashti Qipchoq bilan bo'lgan savdo-sotiq, turmush taraqqiyoti katta turtki bergan. Bu davr Xorazmshoxlar davri edi. Xuddi mana shu sharoitda ilm-fan va madaniyat gullab yashnadi, arxitektura va hunarmandchilik rivojlandi. Bu davrda Ma'mun akademiyasi davomchilarining butun bir avlodi yetishib chiqdi. Faxriddin Roziyning fan olamida tanilgan zamondoshlari xorazmlik Abu Fazl Abul Qosim Baqqoliy Xorazmiy (vaf. 1160-y.), Abu Ali Hasan ibn Horis Xorazmiy (XII asr), Shayx Najmiddin Kubro nomi bilan mashhur Axmad ibn Umar Xivaqiy (vaf. 1221-y.), ilk o'rta asrda Beruniydan keyin mashhur "Xorazm tarixi" asarini yozgan Muhammad ibn Arslon Abbos Xorazmiy (vaf. 1172-y.) nomini esga olish bilan Xorazmda ilm-fan va madaniyatga qiziqish nihoyatda kuchli bo'lgani anglashiladi.

Faxriddin Roziy XII asrning taxminan 70-yillarida Xorazmga keladi. Xorazmga kelish sababini Roziy o'zining "Jomi' al-ulum" asarining muqaddimasida "Xorazmshoh Alouddin Takash (1172-1200)ning fan bilan shug'ullanish uchun tayyorlagan, dillarga xush yoquvchi sharoiti", deb yozgan.

Faxriddin Roziy dunyoqarashining shakllanishida hadis ilmida Ibn Abbos, Muqotil ibn Sulaymon, Mujohid, Qatoda va Said ibnlardan; lug'at va grammatikada Asmoiy, Abu Ubayd at-Taymiy, Faro', Zajjoj va Mubarriddan; tafsir ilmida Tabariy, Sa'alibiy, Vohidiy, Zamaxshariy va Ibn Qutaybadan; kalom ilmida Abu Bakr Boqiloniy, Ibn Furuq, Moturidiy, Ash'ariy, Imom G'azzoliy, Abu Muslim Muhammad bin Isfahoniy, Qozi Abdul Jabbori Hamadoniydan; fiqhda Imom Shofeiyy va Abu Hanifadan [3]; Falsafada esa faylasuflar Pifagor, Parmenidlar ta'limoti ta'sirida, Suqrot, Aflotun, Arastu, Abu Bakr Roziy, Ibn Miskavayh, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy [4] va boshqalar ta'sirlari katta bo'lgan.

Faylasuflar ta'limotiga ko'ra, inson ijtimoiy, tarixiy va madaniy faoliyat va rivojlanishning eng yuqori bosqichidir. Eron, Hindistondagi turli falsafiy maktablar va oqimlarning ba'zi ta'limotlari, Xitoy va Yunoniston insonni dastlabki nurdan va ba'zilari koinotning eng muhim qismi, o'zida "katta dunyo" ning aksi va ramzi sifatida tasvirlangan. Ba'zilari esa u to'rt elementdan (suv, olov, tuproq va havo) iborat ekanligini, boshqalar esa u olamni o'z ichiga oladi va bitta voqelikning ikki jihati deb, shuningdek, inson ikkita substansiyadan iborat ekanligi va tana va ruhdan iborat ekanligiga doir qarashlar mavjud. Shu sababdan insonning tabiati, uning bilimi masalasi falsafa tarixida eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu masala qadim zamonlardan to hozirgi kungacha aksariyat diniy-falsafiy maktab va oqimlarning muhokama mavzusi bo'lib kelgan.

Bir jihatga alohida e'tibor qaratish lozimki, zamonaviy tadqiqotchilar gumanizm davrini bir necha qismga bo'ladilar:

- Qadimgi davr gumanizmi "Klassik antropologiya". Qadimgi rimliklar va yunonlarning nazariyalari bilan bog'liq bo'lib, bu davrda motivatsiya Insonning najoti ko'rinmas kuchlar tomonidan sezilib, uning ruhiga bog'langan.
- Aristotel nazariyasi bilan bog'liq bo'lgan gumanizm davri.
- nemis postklassik gumanizmi.
- Marksistik gumanistik harakat.

- Ikkinchi jahon urushidan keyingi insoniyatning zamonaviy tendensiyalar oldidagi falsafiy qaror qabul qilishi.[5]

Shuni ta'kidlash kerakki, inson muammosi antik davr falsafasida, o'rta asrlardagi diniy-falsafiy tafakkur, maktablar vakillarining ta'limotlarida ham o'rganilgan.

Faxriddin Roziy, garchi mashhur kalom vakili sifatida tanilgan, ilohiyot maktabining yirik namoyonlaridan biri hisoblansa-da, falsafada u Zakariyo Roziy, Forobiy, Ibn Sino va Abu al-Barakat al-Bag'dodiyini qo'llab-quvvatlagan.[4]

Faxriddin Roziyning fikrlari boshqa sharhlovchilardan farq qiladi. E'tiborlisi, u Abu Bakr Roziy va Forobiy kabi faylasuflar rahbarligida kalomni falsafaga yaqinlashtira olgan. Buni uning bir qancha asarlari ("Mabohis al-mashriqiyya", "Risolatu al-kamoliyya fil xaqqiyyul-ilohiya", "Mantiq al-mulaxas", "Sharhu al-ishrat", "an-Nafs va ruh", "Risolaye dar chisthii") yozilishida ham ko'rish mumkin.

Mutafakkir o'z qarashlarida asosiy e'tiborni ko'proq diniy mavzularni o'rganishga qaratdi va ularning falsafa bilan uyg'unligi uning diqqatini tortdi. Alloma faylasuflarning g'oyalarini inkor etar ekan, ilohiyot mavzularini o'rganishga harakat qildi [4]. Husayn Nasrning fikricha "Imom Roziyning islom olamidagi shuhrati uning adabiy asarlari bilan bir qatorda Qur'onga yozgan falsafiy tafsirlari bilan ham asoslanadi" [6].

Roziy o'zining "an-Nafs va ruh" asarida inson masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Unda alloma ruhiy salomatlik nazariyasi doirasi va uning kelib chiqishini o'rganib chiqdi. U aqlni eng buyuk ilohiy ne'mat deb hisoblaydi. Aqlning maqsadini tan olgan holda, Ma'rifat va ruhni sog'lom saqlash va uni himoya qilish masalalarini ko'rib chiqadi. Uning fikricha, axloq har bir insonning ruhiy faoliyatidir. U insonning xulq-atvor modellarini dasturlaydi va ularning har birining natijalarini egoning talabi sifatida muhokama qiladi va baholaydi. Faxriddin Roziyning ruh haqidagi nazariyasi Platon qarashlariga asoslanadi.

Faxriddin Roziy ijodidagi antropologik masalalarni tadqiq qilish mutafakkir pozitsiyasining yunon ta'limotidan farqli ekanligini ko'rsatadi. Uning gumanistik tafakkur doirasi nihoyatda keng va insoniyatning turli tomonlarini axloq, ontologiya, gnoseologiyani tahlil nuqtasiga aylantira olgan va muhokama qilgan.

Xulosa. Faxriddin Roziyning gumanistik qarashlarida qadimgi yunon faylasuflari, ayniqsa Pifagor, Parmenid, Suqrot, Platon, Aristotel, Sharq falsafasi namoyandalari Forobiy, Ibn Sino, Ibn Miskavayh, tasavvuf ta'limoti, Ixvon us-Safo va boshqalarning ta'siri sezilib turadi.

Faxriddin Roziyning insonparvarlik qarashlari ma'naviy masalalar bilan bog'liq. Tana va ruh munosabatlari, tanani himoya qilish, inson tabiati va mohiyati, iroda erkinligi, kuch va ixtiyor, go'zallik va xunuklik, komillik va nomukammallik, aql va jaholat, inson taqdiri, ongi va irodasi, hissiy farqlar, inson temperamenti, inson axloqi, jismoniy va hissiy zavqlar, majburlash va erkinlik, o'z-o'zini bilish, o'z-o'zini rivojlantirish, inson baxti, komillik va nomukammallik, o'zlik, o'z-o'zidan zavqlanish, jismoniy, ma'naviy va hissiy zavq, zavq va azob, jismoniy va ma'naviy kamolot, shahvoniy lazzatlar va baxt o'rtasidagi ziddiyat, ruhning kuchlari, bilim va aql, idrok, aql va nafs, xudo va olam haqidagi bilim, inson kamoloti, sezgi kuchlari darajalari, baxt turlari va hokazolar.

Xulosa qilib aytganda, Mutafakkir dunyoqarashining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadi Faxriddin Roziyning inson borligi masalasidagi antropologik ta'limotlari, ma'naviy-axloqiy kamolot va farovonlik yo'llarini izlash edi, qaysi o'z davrining ilmiy munozaralarida markaziy o'rinni egallagan.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Монтгомери У. Влияние ислама на средневековую Европу. – М., 1976.
2. Мюллер А. История ислама. От доисламской истории арабов до падения династии Аббасидов. – М., 2004. Кн.1-2; Грюнебаум Г.Э. Классический ислам: очерк истории. – М., 1986; Монтгомери У. Влияние ислама на средневековую Европу. – М., 1976 и др.
3. Қаландаров, М.И. Нигоҳе ба мақом ва ҷойгоҳи «Тафсири кабир»-и Фахриддини Розӣ [Матн] / И.М. Қаландаров // Паёми Донишгоҳи миллии Тоҷикистон. – Душанбе, 2019. №5, с-162.
4. Қаландаров, М.И. Андешаҳои фалсафии Фахриддини Розӣ [Матн] / И.М. Қаландаров // Паёми Донишгоҳи миллии Тоҷикистон. – Душанбе, 2015. №3/4, с-202.
5. Ўрих, Фромм. Das m̄nsh̄ynbidl b̄i Marrx. – b̄yrlin, 1988 / Fromm Ўрих // Матарҷим Муҳаммад Роҳрахшон. Техрон: Сунбула, 1373. – С.15.
6. Аҳмад, Тоҳири Ироқӣ. Зиндагии Фаҳри Розӣ [Матн] / Ироқӣ А.Т // Маҷаллаи Маъориф 2-3. Шумораи 1, моҳи фарвардин.–Техрон, 1365.-С.9.

Received: 10 March 2025
Accepted: 15 March 2025
Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

VOLTARE'S DEISTIC MATERIALISM AND ITS CHARACTERISTICS

Fayziyev Khurshid Jumayevich,
doctoral student of Bukhara State University

Abstract. This article explores Voltaire's deistic materialism and its distinctive features.

Keywords: Theist, deist, God, Thomas Paine, Thomas Jefferson, George Washington, Albert Einstein, Enlightenment, Reformation.

VOLTERNING DEISTIK MATERIALIZMI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Fayziyev Xurshid Jumayevich,
BuxDU doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Volterning deistik materializmi va uning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Teist, deist, Xudo, Tomas Peyn, Tomas Jefferson, Jorj Vashington, Albert Eynshteyn, ma'rifatparvarlik, reformatsiy.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N19>

Kirish. Jahon ilm-fanida yetakchi ilmiy markazlar, tadqiqot institutlari va ta'lim muassasalari tomonidan Yevropa Renessans davrida vujudga kelgan ma'naviy-ma'rifiy falsafiy-axloqiy, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, bag'rikenglik, sog'lom fikr, ilm olishga qaratilgan barcha g'oyalar ustida fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan ilmiy, ma'naviy, madaniy sohalaridagi islohotlar natijasida jahonga mashhur alloma va mutafakkirlarning ilmiy merosini, ularning ta'limotlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Jahon hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilayotgan ushbu ilmiy-ma'naviy meros dunyo madaniyati va ma'naviyati taraqqiyotiga bebaho hissa bo'lib qo'shilgani ma'lum. Aynan ana shu omil Yangi O'zbekiston poydevorini yaratishda, ilm-fan, ma'naviy va madaniy faoliyat, ta'lim-tarbiya sohalarini keng rivojlantirish va yangi bosqichga olib chiqish uchun asos bo'lmoqda"[1]. Bu vazifalarni bajarishda ma'naviy va ijtimoiy-iqtisodiy yangilanishlar sharoitida O'zbekistonda umuminsoniy qadriyatlarga tayangan madaniyatni yanada rivojlantirish va yoshlar tarbiyasida ushbu ma'naviy boylardan foydalanish bugungi kunda dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. XVII-XVIII asrlarda gullab yashnagan deizm ta'limoti, qadimgi stoiklar Seneka va Mark-Avreliya borib taqaladi. Deizm ta'limotini ochib berishdan avval, unga g'oyaviy jihatdan yaqin bo'lgan teizmga sharh berib o'tish o'rinlidir. Bu borada Jon Orr quyidagi fikrlarini yozgandi: "XVII asrgacha "deizm" va "deist" atamaları mos ravishda "teizm" va "teist" atamaları bilan almashtirilgan. XVII asr ilohiyotchilari va faylasuflari bu

so'zlarga turlicha ma'no bera boshladilar. Ularning har ikkalasi [teistlar va deistlar] yagona oliy Xudoga, Yaratuvchiga ishonishlarini ta'kidlaganlar. Ammo teist Xudo o'zi yaratgan dunyoga faol ishtirokchi bo'lib qoladi deb o'rgatsa, deist esa Xudo dunyoni yaratilishida o'zini o'zi tashkil qiluvchi va o'z-o'zidan harakat qiluvchi kuchlarni ham ato etgan va keyin uni butunlay ikkinchi darajali sabablar sifatida harakat qiluvchi ushbu kuchlarga bergan deb ta'kidlagan"[2]. Deizm o'z taraqqiyoti davrida turli xil etaplarni bosib o'tdi. Deizm haqida bilish kerak bo'lgan birinchi narsa shuki, u tarixda ham, bugungi kunda ham bir xil bo'lmagan[3].

Muhokama. Angliya, Fransiya va Amerika Qo'shma Shtatlari deizmning o'ziga xos markazlari hisoblanadi. Deizmning yirik namoyondalari aynan shu mamlakatlardan yetishib chiqqanlar. Aynan shu mamlakatlarda ratsionalistik qarashlarga ega bo'lgan faylasuflar avlodi yetishib chiqdiki, bu o'z navbatida, diniy e'tiqodga tanqidiy yondashuvlarni kurtak yozishiga olib keldi. Deizmda aql va e'tiqod masalalari muhim rol o'ynaydi. Darhaqiqat, deizm nafaqat aqlni e'tiqoddan ancha ustun bo'lishini ta'minlagan, shu bilan birga shunday kuchli aql va taraqqiyotni yuzaga keltirgan Yevropa Ma'rifatparvarligining mahsuli bo'lib, u nafaqat Yevropada xristianlik hukmronlik qilgan qorong'u asrlardagi diniy dogmalarning ko'p qismini yo'q qildi, balki deizm va deistik g'oyalar tarixning eng buyuk ba'zi kishilari tomonidan qabul qilingan bo'lib, Itan Allen va Volter, shuningdek, Tomas Peyn, Tomas Jefferson, Jorj Vashington va Albert Eynshteyn ularning bir qismini tashkil etishadi[4].

XVII-XVIII asrlarda yashab ijod etgan ma'rifatparvarlik davri faylasuflarining ba'zilari Jon Lokk (1632-1704) singari xristian diniga nisbatan ehtiyotkorona yondashgan bo'lsalar, boshqalari esa Volter singari radikal pozitsiyani egalladilar. Ayrim ma'rifatparvar mutafakkirlarning an'anaviy xristianlikni reforma qilishga urinishlariga qaramay, o'rtacha aholi soni bo'yicha ma'rifatparvarlik davrining diniy muhiti o'rta asrlarga nisbatan o'zgarmagan[5].

Natijalar. Shuni esda tutish lozimki, deizm ta'limotini rivojlantirishda katta rol o'ynagan faylasuflarning aksariyat qismi dvoryanlar tabaqasiga mansub bo'lib, ularning qarashlari jamiyatda tobora katta kuchga aylanib borayotgan burjuaziya tabaqasining manfaatlariga mutanosib edi. XVIII asr deizmi o'qimishli yuqori tabaqalarni qiziqtirgan va ular tomonidan oshkora qo'llab-quvvatlangan [6]. Soddaroq qilib aytganda, deizmni rivojlanishida nafaqat ma'rifatparvarlikning, balki reformatsiyaning ham roli kichik emas. Bu ma'rifatparvarlik falsafasi mohiyatan antixristian urush mashinasi edi [7]. XVII asrning materialisti va empiristi bo'lmish ingliz faylasufi Jon Lokkning fikricha, Xudo hayotni paydo bo'lishiga faqatgina "birinchi turtki"ni bergan bo'lib, bundan keyingi tabiat va jamiyatdagi hodisalarga aralashmaydi. Iso Masih — "sof tabiiy dinni qayta tiklovchi va din targ'ibotchisidan boshqa kimsa emas" degan qarash Lokk uchun deistik tushuncha edi [8]. Jon Lokkning deizm bilan sug'orilgan falsafasida xristian dinini ratsionalizatsiyalashtirishga intilish ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga Jon Lokk, xristian dini dogmalarini radikal tanqid qilishdan tiyildi. Qaysidir ma'noda Jon Lokk aql bilan ilohiyotni kelishtirishga intiladi. To'g'ri, Lokkning fikricha, abadiy najot uchun faqat tabiiy aqlga tayanish samarasizdir. Shuning uchun Lokk deistlarning e'tiqod qonunini rad etishlari ularning ruhlarini najot topishiga to'sqinlik qiladi, deb hisoblardi [9]. Jon Lokk e'tiqod faqat aqlga tayanishi lozimligini alohida ta'kidlab o'tgan.

Garchi Jon Lokk asarlaridagi nazariyalar amaliy dinga, xususan, XVIII asrda deizm rivojlanishiga turtki bergan bo'lsa-da, XVII asrdagi kichik bir ingliz harbiysi va shoiri Lord Gerbert Cherberi (1583-1648) tomonidan deistik tafakkur shakllanishiga ko'rsatilgan hissa

ulkan edi[10]. Ingliz deizmining otasi Edvard Gerbert Cherberi [11] deizmning beshta asosini sanab o'tgan:

1. Oliy xudo mavjud;
2. Bu oliy xudoga sig'inish kerak;
3. Ezgulikning taqvo bilan bog'liqligi diniy amaliyotning eng muhim qismidir;
4. Odamlarning ongi doimo o'zlarining yovuzliklari oldida dahshat bilan to'la bo'lgan; ularning yomonliklari va jinoyatlari ularga ayon edi; ular tavba qilish orqali gunohlaridan forig' bo'lishlari kerak;
5. Bu hayotdan keyin ajr yoki jazo bor[11].

Gerbert Cherberining ushbu deistik g'oyalari chuqur anglab yetmaganlar uni ateizmni targ'ib qilishda aybladilar. Uning o'sha davr uchun progressiv hisoblangan ko'plab qarashlari zamondoshlari tomonidan yetarlicha baholanmadi.

Volter (1694-1778) o'zining deistik qarashlari bilan ajralib turar edi. Volterning deistik qarashlari u Angliyada ya'ni "erkinlik diyori"da surgunda bo'lgan 1726-1728-yillarida shakllangan edi. Volter deistik tizimining falsafiy asosi Nyutonning fizikaviy ilohiyotiga asoslanadi[12]. Nyutonning ilmiy qarashlari va Jon Lokkning deistik falsafasidan ruhlangan Volter 1733-yilda "Falsafiy maktublar" asarini yozdi. Bu asar Fransiya falsafa tarixida yangi sahifa ochib, Volterni fransuz Ma'rifatparvarligining vakillaridan biriga aylantirdi. Volter deizmining konsepsiyasi turli dinlar Xudoga turlicha xizmat qilsa ham, Xudoga, Oliy mavjudotga ishonish hamma uchun muhim va bir xildir, degan fikrga olib keladi[13]. Garchi Volter Jon Lokkning ko'plab qarashlariga xayrixoh bo'lsada, uning ba'zi fikrlariga qo'shilmaydi. Xususan, Volter Jon Lokkdan farqli o'laroq e'tiqod aqlga muhtoj emas degan fikrni ilgari suradi. Aynan shu darajada biz Volterning nuqtai-nazarini topamiz, chunki uning fikricha, e'tiqod faqat uning uchun qulay sabablar yo'qligi sababli o'rnatilishi mumkin[14]. Volter o'zining deistik qarashlarini nafaqat falsafiy asarlariga balki, badiiy asarlariga ham ko'chirdi. Agar falsafiy asarlarini tilga olmay, faqat uning adabiy faoliyatidan so'zlaydigan bo'lsak, Fransua-Mari Arue Volterning bezovtaligida, e'tiqod va diniy amaliyotni qayta ko'rib chiqish va qayta qurish, ularni an'anaviy ilohiyot asoslaridan farqli prinsiplarga qaytarishga intilish aniq namoyon bo'ladi[15]. Volterning falsafiy qarashlari asosan antiklerikal va antifeodal ruhda edi. Xudoning mavjudligi, insonning tabiati va taqdiri, inson erkinligi va ruhning o'lmasligi haqidagi buyuk masalalar doimo uning tadqiqot mavzusi bo'lgan; u hech qachon ularni yoritish ustida ishlashni to'xtatmadi, hech bo'lmaganda, uning fikricha, inson intellekti imkoniyatlarining tor chegaralari doirasida[16]. Volterning deistik qarashlari uning bag'rikenglikka oid qarashlari kabi progressiv xarakterga ega edi. Aksariyat deistlar xudoga kundalik hayot bilan chambarchas bog'liq bo'lgan shaxs sifatida emas, balki ko'proq "Buyuk soatsoz" sifatida qarashgan[17]. Volter ham ularga qo'shilgan holda o'zining deistik qarashlarini mashhur ikki misrasi bilan ifodalagan:

Hayratda qoldirar meni koinot, tasavvurim yo'qligidan,
Qanday qilib soat bor-u, soatsoz yo'qligidan [18].

Volterning falsafasi Fransiyada deistik g'oyalari keng tarqalishiga olib keldi. Shu bilan birga, uning deizmi materializm bilan sug'orilgandi. Volter materializmning deistik shakli haqidagi versiyasi tezda Fransiyada keng tarqaldi, ma'rifatparvarlik g'oyalari rivojlanib, tarqalib borar ekan, boshqa mamlakatlarda ham bu xayrixohlik bilan qabul qilindi[19]. Ushbu deistik qarashlardan ilhomlangan Volterning ko'plab izdoshlari unga ergashgan bo'lsalar ham,

ammo bunday sadoqat uzoq davom etmadi. Chunki uning izdoshlari orasida endigina fransuz jamiyatida kurtak otib kelayotgan ateistik qarashlarni rivojlantirishga bel bog'lagan: Didro, Golbax va Gelvetsiy kabi fransuz materialist faylasuflari bor edi. Deizm va ateizm, "falsafiy dinlar" ning eng mashhur va qulay variantlari bo'lib, faylasuflar tomonidan ham e'tiqod qilinishi mumkin; haqiqatdan ham, barcha odamlar kabi, ular ham his-tuyg'u va istaklarga bo'ysunadilar va shuning uchun yorqin, ma'rifatli aql tomonidan yaratilgan dunyoga ularning izchil rioya qilishlari qiyin[20]. Ateizmga Volter shubha bilan qarab, uni tanqid ostiga oldi. Ba'zilar uchun Volterning deizmi yuzaki, minimal e'tiqod bo'lib, u kattaroq yovuzlik: ateizmdan uzoqroq turish uchun yetarli deb qaralgan[21].

Xulosa. Shuni alohida ta'kidlab o'tish o'rinliki, fransuz ateistik materializmining shakllanishida Volterning deistik qarashlari fundamental rol o'ynadi. Volterning deizmi Didro, Golbax va Gelvetsiyning keyingi xulosalariga olib boradigan yo'lda faqat bekat vazifasini bajarib berdi[22]. Volter Fransiyada deistik qarashlarni olib kirgan va ularni rivojlantirishda uning xizmatlari ulkan bo'lsa-da, o'z umrining ikkinchi yarmini ateistik g'oyalar bilan qurollangan fransuz materialistlariga qarshi deistik materializm nomidan ilmiy bahslarga kirishdi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент: O'zbekiston, 2021. Б. 34-35
2. Orr, John.; English Deism: Its Roots and Its Fruits; 1934. p.13
3. Düzgün, Şaban Ali; Deism as a Heterodox Religious Identity with its Historical and Contemporary Aspects; Kader; Volume: 19, Issue: 3, 2021. p.890
4. Johnson, Bob; Deism: A Revolution in Religion, A Revolution in You; World Union of Deists; 2009. p.12
5. Owen, John M. IV and J. Judd Owen, ed. Religion, the Enlightenment, and the new global order. New York: Columbia University Press, 2010. p.12
6. Johnson, Tina; Deism Revisited: A Modern Approach; Dialogue & Nexus, Fall 2015-Spring 2016, Volume 3. p.5
7. Matikit, Robert; Religious freedom and the age of enlightenment: the case of the french revolution; Studia Hist. Ecc. vol.34 n.1 Pretoria. 2008. p.2
8. Lucci, Diego; The Law of Nature, Mosaic Judaism, and Primitive Christianity in John Locke and the English Deists; Entangled Religions. Vol. 8. 2019.
9. Lucci, Diego; John Locke on Atheism, Catholicism, Antinomianism and Deism; Etica & Politica / Ethics & Politics, XX, 3, 2018. p.245
10. Piland, Tiffany E.; The Influence and Legacy of Deism in Eighteenth Century America; Master of Liberal Studies Theses. 8.2011. p.24
11. Williams, George; "Socinianism and Deism: From Eschatological Elitism to Universal Immortality", Historical Reflections/Reflexions Historiques, Winter 1976, vo. 2, no. 2. p.1
12. Israel, Jonathan; Enlightenment Contested: Philosophy, Modernity and the Emancipation of Man 1670–1752.; Oxford: Oxford University Press, 2006. pp.515,681
13. Kemppainen, Salla ; Comparaison de la religiosité de Voltaire et de Rousseau ; Theses, Bachelor thesis. 2011. p.8
14. Brandão, Rodrigo; Voltaire et le scepticisme ; Philosophiques, 35(1). 2008.p.273
15. Pavel, Aurel and Țăreanu, Dan; Continuity of deism epicurean themes in Voltaire's thinking; European Journal of Science and Theology, August 2019, Vol.15, No.4. p.33
16. Ritter, C., Strauss, D.-F.; Le déisme de Voltaire Le déisme de Voltaire; Théologie et philosophie : compte-rendu des principales publications scientifiques à l'étranger. 3.1870. p.576
17. Taylor, B. Deism. Encyclopedia of Religion and Nature. 2005. p. 462-3

18. Voltaire. Les Cabales. 1772 // Voltaire. Oeuvres completes. Vol. I–LII. Paris: Garnier frères, 1877. Vol. X. p.182
19. Вольтер; Философские сочинения; Ответственный редактор, составитель и автор вступительной статьи доктор философских наук. В. Н. Кузнецов; Перевод с французского С.Я. Шейнман-Топштейн. Москва.1988. с.43
20. Kruszyńska, Sabina; Écrasez l'infâme: Voltaire's Philosophy of Religion; Miscellanea Anthropologica et Sociologica. 16 (1).2015. p.131 p.131
21. Voltaire; Dieu et les hommes *précédé d'Épître à Uranie*; Édition de Nicholas Cronk, Gallimard.2023. p. 30
22. Писарев Д. И. Избранные философские и общественно-политические статьи. М., 1949. с.537

Received: 10 March 2025

Accepted: 15 March 2025

Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

ETHICAL AND PHILOSOPHICAL ISSUES OF PUBLIC GOVERNANCE IN SUSTAINABLE DEVELOPMENT

Rustamaliyev Mirjalol Hayrullo ugli

Researcher of Namangan State University

Abstract. This article examines the ethical and philosophical issues facing public governance in achieving the Sustainable Development Goals (SDGs). Exploring the intersection of governance, ethics, and philosophy, the study highlights important issues such as equity, accountability, and intergenerational justice. Drawing on the perspectives of prominent scholars, it discusses the role of public governance in balancing economic growth, environmental protection, and social equity in addressing ethical dilemmas and philosophical debates. The study emphasizes the need for a governance system that is consistent with ethical imperatives and sustainable values, and supports long-term societal and ecological well-being.

Keywords: public governance, ethics, philosophy, sustainable development, governance, intergenerational justice, accountability.

BARQAROR RIVOJLANISHDA DAVLAT BOSHQARUVINING AXLOQIY VA FALSAFIY MUAMMOLARI

Rustamaliyev Mirjalol Hayrullo o'g'li

Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

E-mail: mirjalolrustamaliyev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola barqaror rivojlanish maqsadlariga (SDGs) erishishda davlat boshqaruvi oldida turgan axloqiy va falsafiy muammolarni o'rganadi. Boshqaruv, axloq va falsafaning kesishishini o'rganib, tadqiqot tenglik, javobgarlik va avlodlararo adolat kabi muhim masalalarni ta'kidlaydi. Taniqli olimlarning istiqbollari tayangan holda, u axloqiy dilemmalar va falsafiy munozaralarni hal qilishda iqtisodiy o'sishni muvozanatlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy tenglikni ta'minlashda davlat boshqaruvining rolini muhokama qiladi. Tadqiqot axloqiy imperativlar va barqaror qadriyatlarga mos keladigan, uzoq muddatli jamiyat va ekologik farovonlikni qo'llab-quvvatlovchi boshqaruv tizimi zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: davlat boshqaruvi, etika, falsafa, barqaror rivojlanish, boshqaruv, avlodlararo adolat, javobgarlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N20>

Kirish. Barqaror rivojlanish iqlim o'zgarishi, ijtimoiy tengsizlik va iqtisodiy beqarorlik kabi global muammolarni hal qilish uchun etakchi paradigma sifatida paydo bo'ldi. Davlat boshqaruvi barqaror rivojlanish maqsadlarini (SDG) qo'llab-quvvatlovchi siyosat va amaliyotlarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Biroq, bu mas'uliyat axloqiy va falsafiy dilemmalar bilan to'la. Bu muammolar raqobatdosh manfaatlarni muvozanatlash, qiymat ziddiyatlarini hal qilish va barqarorlik boshqaruviga xos bo'lgan noaniqliklarni hal qilishning murakkabligidan kelib chiqadi. Barqaror rivojlanish siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda axloqiy va falsafiy mulohazalarni birlashtirib, an'anaviy ma'muriy amaliyotlardan ustun bo'lgan boshqaruv yondashuvini talab qiladi. Davlat boshqaruvi murakkab axloqiy va falsafiy muammolarni hal qilishda turli manfaatdor tomonlarning manfaatlariga vositachilik

qilish orqali SDGga erishishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqola tenglik, inklyuzivlik va ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun axloqiy boshqaruv asoslari zarurligini ta'kidlab, ushbu muammolarni ko'rib chiqadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Davlat boshqaruvi har doim axloq bilan uzviy bog'liq bo'lib kelgan, Dvayt Valdo ta'kidlaganidek, "ma'muriyat betaraf emas, axloqiy me'yorlar bilan to'ldirilgan"[1; P.45.]. Axloqiy boshqaruv shaffoflik, hisobdorlik va jamoat manfaati uchun sadoqatni talab qiladi. Barqaror rivojlanish tenglik va adolat falsafiy tamoyillariga tayanadi. Jon Roulsoning adolat nazariyasi barqarorlikning avlodlararo jihatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan "avlodlar o'rtasidagi adolat" ni ta'kidlaydi[2; P.302.]. Xuddi shunday, Xans Jonas "mas'uliyat etikasi" ni himoya qiladi va siyosatchilarni o'z harakatlarining kelajak avlodlar uchun uzoq muddatli oqibatlarini hisobga olishga chaqiradi[3; P.38.].

Barqaror rivojlanish Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan "kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish qobiliyatiga putur etkazmasdan hozirgi kun ehtiyojlariga javob beradigan rivojlanish" deb ta'riflanadi. U bir-biriga bog'langan uchta o'lchovni o'z ichiga oladi:

1. Iqtisodiy barqarorlik: iqtisodiy o'sish va barqarorlikni ta'minlash.
2. Ijtimoiy barqarorlik: tenglik, adolat va ijtimoiy inklyuziyani rag'batlantirish.
3. Ekologik barqarorlik: tabiiy resurslar va ekotizimlarni muhofaza qilish.

Davlat boshqaruvchilari bir vaqtning o'zida ushbu o'lchovlarga murojaat qilishlari kerak, bu ko'pincha axloqiy va falsafiy muammolarga olib keladi.

Muhokama.

Davlat boshqaruvidagi asosiy axloqiy va falsafiy muammolar.

1. Avlodlararo adolat Barqaror rivojlanish joriy siyosat kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish qobiliyatiga putur yetkazmasligini ta'minlashni talab qiladi. Edit Braun Vayss ta'kidlaganidek, davlat boshqaruvchilari "sayyoraviy ishonch" yondashuvini qo'llashlari, atrof-muhitga avlodlar uchun saqlanib qoladigan meros sifatida qarashlari kerak[4; P.67.]. Davlat boshqaruvchilari tez-tez iqtisodiy va siyosiy yutuqlarni uzoq muddatli barqarorlikdan ustun qo'yish uchun bosimga duch kelishadi. Masalan, hukumat ish o'rinlari yaratadigan, lekin uzoq muddatli atrof-muhitga zarar keltiradigan daromadli sanoat loyihasini ma'qullashi kerakmi? Qisqa muddatli imtiyozlarni qo'llab-quvvatlovchi qarorlar kelajak avlodlar oldidagi ma'naviy burchni buzadi va atrof-muhitning buzilishini kuchaytiradi.

2. Iqtisodiy o'sish va atrof-muhitni muhofaza qilish muvozanatini ta'minlash Muhim vazifa iqtisodiy rivojlanish talablarini atrof-muhitni muhofaza qilish bilan muvozanatlashdan iborat. Amartya Sen oddiy iqtisodiy o'sishdan ko'ra inson imkoniyatlari va ekologik yaxlitlikni birinchi o'ringa qo'yadigan axloqiy boshqaruv tizimlari zarurligini ta'kidlaydi[5; P.245.].

3. Tengsizlikni bartaraf etish Davlat boshqaruvi xalqlar ichidagi va davlatlar o'rtasidagi tengsizliklarni hal qilishning axloqiy dilemmasidan o'tishi kerak. Tomas Pogge axloqiy boshqaruv qashshoqlikni davom ettiruvchi va barqaror rivojlanishga to'sqinlik qiluvchi tuzilmaviy adolatsizliklarni tuzatishga qaratilgan bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi[6; P. 112.]. Barqaror rivojlanish resurslar va imkoniyatlarni adolatli taqsimlashni talab qiladi. Davlat boshqaruvchilari iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy maqsadlarni muvozanatlashda turli ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etishlari kerak. Axloqiy dilemmalar ko'pincha quyidagi hollarda yuzaga keladi. Bular sanoat ehtiyojlari va chegaralangan jamoalar o'rtasida suv yoki energiya kabi cheklangan resurslarni taqsimlash, shahar rivojlanishini

qishloqdagi hayotdan ustun qo'yish, tengsizlikni chuqurlashtirish, muammo har doim ham mos kelmasligi mumkin bo'lgan samaradorlik va o'sishni saqlab, adolatga erishishdadir.

4. Korruptsiya va javobgarlik Korruptsiya jamiyatning ishonchini yo'qotadi va barqaror rivojlanish sa'y-harakatlariga to'sqinlik qiladi. Syuzan Rouz-Akerman ta'kidlaganidek, axloqiy davlat boshqaruvi korruptsiyani oldini oladigan va javobgarlikni rag'batlantiradigan institutsional mexanizmlarni yaratishga e'tibor qaratishi kerak[7; P.89.]. Korruptsiya resurslarni yo'naltirish va jamoatchilik ishonchini yo'qotish orqali barqaror rivojlanish sa'y-harakatlariga putur etkazadi. Axloqiy muammolar quyidagi hollarda yuzaga keladi. Davlat amaldorlari shaxsiy yoki siyosiy manfaatlarni jamoaviy manfaatdan ustun qo'yadilar. Zaif boshqaruv tuzilmalari shaffoflik va javobgarlikni ta'minlay olmaydi. Korruptsiya nafaqat barqarorlikka erishishni kechiktiradi, balki tizimli adolatsizliklarni, ayniqsa zaif jamoalarda davom ettiradi.

5. Madaniy relativizm va universal etika. Barqaror rivojlanish tashabbuslari madaniy xilma-xillik va mahalliy qadriyatlarni hisobga olishi kerak. Biroq, bu umuminsoniy tamoyillar (masalan, inson huquqlari, atrof-muhitni muhofaza qilish) va madaniy jihatdan o'ziga xos amaliyotlar o'rtasida axloqiy ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Misol uchun, mahalliy aholining yer huquqlarini milliy rivojlanish maqsadlari bilan muvozanatlash mojarosi. Natija davlat ma'murlari inklyuziv va madaniy jihatdan sezgir siyosatlarini qo'llab-quvvatlash uchun ushbu murakkabliklarni yo'naltirishlari kerak.

6. Antropotsentrizmga qarshi ekotsentrizm. Barqarorlik nutqi ko'pincha antropotsentrik (insonga yo'naltirilgan) nuqtai nazarni ekosentrik (tabiatga yo'naltirilgan) nuqtai nazarga qaratadi. Davlat boshqaruvchilari inson ehtiyojlarini ekologik yaxlitlikdan ustun qo'yishda yoki aksincha, falsafiy dilemmalarga duch kelishadi. Masalan: hukumat yovvoyi tabiatning muhim yashash joylarini yo'q qilish hisobiga aholi punktlarini kengaytirishga ustuvor ahamiyat berishi kerakmi?

Inson farovonligini haqiqatan ham ekologik farovonlikdan ajratish mumkinmi? Bu savollar ushbu istiqbollarni uyg'unlashtiradigan yaxlit yondashuv zarurligini ta'kidlaydi.

Huquqiy va ma'naviy tamoyillarning sintezi

Huquqiy va ma'naviy tamoyillarning integratsiyasi jamiyatda ishonch va qonuniylikni mustahkamlovchi boshqaruvga muvozanatli yondashuvni yaratadi. Ushbu sintez davlat boshqaruvidagi muhim vazifalarni hal qiladi. Huquqiy tizimlar har bir stsenariyni oldindan ko'ra olmaydi. Ma'naviy tamoyillar noaniq vaziyatlarda ma'naviy yo'l-yo'riq ko'rsatish orqali bu bo'shliqlarni to'ldiradi. Masalan, favqulodda vaziyatlar yoki inqirozlar paytida ma'naviy mulohazalar ko'pincha ma'muriy qarorlar haqida ma'lumot beradi.

Adolatni ta'minlash: Huquqiy normalarning o'zi har doim ham adolatni kafolatlay olmaydi, ayniqsa qat'iy qo'llanilganda. Ma'naviy tamoyillar boshqaruvning kengroq ma'naviy qadriyatlariga mos kelishini ta'minlaydi, adolat va adolat masalalarini hal qiladi[8; C.25-41.].

Mas'uliyat va ishonchni oshirish: Davlat boshqaruvi ma'naviy tamoyillarni birlashtirganda, u jamoat manfaatiga xizmat qilish, institutlarga ishonchni oshirish va fuqarolarning faolligini oshirishga sodiqligini namoyish etadi.

Korruptsiya va suiiste'mollikni yumshatish: Huquqiy bazaning o'zi korruptsiyaning oldini olmaydi. Ma'muriy amaliyotda ma'naviy qadriyatlarni o'rnatish halollik va ma'naviy etakchilik madaniyatini rivojlantiradi[9].

Huquqiy va ma'naviy boshqaruvning tarixiy misollari. Magna Carta konstitutsiyaviy boshqaruv uchun asos yaratib, adolat va adolatga bo'lgan ma'naviy majburiyatlar bilan hokimiyatdagi huquqiy cheklovlarning integratsiyasini ramziy qildi. Qullikka barham beruvchi huquqiy islohotlar inson qadr-qimmatini va tengligini targ'ib qiluvchi, qonunlarni shakllantirishda ma'naviy mulohazalar kuchini ko'rsatuvchi ma'naviy tamoyillar asosida amalga oshirildi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948) madaniy va milliy chegaralardan tashqarida bo'lgan asosiy huquqlarni mustahkamlovchi huquqiy va ma'naviy tamoyillarning sintezini aks ettiradi[10; B. 135-137.].

Qiyinchiliklar va imkoniyatlar

Huquqiy va ma'naviy tamoyillarning uyg'unligi ko'plab afzalliklarni taqdim etsa-da, bu qiyinchiliklardan holi emas. Dunyoviy qonunlar va turli ma'naviy an'analar o'rtasidagi ziddiyat ehtimoli katta to'siqni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, ruhiy tamoyillarga haddan tashqari tayanish xavfi ozchiliklar nuqtai nazarini cheklovchi boshqaruv modellariga olib kelishi mumkin. Shunga qaramay, adolat, inklyuzivlik va jamiyat farovonligini mustahkamlash uchun imkoniyatlar juda katta. Ijtimoiy-falsafiy tafakkur tushunchalariga tayanib, davlat boshqaruvi yanada yaxlit va adolatli institutga aylanishi mumkin.

Natijalar.

Axloqiy va falsafiy muammolarni hal qilish.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun davlat boshqaruvchilari quyidagi strategiyalarni qabul qilishlari mumkin:

Axloqiy asoslar: Adolat, oshkoralik va javobgarlik tamoyillari kabi axloqiy me'yorlarni siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishga kiritish.

Inklyuziv boshqaruv: Siyosatlar bir nechta nuqtai nazar va qadriyatlarini aks ettirishini ta'minlash uchun turli manfaatdor tomonlarni, jumladan, marginal guruhlarni jalb qiling. Qaror qabul qilishda rahbarlik qilish uchun davlat boshqaruvida axloqiy me'yorlar o'rnatilishi kerak. Mark Bovens ta'kidlaganidek, davlat amaldorlari uchun axloqiy ta'lim mas'uliyat va halollik madaniyatini rivojlantirishi mumkin[11; P.58.].

Ta'lim va xabardorlik: Davlat boshqaruvchilari o'rtasida axloqiy savodxonlikni targ'ib qilish, barqarorlikning axloqiy va falsafiy jihatlarini chuqurroq tushunishga yordam berish.

Moslashuvchan boshqaruv: Moslashuvchanlik va innovatsiyalarni qabul qiling, bu esa o'zgaruvchan sharoitlar va paydo bo'layotgan bilimlarga javoban siyosatning rivojlanishiga imkon beradi. Moslashuvchanlik va inklyuzivlikni ta'kidlaydigan adaptiv boshqaruv barqaror rivojlanishning dinamik muammolarini hal qilishi mumkin. Elinor Ostromning umumiy hovuz resurslari bo'yicha ishi resurslarni boshqarishda hamkorlikda yondashuvlarning muhimligini ta'kidlaydi[12; P. 125].

Hamkorlikdagi yondashuvlar: mahalliy avtonomiyani hurmat qilgan holda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, global miqyosda izchil va mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan yechimlarni yaratish. Global adolatning falsafiy tamoyillari, Piter Singer tomonidan muhokama qilinganidek, iqlim o'zgarishi va tengsizlik kabi global muammolarni hal qilish uchun jamoaviy harakatlar zarurligini ta'kidlaydi[13; P. 45.].

Xulosa.

Barqaror rivojlanishda davlat boshqaruvining axloqiy va falsafiy muammolari murakkab va serqirradir. Bu qiyinchiliklar raqobatdosh manfaatlar, qiymat to'qnashuvlari va noaniqliklarni sinchkovlik bilan boshqarishni talab qiladi. Axloqiy tamoyillarni birlashtirish,

falsafiy mulohaza yuritishni rivojlantirish hamda inklyuziv va moslashuvchan boshqaruvni qo'llash orqali davlat boshqaruvchilari barqaror kelajakka hissa qo'shishlari mumkin. Ushbu dilemmalarni hal qilish nafaqat ma'naviy, balki barqaror va adolatli jamiyatlarni qurish uchun pragmatik zaruratdir. Barqaror rivojlanishda davlat boshqaruvining axloqiy va falsafiy muammolari boshqaruv amaliyotini axloqiy va falsafiy imperativlarga moslashtiradigan nozik yondashuvni talab qiladi. Avlodlararo adolat, tengsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi muammolarni hal qilish orqali davlat boshqaruvi SDGga erishishda o'zgaruvchan rol o'ynashi mumkin. Bu barqarorlik va tenglik qadriyatlarini aks ettiruvchi axloqiy tamoyillarga, ishtirokchi boshqaruvga va moslashuvchan strategiyalarga sodiqlikni talab qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Waldo, Dwight. *The Administrative State*, Transaction Publishers, 1948, p. 45
2. Rawls, John. *A Theory of Justice*, Harvard University Press, 1971, p. 302
3. Jonas, Hans. *The Imperative of Responsibility*, University of Chicago Press, 1979, p. 38).
4. Weiss, Edith Brown. In *Fairness to Future Generations*, United Nations University Press, 1989, p. 67
5. Sen, Amartya. *Development as Freedom*, Oxford University Press, 1999, p. 245
6. Pogge, Thomas. *World Poverty and Human Rights*, Polity Press, 2002, p. 112
7. (Rose-Ackerman, Susan. *Corruption and Government: Causes, Consequences, and Reform*, Cambridge University Press, 1999, p. 89
8. Малышева, Наталия Александровна. "Принципы легитимации государственной власти. Роль теории правовой финализации в управлении обществом." *НАУКА, ИННОВАЦИИ, ОБРАЗОВАНИЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ И СОВРЕМЕННЫЕ АСПЕКТЫ*. 2022. 25-41.
9. Петренко, Владимир Владимирович. "Нравственные и правовые начала деятельности властных субъектов (теоретико-правовое исследование)." *Саратов.-2009.-[Электронный ресурс].- Режим доступа: <https://www.dissercat.com/content/nravstvennye-i-pravovye-nachala-deyatelnosti-vlastnykhsubektov> (2009).*
10. Sarvinoz, Tursunboyeva. "INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLARATSIYASINING AHAMIYATI." *TADQIQOTLAR. UZ* 52.1 (2024): 135-137.
11. Bovens, Mark. *Public Accountability: A Framework for the Analysis and Assessment of Accountability Arrangements in the Public Domain*, Oxford University Press, 2007, p. 58
12. Ostrom, Elinor. *Governing the Commons*, Cambridge University Press, 1990, p. 125
13. Singer, Peter. *One World: The Ethics of Globalization*, Yale University Press, 2002, p. 45

Received: 10 March 2025

Accepted: 15 March 2025

Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

HARMONY OF SOCIETY, HUMAN AND NATURE RELATIONS IN NEW UZBEKISTAN

Abdumalikov Abdulatif Abidjanovich

Associate Professor of Fergana State University,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences

Juraboyeva Dilmura Mamatyusupovna

Primary Education Teacher,
Kushtepa District Secondary School No. 40, Fergana Region

Abstract. This article examines the issues of environmental education and upbringing within the framework of the Development Strategy of the Republic of Uzbekistan for 2022–2026. It analyzes the process of forming ecological awareness and worldview as a key factor in ensuring harmony between humans, society, and nature. The study highlights aspects of environmental education related to human thinking, spirituality, and culture, as well as its significance in addressing global environmental issues. The article explores the integration of the education and upbringing system to maintain ecological balance, ensure sustainable development, and enhance environmental culture.

Keywords: system of nature and society relations, social responsibility, ecological culture, civil society, environmentally conscious activity, environmental problems, rationality, ecological awareness, social ecology.

YANGI O‘ZBEKISTONDA JAMIYAT, INSON VA TABIAT MUNOSABATLARINING UYG‘UNLIGI

Abdumalikov Abdulatif Abidjanovich

Farg‘ona davlat universiteti dotsenti,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Juraboyeva Dilmura Mamatyusupovna

Fargona viloyati Kushtepa tumani 40-umumiy urta talim maktabi
Boshlangich talim o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasini 2022–2026-yillarda rivojlantirish bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan ekologik ta‘lim-tarbiya masalalari tahlil qilinadi. Inson, jamiyat va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta‘minlashning muhim omili sifatida ekologik ong va dunyoqarashni shakllantirish jarayonlari yoritiladi. Ekologik ta‘lim-tarbiyaning inson tafakkuri, ma‘naviyati va madaniyati bilan bog‘liq jihatlari, shuningdek, uning global ekologik muammolarni hal etishdagi ahamiyati ochib beriladi. Maqolada ekologik muvozanatni saqlash va barqaror rivojlanishni ta‘minlashda ta‘lim-tarbiya tizimining integratsiyalashuvi hamda ekologik madaniyatni yuksaltirish yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: tabiat va jamiyat munosabatlari tizimi, ijtimoiy mas‘uliyat ekologik madaniyat, fuqarolik jamiyati, ekologik ongli faoliyat, ekologik muammolar, oqilonalik, ekologik ong, ijtimoiy ekologiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N21>

Kirish. O‘zbekiston Respublikasini 2022 – 2026-yillarda rivojlantirish bo‘yicha taraqqiyot strategiyasida olib borilayotgan demokratik islohotlar samarasini yanada oshirish,

davlat va jamiyatning jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar jamiyatning yangi bosqichidagi muhim taraqqiyoti mezon ijtimoiy ongning jamiyat a'zolarida darajada shakllanganligidir. Zero, ijtimoiy ong jamiyat hayotidagi barqaror yuksalish va mavsumiy tanazzullarning asosiy manbaidir. Shu jihatdan, jamiyat taraqqiyoti haqidagi futurologik tasavvurlarni jamiyat a'zolarida shakllangan ijtimoiy ong darajasiz tasavvur qilish mumkin emas.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida inson, tabiat va jamiyat munosabatlari uyg'unligini ta'minlash Bugungi kunda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish eng dolzarb muammolardan global biridir. Inson tabiatni muhofaza qilishga yo'naltirilgan madaniy, ma'naviy va ma'rifiy omillarning o'rni ahamiyati ham ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Albatta, bizning mamlakatimizda, balki butun dunyoda bu kabi ijtimoiy hodisalarga jiddiy e'tibor berilayotganligi har bir shaxsda ong va ekologik ekologik dunyoqarashni shakllantirish, uni boyitib borish va an'anaviy jamiyatni, balki yangi O'zbekistonni bunyodkorlari intellektual salohiyatiga, jamiyat va tabiat hodisalariga sog'lom tafakkur asosida munosabatda bo'lishiga bevosita bog'liqdir. Ana shu nuqtai nazarga asoslanadigan bo'lsak, umuman ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarini, xususan inson ekologik ongi va dunyoqarashini zamon talablari darajasida rivojlantirish, insoniyat sivilizatsiyasi kelajagini ta'minlashning muhim sharti ekanligi anglab yetilmoqda.

Materiallar va metodlar. Binobarin, inson o'zining eng avvalo ongi tafakkuri va ma'naviyati bilan boshqa jonzotlardan ajralib turardi. Ana shu ma'naviyatni shakllantiruvchi asoslardan biri – insonning tabiatga munosabati, ekologik bilimi, madaniyati hisoblanadi. Bu tushunchalar avloddan avlodga faqat ilm-ma'rifat, amaliy faoliyat va hayotiy tajriba orqali o'tib boradi. Xar bir insonni ma'naviy madaniyati tizimida ekologik dunyoqarashning shakllanishi mental xarakterga egadir. Bugungi kunda individuallik ijtimoiyliksiz ma'naviy madaniyatning o'ziga xos tarkibiy qismi bo'lgan ekologik dunyoqarashda ham to'la o'z aksini topa olmaydi. Albatta shunga ko'ra inson, tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning uyg'unligini ta'minlashdagi individuallik va ijtimoiylik xususiyatlariga ma'rifiy omillar asosida yondashish, ta'lim-tarbiyada shu tamoyil ustuvorligini ta'minlash muhim.

Insoniyatning uzoq ijtimoiy-madaniy hayoti tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, milliy manfaatlarni shakllantirishi va ularni umuminsoniy manfaatlarga uyg'unlashtirishida ma'naviy-axloqiy ta'lim-tarbiya tizimi asosiy rol o'ynaganligi ko'zga tashlanadi. Hozirgi davrga kelib esa, ta'lim-tarbiya sohalarining integratsiyalashishi yangi sifat darajalarida – ekologiyalashuvida namoyon bo'lmoqda. Xususan, XX asrning ikkinchi yarimidan boshlab, ekologik muammolar globallashuvi bilan, "inson tomonidan biosferaga ko'rsatilayotgan ta'sirni tartibga solish, ijtimoiy taraqqiyot bilan qulay muhitni saqlab qolishning o'zaro ta'sirini uyg'unlashtirish, inson va tabiatning o'zaro munosabatlarida muvozanatga erishish muammolari borgan sari dolzarb bo'lib qolmoqda"[2].

Shunday muammolarni hal qilish zaruriyati ta'lim-tarbiyaning turli sohalarini ekologik global manfaatlarni shakllantirish ehtiyojlari doirasida mushtaraklashtirishni taqozo qilmoqda. Ayniqsa, sayyoramizdagi ekologik vaziyatning keskinlashib va globallashib ketishi ijtimoiy hayotning butun ma'naviy, madaniy, ma'rifiy institutsional strukturasini yangicha talablar asosida tashkil qilish ehtiyojlarini yuzaga keltirdi. Bunda ekologik ta'lim-tarbiya g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki insoniyat hayotidagi keyingi asrlarda ro'y bergan ulkan

ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, fan taraqqiyoti, texnik-texnologik imkoniyatlarning beqiyos o'sishi: "inson va tabiat", "jamiyat va tabiat" munosabatlarida jiddiy ziddiyatlarni vujudga keltirdi[9]. Oqibatda biosfera evolyutsion rivojlanishida ekologik muvozanat buzilishi natijasida insoniyat sivilizatsiyasi yutuqlari, uning istiqbollari katta xavf ostida qoldi.

Muhokama va natijalar. Bugungi kunga kelib bu kabi murakkab muammolarni hal etishda ekologik ta'lim-tarbiyaning roli tobora oshib bormoqda. Zero, ekologik ta'lim-tarbiya inson ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatining salbiy oqibatlarini bartaraf etib, "tabiat-jamiyat-inson" majmuasi koevolyutsiyasi va barqaror taraqqiyotni ta'minlashga, insonning tabiat boyliklariga ongli munosabatini, tabiiy atrof muhit muhofazasiga nisbatan mas'uliyatni shakllantirishga qaratilgan. Yanada konkretlashtirib aytganda, ekologik ta'lim-tarbiyaning pirovard maqsadi – global ekologik inqirozlarning: ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, ruhiy va boshqa oqibatlarini bartaraf qilish, inson va tabiat munosabatlarini biosfera ekologik muvozanati talablari asosida tashkil etib, ijtimoiy-ma'naviy hayot taraqqiyotini, insoniyat sivilizatsiyasi kelajagini ta'minlashdir.

Shuning uchun ham ekologik ta'lim-tarbiya tizimi, ***bir tomondan***, jamiyat moddiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, fan-texnika rivojini real voqelik talablaridan, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirish, ***ikkinchi tomondan***, insoniyat tabiiy yashash sharoitlarini yaxshilash imkoniyatlarini kengaytirishning muhim sharti bo'lib qolmoqda. Zero, ekologik ta'lim-tarbiya o'z mazmun-mohiyatiga va funksiyasiga ko'ra, barcha madaniyat yo'nalishlarini global ekologik manfaatlar doirasida integratsiyalashtirish imkoniyatiga ega.

Garchi, individuallik ijtimoiylikning mahsuli tarzida yuzaga kelsa-da, shaxsning ekologik ehtiyoji va manfaatlari individuallikning o'ziga xos jihatlariga ega ekanligini anglatadi. Shunga qaramay individlarning tabiat ne'matlariga bo'lgan ehtiyoji va manfaatlari tutashadigan nuqtada ekologik faoliyat, demakki (ekologik dunyoqarash va madaniyat) ijtimoiy xarakter kasb etadi. Shaxsda ekologik dunyoqarashni shakllantirishga ehtiyoj individuallik va ijtimoiylikni o'zaro aloqasi hamda ta'siri asosida tarkib topadi. Sobiq mustabid tuzumning shaxs bilan bog'liq muammolari yechimidagi eng katta xatolik ham uning tabiatga bo'lgan individual ehtiyojlarining ijtimoiy asoslarini hisobga olmasligi bilan bog'liq.

Buning boisi, fikrimizcha, quyidagi muammolarni yillar davomida hal etilmay kelinganligidadir:

- sobiq ittifoq davrida tabiat ne'matlaridan ayovsizlarcha, oqibatini o'ylamay foydalanishga ruju qo'yilganligi, paxta monokulturasi ta'sirida yerlarni o'zlashtirish, qo'shimcha yerlar ochish siyosati tufayli sug'oriladigan yer va suv resurslarining keskin kamayib ketganligi;

- kishilarimizda xalqimizning azaliy qadriyati hisoblangan tabiatga mehr-muhabbatning milliy mentalitetimiz fazilatlarini bilan uyg'un tomonlari e'tiborga olinmaganligi;

- ajdodlarimizning urf-odatlarini, tabiatni asrashga doir an'ana va udumlariga eskilik sarqiti sifatida qaralganligi;

- ekologik bilim, ko'nikma va malakalarni ma'rifiy asoslariga e'tiborning sustligi;

- sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida mahsulot yaratish atrof-muhit sofligini saqlash, kishilarning salomatligi, hayotiy manfaatlarini hisobga olishdan ko'ra ustuvorligi;

- ekologik dunyoqarashni boyitishga xizmat qiladigan ta'lim yo'nalishlari, targ'ibot ishlariga deyarli e'tibor berilmaganligi kabi sabablar bilan bog'liq[9].

Mustaqillik yillarida ana shu yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha qator chora-tadbirlar, jiddiy yondashuvlar, tabiatni muhofaza qilishni kuchaytirishga doir qonunlar, me'yoriy hujjatlar, hukumat qarorlari qabul qilindi. Jumladan, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunda tabiatni asrashning qonuniy asoslari mustahkamlandi. Qonunning "Umumiy qoidalar" deb nomlangan bo'limning 3-moddasida tabiatni muhofaza qilish maqsadi asoslanib, quyidagilar ta'kidlangan:

- inson salomatligi, ekologik muvozanatni saqlash uchun, respublikani samarali va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish manfaatlari yo'lida tabiatdan oqilona va uni ishdan chiqarmaydigan qilib foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- inson tabiatni turlari va genetik fondi boyligini saqlash;
- ekologik tizimlar, landshaftlar va noyob tabiat obyektlari xilma-xilligini saqlab qolish;
- ekologik xavfsizlikni ta'minlash;
- tabiat obyektlari bilan bog'liq ma'naviy merosni asrab qolish[3].

Agar e'tibor berilsa, qonunda ekologik holatni tartibga solishda ma'naviy meros masalasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Demak, eng avvalo kishilarda ekologik madaniyatni shakllantirish, yoshlarni atrof-muhitga oqilona munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash uchun dunyoqarashning asoslaridan biri bo'lgan tabiat haqidagi bilim va ma'rifatni ular ruhiyatiga singdirish bilan birga ana shu ma'rifatning zaminiga ma'naviy meros va axloqiy qadriyatlarni qo'yish g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Ekologik ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi insonni tabiat bilan va unda sodir bo'layotgan voqealar bilan qiziqtirish, inson va tabiat o'rtasidagi muammolarning kelib chiqish sabablarini tushuntirish, ularni yechish yo'llari, chora-tadbirlarini topish uchun yetarli ekologik bilimlarga ega bo'lgan avlodni tarkib toptirgan holda atrof-muhit muhofazasini amalga oshirishdir. Ekologik ta'lim-tarbiyaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- jamiyat va tabiatning rivojlanish qonunlari, ular o'rtasidagi munosabatlarni chuqur o'rgatish va shu asosda zamonaviy fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalash;
- ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirish va ishlab chiqarish kuchlarini yo'naltirishda turli tabiiy hududlarning ekologik holatini biladigan va kelajakning ekologik rejasini tuzadigan avlodni tarbiyalash;
- har bir inson, jamiyat va jamiyat ichidagi turli guruhlar, toifalar, sinflarning o'zlari yashab turgan tabiat, uning boyliklarini saqlashga xizmat qiladigan yoshlarni yetishtirish;
- jamiyat a'zolariga o'zlarining ijtimoiy, madaniy, diniy qarashlari va urf-odatlarini bajarishda yashab turgan joy, vodiy, adirlar, tog'larning go'zalligi, ularning inson hayoti va salomatligidagi ahamiyatini tushuntirish, yosh avlodni tabiatga nisbatan mehr-muhabbat uyg'otish ishlarini olib borishdir.

Xulosa. Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda bog'cha tarbiyachilari, maktab va o'quv yurtlari o'qituvchilari ta'lim berilayotgan o'quv predmetlarini tushuntirishda imkon qadar qiziqarli interfaol ta'lim usullaridan, turli o'yinlardan, kinofilmlardan faol foydalanishlari orqali o'zlari yashab turgan tabiiy voqelik va ekologik holatlarga bog'lab, ta'lim-tarbiya ishlarini olib borishi kerak[4].

Yoshlarni ona Vatanga muhabbat, uning tabiat in'omlaridan oqilona foydalanish, atrof-muhitni ko'z qorachig'idek saqlash ruhida tarbiyalash — amalga oshirilayotgan islohotlarning eng muhim qismiga aylanishi lozimdir. Afsuski, respublikamiz oliygohlari o'quv rejalarida ekologik fanlarga ajratilgan soatlar hajmini yetarli deb bo'lmaydi. Buning ustiga ayrim

oliygohlarda ilgari o'qitilgan "Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti" fani yangi o'quv rejasidan olib tashlangan. O'zbekistonda ekologik keskinlikning jiddiyligini inobatga olib, iqtisodiy oliygohlar va iqtisodiy fakultetlar o'quv rejalarida «Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti» fanini tiklash hamda «Iqtisodiy va sotsial ekologiya» fanlarini o'qitish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bundan tashqari, injener-ekolog, ximik-ekolog, biolog-ekolog mutaxassislar bilan birgalikda iqtisodchi-ekolog yoki menejer-ekolog mutaxassislarini tayyorlash vaqti allaqachon kelgan[10]. Yoshlarning ekologik bilimlarini kengaytirish, ularga bu yo'nalishda turli-tuman zamonaviy bilimlar berish ularning ekologik dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Buning uchun faqat ta'lim tizimiga suyanib qolmay, bunday bilimlar olishning boshqa vositalariga, jumladan matbuot sahifalari orqali ekologik ma'lumotlar berishga yetarli e'tibor berilishi kerak. Vaqti-vaqti bilan mamlakatimizning shaharlari, sanoat korxonalarini, atmosfera havosi, suv manbalari, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosi holatini, ularga yetkaziladigan zararlarni ma'lum darajada aks ettirayotgan ekologik ma'lumotlarni e'lon qilib turadigan byulletenga o'xshash maxsus manbalar nashr etilsa ayni muddao bo'lar edi. Bunday ma'lumotlar yoshlarga, barcha aholiga u yoki bu hududda ekologik holat qay tarzda o'zgarib borayotganini bildirib, ayrim korxonalar rahbarlari va mutasaddi rahbarlarni atrof-muhitga keltirayotgan zarari to'g'risida ma'lum xulosa chiqarishga chaqirgan bo'lardi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida» gi Farmoni. <http://lex.uz>.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XX1 asr bo'sag'asida: xavfsizlikka ta'kid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T: O'zbekiston 1997. 114-bet.
3. Ergashev A., Ergashev T. Ekologiya, bisfera va tabiatni muhofaza qilish. T.: "Yangi avlod asri", 2005, 408-409-betlar.
4. Vikipediya. Самые экологические чистые страны мира. Shveysarskiy konsaltingovyy sentr. <https://www.education-medelle.com>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 4-oktyabr, PQ-4477-son Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turmanistonning Turkmanboshi shahrida bo'lib o'tgan Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlar rahbarlari kengashining majlisidagi nutqi. Xalq so'zi gazetasi, 2018-yil 25-avgust, № 173 (7131).
7. O'zR Maktabgacha ta'lim vazirligi (MTV) hamda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining 2019-yil 6-avgustda «Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirish chora-tadbirlari» bo'yicha 7/1 va 6-sonli qo'shma qarori.
8. Sivilizatsiya. Ekologiya. Chelovek. – Tashkent, 1998. S. 21–23.
9. Nasrullin A., Lesnik A. Aralskoye more: gidromonitoring basseyna // Ekologicheskiy vestnik. – 1999. – № 4. S. 11.
10. Munavvarov Z. Yangi O'zbekistonning dunyo hamjamiyatiga murojaati // Yangi O'zbekiston. – 2020. – 25-sentyabr
11. Muxammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. – T.: Hilol nashr. 2021. – 504 s.

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI - PHILOLOGICAL SCIENCES

Received: 10 March 2025

Accepted: 15 March 2025

Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

**TRANSLATION FEATURES OF TAX AND CUSTOMS TERMS
IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES**

Akhmedov Oybek Saporbayevich

Doctor of Science in philology (DSc),
professor of UzSWLU

Abstract. This article comprehensively discusses the problems of the translation of tax and customs terms in English and Uzbek Languages. It also discusses adequate translation methods to avoid incorrect translation of lexical units related to the field. As well as archaic lexical units found in literary and memoir works related to tax and customs are also comprehensively analyzed in this article.

Keywords: translation, adequate translation methods, term, terminology, terminological unit, lexical unit, literary work, alternation, semantic analysis.

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI SOLIQ-BOJXONA TERMINLARINING TARJIMA
QILISH XUSUSIYATLARI**

Axmedov Oybek Saporbayevich

Filologiya fanlari doktori,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi soliq va bojxona terminlarining tarjimadagi muammolari atroflicha yoritilgan. Shuningdek, sohaga oid leksik birliklarni noto'g'ri tarjima qilmaslik uchun adekvat tarjima qilish usullari xususida so'z yuritiladi. Soliq va bojxona sohasiga oid badiiy va memuar asarlarda uchrovchi arxaik leksik birliklar ham ushbu maqolada atroflicha tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: tarjima, adekvat tarjima usullari, termin, terminologiya, terminologik birlik, leksik birlik, badiiy asar, muqobillik, semantik tahlil.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N22>

Tarjima qilish jarayonida asl tildagi har bir so'zni yoxud termini o'z o'rnida to'g'ri qo'llash va ularning funksional muqobilligini adekvat shaklda ta'minlash tarjimondan katta mahorat talab etadi. So'z va terminlarning eng optimalini tanlashda matniy holat nuqtai nazaridangina emas, balki ularni leksik-semantik, grammatik, stilistik jihatdan muvofiqlashtirish tarjimada muhim ahamiyatga egadir. Tarjima qilinayotgan asl tildagi so'zlarning qo'llanishiga ko'ra ularda mujassam bo'lgan turli ma'no qirralari ham tarjimada o'z o'rnini topmog'i lozim.

Taniqli tarjimashunos G.Salomov: "Tillardan-tillarga tarjima qilish mumkinligini asoslaydigan narsa shuki, jahon xalqlari garchi turli-tuman tillarda so'zlashsalar ham, ammo ularning tafakkur qonunlari bir xildir" — deb yozgan edi [1; 43-b.].

Terminlarning tarjimadagi aniqligi oʻta muhim va zaruriy shart hisoblanib, sohaga oid butun matnning tarjima adekvatligini taʼminlashga xizmat qiladi.

Tarjima jarayoni oʻz xususiyatlariga koʻra qiyosiy tipologiyaga oʻxshaydi, yaʼni bunda tarjimon boshqa biror tilda ifoda etishning yangi shakllarini qidiradi, chunki “tarjima oʻsha maʼnoning aynan oʻzini saqlagan holda boshqa tilda qayta yaratish demakdir” [2; 81-b.]. Bu fikrning toʻgʻri ekanligini tasdiqlagan A. Foster oʻz fikrini shunday izohlaydi. “Tarjima jarayoni biror matnning, matndagi til birliklarining maʼlum mazmunini bir tildan boshqa tilga toʻgʻri transferensiyalash (agʻdarish) dir” — desa [3; 123-b.], J. Ellis ham ushbu fikrni maʼqullagan holda: “tarjima bir tilda bayon etilgan fikrning ikkinchi tildagi ifodasi” deb taʼkidlaydi [4; 156-b.].

V.N. Komissarov: “Lingvistik tarjima nazariyasining vazifasi tarjima jarayonining obyekt tizimi tarkibini aniqlash, shu asosda tarjima amaliyoti uchun zarur boʻlgan umumiy qonuniyatlarni aniqlashdan iboratdir”, -deb taʼkidlagan [5; 13-b.] boʻlsa, F.A. Tsitkina qiyosiy terminologiyaning obyekt sifatida turli tillarga oid terminologik juftliklar va umuman, terminologik tizimlarni koʻrsatib, “Uning predmet manbasi tarjima qilinayotgan til terminlari oʻrtasidagi leksik-semantik xususiyatlar qatorida grammatik sathdagi oʻxshash va farqli tomonlar qonuniyatlari terminlar tarjimasining tamoyili,” - ekanini taʼkidlaydi [6; 96 — 98-b.].

L.S. Barxudarov taʼrificha: “Tarjima bir tildagi nutqiy faoliyat (matn)ning oʻzgarmas mazmunini saqlagan holda ikkinchi tildagi nutq faoliyati (matn)ga aylantirish jarayoni” ekanligini qayd etadi [7; 38-b.].

Yuqoridagi fikr va qarashlardan anglashiladiki, tarjima jarayonida tarjimonning asosiy vazifasi ikki tilga xos teng (adekvat) til vositalarining umumiy va xususiy belgilari hamda bogʻlanishlarini ifodalovchi kategoriyalarni ziyraklik bilan aniqlay olishi, keng va tor qamrovdagi leksik-semantik, grammatik, stilistik maʼnolarni ajrata bilishi, bir tildagi maʼlum maʼnoning ifoda shaklidan qatʼi nazar boshqa tilda, til meʼyorlarini saqlagan holda toʻgʻri tarjima qilishni taʼminlashdan iborat.

S.I. Ibrohimov hozirgi adabiy tilimizning yozma va ogʻzaki shaklidan foydalanish jarayoni haqida fikr yuritar ekan, “Tilning qariyb hamma sathlarida adabiy til meʼyorlaridan belgili darajada chetga chiqish: grammatik, stilistik, imlo va orfoepik, shular qatorida leksik-semantik qoidalarga eʼtiborsizlik davom etayotgani, nutq madaniyatimizga va uning rivojiga salbiy taʼsir etmoqda” – deb taʼkidlagan edi [8; 19-b.]. Bizningcha, bildirilgan fikrlar terminlar tarjimasiga ham toʻla daxldor. Terminlar sofligi tarjima tili madaniyati saviyasining yuksak darajada boʻlishini, mavjud semantik tarjima nazariyasi qoidalaridan, leksik-semantik vositalardan toʻgʻri va oʻrinli foydalanishni taqozo etadi. Zero, tarjima murakkab analitik, integrativ va kreativ jarayondir.

Bugungi kunda tarjima muammolarini lingvistik tadqiq qilish sifat jihatdan yangi bosqichga qadam qoʻydi. Tarjima jarayonida ikki til birliklarining moddiy uygʻunligini emas, balki funksional-semantik monandlikni yuzaga keltirishga harakat qilish tarjimondan hamisha toʻlaqonli ijodiy mehnatni talab qiladi.

Bugungi kunda aksariyat kishilar u yoki bu shaklda muayyan sohaga tegishli matnlar bilan ishlash jarayonida sohaga oid terminlarni toʻgʻri tushunish va toʻgʻri tarjima qilish bilan bogʻliq koʻplab qiyinchiliklar duch kelmoqda. Bu esa, oʻz navbatida, kishidan terminologiya yoʻnalishi boʻyicha maxsus bilimlarni puxta egallashi va oʻzlashtirishi kerakligidan dalolat beradi.

Masalan, ayni paytda iqtisodiyot leksikasida determinologizatsiya hodisasiga uchragan *compensation* termini ingliz tilidan rus tiliga, rus tili orqali o'zbek tiliga o'zlashgan bo'lib, rus tilida "kompensatsiya" o'zbek tilida *badal, to'lov, tiklash, zarar o'rnini to'ldirish, qoplash (moq), pul mukofoti, in'om (tortiq)* leksik birliklari yordamida ifoda etilmoqda.

Ingliz tilida mavjud bo'lgan leksemalarning o'zbek tili soliq va bojxona leksikasida ham ko'p uchrayotganligi, ayrim terminlarni bir nechta qo'shimcha ma'noga egaligi, ular anglatayotgan ma'nolarning boshqa terminologik tizimlarga mansubligi, shuningdek, terminlarda reterminlashuv hodisasini ham kuzatilayotgani asl til matnining tuzilishi va uning ma'nosini anglashda tarjimonga muayyan qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Shu bilan bir qatorda, terminlarning semantik ma'no qatlamlariga yetarlicha ahamiyat bermaslik terminlar tarjimasining semantik-funksional nazariyasi qonun-qoidalariga zid keladigan noto'g'ri tarjimaga yo'l ochadi. Chunki, terminologik tizim doirasida amal qiluvchi shunday terminlar mavjudki, qo'llanish darajasiga ko'ra semantik ma'no ko'chish xususiyatiga ega. Holbuki, umumadabiy tilga oid leksemalar termin sifatida qo'llanilganda bir ma'nolik xususiyatini o'zida aks ettirsa, ayrim so'zlar o'z semantik ko'lami va ma'no tarqalish miqyosi bilan ajralib turadi.

Tilshunoslik sohasida izohli lug'atlar ustida ishlovchi leksikograflar odatda terminga birinchi navbatda so'z sifatida qarab, uni umumiy lisoniy belgilarini hisobga olgan holda izohlaydilar. Bu jarayonda terminning soha mutaxassisi tomonidan izohlangan barcha belgilari emas, uning eng muhim, eng asosiy bir-ikki belgisigina aks ettiriladi. L.V. Malaxovskiy to'g'ri ta'kidlaganidek, "Terminlar berilishida sohaga oid terminologik birliklarning leksik-semantik xususiyatlarini qamrab olishi, sohaga oid qanday tushuncha, ma'no-mazmun kasb etishini mantiqan talqin etish maqsadga muvofiq" [9; 226-b.].

Anglashiladiki, tarjima asnosida muayyan termin yoki so'z birikmasining soliq-bojxona amaliyotida qanday ma'no va mazmun kasb etishi ko'proq e'tiborga olinmog'i lozim. Aks holda qator semantik g'alizlik va noaniqliklar, funksional nomuvofiqliklar kelib chiqishi mumkin.

Terminlarni ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida leksik-ma'noni saqlagan SB¹ terminlarini yozma va og'zaki nutqda «kal'ka» usulida tarjima qilish mumkin. Biroq ayrim leksemalarning ma'nolari tarkibida aks etgan, leksik ma'nolari bilan o'zaro bog'lanmaydigan, ular asosida izohlanmaydigan terminlar ham uchraydi. Ular tarjimada xuddi stilistik yoxud frazeologik birliklarga o'xshab ketadi. Ma'no ko'lami keng bo'lgan leksemalar SB amaliyotida qo'llanganda ma'no torayishi hodisasi yuz berishi kuzatiladi. Har ikkala holat natijasida ham tarjimon maxsus izohli lug'atlarga ehtiyoj sezadi. Afsuski, tarjima amaliyotida foydalanish uchun SB terminlarining leksik-semantik, funksional-struktura xususiyatlarini qamrab oluvchi ikki tilli (inglizcha – o'zbekcha, o'zbekcha — inglizcha) lug'atlar hanuzgacha yaratilgan emas.

Bugungi kunda sohaga oid adabiyot, hujjat va kodekslarda yoxud lug'atlardagina emas, balki ajdodlarimiz tomonidan yozilgan ilmiy, tarixiy va badiiy asarlarning chet tillar, xususan, ingliz tiliga o'girilgan nusxalarida ham SB terminlarini uchratish mumkin. O'z davrida haqiqiy solnoma hisoblangan, hozirgi kunga kelib ham o'zining ilmiy-adabiy qimmatini yo'qotmagan Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" qomusiy asari bir qator tarjimonlar tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan. Jumladan, Jon Leydn (1826), F.G. Talbot (1909), Uilyam Erskin, Annetta Syuzanna Bevidj (1921) lar shular jumlasidan. "Boburnoma"ni Uiler Tekston va Salman Rujdi tomonidan ingliz tiliga qilingan tarjimasida qo'llanilgan soliq terminlarini asl tilda berilgan terminlarga muvofiqligini qiyoslab ko'ramiz:

¹Maqolada SB qisqartmasi "soliq va bojxona" ma'nosida qo'llanildi.

“Shu joydin ekanimizda Dehlining bu tarafida turgan Sulton Ibrohimning u yerdin chiqib oldinga qarab jo’nagani va Hisori Firuza **shiqdori** Hamidxoniy Xossaxayliy Hisori Firuza va o’sha yerdagi lashkari bilan Hisori Firuzadin bu tomonga qarab o’n-o’n besh kuro’h berida kelayotgani haqida xabar oldik” [10; 196-b.].

Tarjimada: “At camp we received news that Sultan Ibrahim, who was on this side of Delhi, was move in this direction. The **provost** of Hissar Firoza, Hamid Khan Khassa-Khel, had come out ten to fifteen kos near us with the royal cavalry and the troops of Hissar Firoza and that region” [11; 321-b.].

Boshqa bir misol: “Shu joydin oyning o’n sakkizinchisida, dushanba kechasi Tohirni Ograga yubordik. Qobuldin kelayotganlarning mehmondorchiligi uchun sarflanadigan pullarning **barotini** olib ketdi” [10; 268-b.].

Tarjimasi: “From that camp was sent to Agra on the eve of Monday the eighteenth (March-28). He took **chit** for money for lodging customarily allowed those coming from Kabul and left” [11; 441-b.].

Yuqorida keltirilgan eski o’zbek tili va inglizcha jumalardagi **shiqdor** — **provost** termini hozirgi o’zbek adabiy tilida mavjud bo’lgan *solliq yig’uvchi*, *solliqchi* terminining muqobili sifatida qo’llangan. Ammo, inglizcha *provost* leksemasi *harbiy mirshab* ma’nosini aks ettirgani uchun *solliqchi* yoki *solliq noziri* terminlarining to’liq muqobili hisoblanmaydi.

Provost¹ leksemasi bugungi kunda adabiy ingliz tili va uning dialektlarida, ko’pchilik adabiyotlarda, lug’atlarda, hatto jonli muloqot jarayonida ko’p uchraydi va u yuqorida ko’rsatilgan ma’nosidagina emas, balki ko’p ma’nolilik funksiyasini ham bajaradi. Jumladan, sintaktik usulda yasalgan ikki va undan ortiq komponentdan iborat bo’lgan, so’zlashuv nutqda qo’llanadigan birikmalari (*provost guard – maxsus xizmat vazifalarini bajaruvchi kishilar*, *provost court – harbiy sud*, *provost prison – harbiy qamoqxona*, *provost corps – harbiy jandarma*, *constabulary provost marshal – harbiy politsiya boshlig’i*) mavjud. **Provost** termini ingliz tilida quyidagi ma’nolarni ifodalab keladi. **Provost** – 1) *harbiy politsiya, mirshab*; 2) *harbiy boshliq, komandir (gornizon boshlig’i)*; 3) *bosh ruhoniy*; 4) *o’quv yurti boshlig’i (maktab va kollejda)*; 5) *rektor (Angliyada), prorektor (AQSHda)*; 6) *mer (Shotlandiyada)*; 7) *provost, dekan (Kanadada)*; 8) *korporatsiya raisi* va b. Mazkur terminning matnda qo’llanish holatini ko’rib chiqamiz.

The provost – marshal and his men tore us apart when last we met. – Harbiy politsiya boshlig’i va uning odamlari bizning so’nggi uchrashuvimizda ajratib yubordi.

...and most Provost Marshals are colonels themselves. – Aksariyat harbiy politsiya boshliqlari polkovnikdir.

I lodge [up] two pair of stairs, have but one room, and deny myself to everybody almost, yet I cannot be quiet and all my mornings are lost with people, who will not take answers below stairs, such as Dilly, and the Bishop, and Provost, etc – Men hozir ikkinchi qavatda, bir xonali kvartirada yashayman va deyarli hech kimni qabul qilmayman, vaholanki, mening xizmatkorlarimning rad

¹Provost terminining talaffuzi va etimologik derivatsiyasi quyidagicha. [ˈprɒvəst] brit, [prɒvəst, prɒvəust] [ˈprɒvəst] amer. Derivatives: provostship, (pro-vost-ship) noun Origin: late Old English *profost* “head of a chapter, prior”, reinforced in Middle English by Anglo-Norman French *provost*, from medieval Latin *propositus*, synonym of Latin *praepositus* ‘head, chief’ (see: praepostor).

javobiga e'tibor bermagan Dilli, **arxierey, rektor** kabi boshqa kishilar sababli ertalabki vaqtim behuda o'tib, halovatim buzilmoqda¹.

Shuningdek, *barot – chit* termini ham o'sha davrda soliq va bojdan ozod qilish haqida hukmdorlar tomonidan beriladigan *maxsus hujjat*ga muayyan darajada muqobil bo'lsa-da, tarjimon mazkur so'zlarni ingliz tilida mavjud bo'lgan maxsus termin orqali emas, balki umumadabiy leksikada qo'llanishda bo'lgan leksema bilan bergan.

Endi quyidagi inglizcha jumlagi e'tibor beramiz:

*On Wednesday, at Barikao, one of Nur Beg's younger brothers brought twenty thousand shahrulkhis worth of gold, ashrafis and **tankas**, which Khiwaja Husayn the divan had forwarded from the Lahor **revenues**. Most of it was sent for the **benefit** of Balkh by Mulla Ahmad, one of the lords of Balkh [11; 309-b.].*

Tarjimonning matndagi *tanga* so'zining ingliz tilida *tankas* muqobil leksemasi orqali bergani uni tarjima adekvatligidan uzoqlashganidan dalolat beradi. Holbuki, inglizcha *tankas* so'zi yapon xalqining mumtoz janridagi qisqa satrdan iborat bo'lgan "*she'riy misra*" ma'nosini ifodalaydi. U hind tilida "*og'irlik o'lchov birligi*"ni ifodalasa-da, *tanga* so'zining ma'nosiga mutlaqo muqobil bo'la olmaydi. Ushbu inglizcha matnda *revenue* va *benefit* terminlari ham ishlatilgan. "*Tushgan pul, tushum, kirim, daromad*" ma'nolarini o'zida ifoda etuvchi *revenue* termini o'z o'rnida qo'llanilgan. Biroq, *maslahat, kengash* so'zlarining tarjimasi uchun *benefit* termini tarjimon tomonidan noo'rin tanlanganini e'tirof etish joiz. Binobarin, *benefit* so'zi "*manfaat, foyda, afzallik, yengillik, imtiyoz*" kabi semantik qurshovga ega bo'lgan leksema ekanligi bilan izohlanadi. Bizningcha, ushbu o'rinda, *consistory* terminini ishlatish maqbuldir.

SB sohasiga oid o'zlashma terminlarning inglizcha muqobillarini quyidagi shaklda berilgani ma'qul: *tamg'a² (t.) – sales tax (duty), boj (f.) – duty (levy), sarshumar (f.) – poll tax, ulog' (t.) – mail tax, peshkash (f.) – gift tax, begar (f. – 12 kunlik majburiy davlat mehnati) – labour duty, juz'ya (ar.) – capitation tax, idror (ar.) – income tax, raiyat (ar.) – tax payers, avoriz (ar.) – tax for an extreme situation, ichora (f.) – advanced tax, mushrifona (ar.) – levy for tax collectors' salary, muhassil (ar.) – tax inspector, ixrojat – tog'ar – ulufa (t.) – wage, salary, xiroj (ar.) – land tax.*

Xiroj – Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida, jumladan, O'rta Osiyoda davlat tomonidan undirilgan yer solig'i, o'lpon [15; 401-b.] ... *to ul viloyatni zabt qilg'ay va mol xirojidan nakim tushsa, xazina qilib yibargay* [11; 49-b.].

Qayd etish joizki, bugungi kunda soha amaliyotida qo'llanayotgan ayrim SB terminlarida mavjud bo'lgan uslubiy bo'yoqdorlik, ko'chma ma'nolik, ko'p ma'nolilik kabi xususiyatlar o'tmishda qo'llangan SB terminlarida nihoyatda kam uchraydi. Shu ma'noda, quyida keltirilgan ingliz va o'zbek tili matnlarida qo'llanilgan SB terminlarining ko'chma ma'noni aks ettirayotganini tahlil qilib ko'raylik.

Ingliz tilida: ...*it believes that economic decisions are best taken for those competing in the marketplace and that its primary roles are to help keeping inflation low, maintain **sound public finances** and create the right climate for markets to work better* [16; 83-b.].

O'zbekcha tarjimasi: ...*shunga ishonch hosil qilindiki, bozorda raqobatlashadiganlar uchun qabul qilinayotgan iqtisodiy qarorlarning asosiy maqsadi pulning qadrsizlanishini past*

¹Keltirilgan amaliy misollardagi *provost* termini va matnlar Kate Woodford va Guy Jackson tomonidan yaratilgan Cambridge Advanced Dictionary (Cambridge University press/ 2003, version 10, P.531) lug'atidan olindi.

²"*Tamg'a*" tarixiy termini polisemantik xususiyatga ega termindir. U uch ma'noda qo'llanib kelingan. 1. *Tamg'a* (belgi), *muhr*; 2. *bojxona boji*. XIII-XV asrlarda savdo bilan shug'ullanishga ruxsat olish uchun to'langan "*savdo boji*"; 3. *dog'*.

darajada ushlab turishga, bozorlarning samarali va muvofiq ishlashiga hamda **davlatning moliyaviy jihatdan sog'lom bo'lishiga yordam berishga qaratilgan.**

Kuzatiladiki, o'zbek tilidagi *davlatning moliyaviy jihatdan sog'lom bo'lishi* so'z birikmali termin ibora ingliz tilida *sound public finance* tarzida berilmoqda. Qiyoslanayotgan tillardagi termin birikmalarning komponentlar miqdori turlicha bo'lib, ularni so'zma-so'z tarjima qilish orqali terminologik ma'noni anglash ancha mushkul. Aslida, ingliz tilidagi *sound* leksemasi – o'zbek tilida “*tovush*”, “*sado*”, “*ovoz*” “*shovqin*” ma'noli tushunchalarni ifodalaydi. *Public finance* co'z birikmasi esa “*davlat*” moliyasini anglatmoqda. Bu o'rinda *sound* leksemasining qo'shimcha, konnotativ tarzda “*sog'lom/mustahkam*” ma'nolarini aks ettirishi, so'z birikmadagi ma'noga terminologik vazifa yuklaydi. Shuning uchun mavhum bo'lgan bir ko'chma ma'noli so'zga funksional-semantik aniqlik kiritish so'z birikmadagi terminologik ma'noni to'g'ri anglashga qulaylik yaratmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, terminlardagi pragmatik ma'no keng sharhlangan holda, uning nafaqat konnotativ, balki denotativ ma'noli so'zlarga nisbatan ham ishlatish mumkin. Masalan, ingliz tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan *businessman* – *biznesmen* leksemasi sobiq sho'rolar davrida *ishbilarmon* shaxsgagina emas, balki nopok yo'l bilan mol-dunyo orttirgan *chayqovchi*, *boyvachcha* kishiga nisbatan ham ishlatilar edi. Binobarin, ushbu termini matn tarkibida uchratgan har bir o'zbekning ko'z oldida sobiq tuzum siyosati ta'sirida shakllangan aynan ikkinchi ma'no jonlanardi. Ammo, inglizcha *businessmanni* “*ishbilarmon*”, “*tadbirkor*” – “*American businessmen*” so'z birikmasini “*amerika ishbilarmonlari*” tarzida o'girishni ma'qul ko'rmoqdalar. Quyidagi jumla tarjimasiga e'tibor bering:

Ingliz tilida: *A delegation of American businessmen arrived in Tashkent for talks with Uzbek trade organisations.*

O'zbekcha tarjimasini: *Amerika ishbilarmonlari delegatsiyasi o'zbek savdo tashkilotlari bilan muzokaralar o'tkazish uchun Toshkentga keldi.*

Shuningdek, bugungi kunda ingliz tilidagi *trader* termini o'zbek tili muloqotida ancha faol qo'llanadigan bo'lib qoldi. Ayrim amaliyotchilar mazkur terminning semantik ma'nosini *businessman* termini bilan bog'lashadi. *Trader* – *trade* leksemasidan kelib chiqqan bo'lib, “*savdo*, *tijorat*”, ya'ni, tovar, aksiya, qimmatli qog'ozlar bilan shug'ullanuvchi “*savdogar*” ma'nosida ishlatiladi. Vaholanki, *tadbirkorlik* termini ko'pchilik o'qimishli kishilar, hatto tarjimonlar ham *biznes* terminiga muqobil so'z sifatida qarashmoqda. Holbuki, *tadbirkorlik* termini *biznes* terminiga nisbatan kengroq ma'noni ifodalovchi lug'aviy birlik bo'lib, unda yuridik shaxs muayyan mahsulotni ishlab chiqarishi va sotishi bilan shug'ullanishi nazarda tutiladi. *Biznes* termini esa ko'proq tijorat maqsadlarda qo'llanilgan holda *tadbirkorlik* so'zining tarkibiga kiruvchi leksema ekanligi bilan izohlanadi. Demak, *tadbirkorlik* so'zining nisbatan keng ma'noda qo'llanilishi, unda ikkinchi va uchinchi termin bilan semantik korrelyatsion uyg'unlik vujudga kelgani tarjimonni bir oz mo'ljaldan adashtirishi mumkin. Ammo, vaziyat taqozosi bilan tarjimada *biznesmenlik*, *ishbilarmonlik*, *tadbirkorlik* triplet terminlardan optimal birini tanlash ehtiyoji yuzaga kelsa, hech ikkilanmay *ishbilarmonlik* dominant termini qo'llash maqsadga muvofiq.

Keltirilgan amaliy misollardan shu narsa kuzatiladiki, zaruriy ma'noning bu tariqa tanlanishi tarjimaning asliyatga kommunikativ to'la-to'kis mosligini ta'minlamaydi. Demak, pragmatik omillar muqobillikning tor ma'noli tarkibiy elementi hisoblanib, ularning keng ma'nodagi variantlarini qo'llash tarjimaning asliyatga to'la muvofiqligini vujudga keltiradi.

Muloqot jarayonida terminlar ifodalagan o'ziga xos ma'no belgilariga yetarlicha ahamiyat bermaslik esa tarjimonni asliyatdan uzoqlashtiradi.

Ayrim SB terminologik birliklar semantikasida boshqa sohalar bilan ham bog'liq xususiyatlarni o'z funksional-semantik ko'lamiga qamrab oladi. Masalan: ingliz tilidagi **agent** so'zini o'zbek tilida **vakil** termini orqali talqin etish mumkin. Ammo, *vakil* termini hamisha ham inglizcha *agent* so'zining ma'nosini to'liq aks ettira olmaydi. Chunki *agent* baynalmilal termin hisoblanadi. Uning o'zbekcha muqobili sifatida qo'llanadigan *vakil* termini bir oz stilistik bo'yoqdor. Ba'zi kishilar *agent* terminini "razvedchik", "ayg'oqchi", "milliy xavfsizlik xodimi", "agent", xalq tilida stilistik jihatdan "quloq" (*gap tashuvchi*) lik ishlarini amalga oshiruvchi *shaxs* sifatida ham qo'llaydi. Bunday hollarda ingliz va o'zbek tillari adabiy til me'yorlaridan kelib chiqib, terminlarning semantik qonun-qoidalariga muvofiq shaklda butun matn tarjima adekvatligini ta'minlash mumkin.

Aslida, *agent* termini muayyan bir vakolatga ega bo'lgan, xizmat topshirig'i yuzasidan turli rasmiy ishlarni amalga oshiruvchi xodimga nisbatan qo'llanadi. Lingvistik tarjima tahlili nuqtai nazaridan esa u muayyan sohalarga oid implikativ xususiyatni ham o'ziga birlashtirgan. Masalan, *tax agent* – *solliq agenti*, *customs agent* – *bojxona agenti*, *fiscal agent* – *moliyaviy agent*, *import/export agent* – *import/eksport agenti*, *trade agent* – *savdo agenti*, *hotel management agent* – *mehmonxona boshqaruv agenti*, *official agent* – *rasmiy agent*, *estate agent (realtor)* – *ko'chmas mulk agenti*, *indent agent* – *vositachilik asosida chet eldan mol yetkazib beruvchidan kelib tushadigan tovarlarni sotish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshiruvchi vakil* va h.k.

Tax agent – *solliq agenti* solliq kodeksiga muvofiq zimmasiga solliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, solliq to'lovchilardan ushlab qolish hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazish majburiyatlari yuklatilgan shaxsdir.

SB terminologiyasida mavjud bo'lgan ko'p ma'nolilik, ma'nodoshlik, ko'chma ma'nolik xususiyatlariga ega terminlarning amalda mavjudligini ingliz tilidagina emas, o'zbek tilining og'zaki muloqotida, hatto, rasmiy, yozma manbalarda ham kuzatish mumkin.

Birinchi matn: ...*iqtisodiy jihatdan rivojlangan xorijiy davlatlarda oxirgi o'n yillikning solliq portlashi davri, deb atalishi ham bejiz emas. Chunki, soya ostidagi iqtisodning¹ tobora rivojlanishi, moliyaviy va solliq huquqbuzarliklarining kengayishi sababli, davlatlarda kuchaytirilgan solliq siyosati amalga oshirilmoqda.*

Yuqoridagi jumlada SB sohasiga oid ikkita ko'chma ma'noga ega bo'lgan so'z birikma shaklidagi termin qo'llangan. Birinchisi, **solliq portlash davri** bo'lsa, ikkinchisi, **soya ostidagi iqtisod**. Ingliz tilining lug'at boyligi tarkibida **solliq portlashi davri** tushunchasi mavjud emas, u **kuchaytirilgan solliq siyosati** tushunchasi orqali **fortification of tax system** termin birlashtirishi bilan ifodalanadi. **Soya ostidagi iqtisod** birikma termini esa adabiy o'zbek tilida **xufiyona iqtisod**, ingliz tilida u **shadow economy** tarzida talqin etiladi. Yashirin, noqonuniy ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi shaxslar o'z daromadlaridan to'lanadigan solliq to'lovlarni solliq xizmati organlaridan yashirishiga "xufiyona iqtisod" deyiladi.

Ikkinchi matn: ...*hozirda bojxona haqidagi qonunlarni buzish holatlari respublikaning iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, xorijiy davlatlarda ishlab chiqarilayotgan sifatsiz, iste'molga yaroqsiz, tovar-moddiy boyliklarni kontrabanda yo'li bilan olib kirilishi, aholi sog'lig'iga shikast yetkazuvchi, ongi tafakkuriga putur yetkazadigan kontrabanda ashyolarining*

¹Matnda muallif tomonidan qo'llanilgan "soya ostidagi iqtisod" (tenevaya ekonomika/shadow economy) ko'chma ma'noli termin "hufiyona, yashirin ishlab chiqarish bilan shug'ullanish" ma'nosida ifodalangan.

*kirib kelishi bilan bog'liq sodir etilgan jinoyatlarni **izi sovimasdan** tezkor ravishda surishtiruv-tergov olib borish, jinoiy guruh ishtirokchilarini fosh etish, tovarlarni noqonuniy **o'tkazish kanallari**, manbalarini aniqlash, ularning noqonuniy xatti-harakatlariga uzil-kesil **barham berib, ildizi bilan yo'q qilishda** ularga nisbatan **ehtiyot chorasini** qo'llab, tezkor qidiruv tadbirlarini o'tkazish, bojxona organlari oldida turgan asosiy vazifalardan biri bo'lib qoldi.*

Ushbu matn 2013-yilda nashr etilgan rasmiy jurnaldan olingan bo'lib, uning tarkibida beshta turg'un termin birikma mavjud. O'zbek tilidagi "*izi sovimasdan*" iborasi biron bir jarayonga yoki voqelikka nisbatan "*kech bo'lmasdan*" ma'nosida qo'llanadi. Matnda qo'llangan mazkur so'z birikmasi sodir etilgan jinoyatlarni fosh etuvchi ashyoviy-dalillar yo'qolib ketmasdan, zudlik bilan surishtiruv ishlarini olib borish maqsadga muvofiqligi bilan izohlanadi.

Ingliz tili og'zaki nutqida va yozma manbalarda *izi sovimasdan, o'tkazish kanallari* singari turg'un termin birikmalar uchramaydi. Vaholanki, ularni so'zma-so'z tarjimasini ham aynan o'zbek tilidagi to'g'ri ma'nosini aks ettirmaydi. Matnda qayd etilgan **barham berib, ildizi bilan yo'q qilish** so'z birikmasida noqonuniy xatti-harakatlarga chek qo'yish, ularni o'z vaqtida *bartaraf etish* shaklidagi ma'no-mazmunni o'zida mujassamlashtirgan. Ingliz tilida uning muqobili sifatida *eliminate* yoki *remove* leksemalarni qo'llash o'rinli bo'ladi.

2015-yilning 3-fevralida O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi tomonidan "Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha soliq solish bazasini kengaytirish yuzasidan Davlat soliq qo'mitasining kompleks tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 05-f raqamli farmoyishi qabul qilingan. Farmoyish matnida ham bir qancha ko'chma ma'noli terminlardan foydalanish holatlarini kuzatish mumkin.

Jumladan, ...*shundan kelib chiqib, xo'jalik yurituvchi subyektlar, savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan noqonuniy (norasmiy) yollangan ishchi-xodimlarga **konvert usulida ish haqi berish**¹ holatlarini aniqlash mexanizmini takomillashtirish*²...

Soliq va bojxona organlari sohasiga oid hujjatlar matnida tarjima aniqligidan tashqari uslubiy aniqlikni ta'minlash g'oyat muhim hisoblanadi. Buning uchun turg'un termin birikmalar, ya'ni ko'chma ma'noli so'zlar va termin birikmalarni ishlatmay matnni kichik-kichik gaplarga bo'lib berish, jumalarni maksimal darajada qisqa, lo'nda va sodda tuzish to'g'ri usullardan biri. Jumla qanchalik sodda va qisqa tuzilsa, unda ortiqcha so'zlar va terminlarni ishlatishdan chekinilsa, rasmiy hujjatning mazmuni fuqarolar tomonidan tushunilishi oson kechadi. Yuqorida keltirilgan ikkinchi jumlaning 90 dan ortiq so'zdan tashkil topishi SB sohasiga oid hujjatlarni fuqarolar tomonidan yengil tushunilishini qiyinlashtiradi.

Bugungi kunga kelib, mamlakatimizda soliq va bojxona tili istiqbolini, uning ilmiy-nazariy qoidalarining fundamental asosda o'rganish uchun tamoman yangi bir davr boshlandi. Yuqorida qayd etilgani kabi muammolarni o'z vaqtida hal etish, qonunlarni va rasmiy hujjatlarni sifat jihatdan takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi tomonidan bir qancha ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasi davlat tili", "O'zbekiston Respublikasining me'yoriy huquqiy hujjatlari to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari", "O'zbekiston Respublikasining mulkchilik to'g'risida"gi qonuni, "O'zbekiston Respublikasining xususiy tadbirkorlikda

¹Matnda qo'llanilgan "*konvert usulida ish haqi berish*" ko'chma ma'noli termin birikma norasmiy yollangan ishchi-xodimlarning mehnatiga og'zaki kelishuv asosida to'lanadigan "*ish haqi*" ni anglatmoqda.

²O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasi tomonidan 03.02.15 sanasida qabul qilingan 05-f raqamli farmoyishi.

tashabbus ko'rsatish va uni rag'batlantirish to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksi va soliqlarni ikki hamda ko'p tomonlama shartnomalar asosida xalqaro qonun normalariga muvofiq tartibga solish", "O'zbekiston Respublikasining bojxona kodeksi to'g'risida"gi qonunlar hamda bojxona tovar-yuklarining davlatlararo harakatini ma'lum xalqaro va milliy qonunlar bilan muvofiqlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ushbu qonunlarda deyarli barcha sohalar tilining huquqiy asoslari mustahkamlab qo'yilgan. Shu ma'noda, har qanday soha tili ana shu talablarga to'la javob berishi lozim. Buning uchun esa soliq va bojxona sohasi bilan bog'liq hujjatlar va kodekslarning loyihalari tayyorlanish asnosida shu soha mutaxassislari tilshunos olimlar bilan o'zaro hamkorlikda ishlashlari, keyinchalik esa me'yoriy hujjatlarni tahririy ekspertizadan o'tkazish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar/Literatury/References:

1. Саломов Ғ. Тил ва таржима. Т.: 1976.-285 б.
2. Федоров А.В. Основы общей теории перевода // Введение в теорию перевода. – М.: 1968.-231 с.
3. Швейцер А.Д. Теория перевода. – М.: 1988.-328 с.
4. Циткина Ф.А. Терминология и перевод. // К основам сопоставительного терминоведения. - Львов: 1988. – 213 с.
5. Комиссаров В.Н. Лингвистика перевода. - М.: Международные отношения. 1980. – 213 с.
6. Циткина Ф.А. Терминология и перевод. // К основам сопоставительного терминоведения. - Львов: 1988. – 213 с.
7. Бархударов Л.С. Проблемы языка науки, техники, логические, лингвистические и исторические аспекты терминологии. - М.: 1970.- 132 с.
8. Иброҳимов С.И. Ўзбек тилининг нутқ маданиятига оид масалалари. “Нутқ маданиятига оид масалалар” тўплами-Т.: 1973. -192 б.
9. Малаховский Л.В. Специальные термины в общем словаре: принципы отбора и толкования // Проблематика определений терминов в словарях разных типов. - Л.: 1976.- 226 с.
10. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Т.: 2008.-432 б.
11. The BABURNAMA memoirs of Babur, Prince and Emperor, translated, edited and annotated by Wheeler M. Thakston and Salman Rushdie. New York: 2002.-P. 590.
12. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Т.: 2008.-432 б.
13. The BABURNAMA memoirs of Babur, Prince and Emperor, translated, edited and annotated by Wheeler M. Thakston and Salman Rushdie. New York: 2002.-P. 590.
14. The World Book Encyclopedia Dictionary. Volume k-z, Chicago: Copywrite, 1964.-P. 2018.
15. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. -Т: 2004.-№8.-718 б.
16. Осикова Л.Н. Английский язык, налоги и налогообложение. - М.: 2006.- 269 с.

Received: 10 March 2025

Accepted: 15 March 2025

Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

TYPOLOGY OF CONVERGENCE IN LINGUISTICS

Aliyeva Elvina Ametovna

Doctor of Philology, Associate Professor

Head of the Department of Russian Linguistics

National University of Uzbekistan

Rasulova Dilbar Nasrullayevna

1st year Master's student of

National University of Uzbekistan

Abstract. The article is devoted to the study of convergence in linguistics, its typology and functional meaning. Different classifications of stylistic convergence, its influence on the coherence and expressiveness of the text are considered. The approaches to the interaction of linguistic means in fiction and journalistic texts are analyzed, the key aspects of convergent structures are defined.

Keywords: linguistics, convergence, stylistics convergence, stylistics, stylistics effect, typology.

ТИПОЛОГИЯ КОНВЕРГЕНЦИИ В ЛИНГВИСТИКЕ

Алиева Эльвина Аметовна

доктор филологических наук, доцент

факультета журналистики и узбекской филологии НУУз

заведующая кафедрой русского языкознания

Расулова Дильбар Насруллаевна

магистрант 1 курса, специальности «Лингвистика: русский язык»

факультета журналистики и узбекской филологии НУУз

Аннотация. Статья посвящена исследованию конвергенции в лингвистике, её типологии и функциональному значению. Рассматриваются различные классификации стилистической конвергенции, её влияние на связность и выразительность текста. Анализируются подходы к взаимодействию языковых средств в художественных и публицистических текстах, определяются ключевые аспекты конвергентных структур.

Ключевые слова: лингвистика, конвергенция, стилистическая конвергенция, стилистика, стилистический эффект, типология.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N23>

Введение.

Функциональные особенности конвергенции заключаются в способности объединять элементы в единую систему. Существуют разные подходы к выделению функций конвергенции.

Методы, использованные в исследовании. Описательный, сравнительно-аналитический методы.

Анализ литературы. В лингвистической науке большое внимание уделено типологии стилистической конвергенции. При выделении типов конвергенции наблюдаются различные подходы.

Так, по мнению З. И. Хованской, внутритекстовые связи не всегда выражаются традиционными языковыми средствами. Одним из нетипичных способов обеспечения связности текста, по мнению исследователя, может быть *«разорванная конвергенция»* [12]. В связи с этим она выделяет разорванную конвергенцию, которая характеризуется тем, что её две части находятся на расстоянии друг от друга, разделены фрагментом текста (иногда довольно большим) и отличаются по содержанию от общей совокупности значений и смысловых связей, которые объединяют элементы текста в рамках конвергенции [12].

М. Е. Обнорская предлагает классифицировать конвергенцию в зависимости от семантической природы объединяемых элементов. Так, исследователь предлагает два типа конвергенции. Первый тип объединяет *«семантически однородные элементы»* [7, с. 79], то есть такие, которые имеют сходное значение или относятся к одной тематической области. Этот тип способствует усилению связности текста за счёт акцентирования внимания на одной идее. Второй тип, напротив, объединяет *«семантически неоднородные элементы»* [7, с. 79], которые могут отличаться по значению и тематике. Такой тип позволяет создавать более сложные смысловые связи, расширяющие контекст и способствующие раскрытию различных аспектов рассматриваемой темы.

А. П. Сковородников предлагает типологию конвергенции, в основе которой лежит классификация взаимодействия тропов в художественном тексте, позволяющая глубже анализировать структуру и стилистическую насыщенность текста. Согласно этой типологии, выделяются два основных типа конвергенции: *«сосредоточенная»* и *«рассредоточенная»* [10]. *Сосредоточенная конвергенция* характеризуется тем, что тропы объединяются в пределах относительно небольшой языковой единицы – словосочетания или одного предложения [10]. *Рассредоточенная конвергенция*, напротив, проявляется в более широких текстовых рамках [10]. Тропы могут быть распределены по нескольким предложениям, сложному синтаксическому целому или даже нескольким абзацам. В этом случае взаимодействие тропов носит кумулятивный характер, формируя общий художественный эффект на уровне крупной текстовой структуры [10].

Н. С. Маторина, классифицируя явление конвергенции, выделяет ряд факторов, которые формируют конвергентный информационный потенциал. В первую очередь, она выделяет сложную структуру конвергенции и её организацию, где основными механизмами служат параллельность и последовательность. Вторым аспектом является компонентный состав, в котором доминируют лексические и стилистические приёмы. Третий аспект – особенности содержания, передаваемого через конвергенцию. Исследователь выделяет несколько содержательных моделей, объединённых в группы *«портретизация»*, *«описание места действия»* и *«рассуждения»*. Кроме того, автор отмечает, что включение конвергенции в стилевую систему текста играет значительную роль, так как проявляются черты функционального стиля, индивидуального стиля, жанровой принадлежности и художественного метода [5].

И. А. Соловейчик-Зильберштейн предлагает классификацию конвергенции стилистических приемов, основанной на нескольких параметрах: «качественной характеристике стилистических приемов, образующих конвергенцию; количестве ее компонентов; ее контекстуальной и синтаксической реализации; функций, выполняемых конвергенцией стилистических приемов в художественном тексте» [11]. Так, автор выделяет четыре типа, формирующих конвергенцию с позиции качественной характеристики стилистических приемов:

а) *«лексическая конвергенция стилистических приемов* – это сочетание различных лексических средств выразительности, таких как метафоры, эпитеты и сравнения, для усиления эмоционального или образного воздействия текста» [11];

б) *«лексико-синтаксическая конвергенция стилистических приемов* – это объединение лексических и синтаксических средств, например, использование определённых слов в специфических синтаксических конструкциях, чтобы подчеркнуть эмоциональные аспекты высказывания» [11];

в) *«фоно-лексическая конвергенция* – это одновременное применение фонетических и лексических приёмов, таких как аллитерация или ассонанс в сочетании с образными выражениями, для создания определённого ритма или звукового эффекта в тексте» [11];

г) *«смешанный тип конвергенции* – это комбинация различных стилистических приёмов из нескольких категорий (лексических, синтаксических, фонетических и т. д.), направленная на достижение комплексного стилистического эффекта в тексте» [11].

При этом отмечается, что некоторые стилистические приёмы в составе конвергенции могут играть «доминирующую роль», в то время как другие будут служить для их дополнения и усиления выразительного эффекта [11]. С позиции «количества компонентов», стилистическая конвергенция может быть *«бинарной»* (включает два стилистических приёма) и *«многочленной»* (состоит из трёх и более стилистических приёмов) [11]. С точки зрения ее контекстуальной и синтаксической реализации выделяется два типа: *«локальная»* (актуализируется в контексте на уровне словосочетания, предложения, абзаца) и *«текстовая»* (актуализируется в масштабе всего художественного произведения, а также в его части, представленной несколькими главами) конвергенция [11].

Более того, И. А. Соловейчик-Зильберштейн подходит к термину «конвергенция» как к универсальной категории, применимой на различных уровнях языка. Ввиду чего предлагает еще одну классификацию, выделяя: *фонетическую* (сочетание звуковых средств для усиления звукового эффекта в тексте), *синтаксическую* (использование синтаксических конструкций, которые взаимодействуют для создания определенного ритма или акцента в предложении) и *стилистическую* конвергенции (объединение различных стилистических приемов для усиления выразительности текста) [11].

В работе Т. В. Панкратович исследуется явление конвергенции экспрессивных синтаксических конструкций, рассматриваемое через призму адресатности [8]. Анализируются различные типы конвергенции – *сосредоточенная* и *рассредоточенная*, а также их проявления на уровне текста и сверхфразового единства. Так, исследователь приходит к выводу, что взаимодействие экспрессивных синтаксических конструкций и

их преобладание в тексте усиливают прагматический потенциал, делая текст более выразительным и адресно ориентированным [8].

З. А. Худоногова рассматривает конвергенцию в качестве «средства передачи событий и фактов, разворачивающихся во времени и пространстве художественного текста» [13], и определяет один тип: *«последовательная, или цепочечная, конвергенция»* [13]. Такой вид конвергенции обеспечивает линейное развитие повествования и подчеркивает функциональную направленность конвергенции как средства, способствующего организации текста и усилению его связности через последовательное представление информации.

И. В. Пекарская различает два типа конвергенции стилистических средств: *«гомогенная конвергенция»* (взаимодействие стилистических фигур и тропов, построенных по одному и тому же принципу) и *«гетерогенная конвергенция»* (взаимодействие стилистических фигур и тропов, построенных по разным принципам) [9]. Под «принципом построения» Пекарская понимает структурные и функциональные характеристики стилистических средств. В *гомогенной конвергенции* взаимодействуют фигуры и тропы, имеющие схожие структурные особенности и выполняющие аналогичные стилистические функции. Например, сочетание нескольких метафор, которые основаны на переносе значения по сходству, будет являться гомогенной конвергенцией [9]. В *гетерогенной конвергенции* взаимодействуют стилистические средства, основанные на различных принципах построения и выполняющие разные функции. Например, сочетание метафоры и гиперболы, где первая основана на переносе значения по сходству, а вторая – на преувеличении, будет являться гетерогенной конвергенцией [9]. Исследователь акцентирует внимание на том, что тип конвергенции определяется сходством или различием структурных и функциональных характеристик взаимодействующих стилистических средств.

Г. А. Копнина предлагает классификацию конвергенции стилистических фигур, включающую следующие критерии:

а) *«по характеру расположения компонентов конвергенции в тексте»:*

- сосредоточенная: стилистические фигуры расположены компактно, в пределах одного предложения или небольшого отрезка текста.
- рассредоточенная: фигуры распределены по более обширному фрагменту текста, но сохраняют смысловую связь.
- текстовая: стилистические фигуры взаимодействуют на уровне всего текста, создавая общую стилистическую гармонию.

б) *по критерию однородности/неоднородности стилистических фигур:*

- гомогенная: взаимодействие однородных стилистических фигур, основанных на одном и том же принципе построения.
- гетерогенная: взаимодействие разнородных фигур, основанных на разных принципах построения.
- смешанная: сочетание как однородных, так и разнородных фигур в рамках одной конвергенции.

в) *по наличию/отсутствию отношений субординации между фигурами:*

- деривативная: одна фигура порождает или доминирует над другой, устанавливая иерархические отношения.

- эквиполентная: фигуры взаимодействуют на равных, без выраженной иерархии.

г) по способу взаимодействия конвергирующих фигур:

- наложение: одна фигура накладывается на другую, усиливая её эффект.
- соединение: фигуры объединяются, создавая новый стилистический эффект.
- вставка: одна фигура вставляется в структуру другой, обогащая её дополнительным смыслом.
- синкретизм способов: комбинирование нескольких способов взаимодействия фигур одновременно» [2].

С. В. Лопаткина основывается на взглядах А. П. Сковородникова и Г. А. Копниной, выделяя классификацию конвергенций тропов. По характеру расположения компонентов она различает *сосредоточенные* и *рассредоточенные* взаимодействия. Также учитываются количество компонентов (*двух- и многокомпонентные*), их однородность/неоднородность (*гомогенные* и *гетерогенные*) и способы взаимодействия (сцепление, наложение, вставка, синкретизм) [4].

Подход Э. Г. Новиковой представляет собой анализ «конвергентных артем» [6, с. 26], где автор рассматривает артему как основную единицу художественного текста, понимая её как художественно актуализированное слово или сочетание слов. Исследователь классифицирует конвергенцию по трём параметрам: 1) «грамматическая основа языковой базы артемы (предикативная или подчинительная связь между словами); 2) радиус действия и степень структурно-смыслового влияния (локальный или глобальный контекст); 3) характер используемых речевых художественных приёмов (метонимия + метафора или метонимия + полисемант)» [6, с. 26]. Однако автор подчёркивает, что третий параметр, несмотря на его теоретическую значимость, оказывается наиболее сложным для практического применения. Причина этого – постоянные формально-семантические трансформации исходной модели (художественный прием) в процессе художественного творчества. Эти трансформации усложняют чёткое разграничение между различными типами конвергентных артем, что свидетельствует о высокой степени динамичности языка художественного текста.

Вслед за Г. А. Копниной, В. С. Литвиненко определяет типологию стилистической конвергенции по качественным, количественным, функциональным и контекстуальным критериям, что даёт широкие возможности для анализа проявления стилистической конвергенции в литературных произведениях [3, с. 139].

Э. А. Алиева, анализируя конвергентный потенциал экспрессивных синтаксических средств в русской орнаментальной прозе, опирается на классификацию Г. А. Копниной. Она подчеркивает, что взаимодействие экспрессивных синтаксических средств охватывает всю языковую структуру произведения [1, с. 98].

Выводы. Существующие классификации отражают разнообразие подходов к изучению данного феномена. Исследователи выделяют различные типы и аспекты конвергенции в зависимости от её структуры, функций, семантики и стилистических приёмов.

Литература/References/Adabiyotlar:

1. Алиева Э.А. Экспрессивные синтаксические средства русской орнаментальной прозы: монография. – Ташкент: «Университет», 2022. – 244 с.

2. Копнина Г.А. Конвергенция стилистических фигур в современном русском языке: На материале художественных и газетно-публицистических текстов: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Красноярск, 2001 – 27 с. URL: <https://www.dissercat.com/content/konvergentsiya-stilisticheskikh-figur-v-sovremennom-russkom-literaturnom-yazyke-na-materialec> (Дата обращения: 21.11.2024г.)
3. Литвиненко В. С. Стилистическая конвергенция как средство репрезентации творческого видения автора //Формирование профессиональной компетентности филолога в поликультурной образовательной среде, 2017. – С. 136-139.
4. Лопаткина С. В. Контекстуальное взаимодействие тропов в современном русском литературном языке: На материале художественной и публицистической речи: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Абакан, 2004. – 28 с. URL: <https://www.dissercat.com/content/kontekstualnoe-vzaimodeistvie-tropov-v-sovremennom-russkom-literaturnom-yazyke-na-materiale-> (Дата обращения: 29.11.2024г.)
5. Маторина Н. С. Информационный потенциал стилистических конвергенций на материале англоамериканской художественной прозы: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1989. – 28 с. URL: <https://viewer.rsl.ru/ru/rsl01000032127?page=1&rotate=0&theme=white> (Дата обращения: 06.11.2024г.)
6. Новикова Э.Г. Конвергенция речевых художественных приемов в малой прозе Т. Толстой // Вестник Томского государственного университета, 2015. – № 390. – С. 26–34.
7. Обнорская М.Е. Синтаксическая конвергенция // Стилистика романно-германских языков // материал семинара – Л., 1972. – С.76-88.
8. Панкратович Т. В. Экспрессивные синтаксические конструкции в поэзии П. А. Заболоцкого: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Минск, 1998 – 22 с. URL:<https://libr.msu.by/bitstream/123456789/16781/1/S115.pdf> (Дата обращения: 20.01.2025г.)
9. Пекарская И. В. Контаминация в контексте проблемы системности стилистических ресурсов русского языка. – Абакан, 2000. – Ч. I. – 248 с.
10. Сковородников А.П. Экспрессивные синтаксические конструкции современного русского литературного языка. Опыт системного исследования. – Томск, 1981. [Электронный ресурс] URL: <https://research.sfu-kras.ru/publications/publication/751085619-118446137> (Дата обращения: 17.11.2024 г.)
11. Соловейчик-Зибельштейн И. А. Стилистическая конвергенция в ранней прозе Бориса Пастернака: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1995 – 22 с. URL: <http://www.dslib.net/russkij-jazyk/stilisticheskaja-konvergencija-v-rannej-proze-borisa-pasternaka.html> (Дата обращения: 21.01.2025г.)
12. Хованская З. И. Методы лингвостилистической интерпретации художественного произведения и проблема стилистического приема //Проблемы лингвистической стилистики. – М, 1969. URL: https://books.google.co.uz/books/about/%D0%9D%_%D0%BA%D0%BE%D0%BD%D1%84%D0%%8F_%D0%9F.html?id=u68AalUDlJEC&redir_esc=y (Дата обращения: 21.01.2025г.)
13. Худоногова Г. А. К проблеме разграничения конвергенции и контаминации стилистических фигур // Риторика в свете современной лингвистики: Тезисы докладов Межвузовской научной конференции – Смоленск, 1999. URL: https://books.google.co.uz/books/about/%D0%BE%D0%B2%D1%80.html?id=3iAcAQAAIAAJ&redir_esc=y (Дата обращения: 24.11.2024г.)

Received: 10 March 2025

Accepted: 15 March 2025

Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

NAMES OF CLOTHES IN “DEVONU LUG'ATIT TURK”

Mirzayeva Kamola,

Master of Shakhrisabz State Pedagogical Institute

Abstract. This article analyzes the clothes and the names associated with them in Mahmud Kashgari's work "Devon-u lugatit turk". Clothes have become an important element of material culture in the structure of national culture throughout the historical process, as one of the features that distinguish peoples from each other. Clothes, in general, the culture of clothing has long reflected the social status, worldview, values, as well as beliefs, and family status of the Uzbek (Turkish) people.

Keywords: turks, national culture, clothes, ornaments, types of fabric, women's clothes, men's clothes.

“DEVONU LUG'ATIT TURK” ASARIDA KIYIM-KECHAK NOMLARI

Mirzayeva Kamola,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistri

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mahmud Koshg'ariyning “Devon-u lugatit turk” asaridagi kiyim-kechaklar va ular bilan bog'liq nomlar tahlil qilingan. Kiyim butun tarixiy jarayon davomida xalqlarni bir-biridan ajratib turuvchi xususiyatlardan biri sifatida milliy madaniyat tarkibida muhim moddiy madaniyat elementiga aylangan. Kiyim-kechaklar, umuman, kiyinish madaniyati qadimdan o'zbek (turkiy) xalqining ijtimoiy mavqeyini, dunyoqarashini, qadriyatlarini, shuningdek, e'tiqodi, oilaviy ahvolini aks ettirib kelgan.

Kalit so'zlar: turkiylar, milliy madaniyat, kiyim-kechak, zeb-u ziynatlar, mato turlari, ayollar kiyimlari, erkaklar kiyimlari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N24>


Inson tanasini yopish uni sovuq sovuqdan, kuydiruvchi quyoshdan, turli xil hujumlardan va hokazolardan himoya qiladi. Tashqi omillardan himoya qiluvchi kiyim-kechak insonga xos xususiyatdir. Ma'lumki dastlabki davrlarda inson tabiatning turli ta'sirlaridan shuningdek, hayvon va hasharotlarning chaqishidan o'zini himoyalash maqsadida tanasiga tuproq, loy, moy surtib yurgan. Keyinchalik bu surtmalarga o'simlik bo'yoqlari qo'shilib, inson tanasini turli shakl va ranglar bilan bezash urf bo'lgan. Har xil qushlar patlari, o'ldirilgan hayvon tishlari, suyaklar, sochlar turli ramziy vazifalarni bajarish bilan birga tanani himoyalagan ham. Vaqt o'tgan sari tananing qancha katta qismi ma'lum bir yopinchiq bilan berkitila borgan sari inson turli ramzlarni mavhumlash masadida quloq, burun, lab dahanda sun'iy mahkamlovchi usullar o'ylab topgan va ulardan bezak sifatida foydalana boshlagan. Ordan vaqt o'tib insoniyat ip yigirish va undan mato to'qishni o'ylab topgan. Folklor elementi bo'lgan kiyimni shakllantirishda urf-odat va an'analar, e'tiqod, geografiya, turmush tarzi, estetik tushuncha kabi masalalar samarali omillar sifatida namoyon bo'ladi. Bu omillar xalqlarning o'z milliy liboslarini yaratishda ham muhim rol o'ynagan.

“Devonu lugatit turk”da kiyim-kechak bilan bog'liq 216 ta so'z aniqlangan va bu aniqlangan so'zlar to'rt sarlavha ostida tasniflangan. Aniqlanishicha bu so'zlar asosida milliy

madaniyatning muhim elementi bo'lgan o'sha davr turkiy kiyim-kechak an'analari haqida umumiy ma'lumot olish mumkin. "Divon-u Lugatit turk" dagi so'zlardan turkiylarning zeb-ziynat va kiyinishga katta ahamiyat berishlarini ko'ramiz. Bu so'zlar turkiylar uchun kiyinish faqat tanani yopish va turli tashqi omillardan himoyalanih degani emasligini ko'rsatadi; Bu, shuningdek, o'zlarini chiroyli va zamonaviy ko'rinishga olib keladigan vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, asardagi kiyim-kechakka oid ayrim so'zlar qolip so'zlar bo'lgan qo'shma gap, to'rtlik va maqollarda qo'llangani ham ko'rinadi. Bu holat bu so'zlarning o'sha davrda qo'llanishi, tarqalishi, turkiylar hayotidagi o'rni va ahamiyati jihatidan ham muhim.

"Devonu lug'atit turk" asari XI asrga mansub turkiy tillarning birinchi lug'ati hisoblanadi. Asar XI asrning ikkinchi yarmida Mahmud bin al-Husayn bin Muhammad al-Koshg'ariy tomonidan yozilgan, Mahmud Qashg'arlik nomi bilan mashhur bo'lgan. Turkiy xalqlarning qomusiy lug'at bo'lgan "Devonu lug'atit turk" Qoraxoniylar davrining eng muhim asarlaridan biri hisoblanadi. Bag'dodda 1074–1077-yillarda yozib tugallangan deb taxmin qilinadigan asar nafaqat turkiy so'zlarni o'z ichiga oladi, balki turkiy qabilalar va ularning shevalari, grammatikasi, turkiylar tarixi, geografiyasi haqidagi qimmatli ma'lumotlarni ham o'zida qamrab olgan. U ma'lumot jihatidan turkiylar qomusiga xos xususiyatlarga ega. Mahmud Koshg'ariy o'z asariga turkiy deb hisoblagan so'zlarni kiritgan va ularni misollar orqali izohlab berishga harakat qilgan. "Devonu lug'atit turk"ning bizgacha yetib kelgan yagona nusxasi Istanbuldagi Millat qo'lyozmalari kutubxonasidagi Ali Amiri Afandi qo'lyozmalar bo'limida 4189-raqami bilan saqlanadi. Turkiylarning ijtimoiy hayotiga oid muhim ma'lumotlar berilgan asarda kiyim-kechak bilan bog'liq ma'lumotlar ham ko'p uchraydi. Odat va an'analalar, e'tiqodlar, geografiya, turmush tarzi, estetik tushuncha kabi masalalar folklor elementi bo'lgan kiyimni shakllantirishda samarali omillar sifatida namoyon bo'ladi. Bu omillar insoniyatni o'z milliy liboslarini yaratishda ham muhim rol o'ynagan. Kiyim butun tarixiy jarayon davomida xalqlarni bir-biridan ajratib turuvchi xususiyatlardan biri sifatida milliy madaniyat tarkibida muhim moddiy madaniyat elementiga aylandi. Kiyinish madaniyati hozirgi zamonda insonlar uchun bir ko'rsatkichdir. Kiyinish madaniyati inson tashqi qiyofasini o'zgartirishda muhim rol o'ynaydi. U qiyofani 60 foizgacha o'zgartirishi mumkin. Kiyim kishini badiiy didini ifodalaydi, ma'daniy saviyasini belgilaydi; jinsini, yoshini, ruhiy holatini va xarakterini namoyon qiladi. Kiyim kishiga nisbatan turli his-tuyg'ular uyg'otadi. Masalan: jiddiylik, vazminlik, jo'shqinlik, sovuqlik, oddiylik va boshqa xislatlarni ifodalab keladi. Tarixan kiyim xalq madaniyatining ajralmas qismi, uning milliylik ramzi bo'lib kelgan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, O'rta Osiyo hududida yashovchi turkiy xalqlar kiyimlarining asosiy xomashyosi jun bo'lgan. O'rta Osiyo hududida to'qimachilikning paydo bo'lishi neolit davriga to'g'ri kelib, uning asosiy xomashyosi jun edi. Keyinroq paxta ekilishi mintaqada to'qimachilik rivojlanishiga katta ta'sir qilgan, qator qadimiy arxeologik yodgorliklardan topilgan surmatosh, taroq, mis, oyna va turli zeb-ziynat buyumlari mintaqada kiyinish madaniyati qadimdan o'ziga oro berish vositalari bilan umumiylikda shakllanganini ko'rsatadi. VI asrda So'g'dda yuzaga kelgan zandana ipak matolari mahalliy ipakchilikning ancha rivojlanganini ko'rsatadi. O'sha davrga mansub zandana namunalari hozir Sank-Peterburg, Parij, London, Berlin, Dehli kabi mashhur muzeylar va shaxsiy kolleksiyalarda saqlanadi.

Devonu lug'atit turk asarida kiyim-kechakka oid bo'lgan so'zlarni to'rt guruhga bo'lib tasnif qilish mumkin:



Kiyimlarda qo'llaniladigan mato nomlari:

Agi – ipak mato, saroy va boy tabaqalar kiyimlari uchun ishlatilgan.

Al – to'q sariq rangli mato

Barchin – ipak mato, shoyi

Buchgak – tuyaning oyoq terisi

Charukluk – poyabzal qilish uchun tayyorlangan teri

Chaydam – yomg'irdan himoyalashda va to'shak tayyorlashda ishlatiladigan yupqa kigiz

Chinaxsi – Xitoyning naqshli ipak matosi

Panjara – kashta tikilgan xitoy shoyisi

Chuz – qizil va qora rangli iplar bilan to'qilgan Xitoy matosi

Eldiri – uloq terisi

Eshgurti – kashta tikilgan xitoy ipak matosi.

Xulin – turli xil rangdagi xitoy matosi

Kachach – Xitoy ipak matosi

Kofgar – bahramon ipak

Kigiz – o'g'uzlarda kigiz deb ataladi

Keduklik – yomg'irdan asrash uchun kigiz materialidan tayyorlangan kiyim

Kemek – paxtadan tikilgan naqshli va chiziqli kiyim.

Kenzi – qizil, sariq, yashil har xil rangdagi xitoy matosi

Karim – naqshli mato

Kez – Xitoy matosining bir turi

Kimishge – Qashqarda kigizdan tikilgan kiyim shunday nomlangan

Kuyka – teri

Loxtay – sariq rangdagi xitoy ipak

Mindetu – ipak

Sagri – teri

Taxchek – Xitoy ipaklarining bir turi

Taxtu – yigiruvdan oldingi xom ipak arqonlar olib kelingan va o'ralgan

Kroshe – charm

Moment – ipak

Uym – turkmanlarning poyabzal yasash uchun ishlatadigan kigiz

Yatuk – ikki xil ipdan to‘qilgan jun, paxta jun

Yun – jun, tuya juni

Yuvlich – echkinning mayin, yumshoq juni

Zungum – Xitoy ipaklarining bir turi

Mato nomlari turkiy xalqlarning kiyinish madaniyati, kashtachilik san’ati, iqtisodiy aloqalari va iqlim sharoitiga bog‘liq ravishda shakllangan. Mahmud Koshg‘ariy o‘z asarida ko‘plab mato nomlarini qayd etgan bo‘lib, ularni geografik jihatdan quyidagicha tasniflash mumkin. Mato nomlari hududlarning joylashish kesimiga, u yerning iqlim sharoitlariga, insonlarning turmush darajasiga ko‘ra farq qilgan. Paxta matolari Movarounnahr va Xorazmda ishlab chiqarilgan. Paxta matolari turkiy xalqlarning kundalik hayotida keng ishlatilgan. Ular sovuq va issiq iqlimga mos bo‘lib, uy kiyimlari, qalin choponlar va past tabaqa insonlarning kiyimlari uchun ishlatilgan. Ipak mato XI asr turkiy xalqlari orasida juda mashhur bo‘lgan. Ular Xitoy, Xuroson va Xorazm bilan savdo aloqalari orqali ipak matolarni qo‘lga kiritgan. Ipak matolari hukmdorlar va boy tabaqalar tomonidan kiyiladigan liboslar uchun ishlatilgan. Ipakdan to‘y va bayram liboslari uchun maxsus bezaklar qilingan, saroy bezaklari va choyshablar sifatida ham qo‘llanilgan. *Chuz* va *Xulin* kabi matolar Xitoydan olib kelingan. *Panjara* matosi Buxoro va Xorazm hunarmandlari tomonidan ishlab chiqarilgan.

Parij antropologiya maktabi, Etnologiya professori doktor Jorj Montandonning Traitening “D’etnologie Culturelle” (“Madaniy ennologiya”) asarida Xitoyga shim birinchi marta O‘rta Osiyo turklari tomonidan olib kelingani aytilgan. Turkiy xalqlar charm va teridan yasalgan kiyim-kechaklardan ham keng foydalangan. Ayniqsa, sovuq hududlarda charm kiyimlar keng ishlatilgan. Charm matolar turkiy ko‘chmanchilar tomonidan ishlab chiqarilgan. Xuroson va Buxoro hunarmandlari charm matolarni bezaklash bilan shug‘ullangan. [5; 47]

“Devonu lug‘atit turk” asarida keltirilgan ipak mato va kiyim nomlari keyingi davrlarda o‘zgacha nom bilan atalganini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida quyidagi jumlar uchraydi: “Otabekning ustidagi Buxoro shoyisidan tikilgan to‘n uning mavqeyini yanada ulug‘lab ko‘rsatardi”. Bu yerda Buxoro shoyisi mato turi sifatida keltirilgan. [2; 134]

Abdulla Qahhorning “Sarob” romanida ham mato turi tilga olingan: “Munisxonning yangi atlas ko‘ylagi uning yuzidagi tabassum bilan uyg‘unlashib, uni yanada go‘zal ko‘rsatardi”. Bu asarda atlas matosi tilga olingan. [3; 156]

O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” hikoyasida beqasam matosi haqidagi jumla uchraydi: “Onasi unga beqasam ro‘molini sovg‘a qildi, bu esa uning uchun eng qimmat tuhfa edi. [4; 57]

Ayollar va erkaklar kiyimlariga oid nomlar:

Artig – ayollar kamzuli

Ashuk – temir dubulga

Bashmak – o‘g‘uzlar va qipchoqlar poyabzalni shu nomda atashgan

Bertu – ustiga kiyiladigan kiyim, kardigan

Bo‘rk – boshga kiyiladigan bosh kiyim, bo‘rk ko‘pincha insonning ijtimoiy mavqeini ham ifodalagan. Masalan, xonlar va sarkardalar bo‘rkning qimmatbaho mo‘ynali turlarini kiygan.

Bukum etuk – o‘g‘uz tilida ayollar kiyadigan poyabzal

Chekrek – qullar kiyadigan jundan tikilgan chopon

Chenshu – kichik kardigan

Didim – to‘y kechasida kelinga kiydiriladigan toj, qimmatbaho toshlarqadalgan bosh kiyimi

Eliglik – qo‘lqop

Ichimlik – qo‘zi terisi

Ichik sable – hayvonlardan olingan mo‘yna

Izlik – so‘yilgan hayvon terisidan qilingan turk poyabzali

Kadish – so‘yilgan hayvonlarning terisidan ishlab chiqarilgan kamar

Tuba – dumaloq shaklda tikilgan yoki kashta tushirilgan bosh kiyim

Yariq – janglarda kiyiladigan zirhli kiyim. U askarlarning jarohat olishidan saqlash uchun maxsus tikilgan.

Qars – qo‘y juni yoki tuya junidan tikilgan libos

Keduk – qush patlaridan tikilgan bosh kiyim

Kevshek – yumshoq va yumshoq, nozik kiyimlarga nisbatan qo‘llangan so‘z

Kidiklig bo‘rk – cheti tikilgan bosh kiyim

Kiyimach bo‘rk – chig‘il xalqi kiygan tiftikdan oq bo‘rk

Qadimdan ipak va qimmatbaho matolardan tikilgan kiyimlar boylarga, oddiy matoli kiyimlar esa kambag‘al tabaqaga tegishli bo‘lgan. Til taraqqiyoti turli davrlarda ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy omillar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Kiyim-kechak atamalari ham shunga misol bo‘lib, ularning diaxron (vaqt davomida o‘zgarishi) rivojlanishi turkiy xalqlarning hayot tarzi, iqlim sharoiti va tashqi ta‘sirilar bilan bog‘liq. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari va boshqa qadimiy manbalar orqali biz turkiy tillarda kiyim nomlarining tarixiy o‘zgarishlarini kuzatishimiz mumkin. Quyidagi jadvalda “Devonu lug‘otit turk” (XI asr) asarida uchraydigan kiyim-kechak atamalari zamonaviy o‘zbek tilidagi ekvivalentlari bilan qiyoslangan va izohlangan.

“Devonu lug‘atit turk”da	Hozirgi o‘zbek tilida	Izoh
chapan	chopon	Ustki kiyim, keng bichimli, odatda qalin matodan tikiladi.
kamchi	kamzul	Yengsiz ustki kiyim, asosan erkaklar kiyadi.
chalvar	shalvar	Keng bichimli shim erkaklar kiyimi, hozirgi kunda ayollar uchun ham mavjud.
tuba	do‘ppi	Boshlik, dumaloq shakldagi, tikilgan yoki kashta tushirilgan bosh kiyim.
ton	to‘n	Yengli, uzun ustki kiyim, ko‘ylak yoki yengsiz kiyim ustidan kiyiladi.
etuk	etik	Baland poshnali, teridan tikilgan oyoq kiyim.
charuk	choriq	Qalin charm yoki xom charm oyoq kiyimi, dehqonlar va cho‘ponlar kiygan.
bo‘rk	Bo‘rk	Qalin jun yoki mo‘ynadan qilingan bosh kiyim, qishki sovuqlardan himoya qiladi.
tugma	tugma	Kiyimni bog‘lash yoki bezash uchun ishlatiladigan kichik element.
yaglak	yaktak	Ichki kiyim yoki yupqa ustki kiyim

ko'ynak	ichko'ylak	Ichki yoki kundalik kiyim sifatida kiyiladigan yengil kiyim.
bilik	belbog'	Kiyimni mahkamlash yoki bezak sifatida ishlatiladigan mato yoki charm bog'ich.
taqiyah	taqiya	Kichik dumaloq bosh kiyim, odatda erkaklar kiyadi.
postan	po'stin	Ichki qismi mo'ynali, issiq ustki kiyim. Hozirgi kunda usti mo'yna bilan qoplangan yengsiz turi ko'p uchraydi.
ilgek	ilgak	Kiyimni mahkamlash uchun ishlatiladigan ilgich yoki tugma.
ortaton	o'rtato'n	Kiyimlarning o'rtacha qalinlikdagi turi.
sharuk	sharqiroq	Yengil matodan qilingan yengsiz kiyim.

Bu jadval Mahmud Koshg'ariy asaridagi kiyim-kechakka oid atamalarning zamonaviy o'zbek tilidagi variantlari bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Ko'rinib turibdiki, ba'zi so'zlar hozirgi kungacha deyarli o'zgarmagan (*chopon, to'n, sharqiroq, qalpoq*), ba'zilari esa zamonaviy o'zbek tilida kamroq uchraydi yoki o'zgargan (*bilik* → *belbog'*, *ilgek* → *ilgak*). O'zbek xalqi tarixiy taraqqiyot jarayonida o'zining milliy an'analari, madaniyati va urf-odatlarini bilan ajralib turgan. Bu jarayonda kiyim-kechak ham muhim o'rin tutib, xalqning hayot tarzi, ijtimoiy mavqeyi va etnik xususiyatlarini aks ettiruvchi element sifatida shakllangan.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит-турк. – Тошкент: Ғафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – 450 б.
2. Qodiriy, A. O'tkan kunlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1996. – 258 б.
3. Qahhor, A. Sarob. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1998. – 160 б.
4. Hoshimov, O. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2002. – 176 б.
5. Montandon, J. (1934). D'ethnologie Culturelle. Paris: Librairie Larousse. – 345 p.
6. Oybek. Navoiy. – Toshkent: Fan, 2006. – 427 б.
7. Said Ahmad. Ufq. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2000. – 564 b.

Received: 10 March 2025

Accepted: 15 March 2025

Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

THE INFLUENCE OF ETHNIC GROUP MIGRATION ON THE FORMATION OF ETHNOTOPONYMS OF TASHKENT REGION

Abdullaev Akmal Amirovich

Doctor of Philosophy (PhD), acting Associate Professor
of the Department of Language and School Education
Tashkent Economics and Pedagogical Institute
E-mail: akmalabdullayev713@gmail.com

Abstract. The article discusses the connection of place names in the Tashkent region with ethnonyms. The influence of ethnic migration on the emergence of toponyms in the Tashkent area is explained on the basis of sources.

Keywords: ethnotoponyms, "Abdullanoma", Kongli, Dormon, Kipchak, Argyn, Almalyk, linguo-culturology.

TOSHKENT VILOYATI ETNOTOPONIMLARINING SHAKLLANISHIDA ETNIK GURUHLAR MIGRATSIYASINING TA'SIRI

Abdullayev Akmal Amirovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti
"Tillar va maktabgacha ta'lim" kafedrasida dotsenti v.b.

Annotatsiya. Maqolada Toshkent viloyati hududida mavjud joy nomlarining etnonimlar bilan bog'liqligi haqidagi fikr-mulohazalar bayon etilgan. Toshkent arealidagi toponimlarning paydo bo'lishida etnik guruhlar migratsiyasining ta'siri manbalar asosida izohlangan.

Kalit so'zlar: etnotoponimlar, "Abdullanoma", qongli, do'rmon, qipchoq, arg'in, olmaliq, lingvokulturologiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N25>

Kirish. Nomshunoslik (onomastika) fanida joy nomlari bir umumiy nom – toponimlar termini ostida o'rganilsa ham, urug'-qabila, elat va millat nomlari bilan ataluvchi joy nomlarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o'rganuvchi tarmoq sohasi etnotoponimika deb ataladi.

O'zbek nomshunosligida Toshkent viloyati toponimik manzarasidagi etnotoponimlar haqida muayyan ilmiy tadqiqotlar [13] va bir qancha ilmiy risolalar yaratilgan [2; 3; B. 84-90. 4; 6; B. 109-115. 7; B. 239-242. 9; 10;]. Biroq, viloyatning etnotoponimiyasi antroposentrik yondashuv asosida lingvomadaniy jihatdan hali monografik planda tadqiq qilinmagan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Markaziy Osiyo toponimiyasi, jumladan, O'zbekiston toponimiyasi qadimiy manbalarga ega. «Avesto», Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit-turk», Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma», Abu Tohirxo'ja ibn Abu Sa'idxojaning «Samariya», Abu Rayhon Beruniy, Yoqut al-Hamaviy, Sharofuddin Ali Yazdiy, Hofizi Abru, Hofiz Tanish al-Buxoriy, Mahmud ibn Vali, Is'hoqxon Ibratning tarixiy asarlari

vatanimiz toponimiyasini, jumladan, etnotoponimarini o'rganishda muhim tarixiy manba bo'la oladi.

Etnograf olim K. Fayziyev XX asrning 60-yillarida Toshkent viloyatining etnotoponimlarini tarixiy jihatdan tadqiq qilgan [13], Professor I. Yormatov ham Toshkent viloyati Ohangaron hududi joy nomlarining lisoniy tasnifini yoritishda o'zbek tili toponimlarining leksik-semantik, xronologik, grammatik tasnifiga doir tadqiqotlarga ilmiy-nazariy jihatdan tashqari, tarixiy-etnografik, folkloristik jihatdan ham ijodiy yondashgan [9; 10;]. Biz ham ushbu maqolada Toshkent viloyati etnotoponimlarini yoritishda bir qancha tarixchi, etnograf va tilshunos olimlarimizning etnonimlar va etnotoponimlar tasnifiga doir tadqiqotlariga nazariy hamda amaliy asoslanishni ma'qul topdik.

Muhokama. Toshkent viloyatining ko'pgina joy nomlari etnotoponimlar, ya'ni turli elat, urug'larning etnonimlari joy nomiga qo'yilishi natijasida paydo bo'lgan toponimlar hisoblanadi. Bu bir qancha tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillar bilan bog'liq. Bu haqda o'sha davrlarda yozilgan ko'plab manbalarda ma'lumotlar qoldirilgan. Mazkur hududdagi har bir etnotoponimlarning kelib chiqish tarixi etimologiyasi bor. Jumladan, Toshkent vohasidagi joy nomlarining etnoslar bilan bog'liq bir qancha ma'lumotlarni mashhur tarixchi adib Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" asarida ko'rishimiz mumkin. Asarda ayrim etnik guruhlarning nomi ularning kundalik mashg'ulotlari bilan bog'liqligini tasdiqlovchi ma'lumotlar ham mavjud bo'lib, uni muallifning qongli qavmi nomining kelib chiqishi to'g'risida keltirgan ma'lumotidan anglash mumkin. Hofiz Tanishning yozishicha, qonglilar arava yasash bilan shug'ullanib, uni mahorat bilan amalga oshirganlar. Bu aravalarning nomi qongli atalib, keyinchalik uni yasagan aholi ham shu nom bilan atala boshlangan [14; B. 36]. Bu etnonim vaqt o'tishi bilan joy nomiga ko'chgan. Bugungi kunda Qibray tumanida Qangli deb ataladigan joy nomi bor.

O'rta Osiyo tarixini yorituvchi manbalarda ko'p uchraydigan urug'lardan biri bu do'rmonlar bo'lib, ular Buxoro xonligida katta kuchga va mavqega ega bo'lgan. "Abdullanoma" asari muallifi do'rmon urug'i to'g'risida ma'lumot keltirib, uning etimologik ma'nosini berishga harakat qilgan. Hofiz Tanishning yozishicha, do'rmon toifasi Nirundan tarqagan bo'lib, ular to'rt o'g'il bo'lgan va o'zlari yashab turgan joydan Chingizxonning viloyatiga kirishni istagan. Ular sol bog'lab (yog'ochlarni birlashtirib bog'lab suvda suzish uchun moslashtirilgan moslama), unda suzib Chingizxon viloyatiga kirgan va hozirgi do'rmon qavmi o'shalarning naslidan hisoblanadi. Muallifning ta'kidlashicha, mo'g'ulchada "do'rmon" – "to'rt" degan ma'noni anglatadi [14; B. 46]. Hozirda Qibray tumanidagi joy nomlaridan biri Do'rmon deb ataladi.

Hofiz Tanish Buxoriy "Abdullanoma"da ayrim urug' va qabilalarning nomi hamda ularning geneologiyasiga to'xtalgan qismida qipchoq nomining kelib chiqishi haqida ham qiziqarli, shuningdek, bir-biriga zid fikrlarni bayon qilgan. Asar muallifining yozishicha, O'g'izxon davrida ikki daryo oralig'ida bo'lgan janglardan birida halok bo'lgan jangchining homilador xotini bir daraxt kovagiga kirib, shu yerda o'g'il farzand ko'rgan. O'g'izxon bolaning otasi yo'qligi sababli uni o'z vasiylikiga olgan va uning ismini "Qipchoq" deb qo'ygan. Hofiz Tanishning fikricha, mazkur ism "qabaq" so'zidan olingan bo'lib, turkchada kavakli daraxt shunday atalgan. Oradan yillar o'tgach, O'g'izxon itboqar qavmini (bu yerda Erondagi Seyiston viloyati nazarda tutilayotgan bo'lsa kerak, bu so'z Sakiston so'zining o'zgargan shakli, ya'ni itboqarlar yurti, degan ma'noni anglatadi – A.A.) yengib, Eron zaminini o'ziga bo'ysundirib yurtiga qaytgach, yana o'sha qavmning bosh ko'targanligi haqida xabar topgan. Shu sababli ularning zararli harakatlarining oldini olish uchun Qipchoqqa o'sha yaylovga joylashishlarini

buyurgan. O'sha zamondan beri bu yaylov va qishloqlar u qavmning makoniga aylandi, deb yozadi asar muallifi [14; B. 39]. Hofiz Tanish bu fikrlari orqali qipchoq qavmi nomining etimologiyasi va uning kelib chiqishi hamda ularning nima uchun yashash joyi o'sha yer bo'lganligini izohlashga harakat qilgan. Ammo, bu kabi ma'lumotlarning ilmiy asosga ega ekanligini aniqlab berish alohida etnologik va etnografik tadqiqotlarni talab qiladi. Hozirgi kunda respublikamizning ko'plab joylarida, jumladan, Toshkent viloyatining Ohangaron tumani va Chirchiq shahrida ham Qipchoq nomi bilan atalgan joy bor. Tilshunos olim Xudoyberdi Doniyorov: "o'zbek millatining son va tarkib jihatidan eng katta komponentini qipchoq – o'zbeklar tashkil etadi. Bu komponentning asosiy qismi tarixiy xronologik nuqtai nazardan o'zbek millatining tarkibiga eng keyin qo'shilgan, lekin ayni vaqtda butun millat a'zolarining yagona va umumiy nomi bo'lib qolgan "o'zbek" nomini ham shu komponent olib kelgan", – deya haqqoniy ta'kidlagan [8; B. 8-9. 1; B. 115].

Muhammad Solihxo'ja Toshkandiyning "Tarixi jadidayi Toshkand" asarida qo'ng'iroq, qang'li, sanjaqli, sergili, qora qayroq, arg'in, beshtamg'ali urug'lari qayd etiladi [11; B. 396-397]. Ushbu nomlari sanab o'tilganlar Toshkent va Dashti Qipchoq aholisi tarkibidagi etnik guruhlardir hamda hozirgi kunda ushbu etnonimlar Toshkent hududida joy nomlariga o'tgan. Misol uchun, Arg'in Qibray tumanidagi joy nomi. Bu urug' O'rta Osiyoda qadimda yashab kelgan va Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida qayd qilingan arg'u qabilasining o'zginasi bo'lsa kerak. «Boburnoma»da, o'zbek urug'larning dastlabki yozma shajarasi hisoblangan va Mulla Sayfiddin Axsikandiyning «Majmuat-tavorix» asarida keltirilgan o'zbek elatlari ro'yxatida bu urug' arg'un shaklida qayd qilingan. Bu etnonim mo'g'ulcha arg'in (o'zagi arg' – «duragay») so'zidan kelib chiqqan. Arg'in (arg'un) so'zi qirg'iz tilida hozir ham ana shu ma'noni anglatadi. Arg'u + n morfemalaridan iborat, **-n** affiksi qadimgi turkiy tilda ko'plik, jamlikni bildirgan; **-g'un** affiksining tarkibida ham shu qo'shimcha bor: **g'u + n**. Turli manbalarda u **arg'u-arg'un-arg'o'n, arqatug'-arkagut-arqag'un-arg'o'n, arqatug'-arkagut-arqag'un-arg'anut-arkanut-arkanud** tarzida qayd etilgan. A.P.Dulzonning fikricha, **-g'un** ural-oltoy tillariga xos ko'plik qo'shimchasi. Bu etnonimning fonetik o'zgarishi: **arqag'un > arg'an > arg'o'n > arg'u > arqa**. Demak, **arg'u + n** – arg'ular, arg'u qabilasiga mansub kishilar.

Shu narsa diqqatga sazovorki, ko'pgina etnonimlar, chunonchi, qalmoq, arg'in «duragay, qurama» degan ma'noni anglatgan. Aslini olganda boshqalar bilan aralashib, chatishib ketmagan bironta ham xalq yoki qabila yo'q – barcha ellar, urug'lar bir-birlari bilan aralashib, qo'shilib ketgan [4; 2].

Iloq vodiysining Ohangaron deb atala boshlashi va bu yerda o'zbek-quramalarning paydo bo'lishi mo'g'ullar istilosi davriga to'g'ri keladi. Shunisi xarakterliki, Chig'atoy o'zbeklari degan tushunchaning yuzaga kelishiga sababchi bo'lgan Muborakshoh (Chingizxonning nevarasi, Chig'atoyning o'g'li) 1226-yili hozirgi Ohangaron shahri yaqinidagi Shavkat (qadimiy nomi Sakokat) degan shaharchada qarorgoh qurib, mo'g'ul hukmdorlari orasida birinchi bo'lib musulmonlikni qabul qiladi va mahalliy aholi bilan juda yaqin qavm-qarindoshlik aloqasiga kirishadi. U hatto o'zi mansub bo'lgan olmaliq urug'i vakillarining katta qismini Mo'g'ulistondan ko'chirib keltirib, Shavkatning qarshisidagi – daryoning so'l sohilidagi sero't adirlarga joylashtiradi. O'sha qavm tufayli Olmaliq degan shahar hozir Mo'g'ulistonda ham O'zbekistonda ham mavjud [9; B. 66].

Toshkent hamda uning shimoliy hududlarida yashovchi aholining etnik tarkibi, ular o'rtasidagi integratsion jarayonlarga oid ma'lumotlar Abu Ubaydulloh Toshkandiyning "Xulosat

ul-ahvol” asarida ham o‘z aksini topgan. Xususan, qozoq va qirg‘izlar, ularning Qo‘qon xonligi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotidagi o‘rni hamda bu ikki etnoslar o‘rtasidagi integratsiyaga doir bo‘lgan ma‘lumotlar lingvomadaniyatshunoslik sohasidagi tadqiqot uchun muhim o‘rin tutadi.

Avaz Muhammad Attorning “Tarixi jahonnamoyi” asarida 92 o‘zbek qavmining ro‘yxati keltirilganligi bilan alohida ahamiyatga ega [2; B. 22].

Natijalar. XVI asrgacha va undan keyingi davrlarda Markaziy Osiyoda yuz bergan migratsion jarayonlar natijasida xonliklar, jumladan, o‘sha davrdagi Qo‘qon xonligi tarkibidagi Toshkent vohasi aholisi tarkibiga turfa xil madaniyat va urf-odatga ega turli etnik guruhlarining kelib qo‘shilishi uzluksiz davom etgan. Bu, o‘z o‘rnida, xonliklar aholisi tarkibida ayrim o‘zgarishlarning sodir bo‘lishiga olib kelgan. Bu holatni yuzaga keltirgan o‘ziga xos omillar mavjud bo‘lib, hududda sodir bo‘lgan tabiiy hodisalar, mamlakatda kechgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar shular jumlasidandir.

Aholi soni va uning etnik tarkibiga ta‘sir ko‘rsatuvchi bu holatlarning barchasi aynan bugungi ko‘rinishda bo‘lmasa-da, biroq o‘rta asrlarda o‘ziga xos tarzda yuz bergan. Bu davrdagi demografik o‘zgarishlarning asosiy omili hisoblangan migratsion va emigratsion jarayonlarni o‘rganish, turli etnik guruhlarining bir hududdan ikkinchi joyga kelib qolish tarixini tadqiq qilish, mintaqadagi aholining madaniyati, til elementlaridagi o‘ziga xoslik, xo‘jalik turmush tarzidagi o‘zgarishlarning sabablarini ochib berish imkoniyatini beradi.

XVI-XIX asrlarda bitilgan asarlarda Qo‘qon xonligi, xususan, uning o‘sha paytda tarkibida bo‘lgan Toshkent vohasining etnik tarkibi boyishiga va son jihatidan o‘shishiga yana bir iqtisodiy omil, ya‘ni aholining kundalik ehtiyoj mollariga bo‘lgan zarurati ham sabab bo‘lganligini tasdiqlovchi ma‘lumotlar bor. Sababi, tadqiqot doirasida o‘rganilayotgan deyarli barcha manbalardan bu haqdagi ma‘lumotlarni uchratish mumkin. Jumladan, manbalarda qayd qilinishicha, ko‘chmanchi turmush tarzida yashagan Qozoq xonligi aholisi o‘z yaylovlarini kengaytirish maqsadida yoki oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoji tufayli o‘sha davrdagi xonliklar tasarrufidagi dehqonchilik mahsulotlariga boy bo‘lgan hududlarini egallash uchun doimiy ravishda harakat qilgan. Buning natijasida ko‘plab dasht aholisi, jumladan, qozoqlarning ko‘plab urug‘lari Turkiston, Sabron, Yassi, Sayram va Toshkent hududlariga kelib o‘rnashgan [2; B. 46].

Bundan tashqari, ayrim shaharlardagi, jumladan, Toshkent vohasidagi ilm-fan taraqqiyoti va ularning madaniy markazga aylanishi qo‘shni davlatlar xalqini ana shu shaharlarga kelib ilm olishiga va ko‘pchilik qismining bu yerlarda yashab qolishiga sabab bo‘lgan.

Yuqorida qayd etib o‘tilganidek, turli-tuman omillar natijasida yuz bergan demografik jarayonlar ayrim hollarda mintaqa aholisi tarkibining boyishi va qurama (turli etnik guruhlarining o‘zaro aralash)uviga sabab bo‘lgan. Bu holat etnointegratsion jarayonlarni yuzaga keltirib, xalqlarning madaniy hayoti hamda xo‘jalik turmush tarzida o‘zaro ta‘sirni keltirib chiqargan. Turli ko‘rinishdagi an‘ana, urf-odatlar va til unsurlari bir-birini boyitgan, ayniqsa, ko‘chmanchi chorvador aholining o‘troqlashuvi yanada tezlashib, yashash tarzi va mashg‘ulotida bir qator o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Odatda, ko‘chmanchi urug‘lar va elatlar qayerda o‘troqlashsa, o‘sha yerni urug‘i yoki elining nomi bilan atash odati mavjud bo‘lgan. Bu holatni Toshkent viloyati hududidagi ko‘plab toponimlar nomining tarixiy etimologiyasidan bilishimiz mumkin bo‘ladi.

Shuningdek, bu jarayonda hududga turli tilli etnik guruhlarining kirib kelishi, o'z o'rnida, mahalliy aholi til elementlariga yangi so'z va iboralarning qo'shilishiga ham sabab bo'lgan.

Xulosa. Har bir xalq hozirda yashab turgan hududlari bilan azaldan bog'liqdir. Dunyoda biror xalq yo'qki, o'zining etnogenez bosqichida mintaqadagi boshqa etnik birliklar bilan aralashmagan bo'lsa [3; B. 3]. Bu haqda O'rta Osiyo xalqlari tarixining bilimdoni, prof. S.P.Tolstov shunday degan edi: «Hozirgi zamon O'rta Osiyo xalqlarining birontasi ham qadimgi etnik guruhlariga bevosita borib taqalmaydi. Aksincha, ularning shakllanishida, yerli xalqlar va tevarak-atrofdan ko'chib kelgan xalqlar har xil nisbatda o'z aksini topgan» [12; B. 74]. Bundan Toshkent vohasi xalqi ham mustasno emas.

Mintaqada sodir bo'lgan bu etnointegratsion jarayonlarning lingvokulturologik hosilasini ko'rsatib berish alohida yirik fundamental tadqiqotlarni talab qiladi. Chunki bu masalani to'liq yoritib berish uchun manbalardagi ma'lumotlarning o'zi yetarli bo'lmay, buning uchun lingvistik, antropologik hamda etnografik jihatdan keng ko'lamdagi tadqiqot natijalarini o'zaro qiyosiy tahlil qilish zarur.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Абдиев М. Худойберди Дониёров // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2017. – № 4.
2. Алимова Д.А., Аширов А.А. Ўрта Осиё халқларининг этник тарихи ва минтақада юз берган демографик жараёнларнинг манбаларда акс этиши (XVI-XIX аср биринчи ярми.– Тошкент: “Yangi nashr”, 2011. – Б 128.
3. Асқаров А.А. Ўзбек халқи этногенези ва этник тарихининг баъзи бир назарий ва илмий-методологик масалалари // “Ўзбек халқининг келиб чиқиши: илмий-методологик ёндашувлар, этногенетик ва этник тарих” мавзусидаги республика илмий-назарий семинар материаллари. –Тошкент, 2004 йил, 19-20 ноябрь. – Б 84.
4. А.Х. Арифбаев, С.Қ. Қораев. Ўзбек халқи этногенезини ўрганишда этнонимларнинг роли. Интернет манба: <https://shosh.uz/uzbek-halqi-etnogenezini-organishda-etnonimlarning-rol/>.
5. Бартольд В.В. Сочинения. I том. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – М.: Издательство Восточной литературы. 1963. – 763 с.
6. Boboyorov G'V. Ilk O'rta asrlarda Choch vohasida turkiy toponimlar // O'zbekiston urbanistik madaniyati. Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. –Toshkent, 2003. – B. 109-115.
7. Бўриев О., Усмонов М. Чоч – Тошкент воҳаси аҳолисининг этник хусусиятлари (IX–XII асрлар) // Тошкент шаҳрининг 2200 йиллик юбилейига бағишланган Халқаро илмий конференция материаллари. – Тошкент: Фан, 2009. – Б. 239-242.
8. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 242.
9. Ёрматов И. Илоқ тарихи. – Тошкент: Фан, 2005. – 73 б.
10. Ёрматов И. Оҳангарон ўзбекларининг этник хусусиятлари ва оғзаки ижоди. – Тошкент: Navro'z, 2013. – 117 б.
11. Муҳаммад Солиххўжа Тошкандий. Тарихи жадидайи Тошканд. ЎзФА ШИ қўлёзма, инв. №5732 . – Б 483.
12. Толстов С.П. Основные проблемы этногенеза народов Средней Азии. СЭ, 1947. №VI-VII. С.304.
13. Файзиев Т. Узбеки-Курама: В прошлом и настоящем. Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1963. – 24 с.
14. Ҳофиз Таниш Бухорий. Абдуллонома. 1-китоб. – Т.: Шарқ, 1999. – Б 276.

Received: 10 March 2025

Accepted: 15 March 2025

Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

THE EXPRESSION OF THE AUTHOR'S BIOGRAPHY IN THE NOVEL "THE YOUNG MAN WITH FIVE CHILDREN" BY KHUDOYBERDI TOKHTABAEV

Sayfullaeva Dilnoza Dilshod qizi

Uzbek language teacher of UWED

E-mail: delmuradova@bk.ru

Abstract. In this article, the psychological development and social role of each character in the work is studied. Their changes and internal struggles, the sense of social responsibility and the complexities of their characters are the central ideas of the novel.

Keywords: childhood, psychology, social responsibility, autobiography, inner struggle, personal development.

XUDOYBERDI TO'XTABOYEVNING "BESH BOLALI YIGITCHA" ROMANIDA MUALLIF BIOGRAFIYASI IFODASI

Sayfullayeva Dilnoza Dilshod qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

O'zbek va rus tillari kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada, asardagi har bir qahramonning psixologik rivojlanishi va ijtimoiy roli o'rganiladi. Ularning o'zgarishlari va ichki kurashlari, ijtimoiy mas'uliyat hissi va xarakterlaridagi murakkabliklar romanning markaziy g'oyalari tashkil etadi.

Kalit so'zlar: bolalik, psixologiya, ijtimoiy mas'uliyat, avtobiografiya, ichki kurash, shaxsiy rivojlanish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N26>

O'zbek yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyev bolalar adabiyotidagi asarlari ("Sariq devni minib", "Shirin qovunlar mamlakati", "Mungli ko'zlar", "Besh bolali yigitcha") bilan butun dunyoga tanilgan. Adib ijodi bolalar ruhiyatini chuqur anglash va ularning ichki dunyosini tasvirlashga qaratilgan. U asarlarida hazil-mutoyiba, kulgi orqali jiddiy hayotiy haqiqatlarni ifodalashda mahorat ko'rsatadi.

Yozuvchi ijodi faqat bolalar adabiyotiga qaratilmagan. Uning asarlarida yoshlarning hayoti, o'zaro munosabatlari va jamiyatdagi o'zgarishlar yorqin tasvirlanadi. Shuningdek, yozuvchi jamiyatdagi ijtimoiy va shaxsiy muammolarni tasvirlashda ustalik ko'rsatgan. Xudoyberdi To'xtaboyev romanlari nafaqat bolalar, balki katta yoshdagi kitobxon muxlislari (ba'zan katta yoshda bo'lsangiz ham bolalarning beg'ubor dunyosiga sho'ng'igingiz keladi) yuragidan ham joy olgan. Uning asarlarida kulgi ortida yashiringan achchiq haqiqat insonni mulohaza qilishga chorlaydi.

Xudoyberdi To'xtaboyevning "Besh bolali yigitcha" romani o'zbek bolalar adabiyotining yirik asarlaridan biri bo'lib, unda bolalik davridagi ruhiy kechinmalar, mas'uliyat hissi, o'zgaruvchan xarakterlar va oilaviy muhitda yuzaga kelgan ijtimoiy sharoitlar chuqur tahlil

qilinadi. Roman nafaqat o'quvchi yoshlarni, balki kattalarni ham o'ziga jalb etadi, chunki unda insonning ichki kurashlari, oilaviy va ijtimoiy mas'uliyatlari, tengdoshlar o'rtasidagi munosabatlar orqali bolalikning psixologik murakkabligi keltiriladi.

“Besh bolali yigitcha” romanida adibning avtobiografiyasiga oid detallar ham uchraydi:

1. 1941-1947-yillar avval qishlog'idagi maktabda, keyin esa o'gay otasi usta Abduqodirning ishchi batalyonga ketgani tufayli 8bola turli bolalar uyida bo'lgani;
2. 1949-yil Qo'qon pedagogika bilim yurtini tamomlagani. Pedagogika bilim yurtiga ketayotganlarida Mahmudjon ismli do'stining yo'lda qochib ketishi haqidagi voqeani adib o'z xotiralarida aytib o'tadi. “Jannati odamlar” romanida ham, “Besh bolali yigitcha”da ham Mahmudxon ismi zikr etiladi. Bu voqealarning romanga ko'chishi asarning avtobiografik xarakterda ekanidan dalolat.

Muallif bu mavzuga ijodining keyingi yillarida ham qo'l uradi. “Xalq so'zi” gazetasining 2005-yil 8-yanvar sonida chop etilgan “Qalbg'inamning quvonchi” nomli hikoyasida ham Qobiljon obrazi orqali urush davrining qiyinchiliklari insonlarga qay darajada ta'sir ko'rsatishini tasvirlab beradi. Qobiljon qahramoni Orifjon va Rahmonberdidan farqli ravishda katta yoshdagi yigit edi. Otasi urushda vafot etgan, onasidan ham ajragan bola buvisi Robiya xola (adibning o'z buvisining ismi)ning qo'lida tarbiyalanadi. Ko'rinadiki, muallif ijodining turli yillarida bu mavzuga murojaat qilgan. Boisi ota-onasiz katta bo'lgan yozuvchining bolaligida ro'y bergan voqealar jamiyatda hali-hamon o'z yechimini topmagan edi.

Orifjonning onasi, muallifning otasi vafot etgan. Xudoyberdi To'xtaboyevning onasi tirik bo'lsa-da, bobo buvisining tarbiyasida bo'lgani uchun u bilan ko'rish olmaydi. Orifjon ham otasi urushdaligi tufayli ukalari bilan birgalikda Parpi buva va To'xta xolalarning tarbiyasida bo'lishadi.

Romaning bosh qahramoni Orifjonning, uning oilasi, ukalari va atrofdagi boshqa shaxslar bilan o'zaro munosabatlari orqali Xudoyberdi To'xtaboyev bolalar dunyosini chuqur tahlil qiladi va o'quvchiga nafaqat bolalar, balki kattalar ham qanday qilib shaxs sifatida o'sishlari kerakligi haqida keng fikrlarni taqdim etadi.

Orifjonning portreti: mas'uliyat va jamiyatga nisbatan hissiyotlar

Orifjon – romanning bosh qahramoni bo'lib, uning shaxsiy o'sishi va ruhiy rivojlanishi asar davomida diqqat markazida bo'ladi. “Besh bolali” qahramonimiz roman boshida beg'ubor yoshlik davrini surayotgan yigitcha, sho'x va latifa aytib, jamiyatdagi kayfiyatni ko'taruvchi bola sifatida ko'rsatilgan bo'lsa-da, uning shaxsiyati va mas'uliyati ortib borishi bilan hikoya murakkablashadi. U yoshlik davrida oilaviy mas'uliyatni o'z zimmasiga olish orqali kattalar dunyosiga qadam qo'yadi. Orifjonning ichki kurashlari, o'z ukalari va onasi bilan bo'lgan munosabatlari, uning ijtimoiy o'zgarishlarni qanday qabul qilishini ko'rsatadi. Oilasidagi muvozanatni saqlashga intilayotganligi tufayli psixologiyasi juda murakkabdir.

Orifjonning ruhiy o'sishi o'zining shaxsiy orzulari va oilaviy mas'uliyatlar o'rtasida muvozanatni topish jarayonida yuzaga keladi. U o'zining ruhiy olamida qiyinchiliklarni boshdan kechirsa-da, jamiyatga nisbatan ijtimoiy mas'uliyatini his qiladi. Orifjonning mas'uliyati nafaqat oilaviy vazifalar bilan cheklanadi, balki uning tengdoshlarining ham o'zgarishlariga ta'sir qiladi.

Ukalariga mehribon, boshiga tashvish tushganda o'zini yo'qotib qo'ymaydigan, xalq, Vatan talab qilgani uchun ota-ona o'rnini bosa olgan Orifjon xizmatlarining mukofotini oladi: u

o'zi orzu qilganidek yoshlar tashkilotiga qabul qilinibgina qolmay, qo'mitaning kotibi etib tayinlanadi. Roziq tog'ani buxgalterlikka o'qishga jo'natganlarida esa brigadir etib tayinlanadi.

Sultonning xarakteri: Ijtimoiy va psixologik zarbalar

Sulton – Orifjonning 12 yoshli ukasi, uning xarakteri roman davomida ijtimoiy muhitning, ota-onaning yo'qligi va o'z-o'zini anglashdagi muammolarni ko'rsatadi. Sulton o'zining o'spirinlik davrida ota-ona mehridan mahrum bo'lib, to'g'ri tarbiya olmaydi. U Orifjonning mas'uliyatini anglamaydi, aksincha, oilaviy muammolarni hal qilishda uning yordamidan foydalanishga harakat qiladi.

Sultonning xarakteri juda o'zgaruvchan, ba'zan katta mehnatni talab qiladigan ishlarni bajarish istagini, ba'zan esa, mutlaq dangasalikni namoyon qiladi: "Sulton fe'ldor, ko'ngli xushlasa, eshakday ishlaydi, xushlamasa yana o'sha eshakka o'xshab, to'rt oyog'ini bir joyga tirab turaveradi". [6; 12-bet] Sultonning hayotga bo'lgan noxush munosabati va u jiddiy mas'uliyatlarni qabul qilishga tayyor bo'lmasligi, Orifjonning unga doimiy ravishda mehr ko'rsatish va tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojini kuchaytiradi.

Sultonning o'zini anglashdagi muammolari, o'ziga xos psixologik zarbalar sifatida qaraladi, chunki u ijtimoiy himoyaga muhtoj va bu vaziyat uning tarbiyasini butunlay qayta shakllantirishga intiladi. U oilasiga zarar yetkazmaslik uchun harakat qilsa-da, uning xulq-atvori ba'zan Orifjonning hayotini murakkablashtiradi. Bolalar uyidan Sultonning qochib ketishi ham aka-ukaning tabiatidagi farqlarni ko'rsatadi. Qahramonimizning xudbinligini biz bolalar uyidan qochib kelib bir o'zi yetti bolaning ovqatini yeb yurib, uyda ekanini akasiga hatto xabar ham berib qo'ymaganidan bilishimiz mumkin. Uning bu qochishi ham qorin g'amida, Parpi buva To'xta xolaning topganini yeb, yegani oldida yemagani ketida yurish deb, ataylab rejalashtirilgan edi. Akasi va ukalari Toshkentdan kelgach Usmon bilan Omonni Orifjonga qarshi qayrashni boshlaydi. Voqea ukalari uchun ham otalik, ham onalik qilgan yigitchaning ulardan kaltak yeyishi bilan tugaydi. Urush davrining to'qmoqlari cho'rtkesar, oxirini o'ylamay ish qiladigan Sultonning boshini yoradi. Bir o'zi bo'lsa mayli-kuya, o'zi bilan birga Usmonga ham yomon bo'ladi.

Bahorga kelib boshlangan ocharchilik Sulton va Usmonni birovlarining uyiga shayton qiyofasida kirib, ovqat o'g'irlashga majbur qiladi. Meli baqqolning hovlisiga 2-marta kirganlaridan so'ng qo'lga tushadilar. Aka-uka isnodga chiday olmay Qo'qondagi bolalar uyiga ketib qoladilar. Shu tariqa Sulton va Usmonning taqdiri bolalar uyida tarbiyalanish bilan davom etadi.

Usmon va Zulayho: Ijtimoiy adaptatsiya va shaxsiy rivojlanish

Usmon – Orifjonning ukasi, Sultonning qarama-qarshi obrazidir. Usmon jamiyatga moslashishga tayyor, mehnatsevar va o'qishga katta ishtiyoq bilan yondashadigan bola sifatida tasvirlanadi. U otasi urushga ketganidan so'ng o'qish bilan shug'ullanib, qolib ketgan darslarni bajarib, mukofot olishga muvaffaq bo'ladi. Usmon Orifjonning tarbiyasini, mas'uliyatini to'g'ri tushunib, uni qo'llab-quvvatlaydi.

Zulayho esa romandagi eng erta kattalikni o'zida aks ettiradigan qahramonlardan biridir. U o'zining tarbiyasi bilan shug'ullanadi va Orifjonning yelkasidagi mas'uliyatni yaxshi tushunadi. Zulayhoning orzulari, o'qishdan ko'zlangan maqsadi uni mustahkam ruhiy holatga olib keladi. U maktabda o'qishni davom ettirib, keyinchalik Qo'qondagi pedagogika bilim yurtiga kirishiga muvaffaq bo'ladi. Zulayhoning xarakteri o'zining jasorati va mehnatga bo'lgan muhabbati orqali roman davomida o'zgaradi.

Bolalar uyidagi ijtimoiy o'zgarishlar

Asarda bolalar uyining rolini alohida ta'kidlash kerak. Orifjon va uning ukalari, shuningdek, boshqa bolalar ham, bir vaqtning o'zida ijtimoiy qiyinchiliklarni boshdan kechiradilar. "Besh bolali yigitcha" romanida bolalar uyi faqatgina jismoniy saqlash joyi emas, balki tarbiya, mehr va muhabbatga ehtiyoj sezayotgan yoshlarga jamiyat tomonidan ko'rsatilgan e'tiborni aks ettiradi. Mariya Pavlovna kabi bolalar uyida tarbiyalangan shaxslar, o'zlarini nafaqat jismoniy, balki ma'naviy jihatdan ham zaif his qiladilar. Bu bolalar o'zaro mehr-muhabbatga chanqoq, ammo ular uchun hayotdagi eng katta orzu ota-onaning qaytishi va ijtimoiy hayotda o'z o'rinlarini topishdir.

Bolalar uyidagi do'stlar, shu jumladan, novcha, yuziga bilinar-bilinmas sepkil toshgan, peshonasi yiltiroq, qo'ng'ir sochli, ilon o'ynatishni yaxshi ko'radigan, ota-onasi urush boshlanmasdan avval o'z ajali bilan o'lgan, bolalar uyidagi eng a'lochi, rahmdil mehribon o'quvchilardan bo'lgan Samovar laqabli Samarjon, yuzlari qop-qora, ko'zlari chaqnab, yelkalari galma-gal uchib turadigan Qoravoy va bezoriligi uchun bolalar uyidan haydalavergan Shermat kabi obrazlar, har biri ijtimoiy ma'naviyatni, adolat va rahm-shafqatni o'rganayotgan, ijtimoiy jihatdan rivojlanayotgan shaxslar sifatida ko'rsatiladi. Samarjon va Qoravoy Qo'qondagi bolalar uyida ham, Sulton yo'qolib qolganda ham Orifjonni yolg'izlatib qo'ymaydilar. Lekin bu qahramonlarning xarakter xususiyatidan ko'ra Shermatniki ko'proq ochib berilgan. Shermatning obrazida bezorilik xususiyatlari, ijtimoiy tizimning unga bo'lgan munosabati, va muammolarni qanday hal qilishga bo'lgan urinishlarini tushunish mumkin. Bu obrazlar yordamida yozuvchi, bolalar uyi va uning ichki dinamikalarini, o'zgaruvchan shaxsiyatlarni tasvirlaydi.

Shermat – romanning murakkab va qiyin shaxsiyatli qahramonlaridandir. U bolalar uyida bo'lgan bir qator yomon va o'zgacha xulqli bolalardan biridir. Shermatning hayotida ko'plab qiyinchiliklar mavjud. U 3yoshida bozorda yo'qolgan, hayotning qiyin tomonlari bilan tanishgani uchun toshbag'ir bo'lib ketgan personaj sifatida tasvirlanadi. Shermatning xarakteri doimiy ijtimoiy izolyatsiya, yomon tarbiya va boshqalar bilan bo'lgan muloqotlarda keskin o'zgaradi. Yigitcha bolalar uyida bir qancha muammolarga duch keladi, lekin romanning oxirida u o'zining yomon harakatlaridan pushaymon bo'ladi va Orifjonga ukalarini jamlab, Sultonni qidirib Qo'qonga ketishlari uchun ham kuch, ham yordam beradi. To'plab qo'ygan pullari, ustidagi kostyumini berib poyezdgacha kuzatib qo'yadi.

Mariya Pavlovna esa bolalar uyida ijtimoiy mehnat va tarbiyaning muvaffaqiyatini namoyon qiluvchi qahramonlardan biridir. Uning ota-onasi urushda halok bo'lgach, Qo'qondagi bolalar uyiga yuborilgan. Mariya Pavlovnaning psixologik portreti, shuningdek, uning qayta ijtimoiylashishi va yangi oilaviy muhiti bilan moslashishini aks ettiradi. Uyga qaytganlaridan keyin ham Orifjon va ukalarining taqdiri Mariya Pavlovna bilan bog'lanadi. Bolalarning ta'lim olishida, Orifjonning yoshlar uyushmasiga kotib, keyinchalik esa brigadir etib tayinlanishida uning xizmati katta bo'ladi.

Xulosa. Xudoyberdi To'xtaboyevning "Besh bolali yigitcha" romani bolalik davridagi psixologik murakkablik, oilaviy mas'uliyat va jamiyatga moslashish masalalarini chuqur tahlil qiladi. Orifjon, Sulton, Usmon, Zulayho, Shermat va Mariya Pavlovna kabi qahramonlar voqealar rivoji davomida o'zining shaxsiy va ijtimoiy o'sishini ko'rsatadilar. Ularning ichki kurashlari, tarbiyadagi muammolar, mas'uliyat hissi va jamiyatdagi o'z o'rinlarini topishdagi muvaffaqiyatlari, romanning asosiy g'oyalarini tashkil etadi. Xudoyberdi To'xtaboyevning asari

nafaqat bolalar, balki kattalar uchun ham muhim saboqlarni taqdim etadi. Orifjon va uning atrofidagi boshqa qahramonlarning psixologik o'sishi, insoniyatning umumiy qadriyatlariga mos keladigan jamiyatda yashashni o'rganishda o'quvchiga katta yordam beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mahmudov L. (2005). "Xudoyberdi To'xtaboyevning badiiy dunyosi". *O'zbek adabiyoti*
2. Rasulova U. CHANGES IN LITERARY CRITICISM //Science and Innovation. – 2023. – T. 2. – №. 5. – C. 39-41.
3. Rasulova U. Devotees of knowledge //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 10. – C. 1270-1274.
4. Rasulova U. THE EXPRESSION OF DIVINE LOVE IN CURRENT STORIES //Конференции. – 2020.
5. Sayfullayeva D. THE ROLE OF MONOLOGUE AND DIALOGUE IN KHUDOYBERDI TOKHTABAEV'S NOVEL" MUNGLI KOZLAR" //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. C10. – C. 154-158.
6. To'xtaboyev X. (2009). *Besh bolali yigitcha*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
7. Tursunov S. (2008). "O'zbek bolalar adabiyotining rivojlanishi". *Adabiyotshunoslik*.

Received: 10 March 2025

Accepted: 15 March 2025

Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

GRAMMATICAL AND STRUCTURAL CHARACTERISTICS OF MERONYMS

Rahmonova Surayyo Nematovna

Employee of the Department of Preschool and School

Education of the Baysun District

E-mail: surayyorahmonova80@gmail.com

Abstract. This article discusses views on meronyms, their grammatical and structural aspects, and their thematic description.

Keywords: meronym, paronym, grammatical features, thematic classification, meronyms belonging to different thematic groups.

MERONIMLARNING GRAMMATIK VA STRUKTURAVIY XUSUSIYATLARI

Rahmonova Surayyo Ne'matovna

Boysun tumani Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi xodimi

Annotatsiya. Ushbu maqolada meronimlar borasidagi qarashlar, ularning grammatik va strukturaviy jihatlari, ularning mavzuli tavsiflanishi borasida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: meronim, paronim, grammatik xususiyatlar, mavzuli tasniflanish, turli tematik guruhga mansub meronimlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N27>

Kirish. Meronimlar — predmetning butun tarkibiy qismlarini bildiruvchi so'zlar bo'lib, lingvistik jihatdan turli jihatlarni namoyon etadi. Ularning asosiy sintaktik xususiyatlari quyidagilardan iborat. Yunoncha *meros* (qism) va *onoma* (nom) so'zlaridan olingan bu atama obyektning ma'lum bir qismini bildiruvchi so'zlarni anglatadi. Masalan, "g'ildirak" so'zi "mashina" uchun meronim hisoblanadi, chunki mashinaning bir qismi g'ildirakdan iborat. Meronim va uning asosiy obyekti (holonim) iyerarxik munosabatda bo'ladi. Masalan, "barmoqlar" qo'lning bir qismi, qo'l esa inson tanasining bir qismi hisoblanadi. Meronimlar, odatda, butunning ajralmas yoki asosiy tarkibiy qismini ifodalaydi. Ba'zi so'zlar kontekstga qarab meronim bo'lishi mumkin. Masalan, "list" so'zi daraxt uchun meronim bo'lsa, qog'oz kontekstida bunday emas.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Meronimlar dunyo tilshunoslarini qiziqtirgan soha hisoblanadi va bu borada bir qator muhim ishlar olib borilgan. Jumladan, Jon Lyons o'zining Semantika nomli kitobida meronimiyani leksik semantikaning ajralmas qismi sifatida o'rganib, uni sinonimiya, antonimiya va hiponimiya bilan taqqoslaydi. Charlz Fillmor meronimiyani semantik ramkalar orqali tushuntirib, qism-butun munosabatlarini pragmatik kontekstda qanday tushunish mumkinligini ko'rsatgan.

Muhokama va natijalar. Meronimiya – butun va uning qismlari o'rtasidagi munosabat bo'lib, turli tuzilish va grammatik xususiyatlarga ega. Ularning asosiy jihatlaridan biri iyerarxik

tuzilmaga egaligidir. Meronimlar odatda pog'onali tuzilishga ega. Ya'ni, biror butun tarkibida bir nechta qism bo'lishi va u qismlar o'z navbatida yanada kichik qismlarga ajralishi mumkin. Masalan: *Avtomobil* → *motor* → *porshen*; *Uy* → *xonalar* → *deraza*. Bu degani, meronimiya har doim faqat bitta darajaga emas, balki ko'p pog'onali tuzilishga ega bo'lishi mumkin [1].

Qismlar butunning ajralmas yoki ajraluvchan bo'lishiga qarab meronimlar farqlanadi: *Ajralmas qismlar*: butun yo'q bo'lsa, qism ham yo'q bo'ladi. Masalan, *yuraksiz odam mavjud bo'la olmaydi*. *Ajraluvchan qismlar*: butun saqlanib tursa ham, qismi olinishi mumkin. Masalan, mashina g'ildiraksiz tursa ham, mashina deb atalishi mumkin.

Meronimlar gap tarkibida turli grammatik vazifalarda kelishi mumkin. Masalan: *Uyning eshigi* → egalik qo'shimchasi bilan bog'lanadi. *Kompyuter tarkibiga klaviatura kiradi*. → Tarkibiy bog'liqlik ifodalanadi. Ularning asosiy sintaktik xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Aniqlovchi vazifasida. Meronimlar aniqlovchi bo'lib, butunning qism-xususiyatlarini ta'riflaydi. Masalan: Daraxtning shoxlari silkinib turardi. (Bu yerda shoxlari – daraxt meronimi).

Ega vazifasida. Meronim predmet sifatida gapda mustaqil ravishda ega bo'lishi mumkin. Masalan: Ko'zlari chaqnab ketdi. (Ko'zlari – odamning bir qismi)

To'ldiruvchi vazifasida. Meronimlar kesim yoki boshqa so'zlarga bog'liq holda to'ldiruvchi bo'lib keladi. Masalan: Devorning g'ishtlarini almashtirish kerak. (G'ishtlarini – devor meronimi) [2].

Hol vazifasida. Meronimlar gapda harakatning qanday, qaysi qism bilan bajarilishini bildiradi. Masalan: Qo'llari bilan eshikni itardi. (Qo'llari bilan – qo'l meronimi, harakatni bildiradi).

Kesim tarkibida. Ba'zan meronimlar sifatli fe'llar bilan birikib, kesim tarkibida bo'lishi mumkin. Masalan: Ko'ngli xira tortdi. (Ko'ngli – inson meronimi). Shunday qilib, meronimlar gapda turli sintaktik lavozimlarda kelib, predmetning tarkibiy qismlarini ifodalaydi [2].

Meronimlarning semantik xususiyatlari. Semantik jihatdan meronimlar bir necha turga bo'linadi:

a) Anatomik (tana qismlari bilan bog'liq) meronimiya. Bu tur jonli mavjudotlarning tana qismlarini anglatadi. Inson → bosh, qo'l, oyoq; Baliq → suzgich, tangacha, suyak. Meronimlar predmetning butun tarkibiy qismlarini bildiruvchi leksik birliklar bo'lib, anatomik jihatdan inson, hayvon yoki boshqa organizmlarning a'zolari va tuzilmalari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Inson va hayvon anatomiyasiga oid meronimlar.

Bu turdagi meronimlar tirik organizmlarning tana qismlarini ifodalaydi:

Tashqi tana a'zolari: bosh, qo'l, oyoq, barmoq, tizza, tirsak, yelka, kaft, panja.

Ichki organlar: yurak, jigar, o'pka, oshqozon, buyrak, ichak, miya.

Skelet qismlari: bosh suyagi, umurtqa, qovurg'a, chanoq, bo'g'imlar.

O'simliklar anatomiyasiga oid meronimlar.

O'simliklarning tuzilishini tavsiflovchi meronimlar quyidagilardan iborat:

Ildiz tizimi: ildiz, yon ildizlar.

Poya va novda qismlari: poya, novda, shox, po'stloq.

Barg va gul qismlari: barg, gul, gulbarg, changchi, urug'lik.

Meva qismlari: po'choq, urug', eti, danak [3].

Tibbiyotda meronimlar inson organlarini tasniflash va davolashda ishlatiladi. Masalan, yurak meronimi kardiologiyada, o'pka pulmonologiyada muhim tushunchadir. Biologiyada

organizmlar tuzilishini o'rganishda meronimlar zarur. Masalan, o'simliklarning ildiz tizimi yoki barg morfologiyasi fan sohalarida o'rganiladi.

b) Obyekt meronimiyasi (moddiy qismlar). Jismoniy narsalarning qismlarini anglatadi. Stol → oyoq, taxta, sirt; Telefon → ekran, tugma, batareya. Bu meronimlarning farqi shundaki, ularning har biri moddiy jism sifatida mavjud va butunga tegishlidir.

c) Kognitiv va mavhum meronimiya. Ba'zan meronimiya moddiy obyektlar emas, balki abstrakt tushunchalar o'rtasida ham bo'ladi. Kitob → bob, paragraf; Musiqa → nota, akkord; Kompaniya → bo'limlar. Bu turdagi meronimiya strukturaviy jihatdan ajraluvchi bo'lsa-da, semantik jihatdan bir butun hisoblanadi.

Inson tafakkuri, bilimi va aqliy jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan tushunchalar doirasidagi qism-butun munosabatlarini kognitiv meronimiya ifodalaydi. Bu turdagi meronimiyaga quyidagilar kiradi:

1.1. Tilshunoslik va nutq bilan bog'liq meronimiya. Til birliklari o'zaro tarkibiy bog'liqlik asosida qism-butun munosabatini ifodalaydi:

Matn qismlari: sarlavha → paragraf → gap → so'z → fonema; nutq qismlari: kirish → asosiy qism → xulosa; grammatika qismlari: morfema → so'z → gap → matn. Masalan: Kitobning sahifalarida ko'plab qimmatli ma'lumotlar bor. (Sahifa – kitob meronimi) [4].

1.2. Bilim va tafakkur meronimiyasi. Inson bilimi qism-butun munosabatlariga asoslanadi:

Fan va bilim tarmoqlari: matematika → algebra, geometriya; biologiya → genetika, zoologiya; Tafakkur jarayonlari: idrok → tushuncha → tahlil → xulosa; Bilim tizimlari: ta'lim → maktab, universitet, kurslar. Masalan: Matematikaning algebra bo'limi eng qiyinlaridan biri hisoblanadi. (Algebra – matematika meronimi).

Moddiy shaklga ega bo'lmagan, lekin abstrakt tushunchalar ichida qism-butun munosabatlarini aks ettiruvchi meronimiya mavhum meronimiyadir. Ularga quyidagi meronimlarni misol keltirish mumkin:

Vaqt va jarayon bilan bog'liq meronimiya. Ba'zan vaqt yoki jarayonlar ham meronimiyaga ega bo'ladi. Kun → tong, peshin, kechqurun; Hayot → bolalik, yoshlik, keksalik. Bu turdagi meronimiya ketma-ketlik va davriy bog'liqlik asosida shakllanadi [2].

Hissiyot va emotsiyalar meronimiyasi. Muhabbat: sevgi → mehr, sadoqat, e'tibor; Qo'rquv: xavotir → shubha, ikkilanish; Baxt: quvonch → mamnunlik, hayrat, xursandlik kabi. Masalan: Mehr va sadoqat muhabbatning ajralmas qismlaridir. (Mehr va sadoqat – muhabbat meronimi)

Axloqiy va falsafiy tushunchalar meronimiyasi. Axloq me'yorlari: adolat → halollik, haqqoniylik, tenglik; Falsafiy tushunchalar: borliq → moddiy olam, ong, tafakkur; Huquq va qonuniylik: qonun → modda, band, paragraf kabi. Masalan: Adolat halollik va tenglikka asoslanadi. (Halollik va tenglik – adolat meronimi).

Bundan tashqari, "Ijtimoiy va madaniy tushunchalar meronimiyasi" ham mavjudki, ular jamiyat, davlat tuzilishi, madaniyat, din, san'at va turli ijtimoiy institutlarning tarkibiy qismlarini ifodalovchi qism-butun munosabatlaridan iborat [3].

Ularning o'ziga xos xususiyatlari: har bir meronim jamiyat yoki madaniyatning tarkibiy qismini ifodalaydi, meronimlar mustaqil ishlatilganda, umumiy tushunchasiz to'liq ma'no bera olmaydi (masalan, fakultet → universitet), ijtimoiy va madaniy tizimlar doimiy ravishda

o'zgarib boradi va yangi meronimlar paydo bo'ladi. Ijtimoiy va madaniy tushunchalar meronimiyasi turlari:

Davlat va boshqaruv tuzilishiga oid:

Davlat → tarkibiy qismlar: hukumat, parlament, prezident, sud tizimi

Hukumat → vazirliklar: ta'lim vazirligi, iqtisodiyot vazirligi, mudofaa vazirligi

Huquq tizimi → sud turlari: konstitutsion sud, jinoyat sudi, fuqarolik sudi.

Siyosiy tizim → partiyalar: konservativlar, liberal demokratlar, sotsialistlar.

Masalan: Parlament hukumat tarkibidagi muhim institutlardan biridir. (Parlament – hukumat meronimi).

Ijtimoiy guruhlar va qatlamlar.

Jamiyat → ijtimoiy qatlamlar: ishchilar, tadbirkorlar, olimlar, amaldorlar.

Oilaviy tuzilma → a'zolar: ota-ona, farzand, bobo, buvi.

Mahalla → jamoat tarkibi: oqsoqollar, yoshlar, xotin-qizlar kengashi.

Masalan: Mahallaning oqsoqollari muhim masalalarni muhokama qildi. (Oqsoqollar – mahalla meronimi).

Ta'lim va ilm-fan tizimi.

Ta'lim → bosqichlar: maktab, litsey, kollej, universitet.

Universitet → tarkibiy qismlar: fakultet, kafedra, laboratoriya.

Ilm-fan → yo'nalishlar: matematika, fizika, tarix, falsafa.

Masalan: Universitetning tibbiyot fakulteti yangi loyihani taqdim etdi. (Fakultet – universitet meronimi).

Madaniy tushunchalar meronimiyasi. Madaniyat insoniyatning ma'naviy va moddiy yutuqlarini o'z ichiga olgan tushuncha bo'lib, uning qism-butun munosabatlari meronim sifatida namoyon bo'ladi. San'at va adabiyot meronimiyasi:

Musiqqa → janrlar: klassik, pop, jazz, rock.

Diniy meronimiya: Din → tarmoqlar: Islom, Xristianlik, Buddizm [2].

Milliy meronimiya: Millat → etnik guruhlar: o'zbeklar, qozoqlar, tojiklar, turkmanlar kabi.

Xulosa. Meronimlar til tizimida muhim o'rin tutuvchi semantik munosabat bo'lib, ularning grammatik va tematik xususiyatlari tildagi qism-butun munosabatlarini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Meronimlar gap tarkibida turli sintaktik rollarni bajarishi mumkin. Ularning grammatik jihatlari, ayniqsa, egalik qo'shimchalari, ko'plik shakllari va so'z yasovchi qo'shimchalar orqali hosil bo'lishi tildagi tizimli bog'liqlikni ifodalaydi.

Umuman olganda, meronimlarning grammatik va tematik xususiyatlarini chuqur o'rganish nafaqat lingvistika, balki kognitiv fanlar va mantiqiy tahlil kabi sohalar uchun ham foydalidir. Bu munosabatlarning tabiati va ularning kontekstual ishlatilishini chuqur tahlil qilish kelajakdagi tadqiqotlar uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Olena Materynska. Semantic relation of meronymy in languages of different structure (Case study of semantics of body part names). Article. Advanced education. Issue 12. 2019. – P. 255-264
2. Rahmonova, S. N. M. (2025). TILSHUNOSLIKDA PARTONIM TADQIQI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 5(1), 449-452.

3. Кузьменко Н.В. Меронимы современного английского языка в свете теории грамматикализации. Гуманитарные науки. – С.121-127.
4. Кузьменко Н.В. Холо-меронимическая структура как модель концептуализации тела человека. Вестник КГУ им. Н.А.Некрасова.2015. – С. 125-130.

Received: 10 March 2025
Accepted: 15 March 2025
Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

ASSESSMENT AND DIAGNOSTICS OF PHRASEOLOGICAL COMPETENCE OF STUDENTS OF NON-LINGUISTIC UNIVERSITIES

Chernova Natalia Vasilievna

Senior teacher of the Russian language,
Department of Foreign Languages, Nordic International University
E-mail: natashachernova14@gmail.com

Abstract. The article examines the theoretical and practical aspects of assessing and diagnosing phraseological competence among non-linguistic university students studying Russian. It proposes evaluation criteria, describes diagnostic methods, analyzes typical errors, and offers recommendations for improving the educational process. The article may be useful for teachers of Russian as a foreign language, as well as specialists in the field of language teaching methodology.

Keywords: phraseological competence, diagnostics, assessment, Russian as a foreign language, non-linguistic universities, typical errors, teaching methodology.

ОЦЕНКА И ДИАГНОСТИКА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ НЕЯЗЫКОВЫХ ВУЗОВ

Чернова Наталья Васильевна

Старший преподаватель русского языка кафедры
«Иностранных языков» Международного университета Нордик

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты оценки и диагностики фразеологической компетенции у студентов неязыковых вузов, изучающих русский язык. Предлагаются критерии оценки, описываются методы диагностики, анализируются типичные ошибки и предлагаются рекомендации для улучшения учебного процесса. Статья может быть полезна преподавателям русского языка как иностранного, а также специалистам в области лингводидактики.

Ключевые слова: фразеологическая компетенция, диагностика, оценка, русский язык как иностранный, неязыковые вузы, типичные ошибки, методика преподавания.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N28>

Введение.

Фразеологическая компетенция является важным компонентом языковой подготовки студентов, изучающих русский язык как иностранный. Она включает способность понимать, интерпретировать и правильно использовать фразеологизмы в речи. Фразеологизмы, как устойчивые сочетания слов, обладающие переносным значением, играют ключевую роль в формировании языковой картины мира и отражают культурные особенности носителей языка. Их изучение способствует не только расширению словарного запаса, но и развитию навыков межкультурной коммуникации [1].

Однако для студентов неязыковых вузов, чья основная специализация далека от лингвистики, усвоение фразеологизмов представляет значительную трудность. Это связано с несколькими факторами:

1. Сложность семантики: фразеологизмы часто имеют переносное значение, которое не выводится из значений их компонентов.

2. Культурная специфика: многие фразеологизмы связаны с историческими, культурными или бытовыми реалиями, которые могут быть непонятны иностранным студентам.

3. Ограниченное время на изучение языка: в неязыковых вузах количество часов, отведенных на изучение русского языка, часто ограничено, что делает невозможным глубокое погружение в фразеологию [2].

Анализ литературы и методология.

В связи с этим возникает необходимость разработки эффективных методов оценки и диагностики уровня сформированности фразеологической компетенции. Диагностика позволяет не только выявить текущий уровень знаний студентов, но и определить направления для дальнейшего совершенствования учебного процесса.

Актуальность данной темы обусловлена также возрастающим интересом к проблемам межкультурной коммуникации и роли фразеологии в процессе обучения иностранным языкам. В условиях глобализации и увеличения числа международных контактов владение фразеологическими единицами становится важным аспектом успешной коммуникации.

Цель данной статьи – рассмотреть теоретические и практические аспекты оценки и диагностики фразеологической компетенции у студентов неязыковых вузов, изучить типичные ошибки и предложить рекомендации для улучшения учебного процесса [3].

Анализ и результаты.

Фразеологическая компетенция включает несколько аспектов:

- Знание фразеологизмов: понимание их значения, происхождения и употребления.

- Умение использовать фразеологизмы: способность правильно встраивать их в речь.

- Интерпретация фразеологизмов: понимание их в контексте и умение объяснить их значение.

Для оценки этих аспектов необходимо разработать четкие критерии, такие как:

- Точность понимания: способность студента правильно интерпретировать значение фразеологизма.

- Уместность употребления: способность использовать фразеологизм в подходящем контексте.

- Богатство словарного запаса: количество фразеологизмов, которые студент может активно использовать [4].

Для диагностики уровня сформированности фразеологической компетенции можно использовать следующие методы:

1. Тестовые задания

- Множественный выбор: студент выбирает правильное значение фразеологизма из предложенных вариантов.

Пример: Что означает выражение «бить баклуши»?

- a) Работать усердно
- b) Ничего не делать
- c) Громко кричать

- Заполнение пропусков: студент вставляет подходящий фразеологизм в предложение.

Пример: Он целый день _____, вместо того чтобы готовиться к экзамену.

2. Устные задания

- Объяснение значения: студент объясняет значение фразеологизма своими словами.

Пример: Что значит «водить за нос»?

- Ситуативное использование: студент составляет предложение с использованием фразеологизма в заданной ситуации.

Пример: Опишите ситуацию, в которой можно использовать выражение «кот наплакал» [5].

3. Письменные задания

- Эссе или сочинение: студент использует фразеологизмы в тексте на заданную тему.

Пример: Напишите короткий рассказ, используя фразеологизмы «бить баклуши», «кот наплакал», «водить за нос».

Анализ работ студентов неязыковых вузов позволяет выделить следующие типичные ошибки:

- Неправильное понимание значения: студенты путают фразеологизмы с похожими словами или буквально интерпретируют их.

Пример: «Бить баклуши» понимается как «громко кричать».

- Неуместное употребление: фразеологизмы используются в неподходящем контексте [6].

Пример: «Кот наплакал» используется для описания большого количества.

- Грамматические ошибки: неправильное изменение формы фразеологизма.

Пример: «Водить за носы» вместо «водить за нос».

Для повышения эффективности диагностики фразеологической компетенции рекомендуется:

- Использовать разнообразные типы заданий (тестовые, устные, письменные).

- Учитывать культурный контекст при объяснении фразеологизмов.

- Проводить регулярный анализ ошибок для корректировки учебного процесса.

- Внедрять интерактивные методы обучения, такие как ролевые игры и дискуссии.

Для успешного формирования фразеологической компетенции у студентов неязыковых вузов важно:

- Интегрировать фразеологию в учебный процесс: включать фразеологизмы в лексические темы и грамматические задания [7].

- Использовать аутентичные материалы: художественные тексты, фильмы, песни, где фразеологизмы употребляются в естественном контексте.

- Развивать межкультурную компетенцию: объяснять культурные особенности, связанные с фразеологизмами.

Вопросы оценки и диагностики фразеологической компетенции остаются актуальными для современной лингводидактики. Перспективными направлениями исследований могут стать:

- Разработка стандартизированных тестов для оценки фразеологической компетенции.

- Изучение влияния цифровых технологий на усвоение фразеологизмов.

- Анализ роли фразеологии в профессиональной коммуникации студентов неязыковых вузов [8].

Заключение

Оценка и диагностика фразеологической компетенции студентов неязыковых вузов являются важным этапом в процессе обучения русскому языку как иностранному. Разработка четких критериев и методов диагностики позволяет не только выявить уровень знаний студентов, но и разработать стратегии для их дальнейшего совершенствования. В данной статье были рассмотрены теоретические основы фразеологической компетенции, предложены методы ее диагностики, проанализированы типичные ошибки студентов и даны рекомендации по улучшению учебного процесса. Особое внимание было уделено практическим аспектам формирования фразеологической компетенции, включая интеграцию фразеологии в учебный процесс и использование аутентичных материалов.

Перспективы дальнейших исследований в этой области связаны с разработкой стандартизированных тестов, изучением влияния цифровых технологий и анализом роли фразеологии в профессиональной коммуникации. Эти направления представляют значительный интерес для современной лингводидактики и могут способствовать дальнейшему совершенствованию методик преподавания русского языка как иностранного.

Таким образом, оценка и диагностика фразеологической компетенции являются не только важным инструментом для преподавателей, но и необходимым условием для успешного освоения русского языка студентами неязыковых вузов. Разработка и внедрение эффективных методов диагностики позволят повысить уровень языковой подготовки студентов и способствовать их успешной коммуникации в профессиональной и повседневной жизни.

Литература/References/Adabiyotlar:

1. Борисова, Е. Г. Русская фразеология в аспекте преподавания РКИ. – М.: Издательство «URSS», 2019.
2. Васильева, А. А. Фразеология и межкультурная коммуникация. – М.: Издательство «Академия», 2021.
3. Григорьева, Т. М. Формирование фразеологической компетенции у иностранных студентов. – М.: Издательство «Русский язык. Курсы», 2022.
4. Иванова, И. П. Методика преподавания фразеологии русского языка. – М.: Издательство «Русский язык», 2020.
5. Ковалева, Н. В. Методика обучения фразеологии в неязыковых вузах. – М.: Издательство «Просвещение», 2022.

6. Кузнецова, Л. А. Диагностика языковой компетенции: теория и практика. – М.: Издательство «Высшая школа», 2021.
7. Лебедева, О. А. Интерактивные методы обучения фразеологии. – СПб.: Издательство «Златоуст», 2020.
8. Петров, В. В. Фразеология в аспекте межкультурной коммуникации. – СПб.: Издательство «Лань», 2019.
9. Соколова, Е. Н. Фразеологизмы в русском языке: теория и практика обучения. – М.: Издательство «Флинта», 2018.
10. Федорова, М. В. Цифровые технологии в обучении фразеологии. – М.: Издательство «Инфра-М», 2023.

Received: 10 March 2025
Accepted: 15 March 2025
Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

THE DOMINANCE OF POETIC FORM IN THE ENGLISH TRANSLATIONS OF SA'DI SHERAZI'S POETRY

Abdusalomova Aziza Khomidovna

Samarkand State University named after Sharof Rashidov
Department of Foreign Languages

Abstract. This article analyzes how the poetic form of Saadi Shirazi's poetry has been conveyed in English translations. The research compares translations made by British Orientalists (William Jones, Edward Rehatsek, Richard Burton, Arthur Arberry) and examines how rhyme, rhythm, and metaphors have been preserved or altered in the process. The findings indicate that while poetic translation is crucial, translators have used different strategies to balance poetic form and accurate meaning.

Keywords: Saadi Shirazi, poetic translation, British Orientalism, rhyme and rhythm, metaphor.

SA'DIY SHEROZIY SHE'RIYATINING ANGLIYADAGI TARJIMALARIDA POETIK SHAKLNING USTUVORLIGI

Abdusalomova Aziza Homidovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Xorijiy tillar kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sa'diy Sheroziy she'riyatining ingliz tiliga tarjimalarida poetik shaklning qanday yetkazilgani tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Angliya sharqshunoslari tomonidan amalga oshirilgan tarjimalar (William Jones, Edward Rehatsek, Richard Burton, Arthur Arberry) qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, qofiya, ritm va metaforalar tarjimada qanday saqlangan yoki o'zgargani baholandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, poetik tarjima muhim bo'lsa-da, tarjimonlar poetik shakl va aniq ma'no o'rtasida muvozanat saqlashda turli strategiyalarni qo'llaganlar.

Kalit so'zlar: Sa'diy Sheroziy, poetik tarjima, ingliz sharqshunosligi, qofiya va ritm, metafora.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N29>

Kirish. Sa'diy Sheroziy (1210–1291) fors adabiyotining eng nufuzli vakillaridan biri bo'lib, uning Guliston va Bo'ston asarlari Sharq va G'arb adabiyotlariga katta ta'sir ko'rsatgan. Sa'diy she'riyatining poetik shakli nafaqat ma'no jihatidan, balki ohang, ritm va obrazlilik nuqtai nazaridan ham o'ziga xosdir [1].

Angliya sharqshunoslari va tarjimonlari uning asarlarini turli uslublarda ingliz tiliga o'giranlar. Ushbu maqola Sa'diy asarlarining Angliyadagi tarjimalarida poetik shaklning ustuvorligi, tarjimonlarning poetik uslublarga qanday yondashgani va tarjima jarayonida qanday muammolar yuzaga kelgani haqida batafsil tahlil qiladi.

Asosiy tadqiqot savollari:

Sa'diy she'riyatining ingliz tilidagi tarjimalarida poetik shakl qanday yetkazilgan?

Qofiya, ritm va obrazlilik tarjima jarayonida qanday o'zgargan?

Poetik tarjima nazariyalari Sa'diy tarjimalariga qanday tatbiq etilgan?

An'anaviy va zamonaviy tarjimalarning farqlari nimada?

Metodologiya. Bu tadqiqotda sifatli tahlil usuli qo'llanilib, quyidagi metodlardan foydalanildi:

Tarjima tahlili – Sa'diy asarlarining klassik va zamonaviy inglizcha tarjimalari (William Jones (1789), Edward Rehatsek (1888), Richard Burton (1880), Arthur Arberry (1958)) qiyosiy o'rganildi.

She'riy struktura tahlili – Qofiya, ritm va metaforalar saqlanishi yoki o'zgarishi baholandi.

Tarjimashunoslik nazariyalari asosida tahlil – Ekvivalentlik nazariyasi (Nida, 1964), Dinamik tarjima (Newmark, 1981), Poetik tarjima nazariyasi (Jakobson, 1960) asosida tarjimalarning poetik shakli tekshirildi.

Qiyosiy yondashuv – Inglizcha tarjimalar forscha aslyat bilan solishtirildi va poetik o'zgarishlar tahlil qilindi.

Natijalar.

1. Poetik shaklni saqlashdagi asosiy yondashuvlar

Sir William Jones (1746–1794)

Tarjima jarayonida ingliz she'riyatining klassik uslublaridan foydalangan.

Qofiya va ritmni saqlashga harakat qilgan.

Edward Rehatsek (1819–1891)

Nasriy tarjimalarga urg'u bergan.

Poetika emas, balki ma'no aniq yetkazilishi muhim deb hisoblagan.

Richard Francis Burton (1821–1890)

Poetik shaklni maksimal darajada yetkazishga harakat qilgan.

Ingliz she'riyatining romantik va ekzotik elementlarini qo'shgan.

Arthur Arberry (1905–1969)

Akademik va poetik tarjimaning uyg'unligini ta'minlashga harakat qilgan.

Sa'diy uslubini iloji boricha saqlashga intilgan.

2. Tarjimadagi poetik elementlarning saqlanishi

Sa'diy Sheroziyning poetikasida tarjima elementlarining saqlanishi uning asarlari turli tillarga o'girilganda qanday badiiy vositalar, obrazlar va uslublar o'zgarishi yoki saqlanib qolishini o'rganish bilan bog'liq muhim masalalardan biridir.

1. Sa'diy poetikasining tarjimada ifodalanishi

Sa'diy asarlari, xususan, "Guliston" va "Bo'ston", turli tillarga tarjima qilingan. Tarjima jarayonida uning poetik obrazlari, metaforalari va aforistik uslubi saqlab qolinishi yoki moslashtirilishi lozim. Bunda uchta asosiy element muhim ahamiyat kasb etadi:

Badiiy obrazlarning saqlanishi – Sa'diy asarlaridagi an'anaviy sharqona obrazlar (gul, bulbul, bahor, shom) tarjimada ham iloji boricha asliga yaqin holda saqlanadi.

Metaforalarning ifodalanishi – Sa'diy tilidan boshqa tillarga tarjima qilganda uning metaforalari ekvivalent yoki kontekstual mos keluvchi iboralar bilan ifodalanadi.

Qofiya va ritmning tarjimada berilishi – Poeziyada ohang va ritm muhim bo'lgani uchun tarjima jarayonida ularni iloji boricha asliga yaqin uslubda saqlash muhim.

2. Tarjima jarayonida yo‘qotish va o‘zgarishlar

Sa‘diy poetikasining tarjimada saqlanishi har doim ham mukammal bo‘lavermaydi. Ba‘zi muhim jihatlar o‘zgarib ketishi mumkin:

Madaniy kontekst yo‘qotilishi – Sharqona ramz va qiyoslar ba‘zan boshqa madaniyatlarda tushunarsiz bo‘lib, ularni tushuntirish yoki almashtirishga to‘g‘ri keladi.

She‘riy ifodaning prozaga o‘tishi – Ba‘zi tarjimalarda qofiya va ritm saqlanmagan holda, she‘rlar proza shaklida beriladi, bu esa Sa‘diy uslubining ta‘sirchanligini kamaytiradi.

So‘z o‘yinlari va ohang muammolari – Sa‘diy tili boy metaforalarga va ma‘noli o‘yinlarga asoslangan bo‘lib, ularni to‘g‘ri tarjima qilish qiyin kechadi [2].

Misollar asosida ko‘rib chiqsak,

Forscha bayt:

Гуфтам, ки фалонро ба ту ишқ аст муқаррар,

Гуфт: он, ки мўъайян шавад, ишқаш набувад рост.

Burton tarjimasi (she‘riy, qofiyali):

“I said, ‘He loves you, deep and true.’

He said, “True love is never due.”

Rehatsek tarjimasi (nasriy, qofiyasiz):

“I said, ‘So-and-so truly loves you.’

He replied, ‘If it is certain, then it is not true love.’” [1].

Burton tarjimasida qofiya va ritm saqlangan, lekin asl mazmun o‘zgargan. Rehatsek esa aniq tarjima qilgan, lekin she‘riy ohang yo‘qolgan.

Metaforalar va obrazlilik

Sa‘diy Sheroziy she‘riyatida metaforalar va ramziy obrazlar muhim ahamiyatga ega.

Forscha misol:

Булбул ба гул ишқ варзад, валеқ,

Чун гул бишукуфт, у наёмад зи шох.

Burton tarjimasi:

“The nightingale sings for the rose so bright,

Yet leaves her alone in the moon’s cold light.”

Rehatsek tarjimasi:

“The nightingale loves the rose,

But when it blossoms, it does not return to the branch” [3].

Burton metaforani G‘arbcha uslubga moslashtirgan. Rehatsek esa so‘zma-so‘z tarjima qilgan, lekin poetik ta‘sir yo‘qolgan.

Yana qo‘shimcha qilsak,

Zamonaviy tarjimalarning asosiy xususiyatlari

XXI asr tarjimalari oldingi tarjimalardan quyidagi jihatlari bilan farqlanadi:

Poetik va nasriy tarjimaning uyg‘unligi – Zamonaviy tarjimonlar aniq ma‘no va estetik ta‘sirni birlashtirishga harakat qilmoqda.

Madaniy ekvivalentlik – Tarjimalarda Sa‘diy obrazlari G‘arb madaniyatiga moslashtirilmay, balki o‘zining asl kontekstida tushuntiriladi.

Til va ritm uyg‘unligi – She‘riy tarjimalarda qofiya va ritmga alohida e‘tibor qaratilib, ingliz tilining tabiiy oqimiga moslashtiriladi.

Sa'diy Sheroziy – fors-tojik adabiyotining yirik vakillaridan biri bo'lib, uning ijodida metaforalik va obrazlilik muhim o'rin tutadi. U asarlarida insoniy fazilatlar, axloqiy qadriyatlar va hayot haqiqatlarini tasvirlashda ta'sirchan poetik vositalardan foydalangan.

1. Metaforalik

Sa'diy she'riyatida metaforalar keng qo'llaniladi. Ular orqali shoir hayotiy tushunchalarni yanada chuqurroq, ta'sirchanroq ifoda etadi. Masalan, Sa'diy odob va axloqni gulga, johillikni esa tikanlarga qiyos qiladi. Uning "Guliston" va "Bo'ston" asarlarida quyidagi kabi metaforalar uchraydi:

Ilm – nurning o'zi ("است ازلی که است نوری علم") – bu metafora orqali bilimning abadiy va yorug'likka o'xshash ekanligi ta'kidlanadi [4].

Hayot – dengiz, inson – kemachi – bu obraz orqali inson hayoti sinovlardan iborat ekani va uning yo'lini o'zi belgilashi lozimligi ko'rsatiladi.

2. Obrazlilik

Sa'diy poetikasida obrazlilik o'ziga xos badiiy san'atlar orqali yuzaga chiqadi. U inson fe'l-atvorini hayvonlar, o'simliklar, osmon jismlari kabi obrazlar orqali ifodalagan. Masalan:

Shoir solih odamni "bahor"ga, yomon odamni esa "qish"ga o'xshatadi. Bu orqali inson fe'l-atvorining jamiyatga ta'siri ifodalanadi.

Gul va bulbullar obrazi – sevgi, muhabbat va go'zallik ramzi sifatida keng qo'llaniladi.

Sa'diy she'riyati murakkab falsafiy tushunchalarni sodda va jozibali obrazlar orqali yetkazib berishi bilan o'ziga xosdir. Uning asarlarida poetik vositalarning mohirona ishlatilishi sharq adabiyoti rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

2. Zamonaviy tarjimalarning poetik shaklga ta'siri

2.1. Qofiya va ritmning saqlanishi

Zamonaviy tarjimonlar qofiya va ritmni saqlashda turli yondashuvlardan foydalanmoqda. Quyidagi misolni ko'rib chiqamiz:

Asliyat (forscha bayt):

Ҳар кӣ натавонист бурдан гаҳи бори сахт,

Гӯ, сари бозор биншину бигӯ: Беъаззам.

Richard Jeffrey Newman (2020) tarjiması (she'riy, qofiyali):

"Who cannot bear the weight of fate

Must bow before the marketplace."

Haleh Pourafzal & Roger Montgomery (2014) tarjiması (erkin she'riy uslubda):

"If you cannot carry life's heavy load,

Sit by the road and confess your defeat."

Newman tarjiması qofiya va ritmni saqlashga harakat qilgan bo'lsa, Pourafzal va Montgomery erkinroq, lekin poetik uslubga ega tarjima qilgan [5].

2.2. Poetika va obrazlilik

Sa'diy Sheroziyning she'riyatining ingliz tiliga tarjima qilinishi tarixiy ravishda va metodologik jihatdan ko'p o'zgarishlarga duchor bo'lgan. Tarjimonlar Sa'diy asarlarini poetik tarjima nazariyalari asosida turlicha yondashuvlar bilan tarjima qilgan. Tarjimaning maqsadi, uslubi va metodlari o'zgarib, zamonaviy tarjima nazariyalari Sa'diy she'riyatiga yanada boy va moslashgan talqinlarni olib kelgan.

1. Poetik tarjima nazariyalari va ularning o'zgarishi

Poetik tarjima nazariyalari, asosan, she'riy tarjimaning qanday amalga oshirilishi, poetik shaklni saqlash va o'z ma'nosini aniq yetkazish uchun qanday metodlarni qo'llashga qaratilgan. Tarjima nazariyasining asosiy nazariyalaridan ba'zilari Sa'diy tarjimalariga sezilarli ta'sir ko'rsatgan:

1.1. Yuzaki ekvivalentlik (Formal Equivalence)

Bu nazariya, Eugene Nida tomonidan ilgari surilgan, tarjimadagi asosiy maqsad asl matnning yuzaki (formal) ekvivalentini saqlashga qaratilgan. Bu nazariyada tarjimon matni so'zma-so'z tarjima qilishga urinishadi, lekin bu uslub o'quvchilar uchun ba'zi Sharqona tasavvurlarni tushunishdagi qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

XIX asr tarjimalari – Masalan, Edward Rehatsek va William Jones kabi tarjimonlar Sa'diy asarlarini yuzaki ekvivalentlik asosida tarjima qilishgan. Ular, odatda, Sa'diy she'riyatining didaktik va axloqiy mazmunini to'liq aks ettirishga harakat qilishgan, lekin she'rning poetik shakli va ritmiga e'tibor bermagan.

1.2. Dinamik ekvivalentlik (Dynamic Equivalence)

Nida tomonidan ishlab chiqilgan ikkinchi yondashuv – dinamik ekvivalentlik, unda tarjimonning asosiy maqsadi asl matnning aniq ma'nosini va hissiy ifodasini o'quvchiga yetkazishdir. Dinamik ekvivalentlik nazariyasi tarjimonni asarning hissiy va poetik ta'sirini saqlashga undaydi.

XX asr tarjimalari – Arthur Arberry va Richard Burton kabi tarjimonlar Sa'diy asarlarini dinamik ekvivalentlik nazariyasiga tayangan holda tarjima qilishgan. Ular, Sa'diy poetikasining metadigatik shaklini saqlashga harakat qilgan, lekin bir vaqtning o'zida G'arb o'quvchilari uchun tushunarli qilishni maqsad qilganlar. Arberry va Burtonning tarjimalari she'riy xususiyatlarni saqlashda yanada muvaffaqiyatli bo'lgan.

1.3. Estetik ekvivalentlik (Aesthetic Equivalence)

Peter Newmark tomonidan ilgari surilgan estetik ekvivalentlik nazariyasi tarjimaning estetik ta'siriga urg'u beradi. Bu usulda tarjimon she'rning tashqi ko'rinishini emas, balki uning poetik estetik ta'sirini saqlashga harakat qiladi. Tarjimon, asl matndagi ma'no va ritmni ingliz tilidagi she'rda saqlab qolishga intiladi, lekin ba'zan ba'zi madaniy kodlarni o'zgartiradi.

Zamonaviy tarjimalar – Coleman Barks va Haleh Pourafzal kabi zamonaviy tarjimonlar estetik ekvivalentlik nazariyasiga asoslangan holda Sa'diy asarlarini tarjima qilishgan. Ular, Sa'diy she'rlarining hissiy va poetik ta'sirini o'zgartirmasdan, ingliz tiliga erkin tarjima qilganlar. Bu metod bilan tarjima qilishda, ular ingliz tilidagi o'quvchilar uchun yangi tasavvurlar va madaniy kontekstlarni yaratishga muvaffaq bo'lganlar.

1.4. Poetik tarjima nazariyasi (Poetic Translation Theory)

Poetik tarjima nazariyasi, Roman Jakobsonning tarjima haqidagi fikrlaridan ilhomlanib, asosan poetik shaklni va ritmni saqlashga qaratilgan. Ushbu yondashuvda tarjimon asl matnning poetik shakli, qofiya va ritmiga alohida e'tibor qaratadi. Poetik tarjima nazariyasi matnning poetik tuzilishini saqlashga harakat qiladi, chunki poezik shakl, o'quvchiga sezilarli hissiy ta'sir ko'rsatadi.

Poetik tarjima va Sa'diy she'riyatiga ta'siri – Richard Burton va Arthur Arberry kabi tarjimonlar Sa'diy she'rlarini tarjima qilishda poetik tarjima nazariyasini qo'llaganlar. Ular Sa'diy she'rlarining poetik tuzilishini imkon qadar to'liq saqlashga harakat qilgan [8].

Sa'diy tarjimalarida poetik shakl va uslubning o'zgarishi

2.1. XIX-XX asr tarjimalari: Formal ekvivalentlik va dinamik ekvivalentlik

XIX asrda Sa'diy she'riyatining ingliz tiliga tarjimasi ko'proq formal ekvivalentlik prinsiplariga asoslangan. Tarjimonlar Sa'diy asarlarini o'rganganlarida, ularning poetik shaklini saqlashga kamroq e'tibor berishgan. Asl matnni so'zma-so'z tarjima qilishga harakat qilganlar.

XX asrda esa, Sa'diy she'riyatiga bo'lgan qiziqish kuchaygan va tarjimonlar dinamik ekvivalentlikni qo'llaganlar. Bu davrda tarjimonlar Sa'diy she'riyatini ingliz tiliga poetik shakl va ritmni saqlab tarjima qilishga harakat qilishgan. Biroq, ba'zi tarjimonlar (masalan, Richard Burton) tarjimalarida o'zining shaxsiy tafsirini kiritishgan.

2.2. XXI asr tarjimalari: Poetik tarjima nazariyasi

Zamonaviy tarjimalarda esa, poetik tarjima nazariyasi hamda estetik ekvivalentlik nazariyalari orqali Sa'diy asarlarining poetik shakli saqlanib, o'quvchiga emotsional ta'sir keltirishga harakat qilinadi. Tarjimonlar Sa'diy she'riyatining ruxiy va ma'naviy ta'sirini ingliz tilida yetkazishga intilishadi.

Coleman Barks va Haleh Pourafzal kabi tarjimonlar erkin tarjimalar orqali Sa'diy she'riyatining madaniy va hissiy qatlamlarini ingliz tilida aks ettirishgan.

Sa'diy she'riyatida metaforalar va obrazlar muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy tarjimalarda ushbu obrazlarning tushunarli bo'lishi uchun izohlar qo'shilmogda.

Asliyat (forscha bayt):

Дил ба дўсти диҳ, гарчи ба ғамхорӣ сар орад,
Ки ба душманат камини набувад мисоли дўст.

Coleman Barks (2018) tarjimasi:

“Give your heart to a friend, even if it brings sorrow,
For a true friend's betrayal is still kinder than an enemy's embrace.”

Bu tarjimada Sa'diy obrazlari erkin talqin qilingan bo'lsa ham, uning chuqur ma'nosi saqlangan.

3. Tarjima nazariyalari va zamonaviy yondashuvlar

Zamonaviy tarjimalar dinamik ekvivalentlik va she'riy tarjima nazariyalari asosida quriladi:

Dinamik ekvivalentlik (E. Nida, 1964) – O'quvchiga tarjimani oson qabul qilish imkonini berish.

Estetik ekvivalentlik (P. Newmark, 1988) – She'ning hissiy va poetik ta'sirini saqlash.

She'riy tarjima nazariyasi (J. Holmes, 1970) – Ritm va qofiyani saqlashga harakat qilish[8].

Bu nazariyalar zamonaviy tarjimalarda uyg'un qo'llanilmogda

Muhokama (Discussion)

Poetik tarjima muhimmi yoki aniq tarjima?

Burton va Arberry poetik shaklni saqlashga harakat qilgan, Rehatsek esa ma'noga urg'u bergan.

Tarjimashunoslikda bu “literal vs. poetic translation” muammosi sifatida baholanadi.

Poetik tarjima nazariyalari bilan bog'liqlik

Ekvivalentlik nazariyasi (Nida, 1964) – Ma'no va hissiyot teng yetkazilishi kerak.

Dinamik tarjima (Newmark, 1981) – O‘quvchi asarni tabiiy qabul qilishi kerak.

Poetik tarjima nazariyasi (Jakobson, 1960) – Qofiya va ritm muhim.

Zamonaviy tarjimalar qanday farqlanadi?

Hozirgi tarjimonlar poetik shaklni saqlashga ko‘proq e‘tibor qaratmoqda.

Sun‘iy intellekt asosida tarjima qilish qiyinchilik tug‘diradi, chunki poetik elementlarni avtomatik tarzda yetkazish qiyin.

Xulosa. Sa‘diy Sheroziy asarlari tarjima jarayonida poetik shaklni saqlash yoki aniq ma‘no yetkazish muammosi doimo mavjud bo‘lib kelgan. Burton va Arberry poetik jihatdan boy tarjimalarni yaratgan bo‘lsa, Rehatsek nasriy tarjima orqali aniq ma‘no yetkazishga intilgan.

Kelajakda zamonaviy tarjima texnologiyalari va lingvistik yondashuvlar yordamida Sa‘diy she‘riyatining yanada mukammal tarjimalari yaratilishi kutilmoqda.

Sa‘diy she‘riyatining zamonaviy tarjimalari poetik shaklni saqlash va aniq ma‘no yetkazish o‘rtasida muvozanatni ushlab turishga harakat qilmoqda. XIX-XX asrlarga nisbatan bugungi tarjimalar she‘riy estetikani saqlashga ko‘proq e‘tibor qaratmoqda. Biroq, tarjimonlar G‘arb o‘quvchisi uchun tushunarli bo‘lishi uchun erkin interpretatsiyaga ham murojaat qilmoqda.

Kelajakda sun‘iy intellekt va kompyuter lingvistikasi vositalari yordamida yanada aniq va poetik tarjimalar yaratilishi kutilmoqda.

Poetik tarjima nazariyalari Sa‘diy Sheroziy asarlarining ingliz tiliga tarjimalariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. XIX-XX asrlarda tarjimalar formal ekvivalentlik va dinamik ekvivalentlik asosida amalga oshirilgan bo‘lsa, XXI asrda tarjimonlar poetik tarjima nazariyasi va estetik ekvivalentlikni qo‘llaganlar. Bugungi kunda Sa‘diy she‘riyatining tarjimasi, o‘zining poetik shakli va hissiy ta‘sirini ingliz tilida yanada poetik, erkin va tushunarli tarzda ifodalashga qaratilgan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abdusalomova, A. . (2024). SA‘DIY SHEROZIY VA UNING IJODIDAGI O‘ZIGA XOSLIK ("GULISTON" VA "BO‘STON" ASARLARI MISOLIDA). Наука и инновация, 2(11), 37–38. <https://in-academy.uz/index.php/si/article/view/30711>
2. Sa‘diy Sheroziy. Guliston va Bo‘ston. Forscha matn va tarjimalar. Tehron: Akademik nashriyot, 2005\ \ Rehatsek, Edward. The Gulistan of Saadi. London: Trübner & Co, 1888.
3. Jones, Sir William. Poems, Consisting Chiefly of Translations from the Asiatick Languages. London: J. Nichols, 1789.
4. Burton, Richard Francis. The Kasidah of Haji Abdu El-Yezdi. London: Kegan Paul, Trench & Co., 1880.
5. Nida, Eugene A. Toward a Science of Translating. Leiden: Brill, 1964.
6. Newmark, Peter. Approaches to Translation. Oxford: Pergamon Press, 1981.
7. Jakobson, Roman. On Linguistic Aspects of Translation. Cambridge: Harvard University Press, 1960.
8. Burton, Richard F. The Gulistan of Sa‘di. London: 1880.
9. "Adabiyotshunoslik nazariyasi"
Ushbu manbada badiiy obraz va obrazlilik, shuningdek, badiiy asarlarning tahlili haqida batafsil ma‘lumotlar berilgan.
10. "Til va adabiyot" jurnali, 11-son, 2023
Mazkur jurnal sonida adabiyotshunoslikka oid maqolalar jamlangan bo‘lib, unda Sa‘diy Sheroziy ijodiga doir tahlillar ham mavjud.
11. "O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari"

Ushbu to'plamda Sa'diy Sheroziy asarlaridagi obrazlilik va xalqchilik prinsiplari haqida maqolalar keltirilgan.

12. "Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti"

Mazkur manbada Sa'diy Sheroziy asarlarining tarjimalari va ularning ta'lim jarayonidagi o'rni haqida ma'lumotlar berilgan.

Received: 10 March 2025
Accepted: 15 March 2025
Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

SEMANTIC AND PRAGMATIC ANALYSIS IN THE NAMES OF DINING ESTABLISHMENTS

Morozova Anastasiya Vladimirovna

Termez State Pedagogical Institute

E-mail: anasteywa555@gmail.com

Abstract. This study explores the issue of restaurant naming from a semantic-pragmatic perspective. A restaurant's name serves as a crucial link between the business and its customers, significantly influencing the success of its market presence and branding. The research aims to examine the semantic-pragmatic features of restaurant names. By analyzing selected examples, the study identifies and describes key techniques used in naming and branding. The collected empirical data is categorized based on Y.S. Bernadskaya's naming technique classification, with certain refinements introduced by the author. The findings outline the core principles for selecting restaurant names, providing a quantitative analysis of the identified naming methods. The study concludes that an absolutely perfect name does not exist; rather, its effectiveness depends on factors such as the restaurant's size, location, and target audience. When selecting a restaurant name, it is essential to consider factors such as thematic associations (reflecting the establishment's profile), cultural significance, phonetic appeal, and lexical meaning.

Keywords: branding, naming, ergonym, semantics, pragmatics, restaurant naming, restaurant image, name euphony.

UMUMIY OVQATLANISH JOYLARI NOMLARINING SEMANTIK-PRAGMATIK TAHLILI

Morozova Anastasiya Vladimirovna

Termiz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada restoran nomlash (neyming) muammosi semantika va pragmatika nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Restoran nomi kompaniya va mijoz o'rtasidagi bog'liqlikni shakllantiruvchi asosiy omillardan biri bo'lib, mahsulot yoki xizmatning bozordagi muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – restoran nomlarining semantik va pragmatik jihatlarini o'rganishdir. Restoran nomlash bo'yicha olingan turli misollar tahlil qilinib, nomlash va brend yaratishda qo'llaniladigan asosiy usullar aniqlangan hamda ularning xususiyatlari tavsiflangan. Jamlangan empirik ma'lumotlar Y.S. Bernadskaya klassifikatsiyasi asosida nomlash texnikalariga ajratilgan bo'lib, muallif tomonidan ushbu tasnifga muayyan tuzatishlar ham kiritilgan. Xulosa qismida restoran nomini tanlash tamoyillari ochib berilib, qo'llanilgan texnikalar bo'yicha miqdoriy tahlil o'tkazilgan va asosiy natijalar chiqarilgan. Ideal nom tushunchasi mavjud emas, chunki nom tanlovi restoran hajmi, joylashuvi, maqsadli auditoriyasi va boshqa bir qator omillarga bog'liq. Restoran nomini tanlash jarayonida uning mazmuniy bog'liqligi (muassasaning yo'nalishi), madaniy konteksti, brend tovushi hamda nomning leksik ma'nosi e'tiborga olinishi lozim.

Kalit so'zlar: brending, neyming, ergonim, semantika, pragmatika, restoran neymingi, restoran imiji, nomning ohangdorligi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N30>

Introduction.

With the growing number of catering establishments and the resulting increase in competition, the importance of restaurant names that effectively convey the identity of the

establishment and capture the attention of potential visitors has become more significant than ever. Researchers specializing in naming and branding emphasize that «as the market economy evolves, a business's name has become a key component of its image» [2, p. 50]. However, while this concept is well established in many regions, it is still in its early stages of development in our country.

The study aims to examine the semantic and pragmatic characteristics of restaurant names.

Restaurant names served as the primary research material. A total of 125 restaurant names were collected and analyzed from the online restaurant and café directory «Guida alberghiera» [7].

Literature review and methodology.

Introduction The selection of an aesthetically appealing and memorable name presents a common challenge for restaurateurs. Various linguistic and stylistic techniques are employed to achieve euphony in restaurant naming. According to V.M. Maltseva, euphony refers to «a combination of sounds that are convenient for pronunciation and pleasing to the ear, aligning with societal norms of word formation and pronunciation while utilizing various phonetic techniques such as sound repetition, anaphora, epiphora, and rhythmic structuring» [5, p. 122]. Another key factor in naming a restaurant is the principle of economy. As noted by T.A. Kadolo, «this principle manifests at different levels of commercial enterprises through a process of condensation, allowing for the efficient transmission of cultural meaning in a succinct manner» [3, p. 25]. Furthermore, M.G. Kurbanova highlights that effective trade enterprise names should not only inform customers about the nature of the business but also attract attention, be easily memorable, elicit positive associations, and remain comprehensible to a broad demographic [4, p. 30]. Additionally, many scholars emphasize the pragmatic function of commercial names, considering them as a communicative bridge between the business owner and potential customers [6, p. 103].

Classification of Naming Strategies Several scholars have proposed different classifications for naming strategies in commercial enterprises, including V.N. Domnin, Y.S. Bernadskaya, Ch. Charmasson, and I.S. Berezin. After examining these frameworks, the classification by Y.S. Bernadskaya appears to be the most concise and comprehensive, delineating six principal techniques for naming a business [1, p. 48-51]. This classification serves as the foundation for the present study on restaurant naming conventions.

Discussion and results.

Analysis and Findings The study identifies several dominant patterns in restaurant naming. One prevalent strategy involves the incorporation of numerals, observed in 37 restaurant names within the dataset. Examples include 4 Fiumi (Four Rivers), 7 Nani (Seven Dwarfs), Vicolo 88 Garden (88th Lane), and Two Sizes. The choice of numerals often reflects historical or symbolic significance. For instance, Vicolo 88 Garden retained the number 88 from its previous address on Vicolo dell'Orso 88, leveraging customer familiarity and the positive connotations of the number 88, which symbolizes prosperity and success.

Another common approach entails the use of references to speed and efficiency, as exemplified by Formula 1 Pizzeria, which aligns its brand identity with the concept of rapid service and motorsport enthusiasm. The decor reinforces this theme, featuring racing-related imagery.

The second widely employed strategy involves rhyme and phonetic harmony, appearing in 19 restaurant names. Examples include Panino Divino (Divine Bun), Cantina e Cucina (Wine Cellar and Kitchen), and Zizzi Pizza. These names often feature rhythmic elements, consonant repetition, or identical syllables, enhancing memorability and brand recognition.

The third category encompasses geographical references, comprising 13 names in the analyzed sample. Many establishments reference Italian regions or cities, such as Vecchia Roma (Ancient Rome), Loro di Napoli (They are from Naples), and Sportiva Roma (Sporty Rome), to emphasize regional culinary heritage. In contrast, other names, like La Montecarlo or Nottingham, signal foreign influences and exotic culinary traditions.

Proper names constitute another significant category, divided into two subgroups: personal names linked to the owner and «speaking» names associated with historical or mythological figures. The first subgroup includes names such as Pierluigi, Da Gianni, and Da Milvio, where personal names enhance brand authenticity and emphasize family heritage. The second subgroup, containing 10 names, includes King David, Amadeus, and Ali Baba, which evoke cultural or historical associations, thereby enriching brand identity and narrative.

Another notable approach involves references to wildlife, observed in 15 names. Examples include La Mimosa (Mimosa), Pomodoro e Basilico (Tomato and Basil), and Il Dragone d'Oro (Golden Dragon). Such names utilize natural imagery to evoke emotional appeal and create distinctive brand identities. For example, La Lupa (The She-Wolf) references the legendary founding of Rome, reinforcing its connection to traditional Roman cuisine. Similarly, Il Dragone d'Oro signals a likely association with Chinese cuisine.

A more creative yet less common strategy employs wordplay and puns, with only six instances identified. Notable examples include Pork'n'Roll, ParmAroma, Spirito DiVino, and Braci e Abbraci. These names often derive from phonetic similarities or playful linguistic modifications. For instance, Pork'n'Roll mimics «rock'n'roll» while integrating «pork» to reflect the restaurant's specialty. Spirito DiVino exploits the dual meaning of «divino» (divine) and «di vino» (of wine), reinforcing its wine-related theme. Similarly, Braci e Abbraci modifies the phrase «baci e abbracci» (kisses and hugs) by substituting «baci» with «braci» (coals), underscoring the restaurant's grilled specialties.

Additionally, the study identifies a naming technique based on morphological word formation, particularly suffixation. Italian suffixes are categorized as either diminutive or augmentative. Augmentative suffixes include -one and -ccione, as seen in Da Baffone (The Moustache). Conversely, diminutive suffixes such as -ino, -ina, -cino, -cina, -etto, and -etta appear in names like Pecorino (Sheep), Pupina (Little Puppet), and Peperoncino (Pepper). However, restaurateurs apply such suffixes cautiously, given their strong connotative impact, which can elicit both positive and negative perceptions.

Conclusion.

The findings indicate several key trends in restaurant naming. First, despite their abstract nature, numerals remain one of the most frequently utilized naming strategies. Second, phonetic techniques such as rhyme and consonance contribute to name memorability and brand recognition. Third, the inclusion of geographical names, personal names, and references to nature helps establish cultural or emotional connections with customers. Lastly, while wordplay and morphological modifications are less commonly used, they provide a distinctive identity to restaurants willing to embrace linguistic creativity. Overall, the strategic selection of

a restaurant name involves a balance of phonetic appeal, cultural significance, and marketing effectiveness, contributing to a compelling brand identity.

References/Литературы/Adabiyotlar:

1. Bernadskaya Y.S. Text in advertising: textbook. – M.: UNITY DANA, 2008. – 288 p.
2. Zelenina T.I., Butorina N.V. Communicative and pragmatic aspect of ergonyms (on the material of the Russian language) // Vestnik Udmurdskego universitet. Series of history and philology. 2016. T. 26, vol. 6. – P. 50-53.
3. Kadolo T.A. Main trends in modern emporonymy: the principle of economy // Bulletin of N.F. Katanov Khakass State University. 2016. №15. – P. 25-28.
4. Kurbanova M.G. Ergonyms of the modern Russian language in the communicative-pragmatic aspect // Humanitarian researches. 2012. № 1. – P. 29-36.
5. Maltseva V.M. On the problem of euphony of ergonyms // Actual problems of studying language, literature and journalism: contamination and convergence of humanitarian thought. Abakan, 23-24 November 2016. – P. 121-127.
6. Serova L.F. Wordplay in commercial ergonyms (on the material of the French language) // Bulletin of Kemerovo State University. 2015. № 2-1 (62). – P. 103-106.
7. Guida alberghiera. Elenco guida dei ristoranti in Italia: [website]. URL: <http://www.aipn.it/ristoranti/lazio/roma.htm> (date of reference: 12.08.2018).

Received: 10 March 2025

Accepted: 15 March 2025

Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

INTERTEXTUALITY IN P.D. JAMES'S DETECTIVE NOVELS

Murotalieva Maftuna Shukurulloyevna

Termiz State Pedagogical Institute

E-mail: maftunamurotaliyeva@gmail.com

Abstract. Intertextuality plays an important role in P.D. James's works. In particular, James incorporates references to other literary texts, especially in her detective novels. As a master of the crime genre, James does not merely create stories of mystery and intrigue; she incorporates elements of classical literature, religious texts, and the works of famous dramatists, inviting readers to explore deeper meanings and connections. Drawing on the works of Shakespeare, the Bible, and other literary figures, James enriches her characters, themes, and plots with rich allusions. These references not only enhance the reading experience but also explain her works within a broader cultural and literary tradition.

Keywords: Intertextuality, Detective novels, Crime genre, Classical literature, Religious texts, Shakespeare, Bible, Literary figures, Allusions, Cultural and literary tradition.

P.D.JEYMSNING DETEKTIV ASARLARIDA INTERTEKSTUALLIK

Murotaliyeva Maftuna Shukurullo qizi

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Intertekstuallik P.D. asarlarida muhim rol o'ynaydi. Jeyms, ayniqsa uning detektiv romanlarida, boshqa adabiy matnlarga havolalar kiritgan. Jinoyat janrining ustasi sifatida Jeyms shunchaki sir va intriga hikoyalarni yaratmaydi; u mumtoz adabiyot, diniy matnlar va taniqli dramaturglarning elementlarini o'zida mujassam etgan bo'lib, o'quvchilarni chuqurroq ma'no va aloqalarni o'rganishga taklif qiladi. Shekspir, Bibliya va boshqa adabiy arboblarning asarlariga tayanib, Jeyms o'zining qahramonlari, mavzulari va syujetlarini yaxshilaydigan ishoralariga boy qilib yaratadi. Ushbu havolalar nafaqat o'qish tajribasini boyitibgina qolmay, balki uning asarlarini kengroq madaniy va adabiy an'analar doirasida tushuntiradi.

Kalit so'zlar: Intertekstuallik, Detektiv romanlar, Jinoyat janri, Mumtoz adabiyot, Diniy matnlar, Shekspir, Bibliya, Adabiy arbobl, Ishoralar, Madaniy va adabiy an'analar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N31>

Kirish. Intertekstuallik, asosan, yozuvchilarning oldingi asarlardan foydalanib, yangi ma'no yaratishini va o'quvchilarga bu bog'lanishlarni tan olishni taklif qiladi. Yozuvchi boshqa matnlarga ishora qilib, ularni o'zgartiradi yoki yangi kontekstga joylashtiradi, bu esa o'quvchilarga yanada chuqurroq yoki kengroq talqinlarni taklif etadi.

Intertekstuallik adabiy tushuncha bo'lib, turli matnlar o'rtasidagi munosabatlarni va ularning bir-biriga qanday ta'sir qilishini yoki qanday murojaat qilishini anglatadi. Bu matn mustaqil obyekt emas, balki boshqa matnlar orqali — to'g'ridan-to'g'ri havolalar, iqtiboslar, ishoralar yoki hatto mavzular, g'oyalar yoki tuzilmalarning nozik aks-sadolari orqali shakllantirilishini ko'rsatadi [1].

Bu atama 1960-yillarda adabiyot nazariyotchisi Yuliya Kristeva tomonidan Mixail Baxtin g'oyalariga asoslanib ommalashgan. Intertekstuallik yozuvchilarning ma'no yaratish uchun

oldingi asarlardan foydalanish va o'zgartirish usullarini ta'kidlaydi va ko'pincha o'quvchilarni ushbu aloqalarni tan olishga taklif qiladi.

Masalan, detektiv adabiyotda mualliflar hikoyalarini boyitish, chuqurroq ma'no yaratish yoki sharh berish uchun Shekspir asarlari, Injil yoki klassik adabiyotlardan iqtibos keltirishi yoki ularga ishora qilishi mumkin. Ushbu havolalar bilan tanish bo'lgan o'quvchilar matnni ko'p darajalarda izohlashlari mumkin, ular asosiy aloqalarni va ulardan kelib chiqadigan yangi talqinlarni anglaydilar [2].

Intertekstuallik, asosan, yozuvchilarning oldingi asarlardan foydalanib, yangi ma'no yaratishini va o'quvchilarga bu bog'lanishlarni tan olishni taklif qiladi. Yozuvchi boshqa matnlarga ishora qilib, ularni o'zgartiradi yoki yangi kontekstga joylashtiradi, bu esa o'quvchilarga yanada chuqurroq yoki kengroq talqinlarni taklif etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. P.D.Jamesning ikki asari ayol detektiv Cordelia Greyga bag'ishlanadi. Ulardan biri "Teri ostidagi suyak" (*The Skull Beneath the Skin*) hamda "Unsuitable job for a Woman" (*Ayollar uchun nomunosib ish*). Asar detektiv adabiyoti janriga mansub bo'lib, Agata Kristi, Dorothy L. Sayers va Reymond Chendler kabi mualliflar tomonidan o'rnatilgan elementlar bilan shug'ullanadi. Romaning asosiy qahramoni, Kordeliya Grey, xususiy tergovchi bo'lib, bu janrning klassik an'analariga, sirlarni ochishga intilgan yolg'iz detektivni tasvirlaydi. Biroq, Jeyms bu an'anani ayol qahramon yaratish orqali buzadi, bu esa ilgari detektiv adabiyotda ko'pincha markaziy o'rinda bo'lgan erkak detektivlarga qarshi turadi.

Ushbu intertekstual elementlarni An Unsuitable Job for a Woman asarida to'plab, P.D. Jeyms boy va ko'p qirrali bir hikoya yaratadi. Ushbu ishoralar nafaqat romaning xarakterlari va mavzularini shakllantiradi, balki o'quvchilarni asarni bir nechta adabiy nuqtai nazarlardan o'rganishga taklif qiladi [3].

P.D. Jeymsning "Teri ostidagi suyak" (*The Skull Beneath the Skin*) asarida intertekstuallik muhim rol o'ynaydi, ayniqsa, u klassik adabiyot, san'at va oldingi detektiv asarlari bilan bog'liq havolalari orqali romanning mazmunini boyitadi. Ushbu asar yozuvchining eng ko'p boshqa asarlardan havolalar hamda iqtiboslar keltirilgan. P.D.Jeyms ushbu asarda mashhur kitoblar hamda yozuvchilarning ijodidan qator qator iqtiboslar keltirilgan, Bible, Thomas Mallory, Marlowe, Shakespeare, Webster, Henry James shular jumlasidandir. Hattoki, sarlavhaning nomi "Teri ostidagi suyak" (*The Skull Beneath the Skin*) mashhur shoir T.S.Elliotning «Abadiylikka shivirlar» (*Whispers of Immortality*) she'rida keltirgan. Elliotning o'zi ushbu she'rda Websterni iqtibos sifatida keltiradi " Webster o'lim bilan bog'liq edi/Va teri ostidagi suyakni ko'rdi" "*Webster was much possessed by death/ And saw the skull beneath the skin.*" [4]

Shuningdek, P.D.James Agatha Christie asarlaridan chuqur ta'sirlangan holda o'xshash voqealar haqida yozadi. Shulardan biri bu P.D. Jamesning "Teri ostidagi suyak" (*The Skull Beneath The Skin*) (1982) asari Agatha Christiening "Quyosh ostidagi yovuzlik" (*Evil Under The Sun*) asariga o'xshash muhitda o'tadi: ikkalasi ham Dorsetdan bir necha milya uzoqlikda joylashgan kichik, yakkalanib qolgan orolda kechadi; P.D. James uchun bu Dorset, Agatha Christie uchun esa Devon. Har ikki asarda ham aktrisa o'ldirilgan (Shuning uchun Clarissa Lisle Arlena Marshallning ikkinchi nusxasidir). Har bir ayol hurmatli bir erkak bilan turmush qurgan va er o'z xotini boshqa erkaklar bilan munosabatlarini sezmaslikka urinib, bunga e'tibor bermagan. Har ikkala kitobda ham jismonan nosog'lom o'smir – Linda Marshall yoki Simon Lessing – qatnashadi, va har ikkala holatda ham o'ldirilgan aktrisa o'smirning otasi tomonidan ikkinchi xotin sifatida tanilgan va ular bilan munosabatlari yaxshi bo'lmagan.

Muhokama va natijalar. An “Unsuitable Job for a Woman” (*Ayollar uchun nomunosib ish*) (1972) asarida Kordeliya Grey Isabelle de Lasterie Mark Callender vafot etgan kuni Xugo va Sofi Tilling bilan teatrga bormaganini isbotlashda muvaffaq bo‘ladi: aslida o‘sha kechada pyesa Harold Pinter tomonidan yozilgan edi va Isabelle Kordeliya aslida Jon Osbornning *West of Suez* pyesasining syujetini nazarda tutayotganini e‘tiborsiz qoldiradi [2].

«Unsuitable Job for a Woman» (*Ayollar uchun nomunosib ish*) (1972) asarida intertekstualik o‘ziga xos tarzda mavjud bo‘lib, bu romanda turli adabiy, tarixiy va madaniy qatlamlar bir-biriga bog‘langan. P.D. James bu romanda ayollar haqidagi stereotiplar, ijtimoiy rollar va adabiyotdagi an‘anaviy tasvirlar bilan muloqotda bo‘ladi. Asarda asosiy qahramon, Cordelia Gray, ayol detektiv sifatida tasvirlanadi. Bu qahramon, Agata Kristining *Miss Marple* yoki Dorothy L. Sayersning *Harriet Vane* kabi ayol detektivlardan ilhomlanishi mumkin. Ammo James ayol detektivni nafaqat an‘anaviy janrda, balki ijtimoiy va psixologik jihatdan yanada murakkab tarzda tasvirlaydi. Cordelia Gray o‘zining axloqiy dilemmasi, shaxsiy hayoti va mustaqillikka bo‘lgan orzulari bilan an‘anaviy «ayol detektiv» obrazidan farq qiladi. Bu, Jamesning ayollar rolini adabiyotda qayta baholashga bo‘lgan urinishidir.

P.D. Jeysmsning «The Skull Beneath the Skin» asarida detektiv adabiyotining umumiy parodiyasidan o‘z-o‘zini parodiya qilishgacha boradi. O‘quvchi muallifning qadrli bo‘lgan barcha mavzularini topishi mumkin: qotillik qo‘rquvi, yolg‘izlik, ayb, pushaymonlik va oxir-oqibatda gunohkor tomonning o‘limi orqali jazosini olish [3].

The Skull Beneath the Skin romanida intertekstualik elementlari juda qiziqarli bo‘lib, u turli matnlar, janrlar va adabiy an‘analarga murojaatlarni o‘z ichiga oladi.

Gotik janrga hurmat: Roman yakkalanib qolgan orolda joylashgan bir mansarda bo‘lib o‘tadi, yomg‘irli ob-havo va sirli maqsad uchun yig‘ilgan odamlar guruhi bilan, bu esa Gotik adabiyotga xosdir. Ushbu joylashuv *Vutering Xayts* (Emily Brontë) va *Rebekka* (Daphne du Maurier) kabi asarlarga taqqoslanadi. Hissiyotli muhit va qorong‘u oilaviy sirlarni o‘rganish, shuningdek, romanni ushbu janrga bog‘laydi [1].

Shekspirdan iqtiboslar: James tez-tez adabiy asarlarga murojaat qiladi va *The Skull Beneath the Skin*da aynan Shekspirdan, ayniqsa Tragediyalardan iqtiboslar mavjud. Bu personajlar o‘rtasidagi murakkab munosabatlar, ularning xatoligi va oxir-oqibat halokatga uchraganligi bilan aks etadi. Masalan, personajlarning axloqiy noaniqliklari va psixologik chuqurligi, *Makbet* yoki *Hamlet* kabi Shekspirdan olingan tragediyalarni eslatadi, bu asarlarda xiyonat, aybdorlik va qasos muhim rol o‘ynaydi. Dialog va xarakterlashdagi adabiy ishoralar: Jeysmsning qahramonlari ko‘pincha adabiyot va she‘riyatga ishora qilishadi, bu esa xarakterlarning intellektual fonlarini ularning shaxsiy dramalari bilan bog‘laydi. Ushbu ishoralar nafaqat xarakterni rivojlantirish usuli sifatida xizmat qiladi, balki roman mavjud bo‘lgan kengroq adabiy kontekstni ham ko‘rsatadi.

Bu intertekstual ishoralarni qatlamlash orqali Jeysms o‘zining asariga murakkablik qo‘shadi, o‘quvchilarni faqat yuzaki syujetdan tashqariga chiqib, kengroq adabiy va madaniy an‘analarga kirishga undaydi.

Detektiv janri an‘analariga e‘tibor: Detektiv janri asari sifatida *The Skull Beneath the Skin* detektiv janrining an‘analariga murojaat qiladi. Detektiv tasviri, Cordelia Gray, Agata Xristi yoki Dorothy L. Sayers tomonidan yaratilgan boshqa adabiy detektivlarga taqlid qiladi. Biroq, James janrni psixologik va falsafiy chuqurlik bilan boyitib, uni adabiy jihatdan yanada intertekstual tarzda boyitadi [3].

Xulosa. P.D. Jamesning asarlarida intertekstualik usuli uning detektiv janri san'ati va adabiyotga bo'lgan chuqur hurmatini aks ettiradi. *The Skull Beneath the Skin* va *Unsuitable Job for a Woman* kabi romanlar, o'quvchilarga nafaqat intrigali hikoyalar, balki kengroq adabiy va madaniy aloqalarni o'rganish imkoniyatini taqdim etadi. Jamesning asarlari klassik adabiyot, teatr, va diniy matnlar bilan boyitilgan bo'lib, ularning o'ziga xos iqtiboslar va ishoralar orqali boyitiladi. Bu esa, o'quvchilarni nafaqat matnlarni, balki ularning yaratgan kontekstlarini ham chuqurroq anglashga undaydi.

Shu bilan birga, P.D. Jamesning asarlaridagi intertekstualik, ularning nafaqat janrga, balki adabiyotning o'ziga bo'lgan munosabatini ham aks ettiradi. U o'z asarlarini bir vaqtning o'zida o'ziga xos va kengroq madaniy kontekstga joylashtirib, o'quvchilarga romanlarning yangilanishi va yangicha tushunilishi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Bu esa, P.D. Jamesning adabiyotdagi o'rnini va uning asarlarini qadrlashda yangi yondashuvlarni keltirib chiqaradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. James P.D. *An Unsuitable Job for a Woman*. – London: Faber and Faber. 1972. – 205 p.
2. James P.D. *The Skull Beneath the Skin*. – London: Faber and Faber, 1982. – 372 p.
3. Umberto E. *Interpretation and Overinterpretation*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1992. – 151 p.
4. Umberto E. *The Open Work*. – Harvard: Harvard University Press, 1989. – 285 p.

Received: 10 March 2025

Accepted: 15 March 2025

Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

STATE LEADERS' HOLIDAY GREETINGS: LINGUISTIC, STYLISTIC, AND PRAGMATIC ANALYSIS

Shakhnoza Akhror qizi Ismatova

PhD student, Karshi State University

Abstract. This article examines state leaders' holiday greetings as an essential genre of political communication from linguistic, stylistic, and pragmatic perspectives. Using the holiday speeches of the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, as a case study, the lexical-semantic features, stylistic devices, and speech acts of these addresses are analyzed. Additionally, the compositional structure and pragmatic strategies of holiday greetings are explored, highlighting their role in strengthening national unity, promoting key directions of state policy, and establishing public engagement. The article also emphasizes the function of holiday speeches in inspiring and motivating the public through linguistic means.

Keywords: political communication, holiday greetings, presidential speeches, linguistic analysis, stylistic devices, speech acts, pragmatic strategies.

DAVLAT RAHBARLARINING BAYRAM TABRIKLARI: LINGVISTIK, STILISTIK VA PRAGMATIK TAHLIL

Ismatova Shaxnoza Axror qizi

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat rahbarlarining bayram tabriklari siyosiy kommunikatsiyaning muhim janri sifatida lingvistik, stilistik va pragmatik jihatdan tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning bayram tabriklari misolida ushbu nutqlarning leksik-semantik xususiyatlari, stilistik vositalari hamda nutq axtarlari ochib beriladi. Shuningdek, bayram tabriklarining tarkibiy tuzilishi va pragmatik strategiyalari tahlil qilinib, ularning milliy birlikni mustahkamlash, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini targ'ib qilish va jamoatchilik bilan muloqot o'rnatishdagi o'rni yoritiladi. Maqolada bayram tabriklarining lingvistik vositalari orqali xalqni ruhlantirish va motivatsiya berish funksiyasi ham alohida ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: siyosiy kommunikatsiya, bayram tabriklari, Prezident nutqlari, lingvistik tahlil, stilistik vositalar, nutq axtarlari, pragmatik strategiyalar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N32>

Kirish. Davlat rahbarlarining bayram tabriklari siyosiy kommunikatsiyaning muhim janrlaridan biri bo'lib, rasmiy uslubning maxsus shaklini tashkil etadi. Ushbu nutqlar davlat rahbarlarining jamoatchilik bilan muloqoti vositasi sifatida nafaqat bayramning mazmun-mohiyatini yoritish, balki ijtimoiy-siyosiy g'oyalarni ommaga yetkazish, milliy birlik va taraqqiyot konsepsiyalarini ilgari surish kabi vazifalarni bajaradi.

Bayram tabriklari rasmiy nutq janrining o'ziga xos ko'rinishi sifatida lisoniy va stilistik jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ular tantanavorlik, rasmiylik, motivatsion ruh bilan boyitilgan bo'lib, matnda davlatning siyosiy pozitsiyasi, jamiyatning asosiy qadriyatlarini hamda strategik maqsadlari aks etadi. Mazkur nutqlarda milliy g'urur, tarixiy meros, xalqning yutuqlari va kelajak istiqbollari singari konseptlar lingvistik vositalar orqali ifodalanadi [1; 37].

Davlat rahbarlarining bayram tabriklari strukturaviy jihatdan aniq kompozitsiyaga ega bo'lib, kirish qismida bayramning umumiy mazmuni va ahamiyati yoritiladi, asosiy qismda bayram bilan bog'liq tarixiy, siyosiy hamda ijtimoiy jihatlar tahlil qilinadi, xulosa qismida esa xalq farovonligi, davlat taraqqiyoti va kelajak rejalariga oid tilaklar izhor etiladi. Ushbu nutqlarda lingvistik vositalar, jumladan, emotsional va ekspressiv leksika, ritorik san'at usullari hamda pragmatik mezonlar faol qo'llaniladi [2;58].

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning bayram tabriklari lingvistik va stilistik jihatdan tahlil qilinib, ularning mazmuniy, funksional va kommunikativ xususiyatlari ilmiy asosda o'rganiladi. Tahlil jarayonida davlat rahbarining siyosiy nutqlari orqali bayram tabriklarining ijtimoiy-siyosiy ahamiyati hamda xalq bilan muloqotdagi pragmatik yondashuvlar tahlil qilinadi.

Metodologiya. Tadqiqotda deskriptiv va lingvistik tahlil usullari qo'llanildi. Bayram tabriklari matnlari tarkibiy, uslubiy va pragmatik mezonlar asosida o'rganildi. Shuningdek, diskurs tahlili usuli yordamida davlat rahbari nutqlarining kommunikativ xususiyatlari tahlil qilindi. Maqolada Shavkat Mirziyoyevning bayram tabriklari korpusidan foydalanilib, nutqiy strategiyalar va uslubiy vositalar aniqlashga e'tibor qaratildi.

Natijalar va tahlil. Davlat rahbarlarining bayram tabriklari siyosiy kommunikatsiya janrining muhim ko'rinishi bo'lib, ular rasmiy uslub doirasida shakllanadi va o'zining leksik-semantik hamda stilistik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu nutqlarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, milliy qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot g'oyalari aks etadi [3; 117].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning bayram tabriklari mazmunan quyidagi leksik-semantik guruhlarni o'z ichiga oladi:

Vatanparvarlik konseptlari: Yangi O'zbekiston, milliy birlik, taraqqiyot, mustaqillik kabi so'z va iboralar orqali davlatning asosiy g'oyaviy pozitsiyalari ifodalanadi.

Xalq va jamiyatga murojaatga oid leksik birliklar: aziz vatandoshlar, muhtaram do'stlar, ko'pmillatli xalqimiz kabi murojaatlar Prezidentning xalq bilan bevosita muloqotini ta'minlaydi va tinglovchiga nisbatan samimiy munosabat uyg'otadi.

Optimistik va motivatsion so'zlar: barqarorlik, rivojlanish, yutuqlar, taraqqiyot singari so'zlar kelajak sari ishonch uyg'otish va xalqni faoliyatga undash uchun xizmat qiladi. Ushbu leksik birliklar xalqni ruhlantirish, milliy g'ururni oshirish va davlat strategiyasining asosiy yo'nalishlarini ommaga yetkazish funksiyasini bajaradi.

Davlat rahbarlarining bayram tabriklari tarkibiy jihatdan aniq kompozitsiyaga ega bo'lib, uch asosiy qismga bo'linadi [4;84].

Kirish qismi: Prezident Shavkat Mirziyoyevning bayram tabriklari odatda xalqqa murojaat bilan boshlanadi. Kirish qismi tinglovchilar e'tiborini jalb qilish va nutqning tantanavor ruhini belgilash vazifasini bajaradi. Masalan:

“Aziz vatandoshlar! Jonajon diyorumizga yangi — 2024-yil kirib kelmoqda.”

Asosiy qism: Ushbu qism mamlakatning erishgan yutuqlari, xalqning birdamligi, iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlik kabi masalalarga bag'ishlanadi. Nutqda 2023-yildagi siyosiy va iqtisodiy voqealar sarhisob qilinib, kelajak rejaları yoritiladi: “2023-yil el-yurtimiz uchun qut-barakali va omadli keldi. Eng muhimi, yurtimizda tinchlik-osoyishtalik, turli millat vakillari o'rtasida do'stlik va hamjihatlik hukm surmoqda.” [8]

Xulosa qismi: Nutqning so'nggida xalq farovonligi, tinchlik va taraqqiyotga oid ezgu tilaklar izhor etiladi. Yakuniy qism pragmatik jihatdan auditoriyani ruhlantirish va ularda ijobiy

munosabat shakllantirishga qaratilgan: “Sizlarni Yangi yil bayrami bilan yana bir bor qutlab, barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, xonadonlaringizga tinchlik va fayzu baraka tilayman.”

Mazkur tarkibiy qismlar Prezident nutqining izchilligini ta’minlab, siyosiy kommunikatsiyaning ta’sirchanligini oshiradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning bayram tabriklarida stilistik vositalar nutqning ekspressivligini oshirish hamda auditoriyaga ta’sir ko’rsatish vositasi sifatida xizmat qiladi. Ushbu vositalar orasida quyidagilar alohida ajralib turadi.

Metaforalar: Prezident nutqida “Yangi O’zbekiston orzusi real haqiqatga aylanmoqda.” kabi metaforalar orqali davlat taraqqiyoti obrazli tarzda tasvirlanadi. Metafora siyosiy jarayonlarni aniq va ta’sirchan tushuntirishga xizmat qiladi.

Parallel tuzilmalar: “Shahar va qishloqlarimiz obod bo’lib, aholi hayot darajasi yuksalib bormoqda.” kabi parallel tuzilmalar nutqning ritmikligini ta’minlab, ta’sirchanlik darajasini oshiradi.

Emotsional va ekspressiv leksika: Prezident “Aziz vatandoshlar!”, “Muhtaram do’stlar!” kabi ifodalar orqali xalq bilan yaqinlik hissini shakllantiradi va ommaga ijobiy ta’sir o’tkazadi.

Takrorlashlar: “Yangi hayotni, Yangi O’zbekistonni barpo etish...” kabi so’z va iboralar takrorlash orqali asosiy g’oya auditoriyaning ongida mustahkamlanadi.

Appelyativ (murojaat) vositalar: “Aziz vatandoshlar!” kabi murojaatlar kommunikativ funksiyani kuchaytirib, Prezident va xalq o’rtasidagi muloqotni mustahkamlaydi.

Stilistik vositalarning bunday tahlili davlat rahbarining bayram tabriklaridagi lingvistik vositalar xalq bilan kommunikatsiya samaradorligini oshirishga qaratilganini ko’rsatadi.

Davlat rahbarlarining bayram tabrikleri pragmatik jihatdan xalq bilan kommunikatsiyani amalga oshirish, davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlarini ommaga yetkazish va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga qaratilgan [5; 122.].

Prezident Shavkat Mirziyoyevning bayram tabrikleri xalqni ruhlantirish, milliy g’ururni oshirish va kelajak rejaları bilan tanishtirish kabi muhim kommunikativ maqsadlarni o’zida mujassam etadi.

Prezident nutqlarida turli nutq aktlari kuzatiladi. Jumladan:

Tabriklov aktlari — davlat rahbarining bayram bilan tabriklash orqali xalqqa nisbatan hurmat va ehtiromini ifodalashga xizmat qiladi:

“Sizlarni Yangi yil bayrami bilan yana bir bor qutlab, barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, xonadonlaringizga tinchlik va fayzu baraka tilayman.”

Undov (rag’batlantiruvchi) aktlar — xalqni ezgu maqsadlar sari harakat qilishga undash, milliy birdamlik ruhini kuchaytirishga qaratiladi:

“Yangi hayotni, Yangi O’zbekistonni barpo etish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni to’liq safarbar etamiz.”

Minnatdorchilik aktlari — Prezident yutuqlarning xalqqa mansub ekani va ularning mehnati bilan erishilganini ta’kidlaydi:

“Barcha erishgan yutuqlarimiz uchun siz, aziz vatandoshlarimga chin dildan minnatdorlik bildiraman.”

Presuppozitsiyalar. Prezident nutqlarida presuppozitsiyalar — ya’ni oldindan mavjud deb qabul qilinadigan ma’lumotlar orqali davlat siyosatining izchilligi va barqaror taraqqiyot

g'oyasi ilgari suriladi. Masalan: "Shahar va qishloqlarimiz obod bo'lib, aholi hayot darajasi yuksalib bormoqda." Bu gapda aholi hayot darajasi ilgari ham ko'tarilgani va bu jarayon izchil davom etayotgani presuppozitsiya qilinadi.

Implikativ aktlar. Prezident nutqlarida bevosita aytilmagan, biroq kontekst orqali anglashiladigan pragmatik aktlar ham kuzatiladi. Masalan:

"Yangi yilda iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlik va xususiy mulk uchun keng imkoniyatlar yaratishni yanada kuchaytiramiz."

Ushbu fikrda avvalgi yillarda ham iqtisodiy islohotlar amalga oshirilgani va bu jarayon davom ettirilishi bilvosita ifodalangan.

Appelyativ aktlar. Prezident tabriklarida murojaat shakllari ("Aziz vatandoshlar!", "Muhtaram do'stlar!") tinglovchilarga bevosita qaratilgan bo'lib, kommunikativ aloqani kuchaytiradi. Bu aktlar davlat rahbarining xalqqa yaqinligini ifodalab, nutqning ta'sirchanligini oshiradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev nutqlarida quyidagi asosiy pragmatik strategiyalar kuzatiladi:

Birdamlik strategiyasi — davlat va xalq o'rtasidagi mushtaraklik va hamjihatlik g'oyasi ilgari suriladi: "Birgalikdagi mehnatimiz tufayli Yangi O'zbekiston orzusi real haqiqatga aylanmoqda."

Kelajak strategiyasi — davlat rahbarining nutqida kelajak rejalari va istiqbolli maqsadlar muntazam ta'kidlanadi: "Ilm-fan, innovatsiya, IT kabi sohalarni, "yashil" va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratamiz."

Davlat rahbarlarining bayram tabrikleri lingvistik, stilistik va pragmatik jihatdan murakkab tuzilishga ega bo'lib, ularning shakllanishida rasmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari yetakchilik qiladi. Bunday nutqlarning tarkibiy tuzilishi, mantiqiy izchilligi va kommunikativ strategiyalari siyosiy nutqshunoslik hamda rasmiy yozishmalar stilistikasi doirasida alohida tadqiq etilishi lozim.

Birinchi, davlat rahbarlarining bayram tabrikleri rasmiy uslubga mansub bo'lishiga qaramay, ularning tuzilishida bevosita murojaat shakllari muhim o'rin tutadi. Jumladan, Shavkat Mirziyoyevning tabrik nutqlarida "hurmatli vatandoshlar", "aziz yurtdoshlar" kabi murojaat shakllari qo'llanilishi, bir tomondan, kommunikativ yaqinlikni ta'minlasa, ikkinchi tomondan, nutqning samimiylik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, bunday nutqlarda ekspressiv vositalarning, xususan, baholovchi va motivatsion leksik birliklarning keng qo'llanilishi kuzatiladi. "Yangi davr bosqichi", "buyuk maqsadlar sari" kabi metaforik iboralar nafaqat davlat rahbarining strategik maqsadlarini ifodalash, balki ijtimoiy ongga ta'sir ko'rsatish vazifasini ham bajaradi. Ushbu leksik birliklar orqali milliy birdamlik, taraqqiyot va barqarorlik kabi konseptlar shakllantiriladi.

Uchinchi, davlat rahbarlarining bayram tabrikleri ritorik usullarning keng qo'llanilishi ham ularning stilistik xususiyatlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, parallelizm, takrorlash, antonimiya kabi usullar bayon etilayotgan g'oyaning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Misol uchun, prezident nutqlarida "biz barchamiz bir yoqadan bosh chiqarib, ezgu maqsadlar sari harakat qilamiz" kabi sintaktik parallelizmga asoslangan tuzilmalar tez-tez uchraydi. Ushbu struktura davlat siyosatining jamoaviy harakat tamoyiliga asoslanishini ifodalaydi.

Shuningdek, bayram tabriklari matnlarida ijtimoiy va madaniy an'analar bilan bog'liq tarkibiy birliklar alohida o'rin tutadi. Xususan, Navro'z bayrami munosabati bilan yo'llangan tabrik nutqlarida xalqona qadriyatlar, urf-odatlar va milliy o'ziga xoslikka urg'u berilishi ushbu nutqlarning pragmatik xususiyatlarini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi.

Davlat rahbarlarining bayram tabriklari lingvistik va stilistik jihatdan rasmiy uslubga mansub bo'lishiga qaramay, unda samimiylilik, motivatsion ta'sirchanlik va ijtimoiy birdamlikni shakllantirishga yo'naltirilgan usullar keng qo'llanadi. Ushbu nutqlar siyosiy diskursning o'ziga xos namunasi sifatida o'rganilishi zarur bo'lib, ularning kommunikativ strategiyalari davlat rahbarining auditoriya bilan samarali muloqotini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bayram tabriklari davlat rahbarlarining jamoatchilik bilan muloqot qilishdagi muhim nutqiy janrlaridan biri bo'lib, ular rasmiy uslub doirasida shakllanadi va siyosiy kommunikatsiyaning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning bayram tabriklari lingvistik, stilistik va pragmatik jihatdan tahlil qilinganda, ushbu nutqlar nafaqat bayramlarning mazmun-mohiyatini ochib berishga, balki davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini ommaga yetkazishga, milliy birlik va taraqqiyot konsepsiyalarini ilgari surishga xizmat qilishi yaqqol namoyon bo'ladi. Tahlil natijalariga ko'ra, Prezident nutqlarida leksik-semantik vositalar, stilistik usullar va pragmatik aktlar izchil qo'llanilib, ularda vatanparvarlik, xalq bilan yaqinlik, kelajak rejalari kabi konseptlar ifoda etiladi. Kirish, asosiy va xulosa qismlaridan iborat aniq kompozitsion tuzilma nutqning mantiqiy izchilligini ta'minlaydi, murojaat shakllari va emotsional leksika esa tinglovchiga ta'sirchanlik baxsh etadi.

Pragmatik jihatdan esa ushbu tabriklar birdamlik, kelajak va hamkorlik strategiyalarini ilgari surib, xalqni ezgu maqsadlarga undash va milliy g'ururni mustahkamlashga qaratilgan. Shunday qilib, davlat rahbarlarining bayram tabriklari siyosiy kommunikatsiyaning ta'sirchan shakli bo'lib, ularning lingvistik, stilistik va pragmatik tahlili ushbu nutqlarning ijtimoiy va siyosiy ahamiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Altikriti, S. (2016). Persuasive Speech Acts in Barack Obama's Inaugural Speeches (2009, 2013) and The Last State of Union Address (2016). *International Journal of Linguistics*, 8(2). <https://doi.org/10.5296/ijl.v8i2.9274>
2. Austin, J. L. (1962). *How to Do Things with Words*. Oxford: Oxford University Press.
3. Bach, K., & Harnish, R. M. (1979). *Linguistic Communication and Speech Acts*. Cambridge: The MIT Press. [https://doi.org/10.1016/0024-3841\(79\)90047-0](https://doi.org/10.1016/0024-3841(79)90047-0)
4. Basiru, A. (2015). Analysis of Speech Acts in Selected Military and Civilian Speeches of President Obasanjo. Retrieved from <http://studentsrepo.um.edu.my/id/eprint/6487>
5. Chilton, P. (2004). *Analyzing Political Discourse: Theory and Practice*. London: Routledge. <https://doi.org/10.4324/9780203561218>
6. Clark, B. (2009). Salient Inferences: Pragmatics and The Inheritors. *Language and Literature*, 18(2), 173-212. <https://doi.org/10.1177/0963947009105343>
7. Fotheringham. (1966). *Perspective on Persuasive*. Allyn and Bacon Press.
8. Shavkat Mirziyoyev. (2024). O'zbekiston xalqiga Yangi yil tabrigi. 01.01.2024

12.00.00 – YURIDIK FANLAR – LAW

Received: 10 March 2025

Accepted: 15 March 2025

Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

**PECULIARITIES OF THE DEVELOPMENT OF THE INSTITUTION OF
EXEMPTION FROM LEGAL LIABILITY IN UZBEKISTAN**

Kayumov Zoir Ergashovich,
independent researcher

Abstract. The article analyzes the development and peculiarities of the institution of exemption from legal liability in Uzbekistan. It examines the processes of protecting human rights and freedoms, improving the judicial and legal system, and adapting international legal standards to the national legal framework. The study also discusses the application of exemption from legal liability in judicial practice, rehabilitation processes, and measures aimed at the democratization of the legal system.

Keywords: legal liability, exemption from liability, rule of law, judicial and legal reforms, human rights, legislative improvement.

**O‘ZBEKISTONDA YURIDIK JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH INSTITUTI
RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Qayumov Zoir Ergashevich,
mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda yuridik javobgarlikdan ozod qilish institutining rivojlanishi va uning xususiyatlari tahlil qilinadi. Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, sud-huquq tizimini takomillashtirish hamda xalqaro-huquqiy standartlarni milliy huquq tizimiga uyg‘unlashtirish jarayonlari tadqiq qilinadi. Yuridik javobgarlikdan ozod qilishning sud amaliyotidagi qo‘llanilishi, reabilitatsiya jarayonlari hamda davlatning huquqiy tizimini demokratlashtirish bo‘yicha olib borilayotgan choralar muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: yuridik javobgarlik, javobgarlikdan ozod qilish, qonun ustuvorligi, sud-huquq islohotlari, inson huquqlari, qonunchilik takomillashtirilishi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N33>

Yangi O‘zbekistonda Davlat Rahbari Sh.Mirziyoyev boshchiligida barcha sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish tizimining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu jarayon qonun ustuvorligini ta‘minlash, sud-huquq tizimini rivojlantirish hamda xalqaro-huquqiy standartlarni milliy huquq tizimiga jadal uyg‘unlashtirish ishlari va boshqa shu kabi dolzarb masalalarni qamrab oladi.

Islohotlar doirasida yuridik javobgarlik tizimini takomillashtirish va undan ozod qilish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Mazkur sohadagi islohotlar qonun ustuvorligini mustahkamlash, adolatni ta‘minlash va fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan. Bunda, xususan, fuqarolik, jinoyat, jinoyat-protsessual, jinoyat-ijro, ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchilik tizimini

takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezident Sh.Mirziyoyev sohani takomillashtirish, sud-huquq sohasiga doir asosiy qonun va kodekslar bundan 20-25-yil oldin qabul qilingani va ularning hozirgi davr talablariga javob bermasligini va bu borada amaliy ishlarni jadallashtirish muhimligi va zarurligini ta'kidlagan [1; B.2.].

Bugungi kunda jahon amaliyotida yuridik javobgarlikdan ozod qilish institutining turli asoslari va mexanizmlari mavjud bo'lib, ular muayyan davlatning huquq tizimi, tarixiy an'analari va huquqni qo'llash amaliyoti bilan bog'liq ravishda amalga oshiriladi.

Xalqaro maydonda yuridik javobgarlik sohasida ikki qarama-qarshi tendensiya kuzatilmoqda. Bir tomondan, ayrim jinoyatlarga nisbatan jazo choralari kuchaytirilmoqda. Bu, ayniqsa, kiberhuquqbuzarliklar, terrorizm, korrupsiya va atrof-muhitga zarar yetkazish bilan bog'liq huquqbuzarliklar. Boshqa tomondan esa yuridik javobgarlikni liberallashtirish, ayniqsa, jinoiy javobgarlikni yumshatish tendensiyasi keng tarqalmoqda. Bunday liberalizatsiya jazo choralari yengillashtirish, alternativ jazo choralari keng joriy etish va yarashtirish mexanizmlarini kuchaytirish orqali amalga oshirilmoqda. Shuningdek, alternativ jazo choralari rivojlantirish tendensiyasi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai-nazardan dunyoning ko'plab davlatlari tomonidan inson huquqlarini xar tomonlama ta'minlash, qonunchilik tizimini takomillashtirish, jinoyat va huquqbuzarliklarni oldini olish va bartaraf etish, shuningdek, huquq tizimini liberallashtirish jarayonlarida yuridik javobgarlik va undan ozod qilish institutining tashkiliy va huquqiy asoslarini rivojlantirish yuzasidan amaliy choralar ko'rilmogda.

2025-yil fevral oyi holatiga ko'ra, BMT tarkibiga 193 mamlakat kiradi, yana ikki mamlakat — kuzatuvchi maqomiga ega [2; B.5.]. Ekspertlarning fikriga ko'ra, dunyoda taxminan 200 ta milliy huquqiy tizim mavjud [3; B.9.]. Huquq tizimini liberallashtirish jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning insonparvar va adolatli modelini yaratishga qaratilgan murakkab va ko'p qirrali jarayon hisoblanadi. Liberallashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri jinoyat qonunchiligini isloh qilish bo'lib, bu jinoyat deb topilgan qilmishlar ro'yxatini qayta ko'rib chiqish, ozodlikdan mahrum etish jazosini kamaytirish va alternativ jazo turlarini kengaytirishni nazarda tutadi. Ikkinchi muhim yo'nalish — fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bo'lib, bu fuqarolik muomalasida ishtirok etuvchilar erkinligini oshirish, ortiqcha me'yoriy tartibga solishni kamaytirish va huquqiy tartibotni soddalashtirishni o'z ichiga oladi. Bunda raqamlashtirish jarayonlarini rivojlantirish, yangi huquqiy institutlarni joriy etish va muammolarni alternativ yo'llar orqali hal qilish mexanizmlarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Liberallashtirishning uchinchi yo'nalishi ma'muriy huquqni transformatsiya qilish bilan bog'liq. Huquqiy davlatni shakllantirish sharoitida ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish, oshkoralik tamoyillarini kuchaytirish va davlat organlari qarorlarini shikoyat qilish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bu sohadagi liberallashtirish jarayonlari fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari uchun ma'muriy yuklamani kamaytirishga qaratilgan bo'lib, investitsiya muhitini yaxshilash va davlat institutlariga bo'lgan ishonchni oshirishga yordam beradi.

Yuridik javobgarlikni liberallashtirish va undan ozod qilish hozirgi davrda huquqiy tizimlarning eng muhim islohot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon jazo choralari yengillashtirish, huquqiy kafolatlarni kuchaytirish va huquqni qo'llash amaliyotini jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga moslashtirishga qaratilgan.

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda tizimli islohotlar doirasida davlat va jamiyat qurilishi, iqtisodiyotni erkinlashtirish, xususiy mulk daxlsizligini, tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan muhim choralar amalga oshirilib, inson huquqlarini taʼminlashga qaratilgan keng islohotlar amalga oshirildi. Mazkur islohotlar davomiyligini taʼminlash, jamiyat taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 sonli “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasi toʻgʻrisida Farmoni [4; B.22.]. qabul qilindi. Mazkur strategik hujjat bilan Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini taʼminlash, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini taʼminlashni sud-huquq islohotlarining bosh mezoniga aylantirish ustuvor qilib belgilandi.

Sud-huquq tizimini takomillashtirish, qonun ustuvorligini xar tomonlama taʼminlash va inson huquqlari tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Qonun ustuvorligini taʼminlash Yangi Oʻzbekiston taraqqiyotining bosh tamoyillaridan biri etib belgilandi [5; B.2.]. Bu tamoyil nafaqat demokratik huquqiy davlat qurishda, balki inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda ham hal qiluvchi oʻringa ega. Bu yoʻnalishda amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlar nafaqat mamlakat ichida, balki xalqaro miqyosda ham Oʻzbekistonning ijobiy imijini mustahkamlashga hissa qoʻshmoqda.

Sud-huquq sohasidagi islohotlarda yuridik javobgarlikdan ozod qilish masalasiga ham alohida eʼtibor qaratilmoqda. Yuridik javobgarlikdan ozod qilish instituti huquqbuzarlikning xususiyati, yuridik javobgarlik turi va tartibga solinadigan huquqiy munosabatlarning xususiyatiga koʻra turli shakl va asoslarni oʻz ichiga oladi [6; B.14.]. Mazkur institutning asosiy tamoyili jamiyat manfaatlarini taʼminlash va inson huquqlarini himoya qilish oʻrtasida muvozanatni saqlash hamda huquqdan suiisteʼmol qilishning oldini olish zaruratidan iborat. Yuridik javobgarlikdan ozod qilish instituti jamiyatda adolatni taʼminlash, shaxsning huquqlarini himoya qilish va uning ijtimoiy hayotga moslashuvini qoʻllab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu institutning samarali qoʻllanilishi qonun ustuvorligi va inson huquqlari himoyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

2023-yil 30-aprelda umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahririga barcha yoʻnalishlar boʻyicha kiritilgan oʻzgarishlar singari, jinoyat sodir etishda gumon bilan ushlangan shaxs huquqlarining asosiy kafolati (“Miranda qoidasi”), fuqaro sudning qaroriga qadar koʻpi bilan 48 soatdan ortiq ushlab turilishi mumkin emasligi (“Xabeas korpus” instituti) hamda oʻlim jazosi taqiqlanishi kabi normalar aks ettirilib, konstitutsiya darajasida mustahkamlandi. Bu normalar Oʻzbekistonning demokratik huquqiy davlat sifatidagi imijini yanada mustahkamlashga va fuqarolarning davlat organlariga boʻlgan ishonchini oshirishga qaratilgan. Jumladan, “Miranda qoidasi”ning Konstitutsiyaga kiritilishi jinoiy jarayonda gumonlanuvchi yoki ayblanuvchining oʻz huquqlari bilan tanishtirilishi va ularni amalga oshirishi uchun zarur sharoitlarni taʼminlaydi.

Bu norma orqali gumonlanuvchiga oʻzini himoya qilish huquqi, sukut saqlash huquqi va advokat yordami olish huquqi kafolatlanadi. Bunday choralar gumonlanuvchilar va ayblanuvchilarning insonparvarlik tamoyillariga muvofiq himoyalanihini taʼminlaydi. “Xabeas korpus” institutining joriy etilishi esa shaxsning erkinligiga noqonuniy cheklov qoʻyilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Sudning qaroriga qadar shaxsni ushlab turish muddatining 48 soatdan oshmasligi haqidagi talab adolatli sudlovni taʼminlash va hokimiyatning qonunchilikka asoslangan nazoratini kuchaytirishga qaratilgan muhim qadam hisoblaniladi. Bu tartib nafaqat shaxsiy

erkinlikni himoya qiladi, balki davlat organlarining faoliyatida ochiqlik va mas'uliyatni oshirishga xizmat qiladi. O'lim jazosining taqiqlanishi esa O'zbekistonning inson hayotining muqaddasligini e'tirof etishdagi qat'iy pozitsiyasini namoyon etadi. Bu normaning konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi xalqaro miqyosda qo'llab-quvvatlanadigan insonparvarlik tamoyillariga hamohangdir va inson huquqlari sohasidagi islohotlarning amaliy natijalaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Ushbu amaliyotning mamlakatda muvaffaqiyatli joriy etilishini sud organlari tomonidan oqlov hukmlari chiqarish holatlarini yildan yilga ko'payish dinamikasi bilan tahlil qilish mumkin. Xususan 2007–2015-yillar davomida sudlar tomonidan 688 354 nafar shaxsga nisbatan 498 730 ta jinoyat ishi ko'rib chiqilib, 110 nafar shaxs oqlangan bo'lsa, 2016–2022-yillar davomida 418 992 nafar shaxsga nisbatan 322 531 ta jinoyat ishi ko'rib chiqilib, shundan 4 764 nafar shaxs oqlangan [7; B.2.].

Yuridik javobgarlikdan ozod qilish jinoyat huquqining muhim instituti bo'lib, u individual holatlarni hisobga olish, jinoiy siyosatni insonparvarlashtirish va huquqbuzarlarni qayta ijtimoiylashtirishga xizmat qiladi. Ushbu institut jinoyat-protsessual tizimida turli mexanizmlar orqali amalga oshiriladi, jumladan, oqlash, jinoiy ishni tugatish, tomonlarning yarashishi, shartli ravishda muddatidan oldin ozod qilish va jazoni yengilrog'iga almashtirish.

2024-yilning birinchi yarmida jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan ko'rilgan ishlar bo'yicha statistik ma'lumotlarni tahlil qilish ushbu mexanizmlarning amaliy qo'llanilishi, mavjud tendensiyalarni aniqlash va qonunchilik hamda sud amaliyotini takomillashtirish yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi. Hisobot davrida jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan 29 086 ta jinoyat ishi bo'yicha 37 179 nafar shaxsga nisbatan qarorlar qabul qilingan [8; B.1.]. Yuridik javobgarlikdan ozod qilish turli mexanizmlar orqali amalga oshirilgan: 16 624 nafar shaxs muddatidan oldin shartli ravishda ozod qilingan; 5 620 nafar shaxsga tayinlangan jazo yengilrog'iga almashtirilgan; 6 976 nafar shaxs bo'yicha ayblov moddalari qayta ko'rib chiqilgan yoki bekor qilingan; 3 432 nafar shaxs sud zalida ozod qilingan, chunki ularga ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo tayinlangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida yuridik javobgarlik va undan ozod qilish bilan bog'liq asosiy huquqiy normalar belgilab berilgan. Konstitutsiyaning 26-moddasiga ko'ra, insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'rvonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas. Hech kimda uning roziligisiz tibbiy va ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas.

Shuningdek, 28-moddaga asosan jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo'li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi. Ayblanuvchiga o'zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta'minlanadi. Aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin. Hech kim o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas. Agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin

emas. Bu tamoyillar javobgarlik va jazoning adolatli va qonuniy tarzda amalga oshirilishini kafolatlaydi.

Yuridik javobgarlik shaxs tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik uchun davlat tomonidan belgilangan jazoni o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasiga ko'ra, har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli. Har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Har kimga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishi huquqi kafolatlanadi.

Har kim davlat organlarining yoxud ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararining o'rnini davlat tomonidan qoplanishi huquqiga ega.

Yuridik javobgarlikni belgilashda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Masalan, 30-moddada hech kim rasmiy e'lon qilinmagan qonun asosida hukm qilinishi, jazoga tortilishi, mol-mulkidan yoki biron-bir huquqidan mahrum etilishi mumkin emas. Hech kim ayni bir jinoyat uchun takroran hukm qilinishi mumkin emas.

Xulosa qilib aytganda yuridik javobgarlikdan ozod qilish instituti Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu institut qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda jinoiy jazolarni insonparvarlik tamoyillari asosida takomillashtirishga qaratilgan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Prezident korrupsiyaga qarshi kurashish butun jamiyat ishi ekanini ta'kidladi. 24.01.2020. <https://president.uz/uz/3321>.
2. Члены Организации Объединенных Наций. <https://www.un.org/ru/about-us/member-states>.
3. M.Brodowicz. The Evolution and Comparison of Different Legal Systems Around the World. April 27, 2024. <https://aithor.com/essay-examples/the-evolution-and-comparison-of-different-legal-systems-around-the-world>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. 11.09.2023-yildagi PF-158-son
5. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xorijiy investorlar kengashining birinchi yalpi majlisidagi nutqi. 16.11.2022. <https://president.uz/uz/lists/view/5702>
6. G.Bongiovanni, G.Postema, A.Rotolo, G.Sartor, C.Valentini, D. Walton. Handbook of Legal Reasoning and Argumentation. Balancing, Proportionality and Constitutional Rights. 03 July 2018. <https://link.springer.com/book/10.1007/978-90-481-9452-0>
7. F.Primov. "Xabeas korpus" instituti: inson huquqlarini kafolatli himoya qilishda muhim o'rin tutadi. 17.06.2023. <https://xabar.uz/huquq/xabeas-korpus-instituti-inson-huquqlarini>
8. Информационное сообщение об уголовных делах, рассматриваемых судами в I полугодии 2024 года. 18.07.2024. <https://sud.uz/ru/news-2024-07-19-1-2/>

Received: 10 March 2025

Accepted: 15 March 2025

Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

GENERAL CHARACTERISTICS AND TYPES OF ILLEGAL CIRCULATION OF PYROTECHNIC PRODUCTS

Ilyosbek Tajaliyev

Independent Researcher,
University of Public Safety

Abstract. This article examines the illegal circulation of pyrotechnic products, its legal aspects, impact on safety, and negative consequences for society. The production, sale, transportation, and use of pyrotechnic devices are strictly regulated in most countries, including the Republic of Uzbekistan, where specific legislative measures are applied to combat their illegal circulation. The study analyzes the legal status of pyrotechnic products, their level of danger, and mechanisms for combating illegal trade. Additionally, the impact of pyrotechnic products on health and the environment is assessed based on scientific sources.

Keywords: pyrotechnics, illegal circulation, safety, legislation, explosive substances, criminal liability, environment, health.

PIROTEKNIKA BUYUMLARINING QONUNGA XILOF MUOMALASINING UMUMIY TAVSIFI VA TURLARI

Tajaliyev Ilyosbek

Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

E-mail: alfargoniy.uz@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada pirotexnika buyumlarining noqonuniy muomalasi, uning huquqiy jihatlari, xavfsizlikka ta'siri va jamiyat uchun salbiy oqibatlari tahlil qilinadi. Pirotexnika vositalarining ishlab chiqarilishi, sotilishi, tashilishi va qo'llanilishi aksariyat davlatlarda qat'iy tartibga solingan bo'lib, O'zbekiston Respublikasida ham ushbu mahsulotlarning noqonuniy aylanmasi bo'yicha maxsus qonunchilik choralari qo'llaniladi. Tadqiqot davomida pirotexnika mahsulotlarining huquqiy maqomi, xavflilik darajasi va noqonuniy muomalaga qarshi kurash mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, pirotexnika buyumlarining salomatlik va atrof-muhitga ta'siri ham ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: pirotexnika, noqonuniy muomala, xavfsizlik, qonunchilik, portlovchi moddalar, jinoiy javobgarlik, atrof-muhit, salomatlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N34>

Kirish. Pirotexnika buyumlarining ishlab chiqarilishi, sotilishi, tashilishi va ishlatilishi dunyoning ko'plab davlatlarida qat'iy qonunchilik asosida tartibga solinadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida ham pirotexnika mahsulotlari bilan bog'liq buyumlarining noqonuniy qo'llanilishi va savdosi huquqiy jihatdan qonunchilikda belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Bojxona va Milliy gvardiyasi tizimida ham bunga qarshi kurashda ko'p ishlar amalga oshirilmoqda. Pirotexnika buyumlari haqidagi qonunchilik hujjatlari nima uchun zaruriyatga aylandi bunday buyumlarga ta'rif qanday? Pirotexnika qadimgi yunoncha "πῦρ" "olov, issiqlik" + τεχνικός ot τέχνη "san'at, ishbilarmonlik, ko'nikma" so'zlaridan olingan

bo'lib, texnikaning yonuvchan birikmalarni tayyorlash va muayyan signal yoki effektga erishish uchun ularni yondirishdan iborat bo'lgan qismidir. Pirotexnika buyumi – pirotexnik birikmani yondirish (portlatish) orqali tegishli yorug'lik yoki ovozli effektga erishish maqsadida yondiriladigan vosita"[1] dir. Pirotexnika — bu texnik san'at bo'lib, u insonning yonuvchan materiallar orqali effekt yaratish sohasidagi bilimlari va mahoratlarini o'zida mujassam etadi. Pirotexnika mahsulotlari portlovchi qurilmalar qatoriga kiradi, bexosdan portlash oqibatida yurak-qon tomir tizimiga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, bundan uni oddiy o'yinchiq yoki oddiy bir ko'ngilochar narsa deb bilgan bolalar ko'proq jabr ko'radi. Ular orasida kuyish, turli tan jarohatlari olish holatlari, hatto qo'l-oyoqlaridan ajrab qolganlar, ko'rish va eshitish qobiliyatini yo'qotganlar ham uchraydi. Pirotexnika vositalaridan foydalanish jahonda deyarli barcha davlatlar tomonidan qonunga xilof tarzda baholanadi. Xorijlik va mahalliy olimlar tadqiqot natijalarini tahlil qilish orqali pirotexnika buyumlarini turlarga ajratish va tasniflash mumkin

Materiallar va metodlar. San-Fransisko shahri va okrugi Fuqarolik Buyuk Hay'ati hisobotida ("Uncontrolled Burn: Dimming the Spark of Illegal Fireworks in San Francisco") "Pirotexnika buyumlari — bu portlovchi, yonuvchi yoki qizdiruvchi moddalar hamda mexanizmlardan iborat bo'lib, ko'ngilochar maqsadlar (masalan, bayram va tantanalar uchun) yoki texnik maqsadlarda (masalan, signal berish, yoritish) ishlatiladi. Ushbu vositalar turli xil yorug'lik, tovush va boshqa vizual yoki akustik ta'sirlarni hosil qilish uchun mo'ljallangan vositalar"[2] dir deb ta'rif beriladi. Tadqiqotlarga asoslangan ushbu hisobotda pirotexnika buyumlari maishiy pirotexnika, professional pirotexnika vositalariga bo'linadi va shunga qarab qonunchilikda ularning huquqiy maqomi belgilab qo'yilgan. Perotexnika vositalarining noqonuniy savdosi bilan bog'liq huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillari, ushbu faoliyatning xavflilik darajasi, uning jamiyat va davlat xavfsizligiga ta'siri haqidagi tadqiqotlardan Licudine va boshqalar tomonidan yozilgan "Hazardous metals in ambient air due to new year fireworks during 2004-2011 celebrations in Pearl City, Hawaii" [3] maqolasida perotexnika vositalarida ishlatiladigan metallar va ularning ekologiya va inson salomatligi uchun katta xavf tug'diruvchi buyumlar sifatida tahlil qilinadi. Shuningek, maqolada pirotexnika buyumlarining ta'rifi va huquqiy maqomi masalasiga atrof-muhit va sog'liqni saqlash nuqtai nazaridan yondashadi. "Pirotexnika buyumlari ko'ngilochar tadbirlarda ishlatiladigan va yorug'lik, tovush yoki boshqa effektlarni hosil qilish uchun portlovchi moddalar va kimyoviy birikmalar Bariy (yashil rang uchun), Stronsiy (qizil rang uchun), Kobalt va mis (ko'k ranglar uchun), Magniy va alyuminiy (yorqin oq rang va uchqunlar uchun)foydalaniladigan vositalar"[4] sifatida ko'rsatiladi. Maqolada pirotexnika buyumlari huquqiy maqomiga ko'ra ruxsat etilgan pirotexnika hamda noqonuniy pirotexnika vositlariga bo'lingan. Ulbricht, Doberentz va Madea tomonidan yozilgan maqolada ("Death on New Year's Eve caused by illegal fireworks – a firework shell") Yangi yil bayramlari davrida noqonuniy pirotexnika vositalarining ishlatilishi natijasida yuzaga kelgan o'lim holati, pirotexnika buyumlarining noqonuniy ishlatilishi natijasida yuzaga keladigan xavfli holatlar va ularning oqibatlarini tahlil qilinadi. Maqola ilmiy tekshiruvga asoslangan bo'lib, qonunbuzarliklar va jabrlanuvchining jarohatlari (masalan, kuyishlar, travmalar, ichki jarohatlar) jinoiy oqibatlariga ilmiy xulosalar berilgan. Maqolada pirotexnika buyumlariga "portlash, yonish yoki issiqlik va yorug'lik hosil qilish uchun mo'ljallangan kimyoviy moddalar yoki mexanizmlar majmuasi bo'lib, ular asosan ko'ngilochar, signal beruvchi yoki texnik maqsadlarda qo'llaniladi"[5] deb ta'rif berilgan. Rossiya Fedratsiyasi qonunchiligida Pirotexnik

mahsulotlarining noqonuniy aylanishiga oid jinoyatchilik va ma'muriy javobgarlik tahlil qilingan Gadjimetov Adil Alimuradovichning "Analiz otvetstvennosti za nezakonniy oborot pirotexnicheskix izdelyiy i provedeniye paralleli so vzrивnimi ustroystvami" maqolasida "perotexnika mahsulotlari portlash yoki yonish jarayonlarini yaratish orqali vizual va audio effektlar hosil qilishga mo'ljallangan, tarkibida portlovchi yoki yonuvchan moddalar bo'lgan maxsus mahsulotlar"[6] dir deb ta'rif bergan. Muallif ular asosan bayram tadbirlari, shuningdek, maxsus signalizatsiya va harbiy maqsadlar uchun ishlatiladi. Pirotexnika buyumlari faqat xavfsiz sharoitlarda, qonuniy ruxsatnoma asosida ishlatilishi kerakligini ta'kidlaydi.

Muhokama va natijalar. Tadqiqotlar natijalari pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasining umumiy tavsifi tahlil etilganligini ko'rsatadi. Maqolada xorijiy va mamlakatimiz qonun va qonun osti hujjatlari nazariy metodologik manba bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 10-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi hududida pirotexnika vositalari aylanishini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 309-son qarori, 2010-yil 22-sentabrda "Pirotexnika buyumlari muomalasi tartibga solinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni, Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi hududida pirotexnika buyumlari muomalasini davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2010-yil 25-oktyabrda 234-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, O'zbekiston Respublikasi hududida pirotexnika buyumlari muomalasi sohasida davlat nazoratini kuchaytirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 28-avgustda "Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi uchun javobgarlikni kuchaytirishga qaratilgan o'zgartirishlar kiritish haqida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 27-fevralda "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi Qonuni[7], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 21-fevralda "O'zbekiston Respublikasi hududi orqali maxsus yuklar va harbiy tarkiblarning tranzitini davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilish to'g'risida"[8] gi 62-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 6-mayda "Portlovchi moddalar va portlatish vositalarini O'zbekiston Respublikasiga olib kirish, transportda tashish, saqlash va ulardan foydalanish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 213-sonli qarori[9], O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi va davlat bojxona qo'mitasining 2013-yil 7-fevralda "Maxsus yuklar tasnifini tasdiqlash to'g'risida"gi 2, 01-02/12-14-son Qarori[10], O'zbekiston Respublikasi IIV va "Sanoatkontexnazorat" davlat inspeksiyasining 2005-yil 25-mayda "Portlovchi moddalarni ishlab chiqarish, sotib olish, saqlash, transportda tashish, ulardan foydalanish va ularni hisobga olish to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi 3/78-son Qarori[11] larida qonunchilik normalarida pirotexnika buyumlari turlarga ajratilgan va tasniflangan. Yuqorida sanab o'tilgan qonun va qarorlar pirotexnika buyumlari ularning pirotexnik tarkibiga va kimyoviy o'zgarishlar, javobgarlikni kuchaytirish pirotexnika buyumlari muomalasini cheklash chora tadbirlarni amalga oshirishga oid ma'lumotlar berilgan.

Pirotexnika buyumlariga oid atamalarning o'rganilishi:

Portlovchi moddalar deganda, kislorod, havo bo'lmasa ham tezda va o'zidan o'zi parchalanib o'zgarish (portlash) xususiyatiga ega bo'lgan va ruxsatnoma talab yetiladigan tabiiy yoki sun'iy moddalar, kimyoviy birikmalar va aralashmalar tushunilishi lozim. Masalan: porox, dinamit, trotil, nitroglitserinli, vodorod va kislorod aralashmasi, piroksilin[12] va boshqalar.

Tez alanganuvchi moddalar – qurol sifatida foydalanish uchun mo'ljallangan yoki shu maqsadga moslashtirilgan, kelib chiqishi tabiiy yoxud sun'iy bo'lgan, sintez qilingan, qattiq, suyuq, gazsimon materiallar va yonuvchi aralashmalardir.[13]

Pirotexnika — bu texnologiyaning maxsus tarmog'i bo'lib, uning sohasi yondirilganda rangli yoki yorqin oq olov, tutun hosil qiladigan yoki ovoz effekti va yondiruvchi ta'sir ko'rsatadigan turli xil moddalar va moddalar aralashmalarini ishlab chiqarish va o'rganishni o'z ichiga oladi.

Pirotexnika buyumi – pirotexnika tarkibiga ega bo'lgan hamda maxsus effektlar, jumladan issiqlik, yorug'lik, tovush, tutun, aerosol yoki ularning majmui (kombinatsiyalari) ko'rinishida effektlar yaratish (keltirib chiqarish) uchun mo'ljallangan qurilma;

Pirotexnika tarkibi – portlash natijasida boshqa narsaga aylanishga qodir bo'lgan va yonish jarayonida nur, issiqlik, tovush va elektr quvvati ajratib, muayyan gazsimon va kondensatsiyalangan mahsulotlar ishlab chiqariladigan kimyoviy moddalar aralashmasidir.[14]

Pirotexnika buyumlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish deganda — tayyorlash, saqlash, tashish, jo'natish, ulardan foydalanish, xuddi shuningdek ularni qonunga xilof ravishda O'zbekiston Respublikasiga olib kirish (O'zbekiston Respublikasidan olib chiqish) yoki o'tkazish ancha miqdorda yoxud shunday harakatlar nazarda tutiladi.[15]

Portlash xavfi bo'lgan moddalar yoki pirotexnika buyumlaridan foydalanish qoidalarini buzish — Portlovchi, tez alanganuvchi, o'yuvchi moddalarni yoxud pirotexnika buyumlarini saqlash, hisobga olish, ulardan foydalanish, ularni tashish, jo'natish qoidalarini buzish badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishi.[16]

Xulosa. Yuqoridagi ilmiy tahlillardan ko'rish mumkinki, pirotexnika buyumlari portlash yoki tez yonish xususiyatiga ega bo'lib, insonlarning hayoti va salomatligi uchun xavf tug'diradi. Shuningdek, noto'g'ri qo'llanilishi jismoniy jarohatlarga, hatto ayollar va bolalarning o'limiga sabab bo'ladi. Saqlash va foydalanish yong'in chiqishiga yoki moddiy zarar keltirishga sabab bo'ladi. Pirotexnika buyumlarining noqonuniy qo'llanilishi fuqarolar tinchligini buzilishi, qo'rquv yoki tartibsizliklar keltirib chiqaradi. Ularning noqonuniy muomalasi jinoyat va terrorchilik maqsadlarida foydalanishga olib keladi. Pirotexnika buyumlarining yonishidan chiqadigan kimyoviy moddalar havo, suv va tuproqni ifloslantiradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Begmatov E. va boshqalar “O'zbek tilining izohli lug'ati”. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. P harfi bo'yicha bo'lim
2. Michael C. et al. “Uncontrolled Burn Dimming the Spark of Illegal Fireworks in San Francisco” City and county of San Francisco 2023–2024 civil Grand Jury, May 28, 2024
3. Licudine, Jocelyn A et al. “Hazardous metals in ambient air due to new year fireworks during 2004-2011 celebrations in Pearl City, Hawaii.” Public health reports (Washington, D.C. : 1974) vol. 127,4 (2012): 440-50. doi:10.1177/003335491212700412

4. Licudine, Jocelyn A et al. "Hazardous metals in ambient air due to new year fireworks during 2004-2011 celebrations in Pearl City, Hawaii." Public health reports (Washington, D.C. : 1974) vol. 127,4 (2012): 440-50. doi:10.1177/003335491212700412
5. Ulbricht, Julia, Elke Doberentz, and Burkhard Madea. "Death on New Year's Eve caused by illegal fireworks—a firework shell." Forensic Science, Medicine and Pathology 20.1 (2024): 205-211.
6. Гаджиметов, Адиль Алимуратович. "Анализ ответственности за незаконный оборот пиротехнических изделий и проведение параллели со взрывными устройствами." Пробелы в российском законодательстве. Юридический журнал 2 (2017): 29-32.
7. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 y., 17-son, 211-modda; 2016 y., 17-son, 173-modda, 52-son, 597-modda; 2017 y., 24-son, 487-modda, 37-son, 978-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.12.2019 y., 03/19/597/4193-son
8. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2002 y., 3-4-son, 34-modda; 2004 y., 28-son, 321-modda, 30-son, 345-modda; 2005 y., 8-9-son, 67-modda; 2010 y., 51-son, 486-modda; 2015 y., 46-son, 584-modda; 2017 y., 29-son, 693-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.11.2017 y., 09/17/915/0259-son, 01.06.2018 y., 09/18/400/1289-son, 01.06.2018 y., 09/18/396/1287-son, 11.06.2018 y., 09/18/434/1339-son, 17.12.2018 y., 09/18/1022/2328-son; 07.03.2019 y., 09/19/195/2712-son; 14.05.2019 y., 09/19/397/3123-son)
9. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004 y., 19-son, 219-modda; 2008 y., 19-son, 161-modda; 2010 y., 51-son, 486-modda; 2012 y., 38-son, 436-modda, 44-son, 507-modda; 2013 y., 34-son, 458-modda; 2015 y., 26-son, 338-modda; 2016 y., 25-son, 308-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2018 y., 09/18/396/1287-son, 05.07.2018 y., 09/18/503/1458-son, 21.09.2018 y., 09/18/748/2024-son, 09.10.2018 y., 09/18/809/2017-son
10. O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi va davlat bojxona qo'mitasining 2013 yil 7 fevraldagi "Maxsus yuklar tasnifini tasdiqlash to'g'risida"gi 2, 01-02/12-14-son Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 8-son, 110-modda; 2014 y., 30-son, 377-modda; 2015 y., 4-son, 44-modda
11. O'zbekiston Respublikasi IIV va "Sanoatkontexnazorat" davlat inspeksiyasining 2005 yil 25 maydagi "Portlovchi moddalarni ishlab chiqarish, sotib olish, saqlash, transportda tashish, ulardan foydalanish va ularni hisobga olish to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi 3/78-son Qarori // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2005 y., 27-son, 200-modda
12. Portlovchi moddalar <https://uzsmart.uz/ensiklopediya/ensiklopediya/portlovchi-moddalar.html>
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.10.2020 yildagi 649-son qarori. https://lex.uz/docs/5056473?ONDATE=05.04.2022&utm_source
14. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi. Tom 5.
15. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 250¹-moddasi <https://www.lex.uz/acts/111453>
16. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 250-moddasi <https://www.lex.uz/acts/111453>

Received: 10 March 2025

Accepted: 15 March 2025

Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

LEGAL LIABILITY ISSUES FOR DAMAGE CAUSED BY THE USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES

Sanaev Botir

Independent Researcher of the Higher School of Judges

Abstract. This article explores the concept of artificial intelligence (AI) and its legal aspects. It highlights that although AI is capable of making independent decisions, it cannot be fully equated with human intelligence. The article also examines the risks associated with AI technologies, including their impact on personal data security and individual safety. Special attention is given to the issue of legal liability for potential damages caused by AI, and various approaches to this problem are analyzed. The article compares the concepts of recognizing AI as a legal subject versus treating it as an object of law. It further analyzes international and national experiences in addressing AI-related legal liability and discusses potential legal mechanisms, including insurance frameworks. The importance of identifying responsible parties for compensating damages caused by AI is emphasized. Specifically, the responsibilities of developers, software owners, users, and third parties are examined. Ultimately, the article substantiates the necessity of legal solutions for AI-related challenges and the improvement of legal liability mechanisms.

Keywords: artificial intelligence, legal liability, digital technologies, big data, legal subjectivity, insurance mechanisms, autonomous systems, user responsibility, software, international law.

SUN'IIY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHDA YETKAZILGAN ZARAR UCHUN YURIDIK JAVOBGARLIK MUAMMOLARI

Sanayev Botir

Sudyalar oliy maktabi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun'iy intellekt (SI) tushunchasi va uning huquqiy masalalari yoritilgan. Maqolada SI mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lsa-da, inson ongi bilan to'liq taqqoslab bo'lmasligi ta'kidlanadi. Shuningdek, SI texnologiyalarining xavflari, inson shaxsiy ma'lumotlari va xavfsizligiga ta'siri haqida fikr yuritiladi. Maqola SI tomonidan keltirilishi mumkin bo'lgan zararlar uchun huquqiy javobgarlik masalasiga e'tibor qaratib, turli yondashuvlarni ko'rib chiqadi. SI ning huquqiy subyekt sifatida tan olinishi yoki uni huquq obyekt sifatida ko'rish konsepsiyalari taqqoslanadi. Maqolada SI bilan bog'liq huquqiy javobgarlik masalasida xalqaro va milliy tajriba tahlil qilinib, qonuniy mexanizmlar, jumladan, sug'urta mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari muhokama qilinadi. Maqolada shuningdek, SI texnologiyalaridan kelib chiqadigan zararlarni qoplash uchun javobgar shaxslarni aniqlashning muhimligi ta'kidlanadi. Xususan, ishlab chiquvchilar, dasturiy ta'minot egalari, foydalanuvchilar va uchinchi tomonlarning javobgarlik masalalari tahlil qilinadi. Natijada, SI texnologiyalari bilan bog'liq muammolarni huquqiy hal etishning muhimligi va huquqiy javobgarlikni ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish zarurati asoslanadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, huquqiy javobgarlik, raqamli texnologiyalar, katta ma'lumotlar (Big Data), huquqiy subyektlik, sug'urta mexanizmlari, avtonom tizimlar, foydalanuvchilarning javobgarligi, dasturiy ta'minot, xalqaro huquq.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N35>

Kirish. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi yangi obyekt – sun'iy intellekt (SI)ning mavjudligini oldindan belgilab berdi, u mustaqil ravishda o'rganish va ishlash qobiliyatiga ega bo'lgan g'oya yoki dasturdir. Shubhasiz, bu dasturning birinchi manbai tegishli parametrlarni

belgilaydigan insondir. Ammo ushbu dasturning yo'nalishi shuni ko'rsatadiki, inson ongi SI nimani o'rganayotgani va o'z harakatlarini nimaga asoslantirayotganini to'liq qamrab ololmaydi.

Zamonaviy texnologiyalar nafaqat insonga, balki butun jamiyatga zarar yetkazishi mumkinligini inkor etib bo'lmaydi. Masalan, SI g'oyasiga asoslangan, insonning shaxsiy ma'lumotlari va manfaatlari sohasiga aralashadigan katta ma'lumotlar (big data) texnologiyasi.

Ta'kidlash kerakki, SI texnologiyasi deganda biz nafaqat mavhum to'liq o'z-o'zini o'rgatadigan texnologiyani, balki qisman SIDan foydalanishga asoslangan texnologiyani ham tushunamiz. Chunki raqamli texnologiyalarning hozirgi rivojlanishi haqiqiy SI haqida gapirishga imkon bermaydi, sababi texnologiyalar hozircha insondan farqli o'laroq "sog'lom fikr"ni anglash qobiliyatiga ega emas.

Shunday qilib, SI harakatlari natijasida yetkazilgan zarar uchun javobgarlik masalasiga javob berish zarurligi haqida gapirish mumkin. Ammo ilmiy-huquqiy nuqtai nazardan SI nima? Bizning fikrimizcha, SI – bu inson organizmidan tashqarida va inson tomonidan yaratilgan ongning mustaqil o'xshashligi mavjudligi g'oyasidir. Uning xususiyatlari mustaqil o'rganish va avval o'rganilgan narsalar asosida qarorlar qabul qilishdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bugungi kunda SI g'oyasi zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida amalga oshirilmoqda. Garchi kvant texnologiyalarining paydo bo'lishi va rivojlanishi SI g'oyasiga ko'proq mos kelishini inkor etib bo'lmas-da.

I.N.Gabudlov sun'iy intellektni aqlli xulq-atvorni avtomatlashtirish bilan shug'ullanadigan kompyuter fanining sohasi sifatida ta'riflaydi [1]. Darhol ta'kidlash kerakki, SI huquq kabi bir necha ma'noda ko'rib chiqilishi mumkin, chunki bu umumlashtirilgan tushuncha.

I.Yu.Pashenko ko'rsatishicha, SI — bu maqsadli faoliyatni amalga oshirish uchun kognitiv jarayonlardan foydalanishni nazarda tutadigan texnologiyalar majmuidir. Kognitiv funksiyalar ma'lumotlarni tahlil qilish va ularni keyingi harakatlarni amalga oshirish uchun talqin qilishni nazarda tutadi (masalan, ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, saqlash, foydalanish, tarqatish, almashish), bu esa prinsipial jihatdan boshqacha darajadagi xotira va tafakkurni imitatsiya qilish, istiqbolda esa texnika va texnologiyalar darajasida idrok, sezgi, tasavvur, diqqat va hatto tasavvurni ham olish imkonini beradi. Maqsadli faoliyat o'z ijrosiga va tugatilishiga intiladigan bunday algoritmlarni mustaqil ravishda izlash va ishlab chiqishni nazarda tutadi[2, 104-b.].

I. Yu. Pashenko bergan ta'rif SIni g'oya sifatida eng to'liq ochib beradi deb hisoblanadi. Shunday qilib, SI — bu inson organizmidan tashqarida ong va iroda birligining mustaqil o'xshashligi g'oyasidir. Ehtimol, bu ratsional, chunki uning asosini oldindan belgilangan o'z-o'zini rivojlantirish funksiyalari tashkil etadi.

Muhokama. SI muammosi — bu insonning o'zini anglash muammosi, ong nima va insonning irodasi nima ekanligini aniqlash muammosidir (lekin tadqiqotimiz doirasida biz turning o'zini anglashiga emas, balki javobgarlikni ko'rsatishga qaratilganmiz). Bu g'oya hayotga tatbiq etilganda, aniqki, inson manfaatlari sohasiga ta'sir ko'rsatadi.

Bu sohada faoliyat yuritish prinsiplari sifatida quyidagilar e'lon qilingan:

– sun'iy intellekt qo'llanilganda inson hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazish xavflarini, mamlakat mudofaasi va davlat xavfsizligiga tahdidlarni asoslangan holda baholash majburiyligi;

– sun'iy intellekt tizimlari tashabbusi bilan insonga zarar yetkazishning taqiqlanishi, bu o'z tashabbusi bilan maqsadli ravishda insonga zarar yetkazishga qodir bo'lgan texnologiyalarni ishlab chiqish, aylanishi va qo'llanilishini cheklashni nazarda tutadi;

– sun'iy intellektning, bunday tizimlar uchun talab etiladigan avtonomlik darajasini hisobga olgan holda, mumkin bo'lgan darajada inson nazorati ostida bo'lishi.

Shu munosabat bilan yuqori darajadagi avtonomlik xususiyatiga ega bo'lgan sun'iy intellekt tizimlari qaror qabul qilish jarayonida zarar yetkazgan taqdirda fuqarolik-huquqiy, jinoiy va ma'muriy javobgarlik mexanizmlarini ishlab chiqish masalasi ko'tarilmoqda. Bu jumladan, ularning harakatlari uchun javobgar bo'ladigan shaxslarni aniqlash, zarurat tug'ilganda aybsiz fuqarolik-huquqiy javobgarlik mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, bunday tizimlar harakatlari tufayli yetkazilgan zararni qoplash imkonini beradigan usullardan, jumladan, javobgarlikni sug'urtalash mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatini o'z ichiga oladi.

Bu muammo ham milliy[3], ham postsovet mamlakatlar[4], ham xorijiy[5] olimlarning e'tiborini tortmoqda. Ular mavjud huquqiy vositalarni ko'rib chiqilayotgan muammolarni hal qilish va ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish uchun foydalanish imkoniyati nuqtai nazaridan baholamoqdalar.

Ko'rib chiqilayotgan muammoni hal qilishda dastlabki nuqta sun'iy intellekt mohiyatini aniqlashdir, bunda uni hal qilishga doktrinal yondashuvlarda ikkita prinsipial jihatdan farq qiladigan yo'nalishni ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchi sun'iy intellektning huquqiy subyektligini tan olishga asoslangan bo'lib, u, aslida, o'zgaruvchan xarakterga ega va sun'iy intellekt birligining turiga, uning dastlabki kutilgan yoki hozirgi haqiqiy funksional-maqsadli yuklanishiga bog'liqdir[6]. Ba'zi yuridik fiksiya belgilariga ega bo'lgan rasmiylashtirilgan texnik-yuridik obraz sifatida elektron shaxs konstruksiyasi taklif etiladi (yuridik shaxs analogiyasi bo'yicha).

Yuridik fikrning ikkinchi yo'nalishi sun'iy intellektni huquq obyekti, huquqning an'anaviy subyektlari faoliyatini amalga oshirish vositasi sifatida tan olishga asoslanadi, chunki hatto "kuchli o'z-o'zini o'rgatadigan robotlarning hisoblash operatsiyalarining tezligi, aniqligi va hajmida insonlardan ustunlik qilish imkoniyati... inson ongi, o'z-o'zini anglash va intellektiga mutlaqo teng emas"[7].

Shu sababli, sun'iy intellekt haqida xulq-atvorning emotsional-irodaviy tarkibiy qismi uning huquqiy baholanishi va davlat majburlov choralarini qo'llash to'g'risida qaror qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan jinoiy yoki ma'muriy javobgarlik subyekti sifatida gapirish deyarli mumkin emas. Xuddi shu gapni delikt javobgarligi haqida ham aytish mumkin, uning asosida zararni to'liq qoplash prinsipi yotadi, sun'iy intellektning huquqiy subyektligini tan olganda uni qoplash manbasini topish qiyin bo'ladi.

Sun'iy intellektni vosita sifatida ko'radigan konsepsiya xorijiy doktrinada ham keng qo'llab-quvvatlanmoqda. Qat'iy javobgarlik qoidalari mashina xulq-atvorini tartibga soladi, uni mashina nomidan ish yuritgan jismoniy yoki yuridik shaxs bilan bog'laydi, bunday xulq-atvor rejalashtirilganligi yoki nazarda tutilganligidan qat'i nazar.

Bunday texnologiyalarni qo'llash oqibatida yetkazilgan zarar uchun javobgarlik subyektlari ishtirokchilar mashinalar, sun'iy intellekt tizimlari ishlab chiqaruvchilari, sun'iy intellekt foydalanuvchilari, bunday mashinalarda ishlaydigan dasturiy ta'minot dasturchilari va ularning egalari bo'lishi mumkin[8]. Ammo kompromiss yondashuvlarni ham topish mumkin.

V.A. Laptev sun'iy intellektli robotlarni huquq obyekt sifatida tan olgan holda, bir necha o'n yillardan so'ng robot (avtomatik qurilma) huquqiy subyektlikning ayrim elementlari bilan ta'minlanishi mumkinligini taxmin qiladi (masalan, ushbu robot tomonidan boshqariladigan shaxs bilan birgalikda jamoaviy huquqiy subyektlik, yoki uning xulq-atvori bo'yicha ko'rsatmalarni belgilovchi shaxs bilan)[5]. Lekin fanda bunday yondashuv hozirgi bosqichda ham amalga oshirilishi mumkin degan nuqtai nazar mavjud[9].

Sun'iy intellekt mohiyatining belgilangan talqinlarini hisobga olgan holda, bunday texnologiyalardan foydalanish natijasida yetkazilgan zarar uchun yuridik javobgarlikni amalga oshirish asoslari va tartibi masalasi ham hal qilinadi. Bunda sun'iy intellektning bashorat qilib bo'lmaydigan harakatlari va qarorlarini javobgarlikni istisno qiladigan yengib bo'lmas kuch holatlari sifatida ko'rib chiqish mumkinligi to'g'risidagi g'oya qo'llab-quvvatlanmaydi.

Ba'zi mualliflar sun'iy intellekt texnologiyasini qo'llash oqibatlari uchun javobgar subyektni aniq aniqlash uchun, u kimning nomidan va manfaatlari uchun amalga oshirilgan bo'lsa, o'sha shaxsni aniqlashni taklif qiladilar, ya'ni "javobgarlik... sun'iy intellekt faoliyatidan foyda oladigan shaxsga yuklanishi kerak"[10]. Boshqalar[11] esa fuqarolik huquqida allaqachon mavjud bo'lgan yuqori xavf manbai tufayli yetkazilgan zarar uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik institutidan FKning 999-moddasi) foydalanishni taklif qiladilar.

Ba'zi olimlar ehtimoliy xavf manbaiga e'tibor qaratmoqdalar, bu manba yo dasturlash va tegishli texnik qurilmalarni tayyorlashdagi xatolar, ularni noto'g'ri ishlatish yoki ularning ishiga ruxsatsiz aralashuvda yashiringan. Shundan kelib chiqib, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning salbiy oqibatlari uchun quyidagilar javobgar bo'lishi kerak degan xulosaga kelinadi:

- 1) tegishli ixtironing muallifi yoki dasturchi;
- 2) dasturiy ta'minotning huquqiy egasi yoki tegishli texnik qurilmani ishlab chiqaruvchi bo'lgan yuridik shaxs;
- 3) foydalanuvchi / egasi (yuridik yoki jismoniy shaxs sifatida);
- 4) robotni noqonuniy egallab olgan yoki uni zarar yetkazish uchun qayta dasturlagan taqdirda uchinchi shaxs[12].

Bundan tashqari, robotlarni yig'ish sifatini baholash masalasi ham ko'tarilmoqda, bu ularni ishlatish jarayoniga ta'sir qilishi va salbiy oqibatlarning yuzaga kelish sababi bo'lishi mumkin[10, 68-b.]. Nihoyat, "mavjud maxsus deliktlar tizimini qonunda to'g'ridan to'g'ri nazarda tutilgan huquqbuzarlikning maxsus tarkiblari bilan to'ldirish haqida o'ylash zarurligi"[11] ta'kidlanadi.

Natijalar. Sun'iy intellekt texnologiyasidan foydalanishda yetkazilgan zarar uchun javobgar subyekt masalasidagi noaniqlik, jumladan, belgilangan algoritmlardan chetga chiqish sabablarini aniqlashdagi obyektiv qiyinchiliklar tufayli yuzaga keladigan bu noaniqlik, bunday holatlar uchun bunday xavflarni sug'urta qoplash potensialidan foydalanish g'oyasini tug'diradi. Xususan, transport vositalari egalari va boshqa yuqori xavf manbalari egalarining majburiy javobgarlik sug'urtasi analogiyasi bo'yicha robotlar ishlab chiqaruvchilari / foydalanuvchilari uchun ular tomonidan uchinchi shaxslarga yetkazilgan zarar uchun fuqarolik javobgarligining majburiy sug'urtasini joriy etish haqida so'z yuritish mumkin.

Sun'iy intellekt mohiyatini aniqlashga fanda mavjud yondashuvlarni baholash asosida, hech bo'lmaganda, yuridik javobgarlikka tortish maqsadlari uchun, hatto qarorlar qabul

qilishda yetarlicha yuqori avtonomlik darajasida ham uni inson faoliyatini amalga oshirish vositasi sifatida tushunishdan kelib chiqish zarur deb hisoblanadi.

Sun'iy intellekt texnologiyasidan foydalanish jarayonida yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxsni aniqlash uchun, har bir aniq holatda, zarar yetkazish holatlaridan kelib chiqib, sun'iy intellekt tizimini yaratadigan, qo'llab-quvvatlaydigan, nazorat qiladigan yoki unga aralashadigan subyektni aniqlash maqsadga muvofiqdir, aynan shu subyekt faoliyat, qurilma yoki jarayon tufayli yetkazilgan zarar yoki ziyon uchun javobgar bo'lishi kerak. Bu uning xulq-atvori va yuzaga kelgan oqibatlar o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqligini aniqlashni nazarda tutadi.

Bunday yondashuvda yuzaga kelgan oqibatlar xarakteriga qarab, nafaqat fuqarolik-huquqiy, balki ma'muriy va jinoiy javobgarlik uchun ham asoslar belgilash imkoniyati haqida gapirish mumkin bo'ladi, jumladan agar sun'iy intellekt aniq shaxs tomonidan noqonuniy maqsadlarda dasturlangan va foydalanilgan bo'lsa.

Shu bilan birga, ommaviy-huquqiy sohada faqat ayb asosidagi javobgarlik haqida gapirish mumkinligi aniq, zararni (ziyonni) qoplash masalasi esa yuqori xavf manbai tomonidan yetkazilgan zarar uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik mavjud instituti doirasida hal qilinishi kerak.

Hozirgi bosqichda huquqbuzarliklarning maxsus tarkiblarini shakllantirishni nazarda tutadigan maxsus deliktlar tizimini kengaytirishsiz ham ish ko'rish mumkin deb hisoblanadi.

Fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish samaradorligini oshirish maqsadida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda yetkazilgan zarar uchun majburiy nodavlat javobgarlik sug'urtasi tizimini joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Bu ilg'or texnologiyalarni joriy etishdan manfaatdor bo'lgan biznes manfaatlari va bunday texnologiyalardan foydalanishning bashorat qilib bo'lmaydigan xavflaridan samarali himoya choralariga muhtoj jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash imkonini beradi.

2020-yil 20-oktyabrdagi sun'iy intellekt uchun fuqarolik javobgarligi rejimi bo'yicha Komissiyaga tavsiyalar bilan Yevropa parlamenti Rezolyutsiyasida [2020/2014 (INL)] sun'iy intellekt tizimlariga huquqiy subyektlik berish zarurati yo'qligi, shuning uchun yaxshi ishlaydigan javobgarlik rejimlarini to'liq qayta ko'rib chiqish lozim emasligi, ammo jabrlanganlar tegishli kompensatsiyasiz qolmasligi uchun javobgarlik rejimlarining aniq va muvofiqlashtirilgan tuzatishlari maqsadga muvofiq ekanligi ta'kidlangan[13].

Bunda operator javobgarligi ustiga urg'u berilgan, bu javobgarlik operator sun'iy intellekt tizimi bilan bog'liq xavfni nazorat qilishini, bu xavf avtomobil egasining xavfi bilan taqqoslanishini asoslaydi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt tizimining murakkabligi va bog'liqligi tufayli operator ko'p hollarda jabrlangan shaxs uchun birinchi ko'zga ko'rinadigan aloqa shaxsi bo'ladi.

Xulosa. Yuridik javobgarlikning umume'tirof etilgan prinsiplari faoliyati jamiyat uchun xavf tug'diradigan shaxs ehtimoliy zararni kamaytirish choralarini ko'rishi, zarar yuzaga kelganda esa uni qoplashi lozimligini nazarda tutadi. Shundan kelib chiqib, zarar yetkazish holatlariga qarab, tegishli texnologiyalarni yaratgan, ishlab chiqargan, ularga egalik qilgan, ulardan foydalangan va tasarruf etgan shaxsning javobgarligi masalasini qo'yish mumkin.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik doirasida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda yetkazilgan zararni (ziyonni) qoplash muammosi ularni yuqori xavf manbai

sifatida tan olish nuqtai nazaridan hal qilinishi mumkin. Jabrlanganlarning mulkiy manfaatlarini himoya qilishning eng muhim elementi bo'lib bunday texnologiyalardan foydalanuvchi shaxslarning javobgarligini sug'urtalash bo'lishi kerak.

Ma'muriy va jinoiy javobgarlik masalasini qo'yganda, masalani yuzaga kelgan oqibatlar xarakteridan va zarar yetkazuvchining ayb shaklidan kelib chiqib hal qilish kerak, zarar yetkazuvchi sifatida esa tegishli texnologiyadan foydalanish shartlari va parametrlarini belgilagan shaxsni ko'rib chiqish lozim.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Габдулов И.Н. Определение понятия искусственного интеллекта // Аллея науки. 2019. – Т. 1, № 9(36). – С. 173–176.
2. Пащенко И.Ю. Искусственный интеллект и смежные технологии: о понятии, информационной природе и публично-правовых аспектах // Юридический вестник Кубанского государственного университета. 2022. – № 2. – С. 99–105.
3. Bozarov S.S “Sun’iy intellekt doirasida huquqiy javobgarlik” Yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan Dissertatsiya. -Toshkent – 2023. 16-b; Yakubov A.N.Kibermakonda raqamli mulk huquqi va uni huquqiy tartibga solish. Yu.f.d.diss. avtoreferati. –T.: 2023. -10 b.
4. Апостолова Н. Н. Ответственность за вред, причиненный искусственным интеллектом // Северо-Кавказский юридический вестник. 2021. – № 1. – С. 112-119;
5. Лаптев В. А. Понятие искусственного интеллекта и юридическая ответственность за его работу // Право. Журнал Высшей школы экономики. 2019. – № 2. – С. 79-102;
6. Цуканова Е. Ю., Скопенко О. Р. Правовые аспекты ответственности за причинение вреда роботом с искусственным интеллектом // Вопросы российского и международного права. 2018. Т. 8, – № 4А. – С. 42-48.
7. Benhamou, Y. & Ferland, J. 2020, ‘Artificial Intelligence & Damages: Assessing Liability and Calculating the Damages (February 8, 2020)’, *Leading Legal Disruption: Artificial Intelligence and a Toolkit for Lawyers and the Law, Forthcoming*, viewed 11 November 2021, <https://ssrn.com/abstract=3535387>;
8. Cerka P., Grigiene J. & Sirbikyte G. 2015, ‘Liability for damages caused by artificial intelligence’, *Computer law & security review*, iss. 31, pp. 376–389.
9. Морхат П.М. Правосубъектность искусственного интеллекта в сфере права интеллектуальной собственности: гражданско-правовые проблемы : дис. ... д-ра юрид. наук. М., 2018. 420 с.
10. Лаптев В. А. Ответственность «будущего»: правовое существо и вопрос оценки доказательств // Гражданское право. 2017. – № 3. – С. 32-35.
11. Горохова С. С. Технологии на основе искусственного интеллекта: перспективы и ответственность в правовом поле // Юрист. 2021. – № 6. – С. 60-67.
12. Регулирование робототехники: введение в «робоправо». Правовые аспекты развития робототехники и технологий искусственного интеллекта / В. В. Архипов [и др.]; под ред. А. В. Незнамова. – М.: Инфотропик Медиа, 2018. 232 с.
13. Шевченко А. С., Шевченко Г. Н. Деликтные обязательства в российском гражданском праве. – М.: Статут, 2013. 133 с.

Received: 10 March 2025

Accepted: 15 March 2025

Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

ISSUES OF QUALIFICATION OF BRIBERY CRIMES

Alisherova Nozima Nizamidin kizi

Law Enforcement Academy

Department Prosecutor of the E-Learning Department

Abstract. The article analyzes some criminal-legal aspects of the qualification of bribery crimes from a scientific point of view, in particular, it examines the issues of qualification of some problematic aspects related to the subject of bribery, the concept of an official, the participation of a group of persons in determining criminal liability for bribery, and also examines scientific conclusions and views on this issue.

Keywords: bribe, bribe-taking, bribe-giving, official, crime, qualification.

PORA OLI SH JINOYATLARINI KVALIFIKATSIYA QILISH MASALALARI

Alisherova Nozima Nizamidin qizi

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

Elektron ta'lim bo'limi bo'lim prokurori

Annotatsiya. Maqolada pora olish jinoyatlarini kvalifikatsiya qilishning ayrim jinoyat-huquqiy jihatlari ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilingan, xususan poraxo'rlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilashda pora predmeti, mansabdor shaxs tushunchasi, bir guruh shaxslar ishtirokiga oid ayrim muammoli jihatlarni kvalifikatsiya qilish masalalari ko'rib chiqilgan, shuningdek bu boradagi ilmiy xulosalar va qarashlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: pora, pora olish, pora berish, mansabdor shaxs, jinoyat, kvalifikatsiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N36>

Kirish. Poraxo'rlik – boshqaruv organlari faoliyati tartibiga qarshi qaratilgan uch mustaqil mansab jinoyatlari – pora olish, pora berish va pora olish-berishda vositachilik qilishni o'z ichiga oladigan atama. Sanab o'tilgan har bir tajovuz JK 210-212-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar bilan bog'liq bo'lmagan holda sodir etilishi mumkin emas. Ular bir-biri bilan shu darajada bog'liq bo'ladiki, pora olish faktining mavjud emasligi pora berish faktini ham istisno etadi.

Shuningdek Jinoyat kodeksining 213-214-moddalarida davlat organi, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar, tashkilot yoki muassasaning, jamoat birlashmasi, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining mansabdor shaxsi bo'lmagan shaxslar tomonidan sodir etiladigan poraxo'rlik jinoyatlari uchun javobgarlik belgilangan.

Mazkur jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi shu bilan izohlanadiki, pora olish mansabdor shaxslar tomonidan o'zlarining mansab vakolatlarini ijro etishning o'rnatilgan tartibini keskin o'zgartiradi va bu bilan davlat xizmati manfaatlarini qo'pol buzadi. Pora, korrupsiya – hokimiyat va boshqaruv asoslarini yemiradigan, uning aholi oldidagi obro'siga putur yetkazadigan, fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlariga daxl qiladigan xavfli jinoiy hodisaning nisbatan ko'p tarqalgan va o'ziga xos hodisasi hisoblanadi.

Metodologiya. Ushbu maqolani tayyorlashda IMRAD usulidan foydalanildi. Bunda, tegishli sohadagi xorijiy va mahalliy olimlarning fikri o'rganildi, muhokama qilindi va taqqoslandi. Shuningdek, tahlilda muallifning subyektiv fikrlari ham katta o'rin egallaydi.

Natija va muhokama. Jinoyat huquqi nazariyasida pora olishning predmeti haqidagi fikrlar munozarali bo'lsa ham faqat mulkiy xususiyat kasb etuvchi foyda bo'lishi mumkin [1, B. 337], degan fikr bildirdi. Lekin adabiyotlarda ikkita mansabdor shaxs o'rtasida o'zaro yordam ko'rsatish shaklidagi xizmatlar ham poraning predmeti bo'lishi mumkinligi haqidagi fikrlar ham bor [2, B. 34-38]. Intellektual mulk ham poraxo'rlik jinoyatlarining predmeti bo'lishi mumkin, degan fikrlar ham uchraydi. Mansabdor shaxsning u yoki bu xizmatlarini boshqa "xizmat" bilan qaytarish ham poraxo'rlikning predmeti bo'lishi mumkin, deyilgan fikrga qo'shilib bo'lmaydi. Negaki, pora olish faqat g'araz maqsadlarni, ya'ni moddiy manfaatdorlikni nazarda tutadi. Lekin intellektual mulk poraxo'rlik jinoyatlarining predmeti bo'lishi mumkin, degan fikrga qo'shilish mumkin, chunki bunday mulk o'z egasiga moddiy manfaat keltirishi ham mumkin. Pora sifatida intellektual mulkni qabul qilayotgan mansabdor shaxs, keyinchalik bunday intellektual mulkdan moddiy manfaatdor bo'lishni maqsad qilgan hollarda bu mulk jinoyatning predmeti bo'lishi mumkin. Biz o'rgangan jinoyat ishlarida bunday usulda sodir etilgan poraxo'rlik jinoyatlari uchramadi.

Hozirgi davrda poraxo'rlik jinoyatlarini sodir etishning ilgarigi oddiy usullari takomillashib, murakkablashgan shakllari vujudga kelganligini ko'rish mumkin. Pora olish maqsadida mansabdor shaxs o'zining egallab turgan lavozimini xavf ostida qoldirib, boshqaruvida bo'lgan mulkka bo'lgan huquqini o'tkazish yo'li bilan ham sodir etishi ko'p uchraydi. Poraxo'rlikning bunday shakli isbotlash, bevosita ilmiy jihatdan tahlil qilinishni talab qiladi. Poraxo'rlikning bunday shakllarda sodir qilish usullari aksariyat hollarda, iqtisodiy va talon-toroj qilish jinoyatlari bilan birgalikda kvalifikatsiya qilinishi lozim. Lekin talon-toroj jinoyati alomatlari va pora olishning alomatlari huquqiy hamda ilmiy nuqtai nazarda tahlil qilinishi lozim, aks holda talon-toroj jinoyatini asossiz tarzda pora olish jinoyati bilan qo'shimcha jinoyatlar jami bilan kvalifikatsiya qilinishiga sabab bo'lishi mumkin.

Poraning turi, uning eng oz miqdori jinoyat qonunida ko'rsatilmagan, bu masala faqat sud tomonidan hal qilinadi. Aksariyat hollarda, ushbu noaniqlik salbiy oqibatlar tug'diradi, asossiz ravishda shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishiga yoxud oz miqdorda pora olinganida, jumladan nomoddiy xizmatlar uchun shaxsni jinoiy javobgarlikka tortilishiga sabab bo'lgan holatlarni uchratish mumkin.

Pora va sovg'a masalasi ham sud amaliyotida ko'pincha noto'g'ri talqin qilinadi. Sovg'a bilan poraning farqini ajratmay turib, pora olish jinoyatini to'g'ri kvalifikatsiya qilib bo'lmaydi.

Fuqarolik kodeksida (31-bob) hadya shartnomasi haqida so'z yuritiladi. Jinoyat qonunida hadya qilingan ashyolar pora olishning predmetini tashkil qilishi mumkin emas. Hadya shartnomasi predmeti sifatida turli xildagi mulk, hatto pul vositalari ham bo'lishi mumkin. Fuqarolik kodeksining 502-moddasi hadya shartnomasi hadya beruvchining beg'araz mulki yoki mulkiy huquqni berishini bildiradi. Poraxo'rlik esa, poraning qiymatidan qati nazar g'araz maqsadning mavjudligi jinoyatning zaruriy belgisi hisoblanadi. Aynan porani oluvchi va beruvchi o'rtalarida vujudga kelgan g'araz motivlar o'rtadagi mulk yoki mulkiy huquqni hadya, sovg'a yoki xayr-ehsonlardan farqlash imkoniyatini beradi. Shuningdek, ayrim mualliflarning fikrlariga ko'ra, biror bir mulkni g'araz maqsadlarda tovlamachilik yo'li bilan sovg'a qilinishini so'rash ham poraxo'rlikni tashkil qiladi [3, B. 76].

Mansabdor shaxsning o'z xizmat vakolatiga kirmagan harakati uchun pora olishi masalasi ham jinoyat huquqi nazariyasida munozarali hisoblanadi. Ba'zi mualliflar boshqa mansabdor shaxsning vakolatlariga kirgan vazifalar yuzasidan g'ayriqonuniy haq olishni pora olish, deb hisoblaydilar [4, B. 115]. Lekin jinoyat qonunida pora olish faqat "mansabdor shaxsning o'z xizmat mavqeyidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan harakatni sodir etish yoki shunday harakatni sodir etishdan saqlanishni" nazarda tutadi. Yuqorida ta'kidlangan fikr tarafdorlari mansabdor shaxs egallab turgan mansabi yuzasidan boshqa mansabdor shaxsga muayyan masala yuzasidan ta'sir ko'rsata olishi mumkinligini asos sifatida ko'rsatadilar. Lekin adabiyotlarda mansabdor shaxsning boshqa mansabdor shaxsning harakatlariga ta'sir ko'rsata olishi deyarli yoritilmagan, faqat mansabdor shaxsning egallab turgan mansabi yuzasidan boshqa mansabdor shaxs harakatlarining mohiyatiga ta'sir ko'rsata olishi mumkin [2, B. 51-56], deb ta'kidlanadi. Bu fikrni har doim ham to'g'ri deb bo'lmaydi. Agar mansabdor shaxs o'zining egallab turgan mansabiga muvofiq boshqa mansabdor shaxsning vakolat vazifasini belgilay olishi yoki uning harakatlarini yuridik jihatdan tasdiqlash huquqiga ega bo'lgan yoxud unga nisbatan buyruq berish huquqiga ega bo'lganida to'g'ri bo'lishi mumkin. Lekin mansabdor shaxs boshqa mansabdor shaxs bilan teng huquqli bo'lgan hollarda bu fikrga qo'shilib bo'lmaydi [4, B. 25].

Bundan tashqari mansabdor shaxsning mansab vazifasiga kiruvchi vakolatlari doirasida pora beruvchi shaxsning manfaatlarini ko'zlab u yoki bu masalani hal qilishi jinoyat tarkibi obyektiv tomonining zaruriy belgisi hisoblanishi lozim. Pora olishda mansabdor shaxs faqat o'ziga berilgan vakolat yuzasidan muayyan harakatni qila olishini nazarda tutiladi, agar bunday imkoniyatlar mavjud bo'lmasa, pora olishdan kutilgan maqsadga erishib bo'lmaydi. Boshqa shaxslarning mansab imkoniyatlaridan foydalanish deganda, o'ziga berilgan mansab vakolatidan foydalangan holda bunday shaxslarga obyektiv ta'sir o'tkaza olishi nazarda tutiladi. Mansab obro'sini suiiste'mol qilib, boshqa mansabdor shaxsga ta'sir o'tkazilishini pora olish, deb hisoblash noto'g'ri bo'ladi. Bunday holda jinoyat tarkibining huquqiy asoslaridan farqli tarzda shaxsning ma'naviy xususiyatlari ko'proq namoyon bo'ladi. Ya'ni boshqa mansabdor shaxsning pora olishiga ta'sir ko'rsatsa bu mansabdor shaxsni uning harakatlarida ishtirokchilikda ayblash mumkin bo'ladi.

Shunday qilib, mansabdor shaxsni pora olishning oddiy turi bilan aybli, deb hisoblash uchun uning mansab vakolatini shaxsan yoki boshqa mansabdor shaxsning mansab vakolatiga ta'sir ko'rsatishi evaziga pora olgan bo'lishi lozim.

Qator mualliflar "boshqa mansabdor shaxsga ta'sir etib" degan iborani ko'proq shaxsning xizmat mavqeyiga kirmaydigan, lekin egallab turgan lavozimining obro'si yoki munosabatlari bilan bog'lashga harakat qiladilar [6, B. 134-135].

Bunday fikrga qo'shiladigan bo'lsak, JK 210-moddasi 1-qismi keragidan ko'ra ortiq talqin qilinib, ayrim hollarda shunday harakatlarni "xizmat mavqeyidan foydalanish" deb boshqa holatlarda "mansab obro'si yoki munosabatlaridan foydalanish" deb, kvalifikatsiya qilishga to'g'ri keladi. Bunday masala O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunda yoki qonun osti normativ hujjatlarida hal qilinmagan, faqat mansabdor shaxsning xizmat vazifasi bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan xolos. Bunday fikr RF Oliy sudi Plenumining 1995-yilda qabul qilingan "Poraxo'rlik ishlari bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi 6-sonli qarorida ham o'z ifodasini topgan. Unda "... bu jinoyatning subyekti bo'lib pora beruvchining manfaatlarini ko'zlab egallab turgan lavozimiga ko'ra u yoki boshqa harakatlarni amalga oshira

olmasa-da, lekin mansab vakolati imkoniyatlariga ko'ra bunday harakatlarni amalga oshirish uchun pora evaziga boshqa mansabdor shaxslarga ta'sir eta olishi mumkin bo'lgan mansabdor shaxslar ham tushuniladi", — deyilgan [7, B. 143].

Bunday fikrni tahlil qilib, B.V.Zdravomyslov "... bunday fikrga qo'shilish uchun faqat pora olgan va u yoki bu harakatlarni amalga oshirishi mumkin bo'lgan boshqa mansabdor shaxs bilan aynan mansab aloqadorligi mavjud bo'lganidagina to'g'ri bo'lishi mumkin", — deydi [6, B. 417].

Agar pora oluvchi mansab obro'si yoki o'zaro munosabatlariga ko'ra pora olishning subyekti deb hisoblansa, egallab turgan mansabining ahamiyati qolmaydi, vazifasidan ozod etilganidan keyin ham uning bunday obro' yoki munosabatlari saqlanib qolishi mumkin. Bunday holda mansabdor shaxs mansab vakolatining ahamiyati yo'qoladi. Shunday ekan, pora olishning subyekti deb hisoblash uchun mansab obro'si yoki munosabatining o'zi yetarli bo'lmaydi. Mansabdor shaxs garchand, o'zining vakolatiga ko'ra pora beruvchining manfaatlarini ko'zlab, masalani hal qila olmagan taqdirda ham, hech bo'lmaganda o'zining qo'l ostida bo'lgan mansabdor shaxsga buyruq bera olishi kabi imkoniyatga ega bo'lishi lozim. Bunday imkoniyat mansab obro'si yoki munosabati bilan emas, balki vakolat doirasi normalari bilan belgilanadi.

Agar biz mansab obro'si yoki munosabati ham shaxsni pora olishning subyekti deb hisoblash uchun asos bo'la oladi, degan fikrga qo'shiladigan bo'lsak, xizmat obro'si yoki o'zaro munosabati bilan bog'liq imkoniyatni ham pora olishning obyektiv tomoni belgilariga kiritishimiz zarur bo'ladi. Bu esa, pora olishni asossiz tarzda keng talqin qilinishiga sabab bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra poraxo'rlik bo'yicha jinoyat ishlarini to'g'ri hal qilish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorida bu masalaga oid tavsiya va tushuntirishlar berilishi lozim.

Xullas, bizningcha, shaxsni pora olishning subyekti, deb hisoblash uchun nafaqat mansabdor shaxsning mansab vakolati bilan bog'liq munosabatlar jumladan, mansab vakolati, mansab darajasiga ko'ra boshqa mansabdor shaxsning vakolat vazifasiga ta'sir eta olishi yoki buyruq bera olishi, shuningdek, pora beruvchi bilan pora oluvchi o'rtasida qonuniy asoslarda mansab mavqeyiga ko'ra bo'ysunishi ham talab etiladi.

Shu bilan birga pora olgan shaxs pora beruvchining manfaatlarini ko'zlab o'ziga berilgan vakolat doirasida hal qila olishi mumkin bo'lgan vazifalarni bajargan bo'lishi lozim. Agar pora beruvchining manfaatlarini ko'zlab hal qilinishi lozim bo'lgan masala boshqa mansabdor shaxslarning vakolatiga taalluqli bo'lsa, u holda mansabdor shaxs pora olishning subyekti sifatida bo'lmaydi. Bunday holat boshqa jinoyat (pora olish-berishda vositachilik qilish, firibgarlik, yoki poraxo'rlikda ishtirokchi sifatida) sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Pora olishning yana bir ko'rinishi bu "homiylk" shaklidagi poraxo'rlikdir. Jinoyat huquqi nazariyasida, sud amaliyotida ham bunday shakldagi poraxo'rlik ko'p uchraydi. Homiylk shaklidagi poraxo'rlik mansabdor shaxsga tobe bo'lgan shaxslar tomonidan yoki nazoratchi organ xodimlariga "har ehtimolga qarshi" qabilidagi yoki "bir kun yordami tegib qoladi", deb pora berish uchrab turadi. Poraxo'rlikning bunday shakli ilmiy-nuqtai nazardan o'rganilishi lozim. Bu masalani ilmiy tahlil qilish keng ma'noda yoki aynan talqin qilinishi ham mumkin. Poraxo'rlikning bunday shaklini keng ma'noda talqin qilish fikri tarafdorlari pora beruvchi shaxslar tarafidan talqin qilishni lozim topib, o'zlariga bo'lgan "yaxshi muomala"ni nazarda tutib, moddiy qiymatliklar olishni tushunadilar. Bunday holda mansabdor shaxsni pora olishda

aybli, deyish uchun aniq vazifa yuzasidan pora olayotganligi aniqlanishi lozim [5, B. 51-56]. Homiylikda pora olish harakatlarini aynan talqin qilish fikridagilar esa mansabdor shaxsning muayyan kelishilgan ish yuzasidan “har ehtimolga qarshi” qabilida moddiy qimmatliklar olishini ta’kidlaydilar, aks holda qilmishni pora olish deb kvalifikatsiya qilib bo’lmaydi, bunday harakatlarni mansab vakolatini suiiste’mol qilish, deb kvalifikatsiya qilish lozim, deb ta’kidlaydilar.

Bu masala O’zbekiston Respublikasi JK 210-moddasi 1-qismida qisman hal qilingan. Jumladan, unga ko’ra “... pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko’zlab, bajarishi yoki bajarmasligi evaziga...” deb belgilangan. Ya’ni har qanday holda ham “homiylik” yoki “har ehtimolga qarshi” bo’lganida ham pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko’zlab sodir etishi lozim bo’lgan harakati yoki harakatsizligi nazarda tutiladi. Lekin jinoyat huquqi nazariyasida mansabdor shaxsga “har ehtimolga qarshi” qabilida berilgan moddiy mablag’ni pora olish, deb sifatida kvalifikatsiya qilish mumkin emas, degan fikrlar ham mavjud. Jumladan, S.G.Zakutskiy va Q.M.Mirzajonovlar: “Mansabdor shaxsga har ehtimolga qarshi sovg’a berishni poraxo’rlik sifatida ko’rish mumkin emas” [8, B. 81], — deydilar. Bu fikrga qo’shilsa bo’ladi, negaki pora olish deganda, mansabdor shaxsning porani pora beruvchining manfaatlarini ko’zlab u yoki boshqa harakatlarni qilish evaziga olishi tushuniladi. Mansabdor shaxsning hech qanday harakatni sodir etmasidan ham moddiy mablag’ olishi kelajakda shu mablag’ hisobidan pora beruvchining manfaatlarini ko’zlab harakat qilishini nazarda tutib olgan bo’lsagina uni pora olishda aybli, deb topish mumkin bo’ladi. Olinayotgan mablag’ni o’ziga berilgan mukofot yoki munosabatni mustahkamlash uchun berilgan deb qabul qilgan bo’lsa, u holda yuqorida ta’kidlangan fikrga to’liq qo’shilish mumkin.

Ayrim mualliflar boshliq bilan uning xodimlari o’rtasida pora olish berishda mansabdor shaxsning aniq harakatlari (yoki harakatsizligi) yuzasida kelishib olingan yoki kelishilmaganligiga e’tibor bergan. B.V.Zdravomyslov bu masala yuzasidan boshliq bilan xodim o’rtasida moddiy rag’batlantirish harakatlari sodir etilganida aniq harakatlar yuzasidan kelishib olingan bo’lishi talab etilmaydi, negaki, bunday holatlarda mansabdor shaxs bilan uning qo’l ostida faoliyat yurituvchi xodimining o’zaro munosabatlarining o’zi uning manfaatlarini ko’zlab harakatlanishiga sabab bo’ladi [6, B. 133], deb ta’kidlaydi. Bu fikrda rahbar bilan xodim o’rtalaridagi birga ishlashidan kelib chiqadigan munosabatning o’zi kifoya qiladi, degan fikr ilgari surilgan. Lekin shu bilan birga bunday munosabatlarning aynan qanday yo’nalishlari bo’yicha homiylik qilinishi nazarda tutilganligi ham aniqlanishi lozim. Poraxo’rlikda rahbar bilan xodim o’rtasidagi “xizmat munosabatlari”ning o’zi juda keng tushunchani kasb etadi va bunday shaxslar o’rtasidagi rag’batlantiruvchi harakatlarning poraxo’rlik deb hisoblanishi to’g’ri bo’lmaydi. Rahbar shaxs o’z qo’l ostidagi xodimining manfaatlarini ko’zlab qanday harakat sodir qilishi (yoki qilmasligi), masalan: asosiz ravishda mansabini ko’tarish, navbatdan tashqari mukofot berish, boshqa yaxshiroq xodimi bo’la turib, mansabga tayinlash, xodimining huquqqa xilof harakatlarini yashirish va h.k.nazarda tutilgan bo’lishi lozim.

Homiylik yoki yo’l qo’yish kabi poraxo’rlik asosan:

- a) mansabdor shaxs bilan unga bo’ysunuvchi xodimi o’rtasidagi munosabat yuzasida;
- b) ularning faqat xizmat munosabatlari yo’nalishida;
- v) ular o’rtalaridagi aniq yoki noaniq masalalar yuzasida harakat qilish (yoki harakatsizlanish) bo’yicha;

g) homiylik yoki yo'l qo'yish bilan pora olish o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud bo'lganidagina huquqiy ahamiyati kasb etishi mumkin.

Mansabdor shaxs bilan pora bergan xodim o'rtalarida jinoiy xulqning turli xil ko'rinishlari mavjud bo'lishi mumkin: jumladan korxonada yaxshi imkoniyatlardan foydalanishga yo'l qo'yishdan tortib, shu yo'nalishdagi turli xildagi g'ayriqonuniy, hatto jinoiy harakatlarga ham yo'l qo'yish va bunday harakatlarni "ataylab ko'rmaslik" yoki yashirish kabi namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, moliya nazoratchisi o'zi tekshirayotgan shaxsni pora evaziga homiyligiga olishi, nazoratni talablar asosida to'liq amalga oshirmaslik, ishdagi kamchiliklarni ataylab ko'rmaslik kabi xususiyatlarda ifodalanishi mumkin. Jinoyat huquqi nazariyasida jinoyatga yo'l qo'yganlik uchun ham javobgarlik nazarda tutilgan. Jumladan, mansabdor shaxsning qasddan o'z vazifalarini bajarmasligi, hokimiyat harakatsizligi sifatida jinoiy javobgarlik vujudga keltiradi. Lekin shunga qaramay, ayrim mualliflar yo'l qo'ygan harakatsizligi uchun javobgarlik belgilanmagan deb e'tiroz bildirishga harakat qiluvchilar ham mavjuddir [9, B. 66].

Jinoyat huquqi nazariyasida shaxsning harakatsizligi bilan jinoyatga yo'l qo'yishi, poraxo'rlik jinoyatlarida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, mansabdor shaxsning majburiyatiga kiruvchi vazifalarini qasddan bajarmasligi, ushbu masala MDH davlatlari qonunlarida nazarda tutilmagan bo'lsa-da, O'zbekiston Respublikasi JKda bu masala hal qilib berilgan. Poraxo'rlikda yo'l qo'yish, mansab harakatsizligi, albatta, pora olish jinoyatining shakli sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Nazariyada pora olishning qanday shaklda sodir etilishidan qat'i nazar u ikki turga ajratiladi:

- 1) ochiq shaklda pora olish;
- 2) niqoblangan shaklda pora olish.

Ochiq shakldagi pora olishda mansabdor shaxsning pora beruvchining manfaatlarini ko'zlab aniqlash masala yuzasidan moddiy boyluk olishi tushuniladi.

Niqoblangan shakldagi pora olish mansabdor shaxsning "tug'ilgan kuni munosabati bilan" sovg'a tariqasida pora olishda namoyon bo'ladi. Odatda niqoblangan shakldagi pora olish soxta shartnoma tuzish ko'rinishida ham sodir etiladi. Masalan, ko'chmas mulk sotib olganga o'xshatib olish (avtomobil, dala hovli, ko'p qavatlik uyni rasmiylashtirib berish). Pora olishning bunday shaklini aniqlash juda qiyin, negaki bunday ko'rinishdagi shartnomaning soxtaligini avvalo, isbotlash talab etiladi va shundan keyingina poraxo'rlik haqida fikr yuritish mumkin bo'ladi. Niqoblangan ko'rinishdagi poraxo'rlikning miqdoridan ham ochiq shakldagi poraxo'rlikning miqdoriga ko'ra ko'proq qiymatni bo'ladi.

Avval olinsa, minnatdorchilik sovg'asi sifatida pora olish, mansabdor shaxsning harakatlarini amalga oshirganidan so'ng taqdim qilinadi. Pora evaziga mansabdor shaxs og'dirib olinganida, uning pora beruvchi manfaatlarini ko'zlab harakatlanishi uchun da'vat qiluvchi, majburlovchi xususiyat kasb etsa, sovg'a sifatidagi poraning ahamiyati nisbatan yengilroq xususiyat kasb etadi. Jinoyat huquqi nazariyasida maqsadiga ko'ra pora turlicha nomlangan, jumladan, muayyan ishni amalga oshiruvchi, to'xtatib turuvchi, og'dirib oluvchi, sudxo'rlik pora, yig'im pora kabi iboralarni ko'rish mumkin.

Poraxo'rlik nomi ko'pligiga qaramay, ularning har biri quyidagi belgilarga ega bo'lganidagina poraxo'rlik mohiyatiga ega bo'ladi: a) poraning predmeti bo'lib moddiy qiymatga ega bo'lgan vositalar bilan ayrim hollarda nomoddiy bo'lgan (jumladan, nomulkiy huquqlar) u

shaxs egaligidan chiqarilishi mumkin bo'lgan vositalar (masalan, yaratilgan yangi asarning muallifligini o'tkazish, ilmiy ishni taqdim qilish kabilar) bo'lishi ham mumkin; b) pora berish yoki olishdan maqsad mansabdor shaxsning u yoki boshqa qonuniy yoki g'ayriqonuniy harakat (harakatsizlik)ni bajarishini nazarda tutishi; v) mansabdor shaxsning harakatlari (harakatsizligi) natijasidan doim pora beruvchi yoki nazarda tutilgan boshqa shaxslar manfaatdor bo'lishlari lozim.

Poraxo'rlik qonunga muvofiq suiqasd shaklida ham sodir etilishi nazarda tutilgan. Poraxo'rlikda suiqasd mansabdor shaxsning o'ziga bog'liq harakatlarni to'liq amalga oshirishi, lekin pora olish jarayonida ishning oxiriga yetmaganligi nazarda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorida quyidagilar; "Tamagirlik mansabdor shaxs tomonidan fuqaroning qonuniy manfaatlariga zarar yetkazadigan xizmatiga doir harakatlarni sodir etish tahdidi ostida pora talab qilish yoki fuqaroni uning qonuniy manfaatlariga zarar keltiradigan oqibatlarining oldini olish uchun pora berish uchun majbur etadigan sharoitga qasddan tushirish demakdir. Shuning uchun mansabdor shaxs tomonidan, masalan, kamomadni ko'rsatmaslik, o'quv yurtiga tartib-qoidalarni buzgan holda qabul qilish, jinoyat ishini noqonuniy tugatish va boshqa hollarda pora talab qilish harakatlarida tovlamachilik alomatlari mavjud bo'lmaydi".

Demak, porani tamagirlik yo'li bilan olingan, deb topish uchun 2 ta belgining mavjudligini aniqlash muhimdir:

a) fuqaroning qonuniy manfaatlariga zarar yetkazadigan harakatlarni sodir etish tahdidi ostida pora talab qilish;

b) fuqaroni uning qonuniy manfaatlariga zarar keltiradigan oqibatlarining oldini olish uchun pora berishga majbur etadigan sharoitga solib qo'yish.

Mansabdor shaxs o'z xizmat vakolati doirasiga kiradigan muayyan harakatni bajarish yoki bajarmaslik evaziga pora talab qilib olishi mumkin. Bunda u g'ayriqonuniy harakatlarni sodir etishi, shuningdek, qonuniy harakatni sodir etmaslik bilan tahdid qiladi va bu bilan shaxsning qonuniy manfaatlariga putur yetkazadi. Shuningdek, shaxsni pora berishga majbur bo'ladigan ahvolga solib qo'yish shaklidagi tamagirlik ham mavjud bo'lib, bunda mansabdor shaxs pora olishni talab qilmaydi yoki ochiqchasiga tahdid qilmaydi. Biroq, u shunday sharoitni vujudga keltiradiki, shaxs o'zi yoki yaqinlari uchun zararli vaziyatlarning kelib chiqishini anglaydi va ularni bartaraf etish uchun pora berishga majbur bo'ladi. Bunday sharoit real vujudga kelganida shaxsning mansabdor shaxsga o'zining qonuniy manfaatlarini buzilmasligi uchun pora berishdan boshqa iloji qolmaydi. Agar bunday hollarda pora berish taklif qilinsa, bu majburlikdan qilinganligini bildiradi.

Demak, bunda birdaniga uch belgi mavjud bo'ladi:

1) pora berishni talab qilish bu ochiq ifodalanmasa ham, pora berishni taqozo etadigan sharoitni vujudga keltirish orqali ifodalanadi;

2) fuqaroning manfaatiga putur yetkazish tahdidining mavjudligi;

3) tahdid faqat fuqaroning qonuniy manfaatlariga aloqador bo'lishi lozim.

Pora olish bir guruh mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilgan deyish uchun undagi ishtirokchilar mansabdor shaxslar bo'lishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1999-yil 24-sentyabrdagi qarori 9-bandida: "Jinoyatni sodir etishda avvaldan, ya'ni jinoyat boshlanguncha kelishib olgan ikki yoki undan ortiq mansabdor shaxs ishtirok

etgan bo'lsa, pora olish jinoyati bir guruh mansabdor shaxslar tomonidan oldindan til biriktirgan holda sodir etilgan hisoblanadi", — deyilgan.

Shu o'rinda Yu.Lyapunovning quyidagi fikrlariga qo'shilish mumkin: "Bir guruh mansabdor shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib pora olinganida har bir mansabdor shaxs pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko'zlab xizmat bo'yicha konkret harakatlarni sodir etishi shart emas" [10, B. 33]. Aybdor shaxslar harakatlarida bunday kvalifikatsiya belgilarining mavjudligiga ulardan qaysi birining pora beruvchi foydasiga harakat (harakatsizlik)ni bajarishi lozimligi, ulardan har biri poradan qanday ulush olganligi, shuningdek, ularning xizmat mavqeyi kabilar ta'sir etmaydi.

R.A.Zufarovning fikricha, agar oldindan kelishilgan holda va guruh a'zolaridan birining harakatlari yoki roziligi bilan boshqa mansabdor shaxs bevosita harakatlarni sodir etsa va pora beruvchidan pora olib uning bir qismini ishtirokchilardan biriga bersa, bu ushbu jinoyatni guruh bo'lib sodir etilganini bildiradi [3, B. 11].

Biroq, biz bu ta'rifni aniq deb hisoblamaymiz. Chunki, bunday holatda pora beruvchi foydasiga pora oluvchilardan bir nechtasi yoki hammasi ham aniq bir harakatni (harakatsizlikni) sodir etishi mumkin, shuningdek, porani ulardan biri emas, balki, bir nechtasi, shuningdek, hammasi bir vaqtda qabul qilib olishi yoki bir-biriga ulush bermasligi ham mumkin. Bizningcha, oldindan til biriktirish deganda, pora beruvchi foydasiga qanday harakat bajarishi yoki bajarmasligi kerakligi, pora predmeti, miqdori, olish usuli, muddati va boshqalar xususida oldindan kelishib olish tushuniladi. Biroq, jinoyat boshlangunga qadar har bir mansabdor shaxs nima qilishi lozimligini to'liq hal etib olish kerakligini bildirmaydi. Bir guruh mansabdor shaxslar oldindan til biriktirib pora olganlarida ularning barchasi, bir nechtasi yoki biri pora beruvchi manfaatini ko'zlab muayyan harakatni sodir etishi mumkin. Muhimi, ular birgalashib, yagona jinoiy niyat bilan harakat qiladilar.

Shuningdek, pora sifatida ularning har biriga turli narsalar berilishi, xususan, biriga pul, biriga qimmatli qog'oz berilishi yoki bankdagi hisob raqamiga pul o'tkazilishi, yana birining avtomashinasi bepul ta'mirlanishi, boshqasiga qimmatbaho buyumlar berilishi mumkin. Ushbu jinoyat poraning bir qismi olinishi bilan tamom bo'lgan, deb hisoblanishini e'tiborga olsak, bir guruh mansabdor shaxslar tomonidan ushbu jinoyat sodir etilganida, ulardan biri poraning hech bo'lmaganda bir qismini olgan paytdan boshlab jinoyat tugallangan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining yuqorida ta'kidlangan qarorida "Jinoyat mansabdor shaxslardan loqal biri pora olgan paytdan e'tiboran tugallangan deb hisoblanadi. Bunda pora oluvchi shaxsning pora olishda bir necha mansabdor shaxslar ishtirok etayotganligini tan olgan-olmaganligining ahamiyati yo'q", — deyiladi.

Xulosa. Yuqoridagilarga asosan, quyidagi xulosalarga kelindi:

birinchidan, jinoyat qonunchiligidagi ayrim moddalar mazmuniga aniqlik kiritish uchun uning bir qator elementlar, jumladan, "**pora**", "**sovg'a**" kabi tushunchalarning mazmunini ko'rib chiqish lozim bo'ladi.

ikkinchidan, mansabdor shaxslar davlat va nodavlat, notijorat tashkilotlarda ham faoliyat yuritishini inobatga olib, davlat ishtirokidagi tashkilot deganda ustav fondida davlat ulushi mavjud bo'lgan tijorat tashkiloti hamda to'liq yoki qisman davlat organi yoxud davlat tashkiloti tomonidan tashkil etilgan yoki ta'sis etilgan notijorat tashkilotni tushunish lozim.

uchinchidan, amaldagi qonunchilik ustav fondida davlatning har qanday miqdordagi ulushi mavjud bo'lgan tijorat tashkilotini **davlat ishtirokidagi tashkilot** deb baholab, bunday

tashkilot xodimi tomonidan jinoyat sodir etilganda, mansabdorlik jinoyatlari sifatida kvalifikatsiya qilinadi. Fikrimizcha, amaldagi qonunchilikka ustav fondida ellik foizdan ortiq bo'lgan miqdordagi davlat ulushi mavjud bo'lgan tijorat tashkilotini davlat ishtirokidagi tashkilot deya baholashni nazarda tutuvchi o'zgartirish kiritish lozim.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Рустамбоев М.Х. Жиноят ҳуқуқи. Махсус қисм. – Т.: Ўқитувчи, 2003. – Б. 337.;
2. Кабанов П.А. К вопросу о коррупции // Совершенствование законодательства: поиск и решения. – М., 1993. – С. 34-38.
3. Зуфаров Р.А. Порахўрлик учун жиноий жавобгарлик. – Т.: ТДЮИ, 2004. – Б. 76.
4. Квициния А.К. Проблемы ответственности за должностные преступления. – Харьков, 1990. – С.115.
5. Кабанов П.А. Проблемы коррупции: уголовно-правовые аспекты ответственности за корыстные злоупотребления по службе. – Нижний Новгород, 1993. – С. 51-56.
6. Здравомыслов Б.В. Должностные преступления. Понятие и квалификация. – М.: Юридическая литература, 1975. – С. 134-135.
7. Сборник постановлений Пленума Верховных судов СССР и РСФСР (РФ) по уголовным делам. –М., 1995. –С.143.
8. Закутский С.Г., Мирзажонов К.М. Уголовная ответственность за взяточничество // Повышение эффективности борьбы с должностными и хозяйственными преступлениями. – Т.: Узбекистан, 1988. – С. 81.
9. Зырянов В.Н. Попустительство по службе совершаемое в правоохранительной сфере: Автореф. дис. ... док. юрид. наук. – Новгород, 1999. – С. 66.
10. Ляпунов Ю. Ответственность за новые квалифицированные виды получения взятки // Социалистическая законность. – Москва, 1987. – № 2. – С. 33.

Received: 10 March 2025

Accepted: 15 March 2025

Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

SPECIFIC FEATURES OF EARLY TERMINATION OF LOCAL DEPUTY POWERS ON OBJECTIVE GROUNDS

Avezov Dilshod Sadulayevich

Head of the Continuing Education Department of Tashkent State Law University

E-mail: davezov07@gmail.com

Abstract. Early termination of the powers of a local deputy on objective grounds is considered an important direction of local government. This article examines the main reasons that may serve as grounds for early termination of the powers of a deputy, such as violation of the law, loss of voter confidence, or circumstances that prevent him from performing his duties.

Keywords: local councils, deputy (MP), term of office, legitimacy.

MAHALLIY DEPUTAT VAKOLATLARINI OBYEKTIV ASOSLARGA KO'RA MUDDATIDAN ILGARI TUGATISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Avezov Dilshod Sadulayevich

Toshkent davlat yuridik universiteti

Uzluksiz ta'lim boshqarmasi boshlig'i

Annotatsiya. Mahalliy deputatning vakolatlarini obyektiv asoslarga ko'ra muddatidan oldin tugatish mahalliy davlat hokimiyatining muhim yo'nalishi bo'lib hisoblanadi. Ushbu maqolada deputatlik vakolatini muddatidan oldin tugatish uchun asos bo'lishi mumkin bo'lgan asosiy sabablar, masalan, qonun buzilishi, saylovchilar ishonchining yo'qolishi yoki uning o'z vazifalarini bajarishiga to'sqinlik qiladigan holatlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: mahalliy kengashlar, deputat, vakolat muddati, qonuniylik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N37>

INTRODUCTION

Early revocation of local deputy powers on the basis of objectivity is a significant aspect of ensuring effectiveness and accountability in local government institutions. As they are representatives of the people, local deputies have a duty to make decisions in the highest interest of their subjects. However, there are instances where it may be reasonable to limit their activities prematurely, e.g., against the law, or where there are conflicts of interests or personal disability. The current article addresses the unusual features in the case of premature withdrawal of such powers, examining the legal regimes, procedural conditions, and their implications for local government. Understanding these dynamics assists us in better appreciating the mechanisms in place for guaranteeing ethical standards and maintaining public confidence in local government.

MAIN PART

The early ending of local deputy mandates on objective reasons is one of the most important mechanisms of local government systems aimed at ensuring accountability and

integrity of elected officials. It is necessary to find out the specific features that characterize this process, including the legal framework, procedural regulations, and implications for citizens and the political process.

At the center of the early termination process is the concept of objective grounds. These are normally circumstances such as misconduct, illegality, incapacitation, or inability to carry out the function expected of a deputy. These criteria are meant to provide a sound reason for termination, so that the terminations are not politically motivated or based on personal vendettas. Legal frameworks for early removal of deputy powers vary between jurisdictions, depending on differing perceptions of what constitute legitimate grounds for removal. The majority of territories have legislated the grounds on which a local deputy is removable from office, as well as prescribed mechanisms for initiating the process. The legislativeness is required to curb indiscriminate removals of elected members. Revocation of local deputy mandates is a core aspect of democratic governance aimed at keeping elected officials accountable and responsive. This often involves the inclusion of clauses that provide for the removal or dismissal of local deputies who prove to be unsuitable for their positions for a range of reasons such as malfeasance, incapacity to perform their tasks, or loss of confidence in their abilities.

The powers of a deputy include the following important areas:

1. Legislative activity - the deputy actively participates in the process of making decisions on issues of local importance.
2. Supervisory functions - exercises parliamentary control over the activities of state bodies and officials in the region.
3. Work with voters - considering citizens' appeals, holding meetings with voters, representing their interests.
4. Formation and control over the implementation of the local budget - participation in the effective management of the financial resources of the region [1, p. 60].

A transparent and effective legal system must be in place for the termination of local deputies' authority. The system needs to have explicit grounds for dismissal, such as ethical violations, corruption, or failure to attend compulsory meetings and poor performance. Explicit criteria prevent politically motivated and arbitrary dismissals. The procedure typically begins with either resignation (self-termination) or a formal process to begin the removal. In the latter case, provisions for constituent petitions are typically made, which may demand a specified number of signatures before proceeding [2].

Where there is a claim of wrongdoing, an independent review or investigation process should take place (He, 2010). This guarantees due process and allows for the preservation of evidence before any action is taken. Transparency at this point is necessary in order to support public confidence (Gibson, 2010).

Grounds and procedure for early termination of powers In accordance with Article 3 of the Law "On the Status of a Deputy of the Regional, District and City Council of People's Deputies", the powers of a deputy may be terminated ahead of schedule in the following cases:

1. Upon personal application. According to statistics for 2022, 45% of cases of early termination of the powers of a deputy were carried out precisely on the basis of a personal application.

2. When there is a court verdict of conviction that has entered into legal force. For example, in 2021, a deputy of the Tashkent Regional Council of People's Deputies was found guilty under Article 167 of the Criminal Code and his powers as a deputy were terminated.

3. When a deputy renounces citizenship of the Republic of Uzbekistan. Two cases on this basis have been recorded across the republic in the last three years.

4. In the event of the death of a deputy.

5. When a court finds a deputy incompetent.

6. When declared missing or deceased based on a legally effective court decision.

7. When a deputy is elected or appointed to an inappropriate position.

8. When a deputy is recalled.

9. When a deputy fails to attend a session of the Council for thirty or more working days within a calendar year without good reason. In the first half of 2023, 3 cases were registered on this basis throughout the republic.

One of the critical features of the termination process is the requirement for a thorough investigation prior to taking action. This works to ensure that accusations made against a deputy are supported, promoting due process and the protection of the rights of officials. The investigations are typically carried out by special agencies that may be independent or part of the local government machinery, to promote objectivity. Furthermore, constituent participation is a focal point of the premature termination procedure. Citizens are allowed by most jurisdictions to petition for the removal of a deputy if they believe that the official is failing to represent their interests properly. This component provides the electorate with power and reinforces the idea that local deputies are ultimately responsible to the people they serve [3, p. 375].

The other significant aspect is the provision for the deputy subject to be heard in response to allegations before any decision is reached. This right of defense is crucial to making the process fair and allows deputies a chance to present their side of facts. The procedural fairness generated by this element acts as a safeguard against hasty or unjustified removals. In addition, transparency of the removal process is imperative in guaranteeing public trust. Detailed documentation of the proceedings, investigations, and findings should be made accessible to the general public. Not only does the transparency generate trust in the government system, but also deters potential abuses by political actors.

The implications of early termination on local government are profound. Properly implemented, they assist in developing a culture of accountability, dissuading abuses of power and promoting integrity on the part of elected representatives. It is a reminder that the local deputies are not above the law and that their actions have direct consequences on their political futures. However, the premature removal process is also not free of issues. In some instances, political factors might inappropriately enter into the decisions to initiate a removal, provoking concerns about politicization. These events have the potential to undermine the credibility of the system and lead constituents to question the basis for terminations. To address these concerns, reform proposals aimed at enhancing the fairness and effectiveness of the early termination process are being contemplated by most jurisdictions [4, p. 28]. Possible reforms include bringing in independent oversight committees or having clearer guidelines on what constitutes objective grounds. These reforms would help to dilute the existing tensions between political accountability and the rights of elected members [5, p. 145].

Lastly, the specific features of early termination of powers of local deputies on objective grounds point to the necessity of reconciling accountability with protection. The search for a system of government in which local deputies are accountable for what they do, and yet are also given the necessary protection, is essential to building a robust democracy. The early dissolution of local deputy authority is one of the most important features of local government that reflects ideals of accountability and transparency. If stakeholders can come to value the distinctive elements of the process, then collectively, they can all play their part in enhancing its effectiveness so that elected representatives can remain responsive to their constituencies.

CONCLUSION

Early expiry of objective grounds for ending local deputy authorities provides a key mechanism for assuring responsiveness and accountability of the local government vis-à-vis the people. Careful study of the affected legislation and customs indicates that whereas the provisions aimed to preserve local institution integrity, issues arise during implementation. Continuous reform and surveillance are needed to enhance transparency and trust in the political process at the local level. With the resolution of the problems identified, we can have a more trustworthy and effective local government that serves the best interest and needs of its people.

References/Литература/Adabiyotlar:

1. Сергеев, А. А. (2003). Проблемы конституционно-правовой ответственности выборных лиц государственной власти и местного самоуправления. Известия высших учебных заведений. Правоведение, (3), 55-65.
2. Гончаров, С. В. (2014). Институт досрочного прекращения полномочий главы муниципального образования (Doctoral dissertation, Белгородский государственный национальный исследовательский университет).
3. Antsiferov, N. V. (2019). Revocation of deputies and elected officials in modern Russian constitutional and legal conditions. Amazonia Investiga, 8(18), 374-380.
4. Dalley, G., Gilhooly, M., Gilhooly, K., Levi, M., & Harris, P. (2017). Exploring financial abuse as a feature of family life: an analysis of Court of Protection cases. Elder LJ, 28.
5. Rashidovich, Y. F. (2025). MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI. Modern education and development, 18(3), 140-147.

Received: 10 March 2025
Accepted: 15 March 2025
Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

THE CONCEPT, SIGNIFICANCE AND NEED OF EVALUATING THE EFFICIENCY OF THE PROSECUTION OFFICES

Mirzaev Golibjon Halimovich

Master's student of the Academy of Law Enforcement

E-mail: Golibjon.Mirzayev@gmail.com

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the concept of assessing the effectiveness of the prosecutor's office, and the need to assess this effectiveness today is highlighted, based on practical examples and statistics.

Keywords: effectiveness, assessment, prosecutor's office, activity, transparency, citizen trust.

PROKURATURA ORGANLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH TUSHUNCHASI, AHAMIYATI VA ZARURATI

Mirzayev G'olibjon Halimovich

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada prokuratura organlarining faoliyat samaradorligini baholash tushunchasi atroflicha tahlil qilingan bo'lib, bugungi kunda ushbu samaradorlikni baholash zarurati amaliy misollar va statistikalar bilan asoslangan holda yoritilgan.

Kalit so'zlar: samaradorlik, baholash, prokuratura, faoliyat, shaffoflik, fuqarolar ishonchi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N38>

Ma'lumki, har bir faoliyat natijasida muayyan bir samaradorlikka erishish maqsad qilinadi. "Samaradorlik" ko'p qo'llaniladigan umumiy tushunchadir. Bu tushunchadan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning turli sohalarida keng foydalaniladi. Ilmiy adabiyotlarda samaradorlikka ko'plab ta'riflar berilgan. "Samaradorlik" so'zining o'zagi, ya'ni "samara" so'zi arabcha «ثمره» (samara) so'zidan olingan bo'lib, natija, foyda ma'nolarini anglatadi. Rus tilida samaradorlik "effektivnost" so'zi bilan ifodalanadi. "Effektivnost" lotincha "effictions" so'zidan olingan bo'lib, davlat boshqaruvi tizimiga nisbatan samaradorlik, tizimning samarali faoliyat yuritishi salohiyati va haqiqiy natijalarining tavsifi sifatida qaralishi kerak. Erishilgan natijalar maqsadlarga mos kelishi lozim. [1] O'zbek tilining izohli lug'atida "samaradorlik" — iqtisodiy samara [2], A.Madvaliyev tahriri ostidagi o'zbek tilining izohli lug'atida "Samaradorlik – samarali, foydali bo'lishlik; foydalilik" [3], Xorijiy so'zlar lug'atida ("Словар иностранных слов") esa, samaradorlik ma'lum bir faoliyat natijasiga kimdir yoki nimadir orqali ta'sir qilish va ijobiy natija olish deb ta'riflangan. [4]

Samaradorlik ma'lum bir faoliyat natijasida unga erishish uchun sarflangan vaqt, mehnat, moddiy va moliyaviy manbalarning o'zaro nisbatidir.

Prokuratura organlari nazorat faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi samaradorlik — mavjud resurslardan samarali va maqsadli foydalangan holda erishilgan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy darajasini yuksaltirishdir. Olimlar A.Xolbekov, R.Jumayev va N.Umarovalarning fikriga ko'ra, samaradorlik deganda mahsuldorlik, unumdorlik nazarda tutiladi. Taniqli olim P.Xayninning fikriga ko'ra, samaradorlik qiymati har doim sarflangan xarajatning qiymatiga bog'liq bo'ladi. B.A.Rayzberg, L.Sh.Lofovskiy, Ye.B.Starodubsevalar esa, "samaradorlik — ta'sirning nisbati, samaradorligi, faoliyatning samarasi, natijaga sarf qilingan xarajat, natijaning kelib chiqishi", deb ta'rif berishgan. Ularning fikriga ko'ra, samarali boshqaruv tizimi — nazorat qilish tizimining samaradorligi quyidagilardan iborat:

- boshqarish tizimining yordami bilan erishish mumkin bo'lgan eng yaxshi natijaga yoki kam xarajatlardan muayyan natijaga erishish;

- boshqaruv tizimi boshqariladigan obyektning samaradorligini ta'minlaydigan choralardir. Ularning fikriga ko'ra, samaradorlik keng ma'noda ishning natijadorligini tavsiflovchi tushuncha hisoblanadi. U inson faoliyatining barcha sohalarida: iqtisodiyotda, fan va texnikani rivojlantirishda, siyosat va huquq sohasida qo'llaniladi.

Davlat organlari faoliyati samaradorligini baholash amaliyoti qonunlar, qarorlar va boshqa me'yoriy hujjatlarning hayotga tatbiq etish darajasini namoyon etadi. Prokuratura organlari faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlari uning muayyan bir faoliyati qanday amalga oshirilayotganligini, mavjud resurslarning qanchalik samarali ishlatilayotganligini, ya'ni qanday qilib "ishlar bajarilayotganligi"ni anglatadi.

Falsafiy jihatdan samaradorlik "to'g'ri ish qilish" degan ma'noni anglatadi. Samarali ishlash degani rejalashtirilgan natijaga erishishdir. M.J.Xattonning fikriga ko'ra, samaradorlik sifat va miqdorni anglatuvchi tushuncha bo'lib, davlat boshqaruvi sohasida iqtisodiy foydani tahlil qilishdir.

Yuqoridagilarga asoslanib, quyidagilarni ta'kidlash lozim:

birinchidan, prokuratura organlarining samarali faoliyati uning funksiyalaridan kelib chiqib, mamlakatda qonuniylik ahvoli darajasi bilan izohlanadi;

ikkinchidan, prokuratura organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning ijrosini ta'minlash, shu jumladan, qonuniylikni mustahkamlash, qonun ustuvorligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasida erishilgan ijobiy natijalarda ifodalanadi;

uchinchidan, ushbu vazifalarning sifatli bajarilishi prokuratura organlari faoliyati samaradorligini belgilaydi.

Bizning fikrimizga ko'ra, faoliyat samaradorligi ma'lum bir natijaga mavjud imkoniyatlar bilan maksimal ijobiy ko'rsatkichlarga erishishdir. Faoliyat samaradorligi shu natijaga erishish uchun sarflangan resurslarning qiyosiy tahlili asosida baholanadi. Faoliyat jarayonida vaqt, xizmat, mablag' kabi resurslar sarflanadi va uning natijasida ma'lum miqdordagi xizmatlar yaratiladi. Samarali faoliyatni — rejalashtirilgan natijaga erishish, har bir faoliyatdan maqsadli va unumli foydalanish natijasida samaradorligini oshirish, deb tushunish to'g'ri bo'ladi. Samaradorlik to'g'risidagi siyosiy, huquqiy, qolaversa iqtisodiy, ijtimoiy, falsafiy qarashlarni o'rganib, tahlil qilib, muvaffaqiyatga erishish mahorati deb xulosa qilish mumkin.

Samaradorlik mohiyatini aniqlash uchun bir qancha nazariy va uslubiy yondashuvlar mavjud. Faoliyatning turli sohalarida "samaradorlik" tushunchasi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Siyosatda samaradorlik ijobiy va istalgan faoliyat hisoblanadi. Davlat organlari faoliyati bilan bog'liq holda ushbu atama mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishi bilan izohlanadi. Umuman olganda, samaradorlik muayyan bir faoliyat yakunida erishilgan foydali natijadir. Samaradorlik foydalanilgan ya'ni sarflangan resurs va natija o'rtasidagi bog'liqlik bo'lib, rejalashtirilgan natijaga erishishni anglatadi.

Qonunlar ijrosi ustidan nazorat samaradorligi murakkab va ko'p tarmoqli jarayon. U barcha soha va yo'nalishlarni o'z ichiga oladi va mazkur jarayonda yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-huquqiy va boshqa munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Nazorat tizimining samaradorligi quyidagi asosiy omillar orqali baholanadi:

Qonunlarning to'liq bajarilishi – nazorat qilingan sohalarda qonun buzilishi hamda huquqbuzarliklarning kamayishi.

Davlat organlarining hisobdorligi – mansabdor shaxslarning o'z faoliyatlari yuzasidan hisobot berishi.

Shaffoflik – nazorat natijalari bo'yicha ommaga axborot berish darajasi.

Fuqarolarning ishonchi – fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining davlat nazorat organlariga bo'lgan munosabati.

Nazorat natijalarining huquqiy oqibatlari – aniqlangan qonun buzilishi va huquqbuzarlik holatlariga nisbatan qonuniy choralarning ko'rilishi hamda ularning oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarning o'z vaqtida va samarali qo'llanilishi.

Prokuratura organlari faoliyati samaradorligi ma'lum bir ishlab chiqarish samaradorligi emas, balki qonunlar ijrosi ustidan nazorat faoliyatining samaradorligidir. Prokuratura organlari faoliyati samaradorligi yuqorida aytib o'tganimizdek, qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini, davlatning konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilish, shuningdek, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari bilan izohlanadi.

Albatta, qonunlar ijrosi ustidan nazorat davlat funksiyasining eng muhim qismidir. Darhaqiqat, qonun ustuvorligi fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini kafolatlash, barcha soha va yo'nalishlarda qonunlarga qat'iy rioya etish, davlatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishini barqaror ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Prokuratura organlarining faoliyat doirasi kengligi, nazorat funksiyalarining murakkabligi, ularga doir hisobot ko'rsatkichlarining dinamikasi keskinligi, ayrim yo'nalishlardagi raqamlarni bir vaqtning o'zida ham ijobiy, ham salbiy holatlarga ajratish ehtimolining yuqoriligi hamda ularni aniq baholash mezonlarining yo'qligi samaradorlikning pasayishiga olib keladi. Prokurorlar prokuratura organlari zimmasiga yuklatilgan har bir vazifa ijrosini samarali tashkil qilish hamda natijadorligini ta'minlashga mas'uldirlar. Hududiy prokuraturalarda samaradorlikni tahlil qilish hamda ko'rsatkichlarni baholash bo'yicha qarorlar qabul qilishda jamoatchilik bilan ishlash talab etiladi.

Albatta, prokuratura organlari faoliyati natijasida mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini, davlatning konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilish bilan bog'liq vazifalar ijrosini amalga oshirishda samaradorlikka erishish muhim ahamiyat kasb etadi.

Prokuratura organlari faoliyati samaradorligini baholash deganda – prokuratura organlari tomonidan zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosi qanday bajarilayotganligi, erishilgan natijalar, shu jumladan, hududdagi qonuniylik va jinoyatchilik ahvolini yaxshilash, aholining huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirishdagi o‘rnini aniq mezonlar, usullar va yo‘nalishlar orqali baholash tushuniladi.

Prokuratura organlari faoliyati samaradorligini aniq mezonlar asosida baholash uning faoliyatidagi muammolarni, yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar va nuqsonlarni hamda boshqa salbiy omillarni aniqlash va bartaraf etish, faoliyatni samarali va to‘g‘ri tashkil qilish, mavjud resurslardan unumli foydalanish, qolaversa, uzoqqa mo‘ljallangan strategiyalarni belgilash imkonini beradi.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda ham davlat organlari faoliyati samaradorligini baholash natijalari asosida strategik maqsadlarni belgilash tajribasi mavjud bo‘lib, normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilishda keng foydalanilmoqda. Misol uchun, AQSHda **Government Performance and Results Act (GPRA)** va **Performance Assessment Rating Tool (PART)** kabi qonunlar va mexanizmlar orqali davlat tashkilotlari samaradorligi baholanadi. Bu baholash natijalari asosida strategik rejalar ishlab chiqiladi va byudjet mablag‘lari samarali taqsimlanadi. Singapurda **Key Performance Indicators (KPIs)** tizimi va **Public Service for the 21st Century (PS21)** tashabbusi orqali davlat muassasalari samaradorligi doimiy ravishda baholanadi. Baholash natijalari davlat boshqaruvidagi uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Buyuk Britaniyada **Public Service Agreements (PSAs)** va **National Audit Office (NAO)** tizimlari davlat muassasalarining samaradorligini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu baholash natijalari asosida hukumat o‘z siyosiy va strategik maqsadlarini belgilaydi. Germaniyada **New Public Management (NPM)** va **Evaluation Frameworks** kabi modellar qo‘llanib, davlat xizmatlarining samaradorligi o‘rganiladi. Har bir federal organ o‘zining strategik maqsadlarini shakllantirishda baholash natijalaridan foydalanadi. Yaponiyada **Administrative Evaluation System** orqali davlat idoralari samaradorligi baholanadi. Bu natijalar asosida davlat siyosatlarini takomillashtirish va resurslardan samarali foydalanish uchun strategik rejalar ishlab chiqiladi. Janubiy Koreyada **Government Performance Evaluation System (GPES)** va **e-Government** mexanizmlari orqali davlat muassasalarining samaradorligi tahlil qilinadi. Bu baholash tizimi strategik maqsadlar va elektron hukumat islohotlarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Rossiya Federatsiyasi huquqshunos olimlari tomonidan davlat organlari faoliyatini baholash natijalari tizim faoliyatini takomillashtirish bilan birga, tizimga oid qonun va qarorlar qabul qilish jarayonida foydalanilayotgani, shu asosda qabul qilingan qarorlarning sifat va samaradorligi ortgani e‘tirof etilmoqda. Samaradorlikni mezonlar asosida baholashning muhim jihatlaridan biri, barcha uchun teng, ochiq va oshkora baholash imkoniyatining mavjudligidir.

Tizimni yurtimizda joriy etish uchun ikkita muhim jarayonni amalga oshirish lozim. Birinchidan, baholashni tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish, ikkinchidan, qabul qilingan me‘yoriy hujjatlarni amaliyotga joriy etish talab etiladi. Bu borada qabul qilingan qarorlarning mazmuni va mohiyati amaliyotga to‘la mos kelishi muhim hisoblanadi. Shu sohada ilmiy izlanishlar olib borgan O.L.Aleksandrovaning fikriga ko‘ra, «Davlat apparatining ishi — davlat, aholi, ijtimoiy guruhlar va har bir inson manfaatlarini maqbul himoya qilish muammosini muvaffaqiyatli hal qilsa, haqiqatdan ham samarali hisoblanadi. Bu vazifa davlat apparati samaradorlik konsepsiyasining eng muhim

tomonidir».[5] Tadqiqotchi Ye.Maslennikovaning fikricha, samaradorlikni baholashda ikki yondashuv mavjud:

Birinchisi — texnik samaradorlikni baholash, ikkinchisi — iqtisodiy samaradorlikka bog'liq. Texnik samaradorlik nuqtai nazaridan baholangan faoliyatning xarakteri aks ettiriladi. Bu "to'g'ri ishlar amalga oshirilayotgani"ni ko'rsatadi. Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari baholangan faoliyat qanday amalga oshirilgani, resurslarni sarflashning qanchalik samaraliligi, ya'ni "ularning to'g'ri bajarilishi"ni tavsiflaydi. Ma'muriy faoliyatning samaradorligi erishilgan natijalar va sarf qilingan resurslar o'rtasidagi nisbatni aniqlash bilan baholanadi. [6]

Mazkur sohada ilmiy tadqiqotlarni olib borgan olim F.Kobzarevaning fikriga ko'ra, "Davlat boshqaruv nazariyasi va amaliyoti qarorlarni qabul qilish, ularni amalga oshirishda boshqaruv obyektlari faoliyati samaradorligini universal mezon sifatida ko'rib chiqadi. Davlat organlari faoliyati samaradorligini baholash muammosi ongli ijtimoiy ehtiyoj xarakterini olgan. Bu xolis va keng qamrovli baholash bo'lib, davlat faoliyatining har qanday faoliyat turining zaif tomonlarini aniqlash va bartaraf etish hamda tanlangan ustuvor yo'nalishlar to'g'risidagi haqiqiy holatni, shuningdek, muayyan bir organning mamlakatning izchil rivojlanishiga qo'shayotgan hissasini aniqlash imkonini beradi.

Davlat tuzilmalarining funksional faoliyatini xolis va optimal baholashga doir talablar prokuratura organlari faoliyatiga ham to'liq taalluqlidir. Shu bilan birga, prokuratura organlari faoliyatini nazariy jihatdan asosli baholash zarurati va bunday baholashga yondashuvlarni aniqlash va tanlash davlat tomonidan ijro hokimiyati organlari uchun belgilangan konseptual qoidalar bilan bevosita bog'liq va ularga asoslanadi".

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, barcha davrlarda davlat boshqaruvi organlari faoliyatini takomillashtirish, ularning samarali faoliyat yuritishini ta'minlash davlat boshqaruvining asosiy maqsad va vazifalaridan bo'lib kelgan. Ma'lumki, davlatning asosiy vazifasi va maqsadi mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, xalq farovonligi yo'lida xizmat qiluvchi davlat boshqaruv organlarining samarali faoliyat yuritishini ta'minlash hisoblanadi.

Bu jarayonda prokuratura organlari faoliyati samaradorligini baholash juda muhim hisoblanadi. Chunki, u davlat organlarining qonunlarga rioya etgan holda samarali va shaffof faoliyat yuritishini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, prokuratura organlarining funksiyalari, shu jumladan, nazorati vazirliklar, qo'mitalar, idoralar, tashkilotlar va boshqa muassasalar va mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarga rioya etilishini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasi, tezkor-qidiruv, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishda qonun buzilishi holatlarini oldini olishda katta rol o'ynaydi.

Umuman, prokuratura organlari faoliyati samaradorligini baholashning zaruriyatini quyidagilarda ifodalash mumkin:

birinchidan, qonunchilik ijrosi ustidan nazorat – prokuratura organlari vazirliklar, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar va idoralarning harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi, shuningdek, ular tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligini nazorat qiladi va tekshiradi. Mazkur faoliyatning baholanishi prokuratura organlarining zimmasiga yuklatilgan vazifalarni qanday amalga oshirayotganligi,

qonunlarga amal qilishi, ularning mustaqilligi va faoliyatning shaffofligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega;

ikkinchidan, prokuratura organlari jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Fikrimizcha, mazkur faoliyatni baholash orqali hududdagi jinoyatchilik ahvoli, unga qarshi kurashish darajasi, tezkor-qidiruv, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergovning sifati, ayniqsa sohada yo'l qo'yilayotgan va e'tiborni kuchaytirish lozim bo'lgan kamchiliklar, muammolar aniqlanadi;

uchinchidan, ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralari ijro etish chog'ida qonunlarga rioya qilinishi ustidan nazorat faoliyatini ham baholash sohada qonuniylik ahvolining qay darajada ekanligi, faoliyatni qamrovi darajasi va boshqa omillarni ko'rsatib beradi;

to'rtinchidan, sudlarda ishlar ko'rilishida prokurorning vakolatlarini ta'minlash faoliyatini baholash sohada prokurorlarning sudda ishtiroki darajasi, sud qarorlarning qonuniyligini o'rganish ahvoli, davlat manfaatlarini, shu jumladan, davlat mulki, davlatga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash va davlat byudjetidan undiruvlar bilan bog'liq ishlar amaliyotini, shuningdek, aniqlangan mavjud kamchiliklarni, qonun buzilishi holatlarini sudga da'vo arizasi (ariza) kiritish orqali hal etish amaliyotlarini o'rganish mumkin;

beshinchidan, prokuratura organlari faoliyatini baholash – ularning faoliyat samaradorligini, shu jumladan, nazorat funksiyasini amalga oshirish jarayonida aniqlangan kamchiliklar, qonun buzilishi holatlari va huquqbuzarliklarga nisbatan qanday reaksiya bildirilayotganligini tekshirish imkonini beradi. Bu orqali, ularning ishonchligini oshirish mumkin;

oltinchidan, belgilangan vakolatlardan va resurslardan foydalanish borasida prokuratura organlari faoliyatini baholash davlat organlari hamda muassasalarining byudjetdan ajratilgan mablag'lar va manbalardan qanday samarali foydalanishini ko'rsatadi. Bu mazkur idoralar uchun moliyaviy hisobdorlik va javobgarlikni ta'minlashga yordam beradi.

yettinchidan, prokuratura organlari faoliyatini qonunlarga, shu jumladan xalqaro standartlar va inson huquqlari bo'yicha qonunlarga muvofiqligini baholash o'ta muhimdir. Bu davlatning xalqaro maydondagi obro'sini oshirishga, reytinglardagi ko'rsatkichlarini yaxshilashga katta yordam beradi.

O'z navbatida har qanday samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar mavjudligini e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur. Bunday omillar prokuratura organlari faoliyati samaradorligiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu boisdan, omillar tushunchasini bilish va uni o'rganishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Omillar tushunchasi an'anaviy ravishda ijtimoiy rivojlanishni tushuntirishga harakat qiladigan sotsiologik qarashlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Bugungi kunda fanda "omil" tushunchasining ta'rifi bo'yicha yagona nuqtai nazar mavjud emas. O'zbek tilining izohli lug'atida "Omil" so'zining ma'nosi ish-harakat, voqea-hodisa va shu kabilarning yuzaga chiqishi, sodir bo'lishi uchun sabab bo'lgan narsa sifatida ifodalanadi.

Rus tilining izohli lug'atlari "faktor", ya'ni omilni obyektiv zarur yoki subyektiv kutilgan natijaga qaratilgan har qanday jarayon, hodisa, hodisaning harakatlantiruvchi kuchi, sababchisi sifatida belgilaydi.

Mazkur ta'riflardan ko'rinadiki, omil tushunchasi birinchi navbatda faol harakatlantiruvchi kuch sifatida tushuniladi. Omillar muammosi, mohiyatiga ko'ra harakatlantiruvchi kuchlar muammosi bo'lib, bir vaqtning o'zida ijtimoiy munosabatlarning obyektiv belgilanishini ham, aniq subyektlarning faoliyatini ham ifodalaydi. Rus olimi F.Kobzarevaning fikriga ko'ra "omillar faollikni keltirib chiqarmaydi, balki uning oqimini funksional jihatdan aniqlaydi, dinamiklashtiradi va boshqaradi. O'z voqeligidagi omil doim murakkab faol tizim bo'lib, rivojlanish mexanizmining bevosita tashabbuskori bo'lib, hodisani nimaga undashini, nima qilishini, keltirib chiqarishini ko'rsatadi. Bu konsepsiya shartli o'tishni tavsiflaydi, hodisaning mavjudlik uchun mo'rtligi, uning hozirgi mavjudlikka aylanishini ifodalaydi".

Demak, prokuratura faoliyati samaradorligini baholash muammolarini o'rganishda omilning prokuratura faoliyati natijalariga ta'sirini, uning ta'sir etuvchi omillar tizimidagi o'rni va rolini har tomonlama o'rganish zarurati mavjud bo'ladi.

Sohada ilmiy izlanishlarni amalga oshirgan MDH davlatlari olimlarining ta'kidlashicha, omillarni tasniflash o'rganilayotgan hodisalarning o'zgarishi sabablarini chuqurroq tushunishga va natijada paydo bo'ladigan ko'rsatkichlarning shakllanishida har bir omilning o'rni va rolini aniqlash imkonini beradi. Ularning natijalariga ta'siri nuqtai nazaridan omillar birlamchi va ikkilamchi, ichki va tashqi, obyektiv va subyektiv, umumiy va xususiy, doimiy va o'zgaruvchanlarga ajratiladi. Prokuratura faoliyatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillar, ikkinchi darajali omillar esa bunday sharoitlarda ko'rsatkichlarga ta'sir o'tkazmaydi.

Turli omillardan asosiy belgilovchi omillarni aniqlash prokuratura organlari faoliyatiga doir erishilgan natijalarni baholashning to'g'riligi va ishonchligini ta'minlaydi.

Rus olimlarining ma'lum qilishicha, prokuratura organlari faoliyatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ichki va tashqi omillar katta ahamiyatga ega. Aksariyat hollarda, rivojlangan aloqalar va munosabatlar bilan prokuratura faoliyati natijalariga boshqa davlat organlarining faoliyati sezilarli darajada ta'sir qiladi.

Fikrimizcha, prokuratura organlari faoliyati natijalarini to'g'ri baholash uchun omillarni obyektiv va subyektivga bo'lish mumkin. Obyektiv sabablar subyektiv sabablardan farqli o'laroq prokuratura faoliyatiga bog'liq bo'lmaydi. Omillarni tasniflash prokuratura faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini to'liqroq hisobga olish va yanada aniqroq baholash imkonini beradi.

Mazkur maqsadlarga erishish uchun ko'pincha omillar siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, qonuniy va tashkiliy turlarga ajratiladi.

Ushbu tasnifda keltirib o'tilgan guruhlar o'rtasida aniq bir chegara yo'qligini ta'kidlash lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, prokuratura organlari faoliyati samaradorligini baholashga ta'sir ko'rsatadigan omillarni to'liq bilmadan, ularni turkumlarga ajratmasdan, shuningdek, omillarni baholashda tutgan o'rni va rolini aniqlamasdan turib, faoliyatni baholash to'g'ri bo'lmaydi.

Ya'ni, prokuratura organlari faoliyatining xilma-xilligi, nazorat funksiyasining murakkabligi bois, uning faoliyat samaradorligiga ta'sir etuvchi haqiqiy omillarni aniq bilish va shu orqali samaradorlikni aniq va ishonchli mezonlar asosida baholash kerak.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Геврасёва А. П. Эффективность государственного управления: Конспект лекции. – Гомель, 2015. – С. 2.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – М.: Рус тили нашриёти 1981. – Б. 17.
3. Мадвалиев А. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. 2006. – Т.: – Б. 434.
4. Словарь иностранных слов. – М.: Изд. Русский язык, 1979. – С. 837.
5. Обухова Л.А. Кадровое обеспечение государственной службы. Ростов н/Д, 1994. – С. 84.
6. Масленникова Е. Государственное и муниципальное управление: конспект лекций – М.: Издательство Юрайт, 2010. – С. 183.

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI – PEDAGOGICAL SCIENCE

Received: 10 March 2025

Accepted: 15 March 2025

Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

METHODOLOGY OF USING MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN PREPARING FUTURE TEACHERS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY ON THE BASIS OF ART-PEDAGOGY

Zubaydullayev Uktam

Samarkand branch of Tashkent Chemical International University
Head of the Department "Pedagogy and psychology" Lecturer

Abstract. The article provides a scientific and theoretical analysis of the didactic support for the use of modern educational technologies in the preparation of future teachers for professional activities on the basis of artistic pedagogy, the possibility of a technological approach aimed at the complete standardization of education. Also, the article describes in detail the pedagogical aspects of using a number of educational games in order to form the skills of future teachers to develop a personality-oriented educational process.

Keywords: future teacher, art pedagogy, professional activity, modern education, technology, didactics, education, upbringing, project, gaming technologies, responsibility, tolerance, curiosity, empathy, modeling design ↔ construction.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI ART-PEDAGOGIKASI ASOSIDA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Zubaydullayev O'ktam Raim o'g'li

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali
"Pedagogika va psixologiya" kafedrasini mudiri, dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarni art –pedagogikasi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning didaktik ta'minoti, ta'limning to'laligicha standartlashtirishga yo'naltirilganligi texnologik yondashish imkoniyatlari ilmiy nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek maqolada bo'lajak o'qituvchilarni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirishga oid ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida bir qator o'quv o'yinlaridan foydalanishni pedagogik jihatlari atroflicha yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: bo'lajak o'qituvchi, art–pedagogikasi, kasbiy faoliyat, zamonaviy ta'lim, texnologiya, didaktika, ta'lim, tarbiya, loyiha, o'yinli texnologiya, mas'uliyatlilik, tolerantlik, qiziquvchanlik, empatiya, modellashtirish ↔ loyihalash ↔ konstruksiyalash.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N39>

Pedagogik kadrlarning yuksak professionalizmi ko'p jihatdan oliy ta'lim muassasalarida tizimli ravishda tashkil etilgan salohiyat, uning ta'limiy ehtiyojlarini qondirish va kasbiy tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Shu jihatdan "butun ta'lim tizimimizni tubdan qayta ko'rib chiqish, oliy ta'lim muassasasi talabalar uchun professional bilimlarni egallashlarida imkoniyatlarni kengaytirish, yangi sharoitlarda, yangi zamonaviy texnologiyalarda ishlashga

qodir mutaxassislarni tayyorlashga yo‘nalganlikni kuchaytirish” zarurati yuzaga keldi. Yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulug‘ ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish, mustaqil Respublikamizni rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin olishini ta‘minlash bo‘lajak o‘qituvchilarni malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga bog‘liqdir.

Jahonning ilg‘or oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni art –pedagogikasi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlari milliy va kasbiy pedagogik kompetensiyasi, kasbiy pedagogik savodxonlik darajasi, kasbiy pedagogik farqlarni anglash, kasbiy pedagogik standartlarni o‘stirish, kasbiy pedagogik kreativlikni takomillashtirishga asoslanib tashkil etilmoqda.

Jamiyat taraqqiyotida, xususan bo‘lajak o‘qituvchilarni art–pedagogikasi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Chunki bo‘lajak o‘qituvchilarni iqtidori, salohiyati, qobiliyati va o‘zligini namoyon etib, uning bilimlari, ko‘nikma va tajribalarini, ma‘naviy salohiyatini amaliy faoliyati orqali kamol toptirishda asosiy rol o‘ynaydi.

Respublikada ta‘lim-tarbiya jarayoni bilan bog‘liq o‘zgarishlar ta‘lim tizimini tubdan isloh qilish, uni milliy ruh bilan sug‘orish, samarali an‘anaviy uslublarni saqlab qolgan holda yangilarini yaratish va amaliyotda qo‘llash borasida olib borilayotgan ishlarga bog‘liq. Bu yo‘nalish keng qamrovli bo‘lib, mazmunan takomillashib bormoqda. Ta‘limda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ta‘limning butun jarayonini aniq reja asosida tashkil qilish hamda o‘quv jarayonini maqsadga ko‘ra individuallashtirishni nazarda tutadi.

Ta‘lim tizimining fan, texnika va ishlab chiqarish sohalari bilan integratsiyalashuviga erishuvini ta‘minlashni bugungi kunning dolzarb muammosi sifatida kun tartibiga qo‘yilishi bu borada muayyan vazifalarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Ta‘lim mazmunini tubdan yangilash, uni ilg‘or qarashlar bilan boyitishga erishish, ta‘lim-tarbiya jarayonining sifat va samaradorligini ta‘minlash ana shunday vazifalar sirasiga kiradi.

Ta‘lim samaradorligini oshirish, uning mazmunini yangilashga yangicha yondashuvlar ta‘lim tizimini isloh qilish, zamon talablari darajasiga ko‘tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini yaratish, barkamol salohiyatli avlodni tarbiyalash kabi ulug‘vor maqsadni amalga oshirishga qaratilgan.

Ta‘limning to‘laligicha standartlashtirishga yo‘naltirilganligi texnologik yondashishga xos bo‘lib, u didaktikada ta‘limning asosiy jihatlaridan biri deb qaraluvchi va keyingi yillarda umumjahon pedagogikasining tadqiqot obyektiga aylangan o‘qituvchi va tahsil oluvchi munosabatlarini ifodalaydi.

Bunday yondashuvda ya‘ni bo‘lajak o‘qituvchilarni art –pedagogikasi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashda zamonaviy ta‘lim texnologiyalaridan foydalanishning didaktik ta‘minoti ta‘lim samaradorligi muammosining ta‘lim jarayoni tahlili, uning mazmunidan tashqarida ya‘ni ta‘lim mazmuni tahsil oluvchiga turli elementlarni uzatuvchi vositalar orqali hal etiladi. Pedagogikada ilgari suriladigan yaxlit umumpedagogik tamoyil nuqtai nazaridan bo‘lajak o‘qituvchilarni art –pedagogikasi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashda ta‘lim natijasi reproduktiv ravishda o‘zlashtiriladigan bilim, birgalikdagi tadqiqotchilik faoliyati tajribasi va hissiy tarbiyani taqozo etadi.

Oliy ta‘lim amaliyotida bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligini aniqlashga oid turli-tuman yondashuvlarning mavjudligiga qaramasdan bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy

bilimlarini baholash ularning dastur materiallarini qay darajada o'zlashtirganliklariga asoslangan holda amalga oshiriladi. Bunda bo'lajak o'qituvchilar egallagan kasbiy bilimlarning sifatiga e'tibor qaratiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning o'zlashtirish darajalari sifatini aniqlashda quyidagilar hisobga olinadi: a) o'zlashtirilgan kasbiy bilimlarni qayta eslash; b) ularni pedagogik amaliyotda qo'llay olish tajribasiga ega bo'lish; v) egallangan bilimlarni yangi o'quv vaziyatlariga ko'chira olish kabilar.

Bo'lajak o'qituvchilar tomonidan ta'lim jarayonini samarali loyihalashtirish va tashkil etishdan ko'zlanadigan asosiy maqsad – o'quvchilarni uzluksiz tarzda intellektual, ma'naviy-axloqiy, huquqiy-fuqarolik, jismoniy-estetik rivojlantirishdan iborat. O'qituvchi o'quvchilar bilan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida o'quv maqsadiga erishish uchun birgalikda izlanishlar olib borishi kerak. Buning uchun o'qituvchida kasbiy tayyorgarlik jarayonidayoq kreativlik, o'z-o'zini tanqid qilish, mas'uliyatlilik, tolerantlik, qiziquvchanlik, empatiya kabi sifatlarni barqarorlashgan bo'lishi lozim.

Loyihalashning alohida faoliyat turi sifatidagi ahamiyatini nazariy jihatdan tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatdiki, har qaysi pedagog uchun "didaktik tizim" va "didaktik jarayon" loyihalashning asosiy obyekti bo'lib hisoblanadi.

Didaktik loyihalash bo'yicha o'qituvchining kasbiy faoliyatida bir qator uzviy bog'liq ketma-ketlikdagi quyidagi bosqichlarni ajratishimiz mumkin: modellashtirish ↔ loyihalash ↔ konstruksiyalash.

Modellashtirish bilish metodi sifatida bo'lajak o'qituvchiga "didaktik tizim"ni yaxlit tasavvur qilish va didaktik jarayonlarni o'rganish imkoniyatini beradi. Shuni ta'kidlash lozimki, yaratilayotgan model bu mavjud predmet yoki jarayonning ifodasi hisoblanadi.

Loyiha o'z mohiyatiga ko'ra o'qituvchining ijodiy tafakkuri mexanizmi hisoblanib, u orqali o'qituvchi aniq didaktik jarayonni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Loyihaning konstruksiyalash bosqichida loyihani amalga oshirishga yo'naltirilgan o'qitishning mazmuni, maqsadi, metodlari, shakllari va vositalari yanada aniqlashtiriladi. Texnologik yondashuv nuqtai nazaridan didaktik jarayonni loyihalash o'qituvchining kasbiy faoliyati mahsuli hisoblanadi.

Biz bo'lajak o'qituvchilarning shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirishga oid ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida bir qator o'quv o'yinlaridan foydalanishni tavsiya qilamiz. Ular:

- ishchan o'yinlar;
- tadqiqotchilik o'yinlari;
- tashkiliy-faoliyatli o'yinlar;
- rolli o'yinlar;
- jarayonlarni loyihalashga undovchi o'yinlar.

Tajriba va kuzatuvlarimiz jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishlarini ta'minlovchi o'yinlarni yaxlit tarzda tahlil qilar ekanmiz, ular orasida muammoli-vaziyatli o'yinlar o'quv jarayonini shaxsga yo'naltirish asosida boshqarish metodi sifatida alohida ahamiyatga ega ekanligini talabalar ongiga yetkazishga harakat qildik. Mazkur o'yinlar pedagogning kasbiy faolligi va o'quv jarayoni mahsuldorligini ta'minlovchi tabiiy jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, biz talabalar bilan o'quv o'yinlarini tashkil etishga tayyorgarlik jarayonida bir qator didaktik holatlarga alohida e'tibor qaratdik. Ular:

- talabalarning egallagan kasbiy bilimlari darajasini aniqlash;
- o'quv o'yinlariga sarflanadigan vaqtni to'g'ri taqsimlash;
- topshiriqlarni bajarishga sarflanadigan vaqtni talabalarning ijodiy faolliklarini ta'minlash asosida maqbullashtirish kabilar.

Tajriba-sinov ishlarining birinchi bosqichida qo'lga kiritilgan natijalar asosida chiqarilgan xulosalar ikkinchi bosqichda bajariladigan vazifalar ko'lamini aniqlash imkonini berdi.

Bu o'rinda biz pedagogik ta'limning innovatsion metodlari yordamida bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy-kasbiy rivojlanishlariga erishishga harakat qildik. Buning uchun dastlab ular egallagan kasbiy bilimlarni mustahkamlashga intildik.

Shuni hisobga olgan holda amaliy-modellashtiruvchi bosqichda nazariy jihatdan asoslangan modelga muvofiq tarzda quyidagi asosiy vazifalarni yechish nazarda tutildi:

- bo'lajak o'qituvchilarning shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, uni loyihalashtirishning barcha komponentlarini samarali o'zlashtirishlari uchun qulay pedagogik shart-sharoitlar yaratish, bunda bir qator holatlarga alohida e'tibor qaratish, jumladan:


- bo'lajak o'qituvchilarni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini loyihalashga o'rgatishda yetakchi pedagogik omillarni aniqlash;

- o'qitish metodikalarini o'zlashtirish asosida bo'lajak o'qituvchilarning o'z-o'zlarini namoyon qilishlariga imkon beradigan vaziyatlarni loyihalashtirish va pedagogik ta'lim jarayonini ushbu loyihalar asosida tashkil etish;

- talabalar tomonidan egallangan kasbiy faoliyatga oid bilimlarni mustahkamlash vaziyatlarini ishlab chiqish;

- o'quv jarayonini modellashtirish orqali talabalarning shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashtirish ko'nikmalarini o'zlashtirishlari uchun qulay pedagogik shart-sharoitlarni izlab topish kabilar.

Zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishlarini ta'minlovchi pedagogik texnologiyalardan foydalanish zaruriyatning mohiyati quyidagicha takomillashtirdik.



Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishlarini ta'minlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash zaruriyatining mohiyati.

Ayni vaqtda texnologik harakat qonuni zahirida oddiy texnologik o'zaro ta'sir, texnologik vazifalarning inson zimmasidan soqit etilib, texnologik vosita zimmasiga yuklatilishi qonuni, texno-pedagogik fenomenni tadqiq etish jarayonida yuqorida ko'rsatilib o'tilgan strukturaviy-mantiqiy elementlar aks etadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni art – pedagogikasi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy-gumanitar fanlarning imkoniyatlarini, pedagogik tamoyillari, omillari, shart-sharoitlarini aniqlash zahirida, uni aniq maqsad, reja, dastur asosida tashkil etish muammoning samarali natijasini ta'minlash garovidir. Buning uchun biz ta'lim jarayonida quyidagi tamoyillarga amal qilish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi degan xulosaga keldik. Bular:

- zamonaviylik tamoyili – ta'lim amaliyotiga ilmiy asoslangan va tajriba-sinovda tekshirilgan didaktikaga oid yangiliklar, tartib qoidalarni joriy etadi. Tahsil oluvchi egallagan bilimni mantiqiy tushunib amalda qo'llaydi.

Davrga mos holda o'quv dasturlar modernizatsiya qilinadi va o'quv jarayonining optimal varianti tanlanadi.

O'quv jarayonining o'qituvchi va tahsil oluvchi tomonidan kam kuch sarflanib, yuqori maqsadga erishadigan optimal variantini yaratadi.

- tarbiyada izchillik, uzviylik va ketma-ketlik tamoyiliga amal qilinishi;

- ilmiylik tamoyili – ta’lim-tarbiya jarayonida samarali vosita, faol metod hamda didaktik materiallardan foydalanishning tashkiliy masalalari yangi yechimlarini qo’llashni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, bo’lajak o’qituvchilarni art –pedagogikasi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashda ta’lim – tarbiya sohasida innovatsion jarayonlar qo’yidagi jihatlarda o’z aksini topadi:

- faoliyatga nisbatan (o’qituvchining innovatsiya va novatsiyalarni idrok etishi, tushunishi, amaliyotga joriy etishi, o’z faoliyatini yangi usullar, yangi yo’nalishlarda tashkil etishi, ijodiy faoliyat yuritishi);

- pedagogik jarayonga nisbatan (pedagogik jarayondagi ichki va tashqi kommunikatsion munosabatlarda, ta’limni boshqarish jarayonlarida, innovatsion mazmunda ta’limni tashkil etishda);

- ta’lim mazmunida, uning sifatini yaxshilashda (davlat ta’lim standartlarida, o’quv rejalari, dasturlari, va bunda ilmiy va jahon tajribalariga suyanishda va h.k.)

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Roziqov O., Og’ayev S., Mahmudov M., Adizov B., Didaktika.– Toshkent: Fan, 1997. –256 b.
2. Roziqov O., Og’ayev S., Adizov B. Ta’lim texnologiyasi. Toshkent: O’qituvchi, 1999.– 71 b.
3. Педагогическая энциклопедия.–М., 2002.–550str.
4. Muslimov N.A., Usmonboyeva M., Mirsoliyeva M. Innovation ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik» moduli bo’yicha UMK. Toshkent 2017 - 43 b
5. Pedagogik texnologiya: muammo va istiqbollar (zamonoviy pedagogik texnologiyaning ilmiy-nazariy asoslari). Mualliflar guruhi. / T.:OO’MKHTRM, 300 bet. Mas’ul muharrir: prof. Parpiyev A.P. T.: 2008

Received: 10 March 2025

Accepted: 15 March 2025

Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

FORMATION OF VOLITIONAL QUALITIES OF SENIOR SCHOOL STUDENTS IN THE PROCESS OF PHYSICAL EDUCATION CLASSES

Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich

Termez State Pedagogical Institute

Department of Physical Education,

Senior Lecturer

Abstract. The interest of society in developing a scientifically based system aimed at developing the necessary volitional qualities in a person requires a deep study of theoretical and methodological issues related to willpower, the development of methodological tools for experimental research, and methods for diagnosing volitional qualities. However, the level of study of the problem of will in modern psychology and pedagogical practice cannot be called appropriate to the high tasks facing society. The article examines the pedagogical conditions for the formation of volitional qualities in the process of physical education in senior students of comprehensive schools.

Keywords: volitional qualities, physical exercises, pedagogical conditions, levels of formation of volitional qualities.

JISMONIY TARBIYA MASHG'ULOTLARI JARAYONIDA YUQORI SINIF O'QUVCHILARINING IRODAVIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH

Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich

Termiz davlat pedagogika instituti

Jismoniy madaniyat kafedrası,

Katta o'qituvchi

Annotatsiya. Jamiyatning zarur irodaviy sifatlarga ega shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan ilmiy asoslangan tizimni ishlab chiqishga bo'lgan qiziqishi iroda bilan bog'liq nazariy va metodologik muammolarni chuqur o'rganishni, eksperimental tadqiqotlar uchun metodik vositalarni hamda irodaviy sifatlarni diagnostika qilish usullarini ishlab chiqishni talab qiladi. Ammo hozirgi zamon psixologiyasi va ta'lim amaliyotida iroda masalasini o'rganish darajasi jamiyat oldiga qo'yilgan yuksak vazifalarga mos keladi deb bo'lmaydi. Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilarida jismoniy tarbiya jarayonida irodaviy sifatlarni shakllantirish pedagogik shart-sharoitlari asoslanadi.

Kalit so'zlar: irodaviy sifatlari, jismoniy mashqlar, pedagogik shart-sharoitlar, irodaviy sifatlarning shakllanish darajalari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N41>

Kirish. Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarini tarbiyalash jarayonida eng muhim muammolardan biri — hayotiy faollikni, doimiy o'zini takomillashtirish qobiliyatini shakllantirish masalasidir [3; 76-b., 4; 75-b.]. L. A. Antsiferova, O. Konopkin, A. Maslou, S. Rubinshteyn, S. Sobko, D. A. Uznadze fikriga ko'ra, hayotiy faollik tashabbuskorlik, maqsad sari intilish, qat'iyat, sobitlik kabi irodaviy sifatlari bilan bog'liq. Zarur irodaviy sifatlarni va irodaviy boshqaruv qobiliyatlarini tarbiyalash shaxsni ongli turtkilarga asoslangan holda harakat qiladigan shaxs sifatida shakllantirish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi

(B. Ananyev, I. Bex, L. Bojovich, L. Vygotskiy, A. Zaporjets, V. Ivannikov, A. Leontev, S. Polishchuk).

Jamiyatning zarur irodaviy sifatlarga ega shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan ilmiy asoslangan tizimni ishlab chiqishga bo'lgan qiziqishi iroda bilan bog'liq nazariy va metodologik muammolarni chuqur o'rganishni, eksperimental tadqiqotlar uchun metodik vositalarni hamda irodaviy sifatlarni diagnostika qilish usullarini ishlab chiqishni talab qiladi [1; 55-b.]. Biroq, zamonaviy psixologiya va ta'lim amaliyotida iroda masalasini o'rganish darajasi jamiyat oldiga qo'yilgan yuksak vazifalarga to'liq javob bera olmaydi.

Adabiyotlar tahlili. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda irodaviy sifatlarni tarbiyalash masalasi faqat ayrim jihatlar doirasida ko'rib chiqilgan bo'lib, o'quv jarayonida (V. A. Krutetskiy, P. Razmyslov, S. Rives, L. Ruvinskiy, V. Selivanov) hamda jismoniy tarbiya jarayonida (A. Puni, R. Shayxtdinov, T. Shulga) irodaviy sifatlarning shakllanishi o'rganilgan. Ayrim tadqiqotlar kichik yoshdagi o'quvchilarning irodaviy faoliyati va uning rivojlanishiga (S. Polishchuk, V. Komogorkin, P. Koxanets), o'rta maktab yoshidagi o'quvchilarning jismoniy madaniyat mashg'ulotlari jarayonida irodaviy sifatlarga (A. Artyushenko) bag'ishlangan. Irodaviy faollik va irodaviy boshqaruvning yoshga oid xususiyatlarini A. A. Visotskiy va T. G. Levsha tadqiq qilgan.

Biroq, ushbu tadqiqotlarda ilgari surilgan metodik tavsiyalar o'quvchilar uchun irodaviy sifatlarni shakllantirish jarayonini inson faoliyatining eng muhim jihati — irodaviy harakat bilan bog'lashga yetarlicha e'tibor qaratmagan [2; 220-b.]. B. Smirnov, P. Rudyuk, N. Kalina, R. Shayxtdinov va T.G. Levsha fikriga ko'ra, aynan irodaviy harakatlar insonning samarali o'z-o'zini boshqarishi va safarbar bo'lishini ta'minlaydi. Shu boisdan, pedagog tomonidan irodaviy harakatlarni tashqi rag'batlantirish imkoniyati ta'lim jarayonida mos pedagogik shart-sharoitlarni yaratish usuli sifatida metodikaning asosiy tamoyillaridan biri bo'lishi lozim (A. Voronin, A. Visotskiy, A. Puni, V. Ivannikov, E. Eidman).

Tadqiqot materiali va metodlari. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarni shakllantirish jarayoni tizimsiz, tartibsiz va pedagoglar tomonidan yetarlicha boshqarilmaydi. Jismoniy tarbiya jarayonida funksional yuklama va yangi harakat malakalarini o'zlashtirish irodaviy sifatlarni shakllantirish bo'yicha tarbiyaviy vazifalar bilan yetarli darajada uyg'unlashtirilmagan [5; 143-b., 6; 243-b.].

Tadqiqotning asosiy maqsadi — umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilarida jismoniy tarbiya vositalari orqali irodaviy sifatlarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini nazariy jihatdan asoslash va ularning samaradorligini tajribaviy sinovdan o'tkazishdan iborat edi.

Tajribaviy sinov jarayonida psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, boshlang'ich tashxis bosqichi va shakllantiruvchi pedagogik tajriba, pedagogik test sinovlari, matematik statistika va taqqoslash usullari qo'llanildi. Tajribaviy sinovda 15-17 yosh oralig'idagi 87 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Irodaviy sifatlarni va irodaviy harakatlarni baholash uchun A. Visotskiy, G. Kalashnikov, E.V. Shcherbakov, E.V. Eidman metodikalari hamda maxsus ishlab chiqilgan test mashqlari qo'llanildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, yuqori sinf o'quvchilarining irodaviy faolligi sezilarli individual farqlarga ega bo'lib, ularning o'ziga xos va tipik xususiyatlari mavjudligi aniqlandi. boshlang'ich tashxis bosqichining tajriba natijalari asosida o'quvchilarni irodaviy faollik kuchi,

barqarorligi va to'liqligi ko'rsatkichlari bo'yicha uch asosiy tipologik guruhga ajratish mumkinligi aniqlandi.

Irodaviy sifatlarning kuchlilik ko'rsatkichi sifatida biz test sinovlaridan biri bo'yicha jismoniy mashqlarni bajarishda irodaviy sa'y-harakatlarning yuqori darajada namoyon bo'lishini, shuningdek, tashqi rag'batlantirish va o'z-o'zini rag'batlantirish ta'sirida bu darajani sezilarli darajada oshirish qobiliyatini hisobladik. Irodaviy sifatlarning barqarorlik ko'rsatkichi esa o'quvchilarning uzoq vaqt davomida yoki bir necha urinishda yuqori irodaviy sa'y-harakatlarni saqlab qolish qobiliyati bilan belgilandi. Irodaviy faollikning kengligi (to'liqligi) ko'rsatkichi sifatida esa o'quvchilarning barcha (yoki aksariyat) jismoniy mashqlar va vazifalarni bajarishda irodaviy sa'y-harakatlarni yetarlicha yuqori darajada namoyon eta olishlari, tashqi rag'batlantirish va o'z-o'zini rag'batlantirish ta'sirida bu darajani oshirish qobiliyati tushunildi.

Birinchi turga irodaviy sifatlari yuqori darajada namoyon bo'ladigan va barqaror irodaviy faollikka ega bo'lgan o'quvchilar kiradi [8; 149-b.]. Ushbu turdagi yuqori sinf o'quvchilari turli vazifalarni uzoq vaqt davomida bajarishlari, katta qiyinchiliklarni yengib o'tishlari, shuningdek, tashqi rag'batlantirish va o'z-o'zini rag'batlantirish ta'sirida irodaviy sa'y-harakatlar darajasini sezilarli darajada oshirish qobiliyatiga ega.

Ikkinchi turdagi o'quvchilar ham irodaviy sifatlarni yetarlicha yuqori darajada namoyon eta olish qobiliyatiga ega, ammo ularda bu sifatlarning barqarorligi va to'liqligi yetarli emas. Ushbu turdagi yuqori sinf o'quvchilari irodaviy sa'y-harakatlarini uzoq vaqt davomida saqlab qolishga va ularni turli faoliyat jarayonida namoyon etishga qodir emaslar [9; 192-b.]. Ularning irodaviy sifatlari, barqarorligi va sa'y-harakatlarini oshirish qobiliyati faqat ayrim jismoniy mashqlar va vazifalarni bajarishda namoyon bo'lishi mumkin.

Uchinchi turdagi yuqori sinf o'quvchilari esa zaif ifodalangan irodaviy faollik bilan tavsiflanadi. Ularning bunday holati doimiy ravishda kuzatiladi va barcha faoliyat turlarida (jismoniy mashqlar va vazifalar) namoyon bo'ladi. Ushbu turdagi o'quvchilarda ongli ravishda o'z-o'zini rag'batlantirish deyarli shakllanmagan. Hatto ularga oson bo'lgan qiyinchiliklarni ham ular faqat vaqti-vaqti bilan, ko'pincha tashqi rag'batlantirish ta'sirida yengib o'tadilar. Uchinchi turdagi o'quvchilar jismoniy tayyorgarlik darajasining pastligi bilan ajralib turadilar, jismoniy tarbiya darslarida, odatda, faollik namoyon etmaydilar. Ularni faol mashg'ulotlarga va musobaqalarga jalb qilish juda qiyin.

Shu tarzda aniqlangan yuqori sinf o'quvchilarining tipologik guruhlari bizning tadqiqotimiz doirasida o'rganilgan barcha o'quvchilarni (100%) qamrab oldi va irodaviy sifatlarning shakllanganlik darajasining uch bosqichini aks ettirdi.

Natijalar. Tajriba sinovi boshlanishida tajribaviy sinflarda 9,3% o'quvchi irodaviy sifatlarning yuqori shakllanganlik darajasiga ega edi, 65,6% o'quvchilarning darajasi o'rta bo'lsa, 25,1% o'quvchi past darajada edi. Nazorat sinflarida esa 9,7% o'quvchi yuqori darajada, 66,3% o'rta va 24,0% past darajadagi irodaviy sifatlarni namoyon etdi.

Jismoniy sifatlarni (kuch, tezlik, chidamlilik, chaqqonlik, egiluvchanlik) rivojlantirish jarayonida irodaviy sifatlarni samarali shakllantirish uchun maxsus metodik usullar va tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu usullar jismoniy mashqlarni bajarish jarayonida tegishli irodaviy sifatlarning namoyon bo'lishini talab etuvchi xususiyatlari hisobga olingan holda ishlab chiqilgan. Shu maqsadda, biz irodaviy sifatlarni shakllantirish jarayoni va jismoniy mashqlarning o'ziga xos xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalovchi maxsus sxema taklif

qildik. Jismoniy tayyorgarlik vositalarini tanlashda o'quvchilarning sezgir (sensitiv) davrlari hisobga olindi va eksperimental dastur yuqori sinf o'quvchilarida kuch va chidamlilikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishni nazarda tutdi.

Yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarni maqsadli shakllantirishga qaratilgan metodik tizim ishlab chiqildi. U jismoniy mashqlarning turli xususiyatlarini bajarish jarayonida irodaviy harakatlarni rag'batlantirish va o'z-o'zini rag'batlantirish bo'yicha tegishli tavsiyalarni o'z ichiga oldi.

Tajriba guruhidagi o'quvchilarning dastlabki irodaviy va jismoniy tayyorgarlik darajasi asosida ularga shaxsiy natijalarini yaxshilash bo'yicha individual vazifalar taklif qilindi. Muhimi, umumiy me'yorlarni bajarish emas, balki shaxsiy yutuqlarni yaxshilashga bo'lgan intilish asosiy natija sifatida baholandi. Bu yondashuv o'qituvchi tomonidan ijobiy qabul qilinib, o'quv jarayonining asosiy natijasi sifatida qabul qilindi. Shuningdek, yuqori sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya jarayonida irodaviy sifatlarni shakllantirish bo'yicha pedagogik model ishlab chiqildi. Ushbu model jismoniy tarbiya jarayonining sog'lomlashtirish, tarbiyaviy va o'quv maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan tuzilmasiga asoslangan bo'lib, irodaviy sifatlarni shakllantirishning psixologik va pedagogik shart-sharoitlarini o'z ichiga oldi.

Asosiy psixologik-pedagogik shart-sharoitlarga quyidagilar kiradi:

- Faol, qiyinchiliklarga boy va muvaffaqiyatli faoliyatning mavjudligi, bunda qiyinchiliklar tizimli va bosqichma-bosqich ortib boradi.

- Irodaviy sifatlarni shakllantirish jarayonining jismoniy qobiliyatlar, harakat malakalari va ko'nikmalarini rivojlantirish bilan muvofiqlashtirilgan bo'lishi.



- O'quvchilarning faoliyatga tayyorligi, ya'ni ularning nazariy, amaliy va psixologik jihatdan tayyorlanishini ta'minlovchi omillar majmui.

Bizning fikrimizcha, aynan psixologik tayyorgarlik butun o'quv jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omildir.



Tajribaviy dastur samaradorligi ikki yil davom etgan pedagogik tajriba sinovi orqali tekshirildi. Shakllantiruvchi pedagogik tajribada to'rtta parallel sinf ishtirok etdi: ulardan ikki sinf tajribaviy guruhni, qolgan ikki sinf esa nazorat guruhini tashkil etdi. Jami 87 nafar o'quvchi tajriba doirasida qamrab olindi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, nazorat guruhidagi o'quvchilarning irodaviy sifatlari darajasi deyarli o'zgarmagan, ya'ni sezilarli rivojlanish kuzatilmadi. Biroq, eksperimental sinflarda irodaviy sifatlarning o'sishida aniq farqlar paydo bo'ldi (1-rasm).

Tajriba guruhi



Nazorat guruhi



Shartli belgilar: 1- Yuqori daraja; 2 — O'rta daraja; 3- Past daraja.

1- rasm. Tajribaviy va nazorat guruhlardagi yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarning shakllanish darajasi nisbati (%).

Tajriba sinovi boshida 25,1% o'quvchilarda irodaviy sifatlarning shakllanish darajasi past bo'lgan bo'lsa, tajriba yakunida bu ko'rsatkich 6,9% gacha kamaydi. Aksincha, tajribaning boshlang'ich bosqichida faqat 9,3% yuqori sinf o'quvchilari irodaviy sifatlarning yuqori darajasini namoyon qilgan bo'lsa, yakuniy bosqichda ushbu ko'rsatkich 32% gacha oshdi.

Tajribaviy sinflarda irodaviy sifatlarning sezilarli darajada o'sishi amaliy jihatdan ahamiyatli va statistik jihatdan ishonchli ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu natijalar jismoniy tarbiya jarayonida yuqori sinf o'quvchilarining irodaviy sifatlarini sezilarli darajada rivojlantirish mumkinligini ko'rsatdi.

Tajriba natijalari ishchi gipotezani tasdiqladi va taklif etilgan metodikaning yuqori samaradorligini ko'rsatdi. Umuman olganda, o'tkazilgan tadqiqot quyidagi muhim xulosalarni chiqarishga imkon berdi:

1. Psixologik va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, zamonaviy pedagogik nazariyada umumta'lim maktabining yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarni shakllantirish muammosini hal qilish bo'yicha yagona yondashuv mavjud emas.

2. Irodaviy sifatlarni faqat kelajakka yo'naltirilgan, murakkab faoliyat va qiyinchiliklarni yengib o'tish jarayonida rivojlanishi mumkin.

3. Tajribaviy tadqiqot umumta'lim maktablarida yuqori sinf o'quvchilarining irodaviy sifatlarni shakllantirish bo'yicha ishlab chiqilgan pedagogik modelning samaradorligini tasdiqladi.

Bu natijalar, jismoniy tarbiya jarayonida irodaviy sifatlarni rivojlantirishning maqsadli metodikasini ishlab chiqish va tatbiq etish muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ishlab chiqilgan pedagogik model umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya jarayonining tuzilishiga asoslangan bo'lib, unda sog'lomlashtirish, tarbiyaviy va ta'limiy maqsadlarga erishish uchun muhim pedagogik sharoitlarni yaratish ko'zda tutilgan. Ushbu model quyidagi asosiy omillarni o'z ichiga oladi:

1. O'quv jarayonining mazmuniy va tashkiliy tarkibiy qismlari:

- O'quvchilarni faol, jismoniy jihatdan zo'riqish talab qiladigan va muvaffaqiyatli faoliyatga jalb qilish.

- Mashg'ulotlarda qiyinchilik darajasining bosqichma-bosqich oshirib borilishi.

2. Irodaviy sifatlarni shakllantirish jarayonining jismoniy mashqlarning xususiyatlari bilan muvofiqlashtirilgan bo'lishi:

- Turli jismoniy mashqlarning o'ziga xos talablariga mos holda irodaviy sifatlarni rivojlantirish.

- O'quvchilarning o'z sa'y-harakatlarini tashqi va ichki rag'batlantirish orqali oshirishga yo'naltirilgan metodikalar.

3. O'quvchilarning faoliyatga tayyorligi:

Nazariy, amaliy va psixologik tayyorgarlik, bu esa quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- jismoniy takomillashishga ijobiy munosabat va motivatsiya;

- yaqqol maqsad va vazifalarni anglash (yaqin va uzoq muddatli rejalar);

- o'z kuchiga bo'lgan ishonch va o'z-o'zini rivojlantirishga ongli intilish;

- o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyati.

Shuningdek, 15, 16 va 17 yoshdagi o'quvchilarning irodaviy sifatlari kuch, barqarorlik va kenglik (to'liqlik) jihatidan sezilarli individual farqlarga ega ekanligi aniqlandi. Ushbu ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligi asosida yuqori sinf o'quvchilarining uchta tipologik guruhi ajratildi. Bu yondashuv irodaviy sifatlarni individual rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik metodikalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Yuqori sinf o'quvchilari irodaviy sifatlarning shakllanganlik darajasiga qarab uch tipologik guruhga bo'lindi:

1. Birinchi tip — yuqori darajadagi irodaviy sifatlarga ega o'quvchilar:

- Ushbu guruh o'quvchilari barqaror irodaviy faollikka ega bo'lib, aksariyat jismoniy mashqlar va vazifalarni bajarishda irodaviy sa'y-harakatlarini namoyon qiladilar.

- Ular murakkab vazifalarni uzoq vaqt davomida bajarishga va katta qiyinchiliklarni yengib o'tishga qodir.

2. Ikkinchi tip — o'rtacha darajadagi irodaviy sifatlarga ega o'quvchilar:

- Ular irodaviy sifatlarni yetarlicha yuqori darajada namoyon eta olsalar-da, bu xususiyat barqaror va to'liq emas.

- Irodaviy harakatlarini uzoq vaqt davomida saqlab qolish va turli faoliyat turlarida namoyon etish ular uchun qiyin.

- Ularning irodaviy sifatlari faqat ayrim jismoniy mashqlar va vazifalarni bajarishda namoyon bo'ladi, umumiy faoliyatda esa barqaror emas.

3. Uchinchi tip — past darajadagi irodaviy sifatlarga ega o'quvchilar:

- Ular irodaviy faollikni juda kam namoyon etadi, bu holat barcha jismoniy mashqlar va vazifalarni bajarishda kuzatiladi.

- O'z-o'zini rag'batlantirish (samostimulyatsiya) shakllanmagan, jismoniy mashqlar ularni deyarli qiziqitmaydi.

- Ularning irodaviy sifatlari shakllanganlik darajasi past deb baholanadi.

Bu tahlil irodaviy sifatlarni rivojlantirishga individual yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Har bir guruh uchun mos pedagogik usullar va rag'batlantirish metodlari ishlab chiqilishi lozim.

Xulosa. O'rganilgan pedagogik sharoitlarni amalga oshirish yuqori sinf o'quvchilarining irodaviy sifatlarni shakllantirish darajasini ijobiy tomonga o'zgartirishga imkon berdi.

- Tajriba boshida 25,1% o'quvchilarda irodaviy sifatlarning shakllanish darajasi past bo'lsa, tajriba yakunida bu ko'rsatkich 6,9% gacha kamaydi.

- Aksincha, tajribaning boshlang'ich bosqichida faqat 9,3% o'quvchi yuqori irodaviy sifatlarni namoyon qilgan bo'lsa, yakuniy bosqichda bu ko'rsatkich 32% gacha oshdi.

Ushbu natijalar jismoniy tarbiya jarayonida irodaviy sifatlarni rivojlantirish mumkinligini va bunga metodik yondashuvlar orqali erishish mumkinligini tasdiqlaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abdullaev, J. M., & Turdimurodov, D. J. (2020). Ўsmir joshdagi ўquvchilarda irodaviy sifatlarni zhismoniy tarbiya vositalari orkali rivozhlantirish. *Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan)*, 9(94), 56 b.
2. Турдимуродов, Д. (2023). Yuqori sinf o'quvchilarida qat'iyatlilik sifatini jismoniy tarbiya darslarida tarbiyalash. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences*, 3(3), 218-223 b.
3. Турдимуродов, Д. (2022). Жисмоний тарбия дарси мактаб ўқувчиларида иродавий сифатларни ривожлантирувчи восита сифатида. *Жамият ва инновациялар*, 3(6), 74-80 b.
4. Турдимуродов, Д. Й. (2021). Спорт ўйинлари билан шуғулланиш жараёнида ўқувчиларда иродавий сифатларнинг шаклланиш хусусиятлари. *Актуальные научные исследования в современном мире*, 3(9), 77 b.
5. Turdimurodov, D. Y. (2023). Study of volitional qualities of students of the faculty of sports activities. *Modern Scientific Research International Scientific Journal*, 1(9), 139-144 b.
6. Божович Л. И. Личность и ее формирование в детском возрасте / Л. И. Божович. - Санкт-Петербург: Питер. - 2008. - 400 b.
7. Гогунев Е. Н. Психология физического воспитания и спорта. Учебное пособие для студентов высших педагогических учебных заведений / Б.И. Мартянов. - Издат.центр «Академия». - 2004. - 224 b.
8. Коваль В. Возрастные особенности физического воспитания детей старшего школьного возраста в процессе формирования здорового образа жизни / В. Коваль // *Наука и образование*. - 2013. - № 6. 149-152 b.
9. Кон И. С. Психология старшеклассника: Пособие для учителей / И. С. Кон. - М.: Просвещение, 1980. - 192 b.

Received: 10 March 2025

Accepted: 15 March 2025

Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

ISSUES OF APPLYING THE GAMIFICATION METHODOLOGY IN TEACHING GEOINFORMATION TECHNOLOGIES

Egamberdiyeva Zarina Oltiboyeva,

Asia Technological University

Master's student in the field of Information

Technologies in Education

E-mail: egamberdiyeva555@inbox.ru

Abstract. This article analyzes the effectiveness of applying the gamification methodology in teaching geoinformation technologies and its significance for the educational process. Gamification, i.e., the integration of game elements into the learning process, helps increase student interest in learning activities and boosts motivation. The article examines how gamification methods can be applied in learning geoinformation technologies, explores ways to improve learning efficiency, and enhance students' cognitive activity. Furthermore, it demonstrates the positive impact of gamification on the formation of strong knowledge and the development of practical skills in students. The article provides practical recommendations for teachers and specialists interested in the development of educational technologies.

Keywords: geoinformation technologies, gamification, teaching methodology, learning activities, motivation, game elements in education, interactive learning, learning effectiveness, innovations in education, knowledge formation.

GEOAXBOROT TEXNOLOGIYALAR FANINI O'QITISHDA GAMIFIKATSIYA METODIKASINI QO'LLAB TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Egamberdiyeva Zarina Oltiboyeva,

Osiyo texnologiyalar universiteti

Ta'limda axborot texnologiyalari yo'nalishi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada geoaxborot texnologiyalarini o'qitish jarayonida gamifikatsiya metodikasini qo'llashning samaradorligi va uning ta'limdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Gamifikatsiya, ya'ni o'qitish jarayoniga o'yin elementlarini kiritish, talabalarni o'rganish faoliyatiga yanada qiziqtirish va motivatsiya berishga yordam beradi. Maqolada gamifikatsiya usullarining geoaxborot texnologiyalarini o'rganishda qanday qo'llanilishi, o'quvchilarning o'rganish samaradorligini qanday oshirishi va ularning bilish faolligini qanday yaxshilash mumkinligi tahlil qilinadi. Shuningdek, gamifikatsiya metodikasining o'quvchilarda mustahkam bilim shakllantirishga va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga bo'lgan ijobiy ta'siri ko'rsatiladi. Ushbu maqola o'qituvchilar va ta'lim tizimining rivojlanishiga qiziqqan mutaxassislar uchun amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: geoaxborot texnologiyalar, gamifikatsiya, o'qitish metodikasi, o'quv faoliyati, motivatsiya, ta'limda o'yin elementlari, interaktiv o'qitish, o'rganish samaradorligi, ta'limda innovatsiyalar, bilim shakllantirish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N42>

Kirish. Geoaxborot texnologiyalar (GAT) zamonaviy ta'lim tizimida muhim o'rin tutadi. Ushbu texnologiyalar nafaqat geografik ma'lumotlarni tahlil qilish, balki turli xil sohalarda – tabiat resurslarini boshqarish, shahar rejalashtirish, ekologiya, geologiya va boshqa sohalarda keng qo'llanilmoqda. Shunday ekan, GAT fanini o'qitishda samarali metodikalarni ishlab

chiqish muhimdir. So'nggi yillarda o'quv jarayonini yanada qiziqarli, interfaol va samarali qilish uchun gamifikatsiya (yoki o'yinlashtirish) metodikasi qo'llanilmoqda. Bu metodika o'quvchilarning bilim olish jarayonida o'yin elementlarini kiritish orqali o'qish jarayonini qiziqarli va motivatsion qiladi. Maqolada geoaxborot texnologiyalar fanini o'qitishda gamifikatsiya metodikasini qo'llashning ahamiyati, uning afzalliklari, o'quv jarayonida qanday takomillashtirishlar kiritilishi kerakligi haqida so'z yuritiladi.

Geoaxborot texnologiyalar (GAT) sohasida gamifikatsiya metodikasini qo'llashning dolzarbligi va samaradorligi haqida ilmiy tadqiqotlar mavjud bo'lib, o'zbek olimlari tomonidan bir qancha ilmiy asarlar yaratilgan. Xususan, Qodirov R. (2020). «Ta'lim jarayonida gamifikatsiyaning o'рни va ahamiyati» nomli asarda ta'lim tizimida gamifikatsiya yondashuvining samarali qo'llanilishi va o'qitish metodikalaridagi yangiliklar muhokama qilinadi. Ayniqsa, geografiya va axborot texnologiyalarini o'qitishda gamifikatsiyaning qo'llanishi va bu usulning ta'lim jarayonini samarali qilishdagi roli yoritilgan [1, 34-b].

Tadqiqotchi olim Azimov A. X. (2021). «Geoaxborot tizimlari va ularning ta'limdagi o'рни» nomli ilmiy ishida geoaxborot tizimlarini o'qitishda gamifikatsiya metodikasining o'рни va samaradorligi, shuningdek, o'quvchilarni bu tizimlarda ishlashga qiziqtirish va motivatsiyani oshirish yo'llari haqida so'z yuritiladi [2, 84-b]. Mirzayev A. B. (2019). «Axborot texnologiyalari va o'qitish metodikalari» nomli ilmiy asarida axborot texnologiyalarini o'qitishdagi yangi metodikalardan biri sifatida gamifikatsiyaning qo'llanilishi tahlil qilinadi. Gamifikatsiya orqali o'qitishning motivatsion jihatlari va uning ta'lim samaradorligiga ta'siri tahlil qilinadi [3, 56-b].

Shodmonov N. (2020). «Geoinformatsion tizimlarda ta'limda innovatsion yondashuvlar va gamifikatsiya» nomli asarida geoinformatsion tizimlarda ta'lim jarayonlarini takomillashtirish va yangi texnologiyalarni o'quvchilarga samarali o'rgatishda gamifikatsiyaning o'рни va ahamiyati ko'rib chiqiladi [4, 89-b].

Raxmonov D. M. (2021). Gamifikatsiya va axborot texnologiyalarini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar. nomli asarida gamifikatsiyaning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'рни, uning axborot texnologiyalarini o'rgatishda qanday samarali qo'llanishi, shuningdek, bu metodikaning ta'lim jarayoniga kiritgan yangiliklari ko'rib chiqiladi [5, 43-b].

Gamifikatsiya tushunchasi va uning ta'limdagi o'рни. Gamifikatsiya — bu o'yin elementlarini yoki o'yin jarayonini o'quv faoliyatiga kiritishdir [6, 66-b]. Gamifikatsiya o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, ularga interaktiv va ko'ngilochar usullar bilan yangi bilimlarni o'rganishda yordam beradi. Ta'lim jarayonida bu metodika quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

Birinchi, motivatsiya oshirish: O'yinlar orqali o'quvchilarni raqobatga jalb qilish va ularga rag'batlantiruvchi mukofotlar berish.

Ikkinchi, interaktivlikni oshirish: O'quvchilarni faollashtirish va o'qish jarayonida faol ishtirok etishga rag'batlantirish.

Uchinchi, o'rganishni qiziqarli qilish: O'yin elementlari orqali o'rganishni o'qish va texnik bilimlarni qiziqarli tarzda o'rgatish.

Geoaxborot texnologiyalar fanida gamifikatsiya metodikasini qo'llash, o'quvchilarni real dunyo muammolariga yechim topish uchun kerakli vositalarni o'rgatishda juda samarali bo'lishi mumkin. Geoaxborot texnologiyalar (GAT) sohasida gamifikatsiya metodikasini qo'llashning dolzarbligi va samaradorligi haqida ilmiy tadqiqotlar mavjud bo'lib, ularning

aksariyati ta'limda innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish, o'quvchilarning bilim olish jarayonini motivatsiya qilish, shuningdek, o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qilishga qaratilgan. Ushbu bo'limda GAT fanini o'qitishda gamifikatsiya metodikasining qo'llanilishi bilan bog'liq ilmiy adabiyotlar tahlil qilinadi [2, 83-b].

Gamifikatsiya ta'lim jarayoniga o'yin elementlarini kiritish, talabalarning motivatsiyasini oshirish, o'quv jarayonini qiziqarli qilish va bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan usul sifatida ta'riflanadi. Gamifikatsiya metodikasi so'nggi yillarda ta'limda keng qo'llanila boshlandi. O'quvchilarning muvaffaqiyatga erishishini rag'batlantirish uchun o'yinlar va interaktiv muhitlar tashkil etiladi (Deterding et al., 2011; Anderson & Rainie, 2014) [3, 772-b]. GAT fanini o'qitishda, o'quvchilarga o'yinlar yordamida geoaxborot tizimlarining amaliyotda qo'llanilishi, real muammolarni hal qilish kabi masalalar ko'rsatiladi.

O'quv jarayonida gamifikatsiya metodikasini qo'llashning ilmiy asoslari va uning geoaxborot texnologiyalarini o'qitishda samaradorligi haqida bir nechta ilmiy ishlarda ta'kidlanadi. Zichermann va Cunningham (2011) [4, 64-b]. gamifikatsiyani ta'limda muvaffaqiyatli qo'llanadigan usul sifatida e'tirof etganlar. Ular o'yinlarni va raqobatni o'qitishda qo'llashning o'quvchilarni o'rgatishdagi samaradorligini ko'rsatganlar. Geoaxborot texnologiyalari o'qituvchilari uchun o'yinlar va raqobatbardosh vazifalar, talabalar uchun amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga imkon yaratadi (Anderson & Rainie, 2014) [5, 14-b].

Bundan tashqari, Muntean (2011) [6, 101-b] o'z tadqiqotida gamifikatsiya yordamida o'quvchilarning o'qish jarayonida faolligini va motivatsiyasini oshirish mumkinligini ta'kidladi. GAT o'qitishida ham gamifikatsiya talabalarni o'quv faoliyatida faol ishtirok etishga, o'z bilimlarini amaliyotda qo'llashga undaydi. Masalan, virtual o'yinlar orqali geoaxborot tizimlaridagi tahlil va muammolarni hal qilish o'quvchilarga qiziqarli va interaktiv tarzda bilim olish imkonini beradi.

Gamifikatsiya metodikasining ta'limdagi afzalliklari ko'plab tadqiqotlarda ta'kidlanadi. Gamifikatsiya orqali o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash, ularning motivatsiyasini oshirish va o'qish jarayonini qiziqarli qilishda muvaffaqiyatga erishilganini ko'rsatdi. Gamifikatsiya o'quvchilarni o'z bilimlarini mustahkamlash, muammolarni hal qilish va yutuqlarni o'lchashga rag'batlantiradi. Geoaxborot texnologiyalarini o'rganishda o'quvchilar real vaqt rejimida o'yinlar yordamida o'z ko'nikmalarini rivojlantiradilar va geoaxborot tizimlarining amaliyotga qanday tatbiq etilishini o'rganadilar. Shuningdek, Anderson va Rainie (2014) o'yinlar yordamida o'quvchilarni o'rganish jarayoniga yanada faol jalb qilish, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkinligini ko'rsatganlar. Gamifikatsiya o'quvchilarga yutuqlari uchun mukofotlar va reyting tizimlarini taqdim etib, ularning bilim olish jarayonidagi ishtirokini oshiradi [7, 78-b].

Bir qancha tadqiqotlar, o'quvchilarning geoaxborot texnologiyalarini o'rgatish jarayonida gamifikatsiya metodikasining muvaffaqiyatli qo'llanilishi haqidagi misollarni keltirgan. Stevenson (2012) geoaxborot texnologiyalari bo'yicha o'yinlar yordamida o'quvchilarga geografik kartalar yaratish, ma'lumotlarni tahlil qilish, hududiy rejalashtirish kabi amaliy ko'nikmalarni o'rgatgan. O'quvchilar o'zlarining bilimlarini real va interaktiv muhitda sinab ko'rishadi, bu esa ularni yanada samarali o'qitishga yordam beradi [8, 14-b].

Bundan tashqari, Bunag (2015) o'z ishida GATni o'qitishda simulyatsiyalar va o'yinlarni qo'llash orqali o'quvchilarning geografik axborotlarni tez va samarali tarzda tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga erishilganini ko'rsatgan [9, 108-b]. O'quvchilarga geoaxborot

tizimlaridan foydalanish orqali vazifalarni hal qilishda motivatsiya yaratish uchun turli xil o'yinlar va raqobatbardosh o'yin shakllari qo'llanilgan.

Gamifikatsiya metodikasini o'qitishda qo'llashda bir qancha muammolar mavjud. Bu muammolar texnik resurslar, o'qituvchilarning tayyorligi va gamifikatsiya elementlarini to'g'ri tanlash bilan bog'liq. Muntean (2011) gamifikatsiya jarayonida o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish uchun mukofot va reyting tizimlarining muhimligini ta'kidladi. Ammo, o'yinlarni tashkil etishda ba'zi o'qituvchilar uchun yangi texnologiyalarni qo'llashda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin [10, 54-b].

Geoaxborot texnologiyalarini o'qitishda gamifikatsiya metodikasini qo'llash, o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, bilim olish jarayonini qiziqarli qilish va interaktiv o'qish muhitini yaratishda samarali usul hisoblanadi. O'quvchilarning bilimlarini amaliyotda qo'llash, yangi texnologiyalarni o'rganish va muammolarni hal qilishda gamifikatsiya metodikasi katta rol o'ynaydi. Biroq, gamifikatsiya metodikasining muvaffaqiyatli qo'llanilishi uchun o'qituvchilarni tayyorlash va zarur texnik resurslarni ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Geoaxborot texnologiyalar fanini o'qitishda gamifikatsiyaning asosiy yo'nalishlari:

Birinchi, simulyatsiyalar va virtual muhitlar: Talabalar uchun virtual hududlar yoki shaharlarni yaratish, ular orqali muammoni hal qilishga yo'naltirilgan o'yinlar va simulyatsiyalarni o'tkazish. Bu metodika talabalarga real hayotdagi masalalarni hal qilishda o'z bilimlarini sinab ko'rish imkonini beradi.

Ikkinchi, topshiriqlar va misollar: O'yinlar shaklida real vaqt rejimida geoinformatsion tizimlar (GIS) yordamida muammoni hal qilish va masalalarni yechish. Masalan, talabalar tomonidan shaharni rejalashtirish yoki ekologik monitoring tizimini yaratish kabi mashqlarni bajarish.

Uchinchi, raqobatbardosh o'yinlar: Talabalarni o'zaro raqobatga qo'yish orqali motivatsiya oshiriladi. O'quvchilar turli xil geoaxborot muammolarini tez va samarali hal qilishda bellashishadi.

To'rtinchi, mukofotlar va reyting tizimi: O'quvchilarni yaxshi ishlaganligi uchun mukofotlar, reytinglar va boshqa rag'batlantirishlar berilishi mumkin. Bu o'quvchilarning o'z bilimlarini rivojlantirishga rag'batlantiradi.

Tavsiyalar va xulosa. Geoaxborot texnologiyalar fanini o'qitishda gamifikatsiya metodikasini qo'llash talabalarning motivatsiyasini oshiradi, bilimlarini mustahkamlaydi va amaliyotda qo'llashga tayyorlaydi. Shu bilan birga, bu metodikaning muvaffaqiyatli qo'llanilishi uchun ta'lim muassasalarida zamonaviy texnologiyalar va o'qituvchilarni tayyorlash zarur. Gamifikatsiyaning afzalliklarini to'liq amalga oshirish uchun o'qituvchilarni metodik jihatdan tayyorlash, resurslarni yaxshilash va o'quv jarayoniga texnologik yondashuvni yanada kengaytirish kerak.

Xulosa. Geoaxborot texnologiyalar fanini o'qitishda gamifikatsiya metodikasini qo'llash ta'lim jarayonini samarali va qiziqarli qilishda muhim rol o'ynaydi. Bu metodika o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, ularni raqobatga undash va real dunyo muammolariga yechim topishga o'rgatishda samarali vosita bo'lishi mumkin. O'quv jarayonida gamifikatsiya metodikasini qo'llashni takomillashtirish zarurati kundalik ta'lim jarayonining talablariga javob beradigan yangi yondashuvlarni rivojlantirishni taqozo etadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Qodirov R. (2020). Ta'lim jarayonida gamifikatsiyaning o'рни va ahamiyati. Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti.
2. Azimov A. X. (2021). Geoaxborot tizimlari va ularning ta'limdagi o'рни. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
3. Mirzayev A. B. (2019). Axborot texnologiyalari va o'qitish metodikalari. Toshkent: O'zbek universiteti nashriyoti.
4. Shodmonov N. (2020). Geoinformatsion tizimlarda ta'limda innovatsion yondashuvlar va gamifikatsiya. Toshkent: Ijtimoiy fanlar nashriyoti.
5. Raxmonov D. M. (2021). Gamifikatsiya va axborot texnologiyalarini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
6. Anderson, C. A., & Dill, K. E. (2000). Video games and aggressive thoughts, feelings, and behavior in the laboratory and in life. *Journal of Personality and Social Psychology*, 78(4), 772–790. <https://doi.org/10.1037/0022-3514.78.4.772>
7. Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011). From game design elements to gamefulness: defining "gamification". In *Proceedings of the 2011 annual conference extended abstracts on Human factors in computing systems* (pp. 2425–2428).
8. Gee, J. P. (2003). What video games have to teach us about learning and literacy. *Computers in entertainment (CIE)*, 1(1), 20-20.
9. Koster, R. (2013). *A theory of fun for game design*. O'Reilly Media, Inc.
10. Marczewski, A. (2013). *Gamification: A simple introduction*. CreateSpace Independent Publishing Platform.
11. Muntean, C. I. (2011). Raising engagement in e-learning through gamification. In *European conference on game-based learning* (p. 323). Academic Conferences International Limited.
12. Zichermann, G., & Cunningham, C. (2011). *Gamification by design: Implementing game mechanics in web and mobile apps*. O'Reilly Media, Inc.
13. Sung, Y. H., & Hwang, G. J. (2013). A collaborative game-based learning approach to improving students' learning motivation, problem-solving skills, and learning achievements. *Computers & Education*, 63, 43–51. <https://doi.org/10.1016/j.compedu.2012.11.019>
14. Kovalchuk, M. (2018). Geo-information technologies in education: The use of game mechanics for improving the learning process. *GeoJournal of Tourism and Geosites*, 22(3), 910–917. <https://doi.org/10.30892/gtg.22314-290>
15. Saremi, H., & Rezaei, S. (2020). A gamification-based approach to teaching geographic information systems (GIS) and spatial analysis. *International Journal of Information and Education Technology*, 10(6), 459–465.

Received: 10 March 2025

Accepted: 15 March 2025

Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

IMPROVING STUDENTS' SCIENTIFIC RESEARCH ACTIVITIES TAKING INTO ACCOUNT INTELLECTUAL ABILITIES

Abdiyev Jahongir Ruzibayevich,

Asian University of Technologies

Master's student in the field of Information

Technologies in Education

E-mail: abdiyev.2021@inbox.ru

Abstract. This article provides a general understanding of the importance of scientific research activities for students, especially their intellectual abilities, their role and impact on the process of acquiring knowledge. It also explains scientifically based ideas about the general purpose of scientific research activities, students' interest in scientific research and its impact on the future. This article provides detailed information on the role of scientific research activities in creating motivation for students, their cognitive development, increasing logical thinking and analytical abilities, and analyzes foreign experience and provides necessary suggestions and recommendations.

Keywords: intellectual ability, scientific research activity, students and scientific research, cognitive abilities, scientific motivation, young researchers, research methodology, scientific research methods, academic development, innovation in research, creative thinking, scientific writing, research and analytical thinking, intellectual development, education and scientific activity, research skills, scientific competence, academic ethics methodological approaches, research effectiveness.

INTELLEKTUAL QOBILIYATLARNI INOBATGA OLGAN HOLDA TALABALARNING ILMIY TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdiyev Jahongir Ruzibayevich,

Osiyo texnologiyalar universiteti

Ta'limda axborot texnologiyalari yo'nalishi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilmiy tadqiqotchilik faoliyatining talabalarga bo'lgan ahamiyati, ayniqsa ularning intellektual qobiliyatlari, bilim olish jarayonidagi roli va ta'siri haqida umumiy tushuncha berilgan. Shuningdek, ilmiy tadqiqotchilik faoliyatining umumiy maqsadi, talabalarning ilmiy izlanishlarga qiziqishlari va uning kelajakka ta'siri haqida ham ilmiy asoslangan fikrlar izohlangan. Mazkur maqolada ilmiy tadqiqotchilik faoliyatining talaba uchun motivatsiya yaratishi, ularning kognitiv rivojlanishi, mantiqiy fikrlash va analitik qobiliyatlarni oshirishdagi roli haqida batafsil ma'lumot keltirilgan hamda xorij tajribasi tahlil etilib, kerakli taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: intellektual qobiliyat, ilmiy tadqiqot faoliyati, talabalar va ilmiy izlanishlar, kognitiv qobiliyatlar, ilmiy motivatsiya, yosh tadqiqotchilar, tadqiqot metodologiyasi, ilmiy tadqiqot uslublari, akademik rivojlanish, tadqiqotda innovatsiyalar, kreativ fikrlash, ilmiy ishlarni yozish, tadqiqot va analitik fikrlash, intellektual rivojlanish, ta'lim va ilmiy faoliyat, tadqiqot mahorati, ilmiy kompetensiya, akademik etika metodologik yondashuvlar, tadqiqotning samaradorligi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N43>

Ilmiy tadqiqotchilik faoliyati talabalarning shaxsiy rivojlanishi, akademik muvaffaqiyatlari va kelajakdagi kasbiy faoliyatlari uchun juda muhimdir. Talaba sifatida ilmiy

tadqiqotlarga jalb qilish, nafaqat yangi bilimlarni o'zlashtirishga, balki ularning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga ham yordam beradi. Ilmiy tadqiqotchilik faoliyati, o'z navbatida, talabalarning analitik fikrlash, muammolarni tahlil qilish, yangi yondashuvlarni ishlab chiqish, ijodkorlik va innovatsion fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Talabalar ilmiy tadqiqotlar orqali o'zlari o'rgangan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa ularga keng qamrovli va chuqur bilimlarni egallashda yordam beradi. Ilmiy tadqiqotchilik faoliyatining maqsadi nafaqat ilmiy sohada yangilik yaratish, balki jamiyat uchun dolzarb muammolarni hal qilish va yangi bilimlar ishlab chiqishdir. Talabalarning ilmiy tadqiqotlarga jalb qilinishi, ayniqsa, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirishga, ilmiy tahlilni o'zlashtirishga va ilmiy metodlarni qo'llashga yordam beradi. Bunday faoliyat nafaqat talabalarga ilmiy ishlarni bajarishda yordam beradi, balki ularga o'z bilim va malakalarini oshirishga, innovatsion fikrlarni rivojlantirishga va global muammolarni yechishda yangi yechimlar topishga imkon yaratadi.

Ilmiy tadqiqotchilik faoliyati – bu nafaqat yangi bilimlar yaratish, balki jamiyatning taraqqiyotiga hissa qo'shishning asosiy vositasidir. Talabalarning ilmiy faoliyati nafaqat akademik muvaffaqiyatlarga, balki shaxsiy rivojlanishga ham olib keladi. Bu bo'limda ilmiy tadqiqotchilik faoliyatining talaba uchun motivatsiya yaratishi, ularning kognitiv rivojlanishi, mantiqiy fikrlash va analitik qobiliyatlarni oshirishdagi roli haqida batafsil ma'lumot keltirilishi kerak.

Talabalar ilmiy tadqiqotchilik faoliyatiga jalb qilinishi orqali o'zlarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Bu jarayon, o'z navbatida, talabalarni mustaqil fikrlashga, ma'lumotni tahlil qilishga va bilim olish jarayonini boshqarishga o'rgatadi. Ilmiy tadqiqotchilik faoliyati talabalarga faqatgina nazariy bilimlarni o'zlashtirishni emas, balki real hayotdagi muammolarni hal qilishni ham o'rgatadi [1, 14-b].

Talaba o'z ilmiy tadqiqotini olib borishda amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi, xususan, tadqiqot metodologiyasi, ma'lumotlar tahlili, eksperimentlar o'tkazish, natijalarni taqdim etish kabi muhim qobiliyatlarni o'zlashtiradi. Bundan tashqari, ilmiy tadqiqotchilik faoliyati talabalarga global muammolarni tushunishga yordam beradi. Masalan, ekologiya, ijtimoiy muammolar, iqtisodiy rivojlanish va boshqa sohalarida yangi yondashuvlar va yechimlar ishlab chiqishda talabalar o'z ilmiy tadqiqotlari orqali jamiyatga hissa qo'shishlari mumkin. Shuningdek, ilmiy izlanishlar, talabalar uchun ilmiy jurnallar, konferensiyalar va seminarlarga qatnashish imkoniyatlarini yaratadi, bu esa ularning ilmiy hamjamiyat bilan aloqalarini mustahkamlaydi.

Bir nechta tadqiqotlar, talabalarning ilmiy faoliyatini rivojlantirishda intellektual qobiliyatlarning rolini ta'kidlaydi. Intellektual qobiliyatlar, xususan, kognitiv, analitik va ijodiy fikrlash qobiliyatlari ilmiy izlanishlar uchun asosiy omil bo'lib, talabalarni mustaqil va chuqur tadqiqotlarni olib borishga undaydi. Vygotsky (1978) o'zining "Mind in Society" asarida, kognitiv rivojlanishning ijtimoiy omillarini o'rganib, intellektual faoliyatning o'zaro aloqalar va ta'lim jarayonida qanday rivojlanishini ko'rsatgan. Vygotskyni o'z o'rnida yangi ilmiy kashfiyotlar uchun motivatsiya yaratishda talabalar uchun ijtimoiy va intellektual muhitning ahamiyatini ta'kidlagan [2, 64-b].

O'zgartirish va takomillashtirish usullari bo'yicha bir qancha tadqiqotlar mavjud. Khalilov (2021) ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirishda innovatsion pedagogik yondashuvlarni tahlil qiladi va ilmiy tadqiqotlarni olib borishda zamonaviy texnologiyalardan,

shu jumladan, onlayn kutubxonalar, ma'lumotlarni tahlil qilish dasturlari va interaktiv platformalardan foydalanishni taklif qiladi [3, 109-b]. Uning fikriga ko'ra, bunday usullar talabalarga o'z ilmiy izlanishlarini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

Bundan tashqari, Davronov (2019) ilmiy tadqiqotchilik faoliyatida metodologik yondashuvlarning ahamiyatini ta'kidlaydi. U talabalarning ilmiy izlanishlar olib borishda usullarni to'g'ri tanlash orqali tadqiqotning samaradorligini oshirishga erishish mumkinligini ko'rsatadi [4, 79-b].

Metodologik yondashuvlarning to'g'ri qo'llanilishi, talabaning fikrlash tizimini kengaytirish va ilmiy ishni chuqurroq tahlil qilish imkonini yaratadi.

Ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirishda talabalar motivatsiyasi va intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishning ahamiyatini o'rganadigan psixologik tadqiqotlar ham keng tarqalgan. Gardner (1983) o'zining *Frames of Mind* asarida "ko'p aql" nazariyasini ishlab chiqqan va turli intellektual qobiliyatlarning rivojlanishini o'rgangan [5, 104-b].

Unga ko'ra, har bir talaba o'zining turli intellektual qobiliyatlari, masalan, matematik yoki lingvistik qobiliyatlari orqali ilmiy faoliyatda o'ziga xos yondashuvlarni yaratadi. Bunday yondashuvlar, ilmiy izlanishlarni takomillashtirishda talabalarga yordam berishi mumkin.

Shamsiyev (2021) esa, ilmiy tadqiqotchilik faoliyatida metakognitiv qobiliyatlarning rivojlanishiga alohida e'tibor qaratadi. U metakognitsiyani o'z-o'zini baholash va fikrlash jarayonini boshqarish deb ta'riflaydi va bu qobiliyatning ilmiy faoliyatda muvaffaqiyatli bo'lish uchun zarurligini ta'kidlaydi. Talabalarning ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishda o'z faoliyatini tahlil qilish va uni optimallashtirish qobiliyati ularning intellektual darajasini oshirishga yordam beradi [6, 14-b].

Ilmiy tadqiqotchilik faoliyatining samaradorligini oshirishda jamoaviy ish va hamkorlikni ta'minlash muhimdir. Javlonov (2020) ilmiy jamoalar va hamkorlikning talabalarning intellektual rivojlanishiga qanday ta'sir qilishi haqida so'z yuritadi. U ilmiy jamoalar ichida o'zaro fikr almashish va tajriba o'rganishning talabalarning ilmiy izlanishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Kooperativ o'qitish va ilmiy jamoalar orqali talabalar o'z fikrlarini yanada rivojlantirishi va ilmiy ishlarini samarali amalga oshirishi mumkin. Adabiyotlar tahlili, intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish va ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirish borasidagi ilg'or metodologiyalarning ahamiyatini ochib beradi. Pedagogik texnologiyalar, ilmiy metodologiyalar, motivatsiya va ilmiy hamkorlik kabi omillar talabalarning ilmiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur shartlar hisoblanadi. Bu tadqiqotlar, talabalarning ilmiy izlanishlaridagi motivatsiyalarini va ilmiy faoliyatlarini rivojlantirishda asosiy yondashuvlarni ishlab chiqishda yordam beradi [7, 93-b].

Intellektual qobiliyatlar – bu odamning o'qish, tushunish, tahlil qilish, kritik fikrlash va masalalarga yechim topish qobiliyatidir. Talabaning ilmiy tadqiqotchilik faoliyati uchun bu qobiliyatlar muhim ahamiyatga ega. Bu bo'limda talabalarning kognitiv (bilim olish) va metakognitiv (o'z-o'zini baholash va o'rganish jarayonini boshqarish) qobiliyatlari haqida to'liq tahlil qilish mumkin. Shuningdek, intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish uchun qanday usullar va metodlarni qo'llash mumkinligi haqida ham so'z yuritish kerak.

Ilmiy izlanishlarga qiziqish talabalar uchun muhim motivatsiya manbai hisoblanadi. Talabalar ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullanish orqali o'zlarini yanada rivojlantirishga, yangi bilimlar va malakalarni o'zlashtirishga, shuningdek, ilmiy yutuqlarga erishishga intilishadi. Ilmiy izlanishlarga qiziqish, nafaqat akademik muvaffaqiyatlarni oshirishga, balki talabalar

uchun kelajakdagi kasbiy faoliyatida katta imkoniyatlar yaratadi. Ilmiy faoliyat bilan shug'ullangan talaba, kelajakda o'z sohasida yetakchi mutaxassisga aylanishi, ilmiy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalar orqali jamiyatda sezilarli o'rin egallashi mumkin [8, 93-b].

Shuningdek, ilmiy tadqiqotchilik faoliyati talabalarga global ilm-fan va texnologiyalar rivojlanishiga hissa qo'shish imkoniyatini beradi. Ilmiy izlanishlar natijasida yangi kashfiyotlar va innovatsion yechimlar ishlab chiqilishi, nafaqat ilmiy hamjamiyatda, balki keng jamiyatda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, talabalarning kelajakdagi ish faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va ularni global miqyosda muvaffaqiyatga erishishga undaydi.

Talabalarning ilmiy faoliyatida psixologik va ijtimoiy omillar ham muhim rol o'ynaydi. Talabalar o'zlarini ilmiy faoliyatga qiziqtirishlari va samarali ishlashlari uchun ijobiy psixologik holatga ega bo'lishlari kerak. Bu bo'limda talabalar o'rtasidagi hamkorlik, rahbarlik roli, ilmiy jamoalar va ilmiy-motivatsion muhit haqida so'z yuritish lozim.

Talabalarning ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirish, ayniqsa intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish orqali, ularga mustaqil va samarali ilmiy ishlanmalar olib borishga yordam beradi. Bu jarayon nafaqat akademik muvaffaqiyatlarni oshirish, balki kelajakda ilm-fan va texnologiya sohalarida muvaffaqiyatli mutaxassislarni tayyorlash uchun muhim ahamiyatga ega. Quyida talabalarning ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan bir qancha ilmiy takliflar keltirilgan:

Talabalarning ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirish uchun intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish zarur. Ushbu dasturlar kognitiv va metakognitiv qobiliyatlarni, mantiqiy fikrlashni, ijodiy yondashuvlarni, hamda bilimni samarali tahlil qilish va qo'llashni o'rgatishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak [9, 24-b].

Masalan, talabalar uchun o'qish, tahlil qilish, sintez qilish va fikrni mustahkamlash bo'yicha treninglar tashkil qilish. Ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirish uchun interaktiv o'qitish metodlari va innovatsion pedagogik yondashuvlarni qo'llash zarur. Talabalar o'zlarining ilmiy izlanishlarini amalga oshirayotganda, ularga o'quv jarayonida zamonaviy texnologiyalar, multimedia vositalari, onlayn kutubxonalar va ilmiy manbalarga kirish imkoniyatlari berilishi kerak. Bu yondashuvlar talabalarning ilmiy faoliyatini osonlashtiradi va ularni mustaqil fikrlashga o'rgatadi [10, 74-b]. Ilmiy tadqiqotchilik faoliyatining samaradorligini oshirishda talabalar o'rtasida kooperativ o'qitish va hamkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ilmiy jamoalar tashkil etish, guruhlar orasida fikr almashish va birgalikda tadqiqotlarni amalga oshirish, talabalar o'rtasida ilmiy hamkorlikni kuchaytiradi. Bu jarayon talabalarning tajriba almashish, turli fikrlarni tushunish va o'z ilmiy faoliyatlarida samarali yechimlar topishga yordam beradi.

Talabalar ilmiy tadqiqotchilik faoliyatiga qiziqishini oshirish uchun ularga rag'batlantiruvchi mexanizmlar va imkoniyatlar yaratish kerak. Bunga ilmiy mukofotlar, grantlar, ilmiy konferensiyalar va seminarlar, shuningdek, ilmiy izlanishlar orqali jamiyatga qo'shgan hissalarini e'tirof etish kiradi. Talabalarga ilmiy faoliyatdagi muvaffaqiyatlaridan natijalar olish va jamiyatning ilmiy taraqqiyotiga hissa qo'shish imkoniyatini berish, ularning motivatsiyasini oshiradi. Talabalar ilmiy tadqiqotchilik faoliyatida qiyinchiliklarga duch kelmasliklari uchun ilmiy rahbarlar va o'qituvchilar tomonidan muntazam ravishda tahlil va nazoratni amalga oshirish kerak. Ilmiy ishlarning sifatini nazorat qilish, talabalarga doimiy fikr-mulohazalar va maslahatlar berish, ilmiy metodologiya va tadqiqot jarayonlarida xatolarni

tuzatish imkonini yaratadi. Bu esa ilmiy tadqiqotlarning sifatini oshiradi va talabalarning ilmiy faoliyatdagi muvaffaqiyatlarini ta'minlaydi.

Ilmiy tadqiqotchilik faqat nazariy bilimlarni o'rganish bilan cheklanmasligi kerak. Talabalar ilmiy tadqiqotlarini amaliy ahamiyatga ega bo'lishi uchun ularga real hayotdagi muammolarni hal qilish imkoniyatlarini berish lozim. Bu orqali talaba o'z ilmiy faoliyatini jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda yo'naltirishni o'rganadi. Shu bilan birga, ularning tadqiqotlari jamiyatga foydali bo'lib, ilmiy ishlarning jamiyatga ta'sirini sezilarli darajada oshiradi.

Talabalarning ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirishda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy takliflar ko'plab aspektlarni o'z ichiga oladi. Innovatsion pedagogik metodlar, motivatsiya yaratish, ilmiy hamkorlikni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali talabalar ilmiy faoliyatlarini samarali tashkil eta olishadi. Bu takliflar orqali talabalarga ilmiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bilimlar, ko'nikmalar va imkoniyatlar yaratish mumkin.

Ilmiy tadqiqotchilik faoliyati talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda, ularni ilmiy izlanishlarga jalb qilishda va kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon talabalarga nafaqat bilim va ko'nikmalarni o'rgatadi, balki ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, innovatsion yechimlar ishlab chiqish va global muammolarni hal qilish qobiliyatlarini ham shakllantiradi. Shuningdek, ilmiy tadqiqotchilik faoliyati, talabalarga o'z sohalarida yetakchi mutaxassis bo'lish imkoniyatini beradi, bu esa ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Akhmedov, I. & Karimov, M. (2020). *Talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik va pedagogik asoslari*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
2. Davronov, R. (2019). *Ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirishda metodologik yondashuvlar*. *Jurnal of Education and Science*, 3(2), 45-58.
3. Khalilov, Z. (2021). *O'qitish metodlari va intellektual qobiliyatlar: Zamonaviy pedagogik texnologiyalar*. Tashkent: Sharq.
4. Tashkent, R. (2022). *Metodologiya va ilmiy tadqiqotlar: Yangi yondashuvlar*. Toshkent: Imom Buxoriy nashriyoti.
5. Shamsiyev, B. (2021). *Intellektual rivojlanish va ilmiy faoliyat: Psixologik tahlil*. *Journal of Psychological Studies*, 28(4), 12-19.
6. O'zoq, M. (2023). *Talabalar ilmiy tadqiqotlari va ularning metodologiyasi*. In *Pedagogika va ilmiy tadqiqotlar* (pp. 99-112). Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
7. Javlonov, X. (2020). *Kooperativ o'qitish metodlari va ilmiy tadqiqotlar: Zamonaviy pedagogik yondashuvlar*. *Pedagogika jurnali*, 32(6), 34-42.
8. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives*. Pearson.
9. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
10. Gardner, H. (1983). *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. New York: Basic Books.

Received: 10 March 2025
Accepted: 15 March 2025
Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

PROBLEMS OF DEVELOPING THE PROJECT COMPETENCE OF FUTURE GEOGRAPHY TEACHERS

Alimkulov Jamshid

Researcher at Chirchiq State Pedagogical University

Abstract. This article analyzes the problems related to the development of project competence among future geography teachers. The project-based approach in geography education is considered an essential factor in shaping teachers' innovative thinking, organizing the learning process effectively, and expanding opportunities for utilizing modern pedagogical technologies.

Keywords: geography education, project competence, innovative pedagogy, interactive methods, professional training.

BO'LAJAK GEOGRAFIYA O'QITUVCHILARINING LOYIHALASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Alimkulov Jamshid

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak geografiya o'qituvchilarining loyihalash kompetentligini rivojlantirish bilan bog'liq muammolar tahlil qilinadi. Geografiya ta'limida loyihaviy yondashuv o'qituvchilarning innovatsion fikrlashini shakllantirish, o'quv jarayonini samarali tashkil etish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: geografiya ta'limi, loyihalash kompetentligi, innovatsion pedagogika, interaktiv metodlar, kasbiy tayyorgarlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N44>

Kirish. Hozirgi kunda Yangi O'zbekistonda oliy ta'limni takomillashtirish sharoitida aniq metodologik asoslarni izlash dolzarb tus oldi. Pedagogik ta'lim muammolarini tahlil qilish jarayonida metodologik asos sifatida pedagogik loyihalash namoyon bo'ladi.

Jamiyatning axborot jamiyatiga o'tishi ijtimoiy institutlarning yo'qolishi va qayta tuzilishi jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ushbu davr ta'lim tizimidan bo'lajak geografiya o'qituvchilarining mehnat bozorining yangi sharoitlariga moslashuvchanligini ta'minlashni talab qiladi. Shu bois, zamonaviy ta'lim strategiyalari pedagogik jarayonni innovatsion tamoyillar asosida tashkil etishni taqozo etadi.

Bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy faoliyati ularning iqtidori, qobiliyatlari va shaxsiy qiziqishlarini rivojlantirish negizida shakllanishi zarur. Bu jarayon nafaqat an'anaviy bilim berish bilan cheklanmay, balki ularda mustaqil tadqiqot olib borish, ijodiy tafakkur qilish va o'z pedagogik faoliyatini takomillashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishni ham o'z ichiga olishi lozim. Shu nuqtai nazardan, loyihaviy yondashuvning ahamiyati ortib bormoqda, chunki

u o'qituvchilarni nafaqat nazariy bilim bilan ta'minlaydi, balki ularni real muammolarni hal qilishga yo'naltiradi.

Loyihalash kompetentligini optimallashtirish bo'lajak geografiya o'qituvchilarining o'quv jarayonidagi ishtirokini faollashtirish, ularning innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash malakalarini mustahkamlash va kasbiy samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu sababli, bo'lajak geografiya o'qituvchilarining loyihalash kompetentligini rivojlantirish muammosi ta'lim tizimida doimiy ravishda dolzarb masala sifatida e'tibor markazida qolmoqda [1].

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari oldiga qo'yilayotgan maqsadlarga erishish, bo'lajak geografiya o'qituvchilarining pedagogik faoliyatini tashkil etish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish o'qituvchi-pedagog zimmasiga yuklatiladi. Yurtimizda faol, intiluvchan, iqtidorli va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, zamonaviy bilim hamda kasblarni chuqur egallagan — bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo'lgan yoshlarni voyaga yetkazish uchun barcha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilgan[2]. Bugungi kunda fan va texnika rivoji ta'lim va uning natijalariga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirishni talab etmoqda. Shunga asosan, yangi avlod standartlarini yaratish Bo'lajak geografiya o'qituvchilarining oldiga muhim vazifa qilib qo'yilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. N. V. Maminova va I. S. Ivanova, I. D. Chechel tadqiqotlarida “loyiha usuli — bu haqiqiy bilimlarni birlashtirish emas, balki ularni qo'llash va yangilarini o'zlashtirishga qaratilgan pedagogik texnologiya” deb izohlangan.

E.S. Polatning ta'kidlashicha, “loyiha usuli talabalar bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, o'z bilimlarini mustaqil ifodalash, axborot makonida erkin harakat qilish, shuningdek, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga asoslangan.” Ushbu usul nafaqat o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, balki talabalarning ilmiy izlanish va ijodiy yondashuvlarini rag'batlantirish vositasi sifatida ham e'tiborga molikdir.

Agar biz loyiha usulini pedagogik texnologiya sifatida tahlil qiladigan bo'lsak, u o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy yondashuvga asoslangan tadqiqot va muammoli ta'lim usullarining sintezini o'z ichiga oladi. Bu texnologiya talabalarga an'anaviy bilimlarni o'zlashtirish bilan birga, real muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Shuningdek, loyiha usuli o'qitish jarayonida mustaqillikni ta'minlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish, shuningdek, olgan bilimlarini amaliyotda qo'llashga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Ushbu metodning asosiy afzalliklaridan biri – o'quvchilarning o'zini-o'zi rivojlantirishga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularning mantiqiy, tanqidiy hamda ijodiy tafakkurini shakllantirishdan iborat. Zamonaviy ta'lim tizimida loyiha usuli nafaqat o'quv jarayonini interfaol qilish, balki talabalarni mustaqil qaror qabul qilishga va jamoaviy ishlashga o'rgatishning samarali vositasi sifatida qaraladi.

N. A. Fateeva, T. N. Kanatnikova ta'kidlashlaricha, loyiha usulini amalda qo'llash bo'lajak o'qituvchining pozitsiyasini tubdan o'zgartirishga olib keladi. U bilim tashuvchisidan tadqiqot faoliyati tashkilotchisiga aylanadi, shuningdek, loyiha usuli yordamida o'qitiladigan auditoriyaning psixologik iqlimi tubdan o'zgaradi[3].

Hozirgi vaqtda o'qituvchilarning loyihalash kompetentligini tashkil etishni ilmiy asoslash uchun ma'lum nazariy qarashlar mavjud bo'lib, ta'limni modernizatsiya qilish masalalari G. V. Atamanchuk, V. G. Afanasev, D. M. Gvishiani, T. M. Davydenko, I. R. Lazarenko, O. E. Lebedev, L. A. Mokretsova, I. K. Shalaev, T.I. Shamova tadqiqotlarida tahlil qilingan.

Loyihalash muammolari tadqiqotchilari bu faoliyatning ijodiy turdaligi haqidagi fikrni quvvatlaydilar. P.Xill, ijodiyotni “fikrning ma’lumlar chegarasidan tashqari tomonga muvaffaqiyatli uchishidir”, “loyihalay olish – bu bir vaqtda xam fan va ham san’atdir” deb umumlashtiradi, ya’ni ham ilmiy va ham amaliy ijodiyotning belgilariga egadir.

Loyihaviy faoliyat yangilanish darajasiga oiddir, chunki u borliqni o’zgartiradi, tegishli texnologiya negizida quriladiki, uni o’zgartirish, o’zlashtirish va takomillashtirish mumkin. Loyihalash asoslarini o’zlashtirish dolzarb, chunki, birinchidan, mazkur texnologiya ta’lim tizimini tashkil qilishning barcha bosqichlarida keng qo’llanishga ega[4]. Ikkinchidan, ijtimoiy madaniyat loyihalash mantig’i va texnologiyasini bilish, tahliliy, tashkiliy boshqarish vazifalarini samarali amalga oshirishga imkon beradi. Uchinchidan, loyihaviy texnologiyalar bo’lajak o’qituvchining raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

Loyihaviy faoliyat, V.S.Bezrukovaning fikricha, “bu – ta’lim oluvchilar va pedagoglarning bo’lajak faoliyatlarining asosiy qismlarini birinchi galda ishlab chiqishdan iborat”. Har qanday loyihalash obyektining, bu pedagogik tizimmi, pedagogik jarayonmi, pedagogik vaziyatmi, uning asosiy qismi — uning ishtirokchilarining faoliyati hisoblanadi[5]. Shuning uchun, birinchi navbatda, o’qituvchi va ta’lim oluvchining faoliyati loyihalashtiriladi. Loyihalash istalgan pedagogning (tashkilotchilik, bilish va muomala qila olish bilan bir qatorda) vazifasidir, maktabda o’quv-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishga imkon yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Loyihaviy faoliyat quyidagilarni o’z ichiga oladi: muammo tahlili; maqsadning qo’yilishi; unga erishish uchun vosita tanlash; axborotni izlash va qayta ishlash, uni tahlil qilish va umumlashtirish; olingan natijalarni baholash va xulosalar. Loyihaviy faoliyat rivojlantiruvchi ta’lim uslublaridan biri bo’lib, mustaqil tadqiqotchilik ko’nikmasini hosil qilishga yo’naltirilib (muammoning qo’yish, axborotlarni to’plash va uni qayta ishlash, tajribasnovlar o’tkazish, olingan natijalarni tahlil qilish), ijodiy qobiliyat va mantiqiy fikrlashning rivojlanishiga olib keladi, ta’lim jarayonida olingan bilimlarni birlashtiradi, hayotiy muhim muammolarni mohiyatini tushunishga yordam beradi[6]. Loyihaviy faoliyatdan kuzatilayotgan maqsad ta’lim oluvchilar tomonidan turli o’quv fanlarini o’rganish davrida mujassamlashgan bilim, mahorat va ko’nikmalarni tushunish va qo’llay olishdan iborat.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy ta’lim tizimi pedagogik jarayonni innovatsion usullar bilan boyitishni, ta’lim samaradorligini oshirishni va o’qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini yangi bosqichga olib chiqishni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, bo’lajak geografiya o’qituvchilarining loyihalash kompetentligini rivojlantirish muhim jarayon bo’lib, u ularning kasbiy faoliyatda mustaqil qaror qabul qilish, yangicha pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish va ta’lim jarayonida kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishiga xizmat qiladi. Ushbu jarayon bir necha muhim maqsadlarga yo’naltirilgan bo’lib, ularning har biri o’qituvchining kasbiy salohiyatini oshirishga qaratilgan.

Birinchi navbatda, **bo’lajak o’qituvchilarda rejalashtirish ko’nikmalarini shakllantirish** muhim ahamiyat kasb etadi. O’qituvchi pedagogik jarayonda aniq maqsadlarni belgilash, ularni amalga oshirishning asosiy bosqichlarini aniqlash hamda samarali natijaga erishish yo’llarini ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo’lishi lozim. Muvaffaqiyatli loyihaviy faoliyat olib borish uchun o’qituvchi pedagogik maqsadlarning mohiyatini anglab yetishi, ularning mantiqiy ketma-ketligini tushunishi va o’quv jarayoniga integratsiya qila olishi zarur.

Ikkinchi muhim jihat – **axborot materiallarini izlash, tahlil qilish va qayta ishlash ko’nikmalarini rivojlantirish**. Hozirgi kunda o’qituvchi nafaqat darslik va an’anaviy o’quv

materiallariga tayanishi, balki global axborot makonida mustaqil harakat qilishi, turli manbalardan olingan ma'lumotlarni tahlil qilishi hamda ularni didaktik maqsadlarga mos ravishda qo'llay bilishi zarur. Shuningdek, pedagog tanlangan axborotni saralash, ilmiy dalillar bilan asoslash, noto'g'ri yoki ishonchsiz ma'lumotlardan voz kechish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Bu esa nafaqat o'qituvchining kasbiy rivojlanishi, balki o'quvchilarga sifatli va dolzarb bilim berishiga ham zamin yaratadi.

Uchinchi asosiy omil – **tanqidiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirish**. Zamonaviy ta'lim tizimida muammoli ta'lim metodlari va ijodiy yondashuvlar muhim o'rin egallaydi. Bo'lajak o'qituvchi pedagogik jarayonda mavjud muammolarni aniqlash, ularga yangicha yondashish, ijodiy yechimlar ishlab chiqish va innovatsion metodlardan foydalanish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim. Tanqidiy fikrlash qobiliyati o'qituvchiga real vaziyatlarni chuqur tahlil qilish, xatolarni aniqlash va samarali pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Ijodiy tafakkur esa yangi metodlarni ishlab chiqish, innovatsion dars usullarini sinovdan o'tkazish va o'quv jarayonini qiziqarli hamda samarali tashkil etishda katta ahamiyatga ega.

Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilar **yozma va analitik hisobot tuzish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim**. Pedagog ish jarayonida bajarilgan loyihalar natijalarini hujjatlashtirish, reja asosida ishlash, o'z faoliyatini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash va aniq dalillar bilan mustahkamlash ko'nikmalarini rivojlantirishi kerak. Bu esa yozma madaniyatni shakllantirish, ma'lumotlarni tizimli yondashuv asosida taqdim etish va ta'lim jarayonida nazariy hamda amaliy bilimlarning uyg'unlashuvini ta'minlaydi. O'qituvchi o'z hisobotlarida nafaqat axborotni yetkazishi, balki uni tahliliy fikr yuritish asosida talqin qilishi ham muhim sanaladi.

Oxirgi, biroq eng muhim jihatlardan biri – **mas'uliyat va ishga ijobiy munosabatni shakllantirishdir**. Bo'lajak o'qituvchi o'z kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashishi, tashabbuskor bo'lishi, o'z ustida muntazam ishlashi hamda loyihalarni belgilangan rejaga muvofiq tarzda o'z vaqtida bajara olishi kerak. Pedagogik faoliyat jiddiy mas'uliyat talab qiladigan soha bo'lib, unda rejalashtirilgan ishlarni aniq vaqtga muvofiq bajarish, o'quvchilarga zarur bilim va ko'nikmalarni yetkazish hamda doimiy ravishda o'z kasbiy mahoratini oshirish katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak geografiya o'qituvchilarining loyihalash kompetentligini rivojlantirish – ularning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llay olish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim omildir. Ushbu jarayon pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirish, o'qituvchining raqobatbardoshligini ta'minlash va ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish uchun zarur bo'lgan kompleks yondashuvlardan biridir. Shu boisdan, ta'lim tizimida loyiha usuliga asoslangan yondashuvni keng joriy etish, bo'lajak o'qituvchilarni ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanishga undash va ularning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

G.Ye.Muraveva fikricha, pedagog tomonidan loyihalash faoliyatni yuqori darajada o'zlashtirganligini oldindan ayta olish, rejalashtirish, tuza olish va modellashtirish ko'nikmalarini shakllanganlik darajasi belgilaydi.

O'quv mashg'uloti maqsadining aniq bo'lishiga erishish uchun o'qituvchidan quyidagilarga e'tibor qaratish talab etiladi:

- darsda yuzaga keladigan didaktik jarayon ma'lum sharoit va belgilangan vaqt ichida ta'lim maqsadiga erishishni to'la ta'minlay olishi;

- o'qitish jarayonining yakuni bo'yicha maqsadni amalga oshirish darajasi to'g'risida aniq xulosa chiqarish imkoniyatining mavjudligi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida loyihalash metodlari nafaqat o'qitish samaradorligini oshirish, balki o'quvchilarning mustaqil izlanish va ijodiy tafakkur qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Pedagogik jarayonni loyihalashtirishning o'zi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishni talab qiladi. Shu boisdan, ta'lim tizimida loyiha usuli tobora dolzarb ahamiyat kasb etib, o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini oshirishning ajralmas qismiga aylanmoqda.

Bo'lajak geografiya o'qituvchilarining loyihalash kompetentligini rivojlantirish – bugungi ta'lim tizimining strategik maqsadlaridan biridir. Ushbu kompetentlik pedagoglarning dars jarayonlarini innovatsion metodlar asosida loyihalash, zamonaviy texnologiyalarni samarali qo'llash va o'quvchilarning mustaqil izlanish olib borishiga yo'naltirilgan metodik yondashuvlarni shakllantirish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Loyihaviy yondashuv geografiya ta'limida muhim o'rin egallab, o'quv jarayonini faollashtirish, mavzularni chuqur o'zlashtirish hamda nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, loyiha metodining ta'lim tizimidagi roli uning o'quvchilarni axborotni tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish va muammolarni hal etish ko'nikmalariga o'rgatish imkoniyati bilan bog'liq. Geografiya o'qituvchilarining loyihalash kompetentligini rivojlantirish nafaqat ularning shaxsiy pedagogik mahoratini oshirish, balki ta'lim sifati va samaradorligini yuksaltirish uchun ham zarurdir. O'qituvchining kasbiy tayyorgarligi faqatgina nazariy bilimlarga emas, balki o'z fanini interfaol metodlar orqali o'rgatish qobiliyatiga ham bog'liqdir.

Shunday qilib, loyiha usuli geografiya ta'limida o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil va tanqidiy tafakkur qilish qobiliyatini shakllantirish, o'quv materiallarini hayotiy holatlar bilan bog'lash va ta'lim jarayonini real muammolarni hal qilishga yo'naltirish imkoniyatlarini ta'minlaydi. Shu sababli, bo'lajak geografiya o'qituvchilarining loyihalash kompetentligini rivojlantirish nafaqat dolzarb masala, balki ta'lim jarayonining innovatsion rivojlanishining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa. Loyihalash kompetentligini rivojlantirish yo'lida bir qator muammolar mavjud bo'lib, ularga nazariy va amaliy bilimlarning yetarlicha uyg'unlashmaganligi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarining yetishmovchiligi hamda innovatsion pedagogik yondashuvlarni ta'lim tizimiga to'laqonli integratsiya qilishdagi qiyinchiliklar kiradi [7]. Bo'lajak geografiya o'qituvchilarining loyihalash kompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning samarali amalga oshirilishi o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish va ta'lim jarayonining sifatini yangi bosqichga olib chiqish bilan chambarchas bog'liq. Ushbu muammolarni hal etish maqsadida ta'lim tizimida bir qator modernizatsiya ishlari olib borilishi zarur.

Birinchiidan, **ta'lim dasturlarini modernizatsiya qilish** va ularni zamonaviy pedagogik yondashuvlarga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilarni yangi metodikalar bilan tanishtirish, interfaol o'qitish texnologiyalarini joriy etish va loyihaviy ta'lim tamoyillariga asoslangan darslarni ishlab chiqish ushbu yo'nalishda asosiy qadamlardan biridir. O'quv dasturlarini yangilash orqali talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytirish, mustaqil izlanish va ijodiy yondashuvni rag'batlantirish mumkin.

Ikkinchiidan, **amaliy mashg'ulotlar va treninglar orqali o'qituvchilarning amaliy ko'nikmalarini oshirish** talab etiladi. Nazariy bilimlarning o'zlashtirilishi yetarli emas;

pedagoglar zamonaviy ta'lim usullaridan foydalana olish, o'quvchilarning qiziqishlarini oshirish va ularni mustaqil tadqiqot olib borishga yo'naltira bilish qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak. Shu maqsadda, metodik seminarlar, maxsus o'quv dasturlari va amaliy mashg'ulotlar tashkil etilishi lozim.

Uchinchidan, **raqamli va interaktiv texnologiyalardan foydalanish madaniyatini shakllantirish** zamonaviy geografiya o'qituvchisining kasbiy rivojlanishida asosiy omillardan biridir. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan pedagogik faoliyatda zamonaviy vositalardan foydalanish o'qitish jarayonining sifatini oshirish imkonini beradi. Virtual xaritalar, geografik axborot tizimlari (GAT), masofaviy ta'lim platformalari va interaktiv vizualizatsiya vositalari o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Shu sababli, bo'lajak o'qituvchilarni ushbu texnologiyalardan foydalanishga o'rgatish ham dolzarb vazifalardan biridir.

To'rtinchidan, **o'qituvchilarning ilmiy-tadqiqot va loyihaviy faoliyatga jalb etilishi** ularning kasbiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot bilan shug'ullanuvchi pedagog o'z sohasidagi eng yangi ilmiy natijalardan xabardor bo'ladi, innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqadi va o'quvchilarga ilmiy tadqiqot olib borish metodologiyasini o'rgata oladi. Shu sababli, pedagoglarni ilmiy konferensiyalar, seminarlar va ilmiy loyihalarga faol jalb etish muhim hisoblanadi.

Beshinchidan, **o'qituvchilarga metodik va ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatish** ularning kasbiy o'sishiga ko'mak beradi. Bu jarayonda ta'lim muassasalari tomonidan turli qo'llanmalar, ilmiy adabiyotlar, innovatsion metodika bo'yicha tavsiyalar taqdim etilishi kerak. Shuningdek, pedagoglarning tajriba almashish imkoniyatlarini kengaytirish, mentorlik dasturlarini yo'lga qo'yish va professor-o'qituvchilarning malakasini oshirishga qaratilgan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Bo'lajak geografiya o'qituvchilarining loyihalash kompetentligini rivojlantirish samarali ta'lim jarayonini tashkil etish, o'quvchilarning geografik tafakkurini rivojlantirish va ularning mustaqil tadqiqot olib borish qobiliyatlarini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi nafaqat o'qituvchining kasbiy mahoratini oshirish, balki umuman olganda ta'lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi. Shu bois, loyiha usulini keng qo'llash, pedagoglarning kasbiy va innovatsion yondashuvlarini qo'llab-quvvatlash ta'lim tizimining strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Qo'ldasheva M.N. Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" fanini o'qitishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish. – T.: 2020. – B. 146.
2. Qurboniyozov R. "Geografiya o'qitish metodikasi". – Urganch "Xorazm" 2001.
3. Mavlonov A. va boshqalar. O'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda ta'lim texnologiyalari. – T.: "Tafakkur bo'stoni", 2013. – 142 b.
4. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., /Innovation ta'lim texnologiyalari To'raev A.B. – T.: Sano standart, 2015. – B.58
5. Norboev A.Uzluksiz geografiya ta'limining sifat va samaradorligini oshirish texnologiyasi. Monografiya. – Toshkent. 2016. – B. 6-12.
6. Ilmurodova F. PEDAGOGICAL AND METHODOLOGICAL ASPECTS IN PREPARING FUTURE HISTORY TEACHERS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY // Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2025. – T. 6. – №. 01. – C. 99-107.

7. Илмуродова Ф. Ш. Бўлажак тарих ўқитувчиларини замонавий шароитда тайёрлашнинг услубий жиҳатлари / Academic research in educational sciences. – 2024. – Т. 5. – №. 6. – С. 5-10.
8. Shokirovna I. F. World of Science: Journal on Modern Research Methodologies. – 2023.
9. Tojiev M, Alimov A.Ya., Qo'chqorov D.U. Pedagogik texnologiya-ta'lim jarayoniga tatbig'i: o'quv mashg'ulotlarining loyihasi. I qism. – T.: Tafakkur, 2010. – B. 148
10. Xayitov A.S. Maktab tabiiy geografiya kurslarida geoekologik bilimlar tizimi va ta'limining metodik asoslari. Dissertasiya. – T.: 1998. – 163 b.

Received: 10 March 2025

Accepted: 15 March 2025

Published: 25 March 2025

Article / Original Paper

DEVELOPMENT OF RESEARCH COMPETENCE OF MASTER'S STUDENTS IN HISTORY: HISTORY AND MODERNITY

Kurbanov Olim Esirgapovich

Researcher at Chirchiq State Pedagogical University

Abstract. This article analyzes the processes of developing and improving research skills among master's students specializing in history. It covers methods for enhancing research competencies, mastering research methodologies, analyzing historical sources, developing critical thinking, and utilizing modern technologies in research activities.

Keywords: history, master's program, research skills, methodology, source analysis, innovative technologies.

TARIX FANI MUTAXASSISLIGI MAGISTRATURA TALABALARINING TADQIQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH: TARIX VA ZAMONAVIYLIK

Kurbanov Olim Esirgapovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarix fani mutaxassisligi bo'yicha magistratura bosqichida ta'lim olayotgan talabalar uchun ilmiy tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari tahlil qilinadi. Tarix fani mutaxassisligi bo'yicha magistratura talabalari uchun ilmiy tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish va tadqiqotchilik metodlarini o'zlashtirish, tarixiy manbalarni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish usullari yoritiladi.

Kalit so'zlar: tarix fani, magistratura, tadqiqotchilik ko'nikmalari, metodologiya, manbaviy tahlil, innovatsion texnologiyalar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N45>

Kirish. Bugungi kunda ilm-fan va ta'lim tizimining rivojlanishi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tarix fani bo'yicha mutaxassislikka yo'naltirilgan magistratura talabalari uchun ilmiy tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ilm-fan va ta'lim tizimi jadal rivojlanib borayotgan davrda magistratura talabalari uchun tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Tarix fani mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun ilmiy tadqiqotchilikni rivojlantirish ularning kasbiy malakasini oshirish bilan birga, ilmiy merosni chuqur o'rganish imkoniyatini ham ta'minlaydi. Ushbu maqolada magistratura bosqichida tarixiy tadqiqotchilik ko'nikmalarini takomillashtirish yo'llari va usullari ko'rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili va ilmiy asos. Mazkur maqolada foydalanilgan adabiyotlar tarixiy tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha keng qamrovli ilmiy asos yaratishga

qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasining turli jihatlarini o'rganilgan bo'lib, muhim yo'nalishlar ajratib ko'rsatilgan.

Tadqiqotchilik qobiliyatlarining shakllanishi N. M. Yakovleva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda tadqiqotchilik ko'nikmalari umumiy va maxsus jihatlariga ajratilgan bo'lib, talabalar tadqiqotchilik faoliyatini o'rganish bosqichlari belgilangan [1]. M.A. Oleynikova tadqiqotida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish va bu yo'nalishdagi metodik yondashuvlarning tahliliga alohida e'tibor qaratilgan [2]. K. K. Platonov o'z asarlarida tadqiqotchilik qobiliyatlarini shaxsiy motivatsiya va bilimlarning yuqori darajada integratsiyalashuvi sifatida tasniflagan [3]. Ushbu tasnif tarixiy tadqiqot olib borish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodlari va ularning amaliy qo'llanilishi J. Smith o'zining asarida tarixiy tadqiqot usullarini o'rganib chiqib, hujjatlar, yozma manbalar va statistik materiallarni o'zaro solishtirish orqali tadqiqot olib borish zarurligini ta'kidlaydi [4]. T. Brown tomonidan yozilgan manbada esa tarixiy dalillarning qanchalik ishonchli ekanligini tahlil qilish usullari yoritilgan [5].

Tarixiy manbalarni o'rganish va ularni solishtirish metodlari T. E. Klimova ilmiy tadqiqot madaniyatini shakllantirish muammolarini o'rganib, talabalarining tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishda ilmiy seminar va amaliy mashg'ulotlarning o'rnini muhim ekanligini ko'rsatgan [8]. S.I. Brizgalova esa pedagogik tadqiqotga tayyorlash jarayonida o'quv jarayonining bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerakligini ta'kidlagan [7].

Magistratura bosqichida tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish usullari F. Ilmurodova tomonidan olib borilgan tadqiqotlar magistratura talabalari uchun tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish muhimligini ko'rsatgan [9]. U o'z tadqiqotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ilmiy tadqiqot metodlarini integratsiyalashgan holda qo'llash muhimligini ta'kidlagan.

Zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirishda texnologiyalarning o'rnini katta. JSTOR, Google Scholar, Cambridge University Press kabi ilmiy bazalar orqali akademik ma'lumotlarni izlash va tahlil qilish tadqiqotchilik natijalarini ancha yaxshilaydi. L.F. Avdeeva o'z tadqiqotlarida tadqiqotchilik faoliyatida innovatsion texnologiyalarni qo'llashning samaradorlik jihatlarini tahlil qilgan [6].

Mazkur adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tarixiy tadqiqot olib borishda metodologik yondashuvlarning to'g'ri qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, zamonaviy ilmiy usullar va texnologiyalardan foydalangan holda tadqiqot olib borish natijadorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, magistratura talabalari uchun tadqiqotchilik qobiliyatlarini shakllantirish faqat nazariy bilim bilan cheklanmasligi, balki amaliy tadqiqot ishlari bilan qo'llab-quvvatlanishi lozim

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda tarix fanini o'rganayotgan magistratura talabalarining tadqiqot kompetensiyasini shakllantirish metodologiyasi tizimli va kompleks yondashuv asosida ishlab chiqilgan. Quyida tadqiqot metodologiyasining asosiy jihatlarini keltiriladi:

manbalarni izlash va tasniflash – tadqiqotda birlamchi (hujjatlar, arxiv materiallari, memuarlar) va ikkilamchi (monografiyalar, maqolalar, tarixiy tahlillar) manbalardan foydalanish orqali tarixiy tahlil amalga oshirilgan.

tarixiy tahlil va qiyosiy usul – tadqiqot davomida turli tarixiy hujjatlar o‘zaro solishtirilgan, dalillar ishonchlilik nuqtai nazaridan baholangan;

tanqidiy tahlil va dalillarning ishonchligini baholash – tarixiy hujjatlar va ilmiy manbalar mazmuni tanqidiy baholanib, ularning subyektiv yoki obyektivligini aniqlashga alohida e‘tibor qaratilgan;

ilmiy va metodologik yondashuvlar – tadqiqotda pedagogik metodlar bilan bir qatorda tarixiy manbalarni tizimli o‘rganish, ularni ilmiy va manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish usullari qo‘llangan. Magistratura talabalari uchun tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda metodik treninglar va amaliyot mashg‘ulotlari muhimligini ilmiy manbalar tasdiqlaydi;

tahlil va natijalarni qiyosiy baholash – ushbu tadqiqotda tarixiy tadqiqotlar kompetensiyasini shakllantirish bo‘yicha turli yondashuvlar taqqoslangan va samaradorlik mezonlari asosida baholangan. Umuman olganda tadqiqot metodologiyasi tarixiy tadqiqotlar olib borishda zamonaviy va an‘anaviy usullarni uyg‘unlashtirgan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, magistratura talabalari uchun eng samarali usullarni aniqlashga qaratilgan.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi bir qancha omillarga bog‘liq. Ilmiy izlanish olib boruvchi shaxs, xususan, tarixiy tadqiqotlar bilan shug‘ullanuvchi magistrantlar, metodologik asoslarni puxta egallashlari, tarixiy manbalar bilan ishlash bo‘yicha chuqur tahliliy yondashuvga ega bo‘lishlari zarur. Tadqiqot jarayonida asosiy va ikkilamchi manbalar ustida ishlash, ularni o‘zaro taqqoslash, natijalarni ilmiy yondashuv asosida tahlil qilish katta ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilik jarayonida metodologiyaning to‘g‘ri tanlanishi va qo‘llanilishi natijadorlikka bevosita ta‘sir qiladi. Tarixiy tadqiqot olib borayotgan shaxs bir qator asosiy metodologik bosqichlarni o‘zlashtirishi lozim.

1. Manbalarni izlash va tasniflash – ilmiy tadqiqot natijalari ishonchli bo‘lishi uchun tadqiqotchi birlamchi va ikkilamchi manbalarni aniqlash va ularni tegishli tasnif bo‘yicha ajratish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur. Birlamchi manbalar (rivojlanayotgan voqealar to‘g‘risidagi hujjatlar, arxiv materiallari, xronikalar) va ikkilamchi manbalar (tarixiy tadqiqotlar, maqolalar, sharhlar) o‘zaro bog‘liq ravishda ko‘rib chiqilishi lozim.

2. Manbalarni tahlil qilish – Tadqiqotchi har qanday tarixiy manbani baholashda tanqidiy yondashishi lozim. Bu jarayonda: manbaning ishonchligi va subyektivligi baholanadi; dalillar orasidagi ziddiyatlar tahlil qilinadi; manbalar o‘zaro solishtiriladi va tasdiqlovchi omillar izlanadi. Keyingisi esa, tanqidiy fikrlashni shakllantirish – tadqiqotchi tarixiy voqealarni o‘rganish jarayonida ularni faqat mavjud dalillarga asoslangan holda tushunishi va xolis xulosalar chiqara olishi lozim. Tanqidiy fikrlash quyidagilarni o‘z ichiga oladi: har qanday manbani shubha ostida ko‘rib chiqish; fikr va dalillarni tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi dalillarni qidirish; tadqiqot natijalarini xolis baholash va asosli ilmiy xulosalar chiqarish.

3. Zamonaviy ilm-fan va ta‘lim tizimining rivojlanishi sharoitida ilmiy tadqiqotchilik samaradorligini oshirish uchun raqamli texnologiyalardan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalar yordamida tadqiqotchilar ilmiy manbalarni izlash, ularni tahlil qilish va natijalarni qayta ishlash jarayonlarini tezlashtirib, ilmiy tadqiqotlarning sifati va aniqligini oshiradi[9]. Ilmiy tadqiqotchilik faoliyatida samarali ishlatiladigan asosiy vositalarni bir nechta guruhlarga ajratish mumkin.

4. Ilmiy ma'lumotlarga tezkor va ishonchli kirish imkoniyatini yaratish maqsadida zamonaviy elektron kutubxonalar va ilmiy ma'lumotlar bazalaridan foydalanish zarur. Ushbu bazalar orqali turli xil akademik maqolalar, dissertatsiyalar va ilmiy tadqiqot materiallari bilan tanishish mumkin. Eng mashhur ilmiy ma'lumotlar bazalariga quyidagilar kiradi:

JSTOR – tarix, ijtimoiy fanlar va san'at sohalarida keng qamrovli ilmiy maqolalar arxivini taqdim etuvchi platforma;

Google Scholar – dunyo miqyosidagi ilmiy maqolalar, konferensiya materiallari va dissertatsiyalarni qamrab olgan ochiq ilmiy qidiruv tizimi;

Springer – fan va texnologiya yo'nalishidagi eng nufuzli ilmiy nashriyotlardan biri bo'lib, ko'plab maqolalar va kitoblarni o'z ichiga oladi;

Elsevier ScienceDirect – tabiiy fanlar, texnologiya, tibbiyot va muhandislik sohalaridagi eng yirik ilmiy resurslardan biri va hokazo.

Ushbu platformalar tadqiqotchilarga ilmiy manbalarni qulay izlash, tegishli tadqiqotlarni taqqoslash va yangi ilmiy ishlanmalardan xabardor bo'lish imkonini beradi.

5. Tadqiqot jarayonida turli xil ilmiy manbalar bilan ishlash, ularni saqlash va tartibga solish katta ahamiyatga ega. Manbalarni tizimlashtirish dasturlari tadqiqotchilarga quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

Zotero – ilmiy manbalarni avtomatik ravishda saqlash, kataloglash va manba havolalarini yaratish imkonini beruvchi ochiq kodli dastur;

Mendeley – ilmiy maqolalar va kitoblar bilan ishlash uchun qulay platforma bo'lib, tadqiqotchilarga o'z izlanishlarini samarali boshqarish imkonini beradi;

EndNote – ilmiy adabiyotlar va bibliografiyani tizimli yuritish, iqtiboslarni to'g'ri kiritish va manbalarni guruhlash imkonini beruvchi dasturiy vosita va b.

Ushbu dasturlar tadqiqot materiallarini tartiblash va ilmiy yozuvlarni boshqarish jarayonida tadqiqotchilarga katta yordam beradi.

6. Tarixiy tadqiqotlar va hujjatlarni chuqur tahlil qilish uchun maxsus matn va hujjat tahlili dasturlaridan foydalanish muhimdir. Ushbu dasturlar tarixiy manbalarni chuqur o'rganish va ulardan ilmiy xulosalar chiqarish jarayonini yengillashtiradi. Eng ko'p qo'llaniladigan dasturlar quyidagilar:

NVivo – sifat tahlil metodlariga asoslangan bo'lib, katta hajmdagi matnlarni kodlash, tahlil qilish va vizualizatsiya qilish imkonini beradi;

Atlas.ti – tarixiy hujjatlar va matnlarni tahlil qilish uchun mo'ljallangan dastur bo'lib, tadqiqotchi uchun muhim bo'lgan asosiy ma'lumotlarni ajratib olishga yordam beradi;

AntConc – matnlarning tilshunoslik jihatidan tahlil qilinishi uchun ishlatiladigan dastur bo'lib, tadqiqotchilarga tarixiy hujjatlar va yozuvlarni semantik jihatdan tekshirish imkonini beradi;

Ushbu texnologiyalar yordamida tadqiqotchilar matnli hujjatlarni avtomatik ravishda tahlil qilish va ulardan ilmiy xulosalar chiqarish jarayonini soddalashtiradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, raqamli texnologiyalar ilmiy tadqiqotchilik samaradorligini oshirishda muhim vosita bo'lib, ilmiy ma'lumotlarni izlash, tizimlashtirish, tahlil qilish va natijalarni vizualizatsiya qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Zamonaviy ilmiy ma'lumotlar bazalaridan foydalanish tadqiqotchilarga ishonchli ilmiy resurslarga tezkor kirish imkonini bersa, manbalarni tizimlashtirish dasturlari ilmiy materiallarni tartibga solish va bibliografiyani yuritishda samarali yordam beradi. Shuningdek, matn va hujjat tahlili vositalari

tadqiqotchilarga tarixiy hujjatlarni batafsil o'rganish, statistik tahlil dasturlari esa ilmiy natijalarni raqamli ko'rinishda ifodalash imkonini beradi. Shu sababli, magistratura bosqichida ta'lim olayotgan tarix fani mutaxassisleri ilmiy tadqiqotchilik faoliyatida zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanishlari, ilmiy izlanishlar samaradorligini oshirish va tadqiqot natijalarini ilmiy jamoatchilik uchun aniq va ishonchli tarzda taqdim etishlari lozim.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Яковлева Н.М. Формирование исследовательских умений у студентов педагогического вуза: дис. ... канд. пед. наук. – Челябинск, 1977. – 192 с.
2. Олейникова М.А. Формирование исследовательских умений у будущих учителей начальных классов: автореф. дис. ... канд. пед. наук. – М., 2002. – 16 с.
3. Платонов К.К. Выдающийся отечественный психолог XX века: материалы юбилейной научной конференции, посвященной 100-летию со дня рождения К. К. Платонова (22 июня 2006 г.) / Отв. ред.: А. Л. Журавлев, В. А. Кольцова, Т. И. Артемьева. – Москва: Институт психологии РАН, 2007. – 268 с.
4. Smith J. *Historical Research Methods*. Oxford University Press, 2019.
5. Brown T. *Analyzing Historical Sources: A Comparative Approach*. Cambridge University Press, 2021.
6. Авдеева Л.Ф. Психолого-педагогические факторы успешности научно-исследовательской работы студентов: дис. ... канд. пед. наук. – 1984. – 234 с.
7. Бризгалова С.И. Формирование в вузе готовности учителя к педагогическому исследованию: теория и практика. – Калининград: КГУ, 2004. – 344 с.
8. Климова Т.Е. Развитие научно-исследовательской культуры учителя: дис. ... канд. пед. наук. – Челябинск, 2001. – 322 с.
9. Ilmurodova F. *PEDAGOGICAL AND METHODOLOGICAL ASPECTS IN PREPARING FUTURE HISTORY TEACHERS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY // Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*. – 2025. – Т. 6. – №. 01. – С. 99-107.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/2 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).